O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
Z.M.BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbek filologiyasi fakulteti
dekani_____
f.f.d. Quronov D.X
2013 yil 28 avgust

Filologiyasi fakulteti

O‘zbek adabiyoti kafedrasi

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARIXI
fanidan

MARUZA MATNI

Bilim sohasi: - 100000 - Gumanitar soha
Ta’lim sohasi: -120000 - Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi: - 5120100 - Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

Tuzuvchilar: dots. B. Jalilov
Katta o‘qit. Z. Mamajonov
Assistent Z. Eshanova

ANDIJON

MUNDARIJA

Kirish

1. O‘quv dasturi…….
2. Ishchi dastur…….
3. Ta’lim texnologiyasi……..
4. Masalalar va mashqlar (bad. Matn) to‘plami..... .
5. Testlar.....
6. Nazorat uchun savollar j/n o/n ya/n.....
7. Umumiy savollar..... .
8. Tarqatma materiallar.....
9. Glossariy.....
10. Referat mavzular.....
11. Adabiyotlar ro‘yxati.....
12. Tayanch konspekt.....
13. O‘quv materiallari. Ma’ruza matnlari. O‘quv qo‘llanmalari.....
14. Xorijiy manbalar.....
15. Kurs ishlari. Mustaqil ishlar.....
16. Annotatsiya (Taqriz).....
17. Mualliflar haqida ma’lumot.....
18. Foydali maslahatlar.....
19. Normativ hujjatlar.....
20. Baholash mezoni.....

K I R I SH

Talabalarga bilim brishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining axamiyati to‘g‘risida so‘z borganda Prezidentimiz I.A.Karimovning «O‘quv jarayoniga yangi axbrot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik kursatadigan ukituvchi va domlalarga e’tiborimizni yanada oshirish, kiskacha aytganda, ta’lim-tarbiya tizimini sifat jixatidan butunlay Yangi bosqichga kutarish dikkatimiz markazida bulishi darkor»[1] degan So‘zlarini ta’kidlash urinlidir. Bu masala « Barkamol avlod yili» Davlat dasturida ham asosiy yunalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan.

Qo‘llanmada keltirilgan ta’lim texnologiyalarining har biri uzida o‘quv mashg‘ulotini o‘tkazish shart-sharoiti to‘g‘risida axborot materiallarini, pedagogik maqsad, vazifa va kuzlangan natijalarni, o‘quv mashg‘ulotining rejasi, o‘qitishning usul va vositalarini mujassamlashtirgan. Shuningdek, bu o‘quv mashg‘ulotining texnologik kartasini , ya’ni ukituvchi va talabaning mazkur o‘quv mashg‘ulotida erishadigan maqsadi bo‘yicha xamkorlikdagi faoliyatini bosqichma-bosqich ta’riflanishini xam uz ichiga oladi.

Qo‘llanma tarkibi kirish, ta’lim texnologiyasining konseptual asoslari, xar bir mavzu bo‘yicha ma’ruza xamda amaliy va seminar mashg‘ulotlarida o‘qitish texnologiyasidan iborat. Ma’lumotlar maksimal darajada umumlashtirilgan va tartibga solingan. Ularni o’zlashtirish va yodda saqlab qolishni kuchaytirish uchun jadval va chizmalardan foydalanilgan.

Qo‘llanmaning konseptual asoslari kismida dastlab « Uzbek mumtoz adabiyoti tarixi » fanining dolzarbligi va axamiyati, mazkur o‘quv fanining tarkibiy tuzilishi, o‘qitishning usul va vositalarini tanlashda tayanilgan konseptual fikrlar, kommunikatsiyalar, axborotlar berilib, so‘ngra loyihalashtirilgan, o‘qitish texnologiyalari takdim etilgan.

To‘qqiz turdagi ma’ruza mashg‘ulotlari: kirish, tematik, muammoli, vizual ma’ruza, binar ma’ruza, ma’ruza-munozara, xamkorlikdagi ma’ruza, avvaldan rejalashtirilgan xatoli ma’ruza, sharrhlovchi ma’ruza berilgan.

Muammoli seminar va amaliy mashg‘ulotlar, bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga yo‘naltirilgan seminar, aniq holatlarning yechimi bo‘yicha seminar va amaliy mashg‘ulotlar utish texnologiyalari mavjud.

Innovatsion va zamonaviy pedagogik goyalarni amalga oshirishda, jahon tajribasidan ko`rinib turibdiki, o`qituvchi bilim olishning yagona manbai bulib kolishi kerak emas, balki talabalar mustaqil ishlash jarayonining menejeri bo`lishi lozim. Ta’lim texnologiyasini ishlab chiqish asosida aynan shu g`oyalar yotadi.

[1] Ўзбекистон Конституцияси – биз учун демократик тараққиёт йўлида ва фуқаролик жамиятини барпо этишда мустаҳкам пойдевордир. – Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 17 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси // Халк сўзи, 2009 йил 6 декабрь.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Рўйхатга олинди

№БД5120100-3.07

2012 йил "14" 03

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 2012 йил "14" март даги 104 сонли буйруғи билан тасдиқланган

ЎЗБЕК МУМТОЗ АДАБИЁТИ ТАРИХИ

фанининг

ЎҚУВ ДАСТУРИ

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Toshkent – 2012

Fanning o‘quv dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2012 yil “6” 03 dagi “1” -son majlis bayoni bilan ma’qullangan.

Fanning o‘quv dasturi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Boltaboev H.	-	O‘zbek mumtoz adabiyoti kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor
Adizova I.	-	O‘zbek mumtoz adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
Yusupova D.	-	O‘zbek mumtoz adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Hasanov S.	-	O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi direktori, filologiya fanlari doktori, professor
Mullaxo‘jaeva K.	-	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O‘zbek adabiyoti kafedrasi mudiri, filologiya afnlari nomzodi, dotsent

Fanning o‘quv dasturi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ilmiy-metodik kengashida tavsiya qilingan (2011 yil “25” 10 dagi “2” -sonli bayonnoma).

Kirish

Mazkur dastur “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fanining dolzarb muammmolari, adabiy-madaniy muhit haqidagi qarashlar va ularga munosabat, tarixiy–adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligi kabi masalalar to‘g‘risida ma’lumot beradi.

O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

Talaba yoshlarni xalqning boy ma’naviy merosga suyangan holda ajdodlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Adabiy-badiiy manbalarni, mumtoz adabiyot namunalarini o‘rgatish, o‘zlashtirish orqali ularning dunyoqarashini kengaytirish, tafakkur ko‘lamini yuksaltirish, komil ma’naviyatni shakllantirish nazarda tutilgan.

Mazkur fan oldiga quyidagi vazifalar qo‘yilgan:

- O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli suratda tanishtirish;
- noyob adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs rivojidagi ahamiyatini tushuntirish;
- talabalarda badiiy asar mohiyatini chuqur yanglash, ularni tahlil va talqin qilish ko‘nikmasini shakllantirish;
- mavjud matnlarni tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish;
- egallangan bilim va malakani xalq ma’naviyatini rivojlantirish yo‘lida amaliyotga tadbiq etishdan iborat.

Fan bo‘yicha talabalarning bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

Mustaqillik sharafati bilan mumtoz adabiy merosimizga munosabat yangilandi. Shunga ko‘ra, zamon talabi uni yanada chuqurroq tadqiq etish, falsafiy asoslarini teran anglash, baholashda poetik mahorat jihatidan yondashish, birlamchi manbalar vositasida asosli ilmiy xulosalar chiqarish, mavjud matnlarning yangicha talqinlarini havola etish, mustaqil qarashlar va fan sohasiga oid zamonaviy saboqlarni hayotga tadbiq etishdan iborat.

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

O‘zbek mumtoz adabiyoti fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, 1-4 - semestrlarda o‘qitiladi. Dasturda belgilangan mavzular ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va seminar shaklida olib boriladi. Fanning ayrim muhim muammolari va adabiy-badiiy asarlar talabalarga mustaqil o‘zlashtirish uchun tavsiya etiladi.

“O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi fani” falsafa, tarix, matnshunoslik va manbashunoslik, dinshunoslik fanlarida o‘rganiladigan muammolarning yaqinligi bilan bir-biriga bog‘langan.

Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni

Fan masalalarining ijtimoiy hayotdagi o‘rni “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va “Davlat ta’lim standartlari”da nazarda tutilgan, yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liqligi orqali belgilanadi. Bu mumtoz madaniyatimiz va qadriyatlarimizni anglash, o‘zlashtirish, ajdodolarimiz targ‘ib etgan, ma’naviy-axloqiy mezonlarni talabalar ruhiyatida ulg‘aytirish asosida amalga oshiriladi.

“Tarixsiz kelajak yo‘q” shiori Milliy mafkuraning asosini tashkil etadi. Adabiyot tarixi – xalq tarixi. Shunday ekan, O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixini o‘rganish yurt va millat kelajagini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu fan talabalarni inson ma’naviyatining umumbashariy muammolari bilan tanishtiradi. Ularda adabiyot, san’at namunalarini chuqur tushunish, tahlil va

tadqiq etish, baholash va tushuntira olish, hayotga tatbiq qilish malakasini hosil etishga ko‘maklashadi.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning O‘zbek mumtoz adabiyoti fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Mavzularni o‘tishda yangi pedagogik texnologiya usullaridan, turli zamonaviy ta’lim metodlaridan unumli foydalanish fanni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi. Bu borada dars jarayonida “Zakovat” o‘yinlaridan, “Munozarali dars”lardan keng foydalanish yaxshi natija beradi. Internetdagi ziyonet va www.literature.uz saytlaridan foydalanish ham nazarda tutiladi.

Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, audiovizual vositalardan, hujjatli va badiiy filmlar, multimediya materiallarilardan, Adabiyot muzeyidagi ekspozitsiyalar va Qo‘lyozmalar fondlaridagi matn va manbalardan foydalaniladi.

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni

Adabiyot tarixini o‘rganishning metodologik asoslari va uni davrlashtirish tamoyillari. Adabiyot tarixi jamiyat tarixi tarkibida. Davrlashtirish tushunchasi, istilohlari va tamoyillari. Adabiy-badiiy hodisalar davrlashtirishning bosh tamoyili sifatida. Mumtoz adabiyot tushunchasi va uning xususiyatlari. O‘zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot davrlari.

Islomga qadar yaratilgan adabiy yodgorliklar

(*Eng qadimgi davrlardan VIII asrgacha*)

Turonzamin qadimgi madaniy markazlardan biri sifatida. Qadimgi davrlardan eramizning VIII gacha Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar madaniyati, yozuvi va san’ati. Qadimgi shumer madaniyati va turkiy qavmlar tarixi. “Bilgamish” dostonining turk xalqlari eposiga munosabati.

Eng qadimgi og‘zaki adabiy yodgorliklar. Ularning asosiy manbalari. Mif va afsonalar qadimgi hayot aksi, tabiat haqidagi tasavvurlarining badiiy ifodasi ekanligi. Mif va afsonalarda badiiy xayolotning o‘rni. Xitoy manbalarida Markaziy Osiyo xalqlariga doir ma’lumotlar.

Qahramonlik eposi. Markaziy Osiyo eposlar vatani ekanligi. Sharq epik adabiyotining mashhur qahramonlari. Qadimgi qahramonlik eposining yunon manbalari orqali yetib kelgan namunalari: «To‘maris», «Shiroq». Xalq qissalari haqida ma’lumot. Iskandar to‘g‘risidagi qissalar.

Uyg‘ur yozuvidagi yodgorliklar. «Devonu lug‘atit turk» asari orqali bizgacha yetib kelgan badiiyat namunalari. Alp Erto‘nga marsiyasi. Qadimgi afsona va qo‘shiqlar poetikasi. «Devonu lug‘otit turk»da munozara janrining ilk ildizlari. «Devon»dagi xalq maqollari poetikasi.

Qadimgi turk moniylik adabiyoti. Moniy va uning ta’limoti xususiyatlari. Moniylik - zardushtiylikning mahsuli sifatida. Moniylik she’rlarining mavzui. «Xuastuanift» (Moniylarning tavbanomasi) asarining o‘ziga xos xususiyatlari.

Budda mazmunidagi turkiy adabiyot. Markaziy Osiyoda buddaviylikning xos xususiyatlari. «Oltun yoruq», «Shahzoda va bars» afsonalari.

Yozma yodgorliklar

Qadimgi yodgorliklarning yozuv xususiyatlari. Ieroglifik va piktografik yozuvlar. Mixxatlar va runiy yozuvdagi ilk manbalar.

«Avesto» yodgorligi (er.av.VII asr) zardushtiylikning muqaddas kitobi ekanligi. «Avesto» qadimgi mif va afsonalar majmui sifatida. Zardusht shaxsi haqidagi ma'lumotlar. Uning tarkibiy tuzilishi. Asosiy qism va Zandlar. «Avesto»ning ilmiy-tarixiy qimmati. «Avesto»ning o'rganilishi tarixidan. «Avesto» adabiy manba sifatida. Asardagi yetakchi qahramonlar va timsollar. "Avesto"ning badiiy xususiyatlariga doir.

O'rxun-Enasoy obidalari (VI-VIII asrlar) adabiy manba sifatida. Yodgorliklarning yaratilish tarixi va tarqalish o'rni. Ularning kashf etilishiga oid ma'lumotlar. *Bilka Qoon yodgorligi*da Vatan dahlsizligi uchun kurashning aks etganligi. *Kul Tegin yodgorligi.* O'rxun-Enasoy toshbitiklari adabiy manba sifatida. Toshbitiklarning til xususiyatlari, adabiy qimmati. O'rxun-Enasoy yodgorliklarining janr xususiyatlari: tarixiy-qahramonlik dostonlari, qo'shiq va yig'i janrlari. Toshbitiklar va turkiy xalqlar xalq og'zaki ijodi o'rtasidagi munosabat. O'rxun-Enasoy yodgorliklarida mifologik tasavvurlar. *To'nyuquq bitigi.* Unda shaxs va millat erki, *Irq bitig* (Ta'birnoma) adabiy manba sifatida.

Islomiy ruhdagi adabiyot

(IX-XIV asrning I yarmi)

IX-X asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot. Islom dinining kirib kelishi. Islomiy adabiyot va uning umumturk adabiyotiga ta'siri. Qur'oni karimning nozil bo'lishi va tavhid e'tiqodi. Payg'ambarlik tarixi va Muhammad Payg'ambar hayoti. Ibn Qutayba harakati va Markaziy Osiyoda turk-islom davlatlarining vujudga kelishi.

Hadis to'plash an'anasi va turkistonlik buyuk muhaddislarning roli. Imom Buxoriy va at-Termiziy. *«Al-jome'u-s-sahih»* va «Shamoyili Muhammadiyya» asarlari. IX-X asrlarda arab tilining madaniy hayotga faol aralashuvi.

Islom madaniyatining shakllanishi va musulmon intibohi (renesansi). Somoniylar, saljuqlilar, g'aznaviylar va qoraxonlilar davrida islomiy madaniyat. Arab tilidagi adabiyot. Markaziy Osiyo buyuk islom allomalari vatani: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino asarlarida adabiyot masalalari. Badiiy asarlar va tazkirachilik. *Abu Mansur as-Solibiy* va uning *«Yatimatu-t-dahr»* asari. Chag'oniyon adabiy muhiti.

Qoraxonlilar davrida turk madaniyatining taraqqiyoti. Bolasog'un va Qashg'ardagi madaniy hayot. Turk tilining yangi adabiy bosqichga ko'tarilishi. Turk dostonchilik maktabining vujudga kelishi. Badiiy asarlarda *Qur'oni karim va Hadisi sharif* sharhlari.

Turkistonda tasavvufning vujudga kelishi va tarqalishi. Tasavvuf tarixida irfon bosqichi. Ibrohim Adham, Shaqiq Balxiy va Imom G'azzoliy asarlari. Ilk turk mutasavviflari ijodi. Yassaviylik tariqati va uning adabiy manbalari. Kubraviyya tariqati va bu tariqatning badiiy ijodda aks etishi.

Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari. "Qutadg'u bilig" hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar. Dostonda axloqiy va estetik qarashlar. Doston janrlari: masnaviy, qasida, to'rtlik va g'azal unsurlari. Asarning ahamiyati.

Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining manbalari. Adib Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. "Hibatu-l-haqoyiq" asari. Asar mavzui va tarkibi. Hadislar asosida badiiy asar yaratish an'anasi. Asarning badiiy xususitlari.

Xoja Ahmad Yassaviy ijodi. Turkiy she'riyatda hikmat janrining shakllanishi. "Devoni hikmat" asari va uning tarkibi. Yassaviy izdoshlari. Sulaymon Boqirg'oniy asarlari. "Boqirg'on kitobi" mundarijasi.

Chingizxon istilosi davri adabiyoti

Mo'g'ullar istilosi davrida madaniy hayot. "Chig'atoy hududi" va undagi adabiy hayot. Muhojirlikda turk va fors tillaridagi adabiyot. Badriddin Chochiy va Muhammad Avfiy Buxoriy ijodi. Og'zaki va yozma adabiyot munosabati. "O'g'uznoma" dostoni. "O'g'uznoma"da qadimgi turkiy mifologiyaning aks etganligi. Dostonda skiflar madaniyatiga oid unsurlar. Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning "Jome'u-t-tavorix" asarida afsona va rivoyatlar.

Xorazm adabiy muhiti. Anushtegin xorazmshohiylar davrida adabiy muhit. Rashididdin Vatvot va uning asarlari. “Hadoyiqu-s-sehr”da mumtoz poetika masalalari. Pahlavon Mahmud ruboiylari.

Nosiriddin Rabg‘uziy hayoti va ijodining manbalari. Adib ijodining o‘rganilish tarixidan. Payg‘ambarlar tarixi asosida yaratilgan asarlar. “Qisasi Rabg‘uziy” (“Qisasu-l-anbiyo”) asarining tarkibi. Asar tarkibidagi hikoya va mumtoz she’riy janrlar.

Oltin O‘rda adabiy muhiti. Adabiy muhitda dostonchilik an’analarining davom ettirilishi. Qul Ali va “Qissayi Yusuf” dostoni. Sayfi Saroyi ijodi. Shoir lirikasining mundarijasi va badiiy xususiyatlari. “Suhayl va Guldursin” dostoni. “Gulistoni bit turki” asarining Sa’diyning “Guliston”iga munosabati. Ma’rifiy-ta’limiy adabiyot. *Mahmud ibn Ali* va *“Nahju-l-farodis»* asari.

Haydar Xorazmiy ijodi. Shoir hayoti va ijodining manbalari. “Maxzanu-l-asror” dostoni va Nizomiy ijodiga munosabat. Dostonning kompozitsion qurilishi va syujeti.

Temuriylar davri adabiyoti

Temuriylar davrida madaniy hayot. Samarqand, Hirot shaharlarining madaniy markazga aylanishi. Tarixnavislik. Sharafiddin Ali Yazdiy va Sharafiddin Shomiy asarlari. Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla’u-s-sa’dayn” asarida adabiyotshunoslik masalalari. “Temur tuzuklari” asarida davlatchilik va boshqaruv masalalari.

Tasavvuf adabiyotining yangi yuqori bosqichga ko‘tarilishi. Naqshbandiylik va badiiy ijod masalalari. Adabiyotshunoslikka oid risola va tazkiralar. Davlatshoh va uning “Tazkiratu-sh-shuaro” asari. Atoulloh Husayniy va uning “Badoyi’u-s-sanoyi’” asari.

Fors tilidagi adabiyot. Nizomiy, Dehlaviy, Sa’diy va Hofiz asarlarining tarjimalari.

Noma janri va uning manbalari. Fors adabiyotidagi noma janriga munosabat. Xorazmiy va uning “Muhabbatnoma”si. Asar tarkibi va janr xususiyatlari. Xo‘jandiy va uning “Latofatnoma” asari.

Munozara janri. Munozara janrining manbalari. Yusuf Amiriy va uning “O‘q va yoy” asari.

“Yusuf va Zulayho” dostoni. Doston muallifligi masalasi. Badiiy adabiyotda “Qissayi Yusuf” syujeti. Doston syujetining fors adabiyotida ishlanishi.

Qutb hayoti va ijodining manbalari. “Xisrav va Shirin” dostonining yaratilish tarixi, nusxalari. Asar syujeti, voqealar silsilasi va asosiy qahramonlari.

Atoyi ijodiy merosining o‘rganilish tarixidan. Atoyining lirik merosi. Lirikasining mavzular ko‘lami va timsollar olami. Atoyi she’riyatida majoz va haqiqat.

Sakkokiy hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi. Adabiy merosi. Turkiy qasidachilik taraqqiyotida Sakkokiyning o‘rni. Sakkokiy lirikasining mavzulari va timsollar tizimi.

Gadoiy hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi. Gadoiyning ijodiy merosi. Gadoiy she’riyatining mavzulari, mundarijasi va janr xususiyatlari.

Sayyid Qosimiy ijodida ma’rifiy-ta’limiy dostonchilik an’analarining davom ettirilishi. “Majma’u-l–axbor” dostoni. Shoirning “Gulshani roz”, “Haqiqatnoma”, “Ilohiynoma” dostonlaridagi ijtimoiy–siyosiy va axloqiy-ta’limiy masalalar.

Lutfiyning ijodiy faoliyati. Lutfiy va Navoiy munosabatlari. Lutfiy lirikasi, janr xususiyatlari. Turkiy she’riyatda tuyuq janrining takomili. Lutfiy she’riyatida badiiy mahorat. Lutfiyga nisbat berilgan asarlar.

Husayniy lirikasining manbalari. Husayniy va Alisher Navoiy munosabatlariga doir. “Risola” asari va uning mundarijasi. Husayniy lirikasining badiiy xususiyatlari. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro haqida.

Alisher Navoiy va uning davri adabiyoti

Hayoti va ijodiy faoliyati. Shoir hayoti va ijodining manbalari. Navoiy haqida shoirning o‘z asarlaridagi ma’lumotlar. Xondamirning “Makorimu-l-axloq”, Husayn Voiz Koshifiyning

“Badoyi’u-l-vaqoe’” asarlari. Zamondoshlarining asarlarida, XVI-XIX asrlardagi tazkira, lug‘at, tarixiy va badiiy asarlarda keltirilgan ma’lumotlar.

Alisher Navoiy ijodining o‘rganilishi. Navoiyshunoslik tarixidan. XX asr o‘zbek navoiyshunosligi. Alisher Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o‘rganilishi. Navoiyshunoslik muammolari.

Alisher Navoiyning hasbi holi masalalari. Alisher Navoiy hayotini o‘rganish manbalari. Hayotiga doir muhim ma’lumotlar. Navoiyning ilmiy biografiyasini yaratish muammolari.

Alisher Navoiyning lirik merosi. Devonlari. Ilk devon. «Badoyi’u-l-bidoya» va “Navodiru-n-nihoya» devonlari. Debochada devon tartib berish masalalari.

“Xazoyinu-l-maoniy” – lirik qomus sifatida. “Xazoyinu-l-maoniy” kulliyotining yaratilish tarixi, tarkibiy tuzilishi. Kulliyotdagi janrlar tartibi. “G‘aroyibu-s-sig‘ar» devoni. Mavzular doirasi, g‘oyalar va timsollar tizimi. “Navodiru-sh-shabob» devoni. Tasavvufiy va ramziy timsollarning qo‘llanilishi. “Badoyi’u-l-vasat» devoni. Devon tarkibidagi asarlar badiiyati. «Favodi’u-l-kibar» devoni tarkibi. Aruz, qofiya va badiiy san’atlar jihatidan tahlil.

“Xazoyinu-l-maoniy” kulliyotidagi lirik janrlar tavsifi. G‘azal va mustazod janrlari. Musammatlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Tarkibband, tarji’band va masnaviy janrlari. Kulliyotdagi kichik lirik janrlar. Ruboiylar, tuyuqlar, fardlar.

*«Devoni Foniy»**ning janr xususiyatlari, mavzu doirasi. Devondagi g‘azallar talqini. «Fusuli arbaa»da to‘rt fasl talqini. “Sittai zaruriya” qasidalar majmuasi sifatida. Qasidalarda tasavvufiy timsollar va salaflarga munosabat masalasi.***

Ma’rifiy-ta’limiy asarlari. “Arba’in” va hadislarni she’rga solish an’anasi. “Nazmu-l-javohir” asaridagi Hazrat Ali hikmatlariga munosabat. Asardagi ruboiylar talqini. “Siroju-l-muslimin”da ta’limiy masalalar.

Xamsanavislik an’anasi va Alisher Navoiy “Xamsa”si. Xamsachilik tarixidan. Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviy “Xamsa”lari. Hirot adabiy muhitida xamsanavislik. Abdurahmon Jomiy “Xamsa”sining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Alisher Navoiy beshligi birinchi turkiy “Xamsa” sifatida.

“Hayratu-l-abror” dostonining yaratilish tarixi. Tarkibiy tuzilishi, syujet atrtibi va kompozitsiyasi, maqolat va hikoyatlar tahlili. Falsafiy va tasavvufiy talqinlar.

“Farhod va Shirin” dostonining yaratilish tarixi. Dostonning muxtasar mundarijasi va timsollar olami. Farhod – ilohiy ishq yo‘liga kirgan soliki majzub timsoli. Dostonning timsollar olami, ramziy timsollar. Dostonda tarixiylik va badiiylik. Doston badiiyati.

«Layli va Majnun» - pok va yuksak muhabbat ifodasi. Asardagi bosh qahramonlar hayoti. Dostonning g‘oyaviy mundarijasi, timsollar olami. Majnun – ilohiy ishq yo‘lidagi majzubi solik timsoli. Dostonning timsollar doirasi. Dostonning badiiy xususiyatlari.

“Sab’ai sayyor” dostonining muxtasar mundarijasi va timsollari. Hikoyatlar tahlili. Shoh Bahrom timsoliga xos fazilat va ziddiyatlar. Dilorom iste’dodli san’atkor, vafodor yor timsoli. Doston kompozitsiyasi. Asarning badiiy xususiyatlari.

«Saddi Iskandariy» falsafiy-ta’limiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy asar. “Saddi Iskandariy” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Dostonda adolat timsoli.

«Lisonu-t-tayr» falsafiy-tasavvufiy doston sifatida. Doston tarkibidagi hikoyatlar. Dostonda tasavvuf falsafasi va axloqiga munosabat. Dostonning ramziy timsollari olami. Simurg‘ – najot timsoli.

Alisher Navoiyning ilmiy merosi. **Adabiyotshunoslik, tilshunoslik asarlari. Tarixiy va yodnoma asarlari. Tilshunoslik asarlari. «Muhokamatu-l-lug‘atayn»da ikki til mubohasasi.** ***Arabcha izohli lug‘at «Sab’atu-l-abhur» asariga munosabat.***

Alisher Navoiy – adabiyotshunos. «Majolisu-n-nafois» tazkirasida shoirlar talqini. «Mezonu-l-avzon» aruz nazariyasiga bag‘ishlangan asar. “Mufradot”da muammo janriga doir masalalarning yoritilishi.

Nasriy asarlari. Yodnomalar va ularning mundarijasi. «Xamsatu-l-mutahayyirin» asarining mundarijasi. Asarda Jomiy timsoli. «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad» asarlari. Tarixiy shaxslar talqini.

«Mahbubu-l-qulub» asari. Tarkibiy tuzilishi: ijtimoiy tabaqalar, axloqiy masalalar, pand-hikmatlar. Asarning badiiy xususiyatlari.

XVI-XIX asrlar (I yarmi) adabiyoti

Davrning (XVI-XIX asr I yarmi) madaniy hayoti va adabiy-ilmiy muhiti. Siyosiy hayotdagi beqarorlik va sulolalar almashinuvi. Madaniy muassasalar va adabiy taraqqiyot. Adabiy hayotning o‘ziga xos xususiyatlari. Manbalar va ularni o‘rganish tamoyillari. Xonliklar markazlari adabiy muhit markazi sifatida. Tasavvuf ruhidagi adabiyot va adabiy-badiiy jarayon.

Adabiy hamkorlik va tarjima adabiyoti. Adabiyotda zullisonaynlik an’anasi. Muhojirlik adabiyoti. Abulqosim Kohiy, Bayramxon, Komron Mirzo ijodi.

Tarixnavislik. O‘tmish tarixnavisligi va uning davom etttirilishi. Tarixnavislikka alohida e’tibor. Xondamirning “Habibu-s-siyar” va “Siyaru-l-muluk” asarlari. Tarixiy asarlarning yangilanish xususiyatlari.

Tazkiranavislik. Davr tazkiranavisligining o‘ziga xos xususiyatlari. Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahbob” asarining ilmiy qimmati. Asarda XVI asr madaniy hayotini aks ettirish tamoyillari. Mutribiy, Maliho Samarqandiy, Qori Rahmatulloh Vozeh, Fazliy Namangoniy, Ahmad Tabibiy tazkiralari. Tazkiralarda adabiy siymolar tavsifi. Tazkira janrida adabiyotshunoslik takomil bosqichlarining ifodalanishi.

Bobur hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi. Shoirning hayoti va ijodiy faoliyati aks etgan manbalar. Bobur she’riyati. Devonining janr xususiyatlari. Badiiy mahorati.

«Vaqoe’ - Boburnoma»ning janr xususiyatlari. Uning adabiy-ilmiy qimmati. Asardagi timsollar. Badiiy xususiyatlari. Asarning ahamiyati.

Ilmiy va falsafiy merosi. “Aruz risolasi”da turkiy aruz masalalari. “Mubayyin” ta’limiy-tasavvufiy asar sifatida. “Volidiyya” asarida Xoja Ahror Valiy ta’limoti.

O‘zbekxonlar davrida adabiy hayot. Buxoro xonligidagi adabiy muhit. Buxoro adabiy muhitining xos xususiyatlari. Tasavvuf adabiyoti. Islom va tasavvuf g‘oyalari davr adabiyotining rivojlanish manbai ekanligi.

Shayboniyxon hayoti va ijodi. Shoir devoni va uning janr xususiyatlari. Asarlarining mavzu va g‘oyaviy ko‘lami. Shoir dunyoqarashi va tariqati. Shayboniyxon ijodida lirik qahramon tabiati. She’riy mahorat qirralari.

Muhammad Solih ijodi. «Shayboniynoma» jangnoma tipidagi doston sifatida. Asar mazmuni, tarixiy shaxslar va badiiy timsollar.

Xoja ijodi. Hayoti va ijodi. Hikoyalari. “Gulzor” va “Miftohu-l-adl” asarlarining talqini.

Qul Ubaydiy hayoti va ijodi manbalari. Ubaydiy merosi. “Kulliyot”ining yaratilish tarixi va janr xususiyatlari. Shoirning she’riy janrlar takomilidagi o‘rni. Qul Ubaydiy she’riyatida lirik qahramon tabiati. Dunyoqarash va tariqat masalalari. Shoir masnaviylari. Ularning mavzu va g‘oyaviy qamrovi. Shoir merosining timsollar olami.

Turdi ijodi. Shoir hayoti voqealarini asarlari yordamida tiklanishi. Turdi she’rlarining janr xususiyatlari. G‘azal va muxammaslari. Subhonqulixon haqidagi hajviyasi. Asarda madaniy hayot tasviri.

Mashrab hayoti va ijodi manbalari. Mashrabshunoslik tarixidan. Tazkiralardagi ma’lumotlar. «Qissayi Mashrab» asarining shoir dunyoqarashi va hayotini o‘rganishdagi ahamiyati. She’riy merosi. Mashrab lirik merosining mavzu doirasi. Asarlarida qalandariylik tariqatining aks etishi. She’riyatida ilohiy ishq talqini. Timsollar olamining o‘ziga xos jihatlari.

Mashrab taxallusli shoirlar. “Mabdai nur” va “Kimyo” asarlari, ularning muallifligi masalasi.

So‘fi Ollohyor hayoti va asarlari. “Sabotu-l-ojizin” asarida ma’rfiy masalalar. Ma’rifiy risolalarida naqshbandiylik ta’limotining yangilanishi.

Xiva adabiy muhitidagi madaniy hayot. Adabiy muhit va uning o‘ziga xos jihatlari. Zullisonaynlik va Navoiy an’analarining davom ettirilishi. Devon tuzish an’analarining takomillashtirilishi. Janrlar poetikasi. Tarixnavislik. Tarjima maktabining o‘ziga xosligi, takomillashuv tamoyillari. Bayozchilik, tazkiranavislik va noshirlikning taraqqiy etishi.

Abulg‘ozi Bahodirxon hayoti va ijodiy merosi. Abulg‘ozining ijtimoiy hayotdagi mavqei. Tarixiy asarlari. “Shajarayi tarokima” asari. Uning yozilish va o‘rganilish tarixi. Asarning ilmiy-badiiy qimmati. «Shajarayi turk» asari qomusiy ma’lumotnoma ekanligi. Asarning o‘zbek adabiyoti tarixidagi ilmiy-badiiy maqomi. Timsollar silsilasi. Adib mahorati masalasi.

“Manofe’u-l-inson” asarining qo‘lyozma nusxalari. Asarning yaratilish tarixi, sabablari. Asarning tuzilish xususiyatlari va ahamiyati.

Nishotiy hayoti va ijodi manbalari. Hayoti va adabiy merosi. She’riy devoni va bayozlar. Ularning qo‘lyozmalari. Shoir she’riyatining mavzu va g‘oyaviy qamrovi. Lirik qahramon tabiati. Asarlarining falsafiy asoslari. She’riy mahorati. «Qushlar munozarasi» asarida an’ana va yangilik. Ramziy timsollar talqini. «Husnu Dil» dostonining imsollar olami va ramziylik. Ularning nomlanish tarixi va talqini. Shoirning she’riy mahorati qirralari.

Andalib hayoti va ijod. Tarjimai holi. Adabiy merosi. Doston va masnaviylari. “Zaynularab”, “Yusuf va Zulayho”, “Layli va Majnun” dostonlari. Dostonlar syujeti. Qur’oni Karim va hadis g‘oyalarining talqini. Dostonlarining timsollar olami. Ularning o‘ziga xos jihatlari. Shoir asarlariga xalq og‘zaki ijodining ta’siri. She’riy mahorat masalalari.

Shermuhammad Munisning ijodiy faoliyati. Adabiy, ilmiy merosi. Devonlarining tuzilish tarixi va qo‘lyozma nusxalari. «Munisu-l-ushshoq» devoni. Devon tartibida an’ana va janrlar tarkibi. Shoir ijodida ularning takomillashuvi. Lirik qahramon tabiati. Timsollar olami. Badiiy xususiyatlari.

Munisning ilmiy merosi. “Savodi ta’lim” risolasi. Uning ilmiy-badiiy qimmati. Tarixiy asarlari. Tarjimalari. Adib ijodining O‘zbek adabiyoti tarixidagi maqomi.

Ogahiy hayoti va ijodi manbalari. O‘rganilish tarixi. Shoirning adabiy-ilmiy merosi. “Ta’vizu-l-oshiqin” devoni. Qo‘lyozma nusxalari. Devonda debochaning o‘rni. Janrlar tarkibi. Mavzular doirasi va g‘oyaviy ko‘lami. Shoirning timsol qo‘llash mahorati. She’riyatida Alisher Navoiy ijodiga munosabat. Devondagi asarlar badiiyati.

Ogahiy - tarixnavis. Tarixiy asarlarining qomusiy tabiati haqida. Ularning ilmiy va badiiy qimmati. Xorazm tarjima maktabida Ogahiyning o‘rni. Tarjimalarining ahamiyati.

Qo‘qon xonligidagi madaniy hayot. O‘rganilishi. Adabiy muhitning shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlari. Amiriyning adabiy muhit asoschisi va rahnamosi sifatidagi maqomi. Janrlar poetikasi. Adabiy muhitda xalq og‘zaki ijodiga munosabat masalasi. Tarixnavislik, she’riyat, nasr, matbaa ishlari, adabiy hamkorlikning noyob mahsullari yaratilishi.

Tazkiranavislikning yangi shakllari. Fazliy Namangoniy rahbarligida tuzilgan tazkira. “Majmuai shoiron”ning O‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘rni. Tuzilishi va janrlar tarkibi. G‘oziy ijodi. “Yusuf va Zulayho” dostoni. Satirik va yumoristik asarlar. Maxmur adabiy merosi.

Xo‘janazar Huvaydoning hayoti va ijodi. Lirik merosi. Devonining tuzilishi va janriy tarkibi. Shoirning dunyoqarashi va badiiy mahorati. «Rohati dil» dostoni. Asarning tuzilishi. Asardagi hikoyatlarning asar kompozitsiyasidagi o‘rni. Timsollar olami. Huvaydoning dostonnavis sifatidagi mahorati va o‘ziga xosliklari.

Amiriy hayoti va ijodi manbalari. O‘rganilish tarixi. Adabiy maktab asoschisi ekanligi. Tarjimai holi. Amiriy devoni. Qo‘lyozma nusxalari. Asarlarining ko‘lami va janr xususiyatlari. Devonda debochaning o‘rni. She’rlarining mavzu doirasi va g‘oyaviy qamrovi. An’ana va yangilik. Timsollar olami. Lirik qahramon tabiati. Badiiy mahorat qirralari.

Gulxaniy hayoti va ijodi. O‘rganilish tarixi. She’riy merosi. Janrlar tarkibi. Mavzu ko‘lami. Timsollar mohiyati. «Zarbulmasal» asari. Asar tarkibi va majoziy tabiati. Badiiy xususiyatlari. Gulxaniyning «Zarbulmasal»da timsol yaratish mahorati. Badiiy san’atlarning qo‘llanish tamoyillari.

Uvaysiy hayoti va ijodi. O‘rganilish tarixi. Adabiy merosi. She’riyatining mavzu va g‘oyaviy ko‘lami. Shoira ijodida ishq talqini. Ijtimoiy hayotga munosabati. Asarlarining timsollar olami. Lirik qahramon tabiati. Uvaysiylik bilan munosabat masalasi. Badiiy san’atlarni qo‘llash mahorati. «Shahzoda Hasan» va «Shahzoda Husayn» dostonlari. Dostonlarning syujet va kompozitsiya jihatdan o‘ziga xosligi. Shoiraning dostonnavislikdagi mahorati.

«Voqeoti Muhammadalixon» (tugallanmagan) asari. Asarning tarixiy ahamiyati. Timsollar ko‘lami.

Mohlaroyim Nodira hayoti va ijodi. Shoiraning davlat arbobi sifatidagi faoliyati. Tarjimai holi. Nodira va Umarxon munosabatlari. Uvaysiy bilan munosabatlari. Nodiraning she’riy merosi. Devondagi g‘azal, muxammas, ruboiy, fard kabi janrlar tabiati. Nodira she’riyatining mavzu qamrovi. Ishq va sadoqat, visol va hijron tarannumi. Lirik qahramon tabiatining rang-barangligi. She’riyatining timsollar ko‘lami. Badiiy san’atlarni qo‘llash mahorati.

Muhammad Alixon (Xon) ijodi. Davlat arbobi sifatidagi faoliyati. Tarjimai holi. Muhammad Alixon ijodida Navoiy va Fuzuliy an’analari. Fuzuliy g‘azallariga tazmin va taxmislar. Devonining janriy tarkibi. She’riy mahorat qirralari. She’riyatining tasavvufiy asoslari.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar ayrim ijodkorlarning hayoti va ijodi bilan bog‘liq muammolarni mavjud matn, manbalar hamda ilmiy adabiyotlardan unumli foydalangan holda o‘rganadilar.

Amaliy mashg‘ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Qadimgi miflar va afsonalar. Ularning mazmuni va saqlanish manbalari.
2. Kultegin, Bilga xoqon va To‘nyuquq yodgorliklari mazmuni. Badiiy xususiyatlari, matn uslublari.
3. “Devonu lug‘ati-t–turk” asaridagi adabiy parchalar. Mazmuni, janr xususiyatlari.
4. “Qutadg‘u bilig” dostoni. Doston tarkibi, timsollar doirasi va ramziy mazmuni.
5. “Devoni hikmat” asarining ma’rifiy-ta’limiy mazmuni. Hikmatlarning janr xususiyatlari
6. “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi qissalar mazmuni. Asar tarkibi va badiiy xususiyatlari.
7. “Muhabbatnoma” asarining tarkibi, mazmuni va badiiyati.
8. “Latofatnoma” asari va undagi badiiy san’atlar.
9. “Taashshuqnoma” asarining mazmuni, badiiy xususiyatlari.
10. Atoiy g‘azallarida yetakchi timsollar. Majoz va haqiqat talqini.
11. Sakkokiy g‘azallari badiiyati. Qasidalarining mazmuni.
12. Gadoiy g‘azallarining timsol doirasi.
13. Husayniy g‘azallaridagi yetakchi timsollarni aniqlash.
14. Sayyid Qosimiy masnaviylari. Asarlarining tasavvufiy talqinlari.
15. Alisher Navoiyning hasbi holi. Navoiy haqida zamondoshlarining e’tirofi. Navoiy va Sulton Husayn Boyqaro.
16. “Xazoyinul maoniy” kulliyotining mavzular doirasi, janr xususiyatlari.
17. Alisher Navoiy g‘azallarining badiiy xususiyatlari: vazn, qofiya, badiiy san’atlar tahlili.
18. Alisher Navoiy musammatlari. Ularning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
19. Alisher Navoiy ijodida kichik lirik janrlar. Fard, muammo, tuyuq, ruboiy, qit’alari tahlili.
20. “Hayratu-l-abror” dostonidagi maьiolot va hikoyatlar tahlili.
21. “Farhod va Shirin” dostonining mazmuni. Timsollar tizimi. Vazn, qofiya, badiiy san’atlar tahlili.

22. “Layli va Majnun” dostonining mazmuni. Yetakchi timsollar talqini. Badiiy xususiyatlari: vazn, qofiya, badiiy san’atlar tahlili.

23. “Sab’ai sayyor” dostonidagi hikoyatlar tahlili.

24. “Saddi Iskandariy” dostonining matni. Yetakchi timsolar talqini.

25. “Lisonu-t-tayr” dostonining mundarijasi. Dostondagi vodiylar tavsifi, hikoyatlar tahlili.

26. Alisher Navoiyning adabiyotshunoslik merosi. “Majolisu-n-nafois” tazkirasi.

27. Alisher Navoiyning tarixiy yodnoma asarlari.

28. “Badoe’u-l-vaqoe’” asarida XVI asr adabiyoti va adiblari hayotining yoritilishi.

29. Fitrat maqolalarida XVI-XIX asr adabiyoti masalalari.

30. Tazkiranavislikda “Muzakkiri ahbob” asarining o‘rni.

31. Muhammad Solih va uning «Shayboniynoma» asari.

32. Xoja ijodi. Asarlarining talqini.

33. Turdining hayoti va ijodi. Asarlarining mazmuni.

34. So‘fi Ollohyor hayoti, tariqati va asarlari.

35. Mashrab she’riyatida ishq talqini.

36. “Shajarayi turk” asarida tarixiy siymolar tasviri.

37. Uvaysiy dostonlari. Mazmuni va timsollari.

38. Nodira she’riyati. Mavzular doirasi.

39. “Zarbulmasal” asarida timsolar tizimi.

40. Ogahiy she’riyati. Mavzular doirasi va badiiyati.

Izoh: Mazkur ro‘yxatdagi mavzulardan amaliy mashg‘ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar

Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar ma’ruza mavzulari bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini seminar mashg‘ulotlariga tayyorlanish orqali yanada boyitadilar.

Seminar mashg‘ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Mifologiya va yozma adabiyot munosabatlari, mifologiya ilk yozma adabiyotga asos sifatida.

2. Moniylik oqimidagi adabiyotning paydo bo‘lishi, bu adabiyotning ijtimoiy hayot bilan bog‘liq tomonlari.

3. “Oltin yorug‘” dostoni va buddaviylik.

4. X–XII asrda O‘rta Osiyodagi fors tilidagi adabiyot.

5. X–XII asrda O‘rta Osiyodagi arab tilidagi adabiyot.

6. Beruniyning “O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida adabiy parchalar.

7. Beruniyning “Minearologiya” kitobidagi hikoyatlar.

8. Oltin O‘rda madaniyati va o‘zbek adabiyoti rivoji. Sayfi Saroyining “Gulistoni bit–turkiy”sidagi hikoyatlar va qit’alarda davrning muhim masalalari.

9. Qutbning “Xusrav va Shirin” dostoni – erkin tarjima asari sifatida.

10. Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul–asror” asari falsafiy–didaktik doston namunasi sifatida.

11. O‘zbek adabiyotida “Qisas ul–anbiyo”lar va Payg‘ambarlar tarixiga oid asarlarning yuzaga kelishi, bu asarlarning ma’rifiy ahamiyati.

12. Temuriylar davri adabiyotining asosiy xususiyatlari: janr xususiyatlari va g‘oyaviy–badiiy o‘zgarishlar, bu davrdagi tarjima adabiyoti.

13. “Gul va Navro‘z” va “Yusuf va Zulayho” dostonlarining g‘oyaviy–badiiy xususiyatlari. Dostonlar muallifiga bo‘lgan munosabatlar.

14. “Funun ul–balog‘a” adabiyotshunoslik asari sifatida.

15. Navoiy g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari: vazn, qofiya, badiiy san’atlar tahlili.

16. “Hayratul abror” dostonidagi hikoyatlar tahlili.
17. “Farhod va Shirin” dostonining badiiy xususiyatlari: vazn, qofiya, badiiy san’atlar tahlili.
18. “Layli va Majnun” dostonining badiiy xususiyatlari: vazn, qofiya, badiiy san’atlar tahlili.
19. “Sab’ai sayyor” dostonidagi hikoyatlar tahlili, dostonning vazn xususiyatlari.
20. “Saddi Iskandariy” dostonining badiiy xususiyatlari
21. “Lisonu-t-tayr” dostonidagi vodiylar tavsifi, hikoyatlar tahlili.
22. Navoiyning adabiyotshunoslik va tilshunoslik asarlari.
23. Navoiyning memuar asarlari.
24. Navoiyning diniy merosi.
25. Buxoro adabiy muhitida tazkiranavislik (“Muzakkiri ahbob” misolida).
26. Muhammad Solih dostonida tarixiy voqealar talqini.
27. Qul Ubaydiy masnaviylarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
28. Mashrab va “Mabdai nur” asarining muallifligi masalasi.
29. Nishotiyning “Qushlar munozarasi” asarida an’ana va novatorlik.
30. Munisning “Munis ul-ushshoq” devonida janrlar takomili .
31. Ogahiyning tarixnavislikdagi mahorati.
32. Xorazm tarjima maktabi (Ogahiy tarjimalari misolida).
33. Huvaydoning “Rohati dil” dostonida hikoyatlarning o‘rni..
34. Amiriy devonida lirik qahramon masalasi.
35. Qo‘qon adabiy muhitida janrlar poetikasi.
36. “Majmuai shoiron” tazkirasi va uning janr xususiyatlari.
37. “Zarbulmasal” asari poetikasi.
38. Uvaysiyning she’riy mahorati.

Izoh: Mazkur ro‘yxatdagi mavzulardan seminar mashg‘ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

Kurs ishini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar

Kurs ishining maqsadi talabalarni mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarini qo‘llashda amaliy ko‘nikmalar hosil qilishdir. Kurs ishining mavzulari umumiy talabalar sonidan 20-30 % ko‘proq, oldindan tayyorlanadi. Har bir talabaga shaxsiy topshiriq beriladi.

Mavzularni yoritish jarayonida talabalarning o‘z bilimlarini oshirishlari, ilmiy tadqiqot olib borish malakasini hosil qilishlari va adabiyotshunoslikda mavjud ilmiy muammolarni hal etishda o‘z ulushlarini qo‘shishlari, yangi ilmiy-nazariy xulosalarga ega bo‘lishlari nazarda tutilgan.

Kurs ishining taxminiy mavzulari:

1. **“Avesto” adabiy manba sifatida.**
2. **O‘rxun-Enasoy bitiktoshlari adabiy manba sifatida.**
3. Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi afsona va xalq qo‘shiqlari.
4. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari.
5. “Qutadg‘u bilig” hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar.
6. Ahmad Yassaviy “Hikmatlar”ida tasavvuf masalalari.
7. Nosiruddin Rabg‘uziy hayoti va ijodining manbalari.
8. “Qisasi Rabg‘uziy” (“Qisas ul-anbiyo”)da hikoyalarning badiiy xususiyatlari.
9. Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari, uning badiiyati.
10. Atoyining lirik merosi.
11. Sayyid Qosimiy dostonlari.
12. Husayniy lirikasining badiiy xususiyatlari.
13. Lutfiyning ijodiy faoliyati.

14. Pahlavon Mahmud ruboiylari.
15. Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turki” asari
16. Alisher Navoiyning ilmiy merosi.
24. Alisher Navoiyning tilshunoslik asarlari.
17. Alisher Navoiy - aruzshunos.
18. Alisher Navoiy -tazkiranavis.
19. Alisher Navoiyning «Nasoyimu-l-muhabbat» asarida so‘fiylar talqini.
20. XVI-XVIII asrlarda adabiy muhit va ijodiy maktablar.
24. Turdi ijodida satira.
25. Mashrab hayoti va ijodi haqida ma’lumot beruvchi manbalar.
26. Bobur she’riyati.
27. Xiva adabiy muhiti.
28. “Boburnoma”ning badiiy xususiyatlari.
29. Xorazm adabiy muhitida tarixnavislik. Abulg‘ozi Bahodirxon va uning asarlari.
30. Munisning she’riy merosi.
31. Boburning ilmiy-falsafiy merosi.
32. Xorazm tarjima maktabi. Dilovarxo‘ja, Munis, Ogahiy.
33. Munisning tarjima va tarixiy asarlari.
34. Muhammadrizo Ogahiy hayoti va ijodining manbalari.
35. Ogahiyning she’riy merosi.
36. Ogahiy tarixchi va jamoat arbobi.
37. Ogahiy - tarjimon.
38. So‘fi Ollohyor ijodi.
39. Qo‘qon xonligida adabiy hayot.
40. Qo‘qon adabiy muhitining shakllanishi.
41. Amir Umarxon ijodi.
42. Uvaysiyning she’riy merosi.
43. Uvaysiyning epik asarlari.
44. Nodira-Komila ijodi.
45. Nodira hayoti va ijodining manbalari.
46. Nodiraning she’riy merosi.
47. Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” asari.
48. Munis hayoti va ijodining manbalari.
49. “Boburnoma” talqinlari.
50. Mashrabning ilmiy biografiyasi (Fitrat maqolasi asosida).
51. Uvaysiy she’riyatida ishq talqini.
52. Turdi ijodiyotida badiiy mahorat muammolari.
53. Alisher Navoiy g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
54. Alisher Navoiy “Xamsa”si va uning Sharq adabiyotida tutgan o‘rni.
55. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
56. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonidagi maqolotlar va hikoyatlar talqini.
57. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonining badiiy xususiyatlari.
58. Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonidagi badiiy mahorat qirralari.
59. Alisher Navoiy “Sab’ayi sayyor” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
60. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni g‘oyaviy xususiyatlari.
61. XVI-XIX asrda yaratilgan tazkiralar.
62. “Sabot ul-ojizin” asarining badiiy xususiyatlari.
63. “Husnu Dil” dostonining adabiyotdagi o‘rni.
64. Nishotiyning she’riy merosi.
65. “Husnu Dil” dostonidagi munozaralar.
66. Boburnomada ayollar timsoli.
67. Uvaysiy ijodida kichik janrlar.

68. “Qissayi Mashrab”da shoir qiyofasi.
69. Qo‘qon adabiy muhiti va Amiriy ijodi.
70. “Shajarai turk” tarixiy-badiiy asar sifatida.
71. “Boburnoma”da Boburning adabiy qarashlari.
72. Huvaydo “Rohati dil” dostonining ma’rifiy-adabiy qimmati.
73. Boburning ruboiynavislikdagi mahorati.
74. Mashrab she’riyatida talmehning o‘rni.
75. Huvaydo “Rohati dil” dostonidagi hikoyatlar va ularning ahamiyati.
76. Ogahiy ijodida kichik janrlar takomili.
77. “Muzakkiri ahbob” tazkirasida XVI asr adabiy hayoti talqini.
78. Nodira she’riyatining timsollar olami.
79. Mashrab ijodida oshiq timsoli.
80. Haydar Xorazmiy ijodida doston janri.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik;
- kurs ishini tayyorlash;
- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismini o‘zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fan bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari;
- masofaviy ta’lim.

Mustaqil ish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:

1. “Avesto”ning qismlarini tanlab o‘rganish, asardagi tangri Xo‘rmuzdga oid sifatlarni belgilash.
2. O‘zbekistonda avestoshunoslikka oid ilmiy asarlar ro‘yxatini tuzish va ayrim asarlarga annotasiya yozish.
3. “Avesto”dagi mifologiyani o‘rganish (xudolarning ismlari misolida).
4. Qadimgi turkiy yodgorliklar bo‘yicha O‘zbekistonda yaratilgan ilmiy asarlarning bibliografiyasini tuzish, monogorafiyalarga annotasiya yozish.
5. “Shohnoma”dan “Rustam va Suxrob” dostonini o‘rganish.
6. Ibn Sinoning adabiy faoliyatiga oid asarlar annotasiyasini tuzish.
7. Beruniyning adabiyotga oid faoliyatini o‘rganish, “Mineralogiya” kitobidagi hikoyatlarni tahlil qilish.
8. Beruniyning “O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar” asaridagi rivoyatlarni tahlil qilish.
9. Badriddin Chochiy va Muhammad Avfiy Buxoriy ijodiga oid materillar to‘plash va bibliografiya tuzish.
10. X–XII asrlarda O‘rta Osiyoda fors tilida yaratilgan badiiy adabiyotga oid materillar yig‘ish va bibliografiya tuzish.
11. Noma janriga mansub asarlar to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plash: maqolalar, adabiyotlar, ilmiy ishlarning bibliografiyasini tuzish.
12. Munozara janriga mansub asarlar to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plash: maqolalar, adabiyotlar, ilmiy ishlarning bibliografiyasini tuzish.
13. Turkiy qavmlar tarixiga oid afsona va rivoyatlarni tahlil qilish.
14. Sulaymon to‘g‘risidagi qissani (“Qisasi Rabg‘uziy”dagi) xalq og‘zaki ijodidagi Sulaymon to‘g‘risidagi ertak va rivoyatlarga qiyoslab o‘rganish.

15. Iso Masih to‘g‘risidagi qissani (“Qisasi Rabg‘uziy”dagi) o‘zbek mumtoz adabiyotidagi barcha janrdagi asarlarda mavjud bo‘lgan Iso Masih obraziga qiyoslab o‘rganish.

16. “Suxayl va Guldursun” dostonini o‘rganish, asardagi obrazlarga tavsif berish.

17. Abdurahmon Jomiy ijodiga oid asarlarning o‘zbek va rus tillaridagi ilmiy asarlar bibliografiyasini tuzish

18. Jomiyning o‘zbekchaga tarjima qilingan asarlarini o‘rganish.

19. Temuriylar davrida tarjima adabiyoti. Nizomiy, Dehlaviy, Sa’diy va Hofiz asarlarining tarjimalari bibliografiyasini tuzish.

20. “Gul va Navro‘z” dostonini o‘rganish, asardagi obrazlarga tavsif berish.

21. “Yusuf va Zulayho” dostonini o‘rganish, asardagi obrazlarga tavsif berish.

22. Sharq adabiyotida “Yusuf” qissalari va “Yusuf va Zulayho” dostonlariga annotasiya yozish.

23. ”Gul va Navro‘z”ning muallifi haqidagi munozaralarni o‘rganib chiqish.

24. “Muxtasar” va “Fununu-l-balog‘a”da Haydar Xorazmiyga oid ma’lumotlarni o‘rganish.

25. “Funun ul-balog‘a” asarida o‘zbek adabiyotiga noma’lum bo‘lgan shoirlarni o‘rganish.

26. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida o‘zbek mumtoz adabiyotiga oid (eng qadimgi davrlardan XU asrning birinchi yarmigacha) bosilgan maqolalarni o‘rganish, annotasiya tuzish.

27. “Adabiy meros” to‘plamida 1990 yildan keyin o‘zbek mumtoz adabiyotiga oid (eng qadimgi davrlardan XU asrning birinchi yarmigacha) bosilgan maqolalarni o‘rganish, annotasiya tuzish.

28. “Adabiyot ko‘zgusi” to‘plamida o‘zbek mumtoz adabiyotiga oid (eng qadimgi davrlardan XU asrning birinchi yarmigacha) bosilgan maqolalarni o‘rganish, annotasiya tuzish.

29. Sayyid Qosimiyning merosini o‘rganish, dostonlar tarkibidagi tasavvufiy timsollarni aniqlash

30. “Ilohiynoma” dostonining g‘oyaviy–badiiy xususiyatlarini o‘rganish.

31. “Sadoqatnoma” dostonining g‘oyaviy–badiiy xususiyatlarini o‘rganish.

32. “Gulshani roz” dostonining g‘oyaviy–badiiy xususiyatlarini o‘rganish.

33. XU asrning 1 yarmida ijod qilgan shoirlar to‘g‘risida yaratilgan ilmiy asarlar to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plash: maqolalar, adabiyotlar, ilmiy ishlarning bibliografiyasini tuzish.

34. Husayn Boyqaro ijodi to‘g‘risida yaratilgan asarlar to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plash: maqolalar, adabiyotlar, ilmiy ishlarning bibliografiyasini tuzish.

35. Alisher Navoiy g‘azallaridan namunalar yodlash, g‘azallarni g‘oyaviy badiiy jihatdan tahlil qilish.

36. Navoiyning devonlaridagi debochalarda keltirilgan devon tuzish bilan bog‘liq fikrlarni to‘plash va umumlashtirish.

37. “Hayratu-l-abror” dostonining badiiyatini (vazn, qofiya, badiiy san’atlar) o‘rganish.

38. “Farhod va Shirin” dostonining timsollar olamini o‘rganish.

39. “Layli va Majnun” dostonining badiiy xususiyatlarini o‘rganish.

40. “Sab’ai sayyor” dostonidagi hikoyatlarning g‘oyaviy badiiy xususiyatlarini o‘rganish.

41. “Saddi Iskandariy” dostonining badiiyatini o‘rganish.

42. Navoiyning adabiyotshunoslik asarlaridan birini o‘zlashtirish.

43. Navoiyning yodnoma asarlaridagi bosh qahramonlarning shaxsiyatini o‘rganish.

44. ”Boburnoma” asaridagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish.

45. «Boburnoma»da badiiy ijod masalalariga bag‘ishlangan ma’lumotlarni to‘plab, o‘rganib chiqish..

46. Shoirning she’riy mahoratini o‘rganib, namunalar yodlash.

47. Muhammad Solih “Shayboniynoma” dostonini mutolaa qilish va timsollarni tavsiflash.

48. Turdi, Mashrab, So‘fi Ollohyor asarlari va tasavvuf ta’limoti masalasini qiyosan tahlil qilish.

49. Andalib va Nishotiy dostonlari misolida davr dostonchiligi borasida mulohaza yuritish. O‘xshash va farqli tomonlarini topish.

50. “Husnu Dil” dostonidagi ramziy timsollar lug‘atini tuzish.

51. «Rohati dil» asaridagi hikoyatlarni o‘rganib, asardagi maqomini belgilash.
52. Bobur ruboiylarini o‘rganib chiqib, janr taraqqiyotidagi o‘rnini belgilash.
53. «Muzakkiri ahbob» da XVI asr o‘zbek adabiyoti va madaniyatiga oid ma’lumotlar annotasiyasini tuzish.
54. Qul Ubaydiy ruboiylarini tahlil etish.
55. «Sabotu-l-ojizin»da islom va tasavvuf g‘oyalarini aniqlab, o‘rganib chiqish.
56. Huvaydoning «Ibrohim Adham» qissasi va undagi timsollarni tavsiflash.
57. «Qissai Mashrab»da Mashrab shaxsini yorituvchi rivoyatlarga annotasiya yozish.
58. Nishotiyning she’rlaridagi badiiy san’atlarni o‘rganib chiqish.
59. «Zarbulmasal» asaridagi maqollarni to‘plash va asardagi o‘rnini aniqlash.
60. Uvaysiy she’rlaridagi timsollar annotasiyali bibliografiyasini tuzib chiqish.
61. Uvaysiy ijodida janr takomili masalasini g‘azal misolida o‘rganib chiqish.
Andalib hayoti va ijod. Tarjimai holi. Adabiy merosi. Doston va masnaviylari. "Zaynularab", "Yusuf va Zulayho", "Layli va Majnun" dostonlari. Dostonlar syujeti. Qur'oni Karim va hadis g'oyalarining talqini. Dostonlarining timsollar olami. Ularning o'ziga xos jihatlari. Shoir asarlariga xalq og'zaki ijodining ta'siri. She'riy mahorat masalalari.

Shermuhammad Munisning ijodiy faoliyati. Adabiy, ilmiy merosi. Devonlarining tuzilish tarixi va qo'lyozma nusxalari. «Munisu-l-ushshoq» devoni. Devon tartibida an'ana va janrlar tarkibi. Shoir ijodida ularning takomillashuvi. Lirik qahramon tabiati. Timsollar olami. Badiiy xususiyatlari.

Munisning ilmiy merosi. "Savodi ta'lim" risolasi. Uning ilmiy-badiiy qimmati. Tarixiy asarlari. Tarjimalari. Adib ijodining O'zbek adabiyoti tarixidagi maqomi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondashuv, muammolai ta'lim, munozara, "klaster", ma'ruza, o'z-o'zini nazorat, bumerang, guruh bilan ishlash, aqliy hujum, "blits so'rov"*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4;A5;Q3;Q4;A6;Q15;Q16;Q18Q25;Q27.

Ogahiy hayoti va ijodi, lirikasi, badiiy mahorati. Ogahiy hayoti va ijodi manbalari. O'rganilish tarixi. Shoirning adabiy-ilmiy merosi. "Ta'vizu-l-oshiqin" devoni. Qo'lyozma nusxalari. Devonda debochaning o'rni. Janrlar tarkibi. Mavzular doirasi va g'oyaviy ko'lami. Shoirning timsol qo'llash mahorati. She'riyatida Alisher Navoiy ijodiga munosabat. Devondagi asarlar badiiyati.

Ogahiy - tarixnavis. Tarixiy asarlarining qomusiy tabiati haqida. Ularning ilmiy va badiiy qimmati. Xorazm tarjima maktabida Ogahiyning o'rni. Tarjimalarining ahamiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondashuv, muammolai ta'lim, munozara, "klaster", ma'ruza, o'z-o'zini nazorat, bumerang, guruh bilan ishlash, aqliy hujum, "blits so'rov"*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4;A5;Q3;Q4;A6;Q15;Q16;Q18Q25;Q27.

Qo‘qon xonligidagi madaniy hayot. O‘rganilishi. Adabiy muhitning shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlari. Amiriyning adabiy muhit asoschisi va rahnamosi sifatidagi maqomi. Janrlar poetikasi. Adabiy muhitda xalq og‘zaki ijodiga munosabat masalasi. Tarixnavislik, she’riyat, nasr, matbaa ishlari, adabiy hamkorlikning noyob mahsullari yaratilishi.

Tazkiranavislikning yangi shakllari. Fazliy Namangoniy rahbarligida tuzilgan tazkira. “Majmuai shoiron”ning O‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘rni. Tuzilishi va janrlar tarkibi. G‘oziy ijodi. “Yusuf va Zulayho” dostoni. Satirik va yumoristik asarlar. Maxmur adabiy merosi.

Xo‘janazar Huvaydoning hayoti va ijodi. Lirik merosi. Devonining tuzilishi va janriy tarkibi. Shoirning dunyoqarashi va badiiy mahorati. «Rohati dil» dostoni. Asarning tuzilishi. Asardagi hikoyatlarning asar kompozitsiyasidagi o‘rni. Timsollar olami. Huvaydoning dostonnavis sifatidagi mahorati va o‘ziga xosliklari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *diologik yondashuv, muammolai ta’lim, munozara, “klaster”, ma’ruza, o‘z-o‘zini nazorat, bumerang, guruh bilan ishlash, aqliy hujum, “blits so‘rov”*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4;A5;Q3;Q4;A6;Q15;Q16;Q18Q25;Q27.

Amiriy hayoti va ijodi manbalari. O‘rganilish tarixi. Adabiy maktab asoschisi ekanligi. Tarjimai holi. Amiriy devoni. Qo‘lyozma nusxalari. Asarlarining ko‘lami va janr xususiyatlari. Devonda debochaning o‘rni. She’rlarining mavzu doirasi va g‘oyaviy qamrovi. An’ana va yangilik. Timsollar olami. Lirik qahramon tabiati. Badiiy mahorat qirralari.

Gulxaniy hayoti va ijodi. O‘rganilish tarixi. She’riy merosi. Janrlar tarkibi. Mavzu ko‘lami. Timsollar mohiyati. «Zarbulmasal» asari. Asar tarkibi va majoziy tabiati. Badiiy xususiyatlari. Gulxaniyning «Zarbulmasal»da timsol yaratish mahorati. Badiiy san’atlarning qo‘llanish tamoyillari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *diologik yondashuv, muammolai ta’lim, munozara, “klaster”, ma’ruza, o‘z-o‘zini nazorat, bumerang, guruh bilan ishlash, aqliy hujum, “blits so‘rov”*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4;A5;Q3;Q4;A6;Q15;Q16;Q18Q25;Q27.

Mohlaroyim Nodira hayoti va ijodi. Shoiraning davlat arbobi sifatidagi faoliyati. Tarjimai holi. Nodira va Umarxon munosabatlari. Uvaysiy bilan munosabatlari. Nodiraning she’riy merosi. Devondagi g‘azal, muxammas, ruboiy, fard kabi janrlar tabiati. Nodira she’riyatining mavzu qamrovi. Ishq va sadoqat, visol va hijron tarannumi. Lirik qahramon tabiatining rang-barangligi. She’riyatining timsollar ko‘lami. Badiiy san’atlarni qo‘llash mahorati.

Muhammad Alixon (Xon) ijodi. Davlat arbobi sifatidagi faoliyati. Tarjimai holi. Muhammad Alixon ijodida Navoiy va Fuzuliy an’analari. Fuzuliy g‘azallariga tazmin va taxmislar. Devonining janriy tarkibi. She’riy mahorat qirralari. She’riyatining tasavvufiy asoslari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *diologik yondashuv, muammolai ta’lim, munozara, “klaster”, ma’ruza, o‘z-o‘zini nazorat, bumerang, guruh bilan ishlash, aqliy hujum, “blits so‘rov”*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4;A5;Q3;Q4;A6;Q15;Q16;Q18;Q25;Q27.

Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar

Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar ma’ruza mavzulari bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini seminar mashg‘ulotlariga tayyorlanish orqali yanada boyitadilar.

Seminar mashg‘ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

39. Mifologiya va yozma adabiyot munosabatlari, mifologiya ilk yozma adabiyotga asos sifatida.

40. Moniylik oqimidagi adabiyotning paydo bo‘lishi, bu adabiyotning ijtimoiy hayot bilan bog‘liq tomonlari.

41. “Oltin yorug‘” dostoni va buddaviylik.

42. X–XII asrda O‘rta Osiyodagi fors tilidagi adabiyot.

43. X–XII asrda O‘rta Osiyodagi arab tilidagi adabiyot.

44. Beruniyning “O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida adabiy parchalar.

45. Beruniyning “Minearologiya” kitobidagi hikoyatlar.

46. Oltin O‘rda madaniyati va o‘zbek adabiyoti rivoji. Sayfi Saroyining “Gulistoni bit–turkiy”sidagi hikoyatlar va qit’alarda davrning muhim masalalari.

47. Qutbning “Xusrav va Shirin” dostoni – erkin tarjima asari sifatida.

48. Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul–asror” asari falsafiy–didaktik doston namunasi sifatida.

49. O‘zbek adabiyotida “Qisas ul–anbiyo”lar va Payg‘ambarlar tarixiga oid asarlarning yuzaga kelishi, bu asarlarning ma’rifiy ahamiyati.

50. Temuriylar davri adabiyotining asosiy xususiyatlari: janr xususiyatlari va g‘oyaviy–badiiy o‘zgarishlar, bu davrdagi tarjima adabiyoti.

51. “Gul va Navro‘z” va “Yusuf va Zulayho” dostonlarining g‘oyaviy–badiiy xususiyatlari. Dostonlar muallifiga bo‘lgan munosabatlar.

52. “Funun ul–balog‘a” adabiyotshunoslik asari sifatida.

53. Navoiy g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari: vazn, qofiya, badiiy san’atlar tahlili.

54. “Hayratul abror” dostonidagi hikoyatlar tahlili.

55. “Farhod va Shirin” dostonining badiiy xususiyatlari: vazn, qofiya, badiiy san’atlar tahlili.

56. “Layli va Majnun” dostonining badiiy xususiyatlari: vazn, qofiya, badiiy san’atlar tahlili.

57. “Sab’ai sayyor” dostonidagi hikoyatlar tahlili, dostonning vazn xususiyatlari.

58. “Saddi Iskandariy” dostonining badiiy xususiyatlari

59. “Lisonu-t-tayr” dostonidagi vodiylar tavsifi, hikoyatlar tahlili.

60. Navoiyning adabiyotshunoslik va tilshunoslik asarlari.

61. Navoiyning memuar asarlari.

62. Navoiyning diniy merosi.

63. Buxoro adabiy muhitida tazkiranavislik (“Muzakkiri ahbob” misolida).

64. Muhammad Solih dostonida tarixiy voqealar talqini.

65. Qul Ubaydiy masnaviylarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

66. Mashrab va “Mabdai nur” asarining muallifligi masalasi.

67. Nishotiyning “Qushlar munozarasi” asarida an’ana va novatorlik.

68. Munisning “Munis ul-ushshoq” devonida janrlar takomili .

69. Ogahiyning tarixnavislikdagi mahorati.

70. Xorazm tarjima maktabi (Ogahiy tarjimalari misolida).

71. Huvaydoning “Rohati dil” dostonida hikoyatlarning o‘rni..

72. Amiriy devonida lirik qahramon masalasi.

73. Qo‘qon adabiy muhitida janrlar poetikasi.

74. “Majmuai shoiron” tazkirasi va uning janr xususiyatlari.

75. “Zarbulmasal” asari poetikasi.

76. Uvaysiyning she’riy mahorati.

“O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fani bo‘yicha seminar mashg‘ulotlarining kalendar tematik rejasi.

№	SEMINAR MASHG‘ULOTLARI MAVZULARI	SOAT
	1- semestr	
	I bo‘lim. Islomga qadar yaratilgan adabiy yodgorliklar.	
1.1	Eng qadimgi og‘zaki adabiy yodgorliklar. «Avesto» yodgorligi (er.av.VII asr) zardushtiylikning muqaddas kitobi ekanligi.	2
	II bo‘lim. Islomiy ruhdagi adabiyot	
2.1	Turkistonlik buyuk muhaddislar. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino asarlarida adabiyot masalalari.	2
	III bo‘lim. Yusuf Xos Hojib	
3.1	“Qutadg‘u bilig” dostonida axloqiy va estetik qarashlar.	2
	IV bo‘lim. Xoja Ahmad Yassaviy	
4.1	Turkiy she’riyatda hikmat janri. Yassaviy izdoshlari. Sulaymon Boqirg‘oniy asarlari.	2
	V bo‘lim. Chingizxon istilosi davri adabiyoti	
5.1	“Chig‘atoy hududi” va undagi adabiy hayot. Rashididdin Vatvot va uning asarlari. “Hadoyiqu-s-sehr”da mumtoz poetika masalalari.	2
	VI bo‘lim. Nosiriddin Rabg‘uziy	
6.1	Payg‘ambarlar tarixi asosida yaratilgan asarlar. Oltin O‘rda adabiy muhiti.	2
	1-semestr bo‘yicha jami:	**12**
	2- semestr	
	VII bo‘lim. Temuriylar davri adabiyoti	
7.1	Tasavvuf adabiyotining yangi yuqori bosqichga ko‘tarilishi. Naqshbandiylik va badiiy ijod masalalari.	2
	VIII bo‘lim. “Yusuf va Zulayho” dostoni.	
8.1	Badiiy adabiyotda “Qissayi Yusuf” syujeti.	2
	IX bo‘lim. Atoyi hayoti va ijodi.	
9.1	Atoyi ijodiy merosining o‘rganilish tarixidan. Atoyining lirik merosi.	2
	X bo‘lim. Gadoiy va Sayyid Qosimiy hayoti, ijodi, lirikasi.	
10.1	Gadoiyning ijodiy merosi. Sayyid Qosimiy ijodida ma’rifiy-ta’limiy dostonchilik an’analarining davom ettirilishi.	2
	XI bo‘lim. Lutfiy hayoti va ijodi.	
11.1	Lutfiyning ijodiy faoliyati. Lutfiy va Navoiy munosabatlari.	2
	XII bo‘lim. Alisher Navoiy va uning davri adabiyoti.	
12.1	Husayniy va Alisher Navoiy munosabatlariga doir. Alisher Navoiy ijodining o‘rganilishi.	2
	2-semestr bo‘yicha jami:	**12**
	3- semestr	
	XIII bo‘lim. Alisher Navoiyning lirik merosi.	
13.1	Navoiy devonlari. “Xazoyinu-l-maoniy” kulliyotining yaratilish tarixi, tarkibiy tuzilishi.	2
13.2	**«Devoni Foniy»**ning janr xususiyatlari, mavzu doirasi. “Arba’in” va “Nazmu-l-javohir” asarlari.	2
	XIV bo‘lim. Xamsanavislik an’anasi va Alisher Navoiy “Xamsa”si.	
14.2	Hirot adabiy muhitida xamsanavislik. Alisher Navoiy beshligi birinchi turkiy “Xamsa” sifatida.	2

14.3	Navoiy “Xamsa”sidagi dostonlarning yaratilishi, syujeti, kompozitsiyasi.	2
	XV bo‘lim. «Lisonu-t-tayr» falsafiy-tasavvufiy doston sifatida.	
15.1	«Lisonu-t-tayr» da tasavvuf falsafasi va axloqiga munosabat.	2
	XVI bo‘lim. Alisher Navoiyning ilmiy merosi.	
16.1	«Xamsatu-l-mutahayyirin», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad» asarlarida tarixiy shaxslar talqini.	2
	XVII bo‘lim. XVI-XIX asrlar (I yarmi) adabiyoti	
17.1	XVI-XIX asrlar (I yarmi)da tasavvuf ruhidagi adabiyot va adabiy-badiiy jarayon. Adabiy hamkorlik va tarjima adabiyoti.	2
	XVIII bo‘lim. Bobur hayoti va ijodi.	
18.1	Bobur hayoti va ijodi aks etgan manbalar.	2
	XIX bo‘lim. «Vaqoe’ - Boburnoma» haqida.	
19.1	«Vaqoe’ - Boburnoma»ning janr xususiyatlari. Boburning ilmiy va falsafiy merosi.	2
	XX bo‘lim. O‘zbekxonlar davrida adabiy hayot.	
20.1	Buxoro xonligidagi adabiy muhitning o‘ziga xos xususiyatlari. Tasavvuf adabiyoti.	2
	3-semestr bo‘yicha jami:	20
	4-semestr	
	XXI bo‘lim. Xoja va Qul Ubaydiy hayoti, ijodi, adabiy merosi.	
21.1	Xoja hayoti va ijodi. “Gulzor” va “Miftohu-l-adl” asarlari. Ubaydiy adabiy merosi.	2
	XXII bo‘lim. Mashrab, So‘fi Ollohyor hayoti va ijodi.	
22.1	Mashrab hayoti va ijodi manbalari. So‘fi Ollohyor hayoti va asarlari.	2
	XXIII bo‘lim. Xiva adabiy muhiti.	
23.1	Abulg‘ozi Bahodirxon, Nishotiy, Andalib va Shermuhammad Munisning hayoti va adabiy merosi.	2
	XXIV bo‘lim. Ogahiy hayoti va ijodi.	
24.1	Ogahiy hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi, Ogahiy – tarixnavis, tarjimon.	2
	XXV bo‘lim. Qo‘qon xonligidagi madaniy hayot.	
25.1	Qo‘qon adabiy muhitining shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlari. Tarixnavislik, she’riyat, nasr, matbaa ishlari, adabiy hamkorlik.	2
	XXVI bo‘lim. Amiriy hayoti va ijodi.	
26.1	Amiriy hayoti va ijodi manbalari. O‘rganilish tarixi.	2
	XXVII bo‘lim. Mohlaroyim Nodira hayoti va ijodi.	
27.1	Mohlaroyim Nodiraning davlat arbobi sifatidagi faoliyati. Nodira va Umarxon munosabatlari. Muhammad Alixon (Xon) ijodi.	2
	4-semestr bo‘yicha jami:	**14**
	HAMMASI:	**58**

Kurs ishini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar

Kurs ishining maqsadi talabalarni mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarini qo‘llashda amaliy ko‘nikmalar hosil qilishdir. Kurs ishining mavzulari umumiy talabalar sonidan 20-30 % ko‘proq, oldindan tayyorlanadi. Har bir talabaga shaxsiy topshiriq beriladi.

Mavzularni yoritish jarayonida talabalarning o‘z bilimlarini oshirishlari, ilmiy tadqiqot olib borish malakasini hosil qilishlari va adabiyotshunoslikda mavjud ilmiy muammolarni hal etishda o‘z ulushlarini qo‘shishlari, yangi ilmiy-nazariy xulosalarga ega bo‘lishlari nazarda tutilgan.

Kurs ishining taxminiy mavzulari:

21. **“Avesto” adabiy manba sifatida.**
22. **O‘rxun-Enasoy bitiktoshlari adabiy manba sifatida.**
23. Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi afsona va xalq qo‘shiqlari.
24. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari.
25. “Qutadg‘u bilig” hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar.
26. Ahmad Yassaviy “Hikmatlar”ida tasavvuf masalalari.
27. Nosiruddin Rabg‘uziy hayoti va ijodining manbalari.
28. “Qisasi Rabg‘uziy” (“Qisas ul-anbiyo”)da hikoyalarning badiiy xususiyatlari.
29. Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari, uning badiiyati.
30. Atoyining lirik merosi.
31. Sayyid Qosimiy dostonlari.
32. Husayniy lirikasining badiiy xususiyatlari.
33. Lutfiyning ijodiy faoliyati.
34. Pahlavon Mahmud ruboiylari.
35. Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turki” asari
36. Alisher Navoiyning ilmiy merosi.
25. Alisher Navoiyning tilshunoslik asarlari.
37. Alisher Navoiy - aruzshunos.
38. Alisher Navoiy -tazkiranavis.
39. Alisher Navoiyning «Nasoyimu-l-muhabbat» asarida so‘fiylar talqini.
40. XVI-XVIII asrlarda adabiy muhit va ijodiy maktablar.
81. Turdi ijodida satira.
82. Mashrab hayoti va ijodi haqida ma’lumot beruvchi manbalar.
83. Bobur she’riyati.
84. Xiva adabiy muhiti.
85. “Boburnoma”ning badiiy xususiyatlari.
86. Xorazm adabiy muhitida tarixnavislik. Abulg‘ozi Bahodirxon va uning asarlari.
87. Munisning she’riy merosi.
88. Boburning ilmiy-falsafiy merosi.
89. Xorazm tarjima maktabi. Dilovarxo‘ja, Munis, Ogahiy.
90. Munisning tarjima va tarixiy asarlari.
91. Muhammadrizo Ogahiy hayoti va ijodining manbalari.
92. Ogahiyning she’riy merosi.
93. Ogahiy tarixchi va jamoat arbobi.
94. Ogahiy - tarjimon.
95. So‘fi Ollohyor ijodi.
96. Qo‘qon xonligida adabiy hayot.
97. Qo‘qon adabiy muhitining shakllanishi.
98. Amir Umarxon ijodi.
99. Uvaysiyning she’riy merosi.
100. Uvaysiyning epik asarlari.
101. Nodira-Komila ijodi.
102. Nodira hayoti va ijodining manbalari.
103. Nodiraning she’riy merosi.
104. Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” asari.
105. Munis hayoti va ijodining manbalari.
106. “Boburnoma” talqinlari.
107. Mashrabning ilmiy biografiyasi (Fitrat maqolasi asosida).
108. Uvaysiy she’riyatida ishq talqini.
109. Turdi ijodiyotida badiiy mahorat muammolari.
110. Alisher Navoiy g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

111. Alisher Navoiy “Xamsa”si va uning Sharq adabiyotida tutgan o‘rni.
112. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
113. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonidagi maqolotlar va hikoyatlar talqini.
114. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonining badiiy xususiyatlari.
115. Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonidagi badiiy mahorat qirralari.
116. Alisher Navoiy “Sab’ayi sayyor” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
117. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni g‘oyaviy xususiyatlari.
118. XVI-XIX asrda yaratilgan tazkiralar.
119. “Sabot ul-ojizin” asarining badiiy xususiyatlari.
120. “Husnu Dil” dostonining adabiyotdagi o‘rni.
121. Nishotiyning she’riy merosi.
122. “Husnu Dil” dostonidagi munozaralar.
123. Boburnomada ayollar timsoli.
124. Uvaysiy ijodida kichik janrlar.
125. “Qissayi Mashrab”da shoir qiyofasi.
126. Qo‘qon adabiy muhiti va Amiriy ijodi.
127. “Shajarai turk” tarixiy-badiiy asar sifatida.
128. “Boburnoma”da Boburning adabiy qarashlari.
129. Huvaydo “Rohati dil” dostonining ma’rifiy-adabiy qimmati.
130. Boburning ruboiynavislikdagi mahorati.
131. Mashrab she’riyatida talmehning o‘rni.
132. Huvaydo “Rohati dil” dostonidagi hikoyatlar va ularning ahamiyati.
133. Ogahiy ijodida kichik janrlar takomili.
134. “Muzakkiri ahbob” tazkirasida XVI asr adabiy hayoti talqini.
135. Nodira she’riyatining timsollar olami.
136. Mashrab ijodida oshiq timsoli.
137. Haydar Xorazmiy ijodida doston janri.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

“O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fani bo’yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o’rganish jarayonining tarkibiy qismi bo’lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to’la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg’ulotlarida professor-o’qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o’rganish maqsadida qo’shimcha adabiyotlarni o’qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo’yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uy vazifalarini bajarish, qo’shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o’rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo’llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to’plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to’garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o’quv faoliyati samarali bo’lishi mumkin emas.

- Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg’ulot olib boruvchi o’qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o’zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o’qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

Mustaqil ish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:

64. “Avesto”ning qismlarini tanlab o‘rganish, asardagi tangri Xo‘rmuzdga oid sifatlarni belgilash.

65. O‘zbekistonda avestoshunoslikka oid ilmiy asarlar ro‘yxatini tuzish va ayrim asarlarga annotatsiya yozish.

66. “Avesto”dagi mifologiyani o‘rganish (xudolarning ismlari misolida).

67. Qadimgi turkiy yodgorliklar bo‘yicha O‘zbekistonda yaratilgan ilmiy asarlarning bibliografiyasini tuzish, monogorafiyalarga annotatsiya yozish.

68. “Shohnoma”dan “Rustam va Suxrob” dostonini o‘rganish.

69. Ibn Sinoning adabiy faoliyatiga oid asarlar annotatsiyasini tuzish.

70. Beruniyning adabiyotga oid faoliyatini o‘rganish, “Mineralogiya” kitobidagi hikoyatlarni tahlil qilish.

71. Beruniyning “O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar” asaridagi rivoyatlarni tahlil qilish.

72. Badriddin Chochiy va Muhammad Avfiy Buxoriy ijodiga oid materillar to‘plash va bibliografiya tuzish.

73. X–XII asrlarda O‘rta Osiyoda fors tilida yaratilgan badiiy adabiyotga oid materillar yig‘ish va bibliografiya tuzish.

74. Noma janriga mansub asarlar to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plash: maqolalar, adabiyotlar, ilmiy ishlarning bibliografiyasini tuzish.

75. Munozara janriga mansub asarlar to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plash: maqolalar, adabiyotlar, ilmiy ishlarning bibliografiyasini tuzish.

76. Turkiy qavmlar tarixiga oid afsona va rivoyatlarni tahlil qilish.

77. Sulaymon to‘g‘risidagi qissani (“Qisasi Rabg‘uziy”dagi) xalq og‘zaki ijodidagi Sulaymon to‘g‘risidagi ertak va rivoyatlarga qiyoslab o‘rganish.

78. Iso Masih to‘g‘risidagi qissani (“Qisasi Rabg‘uziy”dagi) o‘zbek mumtoz adabiyotidagi barcha janrdagi asarlarda mavjud bo‘lgan Iso Masih obraziga qiyoslab o‘rganish.

79. “Suxayl va Guldursun” dostonini o‘rganish, asardagi obrazlarga tavsif berish.

80. Abdurahmon Jomiy ijodiga oid asarlarning o‘zbek va rus tillaridagi ilmiy asarlar bibliografiyasini tuzish

81. Jomiyning o‘zbekchaga tarjima qilingan asarlarini o‘rganish.

82. Temuriylar davrida tarjima adabiyoti. Nizomiy, Dehlaviy, Sa’diy va Hofiz asarlarining tarjimalari bibliografiyasini tuzish.

83. “Gul va Navro‘z” dostonini o‘rganish, asardagi obrazlarga tavsif berish.

84. “Yusuf va Zulayho” dostonini o‘rganish, asardagi obrazlarga tavsif berish.

85. Sharq adabiyotida “Yusuf” qissalari va “Yusuf va Zulayho” dostonlariga annotatsiya yozish.

86. ”Gul va Navro‘z”ning muallifi haqidagi munozaralarni o‘rganib chiqish.

87. “Muxtasar” va “Fununu-l-balog‘a”da Haydar Xorazmiyga oid ma’lumotlarni o‘rganish.

88. “Funun ul-balog‘a” asarida o‘zbek adabiyotiga noma’lum bo‘lgan shoirlarni o‘rganish.

89. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida o‘zbek mumtoz adabiyotiga oid (eng qadimgi davrlardan XU asrning birinchi yarmigacha) bosilgan maqolalarni o‘rganish, annotatsiya tuzish.

90. “Adabiy meros” to‘plamida 1990 yildan keyin o‘zbek mumtoz adabiyotiga oid (eng qadimgi davrlardan XU asrning birinchi yarmigacha) bosilgan maqolalarni o‘rganish, annotatsiya tuzish.

91. “Adabiyot ko‘zgusi” to‘plamida o‘zbek mumtoz adabiyotiga oid (eng qadimgi davrlardan XU asrning birinchi yarmigacha) bosilgan maqolalarni o‘rganish, annotatsiya tuzish.

92. Sayyid Qosimiyning merosini o‘rganish, dostonlar tarkibidagi tasavvufiy timsollarni aniqlash

93. “Ilohiynoma” dostonining g‘oyaviy–badiiy xususiyatlarini o‘rganish.

94. “Sadoqatnoma” dostonining g‘oyaviy–badiiy xususiyatlarini o‘rganish.

95. “Gulshani roz” dostonining g‘oyaviy–badiiy xususiyatlarini o‘rganish.

96. XU asrning 1 yarmida ijod qilgan shoirlar to‘g‘risida yaratilgan ilmiy asarlar to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plash: maqolalar, adabiyotlar, ilmiy ishlarning bibliografiyasini tuzish.

97. Husayn Boyqaro ijodi to‘g‘risida yaratilgan asarlar to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plash: maqolalar, adabiyotlar, ilmiy ishlarning bibliografiyasini tuzish.

98. Alisher Navoiy g‘azallaridan namunalar yodlash, g‘azallarni g‘oyaviy badiiy jihatdan tahlil qilish.

99. Navoiyning devonlaridagi debochalarda keltirilgan devon tuzish bilan bog‘liq fikrlarni to‘plash va umumlashtirish.

100. “Hayratu-l-abror” dostonining badiiyatini (vazn, qofiya, badiiy san’atlar) o‘rganish.

101. “Farhod va Shirin” dostonining timsollar olamini o‘rganish.

102. “Layli va Majnun” dostonining badiiy xususiyatlarini o‘rganish.

103. “Sab’ai sayyor” dostonidagi hikoyatlarning g‘oyaviy badiiy xususiyatlarini o‘rganish.

104. “Saddi Iskandariy” dostonining badiiyatini o‘rganish.

105. Navoiyning adabiyotshunoslik asarlaridan birini o‘zlashtirish.

106. Navoiyning yodnoma asarlaridagi bosh qahramonlarning shaxsiyatini o‘rganish.

107. ”Boburnoma” asaridagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish.

108. «Boburnoma»da badiiy ijod masalalariga bag‘ishlangan ma’lumotlarni to‘plab, o‘rganib chiqish..

109. Shoirning she’riy mahoratini o‘rganib, namunalar yodlash.

110. Muhammad Solih “Shayboniynoma” dostonini mutolaa qilish va timsollarni tavsiflash.

111. Turdi, Mashrab, So‘fi Ollohyor asarlari va tasavvuf ta’limoti masalasini qiyosan tahlil qilish.

112. Andalib va Nishotiy dostonlari misolida davr dostonchiligi borasida mulohaza yuritish. O‘xshash va farqli tomonlarini topish.

113. “Husnu Dil” dostonidagi ramziy timsollar lug‘atini tuzish.

114. «Rohati dil» asaridagi hikoyatlarni o‘rganib, asardagi maqomini belgilash.

115. Bobur ruboiylarini o‘rganib chiqib, janr taraqqiyotidagi o‘rnini belgilash.

116. «Muzakkiri ahbob» da XVI asr o‘zbek adabiyoti va madaniyatiga oid ma’lumotlar annotatsiyasini tuzish.

117. Qul Ubaydiy ruboiylarini tahlil etish.

118. «Sabotu-l-ojizin»da islom va tasavvuf g‘oyalarini aniqlab, o‘rganib chiqish.

119. Huvaydoning «Ibrohim Adham» qissasi va undagi timsollarni tavsiflash.

120. «Qissai Mashrab»da Mashrab shaxsini yorituvchi rivoyatlarga annotatsiya yozish.

121. Nishotiyning she’rlaridagi badiiy san’atlarni o‘rganib chiqish.

122. «Zarbulmasal» asaridagi maqollarni to‘plash va asardagi o‘rnini aniqlash.

123. Uvaysiy she’rlaridagi timsollar annotatsiyali bibliografiyasini tuzib chiqish.

124. Uvaysiy ijodida janr takomili masalasini g‘azal misolida o‘rganib chiqish.

125. Munis Xorazmiy ijodida kichik janrlarning o‘rnini belgilash.

126. Ogahiyning she’riy mahoratini belgilash.

Izoh: Ishchi dasturni shakllantirish jarayonida mustaqil ta’lim soatlari hajmiga mos holda belgilash tavsiya etiladi.

Talabalar mustaqil ta’limining shakli va mazmuni

№	Ishchi o’quv dasturining mustaqil ta’limga oid bo’lim va mavzulari	Mustaqil ta’limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarilish muddati	Hajmi (soatda)
	1-semestr			
1	Islomga qadar yaratilgan adabiy yodgorliklar (Eng qadimgi davrlardan VIII asrgacha)	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish.	2-hafta	4
2	Islomiy ruhdagi adabiyot (IX-XIV asrning yarmi)	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish.	3-5- hafta	6
3	Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodi	Konspekt yozish, “Qutadg‘u bilig”ni o‘qib, parcha yodlash.	6-8-hafta	4

4	Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodi	Konspekt yozish, “Habatul haqoyiq”ni o‘qib, tahlil qilish.	9-11-hafta	4
5	Xoja Ahmad Yassaviy ijodi	Konspekt yozish, ijodidan namuna yodlash.	12-14-hafta	4
6	Chingizxon istilosi davri adabiyoti	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish.	15-16-hafta	4
7	Nosiriddin Rabg‘uziy hayoti va ijodi	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish.	17-18-hafta	4
	2-semestr			
8	Temuriylar davrida madaniy hayot. Xorazmiy va uning “Muhabbatnoma”si. Noma janri.	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish. “Muhabbatnoma”dan parcha yodlab, tahlil qilish.	2-hafta	6
9	“Yusuf va Zulayho” dostoni. Qutb hayoti va ijodining manbalari. “Xisrav va Shirin” dostoni.	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish. Dostonlarni tahlili qilish	3-5- hafta	4
10	Atoyi hayoti va ijodi, lirikasi.	Konspekt yozish, namuna yodlab, tahlil qilish.	6-8-hafta	4
11	Sakkokiy hayoti va ijodi, lirikasi.	Konspekt yozish, namuna yodlab, tahlil qilish.	9-11-hafta	4
12	Gadoiy va Sayyid Qosimiy hayoti, ijodi, lirikasi.	Konspekt yozish, namuna yodlab, tahlil qilish.	12-14-hafta	4
13	Lutfiy hayoti va ijodi, lirikasi.	Konspekt yozish, namuna yodlab, tahlil qilish.	15-16-hafta	4
14	Alisher Navoiy va uning davri adabiyoti. Husayniy lirikasi. Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati.	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish.	17-18-hafta	6
	3-semestr			
15	Alisher Navoiyning lirik merosi. “Xazoyinu-l-maoniy” – lirik qomus sifatida.	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish. Navoiy ijodidan namuna yodlab, tahlil qilish.	2-hafta	8
16	Xamsanavislik an’anasi va Alisher Navoiy “Xamsa”si.	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish. “Xamsa” dostonlarini tahlili qilish	3-4-hafta	8
17	«Lisonu-t-tayr» falsafiy-tasavvufiy doston sifatida.	Konspekt yozish, dostondan parcha yodlab, tahlil qilish.	5-6- hafta	4
18	Alisher Navoiyning ilmiy merosi.	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish.	7-8-hafta	6
19	XVI-XIX asrlar (I yarmi) adabiyoti	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish.	9-11-hafta	4
20	Bobur hayoti va ijodi, she’riyati.	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish. Bobur ijodidan namuna yodlab, tahlil qilish.	12-14-hafta	6
21	«Vaqoe’ - Boburnoma» haqida.	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish.	15-16-hafta	6
22	O‘zbekxonlar davrida adabiy hayot. Shayboniyxon hayoti va	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish.	17-18-hafta	4

	ijodi. Muhammad Solih ijodi.	“Shayboniynoma”dan parcha yodlab, tahlil qilish.		
	4-semestr			
23	Xoja va Qul Ubaydiy hayoti, ijodi, adabiy merosi.	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish. Xoja va Qul Ubaydiy ijodidan namuna yodlab, tahlil qilish.	2-hafta	4
24	Mashrab va So‘fi Ollohyor hayoti, ijodi, adabiy merosi.	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish. Mashrab va So‘fi Ollohyor ijodidan namuna yodlab, tahlil qilish.	3-4-hafta	4
25	Xiva adabiy muhiti. Abulg‘ozi Bahodirxon, Nishotiy, Andalib, Shermuhammad Munis hayoti va ijodiy merosi.	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish.	5-6-hafta	4
26	Ogahiy hayoti va ijodi, lirikasi, badiiy mahorati.	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish, Ogahiy ijodidan namuna yodlab, tahlil qilish.	7-8-hafta	4
27	Qo‘qon xonligidagi madaniy hayot. Xo‘janazar Huvaydoning hayoti va ijodi.	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish, Huvaydo ijodidan namuna yodlab, tahlil qilish.	9-11-hafta	4
28	Amiriy hayoti va ijodi. Gulxaniy hayoti va ijodi. «Zarbulmasal» asari.	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish. Amiriy ijodidan namuna yodlab, tahlil qilish.	12-14-hafta	4
29	Uvaysiy hayoti va ijodi. Adabiy merosi.	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish. Uvaysiy ijodidan namuna yodlab, tahlil qilish.	15-16-hafta	4
30	Mohlaroyim Nodira hayoti va ijodi.	Mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishib, konspekt yozish. Nodira ijodidan namuna yodlab, tahlil qilish.	17-18-hafta	4
			:JAMI:	**140**

O`quv yuklamasi

№	mashg‘ulot turi	AJRATILGAN SOAT				
		1-semestr	2-semestr	3-semestr	4-semestr	JAMI
1	ma’ruza	14	16	30	16	76
2	amaliy	10	12	22	12	56
3	laborotoriya	-	-	-	-	-
4	seminar	12	12	20	14	58
5	mustaqil ish	30	32	46	32	140
	JAMI:	**66**	**72**	**118**	**74**	**330**

Ballar taqsimoti

Fan	70 ball												30 ball
	JB 35 ball						OB 35 ball						YaB
	amaliy			Mustaqil ish			Ma’ruza uchun			Mustaqil ish			Turi
	soni	ball	jami	soni	ball	jami	Soni	ball	jami	soni	ball	jami	
1-semestr	1	25	25	1	10	10	1	25	25	1	10	10	og‘zaki
2-semestr	1	25	25	1	10	10	1	25	25	1	10	10	Yozma
3-semestr	1	25	25	1	10	10	1	25	25	1	10	10	Yozma
4-semestr	1	25	25	1	10	10	1	25	25	1	10	10	Yozma

NAZORAT TURLARINI O‘TKAZISH TARTIBI

1. Joriy nazorat o‘tkazish tartibi:
   Ushbu nazorat turi auditoriyada akademik guruhning barcha talabalari ishtirokida quyidagt shakllarda o‘tkaziladi:

   - uy vazifalarini tekshirish;
   - amaliy mashg‘ulotlarni tekshirish;
   - test sinovlari o‘tkazish;
   - nazorat ishlarini o‘tkazish;
   - og‘zaki so‘rov.

2. Oraliq nazoratni o‘tkazish tartibi:
   Ushbu nazorat turi auditoriyada potok yoki akademik guruhdagi barcha talabalar ishtirokida quyidagi shakllarda o‘tkaziladi:

   - kollokvium;
   - og‘zaki so‘rov;
   - test sinovlari o‘tkazish;
   - yozma ish.

3. Yakuniy nazoratni o‘tkazish tartibi:
   Ushbu nazorat turi auditoriyada potok yoki akademik guruhning barcha talabalari ishtirokida “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fanidan 1-semestrda “og‘zaki”, 2-3-4-semestrlarda “Yozma ish” shaklida o‘tkaziladi. Savollar variant ko‘rinishida ham berilishi mumkin.

“O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni

“O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat 1 marta o’tkaziladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat shakli (yozma, og‘zaki, kollokvium, test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilandi;

yakuniy nazorat (YaN) – semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan 1-semestrda “og‘zaki”, 2-3-4-semestrlarda “Yozma ish” shaklida o‘tkaziladi.

ON o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o‘tkaziladi.

Universitet rektorining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o‘tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

“O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fani bo‘yicha talabalarning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi maksimal 100 ballik tizimda baholanadi.

YaN-30 ball, qolgan 70 ball esa JN-35 ball va ON-35 ball qilib taqsimlanadi

Talabaning “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fani bo`yicha o`zlashtirish ko`rsatkichi quyidagi mezonlar asosida baholanadi

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi kerak	A’lo	• xulosa va qaror qabul qila olish; • ijodiy fikrlay olish; • mustaqil mushohada yurita bilish; • olgan bilimlarini amalda qo`llay olish ko`nikmalariga ega bo`lish; • mavzular mohiyatini to`la bilish va aytib bera olish; • boy uslubiy tasavvur va fikrlashga ega bo`lish; • “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” faniga oid termin va tushunchalarni izohlay olish;
71-85 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi kerak	Yaxshi	• mustaqil mushohada yurita olish; • auditoriyada olgan bilimlarini amalda qo`llay ola bilish; • mavzular mohiyatini bilish, aytib berish; • “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” faniga oid termin va tushunchalarni izohlay olish;
55-70 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi kerak	Qoniqarli	• uslubiy xolatlar mohiyatini tushunish; • mavzular mohiyatini bilish, aytib berish; • “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” faniga oid termin va tushunchalarni izohlay olish;
0-54 ball bilan talabaning bilim	Qoniqarsiz	• uslubiy xolatlar mohiyatini tushunib yetmaslik; • “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fani bo’yicha aniq

darajasi quyidagi holatlarda baholanadi		tasavvurga ega bo`lmaslik; • “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” faniga oid termin va tushunchalarni izohlay bilmaslik;

Fan bo‘yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

Talabalarning o‘quv fani bo‘yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabaning fan bo‘yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $R = \frac{V \cdot Q}{100}$ bu yerda:

V - semestrda fanga ajratilgan umumiy o‘quv yuklamasi (soatlarda);

Q-fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo‘yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to‘plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo‘yicha 55 ball va undan yuqori ballni to‘plagan talaba fanni o‘zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo‘l qo‘yiladi.

Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy balli har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to‘plagan ballari yig‘indisiga teng.

ON va **YaN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o‘tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o‘tkaziladi.

JN va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi.

Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo‘yicha to‘plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo‘lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha to‘plagan ballari yig‘indisi 55 baldan kam bo‘lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, fan bo‘yicha nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan 3 (uch) a’zodan kam bo‘lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o‘rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o‘quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi

Talabalar JN dan to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko‘rsatkichlar	JN ballari	
		maks	O‘zgarish oralig‘i
1	Darslarga qatnashganlik va o‘zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg‘ulotlardagi faolligi, amaliy mashg‘ulot daftarlarining yuritilishi va holati	10	0-10
2	Mustaqil ta’lim topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo‘yicha uy vazifalarini bajarilish va o‘zlashtirishi darajasi.	10	0-10
3	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	15	0-15
Jami JN ballari		**35**	**0-35**

Talabalar ON dan to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko‘rsatkichlar	ON ballari	
		maks	O‘zgarish oralig‘i
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma’ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to‘liqligi.	10	0-10
2	Talabalarning mustaqil ta’lim topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarishi va o‘zlashtirish.	10	0-10
3	Og‘zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo‘yicha	15	0-15
Jami ON ballari		**35**	0-35

Yakuniy nazorat 1-semestrda “Og’zaki”, 2-3-4-semestrlarda “Yozma ish” shaklida o’tkazilishi belgilangan. U maksimal 30 ballik tizimda o’tkaziladi.

Yakuniy nazoratda “Og’zaki” javoblarnilarni baholash mezoni

“O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fani bo`yicha talabaning og’zaki javoblari bo’yicha o`zlashtirish ko`rsatkichi yuqorida ko’rsatilgan mezonlar asosida baholanadi.

Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezoni

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov 15 variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variant 3 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar asosida tuzilgan bo‘lib, fanning barcha mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0-10 ball oralig‘ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to‘plashi mumkin. Yozma sinov bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo‘yilgan o‘zlashtirish ballari qo‘shiladi va yig‘indi talabaning yakuniy nazorat bo‘yicha o‘zlashtirish bali hisoblanadi.

Dasturning informatsion-uslubiy ta’minoti

Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy uslublari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan.Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, ovozli yozuvdan, video ko‘rsatuvlardan, hujjatli filmlardan, multimediya namoyishlari kabilardan, Adabiyot muzeyi ekspozitsiyasidan foydalaniladi.

FOYDALANILADIGAN ASOSIY DARSLIKLAR VA O‘QUV QO‘LLANMALAR RO‘YXATI

Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

13. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua (1-jild). Tuzuvchilar: N.Rahmonov, H.Boltaboev – T.: Fan, 2003.

14. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-2 jild) Tuzuvche: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005; 2006.

15. Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. - Samarqand: 2005.

16. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Darslik. – T.: O‘zYU Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.

17. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2006.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1.Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild. - T.: Ma’naviyat, 2000.

2.Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. - T.: 2002.

3. Boltaboev H. Mumtoz so‘z qadri. - T.: Adolat, 2004.

4. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. - T.: 2005.

5. Sharq mumtoz poetikasi H.Boltaboev talqinida. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘UM, O‘zMU 2011. O‘zbek filologiyasi fakulteti kutubxonasi.
7. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami. 20 jildlik. - T.: 1987-2004.
8. Boborahim Mashrab. Mehribonim qaydasan. - T.: 1990.
9. Bobur. Boburnoma. - T.: 2002.
10. Islom tasavvufi manbalari. - T.: O`qituvchi, 2005.
11. Muborak maktublar. - T.: 1987.
12. Ogahiy. Asarlar. Olti jildlik - T.: 1971-1976.
13. Uch bulbul gulshani. - T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1986.
14. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. - T.: Movarounnahr, 2004.
15. O‘zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. - T.: Fan, 1978-1983.
16. Lutfiy. Devon. T., 1965 yil
17. Mallaev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi., T., 1965 yil
18. Erkinov s. Lutfiy, T. 1965 yil
19. Isoqov Z. “Gul va Navro‘z” dostonining muallifi masalasi., “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1972 yil 1-son
20. Erkinov S. Yana “Gul va Navro‘z” dostoni muallifi masalasi “O‘zbek tili va adabiyoti” 1972 yil 2 son
21. Rustamov V “Gul va Navro‘z” dostoni muallifi masalasi “O‘zbek tili va adabiyoti” 1972 yil 3- son
22. Fozilov E. “Gul va Navro‘z” dostoni muallifi masalasi “O‘zbek tili va adabiyoti” 1972 yil 4- son
23. Valixo‘jaev B. “Gul va Navro‘z” dostoni muallifi masalasi “O‘zbek tili va adabiyoti” 1975 yil, 5- son
24. G‘ulomov Ya.G‘. Alisher Navoiy davrining o‘rganish haqida (“Ulug‘ o‘zbek shoiri,” Maqolalar to‘plami, O‘z FAN, III; 1948 yil)
25. Jalilov B. Meros va ixlos. Andijon 1995 yil
26. Sharipov J. O‘zbekistonda tarjima tarixidan. III, 1965 yil
27. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy, III 1966 yil
28. Vohidov R. XIV asrning ikkinchi yarmi XV asrning boshlarida o‘zbek va tojik she’riyati. III 1983 yil
29. Nasriddin Burxonuddin Rabg‘uziy. “Qissai Rabg‘uziy”. 1-II kitoblar T., 1990 yil
30. Rayimjonovna D. “Muhabbatnoma” va “Latofatnoma” asarlarining qiyosiy taxlili. Andijon. 1992 yil
31. Muborak maktublar, T., 1987 yil
32. Sayfi Saroyi. She’rlar. Guliston., T., 1968 yil
33. Fozilov E. XIV asr Xorazm yodnomalari, III., 1973 yil
34. Valixo‘jaev B. O‘zbek epik poeziyasi tarixidan., III. 1974 yil
35. Sulaymonov F. “Yusuf va Zulayxo dostoni”, “Adabiy meros” 1973 yil 3-son 31. Fozilov E. “Yusuf va Zulayxo” dostoni muallifi, “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 1974 yil 4-son.
36. Shodiev E. “Yusuf va Zulayho”, “Sharq yulduzi”, 1990 yil 6-son
37. Karamatov H. “Qur’on va o‘zbek adabiyoti”, T., 1993 yil
38. Qur’oni Karim. “Yusuf surasi”, O‘zbek izohli tarijima. T. 1992 yil
39. Sakkokiy. Tanlangan asarlar. T. , 1960 yil
40. Hayot vasfi. T., 1988 yil
41. Rustamov E. Uzbekskaya poeziya v pervoy polvine XV vena. M:, 1963 yil
42. Otoiy. Tanlangan asarlar, T., 1958 yil
43. S. Rafiddinov. Majoz va haqiqat. T., 1995 yil
44. Jalilov B. Boburning badiiy mahorati. Andijon 1993 yil
45. Rahmonov N. Ruhiyatdagi dil murodi. – T.: 2002.

46. Sirojiddinov Sh. So‘fi Ollohyor ilohiyoti. –T.: 2001;
47. Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild (Maqolalar).– T.: Ma’naviyat, 2000.
48. Hayitmetov A. Temuriylar davri adabiyoti.– T.: Fan, 1996.
49. Hamidov H. «Avesto» fayzlari. – T.: 2001.
50. O‘zbek nasri tarixidan. – T.: Fan, 1982.
127. www.literature.uz

TA’LIM TEXNOLOGIYaSI

“O‘zbek adabiyoti” fani bo‘yicha ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari

Ta’lim texnologiyasi insoniylik tamoyillariga tayanadi. Falsafa, pedagogika va psixologiyada bu yo`nalishning o`ziga xosligi talabaning individualligiga alohida e’tibor berish orqali namoyon bo’ladi.

Shulardan kelib chiqqan xolda, «O‘zbek Adabiyoti» kursining ta’lim texnologiyalarini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondashuvlarga e’tibor berish kerak.

Ta’limning shaxsga yo‘naltirilganligi. O‘z mohiyatiga ko`ra bu yo`nalish ta’lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning to`laqonli rivojlanishini ko`zda tutadi. Bu esa Davlat ta’lim standarti talablariga rioya qilgan holda o‘quvchining intellektual rivojlanishi darajasiga yo‘naltirilib qolmay, uning ruxiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni ham anglatadi.

- **Tizimli yondashuv.** Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam qilishi zarur.Jarayonning mantiqiyligi, undagi qismlarning o‘zaro aloqadorligi, yaxlitligi.
- **Amaliy yondashuv.** Shaxsda ish yuritish xususiyatlarini shakllantirishga ta’lim jarayonini yo‘naltirish, o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha layoqati va imkoniyatlarini, sinchkovligi va tashabbuskorligini ishga solishni shart qilib qo‘yadi.
- **Dialogik yondashuv.** Ta’lim jarayonidagi ishtirokchi sub’ektlarning psixologik birligi va o‘zaro hamkorligini yaratish zaruratini belgilaydi. Natijada esa, shaxsning ijodiy faolligi kuchayadi.
- **Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish.** Demokratiya, tenglik, sub’ektlar munosabatida o‘qituvchi va o‘quvchining tengligi, maqsadini va faoliyat mazmunini aniqlashni ko‘zda tutadi.
- **Muammoli yondashuv.** Ta’lim jarayonini muammoli holatlar orqali namoyish qilish orqali o‘quvchi bilan birgalikdagi hamkorlikni faollashtirish usullaridan biridir. Bu jarayonda ilmiy bilishning ob’ektiv ziddiyatlarini aniqlash va ularni hal qilishning dialektik, tafakkurni rivojlantirish va ularni amaliy faoliyatda ijodiy ravishda qo’llash ta’minlanadi.
- **Axborot berishning eng yangi vosita va usullaridan foydalanish,** ya’ni o‘quv jarayoniga kompyuter va axborot texnologiyalarini jalb qilish.

Yuqoridagi konseptual yondashuv va «O‘zbek adabiyoti» fanining tarkibi, mazmuni, o‘quv axborot xajmidan kelib chiqqan xolda o‘qitishning quyidagi usul va vositalari tanlab olindi:

- **O‘qitish usullari va texnikasi :** muloqot, muammoli usul, o‘rgatuvchi o‘yinlar, «aqliy xujum», insert, «birgalikda o‘rganamiz», pinbord, ma’ruza (kirish ma’ruzasi, vizual ma’ruza, tematik, ma’ruza-konfkrknsiya, aniq holatlarni yechish, avvaldan rejalashtirilgan xatoli, sharxlovchi, yakuniy ma’ruzalar).
- **O‘qitishni tashkil qilish shakllari:** frontal, kollektiv, guruhiy, dialog, polilog va o‘zaro hamkorlikka asoslangan.
- **O‘qitish vositalari:** odatdagi o‘qitish vositalari(darslik, ma’ruza matni, tayanch konspekti)dan tashkari grafik organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalari.
- **O‘zaro aloqa vositalari:** nazorat natijalarining tahlili asosida o‘qitishning diagnostikasi(tashxisi).
- **Boshkarishning usul va vositalari.** O‘quv mashg‘ulotini texnologik karta ko‘rinishida rejalashtirish o‘quv mashg‘ulotining bosqichlarini belgilab, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘quvchi va o‘qituvchining hamkorlikdagi faoliyatini talabalarning auditoriyadan tashkari mustaqil ishlarini aniqlab beradi.
- **Monitoring va baholash.** O‘quv mashg‘uloti va butun kurs davomida o‘qitish natijalarini kuzatib borish, o‘quvchi faoliyatini har bir mashg‘ulot va yil davomida reyting asosida baholash.

Ma’ruza mashg‘ulotini tashkil etishning shakl va xususiyatlari:

№	Ma’ruza shakllari	Uziga xos tavsiflovchi xususiyatlari
1	Kirish ma’ruzasi	Fan to‘g‘risida yaxlit tasavvur hamda ma’lum yo‘nalishlar beradi.Pedagogik vazifasi: o‘quvchini ushbu fanning vazifalari va maqsadi bilan tanishtirish, kasbiy tayyorgarlik tizimida uning urni va rolini belgilash, kursning qisqacha sharxini berish, fanning yutuqlari va taniqli olimlar nomlari bilan tanishtirib, kelajakdagi izlanishlarning yo‘nalishini belgilash, tavsiya qilingan o‘quv-uslubiy adabiyotlar tahlilini berish, hisobot va baholashning muddatlari va shakllarini belgilash.
2	Ma’ruza-axborot	Ma’ruzaning odatdagi an’anaviy turi. Pedagogik vazifasi: o‘quv ma’lumotlarini bayon qilishi va tushuntirish.
3	Sharxlovchi ma’ruza	Bayon qilinayotgan nazariy fikrlarning o‘zagini, ilmiy tushunchalar va butun kurs yoki bulimlarning konseptual asosini tashkil etadi. Pedagogik vazifasi: ilimiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish, fanlarning o‘zaro aloqadorligini ochish.
4	Muammoli ma’ruza	Yangi bilimlar qo‘yilgan savol, masala, holatning muammoliligi orqali beriladi. Bunda o‘quvchining o‘qituvchi bilan birgalikdagi bilish jarayoni ilmiy izlanishga yakinlashdi. Pedagogik vazifasi: yangi o‘quv axborotining mazmunini ochish, muammoni qo‘yish va uning yechimini topishni tashkil qilish, Hozirgi zamon qarashlarini tahlil qilish.
5	Vizual ma’ruza	Ma’ruzaning mazkur shakli vizual materiallarni namoyish etish hamda ularga aniq va kiska sharxlar berishga karatilgan. Pedagogik vazifasi: yangi o‘quv ma’lumotlarini o‘qitishning texnik vositalari va audio, videotexnika yordamida berish.
6	Binar(ikki kishilik) ma’ruza	Bu ma’ruza ikki o‘qituvchining yoki ikkita ilmiy maktab namoyandasining, o‘qituvchi-talabaning dialogidan iborat. Pedagogik vazifasi: yangi o‘quv ma’lumotlarining mazmunini yoritish.
1. Kul tigin bitigtoshidagi naqshlar kim tomonidan tayyorlangan?
2. Tangut qabilasi haqida ma’lumot bering.
3. “Bilga xoqon” bitigtoshida Bilga xoqonning qaysi qabilalarga lashkar tortgani haqida ma’lumot beriladi?

GLOSSARIY

GLOSSARIY

1. Syujet -doston qahramonlarining xatti-harakatlarini, ularning ichki kechinmalari bilan birgalikda ijodkor g‘oyasini ifodalashga xizmat qiladigan tartibda asar voqealarining badiiy sistema sifatidagi batafsil bayoniSan’at – yaratmoq, mahorat.
4. Badiiy adabiyot – go‘zal adabiyot, yangi fikr ifodalangan adabiyot.
5. Badiiy obraz – narsa-predmetning san’atkor tomonidan yaratilgan tasviri.
6. Istiora – badiiy adabiyotda bir narsa predmet o‘rniga ikkinchi mos narsa predmet nomining qo‘llanilishi.
7. Iyhom - badiiy adabiyotda bir so‘zning bir o‘rinda qo‘llangani holda ikki ma]noni ifodalashi.
8. Transfigurasiya – bir narsa predmetning boshqa narsa predmet shakliga o‘tishi.
9. Epos – boshlanishi, rivojlanishi va yakuni ifodalangan asar.
10. Lirika – ichki kechinma, his-tuyg‘u ifodalangan asar. Bunday asarlarda voqea tasviri nisbiy bo‘ladi.
11. Drama – sahnada ko‘rsatish mo‘ljallangan asar {xalq dramasi, askiya}.
12. Qo‘shaloqlashtirish – ertak va dostonlarda qo‘llanadigan usul. Ularda asar qahramoni vazifasi murakkablashtiriladi.{qahramon uch yo‘l qarshisidan chiqadi: borsa kelar, borsa xatar, borsa kelmas –qo‘shaloqlashtirish}.
13. Paralellizm – tasvirlangan qahramon taqdirining narsa, predmet bilan taqqoslanishi. {tokchadagi qaychi – yangi tushgan kelin}.
14. Turkumlilik – bir necha asarning shahar nomi, geografik nomi, narsa-predmet nomi bilan umumlashuvi.
15. Improvizasiya – badihago‘ylik.

A

Arabi	-	baland ovozda
Aytishuv	-	kompozitsion asosini savol-javob tashkil etadigan voqeaband ijod turi
Antahur	-	Musaffo
Antohur mayi	-	Ilohiy may, ishq-muhabbat uyg‘otuvchi may
Anqib ketmoq	-	to‘g‘ri kelgan yo‘lga solib ketmoq
Arsillamoq	-	Harsillamoq
Asabador	-	shoh saroyida bosh kiyimlar amaldori
Ashropi	-	katta
Ashropi to‘p	-	katta to‘p
Alam	-	bayroq (“Malikjon” ertagi)
Amudi gars	-	to‘s-to‘polon (“Malikjon” ertagi)
Arpali ko‘li	-	“Alpomish” dostonidagi epik ko‘l
Ajdahor	-	afsonaviy katta ilon
Afulloh	-	Xudo afv etsin
Axiy	-	arabcha so‘z bo‘lib, birodar ma’nosida
Arbovchi	-	avraydigan
Ayo	-	esk. ayn. ey undovi
Azroil	-	(a) diniy aqidalarga ko‘ra odamlar jonini oladigan farishta; ajal farishtasi
Asp	-	(f-t) 1. Dial. ot. 2. shaxm.ot shaklidagi sipoh. 3. ayn. ot.
Alag‘da	-	ko‘ngil alag‘da, ko‘ngil betinch; ko‘ngil joyida emas, xotirjam emas, bezovta
Alvasti	-	1.mif.Go‘yo har xil qiyofada ko‘rinadigan afsonaviy mahluq; jin, ajina
Afsun	-	(a) “sehr”, “jodu” ma’nosida

B

Bachcha	-	bola, o‘spirin, yigit
Bedarakka	-	bekorga, bo‘shga, o‘rinsiz
Boychechak		bolalarning bahorgi mavsum qo‘shig‘i va o‘yini nomi
Bo‘ka-bo‘kaboy		Namangan viloyati bolalarining boychechak xabari bilan bog‘liq bahorgi mavsum qo‘shig‘i va o‘yini.
Beshtosh		qiz bolalar tomonidan beshta kichik toshcha yordamida o‘ynaladigan predmetli o‘yin turi
Bekinmachoq		yilning deyarli barcha fasllarida o‘ynashga xoslangan, o‘yin ishtirokchilarining yashirinishlari va navbatda qolgan bolaning qidirib topishiga asoslangan an’anaviy bolalar o‘yini.
Badrak	-	badrag, zoti past, yaramas
Barqiramoq	-	do‘q bilan qichqirmoq
Bahrin	-	katta yirtqich qush, burgutning bir turi
Berman	-	beri tomon, yaqin
Birbilak	-	bilagi baquvvat, bilagi kuchli
Birim	-	bronza
Biqmoq	-	yashirinmoq, pismoq
Bod bo‘lsin	-	ofarinlar bo‘lsin
Boz	-	lochin

V

Vayangan	-	Hasanxon tug‘ilgan yurt
Varqiramoq	-	kishini hayajonga soluvchi qattiq tovush bilan ketma-ket qichqirmoq
Voylar	-	ohu voylar
Vayvayak	-	dial. chiyabo‘ri
Vallamat	-	dial.vali+ne’mat)1.s.t.ayn.valine’mat. 2. o‘z mehnati sinmagan narsalarga, birovnikiga saxiylik, xo‘jayinlik qilaveradigan odam, errayim. 3. oqsoqol, boshliq, amaldor. 4. folk. yigit, sarboz.
Vodarig‘ (o)	-	(f-t) und.s.afsus-pushaymonni, oh-vohni ifodalaydi, ma’no va funksiyasi jihatidan “hay darig‘”, “vovaylo” kabi so‘zlarga to‘g‘ri keladi.
Vavag‘	-	1.taql.s.bedananing sayrashi haqida. 2.ko‘chma. baqirib, vag‘illab gapiradigan odam haqida.
Vadavang	-	s.t.taql.baravj ashula, muzika, raqs va shu kabilar haqida
Valakisalang	-	s.t.o‘taketgan beg‘am, beparvo, ishyoqmas
Vang‘	-	rvsh.s.t.salb.avjida, baravj
Vaqo	-	(a): hech vaqo yo‘q, hech narsa yo‘q
Vahiy	-	(a) din. go‘yo xudo tomonidan payg‘ambarga Jabroil farishta orqali keltirilgan xabar, buyruq va shu kabilar
Vahshiy	-	(a) ibtidoiy bosqichdagi, maorif-madaniyatdan uzoq, juda ham orqada qolgan, yovvoyi
Viqor	-	(a) mag‘rurona va ulug‘vor ko‘rinish; salobat

G

Gidiradi	-	sekinladi
Gidirmoq	-	bir joyda qimirlamay, siljimay turmoq
Guvdiramoq	-	guv-guv etmoq, gur-gur etmoq
Gupirmoq	-	ko‘pirmoq, ko‘tarilmoq, shishmoq,
Gurtak	-	qor uyumi
Go‘sam	-	katta serka, qo‘ylarni yetaklab yuruvchi serka, yetakchi

Guldirak - momaqaldiroq, momaqaldiroq kabi guldiradigan ovoz
Guldiros - kuchli, davomli guldiragan ovoz
Guliston - yashnagan, obod yer, bog‘-bo‘stonlar bilan qoplangan o‘lka, obod mamlakat
Gulob - (f-t) atirgul suvi, atirgul suvidan tayyorlangan sharob, ko‘chma; may, sharob
Gumbaz - (f-t) qubba shaklidagi tom, ko‘chma; beso‘naqay, katta semiz odam haqida
Gung - so‘zlash qobiliyatidan mahrum bo‘lgan, tilsiz, soqov, gungalak
Gungursday - s.t. jussasi katta, gavdali, gumbazday
Gurzi - tar.to‘qmoq shaklidagi harbiy qurol, shash par, katta og‘ir to‘qmoq
Go‘lax - (f-t). hammomning o‘t yoqiladigan joyi, o‘chog‘i, go‘laxxona
Go‘rso‘xta - (f-t) qarg‘. go‘ringda kuygur

D

Dahr - (a) esk.kt. 1.zamon, davr. 2. ko‘chma; olam, dunyo, jahon
Dev - (f-t) ertak va xalq dostonlarida shoxli, dumli, benihoyat ulkan odam qiyofasida tasavvur etiladigan hayoliy mahluq
Doyi - dial. tog‘a
Dog‘uli - ayyor, mug‘ambir, aldoqchi
Duvarak - (f-t) 1. mevali daraxtning bir yilda ikkinchi bor bergan mevasi. 2. bo‘yi past, pachoq (odam haqida)
Duldul - (a) diniy afsonalarga ko‘ra Muhammad payg‘ambar Hazrat Aliga tortiq o‘tgan uchar otning laqabi
Davangirday - salb. beso‘naqay, katta, suyagi buzuq
Dara - (f-t) ikki tog‘ oralig‘idagi uzun, tor chuqur joy, jarlik
Darbadar - (f-t) eshikma-eshik yuruvchi. o‘zga ellarda g‘urbatda kezuvchi
Darband - (f-t) tog‘ orasidagi tor yo‘l
Darvesh - (f-t) din. tarki dunyo qilgan, go‘shanishanlikka berilgan odam, so‘fiy
Dafina - (a) yerga ko‘milgan boylik, xazina
Dahsar - ba’zi hududlarda 32 kilogrammgacha, ba’zi hududlarda to‘rtdan bir botmonga teng og‘irlik o‘lchovi
Devkor - (f-t) tezkor, charchashni bilmaydigan, ishlab tolmaydigan odam.

E

Zulfiqor - (a) Muhammadning kuyovi bo‘lmish to‘rtinchi xalifa Alining afsonaviy qilichi
Zabarjad - (a) min. shaffof, och yashil qimmatbaho tosh
Zabon - (f-t) til; so‘zlash qobiliyati, nutq
Zang‘ar - (f-t) so‘k. bachchag‘ar, la’nati
Zarif - (a) aqli teran, g‘oyat aqllli, idrokli, g‘oyat go‘zal, zebo, nozik, nafis
Zahra - (f-t) 1. esk.ayn.zarda. 2. folk. jur’at, shijoat, jasorat
Zebigardon - (f-t) etn. oltin yoki kumushdan yasalib, bo‘yinga osiladigan ziynat buyumi
Ziyodon - (a+f-t) folk.qandil, shamdon
Zil-zambil - ko‘tarib bo‘lmas darajada og‘ir

Zimziyo - (f-t. sim-siyox) s.t. hech narcha koʻrib boʻlmaydigan darajada qorongʻi, qop-qorongʻi, tim qorongʻi

Zingʻircha - s.t. zigʻirday, juda oz, ozgina

Zohir - (a) kt.sirt, sirtqi tomon, ochiq-oydin, ravshan

Zulfak - (f-t) folk.zulf, gajak, jamalak

Zulfakdor - folk.gajakdor

Zoʻgʻota - 1. ketmon, tesha yoki boltaning sop oʻrnatiladigan teshigi, 2. makkajoʻxorining donsiz oʻzagi

I

Iros - rost

Irosi - rosti

Ikki buyri - och biqini

Iri - yirik

Iram bogʻi - afsonaviy bogʻ (baʼzan Eram bogʻi tarzida ham qoʻllaniladi)

Idiramoq - tong qolib, boʻshashmoq

Iyinmoq - buklanmoq, buklab olmoq

Ilgʻor - asosiy qoʻshindan oldin yuborilgan harbiy qism

Imtiyoz - farq

Ingishlamoq - choq boʻlib turmoq

Inoq - xonlikda podshoning buyruq va topshiriqlarini joylardagi amaldorlarga yetkazib turuvchi katta amaldor

Irgamoq - silkitmoq

Iqmoq - oʻzini panaga olmoq

Isfahon - keskir tigʻ, qilich, xanjar. oʻtgan asrlarda isfahon ustalari ishlagan keskir tigʻlarga nisbatan isfahoniy soʻzidan

Itilgi, itungi - itolgʻu, olgʻir yirtqich qush

Ishogʻasi - koʻpchilik kuchi bilan bajariladigan mehnatlar nazoratchisi

Iqmoq - qoʻrqmoq; choʻchimoq

Isfahsolar - sardor maʼnosida

Ik kun - ikki kun

Iblis - (a) 1.din. odamlarni yoʻldan ozdiruvchi yomon yoʻlga boshlovchi mifik mahluq, shayton; 2. koʻchma. yomon odam haqida, malʼun, shayton

Izdahom - (a) kt. suhbatlashish, chaqchoqlashish maqsadida toʻplangan yigʻin, yigʻilish, davra

Izillamoq - bir turli choʻziq chinqiroq ovoz chiqarib yelmoq, vizillamoq, izgʻirmoq

Im - bosh irgʻatib yoki yuz, koʻz, qosh, qoʻl harakati bilan qilingan ishora

Inju - marvarid, dur

Irkit - kishi yirganadigan darajada kir, iflos

Isliq - oʻtovning tepa tuynugini bekitib turadigan qismi

Illayga - oldinga

Y

Koʻpraka - koʻproqqa

Koʻpman - koʻp bilan

Kal ertaklarda dastlab hayoti qashshoq holda tasvirlanib, ertak yechimida oʻzining uddaburonligi, bilimdonligi tufayli hayoti farovonlashib, ulugʻ martabaga erishadigan obraz

Kashal yurti - epik makon (“Alpomish” dostoni)
Kadi matbax - qalandarlar bo‘yniga, beliga osib yuradigan, tilanchilikdan tushgan pul va ovqatlarni soladigan qovoq asbob
Kajraytmoq - egri qilmoq; kajrayib-otning turgan yerida jilov bilan boshini burib
Kant - arx.shahar; qishloq
Kaptarmezar kovush - zar bilan tikilgan kovush
Katilmoq - kertilmoq
Kelbat - qiyofa; qomat
Keraga - o‘tov va qora uyning chetansimon devor qismi
Kerish - janjal; talash-tortish
Kechiksin - kechi bilan; kechqurun
Kiravka - 1.jangda tanani o‘q va tig‘dan saqlash uchun kiyiladigan metall nimcha (misdan yasalgan); 2. xira, nursiz
Kiravka bo‘lmoq - majoziy: sarg‘aymoq
Kiyanki - qarg‘ish: buzuq, fohisha
Kulo - kuloh
Ko‘kay - din: qalb
Ko‘k tirnoq - qarg‘ish: yaramas, zoti past
Ko‘lik - ulov, yuk ortilgan ulov
Ko‘mak - ko‘p
Ko‘mak bo‘lmoq - ko‘payishmoq
Ko‘rik - dam; metallsozlikda o‘tning alangasini oshirish uchun havo beriladigan asbob
Kattashik - katta eshik
Kamand - (f-t) esk.biror hayvonni tutish, bandi qilish, bog‘lash yoki biror narsaga ilintirib balandlikka chiqish uchun ishlatiladigan sirtmoqli arqon
Kushod - (f-t) rvsh: kam qo‘l; rosa, to‘la-to‘kis; ortig‘i bilan
Ko‘mach - issiq kulga ko‘mib pishiriladigan non
Ko‘ngli buzuq - 1. fikri, niyati yomon, yomonlik qilishni o‘ylovchi; 2. g‘amgin, ruhan ezilgan, ko‘ngli yarimta
Ko‘toh - (f-t) kam qo‘ll. kalta, qisqa
Ko‘shk - (f-t) baland, bahavo qilib solingan yengil imorat
Ko‘lbar - safar xaltasi
Kavsar - (a) islom dini e’tiqodiga ko‘ra jannatdagi hovuzning oti
Kajbahs - (f-t-a) o‘jar, tixir
Kalon - (f-t) dial. katta. m: qozi kalon, esk. bosh qozi
Kamarband - (f-t) kamar, bog‘langan, beli bog‘li
Ko‘sa - soqol-mo‘ylovi juda siyrak yoki butunlay yo‘q

L

Lot - o‘ch (dushmandan lotin oladi)
Latibi - buloqi; burunga taqiladigan
Lolob - yuz va labga surtiladigan lolarang bo‘yoq
Lajut - qasdga-qasd oluvchi
Lakalov - s.t. anqov, merov; laqma
La’l - (a) qizil qimmatbaho tosh; yoqut
Lahim - (a) yer ostidan, uy yoki qal’a ostidan qazib o‘tkaziladigan tor yo‘l
Lot - (a) din. arablarning islomdan ilgarigi ma’budalari; but
Losh - dial. jonsiz gavda, murda, o‘laksa

Lain - (a) kt.ma’natlangan, qarg‘ish olgan; la’nati
Latifa - (a) kulgili voqea-hodisa haqidagi kichik hikoya
Laqma - har narsaga darrov ishonaveradigan, oson aldanadigan, kaltafahm, go‘l
Lobar - (f-t) xushro‘y, yoqimli, dilbar
Lodon - (a+f-t) nodon, bilimsiz
Lomakon - (a) makoni, turadigan muqim joyi yo‘q
Lof - 1. haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, haddan tashqari bo‘rttirilgan yolg‘on gap, mubolag‘a, ortiq ko‘pirtirib maqtanish
Lochin - 1. yirtqich qushlar turkumining bir turi: ovchilar uni qo‘lga o‘rgatib qush ov qiladilar. 2. ko‘chma. epchil, chaqqon, jasur, g‘oyat g‘ayratli, shijoatli
Luqmon - (a) 1. Luqmoni hakim. Sharq halqlari orasida tengi yo‘q hakim va donolik timsoli hisoblangan afsonaviy shaxs. 2. ko‘chma. dono, bilarmon odam haqida
Lo‘kidon - (f-t) eshikni berkitish uchun ishlatiladigan juda sodda yog‘och qulf
Lo‘livash - (f-t) poet. kishini sehrlab o‘ziga maftun qiluvchi, sho‘x va go‘zal (sevimli mahbub haqida)
Lo‘ppak - etilgan, to‘lishgan, bo‘liq

M

Mardosh qurmoq - chordana qurib o‘tirmoq
Ma’naviy o‘yin so‘z asosiy rol bajaradigan o‘yin turlari. guldur-guplar, tez aytishlar, topishmoqlar shular jumlasidandir
Me’roj - yuksak daraja: yigitning me’roji-sara yigit
Mashriq - (a) esk.kt.sharq,kun chiqish
Mechkay - eb to‘ymas, yuho
Mehrigiyo(h) - (f-t) ituzum gullilar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik (xalqda shu o‘simlik donini yonida saqlab yurgan kishiga odamlar mehr qo‘yadi, degan afsona bor)
Mehtara - (f-t) dial. mosh, sano
Mirza - (a+f-t) yuqori tabaqalarga mansub kishi; janob
Mocha - urg‘ochi eshak
Moya - urg‘ochi tuya
Murid - (a) din. ruhoniy, ustoz, eshon, pirning shogirdi, muxlisi
Mushk-anbar, mushku-anbar - xushbo‘y moddalar
Mo‘ysafid - (f-t) soch-soqoli oqargan, keksa, chol
Mo‘rchamiyon - (f-t) kichkina belli, beli ingichka, xipcha bel (xotin-qizlar haqida)
Manodi - habar qilish, jar chaqirish
Majmag‘il - 1. o‘sishi, rivoji orqada qolgan yaxshi o‘smagan; nimjon, nimchiliq, 2. ko‘chma. s.t. muhmal, mujmal, dudmol, noaniq
Majusiy - (a) otashparastlik diniga mansub kishi
Matal - (a) 1. tugal ma’no ifodalanmaydigan obrazli ibora, hikmatli so‘z. 2. qissa, masal
Matlab - (a) talab etilgan, istalgan narsa, maqsad
Mahpora - (f-t) poet. oy yuzli, oydek go‘zal, mahvash
Mahtal - s.t. kutib qolgan, muntazir, intizor

N

Nama - nag‘ma

Nazil - naql; hikmatli so‘z
Nodon - xom; hali ko‘p narsani bilmagan; majoziy: go‘dak
Nofaron - yoqimsiz, noma’qul
No‘kar - navkar,askar
Namshilar - nima qiladi
Nahr - (a) esk. kt. ayn. daryo
Ne - narsa, predmet haqida so‘roqni ifodalaydi; nima?
Nasroniy - (a) xristian diniga mansubkishi, nasaro
Na’ra - (a) larzali, vahimali qattiq ovoz
Naqb - (a) yer tagidan kavlanadigan yo‘l
Nekbaxt - (f-t) esk. kt. tolei baland, baxtli
Nekbin - (f-t) kt. har narsani yaxshi tomondan ko‘ruvchi, kelajakka ishonuvchi
Nekqadam - (f-t+a) kt.baxt keltiruvchi, sharofatli
Nigin - (f-t) folk. ayn. uzuk
Nigoron - (f-t) zoriqib, toliqib, intizor bo‘lib kutuvchi
Nishab - (f-t) yuzaning biron tomonga qiyaligi; qiyalik darajasi
Nov - (f-t) 1.suv oqimi uchun yog‘och, taxta va shu kabilardan ishlangan maxsus o‘zan; tarnov. 2. sug‘orish yoki umuman suv saqlash uchun yog‘och, taxta kabilardan ishlangan oxur; tegana
Novcha - 1. bo‘yi baland, daroz, uzun. 2. qarol, xizmatkor
Nokas - (f-t) 1. vijdon, insofi yo‘q yaramas, qabih, pastkash. 2. birovga hech narsani ravo ko‘rmaydigan; baxil, xasis, kurumsoq
Nolit - 1. nolimoq, fl. ish oti. 2. nola, fig‘on
Norasida - (f-t) balog‘atga, voyaga yetmagan
Norbachcha - tuyaning bolasi; bo‘taloq. 2. ko‘chma salb.laganbardor, xushomadgo‘y
Norg‘ul - bo‘lali va baquvvat gavdali; jussali, barvasta
Notavon - (f-t) 1. hol-qudrati yo‘q; zaif, nimjon, nogiron. 2. ko‘chma. nochor, bechora
Notayin - (f-t+a) 1. kimligi, nimaligi yoki nima bo‘lishi aniq emas; noaniq, noma’lum. 2. aniq-ravshan emas; dudmol, mujmal
Noqis - (a) kamchili, nuqsoni bor, nuqsonli
No‘xta - ot-ulovni bog‘lash, yetaklash; haydash uchun boshiga solinadigan abzal
No‘sh - (f-t) 1. esk.kt.ayn. ichmoq. 2. no‘sh piyoz (kuzda tiqma qilib ekilgan piyoz)

O

Ovutmachoq chaqaloq yig‘laganda ovutish uchun kattalar tomonidan aytiladigan suyish qo‘shiqlarining bir turi
Olchayib turmoq - oyoqlarni kerib, tik turmoq
Orqa - zarur vaqtlarda ko‘maklashuvchi
Onaboshi bolalar o‘yinlarida o‘yin boshqaruvchisi, sardor
Otaliq - podshoga maslahatgo‘y, ishonchili mansabdor
Och gaza - adir, qir va tog‘da ikki bir-biriga tutash yoyiq do‘ng oralig‘i, gaza-ikki cho‘qqi orasi
Oq uy - o‘tov, oq kigiz bilan o‘ralgan, kelin-kuyov yoki izzatli mehmonlar uchun tikilgan gumbaz shaklidagi uy. Odatda o‘tovning ichida o‘t yoqilmaydi. O‘t yoqilib, kigizlar is

bosgandan keyin o‘tov nomini yo‘qotib, uy, qora uy deb ataladi

Og‘moq - ko‘tarilmoq, og‘ib-og‘ib, ko‘tarilib-ko‘tarilib

Og‘aya - aka-uka

Olako‘zan - suvsarlar oilasiga mansub, mo‘ynali, yirtqich sutemizuvchi hayvon

Olamgir - (a+f-t) kt. 1.olamni fath etuvchi, olamni oluvchi; jahongir. 2. ko‘chma. jahonni o‘ziga qaratuvchi, maftun etuvchi

P

Parva - parvarish

Palon - hayvonga yuk ortish uchun solinadigan jabduq, to‘qim

Parqin - o‘zbek dostonlarida ot qo‘ltig‘i; tulpor qo‘ltig‘i, afsonaviy ot qanoti va qanotning joylashgan yeri

Paxtak - faxta, qumri

Piroq - xursand, shod

Pisand - bisot

Pismacha - beyoqim (bejog‘im), tentakqush, uchuvchi hashoratlar bilan ovqatlanuvchi tungi qush

Pismaqush - pismacha, katta cho‘ponallovuch

Pokdomon - (f-t) or-nomusini saqlagan, iffatli, to‘g‘ri

Poshnalamoq - 1. poshna qo‘ymoq, poshna qoqmoq 2. poshna bilan niqtamoq, bosmoq, tepmoq

Pushtan - (f-t) egarning ot qornidan aylantirib o‘tqizib bog‘lab qo‘yiladigan tasmasi; qorinbog‘

Paydor - (f-t) mushaklari rivoj topgan, baquvvat, chayir

Paysa - (f- t) taxminan 50 grammga teng og‘irlik o‘lchov birligi

Pakki - dial.tig‘i sopi ichiga qayirib yopib qo‘yiladigan pichoqcha; qalamtarosh

Palakqush - folk.qush ko‘rinishiga ega bo‘lgan afsonaviy uchar apparat

Palaxmon - (f-t) tosh otish uchun ishlatilgan juda qadimiy ibtidoiy qura

Palag‘da - (f-t) 1. aynigan, buzilgan, sasigan (tuxum haqida). 2. unmaydigan, quruq (urug‘liklar haqida). 3.ko‘chma. po‘ng‘illagan, noaniq, yoqimsiz (ovoz haqida) 4. ko‘chma. hech narsaga yaramaydigan; foydasiz

Parokanda - (f-t) kt. turli tomonga, duch kelgan yoqqa tarqalgan, to‘zgan, tarqoq, tartibsiz

Patarat - patarat topmoq s.t. parokanda bo‘lib maxv bo‘lmoq, yo‘q bo‘lib ketmoq

Patila-patila - o‘rilgan, shokila-shokila

Pashmaxo‘rda - (f-t) biror joyga tez-tez kelib turadigan, xira bo‘lib yopishib olgan odam

Pechan - ishni, gapni o‘rinlatadigan, usta, chechan

R

Rais - shirkatning qonun va talablariga asoslangan diniy majburiyatlarni aholi tomonidan o‘z vaqtida bajarilishini tekshirib turuvchi va ayni zamonda bozorda tarozi toshlarining qabul qilingan normalarini kuzatib, aybdor sanalganlarni jazolash huquqiga ega bo‘lgan amaldor

Rasto - rejaga solingan yo‘l

Risolabop - salbiylikning namunasi sifatida ko‘rsatishga loyiq; salbiy tip

Roz - sir

Rosh - marza, uvot

Rabot - (a) tar. 1. mustahkamlangan qo‘rg‘onlarda soqchilar turadigan joy yoki bir-biridan ma’lum masofada joylashgan istehkom, qo‘rg‘on; 2. savdo yo‘llaridagi mustahkamlangan manzil, karvonsaroy; 3. shahardan chetroqdagi turar joy

Ravona - (f-t) ravona bo‘lmoq; 1. biror tomonga yo‘l osmoq, jo‘namoq; 2. oqmoq

Ravoq - (a) 1. binoning old tomonidagi peshtoq va ustunlar bilan bezatilgan ko‘rkam qismi; 2. xashamatli bino, saroy, qasr

Ravshan - (so‘g‘d)1. yorqin nur sochadigan; yorug‘, yorqin. 2. yaxshi ko‘radigan, o‘tkir.3. ko‘chma. aniq, tushunarli, tushunish oson bo‘lgan. 4. ko‘chma. ko‘zga yaqqol tashlanadigan, ochiq-oydin, aniq, yaqqol. 5. kesim vazifasida, ko‘chma, yashirib sir tutib bo‘lmaydi, ma’lum, oshkor. 6. Ravshan (ism)

Rajo - (a) esk.kt. umid, orzu, tilak

Razil - (a) 1. kishini jirkantiradigan, yaramas, qabih, past, tuban; 2. manfur, mal’un

Ramaqi - (f-t+a) nihoyat darajada ozgan, holdan toygan, eti borib suyakka taqalgan

Ranj - (f-t) 1. ko‘ngilga yetgan ozor, alam; 2. mehnat, mashaqqat

Ranjida - (f-t) qadam ranjida qilmoq, bir yoqqa tashrif buyurmoq, bormoq, kelmoq

Rasida - (f-t) esk,kt. 1.yetuk, barkamol; 2. ayn. rasta

Raso - (f-t) 1. kami yo‘q, to‘liq, but. 2. yetuk, barkamol;

Raftor - (f-t) esk.kt. xatti-harakat, yurish-turish, qadam olish

Riyo - (a) munofiqona xatti-harakat; ikkiyuzlamachilik

Riyozat - (a) 1. qiyinchilik, mashaqqat, zahmat; 2. din. dunyoviy ishlardan o‘zini, nafsini tiyib qiynalish, o‘zini qiynash

Riyokor - (a+f-t) munofiqona ish qiluvchi, munofiqlarcha ish tutuvchi odam, ikkiyuzlamachi

Rom - (f-t) 1. o‘ziga qaratmoq, og‘dirmoq; 2. o‘ziga, qo‘lga o‘rgatmoq; 3. bo‘ysundirmoq; 4. moyil bo‘lmoq

S

Saldalang otmoq - bekor salanglab yurmoq

Susambil shu nomdagi ertak nomi va ertakdagi epik makon, hamma farovon yashaydigan, azob-uqubat bo‘lmagan afsonaviy yurt

Seldiramoq - siyraklanmoq

Sanama bolalar o‘yinni tashkil etishda navbatda turuvchi ishtirokchini aniqlashda foydalanadigan o‘yinboshi badihalari

Siyroq - tizza bilan to‘piq orasi

Sin - xulq, ichki xislat, fazilat

Soriq, sariq - badanga sirib olingan kiyim-kechak

Soq - xushyor, ayg‘oq

Suyduk - suyukli, sevgili

Suyruk - ser suv yerda o‘sadigan ba’zi o‘simliklarning bo‘liq shirin tomiri; endi o‘sib kelayotgan qamish barrasi
Suluk - zuluk
Surligishmoq - surilishmoq, surtinib surilishmoq
So‘qraymoq - xo‘mraymoq
Sus - salovat
Susi bosdi - salovati bosdi
Susar - susar teri telpak
So‘zlungqiramoq - cho‘zinqiramoq, qadni biroz cho‘zmoq
So‘na - yovvoyi o‘rdakning katta turi
So‘pi to‘rg‘ay,mulla to‘rg‘ay - to‘rg‘ayning bir turi
Saraja - qo‘lda yasalgan zambil, to‘rt poyasidan ip bog‘lab oldinma-keyin otga bog‘lab kasalni olib ketaveradi
Sabil - 1. egasiz, qarovsiz qolgan, egasiz, qarovsiz qolib xarob bo‘lgan; 2. qurg‘ur, ordona qolg‘ur, baytalmon
Sayyod - (a) esk. kt. ovchi
Sayron - (f+t+a) folk. sayr, sayr-tomosha, sayr-tomoshalar
Saman - och malla, somonrang ot
Samandar - (f-t) 1.mif. go‘yo o‘t ichida tug‘iladigan va o‘tda yashaydigan afsonaviy mahluq, 2. ham suvda, ham quruqlikda yashovchi ba’zi kaltakesaksimon dumli jonivorlarning umumiy nomi. 3. samandar (erkaklar ismi)
Samanto‘riq - samanga, mallaga moyil to‘riq ot
Sangzor - (f-t) dial. toshloq joy, toshloq, toshzor
Sangtarosh - (f-t) tosh yo‘nuvchi usta, toshtarosh
Sarrof - (a) yirik pulni maydalab berish yoki chet el pulini biror mamlakat puliga almashtirish bilan shug‘ullanuvchi va shundan foyda ko‘ruvchi odam
Satranj - (f-t-hind 1. shaxmatga o‘xshash qadimiy o‘yin; 2. esk.ayn.shaxmat
Saqmon - 1. dial. sopqon, palaxmon; 2. yangi tug‘ilgan qo‘zilardan va sovliklardan tuzilgan kichik to‘da
Sag‘ri - 1.ot, eshak, qoramol kabi hayvonlarning orqa oyoq usti qismi; 2. gavdaning dumba bilan bel o‘rtasidagi qismi; 3. ot terisining dum tomon qismidan tayyorlangan ko‘n, charm
Saharxez - (a+f-t) erta bilan barvaqt, saharlab turishga odatlangan, saharda turuvchi, uyg‘onuvchi
Sinchi - otlarning yoshini, zotini, fe’l-atvorini biladigan odam
Sulloh - (a) o‘taketgan xira, surbet, shilqim
Sumanbar - (f-t) gulandom, xushro‘y, zebo
Suxan - (f-t) so‘z, gap, suhbat
Suxanvar - (f-t) 1. ayn. suxandon; 2, ko‘p gapiradigan, sergap; 3. shirin so‘z, shirin suxan
So‘ngak - suyak, ustixon
So‘g‘in - so‘ng, keyin, so‘ngra
Savirbosti - taskin topmas
Saboqdosh - (a+f-t) birga o‘qigan, saboq olgan kishi, maktabdosh
Savash - folk. urush, jang
Savrinjon - (f-t) kech kuz gullab, bahorda hosil beradigan bir turli lolasimon, ko‘p yillik o‘simlik
Savsar - o‘rmonda yashaydigan qimmatbaho to‘q, qo‘ng‘ir

		mo‘ynali, kichik sut emizuvchi, yirtqich hayvon
Sad(a)	-	kt.mustahkam qal’a yoki shahar devori, tuproq qo‘rg‘on
Sazo	-	(f-t) 1. qilmishiga yarasha tanbeh, ta’zir; 2. oniy istak, intilgan, shaxt; 3. dial. sado, tovush, ovoz
Sayd	-	(a) 1. esk.kt.ayn.ov; 2. ov qilingan narsa, ov o‘ljasi
Sambit	-	bir turli tol va uning novdasi, sambit qomat, tik qomatli, qaddi-qomati kelishgan
Samovat	-	(a) osmon, falak, koinot
Sanoch	-	teridan qilingan idish, teri to‘rva
Sarafroz	-	(f-t, l.m. boshi yuqori ko‘tarilgan) biror martabaga ko‘tarilish yoki hurmat –e’tibor va shu kabilar bilan taqdir etilgan, xursand qilingan, xursand, shod
Sardak	-	(f-t) qaynatma ovqatning yuziga chiqqan yog‘
Sarjig‘a	-	(f-t) folk.bosh kiyimiga taqiladigan jig‘a
Safoyil	-	(a) qalandarlarning dastagiga o‘rnatilgan bir necha xalqali musiqa asbobi
Serjilva	-	1. rang-barang tusda tovlanib, jilvalanib turadigan, jilva qiladigan, g‘oyat jilvali; 2. ko‘chma: rang-barang ohangda tuslanuvchi, jilvali, o‘ynoqi
Sivizg‘a	-	s.t. sibizg‘a (qamishdan yasalgan musiqa asbobi)
Sidq	-	(a) sadoqat, sodiqlik
Sim-sim	-	rash. simillab, zirqirab, zirq-zirq
Sir-sinoat	-	(a) sir-asror, kirdikorlar
Sitamgar	-	(f-t) 1. jabr, zulm qiluvchi, ezuvchi, zolim; 2. ko‘chma. noz-istig‘nolari bilan kuydiruvchi, ado qiluvchi
		T
Tarlon	-	ola-bula, ola (ba’zan hafa, parishon, ma’nosida ham ishlatiladi)
Takfin-tajhid	-	o‘likni kafanlash va ko‘mishga tayyorlash
Tubalashgan	-	bolalar bilan mushtlashgan
Tari	-	tariq
Terma	-	guldor qilib to‘qilgan palossimon olacha
Tovva		qo‘yning orqa oyog‘idan ajratib olingan oshiqning pastki tekis tomoni. “Podshoh-vazir” o‘yining Xorazm variantida qur’a jarayonida otilgan oshiqning shu tomoni tushsa, vazir hisoblangan
Taskay	-	ters; quyoshga teskari
Tegishmachoq		bolalarning bir-birlariga va kattalarga hazilkashliklari, tegishishlaridan tug‘iladigan goh mutoyibali, goh mulozamatli, goh mazaxli yumoristik badihalar
Tingilmoq	-	qattiq tikilmoq
Tirday	-	yalang‘och, maj. qashshoq; ust-boshi juldur-juldur
Tirtira	-	alam
Tirtira qilmoq	-	alam qilmoq
Tirqiramoq	-	taralib-sochilib hilpiramoq
Tab	-	haydalgan yerda omoch bilan chizib ajratilgan pol
Tumsa	-	hali tug‘magan xotin; maj. tug‘maydigan xotin
Tupak	-	sochpopuk
Tura kelmoq	-	irg‘ib turmoq
Turfa	-	qiziq; ajoyib
Tut	-	zang
Tut bosmoq	-	zanglamoq, zanglab o‘tmas bo‘lib qolmoq

Tug‘begi - podshohlikning tug‘ bayroqlarini nazorat etuvchi mansabdor
To‘balamoq - azob berib urmoq
To‘qmoq - urmoq
To‘lamoq - tug‘ilmoq
To‘ra - boshliq
To‘qmor yolli - yoli tikroq bo‘lib, ikki tomonga tushgan qorabayir (ot)
To‘qol - ko‘p xotinlikda kichik xotin, boyvuchchadan keyingi kichik xotinlar
To‘g‘a - 1. to‘qa; 2. ot pochasiga taqiladigan enlik uzuksimon narsa
Tayladi - tashladi
Tavaqquf - (a) esk.kt.to‘xtash, sabr qilish
Tavahhum - (a) esk.kt. vahimaga tushish, qo‘rqish, qo‘rquv
Tavkar - to‘rt oshiq tashlab o‘ynaladigan qimor va unda qatnashadigan qimorbozlar
Tavkargir - esk. qimorda yutuqdan cho‘tal oluvchi, cho‘talchi
Tavoze - (a) 1. o‘zini hokisor tutish, hokisorlik, kamtarlik; 2. hurmat-ehtirom; 3. itoatgo‘yik, bo‘ysunish
Tavongar - (f-t) esk. badavlat, davlatmand, serpul, boy
Tavfiq - (a) 1. din yo‘l-yo‘riqlari, diniy e’tiqod; 2. ko‘chma: nojo‘ya ish, hatti-harakat va shu kabilardan o‘zini tiyish
Tavq - (a) 1. tar. jazo tariqasida gunohkorning bo‘yniga kiygizib qulflab qo‘yiladigan kunda; 2. ko‘chma. boshga tushgan katta tashvish, dardisar
Tayov - kam qo‘ll. ayn. tirgak
Taypoq - 1. yalpoq, biroz yassiroq; 2. beso‘naqay, beo‘xshov, o‘xshovsiz
Talbis - (a) esk.kt. 1. soxta, qalbaki, yolg‘on; 2. ayyorlik, xiyla, nayrang
Tam-tam - 1. qaddi-qomati kelishgan va zebo; 2. ko‘chma. o‘ziga, kiyim boshiga zeb bergan, bashang, olifta
Tamug‘ - esk.din. jahannam, do‘zah
Tangri - (mo‘g‘) xudo, olloh, parvardigor
Tannoz - (a) 1. o‘ziga g‘oyat oro berib yuradigan va sernoz; 2. andoli o‘ziga kelishgan, nozanin, barno
Tarahhum - (a) kt. rahm- shafqat qilmoq
Tarso - (f-t) din. g‘ayridin, kofir

U

Ul - o‘g‘il
Uruv - urug‘ (qarindoshlik)
Uruvi - urug‘i
Urlik - o‘g‘rilik
Urladi - o‘g‘irladi
Uv - zahar
Uv bo‘lmoq - quymok, ezilmoq, o‘rtanmoq
Uvuz eti uv bo‘lib - ichi quyib, a’zoyi badani o‘rtanib, yurak-bag‘ri ezilib
Uvuq - o‘tov va qora uy gumbazini tashkil etadigan , poyadan yo‘nilgan xodachalar va ularning har bittasi
Uzuk - xipcha, nozik
Xirs - (f-t) s.t. ayiq
Xokiturob - (f-t+a) kt. yer bilan yakson, xarob

Xulyo - kam qo‘ll. faqat hayolda, tasavvurda zohiro bo‘ladigan, aslida yo‘q narsa

Xo‘jasavdogar - (f-t) o‘rmon to‘rg‘ayining bir turi

Xo‘qacha - kichik ko‘za, ko‘zacha

Xalacho‘p - (f-t) eshak, tuya kabi hayvonlarni niqtab tezroq yurgizish uchun ishlatiladigan uchli tayoqcha, xala

Xam - (f-t) pastga egilgan, quyi solingan

Xandon - (f-t) sho‘xlik bilan kuluvchi, kulib turuvchi

Ch

Chaqqon - darrov, tez

Chambil - Go‘ro‘g‘lining afsonaviy yurti, epik mamlakat

Chilbir cho‘li - epik makon (“Alpomish” dostoni)

Charxin - epik makon (“Rustamxon” dostoni)

Chakchiramoq, chaqchiramoq - chaqraymoq

Chalchiq - toyg‘anchoqloy, balchiq

Chang‘aroq - o‘tov va qora uy gumbazining doirasimon tepa qismi

Chaplanishmoq - chap bo‘lishmoq

Chachov - chochilgan, chochiq

Chegas - yog‘och mix

Cheginmoq - chiranmoq, zo‘r bilan intilmoq

Chekmoq - urmoq, solmoq

Cher - 1. chirk; kir; 2. dard; qayg‘u-alam

Chidar - yirik molning oldingi ikki oyog‘iga solinadigan va bir uchi keyingi oyoqning biriga bog‘lanadigan tushov

Chirgilik - ot belida chirgi (to‘qim) ihota etgan yer

Chobinmoq - hujum qilmoq

Choparmon - uloqchi, chavandoz

Chokchan - tez, chaqqon

Choroyna - jangda o‘q, tig‘ zarbidan saqlanish uchun badanni o‘rab bog‘lanadigan harbiy aslaha. to‘rt parcha metallni bir-biriga birlashtirib ishlangan

Chotilmoq - aralashmoq

Chotmoq - zarb bilan urmoq

Chuymoq - ovlanadigan qush yoki mayda hayvonga ov qushini solmoq

Churra, cho‘rra - chopqir

Chorlama - bolalarning o‘ynash uchun bir-birlarini chaqiradigan, o‘yinga chorlovchi qo‘shiqlari

Cheklashmachoq - o‘yin o‘ynashda ikki guruhga bo‘linish uchun to‘qilgan aytimlar. Ular, odatda, ikki bolaning o‘zaro yashirincha kelishib, til biriktirib o‘zlariga yasama “ot qo‘yishlari” asosida yuzaga keladi. Masalan, “Men – xo‘roz, sen – makiyon” kabi

Cho‘mmoq - yoli va dumi ozaygan va kalta bo‘lib qolgan

Chandish - bolalar o‘rtasida keng tarqalgan ma’naviy o‘yin turlaridan bo‘lib, ular so‘zda laqillatish, chandib olish hisobiga o‘yindagi sherigini hushyor torttirish, shu asosda so‘zga, so‘z ottenkasiga, ohangiga sezilarli reaksiyani uyg‘otish hamda so‘zga ohangdosh hozirjavoblikka shaylash maqsadini ko‘zlaydi. Masalan: – Bir degin. – Bir. – ust-boshing kir!

Chuvritdi - g‘o‘ldiradi

Chittigul		bolalarning bahorgi mavsum o‘yini va shu o‘yin davomida kuylanadigan qo‘shiqning nomi.
Cho‘ponallovuch	-	cho‘rtakkal, chittak
Cho‘r og‘asi	-	podsholikdagi jilovdorlarga rahbarlik qiluvchi amaldor
Cho‘chchayib o‘tirmoq	-	tizzalarni bukilgan holda qoringa tomon keltirib tik o‘tirmoq
Cho‘qlik	-	hayvonning cho‘qqi yeri
Cho‘qqi	-	1.ot iyig‘ining bo‘yniga tutashgan, yol boshlangan qismi; 2. cho‘qqidagi yol. cho‘qqi soqol ta’biri cho‘qqidagi yolga o‘xshatishdan kelib chiqqan
Chakra	-	tomchi (“Malikjon” ertagi)
Chusti chalon	-	tezlik va chaqqonlik bilan (“Malikjon” ertagi)
Chapro‘da	-	chap ichak (“Malikjon” ertagi)
Chig‘	-	Chiy
Cho‘pchak		1. ertak (Toshkent viloyatida). 2. topishmoq
Chikka		qo‘yning orqa oyog‘idan ajratib olingan oshiqning yonbosh qabariq tomoniga teskari tomoni. “Podshoh-vazir” o‘yining Xorazm variantida qur’a jarayonida otilgan oshiqning shu tomoni tushsa, gunohkor, ya’ni o‘g‘ri hisoblangan.
Chopag‘onchi	-	Xabarchi
Chavgon	-	(f-t) ot ustida uchi egri tayoq bilan to‘pni urib o‘ynaladigan o‘yin
Chaqir	-	o‘tkir qirrali, qirrador
Chechan	-	chaqqon, uddaburon, usta, mohir
Chiltan	-	(f-t) diniy tasavvurlarga ko‘ra –go‘yo g‘ayritabiiy kuchga ega bo‘lgan, ko‘zga ko‘rinmaydigan,bir-biridan ajralmaydigan afsonaviy qirq ruh
Chinoq	-	1. qulog‘i kesilgan yoki qulog‘i kertik; 2. qulog‘i kichkina yoi chandiqli kishilarga qo‘yiladigan laqab
Chiya	-	1. tog‘li yerlarda o‘sadigan yovvoyi olcha. 2. folk.sir, maxfiy narsa
Chov	-	1. anat. qorinning pastki qismi bilan son oralig‘i, but; 2. dial. eshkak
Cho‘g‘ol	-	baquvvat, to‘la kelgan, g‘o‘labur
		Sh
Sho‘l	-	o‘sha
Shuytib	-	shunday qilib, shunday
Shirvon	-	epik makon (“Ravshan” dostoni)
Shona	-	taroq (“Ravshan” dostoni)
Shamshop	-	qishda ichdan chiqqan bug‘ bilan soqol va mo‘ylablarda qotib qolgan muz
Shangraymoq	-	burun teshigi kengaymoq
Shig‘ivul	-	xon va amir huzurida tantanali yig‘ilish, elchi qabul qilish marosimlarini uyushtiruvchi mansabdor
Shopar	-	qanot
		E
Eram bog‘i	-	epik makon
El biyi	-	el begi, el egasi
El og‘asi	-	xalqning arz-dodlarini viloyat yoki mamlakat boshlig‘iga yetkazib turuvchi mansabdor
Eriklamoq	-	maqlid qilmoq

Eshik og‘asi - saroy komendanti
Ehik - mayna, uyat, sharmandalik, ehik qilmoq, mayna qilmoq
O‘zg‘ir - hammadan o‘tib ketuvchi; o‘zag‘on
O‘nqir - o‘yilgan, chuqur joy

Q

Qo‘hi Qof - afsonaviy mamlakat
Quridum - epik makon (“Rustamxon” dostoni)
Qadiraymoq - qimirlamay turgan, joyida qarab qolmoq
Qalandari kokil - ikkala chakkadan tushurilgan kokil
Qalp - qaltis
Qamalamoq - qamal qilmoq
Qambar - yulduz nomi
Qorxat birinchi qor yog‘gan kuni o‘ynaladigan an’anaviy xalq o‘yini. O‘yin qoidasiga ko‘ra birinchi qor yog‘gan kuni qorxat yozib, bildirmasdan qaysidir bir og‘aynisining qo‘liga tutqazib, tutqich bermay qochib ketishga ulgurgan kishiga g‘aflatda qolgan do‘sti bitta ziyofatga tushgan.
Qampas - dim, havo qampas- kun dim
Qanqaymoq - g‘urur bilan qaqqaymoq
Quvlashmachoq erta bahordan to kech kuzga qadar o‘ynaladigan, navbatda qolgan bola tomonidan qolgan ishtirokchilarni quvlab, tutib olishga asoslangan an’anaviy bolalar o‘yini
Qanqimoq, qang‘imoq - chayqalmoq
Qariya pari - “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida parilarning momosi
Qiqillama kichkintoylarning ritmni his qilishlari zamirida shovqin solib aytishlari negizida yuzaga kelgan qo‘shiqlari
Qarqarali - tikka
Qaytayin - qanday qilayin
Qubba - jangda kiyiladigan bosh kiyim (“Malikjon” ertagi)
Qosid - xabarchi, xat tashuvchi (“Malikjon” ertagi)
Qaviy hantal - qobiliyatli (“Malikjon” ertagi)
Qolin - gilam (“Malikjon” ertagi)
Qog‘aton tog‘i - “Alpomish” dostonidagi epik tog‘
Qutvol - farmon beruvchi shaxs
Qamot - bolani o‘rab oladigan maxsus mato
Qut - qutb
Qopishtirdi - qovushtirdi
Qursa - kamida
Qofil - karvon
Qayir daryo suvi ko‘payganda suv bosadigan, yer osti suvi yuza bo‘lgan yerlar
Qarsoq - tulkiga o‘xshash, lekin undan kichikroq yirtqich hayvon
Qiyg‘ir - tumshug‘i kalta va qayrilgan, asosan bedana oviga solinadigan sohibchangal yirtqich qush
Quzg‘un - 1. chumchuqsimonlar turkumining qarg‘asimonlar oilasiga mansub, har qanday narsani ham yeyaveradigan, o‘limtikxo‘r o‘troq qush. 2. ko‘chma nafr. hech narsadan hazar qilmaydigan, yulg‘ich, tekinxo‘r, talonchi, bosqinchi
Qula - dial. sayxon, keng,cheksiz
Qurb - (a) kuch, quvvat, mador
Qurdum - qurdim daryo, folk. tubsiz, yutoqi daryo, dengiz

Quyun - 1. qattik uyurmali shamol, uyurma, dovul; 2. shiddatli yong‘in, to‘fon

Qaynaxumcha sehrli detal (“Urto‘qmoq” ertagi)

Quyushqon - egar siljimasligi uchun otning dumi ostidan aylantirib egarga biriktiriladigan, ko‘pincha turli bezaklar qadalgan qayish

Qo‘ng‘irot - o‘g‘uz urug‘laridan birining nomi va shu guruhga mansub bo‘lgan kishilar

Qo‘r - 1. mayda cho‘g‘aralash issiq kun. 2. ko‘chma. qalb harorati, o‘t, o‘git. 3. yig‘ib, to‘plab, g‘amlab qo‘yilgan kerakli narsa, boylik. 4. qo‘r to‘kmoq, qo‘shin to‘plamoq, lashkar to‘plamoq, olishuvda, tortishuvda javlon urmoq

Qur’a o‘yinlarda navbvtchi ishtirokchini yoki guruhni aniqlash jarayoni. Bu jarayon, ko‘pincha, tanga tomonlarini tanlab, irg‘itish yoki tanga yoki kichik bir toshchani kaftlariga yashirish orqali amalga oshiriladi.

Qo‘g‘irmoch - qozonda qovurilgan bug‘doy

G‘

G‘irot - Go‘ro‘g‘lining afsonaviy tulpori

G‘azalay - to‘rg‘ay

G‘azo - urush

G‘angkimoq - to‘dada qaerdan qulay yo‘l topsa, shu yerga o‘zani urmoq

G‘o‘la - 1. bronza. 2. g‘o‘la shaklida quyulgan oltin, mis, jez; eritilgan yaxlit metall

G‘o‘rlamoq - qirmoch bo‘lmoq

G‘uburg‘a - kamar

G‘addor - (a) kt. 1. sotqin, xoin, zolim. 2. xiyonatkor, makkor, firibgar

G‘ajir - o‘limtiklar bilan ovqatlanadigan burgut kabi katta yirtqich qush

G‘amza - (a) noz-karashma, ishva

Referat mavzulari

1. Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi afsona va xalq qo‘shiqlari.
2. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari.
3. “Qutadg‘u bilig” hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar.
4. Ahmad Yassaviy “Hikmatlar”ida tasavvuf masalalari.
5. Nosiruddin Rabg‘uziy hayoti va ijodining manbalari.
6. “Qisasi Rabg‘uziy” (“Qisas ul-anbiyo”) - o‘zbek badiiy nasrining ilk namunasi sifatida.
7. Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari, uning badiiyati.
8. Atoyining lirik merosi.
9. Sayyid Qosimiy dostonlari.
10. Husayniy lirikasining badiiy xususiyatlari.
11. Lutfiyning ijodiy faoliyati.
12. Pahlavon Mahmud ruboiylari.
13. Sayfi Saroyining ijodiy merosi

ADABIYoTLAR RO‘YXATI

Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

18.O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua (1-jild). Tuzuvchilar: N.Rahmonov, H.Boltaboev – T.: Fan, 2003.
19.O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-2 jild) Tuzuvche: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005; 2006.
20.Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. - Samarqand: 2005.
21.Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Darslik. – T.: O‘zYU Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
22.Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2006.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild. - T.: Ma’naviyat, 2000.
51.Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. - T.: 2002.
52.Boltaboev H. Mumtoz so‘z qadri. - T.: Adolat, 2004.
53.Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. - T.: 2005.
54.Sharq mumtoz poetikasi H.Boltaboev talqinida. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
55.O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘UM, O‘zMU 2011. O‘zbek filologiyasi fakulteti kutubxonasi.
56.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami. 20 jildlik. - T.: 1987-2004.
57.Boborahim Mashrab. Mehribonim qaydasan. - T.: 1990.
58.Bobur. Boburnoma. - T.: 2002.
59. Islom tasavvufi manbalari. - T.: O`qituvchi, 2005.
60. Muborak maktublar. - T.: 1987.
61. Ogahiy. Asarlar. Olti jildlik - T.: 1971-1976.
62. Uch bulbul gulshani. - T.: G`afur G`ulom nashriyoti, 1986.
63. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. - T.: Movarounnahr, 2004.
64. O`zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. - T.: Fan, 1978-1983.
65. Lutfiy. Devon. T., 1965 yil
66. Mallayev N.M. O`zbek adabiyoti tarixi., T., 1965 yil
67. Erkinov s. Lutfiy, T. 1965 yil
68. Isoqov Z. “Gul va Navro`z” dostonining muallifi masalasi., “O`zbek tili va adabiyoti”, 1972 yil 1-son
69. Erkinov S. Yana “Gul va Navro`z” dostoni muallifi masalasi “O`zbek tili va adabiyoti” 1972 yil 2 son
70. Rustamov V “Gul va Navro`z” dostoni muallifi masalasi “O`zbek tili va adabiyoti” 1972 yil 3- son
71. Fozilov E. “Gul va Navro`z” dostoni muallifi masalasi “O`zbek tili va adabiyoti” 1972 yil 4- son
72. Valixo`jaev B. “Gul va Navro`z” dostoni muallifi masalasi “O`zbek tili va adabiyoti” 1975 yil, 5- son

73. G`ulomov Ya.G`. Alisher Navoiy davrining o`rganish haqida (“Ulug` o`zbek shoiri,” Maqolalar to`plami, O`z FAN, III; 1948 yil)
74. Jalilov B. Meros va ixlos. Andijon 1995 yil
75. Sharipov J. O`zbekistonda tarjima tarixidan. III, 1965 yil
76. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy, III 1966 yil
77. Vohidov R. XIV asrning ikkinchi yarmi XV asrning boshlarida o`zbek va tojik she'riyati. III 1983 yil
78. Nasriddin Burxonuddin Rabg`o`ziy. “Qissai Rabg`o`ziy”. 1-II kitoblar T., 1990 yil
79. Rayimjonovna D. “Muhabbatnoma” va “Latofatnoma” asarlarining qiyosiy taxlili. Andijon. 1992 yil
80. Muborak maktublar, T., 1987 yil
81. Sayfi Saroyi. She'rlar. Guliston., T., 1968 yil
82. Fozilov E. XIV asr Xorazm yodnomalari, III., 1973 yil
83. Valixo`jaev B. O`zbek epik poeziyasi tarixidan., III. 1974 yil
84. Sulaymonov F. “Yusuf va Zulayxo dostoni”, “Adabiy meros” 1973 yil 3-son 31. Fozilov E. “Yusuf va Zulayxo” dostoni muallifi, “O`zbek tili va adabiyoti” jurnali, 1974 yil 4-son.
85. Shodiev E. “Yusuf va Zulayho”, “Sharq yulduzi”, 1990 yil 6-son
86. Karamatov H. “Qur'on va o`zbek adabiyoti”, T., 1993 yil
87. Qur'oni Karim. “Yusuf surasi”, O`zbek izohli tarijima. T. 1992 yil
88. Sakkokiy. Tanlangan asarlar. T. , 1960 yil
89. Hayot vasfi. T., 1988 yil
90. Rustamov E. O`zbekskaya poeziya v pervoy polvine XV vena. M:, 1963 yil
91. Otoiy. Tanlangan asarlar, T., 1958 yil
92. S. Rafiddinov. Majoz va haqiqat. T., 1995 yil
93. Jalilov B. Boburning badiiy mahorati. Andijon 1993 yil
94. Rahmonov N. Ruhiyatdagi dil murodi. – T.: 2002.
95. Sirojiddinov Sh. So`fi Ollohyor ilohiyoti. –T.: 2001;
96. Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild (Maqolalar).– T.: Ma`naviyat, 2000.
97. Hayitmetov A. Temuriylar davri adabiyoti.– T.: Fan, 1996.
98. Hamidov H. «Avesto» fayzlari. – T.: 2001.
99. O`zbek nasri tarixidan. – T.: Fan, 1982.
128. www.literature.uz

TAYaNCh KONSPEKT

DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

1-semestr mavzulari

Darsning mavzusi: Eng qadimgi og‘zaki adabiy yodgorliklar. Yozma yodgorliklar

Darsning maqsadi:

a) Ilmiy maqsad: Eng qadimgi og‘zaki adabiy yodgorliklar, yozma yodgorliklar haqida bilim berish hamda gumanizm,erksevarlik va vatanparvarlik g`oyalarini bolalarga singdirishni o`rgatish.

b) Tarbiyaviy qism maqsadi: yoshlarni ma`naviy yetuk, axloqli, e`tiqodli, izlanuvchan , milliy qadriyatlar va an`analarni davom ettiruvchi kitobxon va mutaxassis qilib tarbiyalash.Talabalarni milliy an`analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

c) Rivojlantiruvchi maqsad: voqealarni bildirish orqali ularni o`zligini anglatish , milliy g`urur, milliy iftihor tuyg`ularini singdirishni, tarixiy faktlarni baholay olishni o`rgatish.

Darsning turi: Noan’anaviy

Darsning uslubi: *diologik yondashuv, muammolai ta’lim, munozara, “klaster”, ma’ruza, o‘z-o‘zini nazorat*

Darsning jihozi: Ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Fanlar aro bog’lanish: adabiyotshunoslik, xalq og‘zaki ijodi, folklorshunoslik masalalari, badiiy tahlil asoslari, milliy istiqlol g‘oyasi

Natija: Darsga qo’yilgan maqsadlarga to’liq erishish, har bir talabaga yetib borib, baholash.

Uyga vazifa: Mavzuni o’qib, konspekt qilish. Amaliy va seminar mashg‘ulotlarga tayyorlanish.

T|r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma’sul
1- bosqich 15 daqiqa	**Dars maqsadi**: *Mavzu* haqida talabalarga tushuncha va bilim berish. **Mavzu doirasida reja asosida quyidagi masalalarni o’rganish maqsad qilingan:** 1. O’zbek adabiyoti tarixi fanining maqsad va vazifalari. 2. O’zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot bosqichlari. 3. Qadimgi og’zaki va yozma yodgorliklar: afsonalar, qissalar, qo’shiqlar. 4. “Avesta” – nodir yozma yodgorlik sifatida. 5. O’rxun-Enasoy yodgorliklari haqida. 6. X-XIII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot, ilm-fan taraqqiyoti, fors-tojik adabiyoti va uning turkiy adabiyotga ta’siri. 7. M.Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asari. 8.Moniy va uning ta’limoti xususiyatlari 9.Markaziy Osiyoda buddaviylikning xos xususiyatlari. «Oltun yoruq», «Shahzoda va bars» afsonalari.	**O’qituvchi**

2- bosqich 30 daqiqa	**Asosiy tushunchalar:** *O'zbek adabiyoti tarixi fanining predmeti. O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish, adabiy yodgorlik, epos, lirika, janrlar, tarjima adabiyoti, adabiy oqimlar, mif va afsonalar, qahramonlik qissalari, qo'shiq va lirik she'rlar. Qadimgi yozma yodgorlik, zardushtiylik, Zardusht, turk xoqonligi, nask, gotlar,"Zend Avesta", dualizm, mazdaizm, runiy, O'rxun-Enasoy yodgorligining ilk tadqiqotchilari. Somoniylar davlati, xorazmshoxlar, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, mo'g'ullar istilosi, Sharq Renessansi, madaniy inqiroz, fors-tojik adabiyoti namoyandalari, hamsachilik, M.Qoshg'ariy va uning "Devonu lug'atit-turk" asari, tasavvufning bosh g'oyasi, tariqatlar.* **Dars shakli: tushuntirish va baholash** **Vositalar:** ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, slaydlar **Metod va usullar:** kitob bilan ishlash, kuzatish, tushuntirish, bahs-munozara, suhbat	**O'qituvchi**
3- bosqich 15 daqiqa	**Guruhda ishlash** -guruhlar o'rtasida bahs-munozara ko'rinishida davra suhbati o'tkaziladi. -guruhlararo savol-javob o'tkaziladi. -mavzuga oid atamalar izohlanadi.	**talaba**
4- bosqich 10 daqiqa	**Mustahkamlash va baholash ushun savollar** 5. O'zbek adabiyoti tarixining maqsad va vazifasi nima? 6. O'zbek mumtoz adabiyoti deganda nimani tushunasiz? 7. Lirika va epos nima? 8. Tarjima adabiyoti qanday adabiyot? 9. Nima uchun qissalar yozma manbalarda yetib kelgan bo'lsa-da, og'zaki adabiy yodgorlik sanaladi? 10. Qadimgi madaniyat deganda nimani tushunasiz? 11. Behistun yodgorligi qanday yodgorlik? 12. Turk hoqonligi tariximizning qaysi davriga oid? 13. Qanday til o'lik til deyiladi? 14. Zardushtiylik necha asrlik tarixga ega?	**O'qituvchi - talaba**
5- bosqich 10 minut	**Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish** Maqsad va vazifalar bajarilganligi tahlil qilinadi, kerakli maslahatlar beriladi, mustaqil ish topshiriqlari tarqatiladi, xulosalar chiqariladi. **Adabiyotlar:** 1. Abdullaev I. "Beruniyga zamondosh shoirlar". T., 1974 2. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. - T.: 2002. 3. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua (1-jild). Tuzuvchilar: N.Rahmonov, H.Boltaboev – T.: Fan, 2003. 4. Irisov A. "Xorazmiy va Forobiy". T., 1967 5. Komilov N. "Tasavvuf". T., 1996 6. Mallaev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. T. 1976 7. M.Qoshg'ariy. "Devoni lug'otit turk". T. 1960-1963 8. R Vohidov, H Eshonqulov O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. T: 2006 yil 9. Tolstov S. "Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab". T. 1964 10. Qayumov A. "Qadimiyat obidalari". T. 1972 11. "Qadimgi hikmatlar". T. 1987 12. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. T. 1976 13. O'zbek adabiyoti. Xrestomatiya. 4 tomlik, 1-tom. T. 1959. 14. Shomuhamedov.Sh. "Fors-tojik adabiyoti klassiklari". T., 1964 15. Hasanov X. "Maxmud Qoshgariy". T., 1963 16. "G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar". Maqolalar to'plami. T., 1994 17. Malov S.Ye. "Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti". M. 1951. 18. Stebleva I. "Poeziya tyurkov 6-8 vekov". M. 1965. 19. Braginskiy M.S. "Istoriya perso-tadjikskoy literaturi". M., 1972 20. Bertel's . "Sufizm i sufiyskaya literatura". M., 1965 21. Stebleva M.V. "Razvitie tyurkskix poeticheskix form v XI veke". M., 1971	**O'qituvchi**

Eng qadimgi ogʻzaki adabiy yodgorliklar. Yozma yodgorliklar

REJA:

1. *Mumtoz adabiyotning shakllanishiga qadar kechgan davrda yaratilgan manbalar.*
2. *"Avesto" adabiy manba sifatida.*
3. *Oʻrxun-Enasoy obidalari.*

1. Mumtoz adabiyotning shakllanishiga qadar kechgan davrda yaratilgan manbalar.

Oʻzbekiston hududida yaratilgan qadimgi yodgorliklarning bizga maʼlum qismi miloddan avvalgi 10 asrdan to Islomgacha boʻlgan adabiyotni tashkil qiladi. Bular qadimgi Baqtriya, Kushon, Tohariston, Sugʻd va boshqa hududlarda yaratilgan yodgorliklardir. Ular «Avesto» yodgorligini, Oʻrxun-Enasoy toshbitigini, qadimgi sugʻd taqvimi, moniylik adabiyoti va Oʻgʻuznoma, Kitobi Dada Qoʻrqut kabi yozma dostonlarni tashkil qiladi.

Ilk turk nasri buloqlarini axtarganda Mahmud Koshgʻariy nazarda tutgan afsona, rivoyat, hikoyat va asotirlarni oʻrganish mavzuga yetarli manba boʻla oladi. Qadimgi «Toʻmaris» va «Shiroq» afsonalarini nasr yoʻlida tarqalib, bizgacha ayni shunday shaklda saqlanganini esga olsak, uning ogʻzaki adabiyotdagi ildizlarini tasavvur etishga imkon topiladi. «Oʻzbek nasri tarixidan» jamoa tadqiqoti mualliflari bunga Mugʻ togʻi qasrida topilgan soʻgʻd taqvimi, Shariy Turkistondagi soʻgʻd tilida yozilgan ona va qiz oʻrtasidagi oilaviy maktubni ham kiritadilar[12].

Nashr etilgan manbalar: *1. Abu Rayhon Beruniy. Al-osoru-l-boqiya an-al qarunu-l-holiya.–T.:1969; 2. Abu Bahr Muhammad ibn Jaʼfar Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T.: 1966;*

Ilmiy adabiyot: *Gumilev L. Qadimgi turklar. – T.: 2008; Mahmudov Q. Qadimgi Turkiston. – T.: MUMTOZ SOʼZ, 2010.*

2. «Avesto» adabiy manba sifatida

"Avesto" (miloddan oldingi 10-7 asrlar) – jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligidir. Zardushtlik eʼtiqodiga amal qiluvchilarning muqaddas kitobi sifatida Yagona Tangriga topinish shu taʼlimotdan boshlangan. Bu kitob tarkibi, ifoda uslubi va timsollar tizimi bilan adabiy manbalarga yaqin turadi. «Avesto»da tilga olingan joy nomlari (Varaxsha, Vaxsh)dan kelib chiqib, Amudaryo sohillarida yaratilgani aniqlangan. Shu asosda uning vatani Xorazmdir, degan qarash mavjud.

«Avesto» oromiy va pahlaviy yozuvlari asosida yaratilgan maxsus alifboda dastlab toʻqqiz hoʻkiz terisiga yozilgan. Ilk nusxalari asosida sosoniylar (mil. ol. 7-3 asr) davrida 21 kitob holida yigʻilgan, bizgacha ularning chorak qismi yetib kelgan. Tiklangan matnga «Zand» nomi bilan sharhlar bitilgan.

«Avesto» toʻrt qismdan iborat: Yasna *("Diniy marosimlar"),* Yasht *(maʼno jihatdan Yasnaga yaqin),* Visparad *("Barcha ilohlar haqidagi kitob"),* Vendidod *("Yovuz ruhlarga qarshi qonunlar majmuasi"). Yasna tarkibiga kirgan madhlar "Gatlar" (ayrim manbalarda «gohlar») deb nomlanib, ularni Zardushtning oʻzi yozgan deb taxmin qilinadi. Gatlar tarkibida Jamshid (Yima), Gershasp, Afrosiyob (Alp Ertoʻnga) kabi afsonaviy qahramonlar hayoti lavhalari uchraydi.*

«Avesto» insoniyat sivilizasiya tarixining ilk sahifalarini tashkil etgani uchun jahon olimlarining eʼtiborini tortgan. U haqda F.Nitsshe, F.Shpigel, A. Mayllet, V.Bartold, Ye.Bertels, Yan Ripka, O.Makovelskiy, I.Braginskiy v.b. xorijiy olimlarning tadqiqotlari mavjud.

Oʻzbekistonda «Avesto»ni oʻrganish qadimdan boshlangan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Jafar Tabariy, Abu Baxr Narshaxiy asarlarida «Avesto» taʼlimotiga va unda tilga olingan timsollarga murojaat mavjud. Bu nodir ilmiy asarlarning qoʻlyozma va bosma nusxalari OʻR FA ShI jamgʻarmasida saqlanadi. Hozirgi oʻzbek olimlari A.Qayumov, H.Homidov, M.Ishoqov, N.Rahmonov v.b.ning ilmiy tadqiqot va maqolalari eʼtiborli.

[12] Ўзбек насри тарихидан. – Т.: Фан, 1982. –Б.18.

O‘zbekiston Respublikasi hukumatning qarori bilan 2001 yilda «Avesto»ning 2700 yilligi nishonlandi. «Avesto» vatani Xorazmda bog‘ barpo qilindi, asarning o‘zbek tilidagi tarjimalari chop etildi, u haqda yangi tadqiqotlar yuzaga chiqdi.

Nashr qilingan manbalar: *1.Avesto. O‘zbekchaga tarjima (Asqar Mahkam tarj.) –T.: 2001. 2. “Avesto”dan (tarj. M.Ishoqov). “O‘zbek tili va adabiyoti» jurn. 1999, № 2–4. 3. “Avesto” (per.A.Maxkama). – T.: 2001.*

Ilmiy adabiyot: 1. 3. A.Qayumov . Qadimiyat obidalari. — T.: 1971; 4. H.Homidov. «Avesto» fayzlari. – T.: 2001; 5. N.Rahmonov. “Avesto”ning paydo bo‘lishi. — “O‘zbekiston ovozi” gaz., 2001, 26 may. 6. N.Rahmonov. “Avesto”: Zamin, vatan demakdir. — “O‘zbekiston ovozi” gaz., 2001, 25 sentabr.

3. «O‘rxun-Enasoy obidalari» (V-VIII asrlar). O‘rxun–Enasoy obidalari V-VII asrlarda qadimgi turk tilidagi va yozuvidagi tarixiy yodgorlik sifatida qadrli. Mo‘g‘ulistondagi O‘rxun va Janubiy Sibirdagi Enasoy daryolari sohillarida topilgani uchun ham shunday nomlangan. Mo‘g‘ulistondan Shimoliy dengizlargacha, Uraldan Saxalinga qadar davom etgan hududda shu yozuvdagi yodnomalar uchraydi. Shimoliy Kavkazda XU asrda ham O‘rxun yozuvidan foydalanilgan. O‘zbekiston hududida (Farg‘ona,Surxondaryo v.b. joylar)dan 20 dan ortiq turkiy–run yozuvi yodgorliklari topilgan.

Yirik O‘rxun bitiklari Kultigin, Bilga xoqon, To‘nyuquq va boshqa bu yozuvdagi yodnomalar (mas. Irq bitigi) adabiy manba sifatida qahramonlik qissa va dostonlariga mazmunan yaqin keladi. Kultigin bitiktoshi 732 y. Turk xoqonligi(551–745)ning lashkarboshisi sharafiga o‘rnatilgan. Bitiktosh ikki qismdan: Kichik va Ulug‘ bitikdan (muallifi Yo‘llig tigin) iborat. Vatan manfaati yo‘lida xizmat qilish, mamlakatning mustahkam, osoyishta bo‘lishi uchun kurash bitiktoshlarda bosh maqsad ekani aytiladi.Asarda Tabg‘ach, Tibet, Sug‘d, Turgash, Qirg‘iz kabi joy nomlari tilga olingan. Enasoy bitiklari marsiya va madhiya janrlarining qadimgi turk adabiyotidagi ildizlari haqida tasavvur beradi.

Bitiktoshlar XIX asr oxirlarida topilib, U.Tomsen tomonidan o‘qilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan. Ba’zi yodgorliklar deshifrovka qilingan emas. AQSh, Polsha, Vengriya, Finlyandiya va Turkiyada ham o‘rganilgan. Rossiyada V.Radlov, S.Malov, I.Stebleva ishlari ma’lum. O‘zbekistonda Fitrat, A.Qayumov, N.Rahmonov v.b. asardan namunalar va tadqiqot ishlarini chop qildirgan.

Yozma manbalar orasida O‘rxun-Enasoy obidalari islomgacha yaratilgan turk nasrining tengsiz yodgorligi ekanini rus olimlari V.Jirmunskiy, A.Shcherbak tan olib yozishgan. Toshbitiklardagi «Yo‘q chiqan buduniq ko‘p ko‘bartdim, chiqan buduniq bay qildim, az buduniq o‘kush qildim» (Mazmuni: yo‘qolib borayotgan xalqning sonini orttirdim, qashshoq xalqni boy qildim, ozchilikni ko‘p xalq qildim») so‘zlari mardona turk nasrining so‘nmas ovozi sifatida yangraydi. Bu obidalar tarkibidagi «Bilka Qoon», «Kultekin» va «To‘nyuquq» bitiklari qadimgi turk bahodirlarining shavkati va turk yerining mustaqilligi uchun olib borgan janglarni badiiy lavhalarda aks etganidir. Toshbitiklardan boshqa runiy yozuvida qog‘ozga bitilgan qadimgi manba «Irq bitigi» («Ta’birnoma»)da ham ilk turk yozma nasrining belgilarini ko‘rish mumkin.

Nashr qilingan manbalar*: 1. Eng eski turk adabiyoti namunalari (Tuzuvchi prof. Fitrat). - T.: 1927; Qayta nashri: Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari (nashrga tayyorlovchi O.Hamroeva; mas’ul muharrir H.Boltaboev). – T.: MUMTOZ SO’Z, 2009. 2. Yeniseyskaya pismennost tyurkov. – M.,L.: 1952; 3. Qadimgi hikmatlar. - T.: 1987.*

Ilmiy adabiyot: *1. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. - T.: 1971. 2. Rahmonov N. Inson ruhining sadosi. - T.: 1986; 3. Rahmonov N. Ko‘hna bitigtoshlar. — T.: 1990; .Rahmonov. Turk xoqonligi. — T.: 1993.*

Darsning mavzusi: IX-X asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot. Islomiy adabiyot va uning umumturk adabiyotiga ta’siri

Darsning maqsadi:

a) Ilmiy maqsad: Mavzu haqida bilim berish hamda gumanizm,erksevarlik va vatanparvarlik g`oyalarini bolalarga singdirishni o`rgatish.
b) Tarbiyaviy qism maqsadi: yoshlarni ma`naviy yetuk, axloqli, e`tiqodli, izlanuvchan , milliy qadriyatlar va an`analarni davom ettiruvchi kitobxon va mutaxassis qilib tarbiyalash.Talabalarni milliy an`analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash
c) Rivojlantiruvchi maqsad: voqealarni bildirish orqali ularni o`zligini anglatish , milliy g`urur, milliy iftihor tuyg`ularini singdirishni, tarixiy faktlarni baholay olishni o`rgatish.

Darsning turi: Noan'anaviy
Darsning uslubi: *diologik yondashuv, muammolai ta'lim, munozara, "klaster", ma'ruza, o'z-o'zini nazorat*
Darsning jihozi: **Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar**
Fanlar aro bog'lanish: adabiyotshunoslik, xalq og'zaki ijodi, folklorshunoslik masalalari, badiiy tahlil asoslari, milliy istiqlol g'oyasi
Natija: Darsga qo'yilgan maqsadlarga to'liq erishish, har bir talabaga yetib borib, baholash.
Uyga vazifa: Mavzuni o'qib, konspekt qilish. Amaliy va seminar mashg'ulotlarga tayyorlanish.

T|r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma'sul
1- bosqich 15 daqiqa	**Dars maqsadi**: *Mavzu* haqida talabalarga tushuncha va bilim berish. **Mavzu doirasida reja asosida quyidagi masalalarni o'rganish maqsad qilingan:** 1. *IX-X asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot.* 2. *Islomiy adabiyot va uning umumturk adabiyotiga ta'siri* 3. Hadis to'plash an'anasi va turkistonlik buyuk muhaddislarning roli. 4. Islom madaniyatining shakllanishi va musulmon intibohi (renesansi). 5. Markaziy Osiyo buyuk islom allomalari 6. Turkistonda tasavvufning vujudga kelishi va tarqalishi. 7. Tasavvuf tarixida irfon bosqichi.	**O'qituvchi**
2- bosqich 30 daqiqa	**Asosiy tushunchalar:** *madaniy hayot..islomiy adabiyot,h*adis to'plash an'anasi , musulmon intibohi (renesansi), tasavvuf Tasavvuf tarixida irfon bosqichi.**Dars shakli: tushuntirish va baholash** **Vositalar:** ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, slaydlar **Metod va usullar:** kitob bilan ishlash, kuzatish, tushuntirish, bahs-munozara, suhbat	**O'qituvchi**
3- bosqich 15 daqiqa	**Guruhda ishlash** -guruhlar o'rtasida bahs-munozara ko'rinishida davra suhbati o'tkaziladi. -guruhlararo savol-javob o'tkaziladi. -mavzuga oid atamalar izohlanadi.	**talaba**
4- bosqich 10 daqiqa	**Mustahkamlash va baholash ushun savollar** *IX-X asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot haqida gapiring* Hadis to'plash an'anasi ni izohlang Turkistonlik buyuk muhaddislar haqida ma'lumot keltiring Musulmon intibohi (renesansi) nima? Tasavvuf tarixida irfon bosqichi haqmda tushunchangiz?	**O'qituvchi - talaba**

5- bosqich 10 minut	**Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish** Maqsad va vazifalar bajarilganligi tahlil qilinadi, kerakli maslahatlar beriladi, mustaqil ish topshiriqlari tarqatiladi, xulosalar chiqariladi. **Adabiyotlar:** 1. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua (1-jild). Tuzuvchilar: N.Rahmonov, H.Boltaboev – T.: Fan, 2003. 2. Komilov N. “Tasavvuf”. T., 1996 3. Mallaev N.M. O’zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. T. 1976 4. R Vohidov, H Eshonqulov O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. T: 2006 yil 5. Tolstov S. “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab”. T. 1964 6. Qayumov A. “Qadimiyat obidalari”. T. 1972 7. “Qadimgi hikmatlar”. T. 1987 8. O’zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. T. 1976 9. O’zbek adabiyoti. Xrestomatiya. 4 tomlik, 1-tom. T. 1959. 10. Hasanov X. “Maxmud Qoshgariy”. T., 1963 11. “G’oyiblar xaylidan yongan chiroqlar”. Maqolalar to’plami. T., 1994 12. Bertel’s . “Sufizm i sufiyskaya literatura”. M., 1965	**O’qituvchi**

IX-X asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot. Islomiy adabiyot va uning umumturk adabiyotiga ta’siri

REJA:

1. *IX-X asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot.*
2. *Islomiy adabiyot va uning umumturk adabiyotiga ta’siri*
3. Hadis to‘plash an’anasi va turkistonlik buyuk muhaddislarning roli.
4. Islom madaniyatining shakllanishi va musulmon intibohi (renesansi).
5. Markaziy Osiyo buyuk islom allomalari
6. Turkistonda tasavvufning vujudga kelishi va tarqalishi.
7. *Tasavvuf tarixida irfon bosqichi.*

IX-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda somoniylar, g‘aznaviylar, qoraxoniylar va xorazmshohiylar sulolalari alohida turk-islom davlatlari tipida yashaganlar. Mana shu davrda yaratilgan turk tilli islomiy adabiyot qamroviga Qur’on tafsirlari, Hadislarning tarjimalari, «Devonu lug‘oti-t-turk» tarkibiga kirgan nasr va nazm namunalari, «Qutadg‘u bilig», «Devoni hikmat», «Hibatu-l-haqoyiq», «Boqirg‘on kitobi» kabi yozma manbalar kiradi. Mo‘g‘ul istilosi davrida yaratilgan yirik adabiy yodgorlik «Kisasu-l-anbiyo» ham ta’limiy yo‘nalishdagi adabiyotlar sirasiga kiradi.

Markaziy Osiyoda tasavvuf tariqatlari X-XI asrlardan boshlab shakllanish davriga kirgan bo‘lib, umuman tasavvufning tarqalishi va taraqqiyoti Xoja Yusuf Hamadoniy nomi bilan bog‘liq. Xoja Yusuf tahsil munosabati bilan Buxoroga kelgan

va shu yerda muqim qolib, xonaqoh qurdirib faoliyatini davom ettirgan. Shayxning Buxorodagi xonaqohi Xuroson ka’basi nomini olgan va bizga qadar "Rutbatu-l-hayot" ("Hayot martabasi") asosiy asari yetib kelgan.

Aytishlaricha, Shayx Xamadoniyning 4 xalifasi uning faoliyatini davom ettirgan. Ular: Xoja Abdulloh Barraxiy, Xoja Hasan Andohiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy.

Markaziy Osiyoda tasavvuf tariqatlarining vujudga kelishi Xoja Ahmad Yassaviy va Abduxoliq G‘ijdivoniy faoliyati bilan bog‘liq. Yusuf Xamadoniy ta’limotida tariqatlanish keskin aks etmaydi. Faqatgina Xoja Ahmad Yassaviy bilan Abdulxoliq G‘ijdivoniyning turli hududlardagi faoliyati va mana shu hududlar sharoitidan kelib chiqib ish ko‘rishi natijasida yassaviylik va xojagon tariqatlari shakllangan.

Yassaviylik tariqati Xoja Ahmad Yassaviy nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u jahriylik deb ham yuritiladi. Chunki tariqatning asosida oshkora tantanali ibodat va jahr majlislari asosida tariqat kengaygan. Bu tariqatning nazariy manbalari sifatida muallifi ma’lum bo‘lmagan "Faqrnoma" va "Maslaku-l-orifin" kabi asarlar turadi yoki keltiriladi. Ularda yassaviylik yo‘li, tariqat odobi, shakllanish maqomlari, pir-murid munosabati tariqat maskanlari kabi masalalar aks etgan. Tariqat maskani sifatida xonaqoh va zoviya belgilangan va ma’lum bo‘lishicha Sultoni Orifin

tomonidan o‘z davrida xonaqoh qurdirgan. Keyinroq bu xonaqoh XIV asrda Amir Temurning yassiya ziyorati tufayli kengaytirilib ta’minlangan.

Xoja Ahmad Yassaviy tariqat sohibi sifatida xorijdayam mashhur bo‘lgan yassaviylik asosida, keyinroq bektoshiylik, abdorlik kabi silsila va tariqatlar vujudga kelgan.

Yassaviylik tariqati XX asr boshlariga qadar Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan, xorijda esa Sharqiy Trukiston (hozirgi Turkiya) hududlarida shu kunda ham amalda ekanini tasdiqlovchi manbalar bor. Yassaviylik nafaqat tariqat sifatida, balki adabiy maktab sifatida ham taraqqiy etgan. Bu yo‘nalishda o‘nlab ijodkorlarni, hikmat mualliflarini keltirish mumkin: Hakim Sulaymon ota, Qul Ubaydiy, Azim Xo‘ja Eshon devoni hikmat sohiblari sifatida adabiyotdan o‘rin olgan.

Xoja Ahmad Yassaviy ijodi dastlab uning shogirdlari tomonidan davom ettirilgan bo‘lsa, XVI asr boshlariga kelib Yassaviy maktabi shoirlari saroyga qadar ko‘tariladi.

XX asr boshlarida esa mustaqil adabiy maktab sohiblari sifatida o‘z faoliyatini davom ettirmoqda edilar. Bu haqda bizga yassaviylikdan tarixiy manbalar bo‘lgan. "Maslaku-l-orifin", "Javohiru-l-abror", "Samirotu-l-mashoiq" singari manbalarida xabar berilgan.

XX asr boshlarida Xoja Ahmad Yassaviy ijodi tariqat yo‘lini ilmiy jihatdan asoslanishga qaratilgan. Fuod Ko‘prulu, Abdurauf Fitrat, Abdurahmon Sa’diy singari olimlardan tadqiqot va maqolalari e’lon qilingan.

Fitrat fikricha, 3 ta maktab yaratilgan:

1. Yassaviylik maktabi.
2. Navoiy maktabi.
3. Amir Umarxon maktabi.

Adabiyotlarda hikmat janrning paydo bo‘lishini Yassaviy nomi bilan bog‘lash mumkin. Hikmatlar 4 baytli bo‘lgan. Ba’zilarda 1,2,3-misralari qofiyalangan, ba’zilarida 4 misra ham qofiyalangan bo‘ladi. Yassaviy 4 misrani tanlagan, chunki xalqqa yetishi oson bo‘lgan. Yassaviy ibodat adabiyoti yaratadi. "Maslaku-l-orifin" Yassaviy haqida ma’lumot beruvchi yagona manba.

"Devoni hikmat" muallifi Yassaviy ekanligi to‘liq ma’noda to‘g‘ri emas.

Fitratning "Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida tekshirishlar" nomli maqolasi bor. Yassaviylik to‘g‘risida so‘nggi manba hisoblanadi.

Qur’oni karim ilk martaba Ajamda fors tiliga tarjima qilingan. Somoniylar sulolasi hukmdori Mansur ibn Nuh (961-976) topshirig‘i bilan mashhur tarixchi va muhaddis olim Jarir Tabariyning “Tafsiri Qur’on” asari mana shunday ilk tarjimadir.

Qadimgi Baqtriya (e.a. IX-VIII asrlar) zaminida paydo bo‘lgan Toxariston (V-VIII) hududlari VI asrga kelib kengaydi, uning tarkibiga hozirgi Surxondaryo zaminidagi Da-mi (Termez) va Chi-o-yan-na (Chag‘oniyon) viloyatlari qo‘shildi. Dastlab, Toxariston yerlariga sosoniylar (III-V) va Xionit hamda Eftalitlar (V) kirib keldi. Chag‘oniyon atamasi yozma manbalarda VI asrdan boshlab uchraydi. Ilk bor xitoy sayyohi Syuan Szyan 630-yillarda uning termizlan ikki marta kichik shahar bo‘lganini va Qabodiyon Bilan teng ekanini yozgan[2] Yilnomachi ad-Dinovariy (vaf.952) «Kitobu-l-axbor»da sosoniy Xusrav I Anushervon (531-579) Eftalit davlatiga qarashli Toxariston, Kobuliston va Chag‘oniyonni (571) bosib oldi... Nihoyat, X asrdan e’tiboran Muhtojiylar sulolasi ustivor bo‘ldi. Unga Amio al-Muhtoj asos solgan, so‘ngi vakili Faxru-d-Davla (1010-1018) gacha davom etgan.

Muarrix Istaxriyning «Kitobu-l-masolik va-l-mamolik» («Mamlakatlar masalalari kitobi, 933) asarida yozishicha, bu davrda Chag‘oniyon hududi Termizdan ikki marta katta bo‘lgan. Tarixchilar Yoqut Hamaviy (1179-1229) «Mo‘’jamu-l-buldon», Hofiz Abro‘ (1362-1431) «Hululu-l-olam» asarlarida Sag‘oniyon nomi bilan tilga olingan. X-XII asrlarda uning hududi g‘arbda Boysun va Darband, shimolda Hisor va Dushanbe, janubda Jarqo‘rg‘on va sharqda Bobotog‘ga qadar davom etgan. Surxon daryosi Chag‘onrud deb yuritilgan.

Ilm-fan. Chag‘oniyonda alloma va muhaddis Abu Bakr Sag‘oniy (IX), Beruniy hurmat Bilan tilga olgan «Taxtitul-usturlob» («Usturlob xatolari»), « Kitob fi tasheh at tom» («Muttasil

[2] Аршавская З.А. и др. Средневековўе памятники Сурхандарьи. – Т.: 1982. –С.38.

harakatlar kitobi»), «Qavonini ilmi hay'at» («Er shakli ilmi qonunlari») asarlari muallifi munajjim va jug‘rofiy Ahmad ibn Muhammad as-Sag‘oniy (X) va Abu hamid Usturlobiy; «Kitobi ziju-l-safox» («Gardishlar ziji kitobi»), «Kitobu-l-masoil Al-adadiya» («Hisob masalalari kitobi») hamda Evklid asarlariga sharh yozgan Abu Ja'far Xozin, lug‘atshunos olim, «Majma'u-l-bahrayn», «Al ubobu-z-zohir» («O‘zaklarning tashqi ko‘rinishi») kabi qomusiy asarlar muallifi Sag‘oniy (ismi noma'lum) bu yurtning ulug‘ allomalari edi.

Abulqosim Ali ibn Muhammad al-Iskofiy yetuk xattot va badiiy so‘z ustasi bo‘lgan. U haqda «Yatimat ad-dahr»da «Xurosonning tili, g‘ururi, ko‘zi va yagona kishisi edi. U kitobat va ilmi balog‘atda Xurosonda birdan bir kishi bo‘lib, idm va san'atda tengi yo‘q edi» deb ta'riflangan va undan 21 bayt keltirilgan. Ulardan biri (atir idishi xususida):

Sirtimda znbolik barq urar,
Ichkarida xushbo‘y hid etar g‘arq.
Yarim tanam nasibasin tatir,
Yarmim to‘kis va tugal atir[3].

Shoir 956 yili vafot etganda Abu Nasr al-Xuzaymiy «Risolalar devonida u yo‘q endi, Devondagi qalam va daftar egasiz qoldi» deb yozgan ekan.

*Chag‘oniyon adabiy muhiti*da davr (X asrning 2-yarmi XI asr boshlari)ning peshqadam shoirlari yetishib chiqqan. Sag‘oniy shoirlaridan *Taxoriy* (ayrim manbalarda Taxoviy, X asr boshlari) dan to‘rt misra saqlanganiga qaramay u adabiy muhitning asoschilaridan biri sifatida qadrlangan:

Lab-i go‘y, ki nimkafta gul ast,
Mai no‘sh andar u nuhuftasty.
Zulf go‘y ay lab nihozida,
Ba gila so‘i chashm raftasty[4]

(Mazmuni: Labing yarim ochilgan guldir, Unda xush may yashirindir. Zulfing labdan lab burib, Ko‘z tomon og‘ishga shaylangandir).

Abu Abdulloh Muhammad binni Hasan Ma'rufiy Balxiy fotimiylar harakatining tarafdorlaridan edi, buyuk Rudakiy (858-941)ning ko‘ziga mil tortilishining sababi ham manna shu fotimiylikdardir. Shoir merosidan 92 she'r saqlangan bo‘lib, ular Umar Roduyoniy, Shams Qays Roziy risolalarida badiiy san'atlar aks etgan she'riy namunalar sifatida tilga olingan.

Shoirning forsiy she'rlaridan shunday namunalar keltirilgan:

Hukmi qazo bud v-in ba dilam bar,
Mahkam az on shud Ki yor yori qazo shud.
Har chy biguyam zi man nigar, ki nigary,
Aql julo shud zi man, Ki yor judo shud[5]

(Mazmuni: Qalbimdagi og‘ir yuk qazo hukmidir, Shundan yor o‘limning o‘ri bo‘ldi. Nima desam-da menga boq, boqmasang, Aql ham, yor ham mendan judo bo‘ladi).

Abulhusayn Muhammad binni Muhammad al-Murodiy Buxoriy (vaf.940) Rudakiyning sevimli shogirdlaridan bo‘lgan qasidanavis shoir bo‘lgan, hatto uning o‘limiga Ro‘dakiyning marsiyasi ham bor. Uning Abu Aliga bag‘ishlangan qasidasida shunday fikrlar bor:

(Mazmuni)

Sen tirik ekansan, yo‘ldan hech kim adashmaydi,
Adashgan tayanchini qilich zarbi yemiradi,
Qo‘lingdan saxovat va xalokat yog‘iladi…[6]

Yoki:

(Mazmuni)

Boshing kzra o‘lim charx urib turganda,
Hasham va xazinadan foyda nechun[7].

[3] Кўрсатилган асар. – Б.29.
[4] Ашъори ҳамасрони Рўдакй. – Сталинобод, 1958. – Сах.99.
[5] Юқоридаги асар. – Б.302.
[6] Қодиров Б., Муртазонв Б. Чағониён алабиёти (X-XII асрлар) – Т.: Янги аср авлоди, 2002. – Б.37.

Bu davr adabiy muhitida Daqiqiy va Farruxiy kabi mashhur shoirlar yetishib chiqqan. Daqiqiydan so‘ng davlat arbobi va iste’dodli shoir Tohir Chag‘oniy (vaf.992) ijod qilgani haqida Umar Roduyoniy xabar beradi va «Tarjimonu-l-balog‘a»da muqtazob (iqtizob - qirqilgan) san’atining go‘zal namunasi sifatida quyidagi baytini keltiradi:

Bar mamlakat savor nagashty tu az gazof,
V-ozodagon-t banda nagashtand xir-xir.
Edun ba mavqey, ba madoroi ro‘zgor,
K-az nesh no‘sh makiyu v-az boda sherri sher[8]

(Mazmuni: Sen davlatda qilichsiz ham sarvar, sardor, Oqsuyaklar senga jabr-sitam ila tobe’ emas. Hayotda sen haqiqIy mavqega egasan, Sening qahringdan chaqqan ilon zahri ham beia’sir va sherni bemalol sog‘a olasan)

Abu Mansur Muhammad ibni Ahmad Daqiqiy (929-977) fors mumtoz adabiyotida mashhurlikda Ro‘dakiydan keyinda turadigan shoirlardan. U haqda Beruniyning «Al osor al-boqiya», Abulfazl Bayhaqiy (996-1077)ning «Tarixi Mas’udiy», Firdavsiyning «Shohnoma», Muhammad Avfiyning «Lubobu-l-albob» (1221), Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Lutf Alibek Ozariyning «Otashkada» (1760-61) asarlarida ma’lumotlar bor. DaqiqIy ijodi haqida V.V.Bartold, I.V.Braginskiy, N.O-.Osmanov, B.F.Lifshits, E.V.Rtveladze va boshqalarning ishlari ma’lum.

Shoir 950-yillardan Chag‘oniyonga kelgan Abu Ali, Abu Mansur Nasr saroyida mulozimlik qilgan. Jomiy Daqiqiyning Ushbu to‘rtligini keltiradi:

Man in jo der mondam, xor gashtam,
Aziz az mondani doim shavad xor.
Chu ob andar shamar bmsyor mond,
U funad girad az oromi bisyor[9]

(Mazmuni: Men uzoq turgandan la’natlandim, Bir joyda uzlq qolish hurmatli odamni ham la’natga botiradi. Axir bir joyda suv ko‘p tursa ko‘lmau bo‘lib, Uning rangi, hidi va tam’i o‘zganadi). Shoir Nuh ibn mansurning topshirig‘i bilan nasriy «Shohnoma»ni she’rga sola boshlaydi, biroq uning uch ming baytini yozib ulgurganida, quli tomonidan pichoqlab o‘ldirilgan. Bu asarning «Gushtospnoma» qismi bo‘lib, adabiyot tarixida Daqiqiy manna shu asarning muallifi sifatida qolgan.

Abulhasan Ali Chulug‘ Farruxiy Seyistoniy (980-1037) davrining go‘zal tabiatli, latif shoirlaridan bo‘lgan. U haqda Nizomiy Aruziy Samarqandiy, Avfiy, Davlatshoh Samarqandiy xabar beradi. U och-nochor holda Seyistondan Sag‘oniyonga yo‘lga chiqadi va Abul Muzaffar nomiga qasida bitadi, bir faqir bunday go‘zal qasida yozishiga amirning kadxudosi Amid Asad ishonmaydi, shunda Farruxiy bir kechada boshqa «Dog‘goh» nomli qasida bitgan ekan. Qasidada ulug‘ shoirni esga olib, «Daqiqiy qabri uzra o‘sgan har bir ko‘kat, seni minglab so‘zlar bilan ta’riflaydi» deyish bilan qasidachilikda Daqiqiy yo‘lini davom qilganiga ishora bermoqchi bo‘ladi. Farruxiy amirning she’r bazmida

Ko‘k harirdan yuziga yopgan ro‘molin sabzavor,
Etti xil rang ipaklarin boshga soldi ko‘hsor

deb boshlanuvchi qasida bilan hammaning maqtoviga sazovor bo‘lgan ekan[10]. Muzaffariy ismli boshqa bir shoir uni «tojiu-l-shuaro» deb ataganini Asadiy Tusiy (1005-1075) «Lug‘ati furs» asarida keltiradi.

Chag‘oniyon shoirlari faqatgina o‘z davrida, o‘z yurtida adabiy muhit yaratibgina qolmay, balki somoniylar va g‘aznaviylar sulolasi adabiy muhitiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdilar. Daqiqiy ijodi Firdavsiy va Adib Sobir Termiziy (1078-1147), Amir Muazziy (1049-?)ga o‘z ta’sirini o‘tkazgan bo‘lsa, Labibiy an’analari Mas’ud Sa’di Salmon (1046-1122) ijodining shakllanishiga

---

[7] Ашъори ҳамасрони Рӯдакӣ. – Сталинобод, 1958. – Саҳ.29.
[8] Муҳаммад ибни Умар Родуёний. Тарчумону-л-балоға. (Таҳияи матн, тавзнҳоти Х.Шарифов). – Душанбе: Дониш, 1987. – Саҳ.27.
[9] Жомӣ А. Баҳористон. – Душанбе: Ирфон, 1966. – Саҳ.88.
[10] Низомий Арузий Самарқандий. Нодир ҳикоятлар. – Т.: 1985. – Б.37.

turtki bo‘lgan. /aznada beruniy ilmiy maktab yaratgan bo‘lsa, u bilan yonma-yon turgan Farruxiy yirik adabiy maktabning ijodkorlaridan bo‘lgan, u nafaqat hukmdorlarga balki, Beruniy kabi ulug‘ allomalar nomiga ham qasidalar bitgan.

Matn va manbalar: 1. Ash’ori hamasroni Ro‘daky. – Stalinobod, 1958. – 408 s.; 2. Nizomiy Aruziy Samarqandiy. Nodir hikoyatlar. – T.: 1985. – 96 b.; 3. Roduyoniy Muhammad Umar. Tarchumonu-l-balog‘a. / Muntaxabi «Marchumanu-l-balog‘a» va «Hadoiqu-s-sehr». – Dushanbe: Donish, 1987. – 144 b.; 4. Sabaqi Ro‘daky. – Dushanbe: Irfon, 1984. – 304 s.

Ilmiy adabiyot: 1. Abluddaev I. Buxoroning arabiynavis shoirlari. – T.: Fan, 1965. – 56 b.; 2. Abdullaev I. Poeziya na arabskos yazo‘ke v Sredney Azii i Xorasane X-nach. XI v. – T.: Fan, 1984. – 294 s.; 3. Abdulloev A. Adabiyoti forsu tojik dar nimai avvali asri XI (Doirai adabii /aznin). – Dushanbe: Donish. 1979. – 286 s.; 4. Arshavskaya Z.A. i dr. Srednevekovo‘e pamyatniki Surxandari. – T.: 1982; 5. Rtveladze E.V. K biografii Farruxi. / Xudojestvennaya kultura Sredney Azii IX-XIII vekov. – T.: 1983. – S.177-181; 6. Fitrat. Fors shoiri Umar Xayyom. / Tanlangan asarlar. –T.: Ma’naviyat, 2000. – B. 134-172; 7. Qodirov B., Murtazoev B. Chag‘oniyon alabiyoti (X-XII asrlar) – T.: Yangi asr avlodi, 2002. – B.17.

4. G‘aznaviylar davri adabiyoti. Mahmud G‘aznaviy tomonidan G‘azna shahrining poytaxt bo‘lishi natijasida ilm-fan vakillari shu yerga to‘planganlar. Adabiyot va san’at namoyandalariga alohida ahamiyat qaratilgan. Firdavsiyning “Shohnoma”si Mahmud G‘aznaviy tavsiyasi bilan yozilgan. Bu davrning ulug‘ olim va fozillaridan biri Abu Rayhon Beruniy (973-1048) edi.

Hayoti va asarlari. Abu Rayhon Beruniy Xorazmning Qiyot shahrida tug‘ilgan, 22 yoshida o‘z vatanidan chiqib ketgan (Berun – «tashqari» nisbasiga e’tibor bering). Jurjonda va boshqa o‘lkalarda yashagan. Shartli ravishda Ma’mun akademiyasi deb nomlangan ilmiy anjuman faoliyatida muhim rol o‘ynagan. Fanning bir yuz ellikdan ortiq sohalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlari ma’lum.

Beruniyning badiiy adabiyotning nazariy masalalariga bag‘ishlangan "Fazl ahlining she’rda aytilgan fikrlarini bayon qilish kitobi", "Tanlangan asarlar va she’rlar kitobi" kabi asarlari ma’lum. Shuningdek, buyuk qomusiy olim "Hindiston", "al-Javohir", "Kitobu-s-saydana" asarlarida ham san’at va adabiyot muammolarining ayrim qirralariga ochiqlik kiritgan.

Allomaning "Hindiston" (to‘la nomi "Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash kitobi") asarida hind she’r ilmiga maxsus bob (13-bob) yaratilib, unda asar hind tili grammatikasi va fonetikasi qoidalarining she’r ilmida aks etishi muammolari o‘rganilgan[11]. Bunday ilmiy mulohazalar qatorida ushbu bobga tegishli sakkizta kitob haqida ma’lumot berilgan. Ular «Aindra» (Indra tuzgan), «Chandra» (Buddaning suhbatdoshlaridan Chandra ishlagan), «Shokata» (Shokatoyana qabilasi tomonidan tuzilgan), «Ponini» (tuzuvchining ismi bo‘yicha), «Kotantra» (Sharvavarman tuzgan), «Shashidevavritti» (Shashideva tuzgan), «Durgavivritti» (muallif ismi bilan yuritilgan) va «Shish’yahi-tovritti» (Ugrabxo‘ti tuzgan). Beruniyning bu asari nafaqat hind she’r tuzilishi, balki hind-ovro‘pa tillaridagi fonetik hodisalarni ham anglatadi va arab aruzini tushunishga ham yordam beradi.

Adabiy merosi. Buyuk alloma badiiy asarlar ham yaratgan bo‘lib, ular arab tilida yozilgan 37 baytli bir qasida va 3-4 she’riy parchalardan iborat. Bu ijod namunalaridan misollar keltirgan tazkiranavis Yoqut Hamaviy «Majma’u-l-udabo» («Adiblar to‘plami») asarida alloma ijodiga baho berib va ular baland saviyada bo‘lmasa ham Beruniy qalamiga mansubligi bilan tahsinga loyiq, deb hisoblaydi[12].

Qasidada alloma Abulfath Bustiyni madh etish bilan birga adolat, saxiylik va ilm-fan haqida zamonasining hukmdorlari bilan qilgan suhbatlari ham aks etgan. Beruniyni madh etib yozgan Abu Hasanga shunday javobi (mazmuni) bor:

Ey shoir, sen odob bilan mening oldimga kelib,
Meni madh etmoqchi bo‘lasan, lekin men dashnom eshitishga ko‘nikkanman...
Dashnom va maqtov, ey Abu Hasan, mening nazdimda barobardir,

[11] Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. 2-жилд. – Т.: Фан, 1965. - Б.114-124.
[12] Қаранг: Комилов Н. Беруний ва бадиий ижод. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2005. – 4-сон. –Б.4.

Xuddi sening hazilu jiddiyliging men uchun barobar bo‘lgani kabi.
Avf et, ota-onamning gunohlaridan o‘t, ularni tinch qo‘y,
Bu ishing bilan sen bamisoli shishani toshga urganday (ovora) bo‘lasan.

Qasidaning yakuniy qismida muxoliflariga bo‘lgan munosabatini aytish bilan o‘zi haqida shunday ma’lumot beradi: «Ular (muxoliflar) fan oldida tiz cho‘kmadilar. Va ilmiy munozaralarda qatnashmadilar. Hech kim ham (ilmda) men kabi turlicha masalalar ustida to‘xtalgan emas. Mabodo meni bilmoqchi ekansan, Sharqda men haqimda hindlardan, /arbda mening tortgan. qiyinchiliklarimni bilganlardan so‘ra».

Prof. N.Komilovning «Beruniy va badiiy ijod» maqolasida allomaning she’riy asarlarini tahlil qilarkan, undan Yoqut Hamaviy tazkirasiga kirgan quyidagi to‘rtliklarni misol (mazmuni) keltiradi:

Mehnatsiz shuhrat qozongan odam
Osoyishtalik, farovonlik soyasida yashaydi.
Yaxshi kiyinadi, rohatda (kun ko‘radi),
Lekin ulug‘lik kiyimida u hamisha yalang‘ochdir.

Sen mendan uzoqlashding va mening hayotim
avvallari yaxshi o‘tgan bo‘lsa, endi qayg‘uli bo‘ladi.
Sening maktubing g‘am-alamdan, har qanday duodan ko‘ra
Meni ming marta yaxshiroq davolaydi.

N.Komilov M.Salening «Beruniy she’rni ermak uchun yozardi»[13] degan fikrini rad etib yozadi: «Beruniy arab she’riyatining turli shakllarida, mavzu jihatidan rang-barang va manzur bo‘larli darajada qalam tebratganini ko‘rsatadi»[14].

Beruniy adabiy merosi tarkibida adabiy-nazariy qarashlar va o‘ziga zamondosh bo‘lgan shoirlar ijodiga munosabat yetakchilik qiladi. «al-Javohir» asari qimmatbaho toshlar va ma’danlar tasnifiga bag‘ishlangan. Unda ayrim la’l va ma’danlar haqida ma’lumot berarkan, u haqda adiblarningg fikrlarini ham keltiradi. Masalan, «Lu’lu’» bobining «Gavhar va uning nomlarining adiblar tomonidan ta’riflanishi» faslida adabiyot masalalariga to‘xtaladi. Shoir qo‘llagan badiiy san’atlarning o‘sha tasvirdagi narsa yoki hodisaga mos kelish-kelmasligini sharhlarkan, bir shoirning (mazmuni)

Mening qalbim nozik qomatli, beli niholday harakatlanuvchi jononga qaratilgan,
U qiz husnu jamolda dengiz qirg‘oqqa uloqtirgan gavhardek

baytidagi tashbeh qo‘llanilishi haqida «Lekin bu o‘xshatish ma’no jihatidan to‘g‘ri emas, chunki gavhar qirg‘oqqa uning chig‘anog‘i o‘lgandan keyingina uloqtiriladi. Bunday holda esa gavhar yemirilish va o‘zgarishlardan buzilgan bo‘ladi» deb yozadi. Shoirning tashbehi haqida ma’danshunos allomagina bunday nozik kuzatish qilish mumkin.

Umuman, asarda saksondan ortiq shoir ijodiga murojaat orqali shunday xulosaga keladi: «Shoirlar tabiatdagi narsa-hodisalarning hamma vaqt zam aniq xususiyatlarini tasvirlashga qiziqmaydilar, balki ularni kishilar tasavvuridagi holatiga ko‘ra qalamga oladilar»[15]. Ayni asarda johiliya davri shoirlari Qays ibn Mulavvah, Hotam To’yi, Ibn Sa’d ijodidan ham namunalar keltirgan. Jumladan, ushbu asarida arab va fors tillarida asarlar yaratgan Hamza Isfahoniy, Abu Bakr ibni Husayn Ko‘histoniy, Abul Qosim ibni Bobak Jurjoniy, Mansur Muvarrid Forisiy, Gadoiriy, Darshor ibni Burd, Abu Mansur Saolibiy, Abubakr Xorazmiy, Xotibiy ibn Nasrovayh Samarqandiy v.b. tilga olingan.

«Hindiston», «Saydona», «Osoru-l-boqiya» asarlarida ham baddiy adabiyot va adabiyotshunoslikka doir fikrlar bayon qilingan.

Beruniyning Abu Tammom (arab shoiri) haqidagi «Abu Tammom ash’origa sharh», «Abu Tammom ijodida alif bilan tugallanadigan qofiyali she’rlar» kabi risolalari, fors tilidan arab tiliga tarjima qilgan «Qosimu-s-surur va Aynu-l-hayot», «Hurmuzdiyor va Mehryob»,

[13] Салье М. А. Абу Райҳон Беруний. – Т.: 1960. – Б. 79.
[14] Қаранг: Комилов Н. Беруний ва бадиий ижод. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2005. – 4-сон. – Б.5.
[15] Иқтибос юқоридаги мақоладан олинди.

«Lolmoh va Kiromiduxt», «Vomiq va Uzro», «Bomiyonning ikki sanami», «Nilufar», «Dabistiy bilan Borbahokor hikoyasi» kabi tarjima asarlari bizgacha yetib kelmagan. Shu bilan birga alloma «Panchatantra» («Kalila va Dimna»)ning Abdulloh ibn Muqaffa tomonidan qilingan arab tiliga tarjimasidan qoniqmay, uning o‘zi imkoniyat topib asarni arabchaga o‘girishni orzu qilgan.

Matn va manbalar: 1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. – T.: Fan, 1965. - B.245; 2. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. – T.: Fan, 1968. - B.114-124; 3. Abu Rayxon Beruni. Minerologiya. – M.: 1963. – S.55-56.

Ilmiy adabiyot: 1. Bulgakov P.G. Jizn i trudы Beruni. – T.: 1972; 2. Komilov N. Beruniy va badiiy ijod. // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2005. – 4-son. – B.3-16; 3. Sale M. A. Abu Rayhon Beruniy. – T.: 1960. – B. 79; 4. Qayumov A. Beruniy va adabiyot. – T.: 196

DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

Darsning mavzusi: Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodi, manbalari. “Qutadg‘u bilig” dostoni.

Darsning maqsadi:

a) Ilmiy maqsad: Mavzu haqida bilim berish hamda gumanizm,erksevarlik va vatanparvarlik g`oyalarini bolalarga singdirishni o`rgatish.

b) Tarbiyaviy qism maqsadi: yoshlarni ma`naviy yetuk, axloqli, e`tiqodli, izlanuvchan , milliy qadriyatlar va an`analarni davom ettiruvchi kitobxon va mutaxassis qilib tarbiyalash.Talabalarni milliy an`analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

c) Rivojlantiruvchi maqsad: voqealarni bildirish orqali ularni o`zligini anglatish , milliy g`urur, milliy iftihor tuyg`ularini singdirishni, tarixiy faktlarni baholay olishni o`rgatish.

Darsning turi: Noan’anaviy

Darsning uslubi: *diologik yondashuv, muammolai ta’lim, munozara, “klaster”, ma’ruza, o‘z-o‘zini nazorat*

Darsning jihozi: Ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Fanlar aro bog’lanish: adabiyotshunoslik, xalq og‘zaki ijodi, folklorshunoslik masalalari, badiiy tahlil asoslari, milliy istiqlol g‘oyasi

Natija: Darsga qo’yilgan maqsadlarga to’liq erishish, har bir talabaga yetib borib, baholash.

Uyga vazifa: Mavzuni o’qib, konspekt qilish. Amaliy va seminar mashg‘ulotlarga tayyorlanish.

T|r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma’sul
1- bosqich 15 daqiqa	**Dars maqsadi**: Yusuf Xos Hojib haqida, “Qutadg‘u bilig” asarining yaratilishi, o‘rganilishi va o‘ziga xos xususiyatlari, Yusuf Xos Hojibning siyosiy-ijtimoiy qarashlari, ilm-ma’rifat, odob-axloq masalalarining o‘ziga xos talqini, asarning qisqacha mazmuni, obrazlar tizimi, ularda ifodalangan ramziylik, “Qutadg‘u bilig”ning ma’rifiy va badiiy ahamiyati, *Qoraxoniylar, Tavg’ach Bug’raxon, “eshik og’asi” unvoni, doston nusxalari, Adolat, Davlat, Aql, Qanoat timsollari, ijtimoiy guruhlar, dostonning badiiy xususiyatlari, vazni* haqida talabalarga tushuncha berish. **Mavzu doirasida reja asosida quyidagi masalalarni o’rganish maqsad**	**O’qituvchi**

	qilingan: 5. Yusuf Xos Hojib haqida ma'lumot. 6. "Qutadg'u bilig" asarining yaratilishi, o'rganilishi va o'ziga xos xususiyatlari. 7. Yusuf Xos Hojibning siyosiy-ijtimoiy qarashlari. Asarda ilm-ma'rifat, odob-axloq masalalarining o'ziga xos talqini. 8. Asarning qisqacha mazmuni, obrazlar tizimi, ularda ifodalangan ramziylik 9. "Qutadg'u bilig"ning ma'rifiy va badiiy ahamiyati.	
2- bosqich 30 daqiqa	**Asosiy tushunchalar:** Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig", siyosiy-ijtimoiy qarashlar, ilm-ma'rifat, odob-axloq masalalarining o'ziga xos talqini, obrazlar tizimi, ramziylik, ma'rifiy va badiiy ahamiyati, *Qoraxoniylar, Tavg'ach Bug'raxon, "eshik og'asi" unvoni, Adolat, Davlat, Aql, Qanoat timsollari, ijtimoiy guruhlar, vazn* **Dars shakli: tushuntirish va baholash** **Vositalar:** ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, slaydlar **Metod va usullar:** kitob bilan ishlash, kuzatish, tushuntirish, bahs-munozara, suhbat	**O'qituvchi**
3- bosqich 15 daqiqa	**Guruhda ishlash** -guruhlar o'rtasida bahs-munozara ko'rinishida davra suhbati o'tkaziladi. -guruhlararo savol-javob o'tkaziladi. -mavzuga oid atamalar izohlanadi.	**talaba**
4- bosqich 10 daqiqa	**Mustahkamlash va baholash ushun savollar** 1. Balasog'undan qanday adiblar yetishib chiqqan? 2. "Xos Hojib" qanday ma'noni bildiradi? 3. "Qutadg'u bilig" nomining ma'nosi nima? 4. Asardagi asosiy obrazlar qanday ramziy mazmunga ega? 5. A.Yugnakiyning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz? 6. Tashbehning lug'aviy va istiloh ma'nosi nimadan iborat?	**O'qituvchi - talaba**
5- bosqich 10 minut	**Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish** Maqsad va vazifalar bajarilganligi tahlil qilinadi, kerakli maslahatlar beriladi, mustaqil ish topshiriqlari tarqatiladi, xulosalar chiqariladi. **Adabiyotlar:** 1. Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig". T., 1971 2. Qadimiy hikmatlar. T., 1987 3. A.Yugnakiy . "Hibatul-haqoyiq". T., 1971 4. Karimov K. "Ilk badiiy doston". T., 1976 5. Mahmud K. Axmad Yugnakiyning "Hibatul-haqoyiq" asari haqida. T., 1972.	**O'qituvchi**

Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodi, manbalari. "Qutadg'u bilig" dostoni

Reja

1. Yusuf Xos Hojib haqida ma'lumot.
2. "Qutadg'u bilig" asarining yaratilishi, o'rganilishi va o'ziga xos xususiyatlari.
3. Yusuf Xos Hojibning siyosiy-ijtimoiy qarashlari. Asarda ilm-ma'rifat, odob-axloq masalalarining o'ziga xos talqini.
4. Asarning qisqacha mazmuni, obrazlar tizimi, ularda ifodalangan ramziylik
5. "Qutadg'u bilig"ning ma'rifiy va badiiy ahamiyati.

VIII asrdan e'tiboran turkiy xalqlar orasida islom qabul qilinish bilan birga, ular sekin-asta turk-islom davlatlari (X asr)ga aylandilar. Mana shunday davlatlardan biri hukmdor Abdulkarim Sotiq Bo'g'roxon (859-955) asos solgan davlatdir. U o'zini *qoraxon – ulug' xon* deb e'lon qilgan. Shundan barcha hukmdorlar o'zlarini qoraxonlar deb atagani uchun, davlat nomi ham shunday yuritilgan. Davlatning barpo bo'lishida qorluq, chigil, yag'mo qavmlari yetakchilik qilgan. 1130 yilda Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon (1102-30) saljuqlilarga yengilganidan so'ng davlat tanazzulga uchragan. Sulolaning so'nggi vakili 1212 yili Muhammad Xorazmshoh tomonidan qatl qilingan. Qoraxonlilar davlatning hududi Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Tyonshanning janubiy yon bag'irlariga yoyilgan.

Davlat hujjatlari, diplomatik yozishmalar uyg‘ur yozuvida olib borilganiga qaramay X asrdan yozma adabiyot arab yozuvi orqali ham tarqala boshladi. Muayyan davrda har ikki yozuv parallel ravishda qo‘llanilgan. Ayrim manbalarning (mas., “Qutadg‘u bilig”) har ikki yozuvda ko‘chirilgan namunalari saqlanadi.

Ilmiy adabiyot: Koraev O. Istoriya Karaxanitskogo kaganata X-nach. XIII vv. Frunze, 1983; Shoniyozov Q. Qarluq davlati va qarluqlar. T., 1999.

2. Qoraxonlilar davrida yaratilgan adabiy manbalar. Bu davrda bir qator diniy va axloqiy asarlar yaratilgan, davlat boshqaruvi xususida tuzuklar tuzilgan. Ayni davrda Qur’oni karimning turk tiliga ilk tafsiri amalga oshirilgan. Noma’lum muallif tomonidan amalga oshirilgan tafsir saqlanish o‘rniga ko‘ra Rilands (Rylands) nusxasi deb yuritiladi[16]. Turkcha tarjima arabcha va forscha matnlar ostida satrorasi tarzida yozilgan. Arabcha matn sulis, forscha va turkcha tajima nozik nasih xati bilan yozilgan. U 1145 varaq, 30 jilddan iborat bo‘lgan, biroq bizgacha 14 jildi yetib kelgan. Saqlanib qolgan qism Ol-i Imron surasi (3)dan Tahrim surasi (66)gacha.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostoni

Yusuf Xos Hojib (Bolosog‘uniy) hayoti haqida faqat uning asaridagi ma’lumotlar doirasidagina xabar qilinadi. Asarda yozilishicha, shoirning asl ismi Yusuf bo‘lgan, Bolosog‘un (Quz O‘rdu) shahrida tug‘ilgan. Yusuf ismli shoir *Bolosog‘uniy* (tug‘ilgan yeriga ko‘ra) nisbasini olgan. Hatto asarning rus tilidagi 1983 yilgi nashrida muallifni Yusuf Bolosog‘uniy deb tanishtiradi. Asarda: *“Kitab izisi Yusuf ulug‘ Hajib o‘zinga pand berur, Yusuf Xas Hajib teb ati javi yozilmish”* deyilgan. Ma’lum bo‘ladiki, shoir Yusuf ulug‘ (katta, yuqori) mansabda xos (maxsus) hojiblik (eshik og‘asi) vazifasida ishlagan. Bolosog‘unda o‘z asarini yoza boshlagan va qoraxoniylar davlatining poytaxti bo‘lgan Qashg‘ar shahriga kelib tugallagan. Uni 462/1069 yilda yozib tugallab, Tavg‘ach Ulug‘ Bo‘g‘ra Qoraxonga taqdim qilgan. Asar hukmdorga ma’qul bo‘lgani uchun shoirga Xos Hojib unvoni berilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, turk davlatchilik asoslari va mamlakat boshqaruvi masalalaridan bahs yuritgan ushbu manba Nizomulmulkning “Siyosatnoma” (469/1077)sidan yetti yil avval, Kaykovusning «Qobusnoma” asaridan (485/1082) 12-13 yil avval yaratilgandir.

Asardagi

Tegurdi manga elgi ellik yashim
O‘qir altmish emdi manga kel teyu

Mazmuni: *Ellik yoshim menga qo‘lini tegizdi,*
Oltmish yosh meni kel deb chorlayapti

bayti muallif asar yozayotganida 50 yoshlar chamasida bo‘lagniga ishora. Boshqa bir o‘rinda

Yil altmish eki erdi to‘rt bila...
Tugal o‘n sakiz ayda aydim bu so‘z

misralari bizga “Qutadg‘u bilig” 18 oy davomida yozilib, 462/1069 yilda tugallanganini ma’lum qiladi. Kitobda shunday yozilgan:

Kitab ati urdum Qutadg‘u bilig,
Qutadsu o‘qug‘liqa tutsu elig.

Bundan kitob o‘quvchining qo‘lidan baxt tutsin deya, uni *baxtga eltuvchi bilim* deb atagani anglashiladi. Fitrat *qut* – “baxt”, *qutadg‘u/qutayg‘u* – “baxtliklanish”; *bilig* – “bilim” bo‘lib, “Qutadg‘u bilig”ning ma’nosi “Baxtliklanish bilimi” bo‘ladir”, degan xulosaga kelgan[17].

Shunday qilib, baxtlilanish bilimi o‘z o‘quvchilariga saodat keltirish barobarida dunyoga tanilgan. Muallif yozishicha, asarni

Chiniylar “Adabu-l-muluk” teb ayar
Machinlar “Anisu-l-mamolik» ma ayar

[16] Türkçe İlk Kur’an Tercümesi (Rylands Nüshası) / Karahanlı Türkçesi. Prof. Dr. Aysu Ata. Ankara, 2004.

[17] Фитрат. Қутадғу билиг / Танланган асарлар (нашрга тайёровчи Ҳ.Болтабоев). II жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – Б.13-14.

Bu Mashriq elinda ulug‘lar muni
“Ziynatu-l-umaro” teyurlar ko‘ni

Eranlig‘lar “Shohnoma” ter mungar
Turanlig‘lar “Qutadg‘u bilig” teb uqar

deya “Molik (podshoh)lar odobi (to‘plami)”, “Mamlakatlar do‘sti”, “Amirlarning ziynati”, “Turkiy tildagi “Shohnoma”, “Podshohlar pandnomasi” kabi nomlar bilan e’tirof etilgan.

Asarning muqaddimasida ushbu fikrni takror keltirish bilan birga «Anisu-l-mamolik” birikmasi “Ayinu-l-mamlakat” bo‘lib yozilgan. Shu holatning o‘ziyoq muqaddima asar muallifi tomonidan yozilmagan, degan A.Vamberi, V.Tomsen, M.Xartman[18], Fitrat va Q.Karimov fikrlarini tasdiqlaydi.

Asarning tiliga doir qashg‘ar tili (Mehmet Fuod Ko‘prulu), chig‘atoy tili (V.Tomsen), uyg‘ur tili (S.Ye.Malov)da yozilgan degan fikrlashlar bo‘lishiga qaramay, bu qoraxoniylar davlatida umumiste’molda bo‘lgan turkiy xalqlar tili (Mahmud Koshg‘ariy bu hududdagi turkiy tilga nisbatan *xoqoniy* turkchasi istilohini qo‘llagan) ekanini barcha olimlar e’tirof etganlar.

Yozilishi va saqlanishi. “Qutadg‘u bilig” asari XIX asr boshlariga qadar adabiyotshunoslikkka ma’lum bo‘lmagan, Navoiy va Bobur asarlarida ham, undan keyin yaratilgan o‘nlab tazkiralarda ham tilga olinmagan. Uning dastlabki nusxasi - 843/1439 yilda Hirotda Hasan Qora Sayil Shams tomonidan uyg‘ur yozuvidagi qo‘lyozmasi mavjud edi. Bu asar taxminan ko‘chirilgan zamonlarda To‘g‘ot shahriga keltirilgan. 879/1474 sanada qo‘lyozma Abdurazzoq Shayxzoda baxshi talabi bilan Kadi Ali Fanari o‘g‘li tomonidan Istanbulga olib kelingan.

«Qutadg‘u bilig” qo‘lyozmasining arab yozuvidagi (sulis xati bilan) uchinchi nusxasi Namangandan topilgan. Kitobni prof. Fitrat 1924 yilda Muhammadhoji Lolareshdan qo‘lga kiritgan bo‘lib, u Namanganda xususiy bosmaxona egasi Ishoqxon to‘ra Ibrat uyidan tintuv vaqtida topilgan, qo‘lyozmani qo‘lga kiritgan tintuvchi kitobni sotib yuborgan edi. Fitrat domla asarni Toshkentga keltirib, u haqda 1925 yilda maqola e’lon qilgan[19], “O‘zbek adabiyoti namunalari. 1-jild”ida undan parchalar nashr qildirgan[20]. Bir qancha sarguzashtlarni boshdan kechirgan ushbu nusxa[21] hozir O‘zRFA ShIda 1809 raqami bilan saqlanadi.

O‘rganilish tarixiga doir. “Qutadg‘u bilig” xorijiy olimlar J.Amadey, A.Vamberi, U.Tomsen, M.Xartman, V.Radlov, V.V.Bartold, S.Ye.Malov, Ye.E.Bertels, A.Z.To‘g‘on, M.Fuod Ko‘prulu, R.R.Arat, A.A.Valitova, I.V.Stebleva, A.N.Kononov, A.Ivanov tomonidan o‘rganilishi va nashr etilishi diqqatga sazovor. Biroq ushbu asarning xalqimiz orasida ommalashib, o‘zbek mumtoz adabiyotining xazinasidan joy olishida o‘zbek olimlari A.Fitrat, S.Mutallibov, Q.Karimov, A.Rustamov, N.Mallaev, G‘.Abdurahmonov, N.Karimov, B.Nazarov, B.To‘xliev, Q.Sodiqov kabilarning benazir xizmatlarini unutib bo‘lmaydi.

Dunyoga mashhur turkiy dostonning Rashid Rahmati Arat tarjimasidagi turkcha matni[22], N.Grebnev va A.Ivanov tarjimasidagi ruscha[23], Q.Karimov tabdili va hozirgi o‘zbek tiliga tavsifi bilan berilgan o‘zbekcha[24] va B.To‘xliev tomonidan tayyorlangan nasriy bayonlari[25] hozir faol qo‘llanilishda.

Asarning tarkibi va janriy sifati. Kitob nasr bilan yozilgan muqaddima, boblarni ko‘rsatuvchi fihrist (mundarijasi) va nazm qismidan tarkib topgan. Uning 11 fasli she’riy debocha bo‘lib, qolganlari voqea bayonidan iborat. So‘nggi faslda kitobning yozilgan yili haqida

[18] Бу ҳақда қаранг: Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М.-Л., 1951. – С. 301-302.
[19] Фитрат. Қутадғу билиг // Маориф ва ўқитғучи. – 1925. – 2-сон. – Б. 68-73.
[20] Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. – Тошкент-Самарқанд, 1928. - Б.79-87.
[21] Каримов Н. «Қутадғу билиг”нинг топилиши / Фан ва турмуш. – 1993. – 2-сон. – Б. 8-10.
[22] Arat, Reşıd Rahmatı. Kutadğu Bılıg. 1-Metın. 2-Baskı. – Ankara: 1979.
[23] Болосогунский Ю. Благодатное знание / Пер. Н.Гребнева и А.Иванова. Послесловие А.Н.Кононова. – М.: Наука, 1983.
[24] Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг / Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. – Т.: Фан, 1971.
[25] Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг / Насрий баён муаллифи Б.Тўхлиев. – Т.: Юлдузча, 1990.

ma’lumot berilgan. Tabiiyki, qo‘lyozma nusxalar o‘zaro farqlanadi. Akad. A.Kononov asarning Namangan nusxasini “mavjud nusxalar ichida nisbatan mukammali” deb hisoblagan[26].

Asarning hajmi 6,5 ming bayt deb aytilsa ham, Fitrat ma’lumotiga qaraganda, Namangan nusxasi 6329 baytdan iborat. Vena nusxasida esa 171 bayt yetishmaydi. Nasriy muqaddima asar muallifiga tegishli bo‘lmagani tufayli asarni asosiy she’riy matndan kelib chiqib tarkiblash lozim. Debochada Hamd, sano, na’t, Qoraxon madhi, Kitob avvali, yetti kavokib va o‘n ikki burj, Odamning qadru qimmati, til ardami (fazilatlari), kitob egasining uzri, nasihat so‘zi, bilim va uquv ardami, Kitobning nomi va o‘z (muallif) qariligi (yoshi) kabilar bayon qilingan. Asar voqealari 391-baytdan boshlanadi.

Asarning janri nisbatan murakkab, uning tarkibida masnaviy, ruboiy, to‘rtlik kabi janrlar uchraydi. Bizningcha, asarni *ta’limiy doston* deb qabul qilsak-da, unga *syujet va kompozitsion jihati murakkab* tarkibli bo‘lganini va boshdan oyoq bir vaznda yaratilmaganligini qo‘shib qo‘yish zarur.

Vazn xususiyatlari. Asar asosiy voqealarini bayon qilgan nazmiy qism, Fitratning aniqlashicha, “yozilishi tizimning ikkilik – masnaviy shaklida”[27]. Ushbu fikrni izchil davom ettirgan Q.Karimov doston mutaqoribi musammani solim vaznidagina emas, undan far’iy (hosila) bo‘lgan *mutaqoribi musammani mahzuf va mutaqoribi musammani maqsur* vaznlarida yozilgan, degan qat’iy xulosaga kelgan.

Doston mavzui va timsollari. Asarning voqealar ko‘lami keng bo‘lgani uchun uni bir-ikki mavzuni tashigan deb bo‘lmaydi. Doston mavzularini belgilashda fihristdagi boblanish yordam berishi mumkin. Mana shu “ko‘mak”ka tayangan holda *davlat sifati ardami (fazilati), adl sifati manguligi, bilim va uquv o‘rni, beglar, amirlar, hojiblar, pardadorlar, elchilar, kotiblar, xazinador, dasturxonchi, sharobdorlarning vazifalari, xotin olish, farzand tarbiyasi, yig‘in va dasturxon adabi v.b.* haqida fikr yuritilganini uqish mumkin. Biroq bu hammasi emas, fihristdagi “sarlavhalar” shartli bo‘lib, ular asar mavzu doirasini belgilashdan ko‘ra syujet tartibi bayoni ekanligini unutmaslik kerak: *Oyto‘ldining Kuntug‘di huzuriga kelishi, Eligning O‘gdulmishga savoli, O‘zg‘urmishning eligga nasihati...* kabi.

Dostonning mavzular doirasi asardagi timsollar o‘rni va vazifasi bilan qat’iy bog‘lanadi. Chunki Kuntug‘di elig (hukmdor)gina emas, u *Adl* (adolat) timsoli. Oyto‘ldi vazirgina emas, *qutli, barakali davlat* timsoli. O‘gdulmish – vazirning o‘g‘li bo‘lishi bilan birga *aql va zako* belgisi, vazirning qarindoshi O‘zg‘urmish esa, *qanoat, ofiyat* elchisi sifatida taqdim qilinadi:

Biri to‘g‘rilikka tayanch – adolat,
Biri davlat erur, u qutli g‘oyat.

Uchinchi ulug‘lik – aql va zako,
To‘rtinchi qanoat erur bebaho[28].

Bu ramziy ifodalar dostonning nafaqat mavzu doirasi, balki muallifning g‘oyaviy niyatini tushunishda ham muhim ahamiyatga ega. Asar g‘oyasida Qoraxoniylar davlatining mafkurasi aks etgan bo‘lib, unda markazlashgan davlat idora usuli, uni mustahkamlash yo‘llari, amir va fuqarolarning o‘zaro ahilligi kabi masalalar ham o‘z ifodasini topgan.

Adibning g‘oyaviy niyatini faqatgina o‘git, ta’lim berish bilan cheklab bo‘lmaydi. Muallif asar boshidayoq olamning yaratilishi (kosmogoniya), yetti kavokib va o‘n ikki burj xususida bahs ochadi. Olamning yaratilishi haqida:

Yag‘iz yer yashil ko‘k kun ay birla tun
To‘rutti xalayiq o‘z o‘zlak bu kun.

Tiladi to‘rutti bu bo‘lmish qamug‘
Bir-o‘k bo‘l tedi bo‘ldi qulmish qamug‘

---

[26] Болосогунский Ю. Благодатное знание / Послесловие А.Н.Кононова. – М.: Наука, 1983. – С. 495-517.
[27] Фитрат. Аруз ҳақида / Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – Б. 27.
[28] Kattabekov A., Yo’ldoshev Q., Boltaboyev H. Adabiyot. 8-sinf ushun darslik-majmua. Qayta ishlangan 5-nashri. – T.: O’qituvchi, 2005. – B. 62.

Mazmuni: *[Alloh] Bo‘z yer, zangori osmon, kun, oy va tunlarni*
Xaloyiq, davr, zamon (va) ni yaratdi.

U istadi, yaratdi, mavjudot (butun) vujud bo‘ldi
Vohid (Alloh) “yaral” dedi, istagani hammasi bo‘ldi

Shoir yaralmish dunyo vujudga kelishini islomiy aqida bo‘yicha Yaratganning qudratli “***kun! – yaral, bo‘l***!” so‘zlaridan kelib chiqib anglatadi. Uning mavjudlik belgilari sifatida yetti kavokib *Sekantur* (Zuhal -Caturn), *O‘ngay, Qaraqush* (Mushtariy - Yupiter), *Ko‘rud*, *Baqirso‘quna* (Mirrix - Mars), *Yashuq, Kun* (Quyosh), *Sevit* (Zuhra – Venera), *Arzu* (Utorid), *Ay, Yalchiq* (Oy)ni tilga olib, bularning bari Qodir Allohning hukmi bilan yaratilib, harakati Uning izmida ekanini bildiradi. O‘n ikki burj: *Quzi* (Hamal), *Ud* (Savr), Ye*randiz* (Javzo), *Quchiq* (Saraton), *Arslan* (Asad), *Bug‘dayboshi* (Sunbula), *Ulgu* (Mezon), *Chazan* (Aqrab), *Ya (*Yoy – Qavs), *O‘g‘laq* (Jadiy), *Ko‘nak* (Dalv), *Baliq* (Xut) kabilarning o‘rni, holati va harakati haqida ma’lumot beradi. Yilda to‘rt fasl almashinishi va dunyoning to‘rt unsur (anosir)dan tashkil topishida ularning o‘rnini belgilaydi:

Uchi yazqi yulduz uchi yayqi bil
Uchi kuzki yulduz uchi qishqi bil

Uchi o‘t uchi suv uchi bo‘ldi yel
Uchi bo‘ldi tupraq ajun bo‘ldi el

Mazmuni: *Uchi bahorgi, uchi yozgi,bil,*
Uchi kuzgi, uchi qishki, bil.

Uchi o‘t, uchi suv, uchi bo‘ldi yel,
Uchi tuproq bo‘ldi, (shundan) el, odam yaratildi[29]

Ko‘rinadiki, Yusuf Xos Hojibning dunyoning yaratilishi, uning harakatda bo‘lishi, olam va odam haqidagi falsafiy tafakkurlari alohida o‘rganilishni talab qiladi.

Asarda SO‘Zning ulug‘lanishi. Dostonning ikkinchi fasli «Yangluq ag‘irliqin tanurlayur bilig birla», ya’ni Insonning qadri bilim bilan belginadi, deb nomlanadi. Bunda muallif Tangri insonni yaratar ekan, unga bilim, hunar, ko‘ngil bergani, tilini ravon go‘zal fe’l va xulq ato qilgani, unga uquv bergach, barcha tugunlar yechilib, ezgu ishlarga qo‘l urgani aytiladi. Bilim bilan uquvgina tanlagan bandasini ulg‘aytirishi mumkin:

Uqush qayda bo‘lsa uluqluq bo‘lur
Bilig kimda bo‘lsa bezugluk alur
Mazmuni: *Uqish vayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘ladi,*
Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik bo‘ladi.

SO‘Zning, ya’ni Qur’oni karimni Alloh tomonidan nozil qilingani va so‘z yashil ko‘kdan tushib, insonning yuzi (suvli, oq) bo‘lgani, inson sharifligining boisi SO‘Zdir:

Yashil ko‘kdin indi yag‘iz yerka co‘z
So‘zi birlan yangluq ag‘ir qildi o‘z
Mazmuni: *So‘z bo‘z yerga yashil ko‘k (osmon)dan tushdi,*
Co‘zi tufayli inson o‘zini ulug‘ qildi.

...O‘lugdin tirigka qumaru so‘z-ul
Qumaru so‘zi tutsa asg‘i yuz-ul
Mazmuni: *O‘lgan(lar)dan tirik(larga) meros so‘zdir,*
Meros so‘zni tutilsa, naf’i yuzdir.

[29] Ушбу мисраъни проф. Қ.Содиқов шундай талқин қилади: *Учи бўлди тупроқ, топди олам, эл.* Қаранг: Шарқ фалсафаси. – Т.: 2006. – Б. 87.

Shoir o‘z tiliga e’tibor berib, nutqini go‘zal so‘zlar bilan ziynatlagandagina ulug‘lik kasb etishini buyuradi:

... Tili bilan yangluq so‘zi so‘zlayur
So‘zi yaxshi bo‘lsa yuzi suvlanur

Mazmuni: *Inson so‘zini (fikrini) til orqali so‘zlaydi,*
So‘zi yaxshi bo‘lsa, yuzi suvlanadi (oq bo‘ladi).

Bu oddiy pand, nasihatlar emas, balki so‘zning ulug‘vor qudratini his qilgan, uning quvvatiga tayanib ish ko‘rgan so‘z san’atkorining e’tirofidir.

DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

Darsning mavzusi: Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodi. “Hibatu-l-haqoyiq” asari

Darsning maqsadi:

a) Ilmiy maqsad: Mavzu haqida bilim berish hamda gumanizm,erksevarlik va vatanparvarlik g`oyalarini bolalarga singdirishni o`rgatish.
b) Tarbiyaviy qism maqsadi: yoshlarni ma`naviy yetuk, axloqli, e`tiqodli, izlanuvchan , milliy qadriyatlar va an`analarni davom ettiruvchi kitobxon va mutaxassis qilib tarbiyalash.Talabalarni milliy an`analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash
c) Rivojlantiruvchi maqsad: voqealarni bildirish orqali ularni o`zligini anglatish , milliy g`urur, milliy iftihor tuyg`ularini singdirishni, tarixiy faktlarni baholay olishni o`rgatish.

Darsning turi: Noan’anaviy
Darsning uslubi: *diologik yondashuv, muammolai ta’lim, munozara, “klaster”, ma’ruza, o‘z-o‘zini nazorat*

Darsning jihozi: Ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar
Fanlar aro bog’lanish: adabiyotshunoslik, xalq og‘zaki ijodi, folklorshunoslik masalalari, badiiy tahlil asoslari, milliy istiqlol g‘oyasi
Natija: Darsga qo’yilgan maqsadlarga to’liq erishish, har bir talabaga yetib borib, baholash.
Uyga vazifa: Mavzuni o’qib, konspekt qilish. Amaliy va seminar mashg‘ulotlarga tayyorlanish.

T|r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma’sul
1- bosqich 15 daqiqa	**rs maqsadi**: Ahmad Yugnakiy haqida, adibning yashagan davri haqidagi bahslar, «Hibatul haqoyiq» dostoni, asarning topilishi va o’rganilishi, tuzilishi, ilm-ma'rifat masalalari, axloq va odob masalalari, dostonning badiiy xususiyatlari va tili haqida talabalarga tushuncha berish. **Mavzu doirasida reja asosida quyidagi masalalarni o’rganish maqsad qilingan:** Ahmad Yugnakiy haqida. Adibning yashagan davri haqidagi bahslar. «Hibatul haqoyiq» dostoni. Asarning topilishi va o’rganilishi. Dostonning tuzilishi. Ilm-ma'rifat masalalari. Axloq va odob masalalari.	**O’qituvchi**

	Dostonning badiiy xususiyatlari va tili.	
2- bosqich 16. daqiqa	**›siy tushunchalar:** Ahmad Yugnakiy, adib yashagan davr, «Hibatul haqoyiq» dostoni, dostonning tuzilishi, ilm-ma'rifat masalalari, axloq va odob masalalari, badiiy xususiyatlari va tili. **Dars shakli: tushuntirish va baholash** **Vositalar:** ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, slaydlar **Metod va usullar:** kitob bilan ishlash, kuzatish, tushuntirish, bahs-munozara, suhbat	**O'qituvchi**
3- bosqich 15 daqiqa	**Guruhda ishlash** -guruhlar o'rtasida bahs-munozara ko'rinishida davra suhbati o'tkaziladi. -guruhlararo savol-javob o'tkaziladi. -mavzuga oid atamalar izohlanadi.	**talaba**
4- bosqich 10 daqiqa	**Mustahkamlash va baholash ushun savollar** 1. Ahmad Yugnakiy kim? 2. U haqda qaysi manbalarda ma'lumot bor? 3. Navoiy Yugnakiy haqida ma'lumot berganmi? 4. «Hibatul haqoyiq» qanday asar? 5. Ahmad Yugnakiy bilan bog'liq qanday bahslar bo'ldi? 6. Asarda ilm, odob-axloq haqida qanday fikrlar bildirilgan?	**O'qituvchi - talaba**
5- bosqich 10 minut	**Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish** Maqsad va vazifalar bajarilganligi tahlil qilinadi, kerakli maslahatlar beriladi, mustaqil ish topshiriqlari tarqatiladi, xulosalar chiqariladi. **Adabiyotlar:** 8. N.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. T.,1963. 9. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. T.,1980. 10. Ahmad Yugnakiy. Hibatul haqoyiq. T.,1971. 11. Navoiyning nigohi tushgan. T.,1986. 12. Qadimiy hikmatlar. T.,1987. 13. Buyuk siymolar, allomalar. 1-kitob. T.,1995. 14. Q.Mahmudov. Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» asari haqida. T.,1972. 15. O'zbek adabiyoti. 9-sinf. Darslik. T.,2000.	**O'qituvchi**

Ahmad Yugnakiy ijodi

R Ye J A :

1. Ahmad Yugnakiy - o`zbek didaktik adabiyoti namoyandasi.
2. Shoirning hayoti va ijodini o`rganish tarixi.

3." Hibatul - haqoyik" dostoni,dostondagi muhim qarashlar.

4. Dostonning tuzilishi va badiiy qimmati.
5. Asarning til hususiyatlari, shoir ijodining turkiy xalqlar adabiyoti rivojidagi o`rni.

Ahmad Yugnakiy iste'dodli shoir va donishmand murabbiydir. Undan saqlanib qolgan yagona adabiy meros "Hibat-ul-haqoyiq" badiiy so`z san'ati va adabiy tilning juda qimmatli hamda nodir yodgorligidir.

Ahmad Yugnakiyning hayoti va faoliyati haqida nihoyatda oz ma'lumot saqlanib qolgan. Uning hayot yillari, ijtimoiy turmushi va boshqalar ma'lum emas. "Hibat-ul-haqoyiq" ning ayrim misralari va uning nushalariga boshqalar tomonidan yozilgan shoirning hayoti va faoliyati haqidagi so`zlar, bir oz bo`lsa ham tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

"Hibat-ul-haqoyiq" ning matnida kitobning yozilgan yili, joyi, hatto nomi ham ko`rsatilmaydi. Faqat bir baytda shoir o`z nomini tilga oladi:

Adib Ahmad ayttim adab-pand so`zim,

So`zim shunda qolur borur bu o`zum.

"Adib Ahmad" so`zlari adiblik-shoirlik Ahmad Yugnakiyning asosiy mashg`uloti, kasbkori bo`lganidan dalolat beradi.

Dostonning bir nusxasidagi Arslonxo`ja Tarxon (XV asr temuriy amaldorlaridan) qaydlarida quyidagi ma'lumot bor.

Bu qaydlarda shoirning nomi Adib Ahmad, otasining oti Mahmud vatani Yugnak , kitobning nomi "Hibat-ul-haqoyiq" («Haqiqatlar armug`oni») ekani ma'lum bo`ladi.

Ahmad Yugnakiy haqidagi ma'lumotlar bizga ("Hibat-ul-haqoiq") dostoni muallifning yashagan davrini tahmin qilishga imkon beradi.

Birinchi jahon urushi boshlarida turk olimi Najib Osim Istambuldagi Ayo-Sufiya masjidining kutubxonasida mo`g`ul tilidagi rasoil (risolalar) to`plamiga kiritilgan bir qo`lyozmani topdi. Qulyozma turkiy tildabo`lib, u mo`g`ilcha xatlar to`plamiga yangilik kiritgan ekan. Topilgan qo`lyozma ham ilm ahliga ma'lum bo`lmagan Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul-haqoyiq" dostoni bo`lib chiqdi.

Qo`lyozma hijriy 884 yilning 7 zulqa'da oyida (1480 yilning 30 yanvarida) Istambulda Abdurazzoq baxshi tomonidan ko`chirilgan bo`lib, kitob XV asrda uyg`ur yozuvi bilan ko`chirilgan matnga misralardan keyin arabcha transkriptsiyada va fors-tojik tilida ayrim izohlar ham beriladi. Keyinchalik dostonning yana

bir necha nusxasi, jumladan 1444-45 yillarda ko`chirilgan nusxasi topildi.

Najib Osim "Hibat-ul-haqoyiq" ning 1480 yil nusxasi asosida usmonli turk tiliga qilingan tarjimasi bilan birga nashr etadi. Unga so`z boshi yozdi, ayrim sharhlar berdi, kichik grammatik ocherk va lug`at tuzdi. Turk olimi Rashid Rahmat Arat 1915 yilda "Hibat-ul-haqoyiq" ning yangi qiyosiy nashrini ommalashtirdi.

Sharqshunos olimlaridan Ye.E.Bertels, S.Ye.Malov va boshqalar "Hibat-ul-haqoyiq" ni o`rganish va uni yoritishda unumli xizmat qildi. (Chunonchi, Ye.E.Bertels dostonni atroflicha tahlil etib, 1945 yilda ToshDU ilmiy to`plamida katta bir maqola bostirgan edi.

"Hibat-ul-haqoyiq" ning 1480 yilgi nusxasida dostonning yozilgan yili haqida biror ishorat yo`q. Ahmad Yugnakiy dostonni Dod sipahsolar degan shaxsga bag`ishlaydi.Biroq, bu shaxsning kimligi va qachon o`tgani ham qat'iy aniqlangan emas. Shularga ko`ra dostonning yozilgan davrini faqat uning tili va uslubiga qarab tahmin qilish mumkin. "Hibat-ul-haqoyiq"da arxaik elementlar "Qutadg`u bilik" dagiga nisbatan bir muncha kamroq, arabcha, fors-tojikcha so`zlar esa ko`proq ishlatiladi. Bu "Hibat-ul-haqoyiq" "Qutadg`u bilik" dan bir muncha keyin, XII asrning oxirlari yoki XIII asrning boshlarida yaratilgan, deb taxmin qilishga imkon beradi.

Dostonning tuzilishi: "Hibat-ul-haqoyiq" ning 1480 yilda ko`chirilgan nusxasidagi noma'lum shaxs tomonidan yozilgan qaydda dostonning 14 bobdan iborat ekani aytilgan edi. Biroq "Hibat-ul-haqoyiq" o`sha 1480 yilda ko`chirilgan nusxasi 235 baytdan iborat bo`lib, u 11 bobdan tashkil topgan. Kotib Abdurazzoq Baxshi dostonni uning biror qisqartirilgan variantidan ko`chirgan yoki uning 3 bobi boshqa boblarga kirib ketgan bo`lishi mumkin. Dostonning birinchi bobi (1-10 baytlar) xudoga, ikkinchi bobi (11-19 baytlar) payg`ambar va to`rt halifaga bag`ishlangan.

Uchinchi bob (20-33 baytlar) Dod-Sipahsolarga bag`ishlanadi. Aftidan, Dod-Sipahsolar zamonasining yirik amaldorlaridan biri bo`lgan, chunki doston muallifi uni bir necha o`rinda "Shohim" deb ataydi. Shoir bu bobda Dod-Sipahsolarning fuqaroparvar, sahovatli va adolatli kishi deb madh qiladi. Uni dengiz, o`zini esa bu dengizga faqat tomchilar hadya etuvchi bulutga o`xshatadi. To`rtinchi bob (34-35 baytlar) kitobning yozilishi sababi haqida bo`lib, shoir uni Dod-Sipohsolarga bir yodgorlik sifatida taqdim qilgani va bu bilan o`z hayrixohligini ifodalamoqchi bo`lganini ta'kidlaydi (173 betda).

Dostonning 3-4 boblari Ahmad Yugnakiyning Dod-Sipahsolardan in'om va ehson kutganini ravshan ko`rsatadi. Dostonning dastlabki to`rt bobi uning muqaddima qismi bo`lib, asosiy qism beshinchi bobdan boshlanadi. Boblar maxsus sarlavhalar bilan berilib, 5-8 boblar nav nomi bilan atalgan va maxsus sira raqamlari bilan berilgan.

Beshinchi bob (40-62 baytlar) bilim maqtovi va johillikning zararligi, oltinchi bob (63-86 baytlar) til odobiga, yettinchi bob sahiylik va bahillikka, to`qqizinchi va o`ninchi boblar (176-226 baytlar) turli xil masalalarga bag`ishlangan bo`lib, o`n birinchi bob (227-235 baytlar) kitobning xotimasidir. Avtor xotimada kitobxonga murojaat qiladi.

Ilm va ma'rifat masalalari

Ahmad Yugnakiy O`rta Osiyo ilm- fanning yirik o`choqlaridan biri bo`lib, olamshumul fan arbobolarini yetishtirgan bir davrda yashadi. U tasavvuf adabiyotining namoyandalari singari insonning ilmiy faoliyati va qobiliyatini ulug`laydi, mutafakkirlar kabi din-shariat ilmparvar ekanligini ardoqlaydi.

Balki u Yusuf Xos Hojib kabi ilm-fanni yoqlaydi. Doston Ahmad Yugnakiyning XII asrning donishmand ma'rifatparvari va ilmning jarchisi sifatida gavdalantiradi. Shoir olim bilan johilni bir-biriga qarama-qarshi qo`yadi. Olim ilm bilan baxt-saodat yo`lini topsa, johil nodonligi tufayli ko`rgu-liklarga giriftor bo`ladi.

Ahmad Yugnakiyning bu mulohazalari shubhasiz progressiv ahamiyatga ega. Biroq u baxtni ilm va baxtsizlikni johillik bilan bog`lab, feodal-klerikal muhitning ijtimoiy-siyosiy qarama-qarshiliklarini anglash, farq qilib tashlash darajasiga ko`tarila olmaydi. Reaktsion johil guruhlarni ilm-fanga va ilm-fan ahliga qarshi vahshiyona kurashini tanqid qilmadi. Nodonlik feodal-klerikal jamiyat ko`pchilikni ilm-ma'rifat boyliklaridan mahrum qilganini tushunmadi.

Ahloq - odob masalalari : "Hibat-ul-haqoyiq" didaktik doston bo`lib, ahloq-odob masalalari undagi ko`pchilik boblarning tematik asosini tashkil etadi. Shoir til odobi, saxiylik, bahillik, kamtorlik, ezgulik va boshqalar haqida xuddi Yusuf Xos Hojib kabi zamonasining peshqadam murabbiysi sifatida fikr yuritib, kishilarga o`git beradi.

Shunday qilib, Ahmad Yugnakiy zamonasining progressiv donishmandi va murabbiysidir. Bu jihatdan Yusuf Xos Hojibga qaraganda ancha ilgarilab ketgan edi. Biroq u Yusuf Xos Hojib kabi, ahloqning ijtimoiy-sinfiy mohiyatini, yaramas hislatlarini tug`dirgan manbalarini, tuzatish choralarini din va shariatdan izladi.

Din va shariat haqida: Ahmad Yugnakiy Islom dinini e'tirof qiladi va uni ideallashtiradi. Dostonning dastlabki misralarini xudoga, Muhammad payg`ambar va to`rt halifaga atab, qur'on oyatlarini keltiradi. Shoirning diniy xurofiy tushunchalari doston muqaddimasi bilan chegaralanib qolmaydi, balki u boblardagi ayrim masalalarning mohiyatiga singib borib, shoirning fikr mulohazalaridagi ziddiyatlarni chuqurlashtiradi. Yo`qsil va qashshoq kishilarning turmushiga achinib, himmatsiz davlatmandlarni qoralab, ularni muruvvatli va marhamatli bo`lishga undaydi. Shoir boylik va qashshoqlikni xudoning "amr-irodasi", "taqdiri azal" bilan bog`laydi.

"Hibat-ul- haqoyiq" dagi taraqqiyparvar progressiv qarashlar bilan reaktsion tushunchalar o`rtasidagi kurash faqat Ahmad Yugnakiyning dunyoqarashidagi ziddiyatlar va uning ichki dramasi bo`lmay, balki birinchi navbatda doston yaratilgan davr qarama-qarshiliklarining in'tisosidir. Doston Ahmad Yugnakiyning mana shu qarama-qarshiliklar bilan yashaganini, uning reaktsion qarash va tushunchalarini butunlay uloqtirib tashlashga ojiz bo`lganini, lekin shunga qaramay, ilm-ma'rifat va yaxshi hulq-odobning jarchisi ekanini ko`rsatadi.

Dostonning badiiy hususiyatlari. "Hibat-ul-haqoyiq" muallifi biror voqeani, sarguzashtni hikoya qilish vazifasini emas, balki ilm-ma'rifat, ahloq - odob va boshqa masalalar haqida mulohaza yuritib, kishilarga o`git berish vazifasini o`z oldiga qo`yadi. Doston didaktik doston bo`lib, bu uning badiiy xususiyatlari va uslubini belgilaydi. Balki dostonda voqea, syujet bo`lmasa ham, uning boblari mazmuni va mohiyati bilan o`zaro uzviy bog`lanib, bir butun kompozitsion ko`rilishni vujudga keltiradi. Avtor dostonning boblarida turli xil ob'ekt, hislat va tushunchalarni muqoyasa qilish va ularni bir-biriga qarama-qarshi qo`yish asosida ulardan har birining o`ziga xos ijobiy yoki salbiy tomonini ochadi. Yaxshilarni e'tirof va targ`ib qiladi, yomonlarni qoralaydi va rad etadi. Dostonning lirik qahramoni - Ahmad Yugnakiy qiyofasida, bir tomondan ma'rifatparvar va xalqchil kishini, ikkinchi tomondan esa

"taqdirga" ko`nikuvchi kishini va ular o`rtasida ziddiyatlar davom etganini ko`ramiz. Ahmad Yugnakiy badiiy til vositalari, xalq maqollari va ta'birlarini qo`llash orqali asarning badiiyligini hiyla oshirishga muvaffaq bo`lgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

Ahmad Yugnakiyning didaktik adabiyot namoyandasi ekanini so`zlang.

Ahmad Yugnakiyning «Hibbatul-haqoyiq» dostonida qanday masalalar qo`yilgan?

«Hibbatul-haqqoyiq» dostonidagi haqiqat, ma'rifat, shariat va tariqat masalalari qanday yoritilgan?

Shoir ijodining tasavvufga munosabati qanday?

Tayanch iboralar.

1.Ahmad Yugnakiy ijodi.
2.Ahmad Yugnakiyning didaktikasi.
3."Hibat-ul-Haqoyiq".
4."Hibat-ul-Haqoyiq"ning boblari.
5."Hibat-ul-Haqoyiq"ning mazmuni.
6."Hibat-ul-Haqoyiq"ning g`oyasi.
7."Hibat-ul-Haqoyiq"ning nusxalari.

F O Y D A L A N I L G A N A D A B I Yo T L A R :

1. Qadimiy hikmatlar. Toshkent, 1987 y. 414-428 betlar.
2. Mallaev N.M. O`zbek adabiyoti tarixi. I kitob, Toshkent, 1976 y. 130-160 betlar.
3. O`zbek adabiyoti tarixi. I tom, Toshkent, 1978 y. 131-140 betlar.
4. Mahmudov K. Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul-haqoyiq" asari haqida. Toshkent, 1972 y.

DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

Darsning mavzusi: Xoja Ahmad Yassaviy ijodi. “Devoni hikmat”

Darsning maqsadi:

a) Ilmiy maqsad: Mavzu haqida bilim berish hamda gumanizm,erksevarlik va vatanparvarlik g`oyalarini bolalarga singdirishni o`rgatish.

b) Tarbiyaviy qism maqsadi: yoshlarni ma`naviy yetuk, axloqli, e`tiqodli, izlanuvchan , milliy qadriyatlar va an`analarni davom ettiruvchi kitobxon va mutaxassis qilib tarbiyalash.Talabalarni milliy an`analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

c) Rivojlantiruvchi maqsad: voqealarni bildirish orqali ularni o`zligini anglatish , milliy g`urur, milliy iftihor tuyg`ularini singdirishni, tarixiy faktlarni baholay olishni o`rgatish.

Darsning turi: Noan’anaviy

Darsning uslubi: *diologik yondashuv, muammolai ta’lim, munozara, “klaster”, ma’ruza, o‘z-o‘zini nazorat*

Darsning jihozi: **Ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar**

Fanlar aro bog’lanish: adabiyotshunoslik, xalq og‘zaki ijodi, folklorshunoslik masalalari, badiiy tahlil asoslari, milliy istiqlol g‘oyasi

Natija: Darsga qo’yilgan maqsadlarga to’liq erishish, har bir talabaga yetib borib, baholash.

Uyga vazifa: Mavzuni o'qib, konspekt qilish. Amaliy va seminar mashg'ulotlarga tayyorlanish.

T|r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma'sul
1- bosqich 15 daqiqa	**Dars maqsadi**: A.Yassaviyning hayoti va faoliyati haqida, "Devoni hikmat"dagi hikmatlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, Sulaymon Boqirg'oniy ijodi. *Shayx Ibrohim xonadoni, yassaviya (jahriya), Yassaviy haqidagi rivoyatlar, Yusuf Hamadoniy, Yassaviy ijodining g'oyaviy negizi, ilohiy dard, nafsni yengish, S.Boqirg'oniyning adabiy merosi ("Boqirg'on kitobi", "Oxir zamon", "Bibi Maryam kitobi")* haqida talabalarga tushuncha berish. **Mavzu doirasida reja asosida quyidagi masalalarni o'rganish maqsad qilingan:** 1. A.Yassaviyning hayoti va faoliyati haqida ma'lumot. 2. "Devoni hikmat"dagi hikmatlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari 3. A.Yassaviy ijodining o'ziga xos davomchisi Sulaymon Boqirg'oniy ijodi.	**O'qituvchi**
2- bosqich 30 daqiqa	**Asosiy tushunchalar:** Yassaviyning hayoti va faoliyati, "Devoni hikmat"dagi hikmatlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, *Shayx Ibrohim xonadoni, yassavi (jahriya), Yassaviy haqidagi rivoyatlar, Yusuf Hamadoniy, Yassaviy ijodining g'oyaviy negizi, ilohiy dard, nafsni yengish, S.Boqirg'oniyning adabiy merosi ("Boqirg'on kitobi", "Oxir zamon", "Bibi Maryam kitobi").* **Dars shakli: tushuntirish va baholash** **Vositalar:** ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, slaydlar **Metod va usullar:** kitob bilan ishlash, kuzatish, tushuntirish, bahs-munozara, suhbat	**O'qituvchi**
3- bosqich 15 daqiqa	**Guruhda ishlash** -guruhlar o'rtasida bahs-munozara ko'rinishida davra suhbati o'tkaziladi. -guruhlararo savol-javob o'tkaziladi. -mavzuga oid atamalar izohlanadi.	**talaba**
4- bosqich 10 daqiqa	**Mustahkamlash va baholash ushun savollar** 1. Yassaviy asos solgan tasavvuf tariqati qaysi? 2. Yassaviy haqida xalq orasida qanday rivoyatlar bor? 3. Xalq qo'shiqlari va Yassaviy hikmatlari orasida qanday o'xshashlik mavjud? 4. S.Boqirg'oniy adabiy merosi qanday asarlardan iborat?	**O'qituvchi - talaba**
5- bosqich 10 minut	**Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish** Maqsad va vazifalar bajarilganligi tahlil qilinadi, kerakli maslahatlar beriladi, mustaqil ish topshiriqlari tarqatiladi, xulosalar chiqariladi. **Adabiyotlar:** 1. A.Yassaviy. "Hikmatlar". T., 1970 2. Muminov A. "Yassaviya: ildiz va manbalar". "Fan va turmush" jurnali. 1993 yil, 9-10 sonlari. 3. I.Xaqqulov. "Ahmad Yassaviy" / "Tasavvuf va she'riyat" / T., 1991 4. I.Xaqqulov. "Sulaymon Boqirg'oniy" / "Tasavvuf va she'riyat" / T., 1991	**O'qituvchi**

Ahmad Yassaviy.

R Ye J A :

1. Ahmad Yassaviy - turkiy adabiyotning yirik vakili.
2. Shoir hayoti va ijodining o`rganilish tarixi.
3. Tasavvuf - shoir ijodining bosh mavzusi sifatida.
4. Ahmad Yassaviy " Hikmat" lari - turkiy adabiyotning nodir namunasi.
5. " Hikmat" ning badiiy qimmati va turkiy adabiyot rivojida Yassaviy ijodining o`rni.

Ahmad Yassaviy - turkiy tasavvuf she'riyatining atoqli vakili. U "Devoni hikmat" asari bilan jahonning bir qancha mamlakatlarida ma'lum va mashhur bo`lgan.

Yassaviyning tug`ilgan yili aniq ma'lum emas. Lekin ilmiy adabiyotlarda vafoti 1166 - 1167 yillar deb ko`rsatiladi. U Sayramda tavallud topgan. Keyinchalik shoir tug`ilgan yerini "Ul muborak Turkistondin" deb ta'riflagan. Otasi Shayx Ibrohimdan yetti yoshida yetim qolgan. Otasi Ibrohim Yassi (Turkistonda ruhoniy-Shayx oilasida tug`ildi). Otasi Ibrohim ko`p yillar Sayramda Shayxlik qilgan. Rivoyatlar Shayx Ibrohimni uning otasi Mahmud, bobosi Iftixor va boshqalar orqali Muhammad payg`ambarning qizi Fotima nasliga bog`laydi. Ilk tahsilni Yassida mashhur Turk mashoyihi Arslonbobdan olgan. Bu hikmatlarda berilgan. Arslonbob vafotidan so`ng, u tahsilni Buxoroda Yusuf Hamadoniy qo`lida davom ettirgan. Yusuf Hamadoniy vafotidan keyin uning o`rnida halifalik qiladi.

Yassaviy xalq boshiga ko`p qiyinchiliklar va musibatlar yog`dirilgan davrlarda yashab ijod qildi. U Turk hukmronlari Qoraxoniylar bilan Qoraxitoylar o`rtasidagi urushlar va ularning dahshatli oqibatlari ko`rgan she'rlarida bu fojealarga munosabatlarini bildirgan.

"Nokas, hasis, bediyonat zolimlar hokim bo`lgan jamiyatdagi shafqatsizlik va ma'naviy aynishlar bahsida Yassaviy hikmatlarining birida mana bunday degan:

Na Onoda rahm qoldi, na Otoda,
Og`a, ini bir biriga mojaroda.
Musulmonlar davo qilur, Chechar boda,
Mastlig` bilan qarindoshdan tondi, ko`rung.

Ahmad Yassaviyning dunyoga nazari bizning davr kishilarinikiga nisbatan boshqacha shakllangan. Shoirning ishq, haqiqat, adolat, qanoat, diyonat singari masalalarga yondashishi o`zgacha yo`nalishlarda kechganligi ham shubhasiz. U o`z davri farzandi sifatida islom dini ko`rsatmalari va islomiy aqidalarga tayangan. Buni uning o`zi ham e'tiror qilgan. Shoir hikmatlarining birida bunday satrlarni o`qiymiz:

Xushlamaydur olimlar bizni oyg`on turkiyni,
Oriflardan eshitsang, ochar ko`ngil mulkini.
Oyat, hadis ma'nosi turki bo`lsa muvofiq,
Ma'nisiga yetganlar yerga qo`yar bo`rkini

Yassaviy ijodiyotining mag`zini isyonkorona mistik mazmunlari tashkil qiladi. U behudaga "G`arqob bo`lib isyon ichra keldim mano", demagan. Uning isyoni - inson botinidagi isyon. Yassaviy "Ishq yo`lida jon berganni armoni yo`q" deydi. Bu tushunchani e'tiqod shiori bo`lib,ma'naviy-ruhiy tozalanish ranju jafolarni bo`yniga ilmog`i shart. Bu haqda Yassaviy shunday o`git beradi:

Jafo chekmay oshiq bo`lmas,tingla g`ofil,
Jafo chekib sobir bo`lg`on bo`lmas johil.

Ahmad Yassaviyning shuhrati oshadi.Uning to`g`risida xilma-xil afsona va rivoyatlar paydo bo`ladi. Madinada Muhammad, Turkistonda Hoja Ahmad degan ovozalar tarqaladi, turli joylardan pirga qo`l berish uchun ko`plab kishilar keladi.

Rivoyatlarga ko`ra, Ahmad Yassaviy payg`ambarlardan ortiq umr ko`rishni (Muhammad 63 yoshida o`lgan) gunoh bilib, 63 yoshida yerto`laga-chillaxonaga kirgan emish, 60 kecha-kunduz ro`za tutgan emish. Umrining oxirgi kunlarini o`sha chillaxonada nuqul toat-ibodat bilan o`tkazgan emish. Ayrim manbalarda jumladan, mavlono Husomiddin Sag`noqiyning risolasida Ahmad Yassaviy 130 yil umr ko`rgan deb ma'lumot beriladi. Biroq ko`pchilik manbalarning ko`rsatilishicha, Sayramning turli joylarida Ahmad Yassaviyning otasi Shayx Ibrohimning onasi Qorasoch momoning, aka-ukalari Latif ota va Mustafaqul otalarning qabri bor. Ahmad Yassaviyning o`zi esa Yassida dafn qilingan.

Sayram, Turkiston shaharlaridagi va ularning atrofidagi "Muqaddas" mozor, qadamjoy uning nomi bilan atalgandir. Jahongir podsho Amir Temur 1395-1397 yillarda Ahmad Yassaviyning eski qabri o`rniga katta va muhtasham maqbara qurdirgan.Rivoyatlarga ko`ra, Oltin O`rda xoni To`xtamish Yassaviy avlodining mol-mulkini talagan ekan. To`xtamishni yengan Temur bu mol-mulkni undirib olibdi va evaziga bir katta madrasa qurishga buyruq bergan ekan. Biroq Temurning vafotidan keyin bu ish amalga oshmay qolgan ekan. Qo`qon

Xoni Amir Umarxon 1819 yilda Turkistonni bosib olganida, Yassaviy qabrini ziyorat qiladi. Xudoyilikka 70 qo`y so`ydiradi va shayxlarga in'om qiladi.

Devoni Hikmat: Ahmad Yassaviy boshqa ko`p mutassav-vuflar kabi so`z san'atidan foydalanib, Islom aqida-larini, Jahriya tariqatini tassavvufni targ`ib qiluvchi she'rlar bitdi. Uning she'rlari "Hikmat" she'rlar to`plami esa
"Devoni hikmat" nomi bilan yuritiladi.

"Devoni Hikmat" ning yaratilish tarixi va uning kim tomonidan va qachon tuzilgani ma'lum emas. Devonning eng eski nusxalari ham saqlanib qolmagan. XI asrda ko`chirilgan 4 ta hikmatni hisobga olmaganda, qo`lyozmalarning eng qadimgilari XVII asrga mansubdir. O`tgan asrning ikkinchi yarimidan boshlab
"Devoni Hikmat" ning bosma nusxalari ham paydo bo`la boshlagan. U Toshkent, Qozon va Istanbulda bir necha bor nashr etilgan. "Devoni Hikmat" ning qo`lyozma nusxalari ham bir-biridan juda katta farq qiladi. Ularda she'rlar miqdori bir xilda emas, birida bo`lgan ko`pgina she'rlar, ikkinchi birida yo`q, borlari esa, hajmi va matni jihatidan bir-birlaridan katta farq qiladi. She'rlarda zikr etilgan nom (yoki taxallus) ham bir xilda emas.

Masalan, "Devoni Hikmat"ning she'rlar miqdori jihatidan eng katta nusxasi bo`lgan 5-Qozon nashrini olaylik. Unda 149 hikmat berilgan bo`lib, ulardan 109 hikmat bevosita Ahmad Yassaviyning nomi bilan bog`liqdir. Bu hikmatlarda Ahmad Yassaviy nomi "Ahmad", "Ahmadiy", "Qul Hoja Ahmad", "Hoja Ahmad Yassaviy", "Ahmad ibn Ibrohim", "Sulton Hoja Ahmad Yassaviy", "Yassaviy Miskin Ahmad", "Miskin Yassaviy", "Qul Ahmad", "Miskin Ahmad" kabi nomlar ishlatiladi.

Yuqoridagi nomlar bilan kelgan ayrim she'rlar boshq a kitoblarda,masalan, Sulaymon Boqirg`oniyning "Boqirg`on kitobida", "Mulla Shamsiddin O`zgandiy" ning hikmatlarida ham uchraydi. Bundan tashqari "Devoni Hikmat" nusxalariga, Qul Sharif, Miskin G`arib, Qul Asad, Xudoydod, Qul Nodiriy, Qul Sayfiddin, Bobo Mochin, Miskin Qosim, Miskin Azim va boshqa mualliflarning she'rlari ham kiritilgan. Ayrim she'rlarning muallifi umuman kiritilmagan. Til va uslub jihatidan ham "Devoni Hikmat" nusxalari bir-biridan katta farq qiladi.

Ahmad Yassaviyning "Devoni Hikmat " asari
R Ye J A :

1. Ahmad Yassaviyning «Hikmat»lari turkiy adabiyotning nodir namunasi.
2. Ahmad Yassaviy hikmatlarining badiiy qimmati.
3. Ahmad Yassaviyning turkiy hikmat maktabini ta'sis etishi.
4. Adabiyot rivojida Ahmad Yassaviy ijodining ahamiyati.

Ahmad Yassaviyning "Devonu Hikmat " asari. Til va uslub jihatidan ham "Devoni Hikmat" nusxalari bir biridan katta farq qiladi. «Devoni Hikmat» ning birorta nusxasi ham Yassaviy tilining, XII asr o`zbek tilining asl yodgorligi bo`la olmaydi. Chunki Yassaviy hikmatlari og`izdan-og`izgacha ko`chib, kitobdan-kitobga o`tib, o`z asl tilini allaqachonlar o`zgartirib yuborgan ekan. Bu esa professor A.K.Borovkov ta'kidlaganidek, "Devoni Hikmat" dagi she'rlarning qaysi biri bevosita Ahmad Yassaviyga mansub ekanligini aniqlashni g`oyatda mushkul-lashtiradi va ularning aslini tasavvur etishga imkon bermaydi. Lekin shunga qaramay "Devoni Hikmat" she'rlarining kimga mansubligi va ularning o`zgarib borish haqida, mulohaza tarzida bo`lsa ham quyidagilarni aytish mumkin.

1. "Devoni Hikmat" dagi she'rlarining xilma-xil o`zgarishlarga uchraganiga qaramay, devonning g`oyaviy negizini asosan Ahmad Yassaviy she'rlari tashkil etadi. Bu fikr Ahmad Yassaviy nomi turli shaklda zikr etilgan she'rlarga (albatta hammasiga ham emas) taaluqlidir. Yassaviy she'rlarining tili
va uslubi o`zgarib borgan bo`lsa ham, lekin ularning asosiy g`oyaviy mazmuni saqlanib qolgan.

2. "Devoni Hikmat" bevosita Ahmad Yassaviyning o`zi tomonidan emas, balki keyinroq uning muhlislari tomonidan to`zilgan bo`lishi kerak. Agar "Devoni Hikmat" ni

Ahmad Yassaviyning o`zi tuzganda edi, devon shu darajada xilma-xil o`zgarishlarga uchramagan bo`lur edi.

3. Uzoq zamonlar davomida "Devoni Hikmat" ga turli xil o`zgarishlar kiritilgan. Bu o`zgarishlar she'rlarning miqdori va hajmiga ham, ularning til va uslubiga ham taaluqlidir. Yassaviy hikmatlarining tili va uslubi o`zgarib keyingi davrlarning tiliga muvofiqlashib borgan, tahrir qilingan. Yassaviy
hikmatlariga o`xshatma yoki taqlid tariqasida yangi hikmatlar yaratilgan. Ularning anchaginasi Yassaviy nomi bilan atalgan. "Devoni Hikmat" dagi she'rlar alifbe bilan joylashtirilib, devonga, "Debocha" ham ilova qilingan va hokazo.

Yassaviy hikmatlarining o`zgarib borganini ulardagi "Tug`qan yerim ul muborak Turkiston" kabi ko`pgina misralar ham ko`rsatilidi.

Chunonchi ilgari Yassi deb nomlangan shahar faqat Xq asrning oxiridan boshlab Turkiston deb yuritilgan.

4. "Devoni Hikmat" ga Yassaviy she'rlari yoki Yassaviyga nisbat berilgan she'rlardan tashqari, uning shogirdlari va muhlislari tomonidan yaratilgan she'rlar ham kiritib turilgan.

5. "Ahmad" yoki "Ahmadiy" nomi bilan aytilgan bir qator she'rlar, prof. A.K.Borovkov ta'kidlaganidek, Ahmad Yassaviy she'rlari bo`lmay, balki shu nomdagi boshqa shoirning she'rlari bo`lishi mumkin. "Ahmad" yoki "Ahmadiy" nomi bilan kelgan ko`pchilik she'rlarning aruz vaznida bo`lishi (Yassaviy hikmatlari asosan barmoq vaznidadir) ular til va uslub jihatidan X-asr adabiyotiga yaqin turishi shuni ko`rsatadi. A.K.Borovkovning faraz qilishicha "Devoni Hikmat" dagi, "Ahmad" yoki "Ahmadiy" Kamoliddin Ikoniyning muridi Shayx Said Ahmad (Xq asr) bo`lishi mumkin.

6. Modomiki, "Devoni Hikmat" turli o`zgarishlarga uchrab" Ahmad Yassaviyning ko`pdan-ko`p shogirdlari, muhlislari va mutassavvuf kitoblar tomonidan "tahrir" qilingan, Yassaviy hikmatlariga taqlid qilib yozilgan va mustaqil bitilgan she'rlar bilan to`lib borgan ekan, u faqat Yassaviyning badiiy yodgorligi
bo`lmay, balki Yassaviy Jahriya tariqatining bir necha asrlik umumiy bir adabiy - yodgorligidir.

Din va tasavvuf "Devoni Hikmat " ning g`oyaviy negizidir

Ahmad Yassaviy islom dinining qonun-qoidalari va urf-odatlarining yig`indisi bo`lgan "shariatni", tasavvuf maslagi bo`lgan "tariqat" ni, ishqi-ilohiyni - "ma'rifatni", xudo va unga erishmoqni "haqiqatni" zo`r berib targ`ib qiladi. Shunga ko`ra ham "Devoni Hikmat" ga yozilgan debochaga "Ey darvish, bilgil va ogoh bo`lgimkin, avval kalimai shariat, ikkinchi kalimai tariqat, uchinchi kalimai ma'rifat, to`rtinchi kalimai haqiqatni bilmoq kerak. So`fi bo`lib kalimani bilmasa bulmas, so`fi emas", - deyiladi va bu to`rt "kalima" ga "Kur'on" dagi bevosita Muhammad payg`ambarga bag`ishlangan oyatlar orqali guvohlik beriladi.

Ahmad Yassaviyning fikricha "shariatsiz"lik "tariqat", "tariqatsiz" "ma'rifat", "ma'rifatsiz" "haqiqat" bo`la olmaydi. Bulardan har biri ikkinchi biri uchun bir bosqich bo`lib, uni to`ldiradi, takomillashtiradi. Bu to`rt bosqich kishi hayoti va faoliyatining asl mohiyatini tashkil etar emish. Binobarin, kishi ertayu-kech toat-ibodat qilishi, "Kur'on" o`qishi kerak emish. Butun "Devoni Hikmat" va ayniqsa undagi Muhammad payg`ambarga, Xalifa va Sahobalarga bag`ishlangan hamdu sanolar shuncha toat va ibodat qilishga chaqiradi.

Ahmad Yassaviy kishilarni xudoga banda (tobi-qul) payg`ambarlarga ummat bo`lish va toat-ibodat qilishga chaqirish bilan chegaralanib qolmaydi.

Ahmad Yassaviyning hikmatlarida "sirlar olamiga" g`arq bo`lish bilan tarki dunyochilik bir biriga chatishib ketadi. Ahmad Yassaviy - "Mavtu qabla anta mavtu" ("O`lmasingizdan burun o`ling") degan tezisni ilgari suradi. Bu kishi butun dunyodan, hayotning ne'matlaridan voz kechishi, o`zini har jihatdan qiynab, o`limni yaqinlashtirishi kerak, ya'ni tirik murda bo`lishi kerak, degan so`zdur. "Dunyoni puchak pulga sotqum kelur" degan Ahmad Yassaviy: "Tufroq bo`lg`il, olam seni bosib o`tsin", "Yuz ming balo boshqa tushsa, ingramagil", "Balo kelsa toqat qil", "Dunyo uchun g`am yema, hakdin o`zgani dema" - deb nasihatguylik qiladi.

Xo`sh, Yassaviy "Nasihat" larining ijtimoiy mohiyati va maqsadi nimadan iborat edi. Davri-davrondan boxabar bo`lishiga, jamiyat kishilarini kamtar va kamsuqum, komil inson bo`lishga da'vat etadi.

Ahmad Yassaviy hikmatlariga yuzaki qaralganda, ularda ba'zan "zolimlarga qarshi noroziylik kayfiyatlari" va "beva-bechora hamda miskinlarga mushfiqlik mayllari" kuchlidir.

Biroq bu "kayfiyat" va "mayl" lar Yassaviy hikmatlarining ijtimoiy mohiyatiga zid emas, balki unga muvofiqdir.

Chunki: Ahmad Yassaviy mazlumlarga qarata:

"Zolim agar jafo qilsa, ollo degil",
"Zolim agar zulm aylasa, menga yig`la",
"Yoshing sochib, menga sig`inib, beling bog`la"

- der ekan, u bu bilan zamona kishilarini sig`inishga chaqiradi.

Mehnatkash ommaning boshiga tushgan barcha jabr-sitam va azob-mashaqqatlar kishilarning din va shariat yo`lidan toyganlarni uchun xudo tomonidan yuborilgan jazo ekanligi she'riy parchalarda izohlaydi.

"Xudoga yaqin turgan", Ahmad Yassaviyning o`zi esa:

Haqiqatdan so`zlar aytdim, eshitmading,

Zolimlarni ilgin o`zun qildim mano.- deb, ochiqdan-ochiq zolimlarni qo`llaydi, ularning "qo`lini o`zun qilib", jabr-sitamga keng yo`l ochib beradi.

Zolimlarni "qoralash" va mazlumlarga "mushfiqlik" din va tasavvufni kengroq targ`ib qilish va kishilarni tuzoqqa ilintirish uchun Yassaviy va unga o`xshash mutasavvuflar tomonidan qo`llanilgan munofiqona bir vosita edi.

Mehnatkashlarning zolimlarga qarshi norozilik kayfiyatlari va mazlumlarga mushfiqlik mayllarini ifodalovchi ayrim she'r va she'riy parchalar bir muncha ilg`or pozitsiyada turgan kishilar tomonidan yaratilib, keyinchalik "Devoni Hikmat" ga kirib ketgan bo`lishi mumkin.

"Devoni Hikmat " ning she'riy tuzilishi va tili

Yassaviy hikmatlari bizga qadar aynan yetib kelgan emas. Binobarin, biz Yassaviy hikmatlarining badiiy hususiyatlari va tili xaqida emas, balki xilma-xil o`zgarish va yangiliklar kiritilgan "Devoni Hikmat" ning badiiy xususiyatlari va tili haqida fikr yurita olamiz.

"Devoni Hikmat" dagi ayrim she'rlar (masalan, Yassaviy "sarguzashtlari", Muhammad payg`ambarga bag`ishlangan she'rlar va boshqalar) liro-epik xarakteriga ega bo`lsa-da, ammo boshqa ko`pchilik she'rlar lirik she'rlardir. Shunga ko`ra, "Devoni Hikmat" asosan lirik to`plamdir. Liro-epik she'rlarida din va tasavvufni ayrim "sarguzasht" va "rivoyatlar" bayoni bilan targ`ib qilgan Ahmad Yassaviy lirik she'rlarida ko`proq o`git-nasihat, va'zxonlik usulini qo`llaydi. "Devoni Hikmat" dagi bir necha g`azalni mustasno qilganda, devon murabba shaklidagi she'rlardan tashkil topgan.

Bandlari to`rt misradan tashkil topgan she'r turi o`zbek xalq og`zaki ijodida (ayniqsa qo`shiqlarda) va yozma adabiyotda keng tarqalgan. Bandlari to`rt misradan iborat bo`lgan hikmat asosan "a-a-a-b", "v-v-v-b" tarzida keyingi bandlarga naqorat bo`lib keladi. Aruzda yaratilgan ayrim she'rlarni hisobga olmaganda "Devoni Hikmat" dagi barcha she'rlar barmoq vaznida yozilgandir. Ko`pchilik she'rlar 7 va 12 hijoli she'rlardir. Bu she'rlar ma'lum bir kuyga muvofiq yaratilgan. Ular shayxlar va muridlar, hamda sayoq qalandarlar tomonidan kuylangan. Jahr va va'zlarda aytilgan "Devoni Hikmat" ning xalq qo`shiqlariga yaqin bo`lishi, xalqning orzu-umidlarini ifodalaydigan qo`shiqlarni o`z ichiga oladi.

Biz "Devoni Hikmat" ning XII asr o`zbek tilining yodgorligi emasligini yuqorida eslatib o`tgan edik. Bu tildan-tilga, kitobdan-kitobga o`tib borar edi. Turli davrda, turli hududlarda ko`chirilgan "Devoni Hikmat" ning tili bir-biridan juda katta farq qiladi. Shu bilan

birga, unda "Qur'on" dan olingan ta'bir va oyatlar ham, payg`ambar,avliyo va mashoyixlarning nomi ham juda ko`p qo`llaniladi.

Ahmad Yassaviyning shogirdi va izdoshlaridan biri Sulaymon Boqirg`oniydir (1186 yilda Xorazmning Boqirg`on qishlog`ida vafot etgan). Sulaymon Boqirg`oniyning hayoti va faoliyati haqida juda ko`p afsona va rivoyatlar yaratilgan. Sulaymon Boqirg`oniy (u Hakim ota nomi bilan ham yuritilgan) Ahmad Yassaviyga ergashib she'rlar yaratgan ("Boqirg`on kitobi" dagi she'rlar g`oyasi, uslubi va tili jihatidan Ahmad Yassaviy she'rlariga shunchalik yaqin "Boqirg`on kitobi" Qozonda 1877 yilda, keyin o`sha yerda ikki marta nashr etilgan).

Sulaymon Boqirg`oniy she'rlaridan tashqari "Oxir zamon kitobi" va "Bibi Maryam kitobi" deb atalgan ikki doston ham yaratgan. Bu ikki dostonda ham u insoniylikni va yashashning tobiligini targ`ib qiladi, mehnatkash xalqni tarbiyalaydi. Do`zax azoblari, qiyomat qoyim bo`lishi haqidagi afsonalar bilan unga dahshat solmoqchi bo`ladi. Sulaymon Boqirg`oniyning dostonlari ham o`zgarishlar bilan bizgacha yetib kelgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

Din va tasavvuf «Devoni hikmat»ning g`oyaviy negizi ekanligini so`zlang.

«Devoni Hikmat»ning she'r tuzilishi va tili haqida so`zlang.

«Devoni Hikmat» asarida qo`yilgan ahloq masalasini so`zlang.

«Devoni Hikmat»ning o`zbek adabiyoti rivojidagi o`rnini gapirib bering.

Tayanch iboralar.

1.Ahmad Yassaviy hikmatlari.
2."Devoni hikmat"ning qo`lyozma nusxalari.
3.Ahmad Yassaviy didaktikasi.
4.Sulaymon Boqirg`oniy ta'limoti.

F O Y D A L A N I L G A N A D A B I Yo T L A R :

M a t n :

1. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Toshkent, 1990 y.

Z a r u r i y a d a b i yo t l a r :

1. Aliev A. Tilimiz donishmandi. "O`zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 1993 y. 29 oktyabr.
2. Beryozikov Ye. Svyato`e liki Turkistana. Toshkent, 1992 y. 38-53 str.
3. Mo`minov A. Yassaviya: ildiz va manbalar. "Fan va turmush " jurnali, 1993 y. 9-10 sonlar.
4. Alisher Navoiy. Asarlar. 15-tom, Toshkent, 1968 y.
5. Rustamov E. Ahmad Yassaviy hikmatlarida hayot va tarix sadosi. "O`zbek tili va adabiyoti" jurnali. 1972 y. 4-6 betlar.
6. Mallaev N.M. "O`zbek adabiyoti tarixi". Toshkent, 3-nashr 1976

DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

Darsning mavzusi: **Chingizxon istilosi davri adabiyoti .Mo‘g‘ullar istilosi davrida madaniy hayot. “Chig‘atoy hududi” va undagi adabiy hayot. Pahlavon Mahmud ruboiylari**

Darsning maqsadi:

a) Ilmiy maqsad: Mavzu haqida bilim berish hamda gumanizm,erksevarlik va vatanparvarlik g`oyalarini bolalarga singdirishni o`rgatish.

b) Tarbiyaviy qism maqsadi: yoshlarni ma`naviy yetuk, axloqli, e`tiqodli, izlanuvchan , milliy qadriyatlar va an`analarni davom ettiruvchi kitobxon va mutaxassis qilib tarbiyalash.Talabalarni milliy an`analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

c) Rivojlantiruvchi maqsad: voqealarni bildirish orqali ularni o`zligini anglatish , milliy g`urur, milliy iftihor tuyg`ularini singdirishni, tarixiy faktlarni baholay olishni o`rgatish.

Darsning turi: Noan'anaviy
Darsning uslubi: *diologik yondashuv, muammolai ta'lim, munozara, "klaster", ma'ruza, o'z-o'zini nazorat*

Darsning jihozi: **Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar**
Fanlar aro bog'lanish: adabiyotshunoslik, xalq og'zaki ijodi, folklorshunoslik masalalari, badiiy tahlil asoslari, milliy istiqlol g'oyasi
Natija: Darsga qo'yilgan maqsadlarga to'liq erishish, har bir talabaga yetib borib, baholash.
Uyga vazifa: Mavzuni o'qib, konspekt qilish. Amaliy va seminar mashg'ulotlarga tayyorlanish.

T|r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma'sul
1- bosqich 15 daqiqa	**Dars maqsadi**: Mavzu haqida talabalarga bilim va tushuncha berish. **Mavzu doirasida reja asosida quyidagi masalalarni o'rganish maqsad qilingan:** 1. Mo'g'ullar istilosi davrida madaniy hayot. 2. Muhojirlikda turk va fors tillaridagi adabiyot. 3. "O'g'uznoma"da qadimgi turkiy mifologiyaning aks etganligi. 4. Pahlavon Mahmud ruboiylari.	**O'qituvchi**
2- bosqich 30 daqiqa	**Asosiy tushunchalar:** madaniy hayot, muhojirlikda turk va fors tillaridagi adabiyot, mifologiya, ruboiylari. **Dars shakli: tushuntirish va baholash** **Vositalar:** ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, slaydlar **Metod va usullar:** kitob bilan ishlash, kuzatish, tushuntirish, bahs-munozara, suhbat	**O'qituvchi**
3- bosqich 15 daqiqa	**Guruhda ishlash** -guruhlar o'rtasida bahs-munozara ko'rinishida davra suhbati o'tkaziladi. -guruhlararo savol-javob o'tkaziladi. -mavzuga oid atamalar izohlanadi.	**talaba**
4- bosqich 10 daqiqa	**Mustahkamlash va baholash ushun savollar** 1. Yassaviy asos solgan tasavvuf tariqati qaysi? 2. Yassaviy haqida xalq orasida qanday rivoyatlar bor? 3. Xalq qo'shiqlari va Yassaviy hikmatlari orasida qanday o'xshashlik mavjud? 4. S.Boqirg'oniy adabiy merosi qanday asarlardan iborat?	**O'qituvchi - talaba**
5- bosqich 10 minut	**Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish** Maqsad va vazifalar bajarilganligi tahlil qilinadi, kerakli maslahatlar beriladi, mustaqil ish topshiriqlari tarqatiladi, xulosalar chiqariladi. **Adabiyotlar:** 16. N.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. T.,1963. 17. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. T.,1980. 18. Ahmad Yugnakiy. Hibatul haqoyiq. T.,1971. 19. Navoiyning nigohi tushgan. T.,1986. 20. Qadimiy hikmatlar. T.,1987. 21. Buyuk siymolar, allomalar. 1-kitob. T.,1995.	**O'qituvchi**

	22. Q.Mahmudov. Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» asari haqida. T.,1972. O'zbek adabiyoti. 9-sinf. Darslik. T.,2000	

Chingizxon istilosi davri adabiyoti .Mo‘g‘ullar istilosi davrida madaniy hayot. “Chig‘atoy hududi” va undagi adabiy hayot. Pahlavon Mahmud ruboiylari

Reja

1. Mo‘g‘ullar istilosi davrida madaniy hayot.
2. Muhojirlikda turk va fors tillaridagi adabiyot.
3. “O‘g‘uznoma”da qadimgi turkiy mifologiyaning aks etganligi.
4. Pahlavon Mahmud ruboiylari.

Pahlavon Mahmud ruboiylari. Markaziy Osiyoda “puryoyi valiy” lahabi bilan mashhur bo‘lgan mutasavvif shoir va kuragi yerga tegmagan kurashchi Pahlavon Mahmud (1247–1325) badiiy ijodiyoti va shaxsiy fazilatlari bilan elga tanilgan. Xorazmda uni Pahlavon ota, Pahlavon bob deb atashgan, XIX asrdagi manbalarda uning «Puryor» (yor, do‘stlarning o‘g‘li) «Pakkayor”, “Bekyor», «Biryor» “Purboyvaliy”, “Puryoyvaliyning o‘g‘li” kabi laqablari bilan bir hatorda Qitoliy, Qaffoliy, Haboiy, Iqboliy, Fanoiy kabi taxalluslari ham keltiriladi.

Hayoti va ijodi hahidagi manbalar. Xalq kitoblaridan biri «Risolai bofandalik»da uning g‘ulochaboflik (tikuvchilik), Navoiy, Muhammad Boqir tazkiralarida «Pakkayor qassobning o‘g‘lidur» deb keltirilishi, rivoyatlarda po‘stindo‘z (telpakdo‘z) kabi kasblar bilan shug‘ullangani aytilgan.

Alisher Navoiyning «Nasoyimu-l-muhabbat» tazkirasining hamma nusxalarida ham uning nomi tilga olinmagan. Faqat ayrim nusxalarda tilga olinganki, ularni keltiramiz: «...Va Shayx Sayfiddin Shayx Muhammad Xilvatiyning murididur, derlarkim ul Xorazmda jahr zikri aytur erdi va uni (ovozi) turt yig‘ochda eshitilur erdi va Pahlavon Mahmud Pakkayor (arabchasiga nakkayor)ning muosiri erdi va oning bila suhbat tutor...»[30]. Turkiyada nashr qilingan Doktor Kamol Eraslon matnida esa u haqdagi bo‘lim quyidagicha boshlangan: «Pahlavon Mahmud Pakkayor (h.s.) Xivahdindur va lahabi mashhur Puryor (puryor-arabcha)g‘a, ba’zi Pakkayor (pakkayor-arabcha) debdurlar, ammo Xivahlik kishidin tahhih hilindi, Pakkayorg‘a haror topdi, ya’ni barchaga Pakkayor yor hassobning o‘g‘lidur... Va Pahlavon Mahmud Pakkayor muosiri erdi, aning bila suhbat tutar edi. Va bu ikki bayt Pahlavondin manhul va mashhurtururki...»[31] deb bir ruboiy keltiriladi.

Kamoliddin Husayn Fanoiyning 1506 yilda yozilgan «Majolisu-l-ushshoq» asarida: «Aytishadiki, kurashchi yigit Pahlavonning siynasi (ko‘kragi)ga o‘tirgan paytda ko‘radiki, u (Pahlavon)ning basirat ko‘zi oldidan barcha pardalar ko‘tariladi va haqiqat oftobi yorishib ketadi, natijada u o‘z talabiga erishadi. Aslida fano (maqomi)ning cho‘qqisi shunday bo‘ladiki, nafsni ana shunday yengadilar. Avliyolar zumra (suluki)da nima bo‘lsa barchasini topdilar va rijol ul-g‘ayblar (Allohning do‘stlari – H.B.) bilan aloha bog‘ladilar. Ana shu sababdan zamona nuktadonlari (nombaxshe zamon) uni puryor deb atashadi. Va ba’zilar bukyor deyishadiki, bu mazkur joy (Pahlavon Mahmudning Bengalda u joy podshohining xos kurashchisini yenggani aytilib – H.B.) tilida «engilmas pahlavon» ma’nosini beradi»[32].

Adabiy merosi. Ruboiy va... Lutf Alibek Ozarning «Otashkadai Ozariy», Ahmad Roziyning «Haft iqlim» asarlarida uning masnaviylari orasida ”Kanzu-l-haqoyih” borligi aytilgan. Ruboiylarini fors tilidan T.Jalolov, M.Abdulhakim, E.Ochil v.b. tarjima qilishgan. Shoir ruboiylari orasiga Sayfuddin Boxarziy, Abulsaid Abulxayr, Farididdin Attor, Najmiddin Kubro ruboiylari ham kirib qolganki, bu hol uning asarlari muallifligi to‘la-to‘kis hal qilinmaganini bildiradi. Husayn Voiz Koshifiyning xabariga ko‘ra «Qavoidu-l-futuvvat»

[30] Алишер Навоий. Насойимул муҳаббат, ЎзРФАШИ, Қўлёзма № 857 –В. 224.

[31] Alisir Nevayi. Nesayimul-muhabba. - Ankara. - 1996. – S. 324.

[32] Камолиддин Ҳусайн Фиоий. Мажолису-л-ушшоқ. ЎзРФАШИ, Қўлёзма № 3066.

(«Futuvvat qoidalari») nomli kitobda Pahlavon Mahmud ruboiysi deb yuritilgan mana bu baytlarni Farididdin Attorga nisbat beriladi:

Ko‘ngil ko‘zi futuvvat birla ravshan,
Va jon bog‘i futuvvat birla gulshan.
Agar sen ushbu ilmni zabt etarsen,
Safo oftobiday balhib ketarsan...[33]

Mutasavvifligi. Shayx Said Alouddinning zamondoshi Pahlavon ota yoki Puryoyivaliy so‘fiy, futuvvat yo‘lining vakili sifatida Abdurahmon Jomiyning “Nafahotu-l-uns”, Farididdin Ali Safiyning “Latoyifu-l-tavoyif”, Muhammad Boqirning “Tazkirayi Muhammad Boqir”, «Riyozu-l-orifin», Ollohyor Mahzunning «Riyozu-z-zokirin», Oftobroy Lakhnaviyning «Riyozu-l-orifin», Kamoliddin Husayn Gozurgohiyning «Majalisu-l-ushshoq», Rizohulixon Hidoyatning «Sefarotnomai Xorazm» asarlarida tilga olingan. Jumladan, Jomiy o‘z asarining Zahiriddin Muhammad Xilvatiy bo‘limida yozadi: «Mavlono Zahiriddin Xilvatiy, qoddasallohu sirrahu, ul zohir va botin ilmini o‘zida jam’ hilgan zot erdi. Mavlono Zayniddin Toyobodiy «Falak tohining ostida Zahiriddindek insonni bilmasman» deya marhamat hilgan ekanlar. Shayx Sayfiddin Xilvatiyning muridlari erdilar va o‘n besh yil alarning xizmatlari va suhbatlarida bo‘ldilar. Va Shayx Sayfiddin 783 (yil)da dunyodan o‘tdilar va habri Gozurgoh ko‘prigi boshida joylashgan Xilvatiylar mozoridadir. Va Shayx Sayfiddin Xilvatiy Shayx Muhammad Xilvatiyning muridlaridir. Aytishadiki, har hachon ul zot (Muhammad Xilvatiy) Xorazmda zikrga mashg‘ul bo‘lsalar, ovozlari to‘rt farsax joyga yetardi va Pahlavon Mahmud Pakkayor (arabcha-pakkayor) uning hamasri bo‘lgan va u bilan suhbat qurgan»[34]. «Nafahotu-l-uns»ning Eronda Chop etilgan maskur nashri izohida Pahlavon Mahmud hahida shunday deyiladi: «Pahlavon Mahmud Pakkayor (Begyor-arabcha), Puryoyvaliy (nomi) bilan mashhur (vafoti 722 hij.). So‘fiytabiat pahlavon va Xorazmning sohibi zavhlaridan bo‘lib, hayoti va ahvoli ismining to‘g‘ri shaklu ma’nosiga o‘xshab uncha anih emas. She’rlarni, shu jumladan, «Kanzu-l-haqoyiq» masnaviysini unga nisbat beradilar»[35].

Milodiy 1878 yilda yozilgan «Hazrati Pahlavon ota (alayhi-r-rohma) kitobi» shunday boshlanadi: «Manhultururkim, hazrat Pahlavon ota (alayhi-r-rohma) modarzod avliyo turur. Vahti shububiyyat (yigitlik)larida Xorazm akobirlari ul hazratga malomat tillarin ochib, malolat tegurur erdilar. Bir necha odamlar nodon va beahllik bila hijolat berganda bu ruboiyi mehribon bo‘ldilar:

Ohil ahli hirsga hachon bo‘lgandir gado,
Hasadchi hasadidan hachon mis bo‘lgan tillo.
Nomard it kabidir, mard esa daryoi muhit
Ayt-chi, it nafasidin iflos bo‘larmi daryo?

deb tabarruk hilur erdilar. Ba’zi odamlar insofga kelur erdilar...»[36].

Muhammadkozim Yusufpur shunday yozadi: «Tasavvuf tarixining ko‘p sonli tarmoqlari ichida ko‘proq jamiyat orasida yoyilgan va rivoj topgan oqimlaridan biri futuvvatdir. Tasavvuf xoslar (ma’rifatli tabaqa) orasida tarqalgandan so‘ng, futuvvat odobi bilan ko‘cha va bozorlarga kirib bordi. Darvoqe’, futuvvat bu avomona tasavvuf bo‘lib, uning rasm-rusulari oddiy va amaliy, ya’ni kosib-hunarmandlar, dehqonlarga tushunarli bo‘lgan»[37].

O‘*rganilishi.*O‘zbekistonda adabiyotshunoslardan T.Jalolov, N.Mallaev, Yo.Ishohov, H.Islomiy, M.Abdulhakim, J.Mahmudov; tarixchilar Ya.G‘ulomov, K.Xudoyberganov, san’atshunoslar G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel va elshunoslardan N.G.Snesarev; Eronda

[33] Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султони я ёхуд жавонмардлик тариқати /Форс-тожик тилидан Н.Комилов тарж. - 1994. – Б.8.
[34] «Нафоҳот ул-унс»и Жомий. ЎзРФАШИ, Қўлёзма № 5839, 304-саҳ.
[35] Нуриддин Абдураҳмон Жомий. Нафоҳот ул-унс. Муқаддима, тасҳиҳ ва таълиқот: док. Маҳмуд Обидий. Теҳрон: энтешороти Эттелоот, 1370. - Б. - 882-883.
[36] Ҳазрат паҳлавон ота (алайҳир-роҳма) китоби. ЎзРФАШИ Қўлёзма. № 2069.
[37] Муҳаммадкозим Юсуфпур. Нақди муфий. –Теҳрон: Рўзна, 1380. – Б 119.

S.Nafisiy, A.Zarrinko‘b, M.Yusufpur tomonidan maxsus o‘rganilgan. N.Komilov, I.Haqqulov, B.To‘xliev asarlari tarkibida u haqda to‘xtanilgan.

Shoirning Xivadagi mahbarasi, 1997 yilda 750 yilligining nishonlanishi shoir va pahlavon hayotini abadiylashtirish yo‘lidagi urunishlardan. U haqda E.Samandar «Hazrati Polvon pir» (1995) qasidasini yozgan.

Matn va manbalar:

1. Pahlavon Mahmud. Ruboiylar. / Nashrga tayyorlovchi T.Jalolov. – T.: O‘zadabiynashr. - 1962. - 96 b; 2. Pahlavon Mahmud. Ruboiylar. / Nashrga tayyorlovchi T.Jalolov. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. - 88 b.; 3. Pahlavon Mahmud. Kim agar ozoddur. Ruboiylar. / Forsiydan M.Abdulhakim tarj. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. - 64 b.; 4. Pahlavon Mahmud. Xaq fayzi. (Ruboiylar). / Forsiydan M.Abdulhakim tarj. – Urganch: Xorazm, 1999. – 71 b.; 5. Ishq daftari. Ruboiylar. / Fors tilidan E.Ochilov tarj. – T.: Ma’naviyat, 2000. - 96 b.; 6. Hazrat Pahlavon ota hikoyalari – T.: Fan, 2001; 6. Bedil. Paxlavon Maxmud. Rubai. / Perevod s farsi A.Naumova. – T.: Izd. lit. i iss. imeni G.Gudyama, 1991. – S. 115-145; 7. Pahlavon Mahmud Puryorvali Xivaqiy. Ruboiyot. O‘zR FAShI, 264, 1099, 1140, 2069, 5103, 7670, 8478, 8490, 9578, 12752, 13218, raqamli qo‘lyozmalar.

Ilmiy va metodik adabiyotlar:

1. Jalolov T. Mahmud Pahlavon. // Sharh yulduzi. -1961. -№5. –B.140-146; 2. Ishohov Yo. Pahlavon Mahmud hahida ba’zi mulohazalar. // O‘zbek tili va adabiyoti. -1971. №2. –B.20-25; 3. Mallaev N. Xorazm Xayyomi. // Sharh yulduzi. -1963. -№4. –B. 152-153; 4. Mallaev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. –T.: O‘hituvchi. -1965. –B.206-208; 5. Nafisiy S. Sarchashmai tasavvuf dar Iron. – Tehron: Chopi Marviy, 1368; 6. Zarinkub A. Justiju dar tasavvufi Iron. – Tehron:1365; 7. Yusupur M. Nahdi so‘fiy. – Tehron; Ruzna, 1380; 8. Islomiy H. Alloh jamoliga yetishgan avliyo. // Fan va turmush. -1998. – №1. –B.25; Gulyamov Ya.G. Pamyatniki goroda Xivы. – T.: Fan, 1941. – S.24-29; 10. Pugachenkova G.A., Rempel L.I. Vo‘dayuhiesya pamyatniki arxitekturo‘ Uzbekistana. – T.: Gos.izdat. xudlit, 1958. – S. 170; 11. Abdulhakim M. Iymon tuhfasi. – T.: Yozuvchi, 1997. -70 b.

DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

Darsning mavzusi: Nosiriddin Rabg‘uziy hayoti va ijodi. “Qisasi Rabg‘uziy” asari

Darsning maqsadi:

a) Ilmiy maqsad: Mavzu haqida bilim berish hamda gumanizm,erksevarlik va vatanparvarlik g`oyalarini bolalarga singdirishni o`rgatish.

b) Tarbiyaviy qism maqsadi: yoshlarni ma`naviy yetuk, axloqli, e`tiqodli, izlanuvchan , milliy qadriyatlar va an`analarni davom ettiruvchi kitobxon va mutaxassis qilib tarbiyalash.Talabalarni milliy an`analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

c) Rivojlantiruvchi maqsad: voqealarni bildirish orqali ularni o`zligini anglatish , milliy g`urur, milliy iftihor tuyg`ularini singdirishni, tarixiy faktlarni baholay olishni o`rgatish.

Darsning turi: Noan’anaviy

Darsning uslubi: *diologik yondashuv, muammolai ta’lim, munozara, “klaster”, ma’ruza, o‘z-o‘zini nazorat*

Darsning jihozi: **Ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar**

Markaziy Osiyoning qadimgi aholisining qo`shiq va lirik she'rlaridan ayrim namunalar turli xil yozma manbalar va ilmiy asarlar ("Avesto", "Devonu lug`ati turk") va boshqalar orqali bizgacha yetib kelgandir. Turkiy qabila va xalqlarning eng qadimgi og`zaki adabiyot yodgorliklarni o`rganishda ayniqsa "Devonu lug`ati turk" dagi adabiy manbalar katta ahamiyatga ega.

Maxmud Ibn-ul-Xusayn Ibn Muhammad al Qoshg`ariy XI asr boshlarida Balasog`unda tug`ildi.Uning bobosi Qoshg`arlik bo`lib Bolasog`unga ko`chib kelib,turg`un bo`lib qolgan.Mahmud Qoshg`ariy yoshligidanoq qunt va ishtiyoq bilan o`qidi.Turli ilmlar bilan

xususan arab filologiyasi bilan shugullandi.U turkiy xalqlarning tiliga,turli qabila va urug`larining urf-odatiga,og`zaki badiiy
ijodiyotiga qiziqdi. Yuqori chindan boshlab Movaroun-nahr, Xorazm,Farg`ona,Buxoroga qadar cho`zilgan keng va katta xududni birma-bir kezib chiqdi. Urug`, qabila va xalqlarining turmushini,ularning kasb-korini ,xususan tili va og`zaki ijodiyot boyliklarini o`rganib material to`pladi.Oddiy xalq ommasi vakillari bilan,olimlar va shoirlar bilan suxbatlashdi.Bu haqda Mahmud Qoshg`ariyning o`zi bunday deydi:

"Men turklar,turkmanlar,o`g`uzlar,chigillar,yag`molar,qirg`iz-larining shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko`p yillar kezib chiqdim,lug`atlarini to`pladim,turli xil so`z xususiyatlarini o`rganib aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim"deydi.Mahmud Qoshg`ariyning"Devonu lug`atut turk" asarining qo`lyozmasi XX asr boshlarida Istanbulda topildi. Bu qo`lyozmani ko`chirgan kotib Muhammad Binni Abu Bakr Damashiqning ma'lumotiga ko`ra, bu nusxani Maxmud Qoshg`ariyning o`z dastxatidan olgan. Bu asar 1915 va 1917 yillarda 3 tomlik kitob shaklida Istanbulda nashr etildi. Sharqshunos Brokkelman bu asarni nemis tiliga(Leyptsik, 1928 yil), Basim Atalay usmonli turk tiliga (Anqara, 1939)tarjima qildi.

«Turkiy so`zlar devoni» deb atalgan bu kitob O`zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan tilshunos olim S. Mutallibov tarjimasida 1960 64 yillarda nashr etildi.

Mahmud Qoshg`ariyning " Javoxir-un-naxiv-fi lugotit turk"("turkiy tillarning naxiv (sintaksis) durdonalari, qoidalari"kitobi bizgacha yetib kelmagan yoki xanuzgacha noma'lum bo`lib kelmokda.

Mahmud Qoshg`ariy"devonu lug`atut turk"ni yaratish uchun ko`p yillar davomida muntazam ish olib borgan olim.Uni 1076-77 (xijriy)469 yillarda yozib tugatdi.

Maxmud Koshgariyning ma'lumotiga qaraganda,Ruma(Kichik Osiyodan tortib Xitoyga qadar juda ko`p va xilma xil turkiy urug`lar hamda 20ta yirik turkiy qabila bo`lgan ekan.Maxmud Qoshg`ariy"turkiy tabaqalar va qabilalarning bayoni xaqida"so`zlar ekan...turklar aslida yigirma qabiladir...Rumga yaqin birinchi
qabila bajanaq so`ng pichoq, ug`o`z, yaman, bashg`iriy, basmil, so`ng kay, so`ng yabaku, so`ng tatar, so`ng qirg`iz keladi...so`ng chigil, so`ng tuxsi, so`ng yagma, so`ng igrak. so`ng taruk, so`ng jamul, so`ng uyg`ur, so`ng tangut, so`ng Xitoy...so`ngra tavg`och"

"Devonu lug`atit turk" XI asrning buyuk tilshunos olimi Mahmud Qoshg`ariyning lingvistik asari bo`lib, muallif turkiy so`zlarning lugoviy ma'nosini izohlash uchun xalq og`zaki ijodi namunalaridan foydalangan. Unda XI asr xalq og`zaki ijodi namunalari bilan birga, avvalgi zamonlarda paydo bo`lib og`izdan-og`izga, avloddan-avlodga ko`chib yurgan qo`shiq va lirik she'rlardan ham parchalar berilgan. Ko`pgina qo`shiq va lirik she'rlarning mazmuni, ularda patriarxal qabilalar hayotiga xos voqealarning izohlanishi hamda tili va uslubida ayrim o`rta arxeologik asrlargacha bo`lgan elementlarning borligi, arabcha so`zlarning va musulmon dini e'tiqodining izlari bu qo`shiq va lirik she'rlarda uchramasligi ajablanarli hodisa emas. Chunki bu yodgorliklar arab istilosidan oldin yaratilgan edi. Masalan, Yaboku va Basminlar kurash haqidagi parchalar juda uzoq o`tmishga mansub bo`lib, ular O`rxun - Enasoy yodgorliklaridagi Yaboku va Basminlar bilan aloqadordir. Xuddi shuningdek, Aslp Erto`nga (Afrosiyob) ga bag`ishlangan parchalar ham juda qadimiy-dir.

Mehnat ko`shiqlari: "Devonu lug`atit turk" dagi mehnat qo`shiqlari ovchilik, chorvachilik, bog`dorchilik va dehqonchilik hayotini, mehnat jarayonini, ibtidoiy jamoa an'analarini, qabila a'zolarining birgalikdagi mehnatini hamda ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ayrim ziddiyatlarini aks etti-radi. Ov haqidagi to`rtliklar qadimgi kishilarning ovchilik san'atini, ov mehatiga bo`lgan munosabatini tasvirlaydi. Ovchilar ov iti, oti va ov qushidan foydalanish bilan birga ovchilikning eng ibtidosi bo`lgan tosh otib hayvonlar ovlash usulini ham qo`llaganlar:

Chag`ri berib qushlatu,
Toyg`on izib tishlatu.
Tilki to`ng`iz toshlatu,

Arda bila uklalim.

Mazmuni: (yigitlarga) chag`ri (ov qushi) berib qush ovlaylik.
Ov itini (qushlarning) izidan solib tishlataylik. Tulki, tung`iz (lar) ni tosh bilan uraylik. Yutuqlarimiz bilan maqtanaylik.

Ovchlik bilan birga chorvachilik ham qabilalarning asosiy mehnat turini tashkil etgan. Chorvachilik mehnati ovchilarning faoliyati bilan uzviy bog`langan.Chorva mollarini ehtiyot qilib saqlash uchun ovchilardan poyloqchilar quyilgan. Ular chorvani ko`z qorachig`iday qo`riqlaganlar. Quyidagi bir to`rtlikda o`z poylokchilik vazifasini sergaklik bilan bajarib, tong ottirgan
ovchi bunday deydi:

Qora tunung kachursadim,
Ogur uni uchursadim.
Yatkaning kachursadim
Sakish ichra kunum tugdi.

Mazmuni: Qora tunning tez o`tishini istadim,
Uyquga qul bermaslikka tirishdim.
Yetikan(Etti qaroqchi yulduzi)ni qochirdim.
(Yulduzni)sanay-sanay tong ottirdim.

Juda qadim zamonlardayoq kishilar hayotida ovchilik va chorvachilik bilan birga dehqonchilik va bog`dorchilik ham asosiy o`rinni egallagan.Quyidagi bir to`rtlikda ovchilik,chorvachilik va bog`dorchilik bir-biriga qondosh bo`lganini pishiqchilik vaqtidagi ishlarni va shodlik taronalarini ko`ramiz.

Yigitlarig ishlatu,
Yig`och yamish irg`atu.
Yulan, kayik avlatu,
Bazram qilib avlanim.

Mazmuni: Yigitlarni ishlataylik,
Daraxtlardan mevalarni qoqtiraylik.
Qulon, kiyik ovlataylik,
(So`ng) bayram qilib ovunaylik.

Qahramonlik qo`shiqlari: "Devonu lug`atut turk" dagi ayrim adabiy parchalar qabilalar o`rtasidagi janglar va qabila bahodirlarining mardona kurashini tasvirlaydi. Bunday qo`shiqlar rajaz deb atalgan. Jumladan, quyidagi to`rtliklarda xujum qiluvchi tomon ikkinchi tomonni g`aflatda qoldirib, qo`qqisdan xujum boshlaydi:

Tunla bila kuchalim,
Yashar suvni kachalim.
Tarinchuk suvni ichalim,
Yukga yagi ukulsin.

Takra olib akuralim,
Attin tushib yukalarim.
Arslanlayu kukaramen,
Kuchi amin kavilsun.

Mazmuni:Tuni bilan ko`chaylik,
Yashar suvidan o`taylik.
Tarinchuk (chashma) suvidan ichaylik,
Kochayotgan dushman tor-mor bo`lsin.

(Dushmanning) atrofini o`rab,
Qamal qilamiz.
Otdan tushib yuguramiz,
Arslondek na'ra tortamiz,
Uning kuchini quritamiz.

Bunday qo`shiqlarda baxodirlarning qahramonligi, harbiy qurollardan mohirlik bilan foydalanishi hamda ayrim jang epizodlari ko`pincha baxodirlarning o`z tili bilan kuylanadi. Jang tugagach, g`oliblar tantanaga yig`iladi. Baxodirlar taqdirlanadi. Hamma "Kochdi sakinch savnalim" ("Qayg`ular ketdi, endi sevinaylik") deb g`alaba va shodlik taronasini boshlaydi.

Marosim qo`shiqlaridan "Devonu lug`atut turk" da marsiya janridan parchalar keltirilgan. Bu parchalar jang maydonida baxodirlarcha kurashib halok bo`lgan qahramonlarga bag`ishlanadi.

Ularda bu baxodirlarning mardligi, jasorati, fidokorligi va boshqa shu kabi fazilatlari maqtaladi, judolik xasratlari, motam qayg`usi ifodalanadi. App Ertungaga bag`ishlangan marsiya shular jumlasidan bo`lib, bu qahramon eron tillari gruppasidagi tillarda so`zlashuvchi halqlarda (keyinchalik turkiy tillar gruppasida so`zlashuvchi halqlarda ham) Afrosiyob nomi bilan yuritilgan.

App Ertunga marsiyasidan bir parcha ko`raylik:

Eron burlayu
Yirtik yaka urlayu.
Sikrib uni yurlayu,
Sigtab ko`zi urtilur.

Mazmuni: Mardlar yig`lab, bo`ridek uvlashdilar,
Yoqalarini yirtib baqirishdilar.
Faryod chekdilar,
Qattiq yig`idan ko`zlari xiralashib.
(go`yo parda bosdi).

Mavsum qo`shiqlari. Peyzaj lirikasi.

"Devonu lug`atut turk" dagi og`zaki adabiyot namunalarining ko`pi mavsum qo`shiqlari va peyzajlarda kishilarning tabiat xodisalari haqidagi tushunchasi va bu xodisalarga munosabatni ifodalanadi.

Tabiat xodisalarini yaxshi va yomon ruhlar bilan bog`lash ddualiktik qarash qadimgi kishilarning yil fasllari haqidagi tushunchalarida ham ravshan. Ularni qish fasli g`oyat g`am-g`ussaga formalarning ildizi juda qadim zamonda vujudga kelganini ko`satadi.

"Devon"dagi she'riy parchalar orasida yoz bilan qish tortishuvi, urushlar tasviri, alplar vafotiga marsiyalar bor.

"Devon"dagi she'rlar Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy ilk ijodidan namunalardir. Undagi ayrim tarixiy voqealarining she'riy tasviri O`rxun Enasoy yozuvidagi qaydlar bilan xamohangdir. Shuningdek bu kitobda bundan 9-10 asr burun xalq o`rtasida keng yoyilgan. Maqollardan ham ancha namunalar bor.Ular xalq hayotining tajribasidan kelib chiqqan fikrlar jav-haridir. Inson fazilati oliyjanob xususiyatlarining sharhi turmushning turli-tumanligini o`rganib chiqargan xulosalardan iboratdir. Masalan: Qut belgisi billk, baxt

belgisi ilm va aqldir. Kishining tili haqida "Odam boshi til"-odobning boshlanishi tildan.Yoki"Quruq qoshiq og`iz yarmas,-Quruq qoshiq og`izga yoqmas.Turli-tuman hayot ko`rinishlariga xalq o`z tajribasiga ko`ra baho bera borgan.Alp chiranda,bilka tirakda-botir jangda,olim suxbatda sinalar.Ko`z keligi yezin balkurur-ko`zning kelishi yezdan bilinar.Tavi silkinsa eshikka yuk chiqar-tuya silkinsa bir eshakka yuk chiqar.Yigit yoziqsiz bo`lmas-yigit gunohsiz bo`lmas.

"Devonu lug`atut turk"dagi she'riy parchalar islomdan burungi turkiy she'rlarining janrlari, shakli badiiyati, tasvir vositalari to`g`risida aniq tasavvur tug`diradi.

"Devonu lugatut turk" dagi qo`shiq va lirik she'rlar barmoq vaznida bo`lib, ularning ko`pchiligi 7-8 xijolchidir, bandi to`rt misradan ba'zan esa ikki misradan iborat bo`lib, to`rtliklarning qofiyasi a-a-a,-b, v-v-v,-b shaklidadir. Bular o`zbek lirik she'riyatining juda qadim zamonlarda paydo bo`lganligini ko`rsatadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

XI asrning ulkan ijodkori Mahmud Qoshg`ariy haqida so`zlang.

Eng qadimgi qo`shiqlar va lirik she'rlar qanday yetib kelgan?

Mehnat qo`shiqlari haqida so`zlang.

Mavsum va marosim qo`shiqlari qanday ifodalangan?

Qahramonlik qo`shiqlarining mohiyati qanday?

Tayanch iboralar

1.Mahmud Qoshg`ariy ijodi.
2. «Devon»dagi qabilalar hayoti tasviri.
3. «Devon»dagi qo`shiqlar shakli.
4.Mehnat qo`shiqlari.
5.Qaxramonlik qo`shiqlari.
6.Marosim qo`shiqlari.
7.Mavsum qo`shiqlari.
8. «Devon»dagi badiiylik

F O Y D A L A N I L G A N A D A B I Yo T L A R

M a t n l a r

1. Mahmud Qoshg`ariy. «Devonu lugatut turk». 3 tomlik. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov, «Fan» nashriyoti. Toshkent, 1960-1963 y.
2. Oysuluv. O`zbek xalq dostonlari. 1-tom. «Fan» nashriyoti. Toshkent, 1959 y.

Z a r u r i y a d a b i yo t l a r

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent, "O`zbekiston", nashriyoti 1994 y.
2. Mallaev N.M. O`zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob, Toshkent, "O`qituvchi" nashriyoti, 1976 y, 27-66 betlar.
3. Kollektiv. O`zbek adabiyoti tarixi. 1-tom. Toshkent, "Fan" nashriyoti 1978 y., 19-65 betlar.

1.3.

Qaxramonlik eposi

R Ye J A

21. Markaziy Osiyo eposlar vatani ekanligi.
22. "To`maris" eposi.
23. "Shiroq" eposi.
24. "Zarina va Striangiya" eposi.
25. "Zariadr va Odatida" eposlari haqida ma'lumot.

Insoniyat o`zining butun hayoti davomida ezgulikka tomon intilib keldi. Tabiat sirlari oldidagi ojizlik, fakat uning o`zi sehrli deb bilgan kuchlar oldidagina emas, balki xokimiyatni o`z qo`lida tutib, uni o`zi xohlagan tomonga qarab siljitib borayotgan zo`ravonlar

oldidagi mutelik, ezgulik yo`lidagi orzularning markazida turgan, o`shalar uchun kurashga bel bog`lagan qahramonlarni yaratgan eposlarning maydonga kelishiga vosita bo`ldi.

Qadimgi Markaziy Osiyo aholisi yaratgan og`zaki adabiyot yodgorliklari orasida qahramonlik eposi katta va muhim o`rin tutadi. Qahramonlik eposining ko`p asarlari tarixiy voqealar, Markaziy Osiyo aholisining chet el bosqinchilariga qarshi vatanparvarlik kurashi zaminida tug`ildi.

Xalq qaxramonlik eposida otashin vatanparvar va fidokor bahodirlarning ajoyib timsollari yaratildi. To`maris, Shiroq, Zarina, Rustam, Siyovush va boshqalar mana shunday obrazlardir.

To`maris : To`maris eposi O`rta Osiyo aholisining chet el bosqinchilari tajovuziga qarshi olib borgan mardona kurashining badiiy ifodasidir. Eramizdan avvalgi VII asrda bir necha mamlakatlarni istilo qilgan ahmoniylar shohi Kir Markaziy Osiyoga bostirib kiradi. Markaziy Osiyo aholisi, ayniqsa To`maris boshchiligidagi massaget qabilalari Kirga qarshi mardona kurash olib bordilar. Kir qo`shini yengiladi va uning o`zi 552- yilda jang maydonida o`ldiriladi. Shu voqealar To`maris tarixiy qahramonlik eposining mazmunini tashkil etadi. Afsuski, bu eposning asli bizgacha atib kelmagan. Uning mazmuni grek tarixchisi Gerodotning (484-425) "Tarix" kitobida hikoya qilib qoldirilgan.

Eng qadimgi zamonlarda Amudaryo (Araks) yoqalarida Markaziy Osiyo aholisiga mansub massagetlar yashar edi.Bu davrda ularga marhum podshohning xotini malika To`maris boshchilik qilar edi.Eron shohi Kir massagetlarni o`ziga qaram qilish niyatida To`marisga uylanmoqchi bo`lib sovchilar yuboradi. Lekin malika

shohning asl maqsadini tushunib,unga rad javobini barada.Shundan so`ng Kir ochiq tajovuzga o`tadi va massagetlar tomon qo`shin tortadi.U daryodan o`tish uchun ko`priklar qurdira boshlaydi.Bu xatti-harakatlardan boxabar bo`lgan To`maris Kirga elchi yuboradi va aytadi:"Ey shoh,qilayotgan ishingni to`xtat!Hali sen boshlagan ishingning qanday tugashini bilmaysan-ku.Qo`y sen o`z yurtingda podshohlik qilaver,bizni ham o`z holimzga qo`y.Lekin sen bunga ko`nmaydigan ko`rinasan.Agar sen biz bilan kuch sinashmoqchi bo`lsang,u holda marhamat, ko`priklar qurib ovora bo`lma,biz daryodan uch kunlik nariga ketamiz.Shunda sen bizning yerimizga o`t,yoki o`z yurtingda uchrashishni istasang shunday qil".

Bu taklifni eshitgach, Kir a'yonlarini to`plab maslahat so`raydi. Ularning ko`pchiligi To`marisning chekinishini quvvatlaydilar.Lekin ular o`rtasida Krez ismli maslahatchi shohga boshqacha bir hiylani o`rgatadi."Ey Kir,-deydi u,-agar sen o`z qo`shiningni o`lmasin desang,unda fikrimni aytaman.Agar sen

ularning inson ekanliklarini va inson takdiri doimo bir xil bo`lavermasligini bilsang,u holda quloq sol.Agar biz dushmanni o`z yerimizga o`tkazsak-da,yengilsak,podshohligingdan batamom ayrilasan.Agar dushman yeriga o`tib,g`alaba qilsang oldinga intilasan,lekin ularni hamma yerda ta'qib qilish darajasida yenga

olmaysan.Xotin kishidan yengilsang chidab bo`lmas nomus bo`ladi.Shuning uchun biz yaxshisi To`maris chekinib qoldirgan yerga boraylikda,uni yengishga harakat qilaylik.Menimcha, massagetlar eroniylar noz-ne'matining lazzatini bilishmaydi. Shuning uchun biz sharoblarni ayamasdan, mollar so`ydirib katta ziyofat

tayyorlaylikda,yaroqsiz askarlardan bir qismini qoldirib orqaga qaytaylik.So`ng o`zimizni g`alaba bilan sharaflaylik".Bu maslahat Kirga ma'qul tushadi. U To`marisdan chekinishni so`raydi.Kir o`g`li Kambizni Krezga topshirib,agar urushdan qaytmasam uning maslahati bilan shohlik qilgin,deb ularni Eronga jo`natadi,o`zi qo`shini bilan massagetlar yurtiga o`tadi.Kir massagetlar yurtiga

o`tgach,Krez ta'kidlaganidek,ziyofat tayyorlab oz askar qoldirib orqaga chekinadi.To`marisning o`g`li Sparganis ozgina askarni yengib,ziyofatga mashg`ul bo`ladi. So`ng mast lashkar uyquga ketadi.Shu vaqt Kir hujumga o`tib,massagetlardan ko`pini o`ldirib, ko`pini asirga oladi.Asirlar orasida shahzoda Sparganis ham bor edi.

To`maris Kirga elchi yuborib aytadi:Ey,qonxur Kir,uzum suvi yordamida bo`lgan bu voqeadan xursand bo`lma.Sen o`g`limni jang maydonida emas,nayrang bilan qo`lga olding.Endi quloq sol,senga yaxshilikni maslahat qilaman,o`g`limni menga topshirginda,qilgan ishing

uchun jazolanmasdan o`z yurtingga jo`na. Yo`qsa massagetlar tangrisi nomi bilan qasamyod qilib aytamanki, sen ochko`zni
qonga tashnaligingni qondiraman". Kir bu so`zlarga parvo qilmadi. Sparganis esa o`ziga kelgach,voqeani anglab hijolatdan o`zini-o`zi o`ldiradi.

Shundan so`ng To`maris qo`shinini to`plab jangga otlanadi.Unda massagetlar g`alaba qozonadi.To`maris jangda o`ldirilgan Kirning boshini kesib qon bilan to`ldirilgan meshga soladi. U aytadi: "Garchi meni o`g`limdan judo qilib qayg`uga solding.Men ontimga amal qilib,seni qonga to`ydiraman".

Markaziy Osiyo aholisining bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashini ifoda etuvchi bu lavxada qadimgi davrlarda xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi o`rinlari o`z aksini topgan.

Gerodot, Kteziy va boshqa tarixchilar O`rta Osiyo qabi-lalarida, jumladan, massagetlarda ijtimoiy hayotning turli sohalarida xotin-qizlarning katta o`rin tutganini ko`rsatadi. Shuningdek, Xitoy sayyohi Chjan Syan (eramizdan avvalgi II asr) Davan (Farg`ona) dagi xotin-qizlarning mavqei haqida so`zlab "erkaklar biror qaror qabul qilar ekanlar, ular o`z xotinlarining maslahatiga quloq solar edilar," deydi.

Shiroq : "Shiroq" eposi ham "To`maris" kabi Markaziy Osiyo aholisining chet el bosqinchilariga qarshi qahramonlik kurashi voqealari zaminida vujudga keldi. Qahramon massagetlar Kir qo`shinini tor-mor qildilar. Lekin keyingi ahmoniy shohlari bundan saboq olmadilar. Ular O`rta Osiyoga bostirib kirish va el-yurtni talashni davom ettirdilar. Doro I (521-485) shunday yovuz shohlardan biri edi. Shak qabilalari Doroga qarshi 513 yilda katta qo`zg`olon ko`targan edilar. Shu voqea "Shiroq" eposiga asos bo`lgan bo`lsa kerak.

Shak qabilasining tinchligi va mustaqilligi xavf ostida qoladi. Yovuz niyatli Doro yaqinlashib kelmoqda Shak hukmronlari (Omarg, Saksfar, Oamiris dushmanga qarshi kurash rejasini tuzayotgan payitda cho`pon Shiroq paydo bo`ladi. U dushmanni yengish rejasini o`ylagan edi. Bu reja Shak qabilalarini Doroning qulligi xavfidan qutqaradi. Bu reja dushmanni halokatga olib boradi. Buning uchun Shiroq ongli ravishda o`zini qurbon qilishi kerak. Reja ma'qullanadi. Go`yo shaklarning g`azabiga uchrab, badani dabdaba qilingan va qabiladoshlaridan qasos olmoqchi bo`lgan Shiroq Doro qo`shinini «ko`chib ketgan» shaklarning yo`lini 7 kun deganda «kesib olib chiquvchi» degan yo`lga boshlaydi. Shiroq dushmanni bepoyon cho`l biyobonlarga olib boradi. Dushmanning ochlik va suvsizlikdan halok bo`lishi muqarrar 7-kuni ham shaklardan darak topa olmagan Doroning qo`shin boshlig`i Ranosbat Shiroqning kallasini chopib tashlaydi. Shiroq «Men yengdim, yolg`iz o`zim butun boshli bir qo`shinni yengdim, jonajon qabilam shaklar va ona tuprog`in boshiga kelgan baloni daf qilib, bosqinchi Doro lashkarini halokatga olib keldim, 4 tomonning har qaysisi yetti kunlik yo`l, istagan tarafingizga ketabering. Baribir, barchangizni ochlik va tashnalik yemirib nobud qiladi. Mening qonim esa shu yerga to`kiladi», - deb o`limni shodlik qah-qahasi bilan kutib oladi.

"To`maris" kabi "Shiroq" ning ham asli saqlanmagan. Uning qisqacha mazmuni Grek tarixchisi Polien (eramizdan avvalgi II asr) ning «Harbiy hiylalar» kitobida hikoya qilinadi.

Shiroqning dushmanni bepoyon cho`l-biyobonlarga olib borishi O`rta Osiyo aholisining qadim zamonlardan dushmanlarga qarshi qo`llagan harbiy taktikasini eslatadi. Grek tarixchi-larining ma'lumotlariga ko`ra, O`rta Osiyoliklar Aleksandr Makedonskiy qo`shiniga qarshi kurashda ham ana shunday taktikani qo`llagan ekanlar. Jonajon qabila va ona tuproq Shiroqqa mislsiz kuch va temir iroda baxsh etgan edi. Zarina va Strangiya

«Zarina va Striangiya» qissasining mazmuni sitsiliyalik tarixchi Diodor (eramizdan avvalgi I asrda) ning «Kutubxona» asarida hikoya qilib qoldirilgan. Biroq, qissaning mazmuni to`la berilmagan. Uni Kteziy to`la hikoya qilib qoldirmaganligi yoki sitsiliyalik Diodor qisqartirib yuborganligi - buni aniq bilmaymiz. (55 – betdagi matn tushuntiriladi).

«Zarina va Striangiya» qahramonlik va sevgi qissasidir. Qissaning bosh qahramoni Zarina obrazi tarixiy ildizga ega bo`lib, u shak hukmronlaridan biri bo`lgan. Qissada Zarina zakovatli, tadbirli ayol, xalqka g`amxo`r hukmron, usta lashkarboshi, qahramon va shu bilan birga, nomusli va botirligi bilan mashhurdir. Striangiya irodasining bo`shligi jihatdan Zarinadan zaifdir.

Grek tarixchilari shak xotin-qizlarning qahramonligini, jumladan, dushmanga qarshi jangda g`alaba qozonib, elini asirlikdan qutqargan qahramon ayollarni ta'rif qilishadi. Shak xotin-qizlari jangga kirib, ot chopish va o`q-yoy otishda erkaklardan qolishmas ekanlar. Kteziy Zarinaning shijoat va qahramonligini alohida qayd qiladi. Uning ma'lumotiga ko`ra, Zarina vafotidan keyin shaklar unga piramida shaklida maqbara qurib, oltin haykal o`rnatgan ekan.

Zariadr va Odatida

Sevgi va qahramonlik motivlari «Zariadr va Odatida», qissasida ham hikoya qilinadi. Bu qissaning mazmuni tarixchi Xares Mitilenskiy (eramizdan avvalgi IV asr) asari orqali yetib kelgan. (56 betdagi matning tushuntiriladi).

Xares Mitilenskiy bu qissaning xalq orasida keng tarqalgani, ibodatxonalar, qasrlar va xususiy uylarda uning syujeti asosida ishlangan tasviriy suratlarning ko`pligi va qizlarga Odatida deb nom qo`yish bir odat bo`lib qolganini hikoya qiladi.

«Zariadr va Odatida» qissasida oila va sevgi masalasi qiz bilan yigitning erkin huquqi, mayl-istagi, qahramonlik motivlari bilan bog`langan. Qizning qahramonlikni talab qiluvchi shartlarni bajarish an'analari keyingi davrdagi og`zaki ijodda, jumladan, «O`g`o`znoma», «Alpomish» va boshqa asarlarda ham yetakchi masalalardan biri bo`lib qoldi.

Rustam: Rustam timsoli qahramonlik eposining monumental timsollaridan biri bo`lib u og`zaki, keyinchalik esa yozma adabiyotda qayta-qayta ishlandi. Rustam haqidagi dastlabki asarlar so`g`dlarda paydo bo`lgan, taxminan VI-VII asrlarda so`g`dlar yaratgan «Rustam» eposining parchalari bizga qadar ham saqlanib kelgan. Bu parchalarda Rustam mislsiz qahramon va najotkor sifatida gavdalanadi. U devlarga qarshi kurashda kamol topadi, yengilmas, o`lmas qahramonga aylanadi. Rustamning devlarga qarshi kurashi O`rta Osiyo, Eron xalqlari va boshqa xalqlarda juda qadim zamonlardan vujudga kelgan va uzoq asrlar saqlanib qolgan dualistik tushunchalarga asoslangan. Devlar tasavvurida har qanday yomonlik, razillik va baxtsizlikning timsoli sifatida gavdalanadi. Ular insoniyatning eng yovuz dushmani bo`lib, kishilarni o`ldiradi, zulmat g`orlarida qattiq jabrlaydi.

Rustam timsoli hayotiylashib bormoqda. Endilikda u bosqinchilarga, zolim shohlarga qarshi kurashuvchi qahramon sifatida gavdalanadi. Rotastaxm (Rustamning qadimgi nomi) «Baxman-Yashta» da arab bosqinchilariga qarshi kurashgan pahla-von sifatida, (parfeyn) parfiyon (qadimgi fors-tojik) dostonlarida «Yodgor Zaryoran», «Daraxt asurik» va VI-VIII asrlarda yaratilgan «Shahrixon Eron» da ajoyib qahramon, xalq uchun shaharlar bunyod etgan inson sifatida tasvirlanadi. Rustam timsoli o`zbek xalqi orasida ham keng shuhrat qozongan.

Siyovush: Siyovush Rustam singari sevimli xalq qahramoni timsolidir. Siyovush timsoli o`zoq takomil bosqichini kechib o`tdi. U dastlab mifologik xudo obrazi sifatida yaratildi. Siyovush «Avesto» da (bunda u Siyovarshan deb atalgan) mifologik xudo sifatida tasvirlanadi. Bu tasvirning izlari «Shohnoma» da va Beruniy asarlarida saqlanib qolgan.

X asr tarixchisi Narshahiy «Buxoro tarixi» asarida Siyovush haqidagi xalq og`zaki ijodining namunalarini hikoya qilib beradi. Buxoro aholisi navro`zda Siyovushning qabriga kelib, qurbonlikka xo`rozlar so`yib, Siyovush sharafiga qo`shiqlar aytishar ekanlar. Bu qo`shiqlar «mug`lar yig`isi» yoki «Siyovush qasosi» deb yuritilar ekan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan yaratilgan eposlar qaysilar.

«To`maris» timsolini so`zlang.

«Shiroq» timsolini so`zlang.

Eng qadimgi sevgi qissalaridan qaysilarini bilasiz.

TAYaNCh IBORALAR.

1. «To`maris».
2. «Shiroq».

3."Zarina va Striangiya".
4."Zariadr va Odatida".
5.Rustam.
6.Siyovush.

F O Y D A L A N I L G A N A D A B I Yo T L A R

M a t n l a r

1. Mahmud _Q .oshg`ariy. Devonu lug`atit turk. 3 tomlik. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutalibov, «Fan» nashriyoti. Toshkent, 1960-1963 y.
2. Oysuluv. O`zbek xalq dostonlari. 1 tom. «Fan» nashriyoti. Toshkent, 1959 y.

Z a r u r i y a d a b i yo t l a r

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent, "O`zbekiston", nashriyoti 1994 y.
2. Mallaev N.M. O`zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob, Toshkent, 1976 y. "O`kituvchi" nashriyoti, 27-66 betlar.
3. Mualliflar guruhi. O`zbek adabiyoti tarixi. 1-tom. Toshkent, "Fan" nashriyoti 19-65 betlar.

Q o` sh i m ch a a d a b i yo t

1. Hasanov X. Mahmud Qoshg`ariy. Toshkent, 1963 y..

1.4 "Avesto"- zardushtiylik (Zoroastrizm) dinining muqaddas kitobi

R Ye J A

1. "Avesto" - zardushtiylik dinining muqaddas kitobi.
2. "Avesto" ning topilishi va uning nushalari.
3. "Avesto" ning mundarijasi.
4. Avestoshunoslik tarixi.
5. "Avesto" ning adabiy qimmati.

"Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobidir. Zardushtiylikning kurtaklari ibtidoiy jamoa davrida vujudga keldi. Zardushtiylik dini quldorlik va ilk feodalizm davrida Markaziy Osiyo, Eron va Ozarbayjonda asosiy diniy e'tiqodlardan biri sifatida keng tarqaldi. Bu din sinfiy jamiyatda, ibtidoiy jamoa davridagi ayrim demokratik elementlarni saqlab kelgan bo`lishiga qaramay quldorlar va feodallarning dunyoqarashi va manfaatlarini ifodaladi. Arab bosqinchilari istilosi (VII-VIII asrlar) dan so`ng ham zardushtiylik dini bir muncha vaqt saqlanib qoldi.

"Avesto" zardushtiylikning muqaddas kitobi bo`lishi bilan birga u uzoq asrlarning tarixi, iqtisodiy-ijtimoiy hayoti, madaniyati, tili, yozuvi va xalq og`zaki ijodining muhim yodgorligi sifatida qadimgi Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron va boshqa mamlakatlarni o`rganishda nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

Olimlar o`rtasida bir-biriga qarama-qarshi ikki xil qarash bor. Bu qarashlarning biri zardushtiylik. Midiyadan tarqalgan deb hisoblovchi "G`arbiy" nazariya bo`lib, ikkinchisi - zardushtiylik Markaziy Osiyoda paydo bo`lgan degan "Sharqiy" nazariyadir. O`tmishning va hozirgi davrning ko`pchilik sharqshunoslari "Sharqiy" nazariya tarafdoridirlar.

An'anaviy ma'lumotlarga qaraganda "Avesto" eramizdan avvalgi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan. Unga zardusht asos solgan. Biroq zardushtning tarixiy shaxs bo`lgan va bo`lmaganligi ma'lum emas. Qo`limizda buni tasdiqlovchi tarixiy manba bo`lmagani kabi rad qiluvchi manba ham yo`q. Lekin

"Avesto" ning yaratilishini bir kishiga bog`lab qo`yib bo`lmaydi. U uzoq davrning mahsuli bo`lib, davrlar davomida qayta-qayta ishlangan.

Avestoning ilmiy-adabiy qiymati

«Avesto»ning tarkibiy qismlari va mohiyati

Sharqshunoslar orasida «Avesto»ning yaratilishi haqida turli fikrlar mavjud: ularning ayrimlari yodgorlik tarkibidagi eng ko`hna madhiyalari, miflar va mifologik obrazlarga suyanib, uning dastlabki qismlari miloddan oldingi IX asrlarda yaratilgan, degan xulosaga kelishgan. Ular ba'zi matn va madhiyalar yakkaxudolik e'tiqodi paydo bo`la boshlagan ilk paytlarda kohinlar tomonidan yaratilib, keyinchalik, «Avesto»ni tuzganlar ulardan ham foydalanganlar, deb uqtirishadi, bir guruh avestoshunoslar kitobning yozila boshlashini bevosita Zardo`shtning Sablon tog`ida kechgan hayoti bilan bog`laydilar va bunda hotlar asosan payg`ambar she'rlaridan tashkil topganiga suyanadilar. «Avesto» Zardo`sht tomonidan yozilib, to`planib bo`lgach, eramizdan oldingi YII asrning oxiri va YI asrning birinchi yarmida maxsus kotiblar tomonidan 12 ming ho`kiz terisiga oltin suvi bilan ko`chirilgan. U 21 nask (kitob)dan iborat bo`lgan. Bu haqda «Tarixi Bal'amiy»da ham aniq ma'lumotlar mavjud. Makedoniyalik Aleksandr (Iskandar) Eronni bosib olgach, «Avesto»ning Eron podsholari xazinasida saqlanayotgan eng nodir nusxalarining o`ziga kerakli joylarini tarjima qildirib olib, qolganini yoqtirib yuboradi. Sosoniylar sulolasining dastlabki podshosi Ardasher Bobokon Xirbadan nomli donishmandga «Avesto»ni qayta tiklash vazifasini topshiradi. U bir qancha zardushtiy ulamolar bilan hamkorlikda obidani qayta yozib olib, yangidan tartib beradi. «Avesto»dagi tushunchalar botiniy hamda zohiriy ma'nolarga molik bo`lib, oddiy ibodatchi ulun tushunarsiz bo`lgan. Shuning uchun ijro va qiroat oldidan madhiya va matnlarni maxsus ulamolar izohlab, tushuntirib borishgan. Natijada bir guruh sharhchilar, bir silsila «Avesto» sharhlari vujudga kelgan. Yodgorlikning birinchi kitobi tabdilchi va nashrga tayyorlovchi Jalil Do`sthoxning muqaddimasi, ustoz Ibrohim Purdovudning batafsil tadqiqoti, qisqartmalar ko`rsatkichidan tashqari, Yasna, Yasht, Visparadlardan tashkil topgan. Bu bo`limlar ayni paytda turli nomdagi ichki qismlarga ham bo`linadi. Ikkinchi jild esa Visparadning davomi, Xorda Avesto, Vendidotlardan iborat. Ushbu kitobning katta qismini izohlar, turli sharhlar, batafsil ko`rsatkichlar tashkil etadi. Har ikki jild ham «Avesto» matnining hozirgi fors tilidagi nasri tabdilidir. Ammo juda ko`p o`rinlar shu darajada shoirona tavsiflanganki, o`qigan odam nazm huzurini topadi.

«Avesto»da zardo`shtiylik dinining qonun-qoidalari, farz va sunnatlar, Yazdoni pokning yakkayu yagona yaratuvchilik qudrati tarifiyu madhi bilan birga ijtimoiy hayot, turli ijtimoiy tabaqalar, moddiy olam, har xil kasb sohiblarining hayotda tutgan o`rni, dunyo va insonning nokomilligi, mavjud tuzum tartib-nizomlari, ularning musbat va manfiy tomonlari, mazda-parastlikning mutlaq moya bilan bog`liqligi va boshqa ko`p masalalar xususida falsafiy mushohadalar yuritiladi.

Shuningdek xotin-qizlar haq-huquqini e'zozlash, oila daxlsizligi va mustahkamligiga erishish, ota-onaning farzand oldidagi, farzandlarning ota-ona nazdidagi burchi, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlash xususida ham ibratomuz fikrlar mavjud.

Ma'lumki, mazdaparastlik diniga Zardo`sht asos soldi. U budparastlik, ashyoparastigu devparastlikka, ko`p xudolik, uning kasofati o`laroq hukm surgan johiliyatga qarshi uzoq davom etgan kurash natijasida paydo bo`ldi. Zardo`sht Axuramazdadan vahiy kelib, xalq orasida yangi dinga da'vatni boshlab yuborar ekan, o`zining ta'limotida «Andeshayi nek» (eng avvalo pok e'tiqod), «Guftori nek» (to`g`ri rost so`z), «Kirdori nek» (yaxshi amal)ka suyanadi. Demak, zardo`shtiylikda bosh masala e'tiqodda sobitlik, rost qavilligu halolu fidoyilik. Zardo`sht ta'limoti kishilarni faqat diniy ahkomlarni o`rganib, ibodat bilangina shug`ullanishga, go`shanishinlikka da'vat etmaydi. Aksincha, uning aqidalari kishilarni faollikka, yaratuvchilikka, «nokomil dunyo»ni takomillashtirish uchun intilishga, kurashishga undaydi.

U ruhiyatda Tangrini asrab, tilda ibodat qilib, yerga ikki qo`llab ishlov berish lozim, chorvani ko`paytirib, bog`lar o`stirish zarurligini qayta-qayta uqtiradi. Insonning yashashdan maqsadi metindek e'tiqodli bo`lib, yurtni obod, elni farovon, turli qavmlarning bir-biri bilan do`st, inoq bo`lib yashashini ta'minlashdan iborat bo`lmog`i zarur. Shuning uchun ham «cho`lga suv chiqazib, yerning sho`rini yuvib, zahini qochirib, yerga ishlov berganlar» eng mo`'tabar insonlar hisoblanadi. Hatto podshoh Jamshid Tangri buyrug`i bilan eng qattiq sovuqlarda odamlarni

asrash uchun yer ostida shahar qurgan. Barcha avestoshunoslar Zardo`shtni Sharq falsafiy tafakkuriga axloq kategoriyasini olib kirgan deyishadi.Shuning uchun ham ular Zardo`shtning «Amudaryoning suvi buyuk, qanchalik pok va shirin bo`lsa, bizning din ham shunchalik buyuk va pokizadir» degan so`zlarini ko`pincha iqtibos qilib keltiradilar. Garchi hot va yashtlarni asosan Zardo`sht madhiyalari, Yazdon bilan savol-javobi—me'roj voqealari tashkil qilsa ham, unda payg`ambarning ijtimoiy kelib chiqishi, ota-onasi, farzandlari, murakkab sarguzashtlariyu Sablon tog`idagi chashma bo`yida vahiy kelishi, farishtalar Xurdod va Amrdod, yangi dinni birinchi bo`lib qabul qilgan. Madiyunmohlarning Zardo`sht shaxsning shakllanishidagi o`rni xususida noyob dalillar mavjud. Shuningdek, ushbu qismlarda quyosh, oy, yulduz, ularning harakati, joylashishi, tanosibi, oyning 15 kun davomida kichrayib borishi qonuniyatlari haqidagi fikrlar hiyla maroqlidir. Alohida yashtlarda el, yurt posbonlari, mollarni qaroqchilar, devlardan himoya etuvchi jasur o`g`lonlar madh etiladi.

Eng muhimi shundaki, bu qismlar deyarli boshidan oxirigacha xalq og`zaki ijodi unsurlari va timsollari bilan qorishib, ziynatlanib boradi. «Hayot ildizi» hisoblanmish mo`'jizaviy sharbat Xum, ilohiy kuch va qudrat sohiblari Mitra, Anaxita, Osha, Bahrom, Qayumars, Jamshid, Gershasp va boshqa mifologik timsollar haqidagi tafsilotlarning har biri o`nlab sahifalarni tashkil qiladi. Birgina Ardvisura, Anaxita haqidagi parchalarni bir-biriga bog`lab, uzviylikda o`qilsa, xalqning beqiyos ayol bahodiri haqidagi bir qissani eslatadi. Ayni paytda zikr etilgan bo`limlarda Qo`hna Sharq xronikalarida tilga olinib, keyinchalik badiiy adabiyotda, tarixiy shaxslar, shahonshohlar, ayrim sulolalar haqida ham noyob ma'lumotlar sochilib yotibdi. Hatto turonlik bahodirlardan Garsivaz va Ag`rireslar haqida ham aniq dalillar mavjud.

«Vendidod»da bevosita zardo`shtiylik dini udumlari, marosimlari, ular paytida o`qiladigan matn keng o`rin olgan, savol-javob jarayonida tushuntirilib, izohlanib borilgan. Garchi bu masalalar Zardo`shtning savoli va Yazdoning javobi sifatida bayon etilsa ham, hammasining asl moyasi Tangri ekanligi sharhlarda puxta idrok etilib, to`liq izohlab beriladi. Shuningdek, ushbu qism Movaraunnaxr, Xuroson va Eron xalqlarining miloddan bir necha asr oldingi tarixi, jo`g`rofiyasi, dehqonchilik, bog`dorchilik, chorvachilik, xunarmandchilik, binokorlik, maktab, madrasa, xususiy ta'lim tarixini o`rganishda alohida qimmatga va ahamiyatga ega. Ta'lim va tarbiyaning hayotiy mohiyati, muallim-ustozlarning jamiyat ma'naviy qiyofasini belgilashdagi, inson kamolotidagi o`rni xususidagi mulohazalar ham diqqatga molik. Ayniqsa, tabobatning nazariy va amaliy jihatlari, tabiatni g`orat qilmaslik, atrof-muhitni muhofaza qilish, turmush ozodaligi, shaxsiy poklik va halollik , halol bilan haromning farqiga borish, butun jamiyatning gigienik holatini saqlash borasida qilinadigan ishlar va bajarilishi lozim bo`lgan vazifalar xususidagi fikrlar hamon qimmatini saqlab kelmoqda.

Avestoshunoslik tarixi

Bu nodir yodgorlik XYIII asrda ilm-fan ahliga yaqindan ma'lum bo`la boshlaydi. 1729 yili ingliz olimi Jorj Bauje «Avesto»ning bir necha qismi qo`lyozmalarini Janubiy Hindistondagi zardo`shtiy ulamolaridan qo`lga kiritib, Oksford kolleji kutubxonasiga topshiradi. Shundan so`ng 15 yilga yaqin Hindistondagi mazdaparastlar orasida yurib, ularning urf-odati va tilini o`rgangan Anketil Dyupperron «Avesto» alfavitini tiklaydi va 1771 yili obidaning bir qismini frantsuz tiliga tarjima qilib, so`zboshi va asl matni bilan e'lon qiladi. Natijada, G`arbiy Yevropada «Avesto»ga qiziqish yanada kuchayadi va fanda «avestoshunoslik» yo`nalishi paydo bo`ladi. Garchi A.Dyuperron tadqiqoti va tarjimasi ko`plab munozaralari bahslarga sabab bo`lgan esa-da, uni «Avestoshunoslik»ning kashshofi sifatida tan oldilar. Ana shu tarjima asosida keyinchalik nemis, ingliz hamda frantsuz tillarida ushbu yodgorlikning diniy, falsafiy, tarixiy mohiyatini ochishda «Zardushtning hayot yo`li, nizomi, da'vatlari hamda asarlari» (1778-1779) kitobi alohida ahamiyatga ega. Zardo`shtiylikning tub mohiyati va braxmanlik bilan umumiy jihatlarini aniqlab, ishonarli dalillar asosida tushuntirib bergan muallif islom dini bilan Zardo`shtiylik orasida umumiy jihatlar mavjudligiga olimlar diqqatini jalb etgan. Barcha avestoshunoslar A.Dyuperroning xizmatlarini e'tirof etib, u nashr etgan matnga suyanadilar.

Jumladan, Silvester Desasi Sosoniylar davri qoyatosh bitiklari tilini o`rganib, «Avesto»ning pahlaviy tilidagi sharhlari bilan tanishgach, A.Dyuperron iqtidoriga yuqori baho beradi.

Bu tadqiqotlarda bir tomondan, katta mintaqani qamrab olgan zardo`shtiylik dini haqiqatdan ham yakkaxudolikka asoslangan e'tiqod ekanligi keng tahlil etilsa, ikkinchi tomondan, yodgorlik tilining grammmatik xususiyatlari ilk bor ilmiy jihatdan puxta tekshiriladi. Keyinchalik Bopp, Jolli, Garda, Jakinalarning «Avesto» tilining fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari tadqiqiga doir asarlari chop etildi.

Vinleshman o`zining mashhur «Zardo`shtiylik tajribalari» nomli tadqiqotida Mitra, Anaxita haqidagi miflarni hind eposi bilan solishtirar ekan, Byurnufning qiyosiy-tipologik usuli naqadar ilmiy asoslanganligini yana bir bor ta'kidlagan. Shunday qilib, G`arbiy Yevropa sharqshunosligida «Avesto» mohiyati xususida ikki yo`nalish paydo bo`ladi: ayrim olimlar «Avesto» bilan «Ved»larning ildizi bir, ulardagi miflarning o`xshashligi shunday xulosa chiqarish huquqini beradi deyishsa, ikkinchi guruh olimlar bunga qarshi fikr bildirib, har ikki yodgorlik boshqa-boshqa zaminda vujudga kelganligi uchun, ularning mohiyatida jiddiy tafovutlar bor, shu bois «Ved»ni ham, «Avesto»ni ham o`ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib o`rganish va baholash lozim, deydilar. «Avesto»ning keyingi to`laroq tarjimalari va ular asosidagi tadqiqotlar ikkinchi yo`nalish tarafdorlarining fikrlari to`g`riligini tasdiqladi.

G`arbiy Yevropada «Avesto»ning o`rganilishi va tarqalishiga katta hissa qo`shgan olimlardan yana biri Oksford universitetining professori Maks Myullerdir. Uning tashabbusi hamda shaxsiy ishtiroki bilan 1879-1904 yillari ingliz tilida 49 jildlik «Sharqning muqaddas kitoblari» nashr qilindi. Shu silsilaning 1, 23, 31-jildlari «Avesto» matnlaridan tuzilgan. Ulardan «Vendidod», «Zend», «Avesto»ning bir qismini (1 jild, 1880, 23 jild, 1883) M.Darmsteter tarjima qilgan: «Zed Avesto»ning uchinchi qismi hamda Yasht, Hot, Visparadni L.G.Mills tarjima qilgan (31-jild, 1984). Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Darmsteter «Avesto»ning tanqidiy matnini tuzish, ingliz va frantsuz tillariga tarjima qilishdan tashqari, yodgorlikning adabiy qimmati xususida birqancha ilmiy tadqiqotlar muallifi hamdir. Ularning bir qismi keyinchalik «Eron lavhalari» (1888) kitobida jamlangan. Uning mehnatlari tufayli avestoshunoslik yangi pog`onaga ko`tarildi va keyingi avlod tadqiqotchilari uchun mutahkam taxkursi yaratdi,

XX asrning boshlaridagi avestoshunoslik taraqqiyoti bevosita Xristian Bartalame (1855-1925) faoliyati bilan chambarchas bog`liq. Xristian Bartalame «Avesto»ning tarjimalari asl matni va u haqidagi tadqiqotlarni 30 yil davomida o`rganib chiqib, pahlaviy yozuvidagi yodgorlik tilini puxta o`zlashtiradi: «Avesto»ning tili xususida bir qancha maqolalar yozadi. Va nihoyat, 1888 yili «Qadimgi eron tili lug`atini» chop ettiradi. Hotlarni tarjima qiladi. Bartalame lug`atidan foydalanib F. Volf «Avesto»ni mukammal tarjima qiladi va uni 1876 yili Strasburgda chop ettiradi. Keyingi yillardagi barcha avestoshunoslar o`z tadqiqotlarida ana shu ikki manbaga asoslanishgan va asoslanmoqda.

M. Boyis o`zining «Zardo`shtiylar» nomli kitobida zardo`shtiylik diniga qadar hozirgi Yaqin va O`rta Sharqdagi kultlarga keng to`xtalgan, bu ta'limotning nazariy asoslarini keng tushuntirgan. Tangri Yazdon yaratgan yetti xudo nomlarini maxsu izohlab, ular faoliyatining Axuramazda qudrati bilan bog`liqligini tushuntirgan. Kitobda zardo`shtiylikning paydo bo`lishidan zamonamizgacha bo`lgan tarixi tadrijiy tarzda bayon etilgan. Ammo tadqiqotchining «Zardo`shtiylikning vatani Volga bo`ylarida bo`lishi kerak» degan farazi bahslidir vaholanki, «Avesto»dagi dalillar Zardo`shtning vatani Movarounnahr ekanligini tasdiqlaydi.

Tehronlik olim Abdulazim Rizoniy o`zining «Eroniylarning asl nasabi va qadimgi dinlar» (1996) risolasida pahlaviy tilida yodnomalar, Beustun bitiklari hamda «Avesto»dagi dalillarga suyanib, zardo`shtiylik dinining paydo bo`lishi, «Avesto»ning mohiyatini xolis va teran tadqiq etgan. Muallif zardo`shtiylikda jannat va do`zax talqini, bayram va boshqa udumlar falsafasi, Tangrining 101 nomi, oila va nikoh masalasi, o`limdan keyingi hayot, gunoh va savob singari ko`plab muammolarni «Hotlar» hamda «Visparad»lardagi dalillar asosida nuktadonlik bilan tahlil qilgan. «Avesto»dan olingan misollardagi so`z va iboralarni keng sharxlagan olim zardo`shtiylikning boshqa dinlarga ta'siri haqida ham asosli fikr yuritgan.

A.A.Freyman, Ye.E.Bertels, V.V.Struve, I.M.Dyakonov, B.G`.G`ofurov, I.G.Alievlar ham «Avesto»ni o`rganish, tarjima qilishga munosib ulush qo`shgan: I,M.Dyakonov mug`lar (zardo`shtiylar)ning asl vatani O`rta Osiyo ekanligini aniqlagan A.A.Freymen yodgorlikning

ayrim qismlarini rus tilida yangi tarjimasini yaratdi. Ba'zi so`z, atama, iboralarni to`la va to`g`ri izohladi Ye.E. Bertels esa, yodgorlikning adabiy qiymatini birinchilardan bo`lib chuqur tahlil qildi, uning mifologik mazmunini va qismlarining asl botiniy ma'nosini to`g`ri tushuntirdi B.G`. G`ofurov «Avesto»ning Movarounnahr va Xuroson xalqlari tarixini o`rganishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor berdi. Muallifning «Tojiklar» (1972) kitobida «Avesto» tahliliga doir fasl mavjud. Unda muallif Movarounnahr va Xuroson xalqlari tarixini, davlatchiligi tarixini o`rganishda «Avesto»ning ahamiyati, o`sha davrdagi ma'naviy hayot ravnaqi masalasini maxsus tahlil qilgan.
I.S.Braginskiy «Tojik xalq she'riyati tarixidan» (1956) kitobiga «Vendidod» hamda «Yasht»lardan bir qancha qismlarini tarjima qilib kiritgan va ularning batafsil tahlilini bergan. Zardo`sht she'riyatining o`ziga xos jihatlarini ko`rsatishga intilgan. Olim «Avesto»dagi miflarning zamini O`rta Osiyo ekanligini asoslab, quyosh, ot, mol va boshqa kultlar bu mintaqa xalqlari og`zaki ijodida hamon davom etib kelayotganligini aniq misollar bilan ko`rsatgan. V.V.Struvening avestoshunoslikdagi xizmati shundaki, u zardo`shitiylik dinining O`rta Osiyo xalqlari qadimgi ajdodlar ma'naviy taraqqiyotidagi o`rni va rolini to`g`ri va xolis ko`rsatgan.
A.O.Makovenskiyning «Avesto» (Baku, 1961) kitobi 9 bobdan tashkil topgan bo`lib, risolaning dastlabki sahifalarida «Avesto» ning geografik qimmati, yodgorlikning kosmogonik hamda astronomik ahamiyati tekshirilgan. Risolaning Zardo`sht hayoti, dunyoqarashi, «Avesto» yaratilgan davrda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy ahvoli masalalari avestoshunoslik tarixi hamda astronomiyaga bag`ishlangan boblari ham tahlilning chuqurlig`i, dallilarning boyligi bilan e'tiborni tortadi. Bundan tashqari, Ye.Valentinovaning «Poisk» jurnalining 1990 yil 7-sonida e'lon qilingan «Rodina Zaratustra» maqolasi ham yangi dalil va ma'lumotlarga boyligi bilan kishi diqqatini o`ziga jalb etadi.
Zardo`shtning vatani, «Avesto» yaratilishi, ko`chirilishi, dunyoga tarqalishi, tarkibiy qismlari haqida diqqatga molik fikrlarni bayon etgan olima Janubiy Hindistondagi zardo`shtiylik dinini saqlab qolgan uch yuz ming eroniylar haqida, ularning ilmiy markazi-Koma tadqiqoti instituti haqida ma'lumot bergan.
«Avesto» va adabiyot
Deyarli barcha muqaddas diniy kitoblar ilohiy ahkomlar qomusi bo`lishi bilan birga ma'lum ma'noda o`sha xalq (yoki xalqlarning) badiiy tafakkuri sarchashmalaridan biri ham hisoblanadi. Zeroki, bunday obidalarda diniy-nazariy asoslar, qoidalar, pandlar, da'vatu murojaatlarning asl reshasi eng qadimiy og`zaki ijodga borib taqaladigan asotir, rivoyat, naqllar bilan ziynatlanib boradi, qorishib ketadi.
«Avesto»ning biz mutolaa qilgan forsiy matnda ham ana shu xususiyat yaqqol ko`zga tashlanadi. Dastlab shuni ta'kidlash lozimki, bu yozuv yodgorligining nisbatan eng qadimiy qismi «Vendidod»ga ham, bevosita Zardo`sht she'rlaridan iborat Yasht, hotlarda ham Movarounnahr, Xuroson va Eron xalqlarining eng qadimgi asotirlari –Mitra, Anaxita Ardvisura, Varaxrana, Osha va boshqalar xususidagi miflarning mazmunlari, Qayumars (gava Marta), Jamshid (Yima) sarguzushtlari, turli munosabatlar bilan zikr etilgan Mitra haqidagi she'riy parchalarni (uni shartli ravishda «qasida» deb ham yuritishadi) bir-biriga mantiqiy izchillikda sinchkovlik bilan o`qib, kuzatilsa, u ixcham bir dostonni eslatadi. Chunki unda Mitra qo`sh otli aravasida goh el yurtni balo-qazolar, g`animlardan himoya qilib, chinakam vatanparvarlik namunasini ko`rsatsa, goh insoniyatga ofat keltiradigan Axrimanni mahv etadi. She'rlarda, bir tomondan Mitra ana shunday qudrat sohibi sifatida ta'rif etilsa, ikkinchi tomondan, u nur, hayot, yaxshilik, unib-o`sish, taraqqiyot, yaxshi xulq, yaxshi kirdor homiysi sifatida madh etiladi. Ularda xalq og`zaki ijodiga xos g`ulu (o`ta, aql bovar qilmaydigan mubolag`a), o`xshatish, sifatlash kabi san'atlardan ko`p va xo`p foydalanilgan. Forsiy matn nasriy bayon bo`lgani uchun biz Mitra qasidasidan shoir Asqar Mahkamning ruschadan o`girmasidan bir misol keltirish bilan chegaralanamiz:

Epchillardan epchilroq Mitra
Ahli saxo ichida mumtoz
Dovyuraklar ichida sherdil,
Jasurlardan jasoratliroq,
Yashnatadir, gurkiratadir,

To`kinliklar yaratuvgug`chidir,
Ko`rkam hayot ayladi in'om,
Haqiqatga hokimlikni ham.
(«San'at», 1991, 6-son, 24-bet)

Ayrim sharqshunoslar, jumladan, Rizoiy, Bahroniy, Meri Boyslar «Avesto» tarkibidagi «bir milion she'r» (Pliniy)ning barchasi bevosita Zardo`sht qalamiga mansub deyishsa, A.Makovelskiy ularning bir qismi ancha qadimiy xalq ijodi mevasi, degan fikrni bayon etgan. Ammo barcha avestoshunoslar bu she'rlar og`zaki ijod sarchashmalari zaminida vujudga kelganligini e'tirof etib, ular barmoq vaznidagi poeziyaga o`xshash ekanligini ta'kidlaydilar. «Avesto»dagi she'rlar ko`pincha, 8-9, ba'zangina 11-12 bo`g`inli misralardan tarkib topgan. Madhiyalarning tasvir usuli haqida shuni aytish kerakki, deyarli barcha holatlarda yakka tangri Axuramazdani «ikki jahonning yaratuvchisi va asrguvchisi» sifatida rang-barang vositalar, nomlar (tangrining nomi 106 ta) orqali ta'rif tavsif etish, Yazdonga sodiqlik, fidoiylikni izhor etish yetakchidir. Ba'zan xitob, murojaat savol-javob usullaridan ham foydalanilganki, bu fikrning tinglovchiga, o`quvchiga tushunarli va ta'sirchan bo`lishni ta'minlagan. Har bir madhiya muayyan mazmun, qurilishiga, ibtido va intihoga ega bo`lgan, o`ziga xos bir asar hisoblanadi. Badiiy-tasviriy vositalarning o`zi bir sehrangez xosiyatga ega. Sharqshunos Abulqosim Ismoilpur «Sosoniylar davridagi musiqa va she'riyatning o`zaro hamkorligi qutlug` an'anaga ega bo`lgan poeziya zaminida vujudga kelgan edi. She'rlarning barchasida tazod, qarshilantirish usullarini ishlatish ustun turadi», -desa, boshqa tadqiqotchilar Zardo`sht asarlari «Xos she'rlar», ya'ni zardo`shtiylik ta'limoti, yakka tangri g`oyasini tushunadigan qohinlar, ulamolarga mo`ljallab yozilgan, ularning asl mohiyatini oddiy xalq anglamagan. Shuning uchun maxsus ulamolar otashkalarda qiroat va ijro oldidan madhiya mohiyatini izohlab bergan. Shu yo`sinda «Avesto sharhlari» paydo bo`lgan», -degan xulosaga kelgan. Madhiya va qasidalarda yaratuvchi xudo madhi bilan birga inson ruhiy kechinmalarining rang-barang qirralari nafis tasvirlangan. Ularda ajdodlarimizning hayot-koinot, ilohiyot, fano, vafo, sidq, faqr, rizo va ularning adosi xususidagi mulohazalari keng ifodalangan, rostlik, poklik, yaxshi ish va yaxshi xulq targ`ib etilgan. Eng muhimi bizning she'riyatimizning eng ko`xna tarixga ega ekanligini «Avesto»dagi she'rlar tasdiqlab turibdi. Yodgorlikning boshidan oxiriga qadar nur-zulmatga, mehnatsevarlik-yalqovlikka, adolat-zulmga, donishmandlik-nodonlikka, serfarzandlik-zuryodsevmaslikka, farovonlik-qashshoqlikka, obod yurt-«xaro kishvarga» qarshi qo`yilib, birinchisi madh etiladi, ta'riflanadi; ikkinchi esa, yerda hayotni qabohatga eltuvchi odat sifatida la'natlanadi. Yodgorlikda eng qo`hna miflarning mazmuni bayoni, timsollari ko`p.

Miflardagi asosiy g`oya zardo`shtiylikning bosh masalasi-yaxshi xulq, yaxshi ish va yaxshi amalni targ`ib qilishdir. Ardvisura Anaxita, Oshalarning butun faoliyati ana shu maqsadga yo`naltirilgan. Osha yer yuziga yaxshilik urug`ini sepish bilan birga xotin-qizlar haq-huquqi, izzat-nafsini himoya qiladi, ularni «badkirdor»dan, devlar tajovuzidan asraydi, zurriyotning pokligini ta'minlaydi, yerda yaxshilik va ro`shnolikni rivojlantirishga intilib, devsiyrat nopokliklarga qarshi kurashadi: ularda zardo`shtiylikning sulhu amniyat, kishvar va el taraqqiyoti, insonlarni g`ayritabiiy kuchlar, ofatlardan himoya qilish singari yetakchi g`oyalar mujassamlashgan. Ulardagi timsollar ham xalq qahramonlaridagidek mubolag`a va tavsiflar vositasida naql etilgan. Birgina misol: «Ardvisura Anaxita jahon pahlavonlariga xos kelbat va salobat bilan yaratuvchi Mazda xuzurida kelmoqda. Oppoq va baquvvat bilaklariyu bo`yinlaridagi taqinchoqlar ko`zni qamashtiradi. Man-man degan bahodirlarni mensimaydiganul nozanin oqila va andishalidir. Ardvisura uch yuz moda babr terisidan joma kiygan. Ona babr eng go`zal hayvon bo`lib, ko`p yung beradi, har biri to`rttadan tug`adi». Umuman, asotirlarda Osha va Ardvisuralar yaxshilik ramzi sifatida gavdalanadi.

Tasvir va bayonda rang-barang o`xshatishlardan foyda-lanilgan. Masalan, yaxshi ishlov berilgan serhosil yer eriga tezroq farzand tug`ib beradigan kelinchakka o`xshatiladi. Yoki bug`doy xirmoni qancha yuksalsa, devning xalokati shuncha tezlashadi. Zardo`shtiylik dini, eng ulkan va suvi chuchuk Amudaryoga o`xshatiladi. Ko`pchilik manbalardagi ma'naviy ma'lumotlariga qaraganda "Avesto" 21 Nask - kitob (qism) lardan iborat. "Avesto" yodgorligining eng

qadimgi nusxasi 1324 yilda ko`chirilgan bo`lib, u Kopengagenda saqlanadi. "Avesto" ning ayrim nusxalarida "Avesto" tilidagi tekst bilan birga pahlaviy tilidagi Sharhiy tarjimalar ham bor. Bu kitob "Avesto va Zend" yoki "Zend Avesto" deb nomlangan. "Avesto" teksti sanskrit tili (qadimgi Hind tili) ga ham Sharhiylar bilan tarjima qilingan. U ayrim Yevropa tillariga, uning necha qismi rus tiliga ham tarjima qilingan.

"Avesto" ning mundarijasi: 1- Bizgacha yetib kelgan "Avesto" nusxalari ikki variantdadir. Birinchi varianti yolg`iz "Avesto" ni o`z ichiga oladi. Ikkinchi varianti pahlaviy tilidagi Sharhli tarjimani ham o`z ichiga olib, u kitoblarga, bob va paragraflarga ajratilgan. Shu ikkinchi variant bo`yicha "Avesto" quyidagi kitob (qismlardan) iborat.

1. Vendedod. U 22 bobdan iborat bo`lib, asosan Axura Mazda bilan Zardushtning savol-javobi formasida yozilgan. Boblar turli yomon ruhlarni devlarni yengish voqealarini, gunohlardan pok bo`lish qoidalarini va qisman mifologik elementlarni o`z ichiga oladi.

2. Visparad. U 24 bobdan iborat bo`lib, ibodat qo`shiqlarini o`z ichiga oladi.

3. Yasna. U 72 bobdan iborat bo`lib, qurbonlik chiqarish marosimlarida aytiladigan qo`shiqlarni, xudolar madhiyasini va boshqa diniy marosimlarga xos rasm-rusumlarni o`z ichiga oladi.Uning 17 bobi hotlar- gimnlar deb atalgan. Bu boblar "Avesto"ning eng qadimgi qismlaridir.

4. Yasht. U zardushtiylik xudolari va ma'budalari madhiyasiga atalgan 22 qo`shiqni o`z ichiga oladi. Shu bilan birga " Yasht"da mifologik elementlar "Avesto"ning boshqa qismlaridagiga nisbatan xiyla ko`proqdir.

5. Kichik "Avesto" (Xurda Avesto,Xvartak-Apastak) u Quyosh,Oy, Ardviura, Vaxran va boshqa xudo va ma'budalar sharafiga aytilgan kichik ibodat tekstlarini o`z ichiga oladi.

"Avesto" qadimgi Eron tillari gruppasidagi tillarning qadimgi yodgorliklaridandir. Lekin bu til o`lik til va ibodat tili bo`lib qolgan.

"Avesto" yozuvi ham Oromiy yozuvi asosida paydo bo`lgan qadimgi yozuvlardan bo`lib, keyinchalik o`lik bir yozuvga aylandi. Keyinchalik pahlaviy va boshqa yozuvlarda ko`chirildi.

"Avesto" diniy kitob bo`lib, ekspluatatorning dunyoqarashi va manfaatlarini ifodalaydi. Unda yakka Xudo Axura Mazda kulti ham yagona Shoh g`oyasiga muvofiqdir. "Avesto" jannat haqidagi va'dalari bilan mehnatkashlarni ovuntiradi. Biroq shunga qaramay "Avesto" da mehnat ahlining orzu-umidlarini aks ettirgan o`rinlar ham bor. "Avesto" keyinchalik pahlaviy yozuvi va boshqa yozuvlar bilan ko`chiriladi. "Avesto"da "adolatli xukmdor" haqidagi g`oyalar aks etgan. Hotlarda dushmanlarga qaqshatqich zarba berib, xalqka osoyishtalik baxsh etuvchi xukmdor madxiyalanadi.

Xoma deb atalgan va o`limni yengadigan afsonaviy mevaga Bag`ishlangan hotlarda kishilar bu mevadan kuch-quvvat, hosil, mo`l-ko`lchilik va zafar; Xomilador xotinlar botir farzand berishini tilaydilar.

Vendidodning dastlabki qismlari dehqonchilik va chorvachilikka bag`ishlangan. Vendidodning birinchi bobida ikki olam (Axuramazda va Angra Manyu ) va ular o`rtasidagi kurash,Axuramazdaning 16 serhosil mamlakatni (bularning ko`pchiligi Markaziy Osiyoda ) yaratish haqidagi mif, ikkinchi bobida esa yer yuzi sathini uch barobar kengaytirib, dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirgan kishilar uchun ko`p foydali mo`'jizalar yaratgan adolatli Yima(Jamshid) haqidagi mif hikoya qilinadi. Uchinchi bobda dehqonchilik madx etiladi.U muqaddas va sharafli mehnat deb targ`ib qilinadi.

"Avesto" da xikoya qilinishicha, Zardusht Axuramazdadan shodlik va baxt makoni qaerda ekanligini so`raydi.Axura Mazda o`z javobida:U shunday joyki, kishilar unda uy-joy quradilar. Tashkadalar (ibodatxonalar) bino etadilar. Dehqonchilik va chorvachilik bilan shug`ullanib bola-chaqali bo`ladilar;men har
ikkala qo`li bilan fidokorona mehnat qiluvchi kishini qo`llayman, deydi. Mehnat-dehqonchilik "Avesto"da Angra Manyu va ko`p sonli devlarga qarshi kurashning ham asosiy vositasi va g`alaba tayanchi deb ta'riflanadi."G`alla yerdan unib chiqqanda,-deyiladi "Avesto"da,-devlar larzaga keladi, g`alla o`rib olinayotganda devlar nola-faryod

chekadi, g`alla yanchib(un) qili-nayotganda ular qocha boshlaydi,hamir qilinganda esa devlar maxv bo`ladi...

G`allaning mo`l-ko`l bo`lishi go`yo devlarning labiga qizitilgan temir bosgandek ularni tum-taraqay qiladi... Kitobning bu o`rinlari kishilarni mehnatga da'vat etadi. Shunday qilib "Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo`lib mehnatkash ommaning orzu-tilaklarini ham ma'lum darajada aks ettirgan edi. Shuning uchun ham bu kitob jaxon fanini taraqqiy ettirishda munosib hissi qo`shgan, progressiv ahamiyatga ega bo`lgan kitobdir.

"Avesto" Markaziy Osiyoning,ayniqsa O`zbekistonning, eng qadimgi davrini, uning bir butun tarixini,tilini , adabiyotini, yozuvini va madaniyatini yaqqol ko`rsatib beruvchi yagona yozma yodgorlikdir.

"Avesto"da qadimgi O`rta Osiyo, Eron va Ozarbayjonning tarixi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, geografiyasi va tabiati, ilm-fani, etnografiyasi va hokazolar bilan tanishtiruvchi manba sifatida jamoa tuzimi ham, quldorlik va tug`ilib kelayotgan feodal munosabatlari ham qisman bayon etiladi. "Avesto" madaniy hayotning turli sohalariga doir, chunonchi, qadimgi meditsina, astronomiya, kosmogoniya va falsafaga doir ma'lumotlar beradi. "Avesto" ning adabiy qimmati: "Avesto" ma'lum darajada adabiy yodgorlik hamdir. Unda badiiy til vositasi, obrazli so`zlar xiyla ko`p ishlatilgan bo`lishdan tashqari, u qadimgi og`zaki adabiyot yodgorliklarini to`plagan bir manbadir. Unda Qayumars, Yima, Gershasp, Arjasp va boshqa mif va afsonalar hikoya qilinadi. Uning ancha qismi ( asosan "Hotlar" va "Yasht") she'r bilan bitilgan. She'riy misralar hijolarining ko`pincha 8 (ba'zan 10-12) hijoli misralardan tarkib topgan.

Shunday qilib "Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo`lishi bilan birga eng qadimgi davrlarning tarixi, tili, yozuvi, madaniyati va adabiyoti hamdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

Zardo`shtiylik dini qanday kelib chiqqan?

«Avesto»ning tarkibiy qismlari va mohiyati nimadan iborat?

«Avesto» diniy kitobi haqida jahon sharqshunoslarining fikri qanday?

«Avesto» diniy kitobining adabiyotga munosabatini so`zlang.

Tayanch iboralar.

1.Zardusht.
2."Avesto"
3.Vendidod.
4.Visparad.
5.Yasna.
6.Yasht.
7.Kichik Avesto.

M a t n l a r

1. Mahmud Qoshg`ariy. Devonu lug`atit turk. 3 tomlik. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutalibov, «Fan» nashriyoti. Toshkent, 1960-1963 y.

2. Kadimiy hikmatlar. G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1987 y.

Z a r u r i y a d a b i yo t l a r

1. Mallaev N.M. O`zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob, Toshkent, 1976 y. "O`qituvchi" nashriyoti, 66-78 betlar.

2. O`zbek adabiyoti tarixi. 1-jild. Toshkent, "Fan" nashriyoti 1978 y. 65-79 betlar.

3 . Malov Ye.S. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. Izd-vo AN SSSR M-L-1951 g.

4. Gumilyov L.N, Drevnie tyurki. M. Izd-vo "Nauka", 1967 g.

5. Steblva I.V. Poeziya tyurkov XI-XIII vekov. "Nauka", M-1965

6. Qayumov A.P. Qadimiyat obidalari. Toshkent, 1973 y.

7. "Avesto". "Nafosat" - san'at jurnali. 3-4 sonlar. 1991y.
8. Ye.Berezikov. "Zardusht tug`ilgan diyor" "Yoshlik" jurnali 8-son 1991 y. 28-32-betlar.
9.Y.Jumaboev. Zardushtiylik kitobi. "Fan va turmush". 12-son, 1990 y.

1.5 O`rxun - Enasoy yodgorliklari

R Ye J A

1. O`rxun - Enasoy yodgorliklarining turkiy tildagi eng qadimgi yodgorlik ekanligi.
2. O`rxun - Enasoy yodgorliklarining kashf qilinishi.
3. O`rxun - Enasoy yodgorliklarining til xususiyatlari.
4. O`rxun - Enasoy yodgorliklarining adabiy qimmati.

Markaziy Osiyoda turkiy halqlarinig turmushi va adabiy merosi bilan tanishishda O`rxun va Enasoy daryolari yoqasida topilgan yodgorliklarning ahamiyati kattadir. Ular toshga o`yib yozilgan adabiy-tarixiy lavhalardan iborat bo`lib, VI-VII asrlarga oiddir. Ularni turk runiy yozuvlari deb ham yuritiladi.

Ma'lumki,VII asrning oxirgi choragidan boshlab, Markaziy Osiyoni arab istilochilari zabt eta boshladilar. Bungacha VI asrning o`rtalaridan o`rnatilgan turk qoonlarining xokimiyati Markaziy Osiyo yerida ham mavjud edi. Bu xokimiyat unga yaqin alohida mahalliy hukmronlarning siyosiy uyushmasidan iborat bo`lgan O`rxun-Enasoy yodgorliklaridan ayrimlari ana shu xukmronlardan Bilga koon (734 yilda vafot etgan) va uning ukasi Kul-Teginlarning (732 yili vafot etgan) qabriga o`rnatilgan toshlardagi yozuvlardir.

Enasoy daryosi havzasidagi run yozuvi yodgorliklari XVIII asrning boshlaridayoq rus xizmatchisi Remezov xabari va so`ngra Shved ofitseri Iogan Stralengberg va olim Messer Shmidt asaridagi ma'lumotlar orqali ilm-fanga ma'lum bo`lgan edi. Biroq uzoq vaqt olimlar bu yodgorliklarni o`qib aniqlashga muvofiq
bo`lolmadilar. XIX asrning birinchi choragida "Sibirskiy vestnik" ("Sibir axboroti") jurnalida Grigoriy Spasskiyning Enasoy yodgorliklari haqida maqolasi bosildi. Bu maqola lotin tiliga tarjima qilindi. Yodgorliklar haqidagi ma'lumotlar ko`p mamlakatlarning olimlariga ma'lum bo`ldi. Lekin tekshirish va yozuvni o`rganish harakatlari yana natija bermadi, chunki yodgorliklarning "siri" ochilmadi.

1889 yilda Fin olimlari Enasoy yodgorliklari atlasini nashr etib, bu yodgorliklar fin madaniyatiga taalluqli deb taxmin qildilar. Biroq Fin olimlarining taxmini uzoqqa bormadi. O`sha 1889 yildayoq rus sayyohi va yozuvchisi N.M.Yadrintsev Mo`g`ilistondagi Kosho-Tsaydan vodiysidagi O`rxun daryosi bo`ylarida Enasoy yodgorliklariga o`xshash juda ko`p yodgorliklar topdi. "Noma'lum yozuv" bilan birga ayrim matnlar xitoycha belgilar bilan xitoy tilida ham yozilgan edi. Bu ham yodgorliklarning "sirini" topishga xiyla yordam berdi.

1890 yilda fin-ugor ilmiy jamiyati O`rxun daryosiga arxeologik ekspeditsiya uyushtirdi. 1891 yilda esa Rossiya fanlar akademiyasi akademik V.V.Radlov boshchiligida O`rxunga katta ekspeditsiya yuboradi. 1892 yilda bu ikki ekspeditsiyaning ish natijalari ikkita atlas holida nashr qilindi. Atlaslarda
noma'lum yozuv yodgorliklarining surati, ular topilgan joylarning plani, haritasi va boshqalar ko`rsatildi.

Yodgorliklarni birinchi bo`lib Daniya olimi Vilgelm Tomsen o`qishga muvaffaq bo`ldi. U bu yodgorliklarni o`qishda turli alfavitlarga o`zaro nisbati va o`xshashliklarini aniqlashga kirishdi. U bu yodgorliklarda bir-biriga monand bo`lmagan harflar turkumi borligini aniqladi. Bu ikkala turkumdagi harflar oldingi va keyingi qator harflari bo`lsa kerak, bu xususiyat esa turkiy tillarga xos degan taxminga keldi. Uning taxmini to`g`ri chiqdi. U dastlab "tangri", "turk" degan so`zlarni o`qib olishga erishdi.

1893 yilning 25 noyabrida deyarli barcha harflarni aniqlab yodgorlikning "siri" ni ochdi. Bu orada akademik Radlov ham 15 ga yaqin harflarni aniqlab olgan edi. V.V.Radlov V.Tomsenning o`zining kashfiyotiga tayanib, O`rxun daryosi atrofida topilgan katta yodgorliklar matnini birinchi bo`lib tarjima qildi.

N.M.Yadrintsev topgan yodgorliklar turk hoqoni Bilqa-Qoon-Mogilyon (1734 - yilda vafot etgan) va uning ukasi Kul-Tagin (732 - yilda vafot etgan) qabr toshlariga o`yib yozilgan yodgorliklar ekan. Shu vaqtdan boshlab Enasoy va O`rxun daryolari atrofidagi yodgorliklar "O`rxun-Enasoy yodgorliklari" deb atala boshladi.
Kul Tegin va Bilka-Qoon yodgorliklari.

VI asrlar o`rtasida Oltoy, Yettisuv va Markaziy Osiyodagi turli qabila va xalqlar birlashib, turk hoqonligi deb atalgan davlat vujudga keldi. Biroq, bu davlat markazlashgan davlat bo`lmay, balki o`nta turk qabilalarining federatsiyasi edi. Davlat boshida "Hoqon" va zadogonlarning kengashi - "qurultoy" turar edi. Qabila boshliqlari "Bek", yirik amaldorlar "Tagin", "Shodi" va boshqa nomlar bilan, aholi "budun" yoki "qora budun" nomi bilan yuritilar edi.

O`rxun-Enasoy yodgorliklarining ko`pi mana shunday qabr toshlari yodgorliklaridir. Bulardan Mogilyon va xususan Kul-Tagin qabr toshlari juda muhimdir.

Mogilyon so`nggi turk hoqonlaridan biri bo`lib, Bilga-Qoon o`zining davlati chegaralarini, qo`shni xalqlar bilan do`stona munosabati hamda olib borgan urush-yurishlarini va boshqalarini hikoya qiladi. U o`zini "Yo`qsul xalqni boyitgan". "Oz sonli xalqni ko`paytirgan", "adolatli" hukmron sifatida tasvirlaydi.

Kul-Tegin qabr toshi yozuvi turk hoqonligi davlatining ijtimoiy-siyosiy hayoti, qabila va xalqlarning urf-odatlari, tili va ma'lum darajada badiiy so`z san'ati bilan tanishtiradi.

O`rxun-Enasoy bitiklaridan biri Kul-Tegin qabridagi yozuvlardan iborat. Ular ikki kismdan-kichik va katta yezuvlardan tashkil topgan. Bu yozuvlarda turkiy halqlarning tarixiy kismati tug`risida muhim ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, qoonlar davlati chegaralari to`g`risida bunday deyiladi. Mazmuni:

Oldinga Shantung vorisiga qo`shin tortdim,
Dengizga ozgina qoldi.
O`ngdan "Tuko`z arsan" gacha,
Tibetga ozgina qoldi.

So`ngra avtor turklar bilan tabg`achlar o`rtasida chiqqan nizo To`g`risida xabar qiladi. Buning natijasida turkiylarning ko`pchiligi halok bo`lgan. Xalq boshiga ofat yog`ilgan. Shuning uchun yozuv avtori turkiy xalqka o`z yurti Otakenda muhim bo`lishini tavsiya etadi.

Mazmuni:

Otaken yering bo`lsa,
Faqat karvon jo`natsang.
Qayg`u-g`aming bo`lmas,
Otaken yerida tursang.

Shundan so`ng u o`zining qoonlik taxtiga o`ltirganini so`zlaydi. U o`z faoliyatini xalq turmushi bilan bog`laydi,xalq hayotini yaxshilash, xalqni to`q va quvvatli qilish yo`lidagi intilishlari to`g`risida bunday deb yozadi. Mazmuni:

Qoon bo`lgach kambag`al xalqni,
Yuksakka ko`tardim.
Kambag`al xalqni boy qildim,
Oz xalqni ko`p qildim.

Yozuvlarda Kul-Teginning ana shunday mardona harakatlari mukammal tasvirlanadi. Uning hayot yo`li o`quvchi ko`zi oldida birma-bir namoyon etiladi. Turk qoonining kichik o`g`li Kul-Tegin yetti yoshda yetim koladi. U amakisi va akasi qoonlik etgan davrda harbiy xizmatda bo`ladi. U qirq yetti yoshida vafot etadi.

Iste'dodli sarkarda inisining vafotiga muallif-qoon qattiq qayg`uradi va o`z ruhiy holatini qabr toshdagi yozuvlarda bunday bayon etadi.

Mazmuni:

Ko`rar ko`zim ko`rmas bo`ldi,

Bilar aqlim bilmas bo`ldi.
O`zim qayg`urdim,
Faqat tangri yashaydi,
Kishi o`g`li o`lmoq uchun tug`ilgan.

O`rxun - Enasoy yodgorliklarining ahamiyati

O`rxun-Enasoy yozuvidagi xotiralar V-VIII asrning juda qimmatli yodgorligidir. O`rxun-Enasoy yodgorliklariga xos leksik boylik va grammatik shakllarni qirg`iz, uyg`ur, tuva, turkman, o`zbek va boshka turkiy tillarda ko`rish mumkin. Shunga ko`ra S.Ye.Malov ta'kidlaganidek, bu yodgorliklar ko`pchilik turkiy tillar tarixini o`rganishda mushtarak bir manba sifatida ahamiyatlidir. O`rxun-Enasoy yodgorligining vujudga kelishida undan ilgari paydo bo`lgan so`g`d yozuvining ta'siri bo`lgan deb hisoblash mumkin.

O`rxun-Enasoy yodgorliklarining ma'lum badiiy qimmati ham bor. Ularda turli tarixiy vokealar bayonida ayrim lavhalar bir muncha badiiy uslubda tasvirlanadi. Badiiy til vositalari qo`llaniladi. Xususan qabr toshlaridagi "Marsiya" larning badiiy ahamiyati ko`proqdir. Shunga ko`ra S.Ye.Malov yodgorliklarni "Qabriston poeziyasi" deb atadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

Turkiy tildagi eng qadimgi yodgorlikni so`zlang.

Yodgorlikning kashf qilinganligini gapiring.

Kul Tegin va Bilga -Qoon yodgorliklari qanday yozilgan?

O`rxun-Enasoy yodgorliklarining mazmuni nimani bildiradi?

Tayanch iboralar.

O`rxun-Enasoy yodgorligi.

Kul-Tegin.

Bilga-Koon.

Vilgelm Tomsen.

Radlov.

Qabr toshdagi bitiklar mazmuni.

F O Y D A L A N I L G A N A D A B I Yo T L A R

M a t n l a r

1. Mahmud Qoshg`ariy. Devonu lug`atit turk. 3 tomlik. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutalibov, Fan nashriyoti. Toshkent, 1960-1963 y.

2. Qadimiy hikmatlar. G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1987 y.

Z a r u r i y a d a b i yo t l a r

1. Mallaev N.M. O`zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob, Toshkent, 1976 y. "O`qituvchi" nashriyoti, 66-78 betlar.

2. O`zbek adabiyoti tarixi. 7-jild. Toshkent, "Fan" nashriyoti 1978 y. 65-76 betlar.

Q o` sh i m ch a a d a b i yo t l a r

1. Malov Ye.S. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. Izd-vo AN SSSR, M-L-1951 g.

2. Gumilyov L.N. Drevnie tyurki. M., Izd-vo "Nauka", 1967 g.

3. Stebleva I.V. Poeziya tyurkov VI-XIII vekov. M., "Nauka" 1965

4. Qayumov A.P. Qadimiyat obidalari. Toshkent, 1973 y.

2-MAVZU: IX-X asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot. Islomiy adabiyot va uning umumturk adabiyotiga ta’siri

R Ye J A

1. Arab xalifaligi hukmronligining yemirilishi, hokimiyat-
ning mahalliy feodallar qo`liga o`tishi.

2. Madaniy hayot taraqqiyoti.
3. Dunyoviy ilmlarning taraqqiy etilishi.
4. Markaziy Osiyoda arab tilidagi adabiyot.
5. Turkiy tillarning rivoji va bu tildagi badiiy adabiyotlar.

X-XIII asrlar adabiyoti

X-XIII asrlar Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati taraqqiyotida katta o`rin egallagan yangi bir bosqich bo`ldi. Bu bosqichda Markaziy Osiyo madaniyati taraqqiyotining yirik va markaziy o`choqlaridan biri bo`ldi. Markaziy Osiyo olimlari jahon ilm-fanini o`z kashfiyotlari va o`lmas ilmiy asarlari bilan
boyitdilar, uning bir necha asrlik taraqqiyotiga samarali ta'sir etdilar. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo xalqlari madaniy hayotining arxitektura, tasviriy san'at, naqqoshlik, o`ymakorlik kabi boshqa sohalarida ham benihoya katta yutuqlarga erishdilar.

IX asrning ikkinchi yarmida ravnaq topa boshlagan va xususan X-XIII asrlarda mislsiz katta natijalar bergan madaniy taraqqiyot, uning shart-sharoitlari nimadan iborat.

VIII asr boshlarida Markaziy Osiyoni Arab istilochilari bosib olgan edi. Istilochilar Markaziy Osiyoning juda ko`p shahar va qishloqlarini vayron qildilar.
Ular zurlik bilan musulmonlashtirish siyosatini amalga oshi-rib Islom dinini qabul qilmagan qishilarga "g`ayri dinlik" solig`i jo`zya soldilar. Davlat ishlarida va yozuvida arab tili va yozuvini qo`llay boshladilar. Ulug` olim Beruniy O`rta Osiyoga bostirib kirgan Arab lashkarlarining boshlig`i Qutayba haqidagi "Qutayba Xorazm yozuvini bilgan, Xorazm afsonalarini saqlagan kishilarni, ularning orasida bo`lgan olimlarning hammasini turli yo`llar bilan ta'qib ostiga oldi va yo`q qilib yubordi" - deb yozgan edi. Lekin Markaziy Osiyo xalqlari bosqinchilarning zulmiga ko`nikib ketmadilar. Uzoq vaqt Islom dinini qabul qilmay, o`z diniy e'tiqodlarini davom ettirdi.
So`g`diylar, Xorazmiylar va boshqalar o`z nomlarini saqlab qoldilar. Birin ketin katta qo`zg`olonlar ko`tarildi. 722 yilda Divastich raxbarligidagi Samarqand va Panjakent qo`zg`oloni, 750-751 yilda Sharik boshchiligidagi Buxoro qo`zg`oloni, 755 yilda Sharqiy-Shimoliy Eronda Sunbod qo`zg`oloni, 776-784 yillarda Buxoro, Samarqand va Qashqadaryoda Muqanna rahbarligida davom etgan xalq harakati va boshqalar xalqning noroziligining ifodalar edi. Natijada arab xalifaligining Markaziy Osiyodagi hukmronligi yemirilib, davlat mahalliy feodal zodogonlari ixtiyoriga o`tdi: avval yirik va markazlashgan Samoniylar davlati, keyinroq esa Qora-xoniylar, Soljuqiylar va Xorazm shohlar sulolasi vujudga keldi. Yirik feodal davlatlarining vujudga kelishi feodal jamiyat taraqqiyotining ehtiyoji va ayni zamonda oqibat natijasi edi. X-XI asrdan boshlab birin ketin tojiklar, o`zbeklar, turkmanlar va O`rta Osiyoning boshqa xalqlari tashkil topa boshladi. Ayni zamonda bu xalqlarning adabiy tillari ham vujudga kela boshladi. XI-XIII asrlarda o`zbeklar elati endi Eron tillar gruppasidagi tillarda so`zlovchi aholi o`rtasida kichik-kichik to`da bo`lib emas, balki Movaroun-nahrning asosiy aholilaridan biri bo`lib yashardi. Ularning o`z mushtarak tili bor edi. Xalq tili asosida o`zbek adabiy tilining vujudga kelish jarayoni kuchaygan edi. Biroq bu davrlarda o`zbeklar "turk"(yoki ko`pincha alohida qabilalar nomi bilan), o`zbek tili esa "turkiy til" deb yuritilar edi.

Bu davrda Markaziy Osiyo xalqlarining iqtisodiy-ijti-moiy hayotida katta o`zgarishlar vujudga keldi. Feodal ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiy etdi, jamiyat rivojlangan feodalizm bosqichiga o`tdi. Bu narsa xo`jalik hayotining asosini tashkil etgan dehqonchilikda, shu bilan birga feodal shaharlarining hunarmandchilik hamda ichki va tashqi savdoning o`sishida ham ravshan ko`rinadi.

Qishloq xo`jaligining rivojlanishi hunarmandchilikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qildi. Bu davrda qaysi joyning aholisi 32 xil hunarni bilsa, o`sha yer shahar hisoblangan edi.

Shaharlarning markaziy qismida ma'muriy va diniy mahkamalar hamda boy va amaldorlarning dabdabali hovli-joylari bo`lib, ularning atrofidagi yuzlab mahallalarda kasb-

hunarmandlarning, shahar kambag`allarining uy joylari bo`lar edi. Shahar mehnatkashlari bo`zchilik, misgorlik, aravasozlik, gilam to`qish, nomat bosish, temirchilik, zargarlik, kulolchilik, degrezlik, pichoqchilik va boshqa kasblar bilan shug`ullanar edi.

Hunarmandchilikda xotin-qizlarning o`rni katta bo`lib, nafis san'at buyumlari ko`proq shularning qo`lidan chiqar edi. Shu bilan birga konchilik ham xiyla rivojlangan edi. Jumladan: Farg`onada temir, qo`rg`oshin, kumush, mis, simob, neft va boshqalar olinar edi. O`rta Osiyoning hunarmandchilik mahsulotlari chet ellarda ham shuhrat qozongan edi.

Shaharlar faqat hunarmandchilik markazigina emas, balki savdo-sotiq markazi ham edi. Ularda har xil bozorlar, karvon saroylar va boshqalar bo`lgan edi. Tarixiy manbalarning ma'lumotiga ko`ra, Buxoroda sarroflar (pul ayriboshlovchilar) bozori, kavush sotiladigan timlar, mato bozorlari, kitob
bozorlari va boshqalar bo`lgan. Ba'zi hunarmandlarning korxonalari ham xuddi mana shunday bozorlarda joylashgan edi. Markaziy Osiyo shaharlarining bunday strukturasi deyarli XX asr boshlariga qadar davom etib keldi.

Dunyoviy ilmlarning taraqqiy etishi.

Al-Xorazmiy: VIII asrning ikkinchi yarmida Xorazmda tug`ilgan. Abu Bakir Muhammad Al-Xorazmiy O`rta asrning ulug` olimi, astronom, matematik, va geografikdir. U "Zij" astronomiya jadvali, "Hind raqamlari hisob-kitobi", "Al-muxtasar fil-jabr Val-muqobala") ("Tenglama va qarshilantirish hisobi
muxtasari") "Kitobu surat al-arz" kabi mashhur asarlarni yaratdi, yer qurrasini turli iqlim va hududlarga bo`ldi, geografik kartalar tuzdi. Bir necha ekspeditsiyalarda ishtirok etdi.

Xorazmiyning "Hind raqamlari kitobi" XII asrda lotin tiliga tarjima qilingan. Xorazmiyning matematikaga doir ikkinchi bir asari "Al-muxtasar-fil jabr val muqobala" matematikani yangi soha-tenglama bilan boyitdi. Keyinchalik shu asrning nomidan olingan so`z bilan matematikaning maxsus bir sohasi "al-jabr" "algebra" deb ataldi.

Abu Nasr Farobiy: IX asrning 70 yillarida Sirdaryo bo`yidagi Farob qishlog`ida tug`ildi. Farobiylar oilasi turkiy qabiladan edi. Farobiy Bag`dodda o`qidi. Arab, grek va bir qancha tillarni mukammal o`rgandi. Falsafa, logika, astronomiya, matematika, meditsina va musiqa bilan shug`ullandi. "Sharq Arastusi" ("Sharq Aristoteli") va Aristoteldan keyin ikkinchi ustoz - "Muallimi soniy" nomlari bilan shuhrat qozondi. Farobiy Aristotelning "Metafizika", "Fizika", "Metereologiya" va boshqa asarlariga sharhlar yozdi. Farobiy "Falsafa manbalari", "Aql haqida risola", "Falsafani o`rganishga qadar nimalarni bilish kerak", "Davlat haqida risola", "Ajoyib shahar aholisining fikr qarashlari ibtidosi haqida kitob" kabi xilma-xil qimmatli asarlar yozdi. Farobiy birinchi bo`lib o`z davridagi ilmlarni klassifikatsiya qildi, musiqa nazariyasi buyicha "Qonun" asarini bunyod etdi. Farobiy olim bo`lishi bilan birga mohir muzikachi, shoir ham edi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) Muhammad ibn Ahmad Beruniy 973 yilning 4 sentyabrida Xorazmda Fir (Kat) shahri yaqinida dunyoga kelib, ko`p yillar ko`chib yurdi. U 1048 yilda G`aznada vafot etdi. Beruniy entsiklopedist olim, zo`r astronom, geolog, tarixchi, gidrostatika va geografiya sohasidagi ratsionalistik fikrlari bilan zamonasining ilmiy saviyasini ancha yuqori ko`targan edi.

150 ga yaqin asar yozdi. Dariy, arab, sanskrit (qadimgi hind),grek va boshqa tillarni mukammal bilib olgan Beruniy bir qancha asarlarni tarjima ham qilgan edi. U arab tilida ko`pincha she'rlar bitdi. Hajvchilikda mahorat qozondi hamda har xil qissalar va arab shoirlarining devonlariga sharhlar yozib,
"Muxtor-ul-ash'or" ("Tanlangan she'rlar") to`plamini tuzdi. Beruniy Muqanna haqidagi birinchi asaridan keyin 27 yoshda yaratgan "O`tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar" asarida ko`p xalqlarning yil hisobi, kalendari, ilm-fani, urf-odati va boshqalar haqida qimmatli ma'lumot beradi.

Beruniy "Astronomiya kaliti", "Mas'ud jadvali" asarlari bilan astronomiya faniga bebaho hissa qo`shdi. 1949 yilda mamlakatimiz xalqlari, yer yuzining barcha progressiv kuchlari xorazmlik olim Beruniyning 1000 yillik yubileyini nishonladilar.

Markaziy Osiyoda arab xalifaligi hukmronligi tugatildi. Biroq xalifalik olib kirgan va mustahkamlagan Islom dini hokim mafkura bo`lib qolaverdi. Ular Islom aqidasi "Qur'onni" targ`ib qila boshladi. Podshohlar "Podshohi Islom" ga aylandilar. Tasavvuf yoki so`fizm Sharq feodal musulmon o`lkalarida keng
tarqalgan diniy falsafiy oqimdir.

Markaziy Osiyoda arab tilidagi adabiyot. Somoniylar davrida arab tili sekin-asta o`z hukmronligini yo`qotib, uning o`rnini mahalliy xalq tili bo`lgan dariy yoki fors-tojik tili egallay boshladi. Davrning buyuk olim va shoirlari o`z asarlarini ona tillari bo`lgan fors-tojik tilida yoza boshladilar. Shunga
qaramay, X asrda Somoniylar hukmronlik qilgan joylarda ham dariy tili bilan bir qatorda arab tili ham hukm surgan. Bu davrda arab tilida yozilgan she'riyatni o`rganishdagi eng nodir manba Abu Mansur as-Saolibiyning "Yatimat-ad-dahr fi mahosin ahl al-asr" ("Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi") nomli tazkirasidir.

Asar muallifining to`la ismi Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy an-Naysoburiy bo`lib, u zamonasining yirik olimi, yozuvchisi, adabiyotshunosi, tilshunos va tarixchisi edi. Saolibiy 350 (961) yili Nishopurda tug`ilib, 42-(1038) yili vafot etgan. As-Saolibiy juda ko`p mamlakat va shaharlarni ko`rib, Arab yarim oroli, Iroq, Xuroson, Movarounnahr, Xorazmda bo`ldi.

U tarix, til va adabiyot sohasiga oid o`nlab asarlar muallifidir. Adibning "Shohnamai Saolibiy" kitobini fors tiliga tarjima qilgan eron olimi Mahmud Hidoyat uning 34 ta asarini ko`rsatib o`tgan.

As-Saolibiy nomini dunyoga ko`proq mashhur qilgan uning "Yatamot ad-dahr" tazkirasidir. Asar 4 qismdan iborat bo`lib, o`z ichiga hijriy IX va X asr boshlarida yashagan shoirlarni oladi. Tazkiraning har qaysi qismi 10 tadan bobga ajratilgan. Asar muqaddimasida as-Saolibiyning ko`rsatishicha, olim bu kitobni yozishga 384 (994-995) yili kirishadi.

Asarning birinchi qismida Hamadoniylar sulolasi shoirlari va ularning she'rlari, Suriya va unga qo`shni bo`lgan Misr, Mavsiya shoirlari haqida ma'lumotlar beriladi.

Ikkinchi qism Iroq ahlidan bo`lgan shoirlar va Day-lamiylar davrida yashagan shoirlardan bahs etadi.

Uchinchi qism Jabal, Fors, Jurjon, Tabariston va Isfaxon shoirlariga bag`ishlangan. Tazkiraning to`rtinchi qismida Samoniylar sulolasi hukmronligi boshlanishidan G`aznaviylar davlati boshlarigacha Xuroson va Movarounnahrda yashagan shoirlar, turli tomonlardan Buxoroga kelib, bu yerda har xil lavozimlarni egallagan so`z ustalari haqidagi ma'lumotlar bayon etiladi. Shu qismda Nishopur ahlidan bo`lgan va u yerga kelib, muqim bo`lib qolgan shoirlar haqida ham so`z boradi. Tazkirada to`rt qismning avvalgi bobi Buxoroning o`zida yashab ijod etgan 47 shoirga bag`ishlanadi, to`rtinchi bobi esa Xorazm shoirlaridag yettitasini o`z ichiga oladi, qolgan boblar Xurosonda yashagan shoirlar haqida bahs etadi.

As-Saolibiy 382 (992) yili Buxoroga keladi, bu yerdagi shoirlar bilan tanishadi, ularning she'rlarini o`z og`izlaridan yozib oladi. U boshqa joylarda bo`lgan shoirlar she'rlarida esa ishonchli kishilardan yozib olgan va ularning nomlarini tazkirida eslatib o`tgan.

Arab tilida yozilgan adabiyotda vasfiy she'rlar asosiy o`rin tutgan. "Yatimat ad-dahr" tufayli bir qancha vasfiy she'rlar saqlanib qolgan. Movarounnahrlik arabiynavis shoirlar ijodida vasf alohida janr sifatida takomillashgan.

Vasf ham g`azal, hajviya, marsiya kabi qasidadan ajralib chiqqan. Islomgacha va Islomning dastlabki yillarida vasf badaviy shoirlar yaratgan qasidalarning bir qismini tashkil etib, ularda shoirning tuyasi, oti, vahshiy hayvonlar yoki turli-tuman hodisalar tasvirlangan. Keyinchalik jamiyat taraqqiyoti va
shaharlarning ijtimoiy hayoti o`zgarishi bilan she'riyatda sahro, qabilachilik turmush tarzi o`rniga shaharlar tasviri va aristokratlar hayoti kuylana boshladi. Sevgi-muhabbat, o`yin-kulgu, aysh-ishrat she'riyatning asosiy mavzuiga aylandi. Shular qatori saroy va unda yashovchilar hayoti, ularning

bazmlarini bezaydigan turli zebu ziynatlar, uy ashyolari, laziz taomlar, shirin mevalar va sabzavotlarni tasvirlovchi qisqa janr-vasf vujudga keldi.

Buxoroda arab tilida ijod etgan shoirlar tomonidan yozilgan vasfiy she'rlarda quyidagilar tavsif qilingan: Yil fasllari va tabiat hodisalari: qish, qor, yomg`ir, do`l, mo`z, suv kabilar.

Uy jixozlari: kursi, sham, shamdon, chelak, kajava, ko`za, shisha, kadak, gulob idishi, yelpig`ich, taroq, pichoq, qaychi, otashkurak, qafas kabilar.

Yozuv qurollari: qog`oz, siyohdon, qalam, qalamdon. Kitob ham vasf qilingan. Turli-tuman taomlar, shirin ichimliklar, mevalar, sabzavotlar va gullar: sharob , sirka, asal, tuz, non va uning turli navlari, pishloq, qovurma, qovurilgan baliq,
quymoq, halim, mo`zavvara (quruq xo`rda), limon, yong`oq, uzum, mayiz, loviya, tarvuz, olma, bexi, nok, anor, qalampir kabilar.

Bulardan tashkari uy, minora, turli liboslar haqida ham anchagina vasfiy she'rlar mavjuddir.

Shoir biror narsani tavsiflar ekan, ko`pincha uning majoziy yo`llar bilan vasf qiladi. Shuning uchun vasfiy she'rlar ma'nosini har vaqt ham osonlik bilan anglab bo`lmaydi, ular ba'zan she'riy topishmoqqa aylanib ketadi.

Diniy tasavvuf adabiyoti IX asrdayoq tasavvuf bilan birga vujudga kela boshladi. XI-XII asrlarda uning Bobo Ko`hiy (1050 yilda vafot etgan), Abdulla Ansoriy (1002-1088), Abdu Majid Sanoiy (1150 yilda vafot etgan), Ahmad Yassaviy (1166 yilda vafot etgan), Sulaymon Boqirg`oniy (1186 yilda vafot etgan) kabi namoyandalari yetishdi. Bu yozuvchilar komil insonni tarbiyalash sohasida juda ko`p ijodiy mehnat qildilar. Bu davrda Yusuf Xos Xojibning "Qutadg`u-bilik", Yassaviy hikmatlari Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul-haqoyiq" asarlari didaktik xarakterdagi asarlardir. Fors-tojik tilida ijod etgan Pahlavon Mahmud va Badriddin Chochiylar ijodi bu davr adabiyotini rivojlantirishga munosib hissa qo`shganlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

Markaziy Osiyoga istelochilarning bosqini va uning natijalari qanday bo`lgan?

Markaziy Osiyodagi arab istilochisi qanday yemirilgan?

Dunyoviy ilmlarning taraqqiyoti va madaniy hayot rivoji haqida so`zlang.

As-Saoliyning «Yatimat ad-dahr» tazkirasi haqida ma'lumot bering.

Tayanch iboralar.

Arab xalifaligi noibi Qutayba.

Al-Xorazmiy.

Abu Nasr Forobiy.

Abu Rayhon Beruniy

Arab tilidagi adabiyot.

F O Y D A L A N I L G A N A D A B I Yo T L A R

1. Abdullaev I. "Beruniyga zamondosh shoirlar". «O`zbekiston» nashriyoti, Toshkent, 1974.

2. Irisov A. "Xorazmiy va Farobiy". Toshkent, 1961

3. Irisov A. "Beruniyning adabiy faoliyati" "O`zbek tili va adabiyoti" 1973 y, 5 – son, 9-13 betlar.

4. N.M.Mallaev "O`zbek adabiyoti tarixi" "O`qituvchi" nashriyoti, 1976 yil
M a t n

5. Abu Mansul as-Saolibiy. Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl
al-asr. Toshkent, 1976.

3- mavzu. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodi, manbalari. “Qutadg‘u bilig” dostoni.

R Ye J A :

1. Yusuf Xos Hojib - XI asrning mutafakkir shoiri.
2. Hayoti va ijodi haqida ma'lumot.
3. " Qutadg`u bilik" dostoni.

4. Uning yaratish tarixi

poytaxti Qashqar bo`lgan Sharqiy Turkiston, yana biri poytaxti Balasog`un bo`lgan Yettisuv edi (Sharqiy Turkiston bilan Yettisuv
birga qo`shilib ham idora qilingan). Qoraxoniylar tomonidan Movarounnahr egallab olingandan keyin yana bir katta xokimlik vujudga keldi. Bu Movaraunnaxr edi. Uning poytaxti avval O`zgand, keyinroq esa Samarqand bo`ldi.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg`u bilik" dostonini yaratar ekan, u Qoraxoniylar davlati hokimiyatini mustahkamlash, Tavg`ochxon bilan Ilikxon o`rtasidagi ixtiloflarni bartaraf etishga qaratilgandir. Bu dostonda hukmron doiralarining turli ijtimoiy tabaqalarga munosabatini belgilash, ma'rifat va obodonchilik uchun kurash, yaxshi hulq-odobni targ`ib qilish kabi maqsadlarni o`z oldiga ko`ygan edi. Bu bilan Yusuf Xos Hojib, bir tomondan o`zi yashab kelayotgan davr mafkurasini ifoda etgan bo`lsa, ikkinchi tomondan o`z davrining ma'rifatparvari, donishmandi sifatida ham gavdalanadi.

"Qutadg`u bilik" ning muqaddimasida ko`rsatishicha doston o`z davrida keng shuhrat qozongan. Bu kitob nihoyatda aziz kitobdir. U chin hokimlarning she'rlari bilan orasta bo`lgandir.

Mochin olimlari va hakimlarining barchasi ittifoq bo`lishib, Mashriq viloyatida, Turkiston ellarida Bug`roxon tilida (turkiy tilda) hech kim bu kitobdan yaxshiroq kitob tuzmagan, - deb aytgan ekanlar. Bu kitob qaysi podsholikka yoki qaysi iqlimga borib yetsa, g`oyat yaxshilikdan, ul (joylarning) donishmandlarining turli nomlari bilan atadilar: Chinliklar "Adab-ul-muluk" ("Hukumdorlar odobi"), mochinliklar "Oyin-ul-mamlakat" ("Mamlakatning tartib usuli") deb atadilar. Sharqiyliklar "Zayin-ul-umaro" ("Amirlar ziynati") deb nom berdilar. Eronliklar "Shohnomai turkiy", turonliklar "Qutadg`u bilik" ("Saodatga olib boruvchi bilim"), deb aytmishlar, ba'zilar "Pandnomai muluk" ("Hukumdorlar pandnomasi") deganlar... Bu nomlarning barchasi ham kitobning davlat idora ishlariga va ahloq-odob masalalariga doir ekanligini ko`rsatadi. Uning "Shohnomai turkiy" deb atalishi esa, mazmuni va maqsadi jihatdan bir qadar bo`lsa ham "Shohnoma"ga o`xshashligi hamda "Shohnoma" kabi mutaqorib bahrida yozilgan bo`lishi bilan bog`liqdir. Dostonning bizgacha saqlanib qolgan nushalaridan ma'lum bo`lishicha, u keyinchalik asosan "Qutadg`u bilik" nomi bilan yuritilgan.

Mustahkamlash uchun savollar.

Yusuf Xos Hojib XI asrning donishmandi ekanligini gapiring.

Yusuf Xos Hojib XI asrning atoqli shoiri, donishmandi va davlat arbobidir. Undan bizga qadar yetib kelgan yagona adabiy merosi "Qutadg`u bilik" dostonidir. Bu doston XI asr adabiyoti va taraqqiyparvar ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta'limiy qarashlarini badiiy mujassamlashtiradi, tarix, ilm-fan, etnografiya, tilshunoslik va boshqa sohalarga doir qimmatli ma'lumotlar beradi.

Yusuf Xos Hojibning hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beruvchi yagona manba uning o`z "Qutadg`u bilik" ("Saodatga olib boruvchi bilim") dostonidir. Bu doston xijriy yil hisobi bilan 462 (melodiy 1069-70) yilda yozilgan. Muallif dostonning muqaddimasida yoshi ellikka yaqinlashganini ta'kidlaydi. Shunga qarab biz Yusuf Xos Hojib XI asrning 20 yillarida tug`ilgan deb ayta olamiz. Yusuf Xos Hojibning vatani - Bolasog`un XI-XII asrlarning yirik savdo-sotiq hamda madaniy markazlaridan biri edi. Bu shahar ikki marta Qoraxoniylarning poytaxti ham bo`lgan edi.

Atroflicha bilim olgan Yusuf Xos Hojib o`z davrining peshqadam donishmandlaridan biri bo`lib yetishdi. U fors-tojik va arab tillarini, badiiy adabiyotini, tarix, astronomiya, geometriya, matematika, tabiat, geografiya va boshqa fanlarni o`rgandi. U buyuk olimlarning axloqiy va falsafiy qarashlarini, tabiatga doir mulohazalarini targ`ib qildi. Zamondoshlarini geometriya kabi fanlarni o`rganishga chaqirdi.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg`u bilik" dostonini yaratar ekan, bu doston turkiy til (uyg`ur va eski o`zbek tili) dagi yozma adabiyotning ilk yirik asarlaridan biri edi. Shunga ko`ra Yusuf Xos Hojibning o`zi dostonning muqaddimasida:

Arabcha, tojikcha kitoblar o`qush,
Bizning tilimizga bu yumg`i o`qush.

(Arabcha, tojikcha kitoblar ko`p bo`lib, bizning tilimizda bu donishmandlikning birinchi to`plamidir degan edi).

Yusuf Xos Hojib "Qutadg`u bilik" dostonini Balasog`unda yoza boshladi, uni Qoshqarda yozib tugatdi va Qoraxoniy hukmdorlaridan bo`lgan Tavg`och Bug`roxonga taqdim qildi. Bug`roxon doston muallifini taqdirlab, unga "Xos Hojib" (mukarram eshik og`asi) unvonini beradi. Shundan keyin u Yusuf Xos Hojib nomi bilan shuhrat qozondi.

Qoraxoniylar davlatiga Qashqardan tortib Amudaryogacha bo`lgan katta hudud kirar edi. Davlat bir necha mayda xokimliklarga bo`linib ketgan edi. Dastlabki yirik xokimliklardan biri

Yusuf Xos Hojib qaerda,, qachon tug`ilgan?
Yusuf Xos Xojibning «Qutadg`u-bilig» asari qanday yozilgan?
Yusuf Xos Xojib qaerda yashagan?
Tayanch iboralar.

1.Yusuf Xos Xojib.
2."Qutadg`u-bilik".
3.Bolasog`un.
4.Tavgochxon bilan Elikxon.

F O Y D A L A N I L G A N A D A B I Yo T L A R :
M a t n

1. Yusuf Xos Hojib. "Qutadg`u bilik" "Fan" Toshkent, 1971 y.
2. Qadimgi hikmatlar. Toshkent, 1987 y. 3. Yusuf Xos Hojib.
"Qutadg`u bilik" "Yulduzcha" nashriyoti (Hozirgi o`zbek tilida bayon qiluvchi) To`hliev B. Toshkent, 1990 y.

Z a r u r i y a d a b i yo t l a r :

1. Malov S.Ye. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti" M.L. 1951 g.
2. Karimov K. "Ilk badiiy doston". Toshkent, 1976 y.
3. O`zbek adabiyoti. I tom. 1959 y.
4. Mallaev N.M. O`zbek adabiyoti tarixi. 1976 y.
5.Qayumov A. "Qadimgi obidalar". 1974 y.

Yusuf Xos Hojibning " Qutadg`u bilik" dostoni

R Ye J A :

1. " Qutadg`u bilik" dostonining qo`lyozma nushalari.
2. " Qutadg`u bilik" ning syujet va kompozitsiya tuzilishi. Obrazlarning majoziy harakteri.
3. " Qutadg`u bilik" dostonida didaktika.
4. Dostonda ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta'limiy masalalarning qo`yilishi.
5. O`zbek adabiyoti rivojida Yusuf Xos Hojib dostonining tutgan o`rni.

"Qutadg`u bilik" Qutga, ya'ni baxt-saodatga eltuvchi bilim demakdir, uni bobokalon shoirimiz Yusuf Xos Hojib bundan 929 yil oldin 1069 yilda yozgan. Mazkur kitob shoirning o`zi aytganiday:

Boshdan oxirigacha donolar so`zi,
Go`yoki tizilgan marjondek o`zi.

O`n sakkiz oy - yarim yilda yozib tugallangan ushbu asarni yaratish uchun shoir juda uzoq vaqt tayyorlangan ko`rinadi:

Ko`z urdu o`lkasi aslida eli,
Tub-asli nasabdan so`z ochdi tili.
Tug`ilgan elidan chiqib borgani,
Kitobni jam etib tugal qilgani.
Borini bitibdir ne esa qalam,

Bu yerda shoirning vatani (Ko`z urdu, ya'ni Bolasog`un) va asarning tugallangan o`rni (Qoshqardan) tashqari asarni yozish uchun tug`ilgan elidan chiqib borgani haqidagi qayd ham mavjud. Bundan shoirning ko`plab o`lkalarga safar qilgani, turli madaniy-adabiy yodgorliklarni o`rganganini taxmin etish mumkin. Fikrimizni quyidagi misralar ham tasdiqlab turadi:

Chiniylar "Adab-ul-muluk" deb atar,
Mochinlar "Anis-ul-mamolik" deyar.
Bu mashriq elining donishmandlari,
"Zinat-ul-umaro" deyishar bari.
Eronlik "Shohnoma" dedi belgilik,
Turonlik nom qo`ydi: "Qutadg`u bilik".

Bular shoirning Chin (Xitoy), Mochin (Sharqiy Turkiston), Eron va Turon (Turkiston va umuman turkiy xalqlar yashaydigan o`lkalar) da bo`lgani hamda u yerlarda mavjud bo`lgan adabiy an'analardan yaxshi xabardorligini ko`rsatadi. "Qutadg`u bilik" ning uch qo`lyozma nusxasi ma'lum. Bu nusxalar "Vena" (yoki "Xirot"), "Qohira" va "Namangan" nusxalari deb yuritiladi. "Qutadg`u bilik" ning birinchi nusxasi XIX asrning 20 yillarida Istanbulda topildi. Bu nusxa XV asrda Hirotda uyg`ur yozuvchi bilan ko`chirilgan. Qo`lyozmani topgan olim Xammer Turgeshtal uni Venadagi Qirollik kutubxonasiga topshiradi. Shuning uchun bu nusxa "Hirot" yoki "Vena" nusxasi deb yuritiladi.

"Qutadg`u bilik" ning ikkinchi qo`lyozma nusxasi 1897 yilda Qohirada topildi. Bu nusxa (XV asr) arab yozuvida ko`chirilgan bo`lib, u Hirot nusxasidan bir muncha farq qiladi. Matndagi jug`iy farqlardan tashqari, "Qohira" nusxasida Xirot nusxasidagi ayrim o`rinlar yo`q.

"Qutadg`u bilik" ning uchinchi nusxasi 1914 yilda Namanganda topildi. Bu nusxa ham Qohira nusxasi kabi arab yozuvida ko`chirilgan. «Qutadg`u bilik»ning Namangan nusxasi boshqa nusxalarga qaraganda bir muncha mukammalroq bo`lib, Ye.E.Bertelsning taxminicha, u XIII asrning oxiri yoki XIV asr boshlarida ko`chirilgan bo`lishi kerak. Bu nodir nusxa O`zbekiston Respublikasi Sharqshunoslik instituti qo`lyozmalar fondida saqlanmokda. "Qutadg`u bilik" ning nasriy muqaddimasida ta'kidlanishicha, dostonda to`rt asosiy masala qo`yilgan va bu masalalar majoziy obrazlar qiyofasida mujassamlashtirilgan. Bu kitobning negizida to`rt narsa yotadi, biri adolat, ikkinchi davlat, uchinchi aql, to`rtinchisi qanoat. Har biriga turkcha ot bergandir. Adolatga Kuntug`di elik ot berdi, uni podshoh o`rniga qo`ydi, davlatga Oyto`ldi ot berib, vazir o`rniga qo`ydi. Aqlga O`gdulmish (oqil, dono) ot berib, vazirning o`g`li sifatida beradi. Qanoatga O`zg`urmish (hushyor, dadil) ot berib, vazirning qarindoshi deb atadi. Bularning o`rtasida savol-javob, munozara kechib, so`zlar so`zlagandir.

Dostonning syujet va kompozitsiyasi shunga muvofiq tuzilgan. "Qutadg`u bilik" 73 bobga bo`lingan. O`n bir bobi dostonning muqaddimasi bo`lib, muqaddima xudoga, payg`ambarga, to`rt hali-faga bagishlangan boblardan tashqari yoz tavsifi va Bug`roxon madhi, yetti sayyora va o`n ikki burj, til odobi va bilimning foydasi kabi masalalarga bag`ishlangan. Dostonning asosiy qismi o`n ikki - bobdan, Kuntug`di degan hukmdorning ta'rifi bilan boshlanadi.

Asarda tilga olingan masalalarning ko`lami keng. Ularning ayrimlarini eslab o`tish joyizdir.

Yetti sayyora va o`n ikki burj.
Inson farzandlari qadri bilim va tafakkurida.
Tilning fazilat va manfaatlari,
Kitob egasining uzri.
Bilim va aql - idrokning farqi to`g`risida.
Bahor madhi.

Kuntug`di elig haqida.
Oyto`ldining baxt haqidagi hikoyasi.
Kuntug`dining Adolat haqida aytganlari
O`gdulmish elikka deganlari.

(Lashkarboshi, oshpaz, xazinachi, eshik og`asi, elchi, dastur-xonchi... qanday bo`lishi kerakligini so`zlaydi).

O`gdulmish, O`zg`urmishga olimlar (shoirlar, tabiblar, ta'birchilar, xunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar, turli tabaqadagi kishilar) bilan muomalada bo`lish sirlarini o`rgatadi.

O`g`il va qizlar tug`ilsa qanday tarbiyalash lozimligini aytadi. Mehmonga borganda o`zini qanday tutish lozimligini so`zlaydi. Ko`rinib turibdiki, "Qutadg`u bilik" dagi tilga olingan mavzularning qamrovi juda keng. Ammo unga bitta bosh nuqta borki, u butun asardan qizil ip bo`lib o`tadi. Bu komil inson masalasidir.

Shoir komil inson haqida gapirar ekan, komillikning qator belgilarini ko`rsatib o`tadi. Ularning eng asosiysi alohida shaxsning manfaatlari, shaxsiy istaklari doirasini yorib chiqib, boshqalar g`ami bilan ham yashash, ko`pchilik manfaati uchun fidoiy bo`la bilishdir.

Asarda oddiy xalq, mehnatkash inson alohida ehtirom bilan tasvirlangan. Ayniqsa dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar haqidagi boblar mehr bilan tasvirlangandir.

Dostonda bilim haqida alohida bob ham mavjud. Bu bob "Bilig, o`qush, adrimin, asgin ayur" deb nomlangan.

Bilimning asosiy hususiyati kishi uchun faqat nafdan iborat ekanligida. Unga qadr-qimmat, hurmat va ehtirom keltirishida deb biladi, shoir. Asarda shoir fikri go`zal timsollar, hayotiy o`xshatishlar va lo`nda istiholalar, tasirchan tamsil hamda mo`jaz ramzlar bilan ziynatlangan. Uning o`zi: " Men turkcha so`zlarni yovvoyi tog` kiyigi kabi bildim. Shunga qaramay ularni avaylab asrab qo`lga o`rgatdim" deb yozadi. Ana shu "Qo`lga o`rgatilgan so`zlar orasida ko`plab xalq maqollari ham mavjud".

"Qutadg`u-bilik" ning ko`pchilik boblari XI asr Qoraxoniylar davridagi ijtimoiy - siyosiy masalalarga bag`ishlangan. Doston muallifi bu boblarda davlat va hokimiyat, hukmdor uning saroy ahillari, ularning burch va vazifalari, turli ijtimoiy tabaqalar, ularning jamiyat hayotida tutgan o`rni va roli, saroy ahillarining mehnatkash tabaqalarga munosabati kabi masalalarda fikr yuritadi.

Yusuf Xos Hojibning har xil ijtimoiy tabaqalar haqida bayon qilgan fikrlari hokimiyatni mustahkamlash, uning mustaqilligini himoya qilish, diplomatik munosabatlarni yaxshilashga qaratilgandir. U ilm - ma'rifatni saodatning kaliti deb qaraydi. Uning fikricha, hukmdor mamlakatni o`z qilichi va siyosati bilan boshqarsa, olimlar el-yurtni aql va donishmandlik bilan boshqaradi va ularga yo`l ko`rsatadi. Shunga ko`ra shoir kishilarni podaga, olimlarni yo`l boshlovchiga o`xshatadi.

Yusuf Xos Hojib qadimgi Gretsiya va O`rta Osiyoning mashhur olimlari kabi, olamni to`rt unsur (element) dan o`t, suv, havo va tuproq yoki issiq, sovuq, xo`l va quruqdan iborat degan falsafa qarashini ilgari suradi.

"Qutadg`u bilik" xalq ijodi zaminida turli xalqlar adabiyotining taraqqiy eta boshlaganligini ko`rsatadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar
«Qutadg`i-bilig» dostonining qanday qo`lyozma nusxalari bor?
Dostonning syujeti va kompozitsiyasini aytib bering.
Dostondagi timsollar qanday ma'noni bildiradi?
Dostondagi tarbiyaviy va ta'limiy masalalar nimalarga qaratilgan?
Tayanch iboralar.

1."Qutadg`u bilik" dostoni.
2.Majoziy timsollar.
3.Kuntug`di.
4.Oyto`ldi.

5.O`gdulmish.
6.O`zg`urmish.

4-MAVZU: **Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodi. “Hibatu-l-haqoyiq” asari**

R Ye J A :

1. Ahmad Yugnakiy - o`zbek didaktik adabiyoti namoyandasi.
2. Shoirning hayoti va ijodini o`rganish tarixi.
3." Hibatul - haqoyik" dostoni,dostondagi muhim qarashlar.
4. Dostonning tuzilishi va badiiy qimmati.
5. Asarning til hususiyatlari, shoir ijodining turkiy xalqlar adabiyoti rivojidagi o`rni.

Ahmad Yugnakiy iste'dodli shoir va donishmand murabbiydir. Undan saqlanib qolgan yagona adabiy meros "Hibat-ul-haqoyiq" badiiy so`z san'ati va adabiy tilning juda qimmatli hamda nodir yodgorligidir.

Ahmad Yugnakiyning hayoti va faoliyati haqida nihoyatda oz ma'lumot saqlanib qolgan. Uning hayot yillari, ijtimoiy turmushi va boshqalar ma'lum emas. "Hibat-ul-haqoyiq" ning ayrim misralari va uning nushalariga boshqalar tomonidan yozilgan shoirning hayoti va faoliyati haqidagi so`zlar, bir oz bo`lsa ham tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

"Hibat-ul-haqoyiq" ning matnida kitobning yozilgan yili, joyi, hatto nomi ham ko`rsatilmaydi. Faqat bir baytda shoir o`z nomini tilga oladi:

Adib Ahmad ayttim adab-pand so`zim,
So`zim shunda qolur borur bu o`zum.

"Adib Ahmad" so`zlari adiblik-shoirlik Ahmad Yugnakiyning asosiy mashg`uloti, kasbkori bo`lganidan dalolat beradi.

Dostonning bir nusxasidagi Arslonxo`ja Tarxon (XV asr temuriy amaldorlaridan) qaydlarida quyidagi ma'lumot bor.

Bu qaydlarda shoirning nomi Adib Ahmad, otasining oti Mahmud vatani Yugnak , kitobning nomi "Hibat-ul-haqoyiq" («Haqiqatlar armug`oni») ekani ma'lum bo`ladi.

Ahmad Yugnakiy haqidagi ma'lumotlar bizga ("Hibat-ul-haqoiq") dostoni muallifning yashagan davrini tahmin qilishga imkon beradi.

Birinchi jahon urushi boshlarida turk olimi Najib Osim Istambuldagi Ayo-Sufiya masjidining kutubxonasida mo`g`ul tilidagi rasoil (risolalar) to`plamiga kiritilgan bir qo`lyozmani topdi. Qulyozma turkiy tildabo`lib, u mo`g`ilcha xatlar to`plamiga yangilik kiritgan ekan. Topilgan qo`lyozma ham ilm ahliga ma'lum bo`lmagan Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul-haqoyiq" dostoni bo`lib chiqdi.

Qo`lyozma hijriy 884 yilning 7 zulqa'da oyida (1480 yilning 30 yanvarida) Istambulda Abdurazzoq baxshi tomonidan ko`chirilgan bo`lib, kitob XV asrda uyg`ur yozuvi bilan ko`chirilgan matnga misralardan keyin arabcha transkriptsiyada va fors-tojik tilida ayrim izohlar ham beriladi. Keyinchalik dostonning yana
bir necha nusxasi, jumladan 1444-45 yillarda ko`chirilgan nusxasi topildi.

Najib Osim "Hibat-ul-haqoyiq" ning 1480 yil nusxasi asosida usmonli turk tiliga qilingan tarjimasi bilan birga nashr etadi. Unga so`z boshi yozdi, ayrim sharhlar berdi, kichik grammatik ocherk va lug`at tuzdi. Turk olimi Rashid Rahmat Arat 1915 yilda "Hibat-ul-haqoyiq" ning yangi qiyosiy nashrini ommalashtirdi.

Sharqshunos olimlaridan Ye.E.Bertels, S.Ye.Malov va boshqalar "Hibat-ul-haqoyiq" ni o`rganish va uni yoritishda unumli xizmat qildi. (Chunonchi, Ye.E.Bertels dostonni atroflicha tahlil etib, 1945 yilda ToshDU ilmiy to`plamida katta bir maqola bostirgan edi.

"Hibat-ul-haqoyiq" ning 1480 yilgi nusxasida dostonning yozilgan yili haqida biror ishorat yo`q. Ahmad Yugnakiy dostonni Dod sipahsolar degan shaxsga bag`ishlaydi.Biroq, bu

shaxsning kimligi va qachon o`tgani ham qat'iy aniqlangan emas. Shularga ko`ra dostonning yozilgan davrini faqat uning tili va uslubiga qarab tahmin qilish mumkin. "Hibat-ul-haqoyiq"da arxaik elementlar "Qutadg`u bilik" dagiga nisbatan bir muncha kamroq, arabcha, fors-tojikcha so`zlar esa ko`proq ishlatiladi. Bu "Hibat-ul-haqoyiq" "Qutadg`u bilik" dan bir muncha keyin, XII asrning oxirlari yoki XIII asrning boshlarida yaratilgan, deb taxmin qilishga imkon beradi.

Dostonning tuzilishi: "Hibat-ul-haqoyiq" ning 1480 yilda ko`chirilgan nusxasidagi noma'lum shaxs tomonidan yozilgan qaydda dostonning 14 bobdan iborat ekani aytilgan edi. Biroq "Hibat-ul-haqoyiq" o`sha 1480 yilda ko`chirilgan nusxasi 235 baytdan iborat bo`lib, u 11 bobdan tashkil topgan. Kotib Abdurazzoq Baxshi dostonni uning biror qisqartirilgan variantidan ko`chirgan yoki uning 3 bobi boshqa boblarga kirib ketgan bo`lishi mumkin. Dostonning birinchi bobi (1-10 baytlar) xudoga, ikkinchi bobi (11-19 baytlar) payg`ambar va to`rt halifaga bag`ishlangan.

Uchinchi bob (20-33 baytlar) Dod-Sipahsolarga bag`ishlanadi. Aftidan, Dod-Sipahsolar zamonasining yirik amaldorlaridan biri bo`lgan, chunki doston muallifi uni bir necha o`rinda "Shohim" deb ataydi. Shoir bu bobda Dod-Sipahsolarning fuqaroparvar, sahovatli va adolatli kishi deb madh qiladi. Uni dengiz, o`zini esa bu dengizga faqat tomchilar hadya etuvchi bulutga o`xshatadi. To`rtinchi bob (34-35 baytlar) kitobning yozilishi sababi haqida bo`lib, shoir uni Dod-Sipohsolarga bir yodgorlik sifatida taqdim qilgani va bu bilan o`z hayrixohligini ifodalamoqchi bo`lganini ta'kidlaydi (173 betda).

Dostonning 3-4 boblari Ahmad Yugnakiyning Dod-Sipahsolardan in'om va ehson kutganini ravshan ko`rsatadi. Dostonning dastlabki to`rt bobi uning muqaddima qismi bo`lib, asosiy qism beshinchi bobdan boshlanadi. Boblar maxsus sarlavhalar bilan berilib, 5-8 boblar nav nomi bilan atalgan va maxsus sira raqamlari bilan berilgan.

Beshinchi bob (40-62 baytlar) bilim maqtovi va johillikning zararligi, oltinchi bob (63-86 baytlar) til odobiga, yettinchi bob sahiylik va bahillikka, to`qqizinchi va o`ninchi boblar (176-226 baytlar) turli xil masalalarga bag`ishlangan bo`lib, o`n birinchi bob (227-235 baytlar) kitobning xotimasidir. Avtor xotimada kitobxonga murojaat qiladi.

Ilm va ma'rifat masalalari

Ahmad Yugnakiy O`rta Osiyo ilm- fanning yirik o`choqlaridan biri bo`lib, olamshumul fan arbobolarini yetishtirgan bir davrda yashadi. U tasavvuf adabiyotining namoyandalari singari insonning ilmiy faoliyati va qobiliyatini ulug`laydi, mutafakkirlar kabi din-shariat ilmparvar ekanligini ardoqlaydi.

Balki u Yusuf Xos Hojib kabi ilm-fanni yoqlaydi. Doston Ahmad Yugnakiyning XII asrning donishmand ma'rifatparvari va ilmning jarchisi sifatida gavdalantiradi. Shoir olim bilan johilni bir-biriga qarama-qarshi qo`yadi. Olim ilm bilan baxt-saodat yo`lini topsa, johil nodonligi tufayli ko`rgu-liklarga giriftor bo`ladi.

Ahmad Yugnakiyning bu mulohazalari shubhasiz progressiv ahamiyatga ega. Biroq u baxtni ilm va baxtsizlikni johillik bilan bog`lab, feodal-klerikal muhitning ijtimoiy-siyosiy qarama-qarshiliklarini anglash, farq qilib tashlash darajasiga ko`tarila olmaydi. Reaktsion johil guruhlarni ilm-fanga va ilm-fan ahliga qarshi vahshiyona kurashini tanqid qilmadi. Nodonlik feodal-klerikal jamiyat ko`pchilikni ilm-ma'rifat boyliklaridan mahrum qilganini tushunmadi.

Ahloq - odob masalalari : "Hibat-ul-haqoyiq" didaktik doston bo`lib, ahloq-odob masalalari undagi ko`pchilik boblarning tematik asosini tashkil etadi. Shoir til odobi, saxiylik, bahillik, kamtorlik, ezgulik va boshqalar haqida xuddi Yusuf Xos Hojib kabi zamonasining peshqadam murabbiysi sifatida fikr yuritib, kishilarga o`git beradi.

Shunday qilib, Ahmad Yugnakiy zamonasining progressiv donishmandi va murabbiysidir. Bu jihatdan Yusuf Xos Hojibga qaraganda ancha ilgarilab ketgan edi. Biroq u Yusuf Xos Hojib kabi, ahloqning ijtimoiy-sinfiy mohiyatini, yaramas hislatlarini tug`dirgan manbalarini, tuzatish choralarini din va shariatdan izladi.

Din va shariat haqida: Ahmad Yugnakiy Islom dinini e'tirof qiladi va uni ideallashtiradi. Dostonning dastlabki misralarini xudoga, Muhammad payg`ambar va to`rt halifaga atab, qur'on oyatlarini keltiradi. Shoirning diniy xurofiy tushunchalari doston muqaddimasi bilan chegaralanib qolmaydi, balki u boblardagi ayrim masalalarning mohiyatiga singib borib, shoirning fikr mulohazalaridagi ziddiyatlarni chuqurlashtiradi. Yo`qsil va qashshoq kishilarning turmushiga achinib, himmatsiz davlatmandlarni qoralab, ularni muruvvatli va marhamatli bo`lishga undaydi. Shoir boylik va qashshoqlikni xudoning "amr-irodasi", "taqdiri azal" bilan bog`laydi.

"Hibat-ul- haqoyiq" dagi taraqqiyparvar progressiv qarashlar bilan reaktsion tushunchalar o`rtasidagi kurash faqat Ahmad Yugnakiyning dunyoqarashidagi ziddiyatlar va uning ichki dramasi bo`lmay, balki birinchi navbatda doston yaratilgan davr qarama-qarshiliklarining in'tisosidir. Doston Ahmad Yugnakiyning mana shu qarama-qarshiliklar bilan yashaganini, uning reaktsion qarash va tushunchalarini butunlay uloqtirib tashlashga ojiz bo`lganini, lekin shunga qaramay, ilm-ma'rifat va yaxshi hulq-odobning jarchisi ekanini ko`rsatadi.

Dostonning badiiy hususiyatlari. "Hibat-ul-haqoyiq" muallifi biror voqeani, sarguzashtni hikoya qilish vazifasini emas, balki ilm-ma'rifat, ahloq - odob va boshqa masalalar haqida mulohaza yuritib, kishilarga o`git berish vazifasini o`z oldiga qo`yadi. Doston didaktik doston bo`lib, bu uning badiiy xususiyatlari va uslubini belgilaydi. Balki dostonda voqea, syujet bo`lmasa ham, uning boblari mazmuni va mohiyati bilan o`zaro uzviy bog`lanib, bir butun kompozitsion ko`rilishni vujudga keltiradi. Avtor dostonning boblarida turli xil ob'ekt, hislat va tushunchalarni muqoyasa qilish va ularni bir-biriga qarama-qarshi qo`yish asosida ulardan har birining o`ziga xos ijobiy yoki salbiy tomonini ochadi. Yaxshilarni e'tirof va targ`ib qiladi, yomonlarni qoralaydi va rad etadi. Dostonning lirik qahramoni - Ahmad Yugnakiy qiyofasida, bir tomondan ma'rifatparvar va xalqchil kishini, ikkinchi tomondan esa "taqdirga" ko`nikuvchi kishini va ular o`rtasida ziddiyatlar davom etganini ko`ramiz. Ahmad Yugnakiy badiiy til vositalari, xalq maqollari va ta'birlarini qo`llash orqali asarning badiiyligini hiyla oshirishga muvaffaq bo`lgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

Ahmad Yugnakiyning didaktik adabiyot namoyandasi ekanini so`zlang.

Ahmad Yugnakiyning «Hibbatul-haqoyiq» dostonida qanday masalalar qo`yilgan?

«Hibbatul-haqqoyiq» dostonidagi haqiqat, ma'rifat, shariat va tariqat masalalari qanday yoritilgan?

Shoir ijodining tasavvufga munosabati qanday?

Tayanch iboralar.

1.Ahmad Yugnakiy ijodi.
2.Ahmad Yugnakiyning didaktikasi.
3."Hibat-ul-Haqoyiq".
4."Hibat-ul-Haqoyiq"ning boblari.
5."Hibat-ul-Haqoyiq"ning mazmuni.
6."Hibat-ul-Haqoyiq"ning g`oyasi.
7."Hibat-ul-Haqoyiq"ning nusxalari.

F O Y D A L A N I L G A N A D A B I Yo T L A R :

1. Qadimiy hikmatlar. Toshkent, 1987 y. 414-428 betlar.
2. Mallaev N.M. O`zbek adabiyoti tarixi. I kitob, Toshkent, 1976 y. 130-160 betlar.
3. O`zbek adabiyoti tarixi. I tom, Toshkent, 1978 y. 131-140 betlar.
4. Mahmudov K. Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul-haqoyiq" asari haqida. Toshkent, 1972 y.

5- mavzu. Xoja Ahmad Yassaviy ijodi. “Devoni hikmat”

R Ye J A :

21. Ahmad Yassaviy - turkiy adabiyotning yirik vakili.
22. Shoir hayoti va ijodining o`rganilish tarixi.
23. Tasavvuf - shoir ijodining bosh mavzusi sifatida.
24. Ahmad Yassaviy " Hikmat" lari - turkiy adabiyotning nodir namunasi.
25. " Hikmat" ning badiiy qimmati va turkiy adabiyot rivojida Yassaviy ijodining o`rni.

Ahmad Yassaviy - turkiy tasavvuf she'riyatining atoqli vakili. U "Devoni hikmat" asari bilan jahonning bir qancha mamlakatlarida ma'lum va mashhur bo`lgan.

Yassaviyning tug`ilgan yili aniq ma'lum emas. Lekin ilmiy adabiyotlarda vafoti 1166 - 1167 yillar deb ko`rsatiladi. U Sayramda tavallud topgan. Keyinchalik shoir tug`ilgan yerini "Ul muborak Turkistondin" deb ta'riflagan. Otasi Shayx Ibrohimdan yetti yoshida yetim qolgan. Otasi Ibrohim Yassi (Turkistonda ruhoniy-Shayx oilasida tug`ildi). Otasi Ibrohim ko`p yillar Sayramda Shayxlik qilgan. Rivoyatlar Shayx Ibrohimni uning otasi Mahmud, bobosi Iftixor va boshqalar orqali Muhammad payg`ambarning qizi Fotima nasliga bog`laydi. Ilk tahsilni Yassida mashhur Turk mashoyihi Arslonbobdan olgan. Bu hikmatlarda berilgan. Arslonbob vafotidan so`ng, u tahsilni Buxoroda Yusuf Hamadoniy qo`lida davom ettirgan. Yusuf Hamadoniy vafotidan keyin uning o`rnida halifalik qiladi.

Yassaviy xalq boshiga ko`p qiyinchiliklar va musibatlar yog`dirilgan davrlarda yashab ijod qildi. U Turk hukmronlari Qoraxoniylar bilan Qoraxitoylar o`rtasidagi urushlar va ularning dahshatli oqibatlari ko`rgan she'rlarida bu fojealarga munosabatlarini bildirgan.

"Nokas, hasis, bediyonat zolimlar hokim bo`lgan jamiyatdagi shafqatsizlik va ma'naviy aynishlar bahsida Yassaviy hikmatlarining birida mana bunday degan:

Na Onoda rahm qoldi, na Otoda,
Og`a, ini bir biriga mojaroda.
Musulmonlar davo qilur, Chechar boda,
Mastlig` bilan qarindoshdan tondi, ko`rung.

Ahmad Yassaviyning dunyoga nazari bizning davr kishilarinikiga nisbatan boshqacha shakllangan. Shoirning ishq, haqiqat, adolat, qanoat, diyonat singari masalalarga yondashishi o`zgacha yo`nalishlarda kechganligi ham shubhasiz. U o`z davri farzandi sifatida islom dini ko`rsatmalari va islomiy aqidalarga tayangan. Buni uning o`zi ham e'tiror qilgan. Shoir hikmatlarining birida bunday satrlarni o`qiymiz:

Xushlamaydur olimlar bizni oyg`on turkiyni,
Oriflardan eshitsang, ochar ko`ngil mulkini.
Oyat, hadis ma'nosi turki bo`lsa muvofiq,
Ma'nisiga yetganlar yerga qo`yar bo`rkini

Yassaviy ijodiyotining mag`zini isyonkorona mistik mazmunlari tashkil qiladi. U behudaga "G`arqob bo`lib isyon ichra keldim mano", demagan. Uning isyoni - inson botinidagi isyon. Yassaviy "Ishq yo`lida jon berganni armoni yo`q" deydi. Bu tushunchani e'tiqod shiori bo`lib,ma'naviy-ruhiy tozalanish ranju jafolarni bo`yniga ilmog`i shart. Bu haqda Yassaviy shunday o`git beradi:

Jafo chekmay oshiq bo`lmas,tingla g`ofil,
Jafo chekib sobir bo`lg`on bo`lmas johil.

Ahmad Yassaviyning shuhrati oshadi.Uning to`g`risida xilma-xil afsona va rivoyatlar paydo bo`ladi. Madinada Muhammad, Turkistonda Hoja Ahmad degan ovozalar tarqaladi, turli joylardan pirga qo`l berish uchun ko`plab kishilar keladi.

Rivoyatlarga ko`ra, Ahmad Yassaviy payg`ambarlardan ortiq umr ko`rishni (Muhammad 63 yoshida o`lgan) gunoh bilib, 63 yoshida yerto`laga-chillaxonaga kirgan emish, 60 kecha-

kunduz ro`za tutgan emish. Umrining oxirgi kunlarini o`sha chillaxonada nuqul toat-ibodat bilan o`tkazgan emish. Ayrim manbalarda jumladan, mavlono Husomiddin Sag`noqiyning risolasida Ahmad Yassaviy 130 yil umr ko`rgan deb ma'lumot beriladi. Biroq ko`pchilik manbalarning ko`rsatilishicha, Sayramning turli joylarida Ahmad Yassaviyning otasi Shayx Ibrohimning onasi Qorasoch momoning, aka-ukalari Latif ota va Mustafaqul otalarning qabri bor. Ahmad Yassaviyning o`zi esa Yassida dafn qilingan.

Sayram, Turkiston shaharlaridagi va ularning atrofidagi "Muqaddas" mozor, qadamjoy uning nomi bilan atalgandir. Jahongir podsho Amir Temur 1395-1397 yillarda Ahmad Yassaviyning eski qabri o`rniga katta va muhtasham maqbara qurdirgan.Rivoyatlarga ko`ra, Oltin O`rda xoni To`xtamish Yassaviy avlodining mol-mulkini talagan ekan. To`xtamishni yengan Temur bu mol-mulkni undirib olibdi va evaziga bir katta madrasa qurishga buyruq bergan ekan. Biroq Temurning vafotidan keyin bu ish amalga oshmay qolgan ekan. Qo`qon Xoni Amir Umarxon 1819 yilda Turkistonni bosib olganida, Yassaviy qabrini ziyorat qiladi. Xudoyilikka 70 qo`y so`ydiradi va shayxlarga in'om qiladi.

Devoni Hikmat: Ahmad Yassaviy boshqa ko`p mutassav-vuflar kabi so`z san'atidan foydalanib, Islom aqida-larini, Jahriya tariqatini tassavvufni targ`ib qiluvchi she'rlar bitdi. Uning she'rlari "Hikmat" she'rlar to`plami esa
"Devoni hikmat" nomi bilan yuritiladi.

"Devoni Hikmat" ning yaratilish tarixi va uning kim tomonidan va qachon tuzilgani ma'lum emas. Devonning eng eski nusxalari ham saqlanib qolmagan. XI asrda ko`chirilgan 4 ta hikmatni hisobga olmaganda, qo`lyozmalarning eng qadimgilari XVII asrga mansubdir. O`tgan asrning ikkinchi yarimidan boshlab
"Devoni Hikmat" ning bosma nusxalari ham paydo bo`la boshlagan. U Toshkent, Qozon va Istanbulda bir necha bor nashr etilgan. "Devoni Hikmat" ning qo`lyozma nusxalari ham bir-biridan juda katta farq qiladi. Ularda she'rlar miqdori bir xilda emas, birida bo`lgan ko`pgina she'rlar, ikkinchi birida yo`q, borlari esa, hajmi va matni jihatidan bir-birlaridan katta farq qiladi. She'rlarda zikr etilgan nom (yoki taxallus) ham bir xilda emas.

Masalan, "Devoni Hikmat"ning she'rlar miqdori jihatidan eng katta nusxasi bo`lgan 5-Qozon nashrini olaylik. Unda 149 hikmat berilgan bo`lib, ulardan 109 hikmat bevosita Ahmad Yassaviyning nomi bilan bog`liqdir. Bu hikmatlarda Ahmad Yassaviy nomi "Ahmad", "Ahmadiy", "Qul Hoja Ahmad", "Hoja Ahmad Yassaviy", "Ahmad ibn Ibrohim", "Sulton Hoja Ahmad Yassaviy", "Yassaviy Miskin Ahmad", "Miskin Yassaviy", "Qul Ahmad", "Miskin Ahmad" kabi nomlar ishlatiladi.

Yuqoridagi nomlar bilan kelgan ayrim she'rlar boshq a kitoblarda,masalan, Sulaymon Boqirg`oniyning "Boqirg`on kitobida", "Mulla Shamsiddin O`zgandiy" ning hikmatlarida ham uchraydi. Bundan tashqari "Devoni Hikmat" nusxalariga, Qul Sharif, Miskin G`arib, Qul Asad, Xudoydod, Qul Nodiriy, Qul Sayfiddin, Bobo Mochin, Miskin Qosim, Miskin Azim va boshqa mualliflarning she'rlari ham kiritilgan. Ayrim she'rlarning muallifi umuman kiritilmagan. Til va uslub jihatidan ham "Devoni Hikmat" nusxalari bir-biridan katta farq qiladi.

Mavzuni mustahkalash uchun savollar
Ahmad Yassaviy va tasavvuf adabiyotini so`zlang.
Ahmad Yassaviy qachon va qaerda yashagan?
Yassaviy «Hikmat»lari haqida nimani bilasiz?
Turkiy adabiyotning rivojida Yassaviy ijodining o`rnini so`zlang.

Tayanch iboralar.

1.Ahmad Yassaviy ijodi.
2.Yassaviya ta'limoti.
3.Yassaviy va tasavvuf.
4.Yassaviy she'riyati.

F O Y D A L A N I L G A N A D A B I Yo T L A R :

M a t n :

1. Ahmad Yassaviy "Hikmatlar". Toshkent, 1990 y.
2. Ahmad Yassaviy "Devoni Hikmat". Toshkent, 1992 y.

Z a r u r i y a d a b i yo t l a r :

Aliev A. Tilimiz donishmandi. "O`zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 1993 y. 29 oktyabr.
2. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. Toshkent, 1997 y.
3. Haqqulov I. She'riyat - ruhiy munosabat. Toshkent, 1989 y.
4. Mo`minov A. Yassaviy: Ildiz va manbalar. "Fan va turmush" jurnali. 1993 y. 9-10 sonlar.
5. Rustamov E. Ahmad Yassaviy hikmatlarida hayot va tarix sadosi. O`zbek tili va adabiyoti. 1972 y. 4-5 sonlar.
6. Shayx Aziziddin Nasafiy. Komil inson. "O`zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 1992 y. 14 avgust.
7. Xaqqulov I. "Ahmad Yassaviy", Ahmad Yassaviy Hikmatlar. Toshkent, 1991 y. 5-40 betlar va 247-255 betlar.

Ahmad Yassaviyning "Devoni Hikmat " asari

R Ye J A :

1. Ahmad Yassaviyning «Hikmat»lari turkiy adabiyotning nodir namunasi.
2. Ahmad Yassaviy hikmatlarining badiiy qimmati.
3. Ahmad Yassaviyning turkiy hikmat maktabini ta'sis etishi.
4. Adabiyot rivojida Ahmad Yassaviy ijodining ahamiyati.

Ahmad Yassaviyning "Devonu Hikmat " asari. Til va uslub jihatidan ham "Devoni Hikmat" nusxalari bir biridan katta farq qiladi. «Devoni Hikmat» ning birorta nusxasi ham Yassaviy tilining, XII asr o`zbek tilining asl yodgorligi bo`la olmaydi. Chunki Yassaviy hikmatlari og`izdan-og`izgacha ko`chib, kitobdan-kitobga o`tib, o`z asl tilini allaqachonlar o`zgartirib yuborgan ekan. Bu esa professor A.K.Borovkov ta'kidlaganidek, "Devoni Hikmat" dagi she'rlarning qaysi biri bevosita Ahmad Yassaviyga mansub ekanligini aniqlashni g`oyatda mushkul-lashtiradi va ularning aslini tasavvur etishga imkon bermaydi. Lekin shunga qaramay "Devoni Hikmat" she'rlarining kimga mansubligi va ularning o`zgarib borish haqida, mulohaza tarzida bo`lsa ham quyidagilarni aytish mumkin.

1. "Devoni Hikmat" dagi she'rlarining xilma-xil o`zgarishlarga uchraganiga qaramay, devonning g`oyaviy negizini asosan Ahmad Yassaviy she'rlari tashkil etadi. Bu fikr Ahmad Yassaviy nomi turli shaklda zikr etilgan she'rlarga (albatta hammasiga ham emas) taaluqlidir. Yassaviy she'rlarining tili
va uslubi o`zgarib borgan bo`lsa ham, lekin ularning asosiy g`oyaviy mazmuni saqlanib qolgan.
2. "Devoni Hikmat" bevosita Ahmad Yassaviyning o`zi tomonidan emas, balki keyinroq uning muhlislari tomonidan to`zilgan bo`lishi kerak. Agar "Devoni Hikmat" ni Ahmad Yassaviyning o`zi tuzganda edi, devon shu darajada xilma-xil o`zgarishlarga uchramagan bo`lur edi.
3. Uzoq zamonlar davomida "Devoni Hikmat" ga turli xil o`zgarishlar kiritilgan. Bu o`zgarishlar she'rlarning miqdori va hajmiga ham, ularning til va uslubiga ham taaluqlidir. Yassaviy hikmatlarining tili va uslubi o`zgarib keyingi davrlarning tiliga muvofiqlashib borgan, tahrir qilingan. Yassaviy

hikmatlariga o`xshatma yoki taqlid tariqasida yangi hikmatlar yaratilgan. Ularning anchaginasi Yassaviy nomi bilan atalgan. "Devoni Hikmat" dagi she'rlar alifbe bilan joylashtirilib, devonga, "Debocha" ham ilova qilingan va hokazo.

Yassaviy hikmatlarining o`zgarib borganini ulardagi "Tug`qan yerim ul muborak Turkiston" kabi ko`pgina misralar ham ko`rsatilidi.

Chunonchi ilgari Yassi deb nomlangan shahar faqat Xq asrning oxiridan boshlab Turkiston deb yuritilgan.

4. "Devoni Hikmat" ga Yassaviy she'rlari yoki Yassaviyga nisbat berilgan she'rlardan tashqari, uning shogirdlari va muhlislari tomonidan yaratilgan she'rlar ham kiritib turilgan.

5. "Ahmad" yoki "Ahmadiy" nomi bilan aytilgan bir qator she'rlar, prof. A.K.Borovkov ta'kidlaganidek, Ahmad Yassaviy she'rlari bo`lmay, balki shu nomdagi boshqa shoirning she'rlari bo`lishi mumkin. "Ahmad" yoki "Ahmadiy" nomi bilan kelgan ko`pchilik she'rlarning aruz vaznida bo`lishi (Yassaviy hikmatlari asosan barmoq vaznidadir) ular til va uslub jihatidan X-asr adabiyotiga yaqin turishi shuni ko`rsatadi. A.K.Borovkovning faraz qilishicha "Devoni Hikmat" dagi, "Ahmad" yoki "Ahmadiy" Kamoliddin Ikoniyning muridi Shayx Said Ahmad (Xq asr) bo`lishi mumkin.

6. Modomiki, "Devoni Hikmat" turli o`zgarishlarga uchrab" Ahmad Yassaviyning ko`pdan-ko`p shogirdlari, muhlislari va mutassavvuf kitoblar tomonidan "tahrir" qilingan, Yassaviy hikmatlariga taqlid qilib yozilgan va mustaqil bitilgan she'rlar bilan to`lib borgan ekan, u faqat Yassaviyning badiiy yodgorligi
bo`lmay, balki Yassaviy Jahriya tariqatining bir necha asrlik umumiy bir adabiy - yodgorligidir.

Din va tasavvuf "Devoni Hikmat " ning g`oyaviy negizidir

Ahmad Yassaviy islom dinining qonun-qoidalari va urf-odatlarining yig`indisi bo`lgan "shariatni", tasavvuf maslagi bo`lgan "tariqat" ni, ishqi-ilohiyni - "ma'rifatni", xudo va unga erishmoqni "haqiqatni" zo`r berib targ`ib qiladi. Shunga ko`ra ham "Devoni Hikmat" ga yozilgan debochaga "Ey darvish, bilgil va ogoh bo`lgimkin, avval kalimai shariat, ikkinchi kalimai tariqat, uchinchi kalimai ma'rifat, to`rtinchi kalimai haqiqatni bilmoq kerak. So`fi bo`lib kalimani bilmasa bulmas, so`fi emas", - deyiladi va bu to`rt "kalima" ga "Kur'on" dagi bevosita Muhammad payg`ambarga bag`ishlangan oyatlar orqali guvohlik beriladi.

Ahmad Yassaviyning fikricha "shariatsiz"lik "tariqat", "tariqatsiz" "ma'rifat", "ma'rifatsiz" "haqiqat" bo`la olmaydi. Bulardan har biri ikkinchi biri uchun bir bosqich bo`lib, uni to`ldiradi, takomillashtiradi. Bu to`rt bosqich kishi hayoti va faoliyatining asl mohiyatini tashkil etar emish. Binobarin, kishi ertayu-kech toat-ibodat qilishi, "Kur'on" o`qishi kerak emish. Butun "Devoni Hikmat" va ayniqsa undagi Muhammad payg`ambarga, Xalifa va Sahobalarga bag`ishlangan hamdu sanolar shuncha toat va ibodat qilishga chaqiradi.

Ahmad Yassaviy kishilarni xudoga banda (tobi-qul) payg`ambarlarga ummat bo`lish va toat-ibodat qilishga chaqirish bilan chegaralanib qolmaydi.

Ahmad Yassaviyning hikmatlarida "sirlar olamiga" g`arq bo`lish bilan tarki dunyochilik bir biriga chatishib ketadi. Ahmad Yassaviy - "Mavtu qabla anta mavtu" ("O`lmasingizdan burun o`ling") degan tezisni ilgari suradi. Bu kishi butun dunyodan, hayotning ne'matlaridan voz kechishi, o`zini har jihatdan qiynab, o`limni yaqinlashtirishi kerak, ya'ni tirik murda bo`lishi kerak, degan so`zdur. "Dunyoni puchak pulga sotqum kelur" degan Ahmad Yassaviy: "Tufroq bo`lg`il, olam seni bosib o`tsin", "Yuz ming balo boshqa tushsa, ingramagil", "Balo kelsa toqat qil", "Dunyo uchun g`am yema, hakdin o`zgani dema" - deb nasihatguylik qiladi.

Xo`sh, Yassaviy "Nasihat" larining ijtimoiy mohiyati va maqsadi nimadan iborat edi. Davri-davrondan boxabar bo`lishiga, jamiyat kishilarini kamtar va kamsuqum, komil inson bo`lishga da'vat etadi.

Ahmad Yassaviy hikmatlariga yuzaki qaralganda, ularda ba'zan "zolimlarga qarshi noroziylik kayfiyatlari" va "beva-bechora hamda miskinlarga mushfiqlik mayllari" kuchlidir.

Biroq bu "kayfiyat" va "mayl" lar Yassaviy hikmatlarining ijtimoiy mohiyatiga zid emas, balki unga muvofiqdir.

Chunki: Ahmad Yassaviy mazlumlarga qarata:

"Zolim agar jafo qilsa, ollo degil",
"Zolim agar zulm aylasa, menga yig`la",
"Yoshing sochib, menga sig`inib, beling bog`la"
- der ekan, u bu bilan zamona kishilarini sig`inishga chaqiradi.

Mehnatkash ommaning boshiga tushgan barcha jabr-sitam va azob-mashaqqatlar kishilarning din va shariat yo`lidan toyganlarni uchun xudo tomonidan yuborilgan jazo ekanligi she'riy parchalarda izohlaydi.

"Xudoga yaqin turgan", Ahmad Yassaviyning o`zi esa:

Haqiqatdan so`zlar aytdim, eshitmading,
Zolimlarni ilgin o`zun qildim mano.- deb, ochiqdan-ochiq zolimlarni qo`llaydi, ularning "qo`lini o`zun qilib", jabr-sitamga keng yo`l ochib beradi.

Zolimlarni "qoralash" va mazlumlarga "mushfiqlik" din va tasavvufni kengroq targ`ib qilish va kishilarni tuzoqqa ilintirish uchun Yassaviy va unga o`xshash mutasavvuflar tomonidan qo`llanilgan munofiqona bir vosita edi.

Mehnatkashlarning zolimlarga qarshi norozilik kayfiyatlari va mazlumlarga mushfiqlik mayllarini ifodalovchi ayrim she'r va she'riy parchalar bir muncha ilg`or pozitsiyada turgan kishilar tomonidan yaratilib, keyinchalik "Devoni Hikmat" ga kirib ketgan bo`lishi mumkin.

"Devoni Hikmat " ning she'riy tuzilishi va tili

Yassaviy hikmatlari bizga qadar aynan yetib kelgan emas. Binobarin, biz Yassaviy hikmatlarining badiiy hususiyatlari va tili xaqida emas, balki xilma-xil o`zgarish va yangiliklar kiritilgan "Devoni Hikmat" ning badiiy xususiyatlari va tili haqida fikr yurita olamiz.

"Devoni Hikmat" dagi ayrim she'rlar (masalan, Yassaviy "sarguzashtlari", Muhammad payg`ambarga bag`ishlangan she'rlar va boshqalar) liro-epik xarakteriga ega bo`lsa-da, ammo boshqa ko`pchilik she'rlar lirik she'rlardir. Shunga ko`ra, "Devoni Hikmat" asosan lirik to`plamdir. Liro-epik she'rlarida din va tasavvufni ayrim "sarguzasht" va "rivoyatlar" bayoni bilan targ`ib qilgan Ahmad Yassaviy lirik she'rlarida ko`proq o`git-nasihat, va'zxonlik usulini qo`llaydi. "Devoni Hikmat" dagi bir necha g`azalni mustasno qilganda, devon murabba shaklidagi she'rlardan tashkil topgan.

Bandlari to`rt misradan tashkil topgan she'r turi o`zbek xalq og`zaki ijodida (ayniqsa qo`shiqlarda) va yozma adabiyotda keng tarqalgan. Bandlari to`rt misradan iborat bo`lgan hikmat asosan "a-a-a-b", "v-v-v-b" tarzida keyingi bandlarga naqorat bo`lib keladi. Aruzda yaratilgan ayrim she'rlarni hisobga olmaganda "Devoni Hikmat" dagi barcha she'rlar barmoq vaznida yozilgandir. Ko`pchilik she'rlar 7 va 12 hijoli she'rlardir. Bu she'rlar ma'lum bir kuyga muvofiq yaratilgan. Ular shayxlar va muridlar, hamda sayoq qalandarlar tomonidan kuylangan. Jahr va va'zlarda aytilgan "Devoni Hikmat" ning xalq qo`shiqlariga yaqin bo`lishi, xalqning orzu-umidlarini ifodalaydigan qo`shiqlarni o`z ichiga oladi.

Biz "Devoni Hikmat" ning XII asr o`zbek tilining yodgorligi emasligini yuqorida eslatib o`tgan edik. Bu tildan-tilga, kitobdan-kitobga o`tib borar edi. Turli davrda, turli hududlarda ko`chirilgan "Devoni Hikmat" ning tili bir-biridan juda katta farq qiladi. Shu bilan birga, unda "Qur'on" dan olingan ta'bir va oyatlar ham, payg`ambar,avliyo va mashoyixlarning nomi ham juda ko`p qo`llaniladi.

Ahmad Yassaviyning shogirdi va izdoshlaridan biri Sulaymon Boqirg`oniydir (1186 yilda Xorazmning Boqirg`on qishlog`ida vafot etgan). Sulaymon Boqirg`oniyning hayoti va faoliyati haqida juda ko`p afsona va rivoyatlar yaratilgan. Sulaymon Boqirg`oniy (u Hakim ota nomi bilan ham yuritilgan) Ahmad Yassaviyga ergashib she'rlar yaratgan ("Boqirg`on kitobi" dagi she'rlar g`oyasi, uslubi va tili jihatidan Ahmad Yassaviy she'rlariga shunchalik yaqin "Boqirg`on kitobi" Qozonda 1877 yilda, keyin o`sha yerda ikki marta nashr etilgan).

Sulaymon Boqirg`oniy she'rlaridan tashqari "Oxir zamon kitobi" va "Bibi Maryam kitobi" deb atalgan ikki doston ham yaratgan. Bu ikki dostonda ham u insoniylikni va yashashning tobiligini targ`ib qiladi, mehnatkash xalqni tarbiyalaydi. Do`zax azoblari, qiyomat qoyim bo`lishi haqidagi afsonalar bilan unga dahshat solmoqchi bo`ladi. Sulaymon Boqirg`oniyning dostonlari ham o`zgarishlar bilan bizgacha yetib kelgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

Din va tasavvuf «Devoni hikmat»ning g`oyaviy negizi ekanligini so`zlang.

«Devoni Hikmat»ning she'r tuzilishi va tili haqida so`zlang.

«Devoni Hikmat» asarida qo`yilgan ahloq masalasini so`zlang.

«Devoni Hikmat»ning o`zbek adabiyoti rivojidagi o`rnini gapirib bering.

Tayanch iboralar.

1.Ahmad Yassaviy hikmatlari.
2."Devoni hikmat"ning qo`lyozma nusxalari.
3.Ahmad Yassaviy didaktikasi.
4.Sulaymon Boqirg`oniy ta'limoti.

F O Y D A L A N I L G A N A D A B I Yo T L A R :

M a t n :

1. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Toshkent, 1990 y.

Z a r u r i y a d a b i yo t l a r :

1. Aliev A. Tilimiz donishmandi. "O`zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 1993 y. 29 oktyabr.
2. Beryozikov Ye. Svyato`e liki Turkistana. Toshkent, 1992 y. 38-53 str.
3. Mo`minov A. Yassaviya: ildiz va manbalar. "Fan va turmush " jurnali, 1993 y. 9-10 sonlar.
4. Alisher Navoiy. Asarlar. 15-tom, Toshkent, 1968 y.
5. Rustamov E. Ahmad Yassaviy hikmatlarida hayot va tarix sadosi. "O`zbek tili va adabiyoti" jurnali. 1972 y. 4-6 betlar.
6. Mallaev N.M. "O`zbek adabiyoti tarixi". Toshkent, 3-nashr 1976

6-Mavzu: Chingizxon istilosi davri adabiyoti .Mo‘g‘ullar istilosi davrida madaniy hayot. “Chig‘atoy hududi” va undagi adabiy hayot. Pahlavon Mahmud ruboiylari.

R Ye J A :

1. Chingizlar istilosi va uning iqtisodiy – madaniy hayotidagi oqibatlari.
2. X-XIII asr xalq og`zaki ijodi.
3. Yozma adabiyot.
4.Pahlavon Mahmudning fors tilida yaratgan asarlari.
5. Badriddin Chochiyning fors tilida yaratgan asarlari.

Markaziy Osiyo xalqlarining XIII asrdagi va XIV asr boshlaridagi madaniyati, san'ati va adabiyoti ham, ularning xo`jalik hayoti singari, Chingizxon istilosi va uning dahshatli oqibatlari bilan bog`liqdir. XIII asrning boshlarida Markaziy Osiyoda feodal tarqoqligi ancha kuchaygan edi. Qattiq kurashlar natijasida XII asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan yirik Xorazm davlati Muhammad Xorazmshoh (1200-1220) davriga kelib siyosiy va harbiy jihatdan zaiflashib ketdi. Mahmud Xorazmshohga qarshi feodal harbiy oppozitsiya vujudga kelgan edi. Bu oppozitsiyani xatto Xorazmshohning onasi Turkon Xotun ham qo`llab-quvvatlar

edi. Xorazmshoh bilan Xalifa o`rtasida ham kuchli ixtiloflar bor edi. Sotqin Mahmud Yalavoch (asli xorazmlik bo`lgan Mahmud Chingiz tomonidan Xorazmshohga elchi bo`lib kelgan edi) Shuning uchun ham u Mahmud Yalavoch deb atalgan, kabi josuslar orqali Chingizxon Xorazm davlatining ichki ahvolini egalladi va O`rta Osiyoga bostirib kirishga bir voqea sababchi bo`ldi. Chingizning Xorazmga yo`l olgan 450 kishilik savdo karvoni 1218 yilda O`tror shahrida talanadi. Savdogarlar qirib tashlanadi.

Chingizxon qo`shini 1219 yilda Yettisuv viloyatini bosib olib, Movaraunnahr va Xorazm chegaralariga yaqinlashib qolgan edi. Mahmud Xorazmshoh esa o`z qo`shinlarini turli viloyatlarga bo`lib yuborgan edi. Bularning barchasi Chingizning g`alaba qilishiga qo`l keldi.

Chingiz qo`shini Buxoroga bostirib kirganda 400 vatanparvar Buxoroda turib 12 kun davomida qattiq jang qiladi. Shahar oqsoqollarining hiyonatiga qaramay, samarqandliklar ham Chingiz qo`shiniga qarshi uzoq va shiddatli jang qiladilar, xalq qahramoni Temur Malik boshchiligidagi Ho`jand aholisi katta qahramonlik ko`rsatdi. O`zini davrining Iskandari deb atalgan kaltabin Xorazmshoh 1220 yildayoq qochib ketgan edi. (U Kaspiy dengizining janub tomonidagi bir orolda kasal bo`lib, xor-zorlikda o`lib ketadi). Chingiz qo`shini qattiq janglardan keyin Termizni olgach, Sharqning eng yirik va eng obod shaharlaridan biri bo`lgan Urganchga qarab yo`l oladi. Xorazmshohning valiahdi Jaloliddinga saroy a'yonlari va askar boshliqlarining ancha qismi bo`yin egmas edi. Bu ahvolda Urganchni mudofaa etishga ko`zi yetmagan Jaloliddin bir oz vaqt Xorazm qo`shiniga boshchilik qilgan Temur Malik bilan birga kuch to`plab, keyin hujumga o`tish maqsadida Xurosonga yo`l oladi. Chingiz qo`shini Urganchni qattiq qamal qiladi. Dushman to`g`onni ochib yuborib, shaharni suv ostida qoldiradi. Shahar xarob bo`ladi. Minglab kishilar, jumladan mashhur vatanparvar Shayx Najmiddin Kubro fojiali halok bo`ladi. Jaloliddin Xuroson, Hind daryosi atrofi va boshqa joylarda Chingizxon qo`shiniga qarshi qattiq janglar olib boradi. Jaloliddin 1221 yilning oxirida Hind daryosi bo`yida bo`lgan so`nggi jangda yengiladi. Oilasini dushman qo`lida, qoldirishni istamay, onasi, xotini va boshqalarini daryo qa'riga tashlaydi, o`zi esa suzib, Hindiston tuprog`iga o`tadi. 1224 yilning boshiga qadar Hindistonda bo`ladi, keyin esa Zakavkazega o`tib u yerda katta davlat qurmoqchi bo`ladi. U 1231 yilda Kurdiston tog`larida halok bo`ladi. Chingiz qo`shiniga qarshi uzoq yillar davomida mardona kurash olib borgan. Temur Malik esa mag`lubiyatdan keyin bir siqim vatani tuprog`ini olib, Shom va Arabistonda darvesh bo`lib bir necha yil kezib, oxiri vataniga qaytadi va mo`g`il
qo`shini qo`liga tushib o`ldiriladi.

Shunday qilib, feodal tarqoqligi, davlat boshliqlarining noahilligi va ayrim yuqori tabaqalarning hiyonati Chin-gizxonning Markaziy Osiyoni bosib olishini hiyla yengillashtirgan edi. Lekin mug`il istilochilariga qarashgan xalq ommasi ruhan mag`lub bo`ladi.

Ular bosqinchilarga qarshi ozodlik kurashi olib boradi. Buning yorqin misoli, jumladan, Buxoro va uning atrofida Mahmud Torobiy rahbarligida 1238 yilda shiddatli xalq qo`zg`oloni bo`lib o`tadi.

Chingiz qo`shinlari Xurosonda, Buxo roda, Samarqandda, Balxda va gullab turgan boshqa shaharlarda vaxshiylik qildilar. San'at, boy kutubxonalar, yuksak qishloq xo`jaligi, saroylar va masjidlar yer bilan yakson bo`lib ketdi. Chingiz istilosi Markaziy Osiyo xalqini nihoyatda kamaytirib yuboradi. Xo`jalik va madaniy hayotda
salbiy iz qoldiradi.

X-XIII asr x alq og`zaki ijodi: Chingiz istilosining dahshatli oqibatlari, xalqning bosqinchilarga qarshi qahramonlarga kurashi badiiy adabiyotda, jumladan xalq yaratgan og`zaki adabiyot asarlarida o`z ifodasini topdi. "Bo`ji keldi, bo`ji keldi, Chingiz bilan Jo`ji keldi" deb Chingiz istilosiga qarshi qahr g`azabini ifodalagan afsonalar, ertaklar yaratdi.

Mo`g`il bosqinchilariga qarshi xalq qahramonlik kurashini, vatan xoinlariga qarshi uning nafratini yaqqol ifodalovchi asarlaridan «Guldursun» afsonasidir. O`rta Osiyo va Sintszyan turkiy xalqlari, xususan o`g`o`z va qarluq - uyg`ur dialektining qadimgi yodgorliklaridan bo`lgan "O`g`uznoma" ham qisman shu davrga taalluqlidir.

"O`g`uznoma" faraz qilinishicha, XIII asrda yoki XIV asr boshida kitobat qilingan. ("O`g`uznoma" ning bizga qadar uyg`ur yozuvida yetib kelgan nushasi, A.Shcherbakning tahminicha, XV asrda Yettisuvda ko`chirilgan), unda qadimgi zamonlarda vujudga kelgan mifologik afsonalar bilan birga dahshatli istilo va urushlar
tasvirlanadi.

Yozma adabiyot: Chingizxonning istilosi yozma adabiyot taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir etdi. Istilochilar nodir madaniyat yodgorliklarini, jumladan san'at va adabiyot asarlarini yo`q qilib, yemirib tashladilar.

Mo`g`illar istilosi va istibdodi diniy reaktsiyaning yanada kuchayishiga, tasavvuf tariqatlarining kengroq tarqalishiga sabab bo`ldi. Biroq diniy reaktsiya va tasavvufning kuchayishi badiiy adabiyotdagi dunyoviy yo`nalishini bo`g`ib tashlay olmadi. Buni, jumladan, 1233 yilda Ali degan shoir tomonidan o`g`uz dialektida yaratilgan "Qissai Yusuf" dostonida ham ko`rish mumkin.

Pahlavon Mahmud : Pahlavon Mahmud XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning boshlarida yashab ijod etgan mutaffakkir - faylasuf shoirdir. Mahmud ota-onasi Qo`xna Urganchdan Xivaga ko`chib kelayotganlarida 645 (1248) yilda Xiva yaqinida tug`iladi. Xorazmning ko`p shaharlari va Hindistonga borib kurashga tushadi, doimo g`alaba qozonadi. Shuning uchun u "Pahlavon Mahmud" nomi bilan shuhrat qozongan. Otashin vatanparvar Xiva yaqinida Chingizxon qo`shiniga qarshi janglarda halok bo`lgan. Xorazm askarlarining qabri ustiga maqbara qurdiradi. Uning asosiy kasbi po`stindo`zlik, telpakdo`zlik edi. Shu bilan birga Pahlavon Mahmud ilm-fan va badiiy adabiyot bilan shug`ullanadi. Umar Hayyomning izidan borib fors-tojik tilida ko`p original ruboiylar yaratadi. Shamsuddin Soli-bekning "Qomus - ul - a'lom" ("Atoqli kishilar qomusi") va Latif Alibek Ozarning "Otashkadan Ozariy" asarlaridagi ma'lumotlariga qaraganda, u "Kanz – ul Haqoyik" («Hakikatlar xazinasi») nomli bir masnaviy ham yaratgan. Pahlavon Mahmud 726 (1326) yilda Xivada vafot etadi. Shogirdlari uni Xivadagi po`stindo`zlik ishxonasi atrofiga dafn etadilar. Keyinchalik uning qabri ustiga muhtasham bir maqbara quradilar.

Pahlavon Mahmudning bizga qadar bir necha yuz ruboyisi yetib kelgan. U hayotining so`nggi yillarida moddiy borliqning manguligi, inson va tabiat haqida fikr yuritadi. Ahloq, odob, vatan ishtiyoqi, sevgining zavq-shavqi va boshqalar haqida so`zlaydi. Mana Pahlavon Mahmud ruboiylaridan bir necha
namunalar (kitobda). Bu ruboiylar Pahlavon Mahmudni feodal klerikal doiralar, Pahlavon Mahmud ijodiyotining asl mohiyatini sahnalashtirishga, uning she'rlariga ilohiy tus berib, o`zini avliyo qilib ko`rsatishga uringanlar. Pahlavon Mahmud gumbazini "Muqaddas ziyoratgoh" ga aylantirib, undan daromad ko`rganlar va mehnatkash xalq ongini bu "avliyo" haqidagi afsonalar bilan zaharlashga uringanlar.

Badriddin Chochiy: Mo`g`il yag`mosi davrida boshpana izlab, boshqa o`lkalarga ketib, o`sha yerlarda turg`un bo`lib qolgan ilm-fan, adabiyot va san'at ahillaridan biri Badriddin Chochiydir. Badriddin Chochiy toshkentlikdir . U 1332-1333 yillarda Makkadan qaytishda Dehliga tushib, o`sha yerda qolib ketgan.
"Qomus-ul-a'lom" dagi ma'lumotga qaraganda, Badriddin Chochiy Movarounnahrda yashagan chog`larida turkcha (eski o`zbek tilida) she'rlar bitgan. Baxtovorxonning "Me'rot - ul - olam" ("Olamning ko`zgusi" ) asarida berilgan ma'lumotga ko`ra u 35 ming baytli "Shohnoma" ham yaratgan. Devonning mukammal nushalari ham no'malum qolib kelmoqda. Uning bizgacha saqlanib qolgan asari o`limidan bir yil muqaddam, 744 yilda (1343-1344 yillarda) to`zilgan "Sharhi Qasoidi Badri Chochiy" bo`lib, u 71 qasida, 105 qit'a, 634 g`azaldan iboratdir. Badriddin Chochiy
Sadriddin Ayniyning ta'kidlab o`tishicha, juda murakkab biruslubda she'r bitgan. Mashhur Hind olimi "G`iyos - ul - lug`at" kitobining avtori G`iyosiddin binni Jaloliddin Mustafo 1256 (1840-1841) yilda Badriddin Chochiy asarlarini kitobxonalarga yetkazish maqsadida ularga sharh sifatida " Kashf-ul-asror" ("
Sirlarning ochilishi ") asarini yozgan.

Badriddin Chochiyning asarlari ham, Pahlavon Mahmudning adabiy merosi kabi, hali yetarli o`rganilgan emas.

Shunday qilib, Chingizxon istilosi va Mo`g`ilxonlarni istibdodi O`rta Osiyo xalqlarining xo`jalik hayoti va madaniyatiga katta talofat yetkazgan, ko`p obod joylarni vayronaga aylantirgan, ming-minglab kishilarni qirib tashlagan, ko`plarini najot istab turli mamlakatlarga bosh olib ketishga majbur qilgan edi. Lekin istilochilar O`rta Osiyo xalqlarining ozodlik kurashini,ularning ho`jalik va madaniyatda erishgan tajriba va an'analarini yemirib tashlay olmadilar. Chingiz va Chingiziylarni, vatanfurush xoyinlarni fosh etib badiiy asarlar yaratdi. Din va tasavvufning badiiy adabiyotga ta'siri natijasida peshqadam yozuvchilar yangi, original asarlar ijod qildilar. Bu davrda qarluq, qipchok, o`g`uz va boshqa dialektlar bir-biriga yaqinlashib, biri ikkinchisini boyitib bordi.

Mustahkamlash uchun savollar

Chingizlar istilosini so`zlang.

X-XIII asrdagi og`zaki va yozma adabiyot yodgorliklari qanday?

Pahlavon Mahmud ruboiynavis shoir ekanligini gapiring.

Badriddin Chochiyning ijodi haqida so`zlang.

Tayanch iboralar.

1.Chingizxon istilosi.
2.Xalk og`zaki ijodi.
3.Pahlavon Mahmud ruboiylari.
4.Badriddin Chochiy.

F O Y D A L A N I L G A N A D A B I Yo T L A R :

1. Pahlavon Mahmud. Ruboiylar. Toshkent, 1962 yil.
2. O`zbek adabiyoti bo`stoni. Mangu buloqlar. Toshkent, 1986 y. 158-182 betlar.
3. T.Jalolov. So`z boshi. Pahlavon Mahmud. Ruboiylar. 1962 y. 7-34 betlar.
4. Mallaev N.M. O`zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1976 y.
5. Abdullaev I. Poeziya na arabskom yazo`ke Sredney Azii i Xorasane X v nachale XI vekov. Izd-vo "Fan" UzSSR. Toshkent, 1984 g.
6. Stebleva I.V. Razvitie tyurkskix form v XI veke. Izd-vo "Nauka", Moskva, 1971 g.

7-MAVZU: Nosiriddin Rabg‘uziy hayoti va ijodi. “Qisasi Rabg‘uziy” asari

Nosiriddin Rabg‘uziy hayoti va ijodi. “Qisasi Rabg‘uziy” asari

REJA:

1. *Mumtoz adabiyotda Payg‘ambarlik qissalari.*
2. *Nosiriddin Rabg‘uziy hayoti va ijodining manbalari.*
3. *«Qisasi Rabg‘uziy» («Kisasu-l-anbiyo») - asarining yaratilish.*
4. *Qissalarda Payg‘ambarlik tarixi voqealari. Asarning badiiyati.*

1. Mumtoz adabiyotda Payg‘ambarlik qissalari.

«Qisasi Rabg‘uziy» («Kisasu-l-anbiyo») - o‘zbek badiiy nasrining ilk namunasi sifatida. «Qisasi Rabg‘uziy» («Kisasu-l-anbiyo») - o‘zbek badiiy nasrining ilk namunasi sifatida. Asarning yaratilish tarixi. Asarning tarkibi va janr xususiyatlari. Qissalarda islom mifologiyasining aks etishi. Qissalarda Payg‘ambarlik tarixi voqealari Asardagi nazmiy parchalar. Ularning badiiyati: vazn, qofiya va she’riy san’atlar.

«Kisasu-l-anbiyo»ning tarbiyaviy qimmati va o‘zbek nasri taraqqiyotidagi o‘rni. O‘zbek mumtoz she’riyati qanchalar dilbar va diltortar bo‘lmasin, nasriy asarlar ham asrlar davomida xalqimiz tomonidan ardoqli bir suratda mutolaa qilingan, maktab-madrasalarda o‘qish kitobi sifatida qabul qilingan. “Mahbubu-l-qulub”, “Boburnoma”, “Miftohu-l-adl” kabi mumtoz nasr namunalari qatorida, to‘g‘rirog‘i, ulardan avval yaratilgan “Qisasi Rabg‘uziy” asari o‘zbek

nasrining shakllanishida muayyan rol o‘ynagan. Soha mutaxassislari g‘azal, fard kabi janrlarning dastlabki namunalarini ham mana shu adabiy manbada uchratganlar.

5. *Nosiriddin Rabg‘uziy hayoti va ijodining manbalari.*

“Qisasi Rabg‘uziy” asari XIV asrning boshlariga tegishli adabiy manba bo‘lib, uning muallifi Xorazmning Raboti O‘g‘uz qishlog‘ida qozilik qilgan Nosuruddin Burhonuddin o‘g‘li Rabg‘uziydir. Kitob muallifi haqida boshqa ma’lumotga ega bo‘lmasak ham, asarning muqaddimasida “Bu kitobni tuzgan, toat yo‘lida tizgan, ma’iyat yobonin kezgan, oz ozug‘lig‘ Rabot O‘g‘uzining qozisi Burhonuddin o‘g‘li Nosuriddin” deb yozilgan[41]. Ushbu asar turkiy tilda yozilgan dastlabki nasr namunalaridan biri sanalgani uchun u “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Tatar adabiyoti tarixi”, “Turk adabiyoti tarixi”, “Turkman adabiyoti tarixi” va boshqa turkiy xalqlar adabiyotlari tarixiga kiritilgan, xatto undan ayrim namunalar umumta’lim maktablarining 9-sinfida, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining birinchi yilida Adabiyot darslarida o‘qitiladi. Shunday ekan, “Qisasi Rabg‘uziy” asariga o‘zbek mumtoz nasrining ilk namunalaridan biri sifatida hamda adabiy-tarixiy manba sifatida yondoshish maqsadga muvofiq keladi.

6.«Qisasi Rabg‘uziy» («Kisasu-l-anbiyo») asarining yaratilish.

Ushbu manba 72 qissadan iborat bo‘lgani uchun “Qisas”, ya’ni qissalar nomi bilan yuritiladi. Asarning dastlabki qissasi kosmogoniya, ya’ni Yer, Suv, Borliq va Mavjudotlarning yaratilishiga oid bo‘lib, ularning Yagona Yaratuvchisi haqida so‘z yuritadi, uning qodir qudratini ulug‘laydi. So‘ngra esa nabilar tarixi beriladiki, bu tarix ma’lum ma’noda Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining yaratilishiga sabab bo‘lgan, buyuk shoir o‘z asarida yuqoridagi qissalardan unumli foydalangan.

Asardagi Nuh, Ya’qub, Yusuf, Sulaymon, Dovud v.b. qissalari qahramonlarining jahon badiiyati xazinasidan o‘rin olishida ular hayotiga oid qissalarning ahamiyati katta. Muallif ularni ravon til bilan hikoya qiladi, xalqqa tushunarli bo‘lgan ibora va poetik vositalarni faol qo‘llaydi. Shuning uchun ham Rabg‘uziy qissalari asrlar davomida xalqimizning sevimli asarlari sifatida madaniyatimiz xazinasida o‘rin olgan.

7. Qissalarda Payg‘ambarlik tarixi voqealari. Asarning badiiyati: vazn, qofiya va she’riy san’atlar.

Professor Fitrat asarning ta’limiy, axloqiy va estetik jihatlarini ta’kidlar ekan, uning tarkibiga kirgan mustaqil hikoya va she’rlarga alohida to‘xtaydi, bu namunalarni o‘zining “Adabiyot qoidalari”, “O‘zbek adabiyoti namunalari” singari darslik va qo‘llanmalariga kiritadi. Jumladan, “Qisasi Rabg‘uziy”ning Yusuf alayhissalom qissasidan o‘rin olgan

Sabo esnayur-da yig‘och bong solar,
Bulut yig‘layur-da, chechaklar kular.
Bu mundog‘ chechaklarda ko‘nglum bu kun,
Sening birla o‘lturub ovunmoq tilar

parchasini yuksak badiiyat namunasi sifatida baholaydi[42].

Asarning nafaqat badiiy jihati, balki g‘oyaviy-ta’limiy ahamiyatini belgilashda “O‘zbek adabiyoti tarixi”ning ushbu xulosasi o‘rinlidir: “...real tabiatga bo‘lgan muhabbatni kuylab, dunyoviy ishlarga bo‘lgan rag‘batni ifoda etgan, ayni paytda cheklangan axloq-odob ko‘rinishlarini tanqid qilib, unga yuksak e’tiqodlarni qarshi qo‘ygan “Qisasi Rabg‘uziy” asari davr adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutadi”[43].

Bu kabi e’tirof va iqtiboslar Rabg‘uziy qissalarining hozirgi kun uchun ham asqotarli ekanini ta’kidlaydi. Bu asar talaba yoshlarimizning adabiyot fanidan olgan bilimlarini to‘ldiradi, ularni ezgulikka, pok va halol yashashga chorlaydi. Zero, taraqqiyot sari dadil odimlayotgan mustaqil yurtimizda yaratilgan nasriy asarlar Vatan tarixini o‘rganishda, hamyurtlarimizning ma’naviy komillik yo‘lidagi harakatlarida muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

---

[41] Ўзбек адабиёти тарихи. 1 том: Энг қадимги даврлардан XV асрнинг II ярмигача. – Т.: Фан, 1978. – Б. 178.
[42] Фитрат. Адабиёт қоидалари / Танланган асарлар. 4-жилд. – Т.: маънавият, 2006. – Б.
[43] Ўзбек адабиёти тарихи. 1 том: Энг қадимги даврлардан XV асрнинг II ярмигача. – Т.: Фан, 1978. – Б. 184.

Matn va manbalar: 1. Qisasi Rabg‘uziy. I–II jild, (nashrga tayyorl. E.Fozilov, H. Dadaboev, A. Yunusov). –T.: 1990; Nosiruddin Rabg‘uziy. Kisasi Rabg‘uziy. – T.: «MUMTOZ SO’Z», 2009.

Ilmiy adabiyot: 1. T.G‘afurjonova. Rabg‘uziy / O‘zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. 1-tom. - T.: Fan, 1978. – B. 178-185; H.Boltaboev. Rabg‘uziy qissalari adabiy-tarixiy manba sifatida / Nosiruddin Rabg‘uziy. Kisasi Rabg‘uziy. – T.: «MUMTOZ SO’Z», 2009. – B. 3-5.

O’zbekiston Respublikasi
Oliy va o’rta maxsus ta’lim Vazirligi
Z.M.Bobur nomidagi
Andijon Davlat Universiteti

O’zbek adabiyoti kafedrasi

O’zbek mumtoz adabiyoti kursidan ma’ruza matnlari (XIV-XVI asr adabiyoti)

Andijon-2013

TUZUVCHI: dotsent B. Jalilov
Taqrizchi: dotsent A. Jo'raxonov

Ushbu ma'ruza matni kafedra qaroriga asosan Andijon Davlat Universiteti o'quv-uslubiy hay'ati tamonidan (1999 yil 4 sentyabr) qo'llanganligi tavsiya etilgan.

MUQADDIMA

O'zbek mumtoz adabiyotining ajralmas bir qismidir. Xalqimiz madaniyat tarixi ildizlari teran bo'lgani kabi o'zbek mumtoz adabiyoti uzoq va boy tarixga ega bo'lib, undan jaqon madaniyatiga ma'lum va mashhur asarlar meros bo'lib qolgan.

Sho'ro davrida adabiyot tarixi Lenin ta'limotiga ko'ra tanlab o'rganildi. Sho'ro siyosati mashinasiga "Vincha" bo'lishga hizmat qiluvchi qismigina o'rganildi, o'sha siyosatga moslashtirildi.

Mumtoz adabiyot na'munalari taxlilida mavzu, g'oya timsollar tizimi soxtalashtirildi, badiyat masalalariga yetarli e'tibor berilmadi.

Istiqlol mumtoz adabiyotini puxta o'rganishga imkoniyat yaratdi. Endilikda mumtoz adabiyot namunalarini o'zligicha adabiyotning bosh masalalaridan biri bo'lgan badiyat qonunlari asosida o'rganish zarur.

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida XIV-XVI asr adabiyoti alohida o'rin tutadi.bu davrda jahon madaniyatiga katta xissa qo'shgan Otoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Navoiy singari ulkan ijodkorlar yashab ijod etgan. Bu davrda turkiy til davlat tili darajasiga ko'tarildi, dunyoviy adabiyot rivojlandi, mumtoz adabiyot o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Turkiy adabiyot boshqa xalqlar adabiyoti bilan mustaxkam aloqada bo'ldi.

Bu davrning muhim xususiyati shundaki, bu davrda Navoiy va Bobur hayoti ijodi o'rganildi. Bugunning talabi shundaki faqat adabiyotshunosgina emas, ziyoli sanalgan har bir inson bu kabi ijodkorlar ijodi bilan yaqindan tanish bo'lmog'i zarur. Chunki ular ijodi go'zallikning, badiyatning yuksak na'munalari bo'lib, insonni kamolot sari yetaklashga hizmat qildi.

Sho'ro siyosati bizni ana Shunday imkoniyatdan maxrum etdi. Ulug' Shoirlar ijodi kam va chala xolda nashr etildi. Sho'ro davrida asarlarning nashri bo'yicha Navoiyning 42-o'rinda turishini qanday izoxlash mumkin. O'zbek mumtoz adabiyotini istiqlol g'oyalari asosida o'rganuvchi darsliklar, qo'llanmalar xali yaratilgani yo'q. Mavjud darslik va qo'llanmalardagi ko'pgina masalalar ko'pgina masalalar istiqlol qoyalariga ziddir. Masalan, Amir Temur, Xo'ja Axror haqidagi qarashlar yoki Navoiy progressiv adabiyot vakili deb qaralishi kabidir.

Ta'lim jarayonidagi ana shu ochiqlikni to'ldirish uchun XIV-XVI asr adabiyoti tarixiga oid Ma'ruza matnlari yaratildi. Unda davr adabiyoti istiqlol g'oyalari bidyat qonunlari asosida o'rganildi. Muallif bu ish orqali talabalarni qadriyatlarni chuqur bilishiga mumtoz adabiyotni g'oyalarini hosil qilishni maqsad qilgan.

1-Ma'ruza

Temuriylar davrida madaniy hayot. Xorazmiy va uning "Muhabbatnoma"si. Noma janri.

REJA.

1. O'rta O'siyoda Mo'g'ul hukumronligining yemirilishi.
2. Temur imperiyasining maydonga kelishi.
3. Amir Temur faoliyati haqida. Temur imperiyasining yemirilishi.

4. Shayboniylar dinastiyasi xukumronligining boshlanishi.

Ikki daryo o'rtasiga joylashgan yurtimiz qadimda "Mavoronaunnaxr" deb atalgan. Bu so'z arabcha so'z bo'lib "daryo orti" degan ma'noni ifoda etsa-da, "ikki daryo orasi" degan ma'no bilan shuhrat topgan. Bu daryolar amu va sir daryolari bo'lib, ular Sayxun va Jayxun, O'quz, kabi nomlar bilan mashxur bo'lgan. Yurtimizning suniy sug'orishga asoslangan yerlari serunum bo'lib ,yer osti ,yer usti boyliklari bilan chet el bosqinchilarining diqqatini tortib kelgan. Ular: Doro,Kir,Iskandar,Qutayba,Chingizxon,Kaufman ,Skobelov,Frunze kabilar timsolilarida yurtimizni talaganlar. Shoir yozganidek:

O'tdilar sho'rlik boshingdan o'ynatib shamshirlarin,
Necha qon, necha sulton, necha ming xon o'zbegim.

Erksevar xalqimiz hech qachon bosqinchilarga bosh egmagan. Shiroq, To'maris, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin, Madaminbek bo'lib, ularga qarshi beomon ko'rashganlar. Shoir yozganidek:

Davr zulmiga va lekin bir umr bosh egmading

Sen Muqanna sarbador sen erksevar qon o'zbegim. Ana Shunday bosqinlardan biri XII asrda Chingizxon tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, uning avlodlari xukumronligi XIV asrning 60- yillariga kelib ,mug'ul zulmiga qarshi xalq qo'zg'oloni ko'tarila boshladi .Ular ichiga sarbadorlar qo'zqoloni aloxida ajrab turadi.

Bu harakat mo'g'ul qukumronligi ildiziga bolta urildi.Muhammad Alining "Sarbadorlar" ramanida ,Azim Suyunning "Sarbadorlar" dostonlarida bu harakat yahshi tasvirlangan.

Ana Shunday sharoitda tarixiy maydonga Amir Temur faoliyati yetarli o'rganilmadi.,unga salbiy baxo burildi.Ivan Grozniy Pyotr I singari rus podsholari ulug'langan xolda butun jaxon tan olgan. Amur Temurga bir yoqlama munosabatda bo'lindi. Istiqlol sharofati tufayli Amur Temurga odilona baxo berildi .Uning 660 yilligi munosabati bilan juda ko'p ishlar amalga oshirildi .

U barlos urug'idan bo'lib ,1336 yili Kesh shaxrida tug'ilgan .Otasi Amir Tarag'ay bo'lib, onasi Takina xotun deb yuritilar yedi.

Amur Temur tug'ma qobiliyati tufayli sarbozlikdan Xusayinning lashkashboshi darajasida yetdi.Xusayinni ham o'rtadan olib tashlab, mo'g'ullarga qarshi kurasha oladigan hukmdorga aylanadi.

Temurning To'xtamish ustidan g'alabasi O'rta Osiyonigina yemas ,Rassiya ham Mo'qil zulmidan ozod qildi .Temur Xorazm , Kavkaz orti yurtlarning Eronni, Xindni zabt etib imperiya tashkil etdi.

Bu imperiya davrida ilm- fan o'sdi, yurt obod bo'ldi. Temur barpo etgan Oq saroy, Registon, Shohi Zinda kabi imoratlar hanuz O'zbek xalqining iftixori bo'lib turibdi.

Temurning turkiya sultoni Yeldirim boyazid ustidan qozongan g'alabasi Yevropani Turkiya zulmidan ozod etdi.

Fransiyada Tnmur haykali poyiga "Evropa Xalaskoriga" deb yozilgan Potstol Shaxridagi temug aks ettirilgan sur'atlar Yevropning Temurga extiromi nishonasidir.

Istiqlolgacha badiy adabiyotda Temur siymosi noto'g'ri aks ettiridi. G'. G'ulomdan A. Oripovgacha bo'lgan ijodkorlar jaxongirni bosqinchi, cho'loq deyishdan nariga o'tmadilar. S. Barodinning "Samarqand osmonida yuldo'zlar" trilogiyasida Temur timsoli bir tomonlama aks ettirildi.

Fitrat 1918 yili "Temur sag'anasi" nomli drama yozib, Temur siymosini to'qri aks ettirildi. Oyek ham Amir Temur haqida doston yozgan bo'lsa-da, uni nashr ettirishga jur'at etmagan.

Istiqloldan so'ng jaqongir haqida bexisob asarlar yuzaga keldi. Bular ichida A.Oripov, O.Yoqubov, T.Mirzo, M.Jalil dramalari, B.Axmedov romani singari asarlarini ko'rsatish mumkin.

Istiqlol qoyalari asosida. A.Temur faoliyati haqida quyidagilarni alohida ta'kidlash zarur. 1941 yil 21 iyun kuni jaqongir xil xonasi ochildi. Temur bosh suyagi Leningradga olib keltirildi.

Gerasimov bizga taqdim etgan jahongir rasmi mutlaqo noto'q'ri talqinda edi. Ilgari da'vo qilingan Temurning savodsizligi mutlaqo noto'qri bo'lib, Navoiyning uqtirishicha, nazm va nasrlarni "Andoq xo'p maqol va mavqeda" o'qigan. Undan "Temur to'zuklari", "tarjimai xol" singari asarlar meros bo'lib qolgan.

Temur ulkan binolar, bog'lar barpo etib, yurt tinchligini ta'minlagan. Ilm-fan, hunarmandchilik taraqqiyotiga keng yo'l ochgan.

Temur 1405 yili O'tror shaqrida vafot etgan. Garchand Temur Pirmuhammad Jaqongirni taxt vorisi qilib tayinlagan bo'lsa-da, taxt uchun beomon janglar boshlanib ketdi. 1409 yili Shoqrux g'alaba qildi. U Huroson taxtiga o'tirib, Samarqand taxtiga 15 yashar o'g'li Ulug'bekni o'tkazdi.

Bulardan tashqari Temur Shuxratini davom ettirishda Abulqosim Bobur, Abu Sayid Xusayn Bayqaro singari Shoxlar katta ishlar qildilar.Xusayin Bayqaro davrida Xirot Sharqning yirik madaniyat markaziga aylanli.

Xusayin Bayqaro xukumronligining so'ngi yillari ichki Xurosonga Shayboni qo'shinlari ko'z tika boshladi. Temuriylar ichida Bobur Shayboniga qarshi mardonavor ko'rash olib borishdi. Boshqa Temuriylar uni qo'llmagani sababali Bobur yengildi.

Shayboniyga qarshi qo'shinlar yiqilayotgan vaqtda qusayn Bayqaro vafot tadi.Oqibat, Shayboniy Temuriylar dinastiyasini yiqitib, O'rta Osiyoda o'z xukmronligini o'rnatadi. Demak, XIV-XVI asr ijtimoiy hayoti Chingiz xukmronligining yemirilishi,Temur imperiyasini yo'zaga kelishi parchalanishi,Shayboniylar dinastiyasi qukmronligi bilan izoqlanadi.Temur imperiyasi davridla yurt tinchligi ijtimoiy qayot taraqqiyoti boshqa soxalarda bo'lgan ko'tarilishlarni yo'zaga keltirgani sababli badiiy adabiyot taraqqiyot iga ham keng yo'l ochdiki, Otoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur singari zabardas ijodkorlar mana Shu davr maqsulidir

Adabiyotlar:

1. N.M.Mallaev.O'zbek adabiyoti tarixi.T.,1965yil
2. O'zbek adabiyoti tarixi.V-jildlik, I-jild,1975 yil
3. Ya.qulomov.Alisher Navoiy davrini o'rganish haqida.("Ulug' O'zbek Shoiri") T.,1948 yil
4. B.Axmedov.Tarixdan saboqlar.T., 1948 yil
5. Sh.Karimov,R.Shamsutdinov.Vatan tarixi.Andijon.1995 yil
6. Sh.Karimov.,R.Shamsutdinov.Soxibqiron Amir Temur va Saltanati.Andijon.1995 yil
7. Andijonda soqibqironni xotirlab,Andijon 1996 yil

Tayanch iboralar.

1. Temuriylar imperiyasining maydonga kelishi
2. Amur Temur faoliyati
3. Amur Temur haqidagi badiiy asarlar
4. Temuriylar imperiyasining yemirilishi

XIV-XVI asrlarda ilm-fan taraqqiyoti.

REJA.

1.Ilm-fan taraqqiyoti ijtimoiy omillari.
2.Ijtimoiy va aniq fanlar taraqqiyoti
3.Ulug'bek va uning faoliyati

"Tmurxon naslidin sulton Ulug'bek
Ki olam ko'rmadi sulton aningdek"

(A.Navoiy)

Xalqimiz taixida Shunday davrlar borki, bu davrda ilm-fan taraqqiyoti yo'qsak darajaga ko'tarilgan. Uyqonish davri debatalgan bu davrlarga IX-XI asrlarni XV asrni kiritish mumkin.

Temuriylar davrida uning boshqa davlatlar bilan siyosiy ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarining kuchayishi mamlakat ichida ulkan obodonlashtirish ishlarining amalga oshirilishi o'am aniq fanlarning rivojiga yo'l ochgan.

Suniy suqorish inshoatlarining qurilish matematika, geometriya singari fanlar taraqqiyotiga sabab bo'ldi. Tabobat sohasida Faxriddin Xo'jandi, Yusuf tabib singari mashhur tabiblar shuhrat topdilar.

Mazkur davrda tarix ilmi beqiyos rivojlandi. Sh.A.Yazdiy ("Zafarnoma"), Mirxon ("Razzat-ul vaqoe"), Bobur ("Boburnoma") asarlari tarix ilmi rivojiga katta xissa qo'shdi. Adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyotida Jomiy, Navoiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Bobur singari adabiyotshunoslar asarlari muhim rol o'ynaydi.

Bu davr olimlari faoliyati ularning zamonasidagi o'rni kurashi masalalarini yahshi tasavvur qilish uchun Ulug'bek faoliyatiga nazar tashlaylik.

Muhammad Taraqay Ulug'bek 1394 yili Shohruh oilasida dunyoga keldi. Onasi Gavqarshohbegim saroyda katta nufuzga ega bo'lgan ayol edi. Ulug'bk faoliyatiga nazar tashlaylik.

Muhammad uning ismi bo'lib Taraqay Temurning otasining ismidir. Temur 15 yoshida Samarqand taxtiga o'tirdi.

40 yil podshohlik qildi. Bu davr ichida siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda ulkan ishlarni amalag oshirildi.

Uning astranomiya ilmi sohasidagi ishlari beqiyosdir. U rasadxona barpo etib, 1018 yulduzning harakat vakolatini o'rgandi. "Zichi Ko'ragoniy" deb nomlangan kitobida uning astronomiya soxasidagi ko'zatishlari jamlangan. U tarixchi olim sifatida "Tarixi arba' ulus", ("To'rt ulus tarixi") nomli asar bitdi. Ulug'bek matematikaga oid risola yozgan. She'riyat vamusiqa bilan shuo'ullangan. Musiqashunos sifatida bulujiy shodiyona axloqiy tabriziy singari kuylar yaratgan o'zi sozda ijro etgan. Madrasada ilim toliblariga dars berish sevimli mashquloti bo'lgan.

Ulug'bek bobosi Temur kabi umri boqiy binolar, boqlar barpo etgan. Amir Temur raxbarligida boshlangan "Bibixonim", "Go'ri Amir", "Shoxizinda" kabi binolarni Ulug'bek nig`oyasiga yetakzgan. Samarqand, Buxoro, Gijduvon va boshqa Shaharlarda malrasalar barpo etgan.

Buxoro madrasasining peshtoqiga: "Talabul ilm farizatun alo kulli muslimun" ("Ilmga intilish butun musulmon erkak va ayollarga farzdir") deb yozdirib qo'ygan.

Ulug'bek "Chixl ustun", "Boqi maydon" kabi boqlar barpo etgan. Ulug'bek haqida tarixiy badiy manbalarda faqat ijobiy fikrlar berilgan. Olim ilmiy maktabiga mansub Qiyosiddin JamShid Shunday yozgan: ..."ul kishi muqaddas "Qur'onning katta qismina yoddan biladilar". Sarf ila naqvni yahshi biladular, arabchani ko'p yahshi yozadurlar. Shu bilan birga fikrni mantiqni ilmi adabni musiqaning nazariy asoslarini yahshi biladurlar.

Navoiyning "Majolis-ul Nafois" kitobda Ulug'bek haqida qiziqarli ma'lumotlar bor. Jumladan Ulug'bekning She'riyat bilan shug'ullangani aytilib uning bir bayti keltiriladi:

Har chand mulki xusn ba zeri nigini tust,
Sho'xi manun ki badon dar kamini tust.

("Go'zallik mulki qo'l ostingda bo'lsa-da, sho'xlik qilmastlni yomonlarning ko'zi senga ko'zatmoqdalar")

Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida ham Ulug'bek haqida ma'lumot beradi. Boburning "Boburnoma" asarida Ulug'bek nomini 19 joyda zikr etadi. Bobur Ulug'bek o'limiga tarix baqishlagan.

Ulug'bek bahri uluji Xirot,
Ki dunyovu dinro azu bud pusht.
Za Abbos shahri shaxodat chashid
Shudash harfi tarix Abbos kust.

Tarjimasi:

Ulug'bek ilm va aqlning deganidan edi

U dunyo va dinning orqa tayanchi edi
Abbosdan shaxidlik bolini totidi
Uning o'lim tarixi "Abbos qusht" bo'ldi

Maskur tarixda "Abbos Qusht" so'zlaridan Ulug'bek o'ldirilgan yil kelib chiqadi. Ulug'bekning hayoti va ijodi V.Bartoldning "Ulug'bek va uning davri", qori - Nyyoziyning "Ulug'bekning astranom maktabi", B. Axmedovning "Ulug'bek" singari asarlarida ilmiy asosda o'rganilgan. Shuningdek V. Viyatkin, V. L Shishqin, T. Jalolov, N. Leonov tadqiqotlarida ham Ulug'bek ilmiy merosiga mansub ma'lumotlar bor.

Ulug'bek haqida badiy adabiyotlarda ham keng malumotlar uchraydi. Sakkokiy Ulug'bekka baqishlab to'rtta qasiad yozgan. S. Barodinning Samarqand osmonida, yuldozlar tiologiyasida, Ulug'bek timsoli. yaratilgan. Ulug'bek timsoli M. Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida barkamol qilib berilgan. Asardagi Temurning ilmiga Ulug'bek va Xo'ja Axror munosabatlari istiqlol qoyasi asosida qayta baxolandi.

Tragediyada Ulug'bek timsolini xalq artisti Sh. Burhonov maromiga yetkazib o'ynaydi. "Ulug'bek yulduzlari" kino filmida ham Ulug'bek timsolini Sh. Burxonov yaratdi. O. Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida ham Ulug'bek timsoli to'la qonli yaratiladi. Roman asosida vidio film ishlangan bo'lib unda Ulug'bek timsolini Z. Muhammadjonov yaratdi.

She'riyatda Ulug'bek haqida fikrlar E. Voxidovning O'zbegim qasidasida, A. Oripovning " O'zbekiston-Vataiim manim" She'rida, M. Yusufning "Samarqand" She'rlarida uchrayda.

Istiqlol g'oyalari asosida Ulug'bek timsolini yaratish adabiyot oldidagi vazifalardandir. Ulug'bekning 10 yoshida Muhammad Sultonning qizi O'gaybekaga uylanishi, 15 yoshida Amir Temur taxtiga o'tirishi, Shoxrux kutubxonasida kechgan mas'ud damlar singari voqealar ne-ne asarlarga material berishi mumkin.

Oy haritasining tozgan nemis olimi I. Medler undagi kraterlardan biraga 1834 yilda Ulug'bek nomini berdi. Kitob Shaxridagi Xalqaro kenglik stantsiyasiga Ulug'bek nomi berilgan. 1977 yil 2 avgustda Qarshi rasadxonasi xodimi N. Chernix yangi bir kichik sayyoraning kashf etdi. 2439 rahami bu sayyoraga Ulug'bek nomi berildi.Adadiyotlar.

1. N. M. Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. T. 1965 yil.
2. O'zbek adabiyoti tarixi. V -jildlik. 1-jild . 1975 yil.
3. Q. Niyoziy. Ulug'bekning astronamik maktabi. M-l, 1950 yil.
4. B. Amedov. Ulug'bek. T. 1989 yil.
5. B. Jalilov. Meros va ixlos. Andijon. 1995 yil,

Tayanch iboralar.

1. XIV-XVI asrlarda njtimoiy fanlar taraqqiyoti.
2. XIV-XVI asrlarda anik faklar.
3. Ulug'bex faoliyati.
4. Ulug'bek haqidagi badiy asarlar.

XIV-XVI asrlar badiy adabiyot.

Davr badiy adabiyoti mavjud darslik va qo'llanmalarda ikkiga bo'lingan:

1. Progressiv adabiyot. 2. Reaktskon adabiyot. Adabiyotni bunday sun'iy ikkiga bo'lishning nazariy asosi Lenining madaniy merosga oid asarlaridir. Bu qarashning su'niyligi Shundaki, Navoiy irogressiv adabiyot vakili deb berilsa, qusayniy reaktsion adaiyot vakili sifatida berilgan.

O'zbek mumtoz adabiyotini "Qur'on" oyatlari, xadislar, g'oyalaridan ayrim xolda tushunish ham, o'kitib ham bo'lmaydi. Istiqlol adabiyoti aslicha o'rganish imkoninini berdi. Ilgari mumtoz adabiyot vakillari tanlab o'rganildi, ularning moxiyati noto'qri Sharxlanda.

Masalan. Navoiyning diniy qarashlari, asarlari mutloqo o'rganildi, uning shayxlarga

murid bo'lgani aytilmasdan, "Sada Shayx" singari g'azallarigina o'rganildi.

Otoiyida shunday bayt bor:

Oxir damagar arz kil imon desalar men:

"Imonim o'shal mox degumdur dogi o'gum"

Bayt mazmuni ilgari shunday tushuntirilgan: shoir lirik qaxramoniga o'lim oldidan imon keltir desalar, imonni real borlikdagi maxbuba deb o'ylar emish. Bunday, sharx XV asr shoiriga tuxmatdan boshka narsa emas.

Aslida-chi shoir oxir dam imon keltir desa, imonim Ollox deb o'lmoqda.

Istiqlol badiy adabiyotni asl xolicha o'rgaiashga imkon berdi. Endi adabiyotni "Qur'on", "Xadis" g'oyalari, tasavvuf ta'limotiga bog'lab o'rganish: zarur.

qar bar davr adabiyotining yetakchi xususiyatlari buladi. X-X II asr adabiyotida didaktika yetakchi xususiyat bo'lsa, jadid adabiyot asosida ma'ryafatparvarlik yetakchi xususiyadir.

XIV-XVI asr adabyotinin g yetakchi xususiyatlari kuyidagilardan iborat.

I. Dunyoviy adabiyotning yo'zaga kelishi.

Davr ijodkorlari o'z asarlarida Olloxni, janaatni, qurlarni kuylash bilan birga real borlikdagi maxbubani kuylash ham kuchayib bordi. Dunyoviyo adabiyot deyilganda real dunyo muammolari, go'zalliklarini tasvirlashni tushunamiz.

II. O'zbek adabiyotining boshqa qalklar adabiyoti bilan aloqasining kuchayishi.

Amir Temur yurShilari Xalqlar o'rtasidagi munosabalarni ancha taranglashtirilgan bo'lsa-da, ular o'rtasidegi iktisodiy, aloqalar davom eta berdi. Ayniksa bu yerda o'zbek-tojik, o'zbek-ozor adabiy aloqalari kuchaydi.

O'zbek va tojiklarning aralash yashashi, tojik adabiyotining boy ananalari bu ikki adabiyotining o'rtasidagi aloqalarini kuchaytirildi. Bu davr O'zbek Shoirlari Tojik adabiyoti

ustozlari: Rudakiy, Firdavsiy, Xofiz Sa'diylar asarlarini o'qib, adbiyogga kirib keldilar. Ular o'z asarlarida Tojik adabiyoti ananalarini davom ettirdilar. Adabiy aloqalar ikki xil ko'rinishda davom etdi.

1. Fors-Tojik adabiyoti vakillari asarlarini turkiy tilga tarjima kilish orkli Sayfi Saroyi Sa'diyning "Tushspsoj" asarini, Lutfiy

Sh. Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarini, Navoiy Jomiyning 40 ruboyiga joylagan She'rlarini Turkiy tilga tarjim qildi.

2. O'zbek va Tojik adabiyot vakillarining bevosita munosabati

Bu munosabatning go'zal namunasi Jomiy va Navoiy aloqalaridir. Bu ikki buyo'q ijodkorlar munosabati o'zbek va Tojik adabiyoti aloqalarini yanada kuchaytirda. O'zbek va Tojik munosabatlari hamisha sillik kecha bermadi. Navoiy va Binoiy munosabatlari tilga munosabat doirasida boshlangan bo'lsa-da, okibat, siyosat ko'rashga aylanib ketdi.

O'zbek - ozor adabiy aloqalari. Bu aloqa negizida Nizomiy va uning "Hamsa" si turada. Nizomiy "Hamsa" sining yaratilishi Shark adabiyotida hamsachilik an'anasining yuzaga keltirdi. Har-bir Shoir " Hamsa" yozish orzusi bilan yashadi.

Haydar Xorazmiy Nizomiyning "Maxzan-ul asror" Asarini qutb "Xisrav va Shirin" dostonini turkiy tilga tarjima qildi. Navoiy esa Nizomiydan kolishmydigan "Hamsa" yaratib, O'zbek va ozor adabiy aloqalarida o'ziga hos, saxifa yaratdi.

3. Yozma adabiyot bilan xalq og'zaki ijodi aloqalari kuchayda.

Folklordagi syujetlar, timsollar, tasvir vositalari yozma adabiyotda keng qo'llana boshladi.

Folklorddgya "Guldursun", "Layli va Majnun", "Farxod va Shirin" kabi syujetlar Sayfi Saroyi , Navoiy singari ijodkorlar asarlarida tasvirlaydi.

Falklordagi devlar, jinlar, parilar singari timsollar yozma adabiyoda keng ishlatildi. Otaiy yozadi:

Endi bildim rost ermish balki ko'rdim ko'z bila
Ulki derlar suv qizini gox-gox ko'zga ko'rinur.

Xalq maqollari, matallari iboralari yozma adabiyotda ko'plab ishlatildi. Bu borada Lutfiy lirikasi diqqatga loyiqdir.

Uning: Oyoqinga to'shar har laxza gesu misrali g'azalni xalq matallari asosiga qurilgan.

5. Eski o'zbek tili adabiy til sifatida shakllandi. Navoiy davrigacha adabiy til fors-Tojik tili bo'lib, badiy adabiyot asosan, ana Shu tilda yaratilar edi. Garchand Navoiy tojik tildagi She'rlarini yodlab adabiyotga kirib kelgan bo'lsa-da, turkiy tilida devon tortib bergan bo'lsa-da tojik tilida. hofiz, Jomiylardan qolishmaydigan sh'orlar bitta bo'lsa-da, turkiy til jozibasni tushinib yetgach uning mavqeyini tiklashga bel, bog'ladi.

Navoiyning turkiy til ifoda imkoniyatlari katta ekanini ham ilmiy jixatidan ham amaliy jixatdan isbotlab berdi. Navoiy "Muhammat-ul lugatayn" asarida turkiy tilni fors-tojik tilidan ustun ekanini ilmiy jixatan isbotlasa, "Xazoyin-ul maoniy" devont, "Xazisa" kabi asarlari bilan turkiy til ulug'ligini amaliy jixatdan isbot etdi.

Husayin Bayqaroning Shirlarini Turkiy tilda ijad qilishda da'vat etuvchi maxsus farmon chiqarishi uning davlat va batiy ijod tiliga aylanganini isbot etadi.

6. O'zbek mumtoz adabiyoti o'zining eng yo'qsak cho'qqisiga ko'tarildi.

Bu davr adabiyotida Navoiyning payda bo'lishi davr adabiyotini eng yo'qsak cho'qqiga ko'tardi. Sepmaxsullikda, serqirralikda Navoiyga tenglashadigan ijodkor kamdir.

Navoiy o'zbek adabiyotini g'oyaviy-badiy jixatdan, mavzu va janr jixatdan timsollar tizimi yuqsakka ko'tardi.

Davr adabiyotida quyidagi ijodkorlar hayoti va ijodi o'rganildi. Rabg'ziy, Sayfi Saroiy, Xorazmiy, Amiriy, Qutb "Yusuf va Zulayxo" dostoni, Otoiy, Sakkokiy, Lutfiy, "Gul va Navro'z" dostoni, Navoiy, Bobur, Muhammad Solix, Xoja Majlisiy.

Adabiyotlar:

1. N.M.Mallaev. o'zbek adabiyoti tarixi.T.1965 yil.
2. O'zbek adabiyoti tarixi. V-jildlik, I-jild.T.1971 yil.
3. J.Sharipov.O'zbekistonda tarjima tarixidan.T 1965 yil.
4. B.Jalilov. meros va ixlos. Andijon.1995 yil.

Tayanch iboralar:

1. Davr adabiyoti xususiyatlari
2. Dunyoviy adabiyot.
3. Yozma adabiyot va folklor.
4. Adabiy aloqalar.
5. Eski o'zbek tilining adabiy tilga aylanishi.

Xorazmiy.

REJA.

1. Xorazmiy haqida ma'lumot beruvchi man'balar.
2. Xorazmiy ijodining o'rganilish tarixi.
3. "Muxabbatnoma" asarining kompazitsiyasi, janr xususiyatlari.

asar an'analari.

"Balursenning kechar ayyomi foniy
Jalonda qolsa bizdin armug'one"

O'zbek adabiyoti tarixida Xaydar Xorazmiy, Qutb Xorazmiy, Xofiz Xorazmiy, Munis Xorazmiy, Komil Xorazmiy kabi Shoirlar ma'lum. Xorazmiy esa "Muxabbatnoma" asari bilan mashxur bo'lgan. XIV asr boshlarida yashab o'tgan ijodkordir.

Xorazmiy haqida ma'lumot beruvchi manba "Muxabbatnoma" asari bo'lib, uning 2 ta

qo’lyozma nusxasi yetib kelgan. Ularning biri uyg’ur yozuvida ko’chirilgan bo’lib, Britaniya mo’zeyida saqlanadi. Ikkinchi nusxa arab yozuvida ko’chirilgan, xajm jixatdan katta. Unga “Xikoyat” ilova qilingan.

Asarning kitish qismidan ma'lum bo’ladiki, bu asar Muhammadxo’ja taklifiga ko’ra yozilgan. Kirish qismidagi: Ochunda forsiy daftarlaring bor; Satrlari shoirning xalq iyaida forsiy devonlari brligini bildiradi.

“Muxabbat nordini ko’plardan o’tting”,-satrlari esa uning ixtidorli shoir ekanini ko’rsatadi. Xroazmiy ijodining o’rnatilishi tarixi quyidagichadir.

1. Akademik Bartold 1924 yilda Britaniya mo’zeyida saqlanayotgan uyg’ur yozuvidvgi nusxa haqida mashg’ulot bergan.
2. 1928 yili esa G.Kloson bu nusxani nashr ettirgan.
3. 1952 yili Samaylovich “Mir-Axl-Shir” to’plamida maqola e'lon qilgan.
4. 1952 yili Sherban asar Transkritsiyasini nashr ettirgan.
5. 1957 yili Italiyalik Sharksharlos Turxan Ganji ikkala nusxasining tanqidiy matnining nashr ettirgan.
6. 1962 yili A.Starostin asarni rus tiliga tarjima qilgan.
7. 1965 yili N.mallaevning “O’zbek adabiyoti tarixi” darsliligiga Xorazmiy kiritilgan.
8. 1967 yili E.Fozilov “Eski o’zbek tili va XIV asr Xorazm yodnomalari” nomli doktorlik ishida asar tilin o’rgangan.
9. 1973 yili E. Najib <<Covetckaya turkakogiya>> jurnalining 3-sonida turkiyada Muhabbatnoma-ning arab yozuvidagi ikkita qo’lyozmasi borligini e’lon qilgan.
10. 1978 yili <<O’zbek adabiyoti tarixi>> kitobining I jildida Y.isaqov Xorazmiy ijodini yozgan.

Xorazmiy ijodi 1950 yili C.Qosimov tomonidan maxsus o’rganilgan. Bu olim Xorazmiy ijodi bo’yicha nomzodlik diccertaciyasini yoqlagan.

Barcha manbalarda <<Muhabbatnoma>> dagi nomlar soni 11 deb qaralsa, Y.Isaqov nomlari soni 10 ta bo’ladi. 11 ta noma kotib tomonidan qo’qhilganini isbotlaydi.

Asar kompaziciyasi haqida muhammadxo’ja bilan ko’rishganini bayoni, 3-g’azal, masnaniy, Muhammadbek madxi, vasfi xol, 11 nomdan iborat. Nomalarning 4,8,11-nomlarni fors-tojik tilida yozilgan.

Asarning etakchi janri bo’lsa-da, uning taekibida masnaniy, g’azal, qit’a , madliya janrlari ucgraydi.

Noma janri hususiyatlari quyidagilardan iborat:
Asar Oshiq, ma’shuqlar xatlaridan iborat bo’lishi nomlar soni 10 ta bo’lishi, masnaviy yo’lda qofiyalanishi, xazaj bag’rida yozilishi.

Asarning timsollar tizimi quyidagicha: Olloh Muhammadho’ja, Oshiq, ma]Shuqa, may, Garchand nomlari Oshiq tilidan berilsa-da, markaziy timsol ma’shuqa timsolidir. Shoir uning portretni mehr bilan chizadi, uning nisoliga intiladi.

Mashuqa esa Oshiqqa e’tibor bremaydi. Oshiq bir kun yor visoliga erishish orzusi bilan yashaydi:

Erurman vasliga doim talabgor
Necha kim tun o’zun bo’lsa tonga bor.

Asar badiy barkamoligi bilan diqatga sazovor.

Bo’ying sarvu sanubardek biling qil
Vafo qilg’on kishilarga vafo qil.

Baytda Toshbek, tojnis can’atlari ishlatilgan.
<<Muhabbatnoma>>da asarning yozilgan yili qayd etilgan.

Bu daftarni bo’libtur Misr qandi.
Etti yo’z elli to’rt ichra tugandi

Demak, asar 7654 xijriy yilda bitilgan. Uni milodiyu yilga aylantiramiz.

1. 754:33=22, 2. 754-22=732, 3. 732+622=1354.

Noma janri fors –tojik adabiyotida paydo bo'lgan bo'lib, Avhadiy Marog'oviy (1274(1337)) <<muhabbatnoma>> nomli asarlar yozganlar.

O'zbek adabiyatida Xorazmiy bunashrni boshlab berdi. Bu asar qimmatli noma janrdagi birinchi asar ekan, dynyoviy sevgini kuylovchi birinchi katta hajmli asar ekani bilan ahamiyatlidir.

Xorazmiydan so'ng bu janrda Kamol Xo'jandiy <<Latofatnoma>>, Amiriy <<Doxnoma>>, Caid Ahmad.

<<Taashuxnoma>> asarlarini bitdiolar. Keyingi davr adabiyotida noma janri maktub Shaklida davom etdi.

<<Muhabbatnoma>> asar Navoiy ijodiga ham ta'sir ko'rsatgan. Xorazmiy Shaxmat donalari homlari orqali so'z o'yini yasab, fikrni go'zal qilgan edi:

Seni ko'rgan o'zindan y obo;kur.
Ruhingni ko'rsa, ming Shoh mot bo'lur

Navoiy ham Shaxmat donalarini zususiyatlaridan kelib chiqib, zamonasidagi nosozliklarini zaqbahsh ifoda qiladi.

Shoh yoni farzin kibi kojlar maqom etmish nr tong
Rostravlar arsadin gar tutsaLAR RUHDEK QIROQ.

Xorazmiy yor labi haqida tojoxilu orifonam talmeh san'atlari bositasida go'zak satrlari vositasida go'zal satrlar yaratilgan:

Yo rab ul Shahdu Shakkar yo labmudur
Yo magar Shahdu Shakkar yo lambudur.
Jonima payvastda novak ottali.
G'amasa o'qin qoshig'a yo lambudur.

Navoiy ilmiy asarlarida ham <<Muhabbatnoma>>dan foydalangan. <<Muhokamat-ul lug'atayn>>, asarida: <<Va xusn ta'rifida ulug'roq xolgakim turklar meng ot qo'yunturlar>> ala rot qo'ymadilar.

Anigkim ol engiga min yaratti
Mo'yi birla sochini teng yaratdi.

Mazkur bayt <<Muhabbatnoma>>dan olingan.

Adabiyotlar.

1. N.M. Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi.T.1965 yil.
2. O'zbek adabiyoti tarixi. V-jildlik, I-jild. N.1971 yil.
3. B.Jalilov. meros va ihlos. Andijon.1995 yil.
4. d.Rayimjonova. <<Muhabbatnoma>> va <<Latofatnoma>> asarlarining qiyosiy taxlili.(Diplom ishi) Andijon.1992 yil.

Tayanch iboralar.

1. Xorazmiy ijodining o'rganikish tarixi.
2. NOma janri xususiyatlari.
3. <<Muhabbatnoma>> taxlili.
4. Nolachilik an'analari.

2-ma'ruza

"Yusuf va Zulayho" va "Xisrav va Shirin" dostonlari

REJA.

1. Shoir haqida ma'lumot brruvchi manbalar.
2. Shoir ijodining o'rganilishi tarixi.
3. <<Xisrav va Shirin>> dostonining kompaziciyasi, syujeti, timsollar tizimi, g'oyaviy uo'nalishlari, badiiy xususiyatlari.
4. Doston an'analari.

<<Qozondek qaynab ush savdo pishirdim
Nizomiy bolidin holvo pishirdim>>.

XIV-XVI asr adabiyotining bir hususiyati turkey adabiyotning boshqa xalqlar adabiyoti bilan aloqasining kuchayishi edi. Qutb ijodi ana Shu xususiyatni o'rganishga yordam beradi.

Shoir haqida ma'lumot beruvchi yagona man'ba doston qo'l yozmasidir. Bu qo'l yozma 785(1383) yilda Barqa Faqih tomonidan Misrda ko'chirilgan. Qo' yozma Parij milliy kutubxonasida saqlanmoqda.

Dostonning kirish qismidan ma'lumot bo'ldiki, 1330 yillarda Oltin O'rda xukumdori Ozbekxonning o'g'li tinibek dargohiga boradi, uning ko'magida Nizomiy <<Hamsa>>sidagi 2-dostonni turkey tikga erkin tarjima qiladi.

Doatonning o'rganikish tarixi quyidagichadir.

1. Tohirjonov 1946 yilda dostonni maxsus o'rganadi, doston yo'zasidan nomzodlik diccertaciyai uoqlaydi. 1948 yilda esa u monografiya e'lon qiladi.
2. 1947 yilda Nizomiy tavalludining 800 yilligigi nishonlanadi. Shu munosabati bilan H.Zaropov <<Guldasta>> nomli to'plash e'lon qildi. To'plamda <<Xisrav va Shirin>> dostonidan namunalar beriladi.
3. H.Homidiy 1957 yilda <<Xisran va Shirin>>, <<Qutb tarjimasida>>, nomli ma]qola qiladi.(Sh..yu,1-son).

Polyak adabiyotshunosi A.Zayonchkovskiy 1958 yilda asarni polyak tiliga tarjima qilib, transprtciyasini e'lon qiladi.

4. E/Fozilov 1967 yilda <<Xorazm yodnomalari>> mavzusidagi doktorlik dissertaciyasida <<Xisrav va Shirin>> dostoni matini til nuqtai nazaridan o'rganadi.
5. G.Begdeli 1967 yilda <<Sharq adabiyotida>>, <<Xisrav va Shirin>> mavzusi nomli monografiya e'lon qildi.

Begdeli kitobda Qutb tarjimasiga etarli baxo bermaydi. U Qutbining:

Qozonte qaynab ush savdo pishirdim,
Nizomiy bolidan xolva pishirdim.

Degan fikrlarni aynan tushunadi.

6. Tatar adabiyo Minigurov 1971 yilda Qozonda Qutb haqida monografiya e'lon qiladi. Afsuski u Qutbyi tatar Shoiri sifatida baholaydi.

Doston qo'lyozmasi 120 varaq bo'lib, 4740 baytdan iborat. Bundan 4685 bayt Qutbniki bo'lib qolgani kotib tomonidan qo'shilgan. Doaton 91 bobdab iborat. Dostonda na't, Shaxzoda Tikibekxon madxi <<Kitob nazm qilmaqqa sabab auyr>> boblarini ko'ramiz . dostondagi asosiy voqeya <<Xisrav va Shirin>> xikoyatining avvali bobi bilan tugaydi. Doston masnaviy yo'lda qofiyalangan.

Doaton syujeti tutuni Xisravning Shiringa Oshiqligi bilan tugaladi. Voqealar rivoji davomida Sheruyaning Maydoniga kelishi, Xurmo'zning o'limi, taxtga Baxromning chiqishi, taxtni egallash uchun Xisravning Pum Qaysaridan yordam olish uchun Maryamga uylanishi, keyincha Shakkarga uylanishi biriladi. Asar echimida esa Xisrav o'z o'g'li Sheriya tomonidan pichoqlab o'ldiriladi.

Xisrav timsolida Shoirlar 2 xil harakterni beradilar. Shiringa uylanguncha bo'lgan Xisrav xudbin, ishqda beqaror bo'lsa, Shiringa uylangach, boshqa harakterli Shoxga aylandi. Shoirlar 2-Xisrav orqali o'z orzu-umidlarini tasvirlaydi.

Dostonda Mexinbonu Shirin timsollari mehr bilan tasvirlangan. Shoirlarning ayollarga bo'lgan ijobiy munosabati XII-XIV asr uchun katta voqeya edi.

Dostondagi Shopur-do'stlik na'munasi Farxod timsoli, chin Oshiq, Sheriya-padarqush timsol sifatida berilgan.

Nizomiy va Qutb dostonlari o'rtasida mushtarak va o'ziga xos xususiyatlar mavjuddir. Mushtarak xususiyatlar: syujet, timmsollar tizimi kompaziciya, porttredlar, maxorat, vazn.

Farqli xususiyatlari: Alitaga bag'ishlangan bob mutaqorib baxrida yozilgan. Qutb dostonida chorvachilikka mansub xususiyatlar etaklchilik qiladi. Nizomoy dostonidagi <<Hamilla va Dima>>dan qirqqisa, q'g'lim Muhammadga nasihatlarim kabi boblar chiqarib

tashlangan.

Nizomiy dostonida Xisrav Baxrom o'limidan keyin 40 kun motam tO'tgani tasvirlansa, Qutbda Xisravning bazmlari tasvirlangan/

Bu doston XV asrda Shayxiy tomonidan tarjima qilingan. Ammo u baytlar mazmunini saqlab qolishga intolib Shuxrat topmagan. Qutb dostoni badiy jihatidan Nizomiy dostonidan qolishmasligi tuifayli G.Begdelin fikrlari noto'g'ri ekanini isbotlaydi.

1. Tashbex.Qolib bechora izlab chora tonti
   Bulut yanglig' sochiq oy o'zra yopti.
2. Irson.
   Vale sarhush kishi arslon tutar tet,
   Masal bor: Anglamas og'u yutar tet.
3. Tazod.
   Vafolik qilin bir yo'li unutma
   Sut o'rniga yana og'u totutma.

Qutb boshlagan ish o'zbek adabiyotida an'anaviy bo'kib qoldi. XV asrda Xaydar Xorazmiy Nizomiy dostondagi <<Maxzal-ul asror>> dostonini XIX asrda Ogaxiy <<Xaft paynar>> dostonlarini turkey tilga tarjima qildilar. Navoiy esa turkey tilda <<Hamsa>> yaratdi.

Adabiyotlar.

1. N.M.Mallaev. o'zbek adabiyoti tarixi.T.1965 yil.
2. o'zbek adabiyiti tarixi. V-jildlik, I-jild. T.1971 yil.
3. J. Sharipov. O'zbekistonda tarixidan. T.1965 yil.
4. E.Fozilov. XIX asr Xorazm yodnomalari. T.1973 yil.
5. B.Valiho'jaev. o'sbek epik poeziyasi tarixidan. T.1974 yil.

Tayanch iboralar.

1. Qutb ijodining o'rganilish tarixi.
2. <<Xisrav va Shirin>> dostoni taxlili.
3. Nizomiy va Qutb.

<<Yusuf va Zulayxo>> dostoni.

REJA.

1. Sharq adabiyotida <<Yusuf va Zulayxo>>, syujetning ishlatilishi.
2. Dostonning o'rganilish tarixi.
3. Doston syujeti. Timsollar tizimi g'oyaviy yo'nalishlari, badiy xususiyatlari.
4. O'zbek adabiyotida doston an]analari.

<<Yusuf va Zulayxo>> qadimgi dunyo voqealarining romantic tasviri orqali yangi tarixiy Sharoitning real manzarasini chizfan uyg'onish davridagi Italiya rassomlarining asarlariga o'hshaydi.

Y.E.Bertles.

Qadimgi manbalarda ta'kidlanishicha, Yusuf dastlab yaxudiylarning Xudosi sifatida talqin etilgan. Keyincha payg'ambar sifatida "Tavrot"ga kiritilgan. "tavrot"da Yusuf haqida 13 satr bor.

"Qur'on"da sabrning ulug'ligini ko'rsatish uchun Olloh Muhammad payg'ambarga bu qissaani yuborganini aytadi. Yusuf surasi "Qur'on"dagi eng go'zal qissalardan biridir.

Bu syujet keyincha yozma adabiyotga kirib kelgan. Abdulmuyad Balhiy, Bahtiyoriylar Yusuf haqida doston bitgahlar. Firdavsiy ham Yusuf haqida doston yozgan.

XI asr boshlarida Buxorolik Shoir Shahobiddin Am'aq bu syujet asosida doston yaratdi. 1233 yili Shoir Ali Turkiy turkey tilda doston yozgan. 1309-1310 yillrada "Rabg'o'ziy

Qissasi" kitobida "Yusuf qissa"sini yaratga. XV asrda yaxudiy Shoiri Shohin Sheroziy Yusuf haqida doston yozgan.

Dostonning 9 ta qo'lyozma no'shasi etib kelgan. Ularda 7 tasi O'zbekistonda saqlanadi. 5 ta qo'lyozma Toshkehda 2 ta qo'lyozma Samarqanda saqlanmoqda. Chet ellargagi qo'lyozmalar: Turkiya va Parij saqlanmoqda.

Dostoning o’rganikish tarihi quyidagilar.

1. 1922 yili “Inqilob” jurnalida, uning 1 mart sonida Durbek “Yusuf va Zulayxo” dostoni haqida ma’lumot berildi.
2. Fitratning “O’zbek adabiyoti namunalari”(1928) kitobida durbekning dostoni haqida ma’lumot berib, uning yozilgan yili 1409-1410 yillar deb ko’rsatilgan.
3. Y.E. bertels 1944 yili “Davr” nomli to’plamda “Durbek va uning go’zal Yusuf haqida qissaai” nomli maqola e’lon qilgan, u ham asar yozilgan yilni 1409-1410 yillar deb ko’rsatilgan.
4. B.Valiho’jaev 1964 yili “O’zbek klassik adabiyotida etik poeziyasining taraqqiyoti tarihidan” mavzusida doktorlik dissertaciyasi himoya qiladi. Ishda “Yusuf va Zulayxo” Durbekniki emas degan fikrni aytgan.
5. Afg’anistonlik adabiyotshunos Yoqubjon Jo’zjoniy “Navoiy-Foniy” nomli kitobida “Yusuf va Zulayho” Durbekniki emasligini aytgan.
6. J.Lapasov Yusuf va Zulayho” dostonining morfologiyasi mavzusida kandidatlik dissertaciyasi ximoyo qiladi. U ishida doston Durbekniki emas, asarning yozilgzn yili 1469 yil degan fikrni aytgan. (1970 yil)
7. E.Fozilov , J.Lapasov “O’zbek tili va adabiyoti” jurnalida maqola e’lon qilib (1974), doston Durbekniki emas,yozilgan yili 1469 yil degan fikrni qat’iy aytadilar.
8. F.Sulaymonov “adabiy meros” jurnalida (1973, 3 soni) maqola e’lon qilib, asar Navoiy qalamiga mansub bo’lsa kerak degan fikrni beradi. E.Shodiyev “Sharq yuldo’zi” jurnalida maqola ‘e’lon qilib, asarni Navoiy qalamiga mansub deydi.
9. N.Mallayav darsligida doston Durbekniki, yozilgan yili 1409-1410 yillar deb berilgan.

Doatonni S.Xaydarov maxsus o’rgangan doston yo’zasidan nomzodlik dissertaciyasi yoqlaga. “P’zbek adabiyoti tarixi” qo’llanmasining I- jildida Durbek qismini Shu olim yozgan. U ham Mallayev fikrini takrorlaydi.

Dostonning Turkiua, Parij, Samarqand no’shalarining birida Shunday bayt bor:

Xotirga chu erdi mussamam bu azm
Ayladi bu qissani dar silni nazm.

Dostonni Durbekniki nemas deguvchi olimlar, qadingi qo’lyozmalarda Shoir taxallusi o’rnida darslik brikmasi borligi,keyincha kotiblar uni Durbrk deb yozganini aytadilar. Adabioyt tarihida durbek nomiga nisbatan berilgan boshqa birorta asar yo’qligi Navoiyning “Majolis-un Nafois” kitobida ham Durbek degan Shoir yo’qligini asos qilib keltiradi.

F.Sulaymonov esa Parij no’shasini ko’zatganda, doston Navoiy qasidasi bilan birfa muqovaligini xisobga olib, asar Navoiyniki bo’lsa kerak degan fikrni aytadi.

E.Shodiyev esa Parij nussxasini ko’zatganda .doaton Navoiy va Jomiy hamisha bir-biri bilan ijodiy hamkorlikda bo’lganligini aytib, Jomiy “Yusuf va Zulayxo” dostoni yozganini, Navoiy ham degan fikrni beradi. Navoiy “Tarihiy xukamo va anbiyo” kitobida Yusuf payg’ambar haqida yozar ekan: “Umrimvafo qilsa, Yusuf muhabbati haqida bir doston” yozmoqchi ekanini aytgan.

Qo’lyozmalarda ikki xil tarix bor. Birinchi tarix quyudagicha:

Zod edi tarix xeyu dol
Muddati xijratdan o’tib moxi sol.

Sod=800, Ayn=8, Dol=4, 812 xijsiy beilgan. U melodiy 14109 yilga to’g’ri keladi.

Ikkinchi yarix:

Zod edi tarix taqi dol, zod=800, Ayn=70, dol=4, 874 xijriy yil berilgan. Melodiy 1469.

E.Fozilov, J.Lapasov Bartold asarlariga tayangan holda 1469 yili Balx Shaxri hamal qiligani, bu qo'zg'olonni bostirishga Navoiy kelganini autib keyingi tarixni to'g'ri sanaydilar.

Muallif doston syujetini ishlashda fors tilidagi nasriy qissadan foydalangan:

Nasr edi bu qissa dogi forsiy
Erdi anga lon ko'zi nazzorasi.

Doaton va "Qur'on" syujeti o'rtasidagi o'hshashli va o'ziga xoc xususiyatlar H.Karamatovning "Qur'on" va "O'zbek adabiyoti" nomli kitobida batafsil yoritilgan. Dostonda qadimgi Konon, Yoqub va uning o'g'illari o'rtasida boqealar tasvirlansa-da, muallif XV asr hayotidagi toj-taxt uchun ko'rash masalalarini ko'rsatishga harakat etdi.

Y.E. bertels takidlaganidek: "Yusuf va Zulayxo" tarixiy Sharoitning real manzarasining chizgan uyg'onish davridagi Italian rassomlarining asarlarlariga o'hshaydi.Dostonning bosh g'oyasi sabrdir.

Sabr bilan Tangri Berur komil dil
Sabr qilu, sabr qilu, sabr qil.

Yusuf sabr orqali baxt-saodatga erishsdi. Doatonda adolatli Shoh g'oyasi, sevgi va muhabbat kabi g'oyalar ham berilgan.

Adabiyotshunoslikda qaxramonning rux bilan uchrashuvi masalasi XVII asrda Shekspir ijodiga bog'lab tushuntirildi. Bizningcha qaxramonning rux bilan uchrashuvi manzarasi Shekspirdan II asr ilgari "Yusuf va Zulayxo" dostonida uchraydi.

Doaton badiy jixatidan ham diqqatga sazovordir:

1. Tazod , tanosub san'ati:

Gul tilagan xor jafosin chekar
Kimki asl olsa arisi tegar.

2. Tardi aks:

Ishq o'ti o'rtar hala bil xonimon
O'rtar o'shun ishq o'ti jonu jaxon.

3. Irsol:

Sabr bila aylagil andishani
O'rma lik o'z oyog'iga teShani.

Bu doston bitilgandan so'ng ham Shoirlar bu syujetga qayta, qayta murojat etdlar. Bu ananani quyidagilar davom ettirdilar:

1. A.Jomiy doston yozdi. Otaxiy uni Turkiy tilga tarjima qiladi/
2. N.Xiraviy XVII asrda doston bitdi.
3. Hoziq (XVII-XIX) fors-tojik tilida doston yozdi.
4. Andalib, xiromiy taxallusi Shoirlar ham doston yozdilar.
5. Uyug'ur Shoiri Vuxla Yusuf Yorqandiy 1791 yilda doston yozdi.
6. Hamza 1915 yolda yozgan "Qiroat" kitobiga asar mazmunini kiritgan/
7. Ramz Bobojonov doaton syujeti asosida doston yozdi. Bu asarni Muqimiy teatri saxnalashtirgan. Doston asosida doston yozdi. Bu asarni Muqimiy teatri saxnalashtirgan. Doston asosida 1999 yili videofilm ishlangan.

Adabiyotlar.

1. N.Mallaev. O'zbek adabiyot tarixi. Toshkent .1965 yil.
2. O'zbek adabiyoti tarixi. V-jildlik, I-jild. 1971 yil/
3. H.Karamatov. "Qur'on" va O'zbek adabiyoti. To Shkent.1993 yil.
4. "Qur'oni Karim", "Yusuf surasi", o'zbekcha izohli tarjima. Toshkent.1992 yil.

Tayanch iboralar.

1. "Yusuf va Zulayxo" – sayor syujet.
2. Doston muallifi masalasi.
3. Dostonning yoziladigan yili.
4. Doston haqida.
5. Doston ananalari.

3-ma’ruza

Atoyi hayoti va ijodi, lirikasimavzu ko‘lami, timsollar olami.

REJA

1. Shoir haqida ma'lumot beruvchi manbalar .
2. Otoiy ijodining o’rganilish tarixi.
3. Otoiy lirikasining mavzulari ,tisollar tizimi g’oyaviy yunalishlari badiy xususiyatlari.

Otoiy va Navoiy. «Otoiy She'rining lutfini bilsa

«Latofatnoma « dan kechgay Xo’jandiy «

Otoiy.

Shoir haqida ma'lumot beruvchi ikkita manba bor .Shoirning tulik bilmagan devoni yetib kelgan .Bu devon kulyozmasi XVI asrda ozorboyjonlik kotib tomonidan kuchirilgan Devonda «baxti» «dushti « singari ozorboyjon tiliga mansub so’zlar uchraydi.Kulyozma tabrizlik bek Fotx Alimxon kutubxonasida topilgan.Xozirda kulyozma Leningrada saklanadi .

Devonda 260 g’azal bor.Devondan Shoir kuylagan mavzular Shoirning dunyoqarashi maxorati haqida ma'lumot olish mumkin.

Navoiyining «Majolis –un nafois « kitobining 2-majlisida Shoir haqida kuyidagi fikrlar bor.:

Molvlono Otoiy Balxda bulur erdi.Ismoil ota farzandlaridandir darveShvash va xushxulk munbasit (ochik chexrali) kishi erdi.O’z zamonida She'ri atron orasida ko’p Shuxrat tutti .Bu matla' aningdurkim:

Ul sanam suv yoqasida paritek ulturur

G’oyati nozikligidin suv ila yutsa bulur.

Qofiyasida ayb tinosi bor.Ammo Movlono ko’p turkona aytur erdi .Qofiya extiyojiga mukayyad emas erdi. Kabri Balx navoxsidadir».

Demak Otoiy Balxlik ismoil ota avlodidan .Ismoil ota kimligini Navoiyning «Nasoyim-un muxabbat « kitobidan bilamiz .Ismoil ota Axmad Yassaviyning ikkisidir .otoyi avlodi jixatidan Axmad Yassaviyga boglanadi.

Otoiy Qofiyasi Navoyiga yokmaydi .Nega? Aybgino nimada ?

Qofiya elementlaridan biri raviydir.Raviy -Qofiyadoshlik o’zak Bilan o’zak urtasida bulganda o’zak oxiridagi o’zak kushimcha Qofiyadoshlik xosil qilganda oxirgi tovushdir .

Yod-Shodbil-aytgil maxvash-dilkash.

Otoiy baytida Qofiya o’zak va o’zak urtasidadir .Ultirur bulur.Birinchi so’zda raviy –« R « bo’lsa ikkinchi so’zda « L « bulmokda .Demak raviy mos emas .Aybgino Shuxda Qofiyaning ikkinchi elementi vasldir .Vasl –raviydan sung keladigan bir xil undosh tovush.Otoiy baytda Qofiya vasl asosida yo’zaga kelmokda .Ultirur- bulur.

Shoir ijodining o’rganilish tarixi kuyidagicha :

1. A.N.Samoylovich Leningrada saklanayotgan kulyozmani 1927 yilda tasnif qilgan uning 17 g’azalini e'lon qilgan.
2. Fitrat « O’zbek adabiyoti namunalari « kitobida Samoylovich e'lon qilgan g’azallardan 15 tasini bergan.
3. X.Zaripov 1948 yili « Navoyi zamondoshlari « nomli kitobida Otoiyning 88 g’azalini bergan..
4. 1958 yili Otoiy « Tanlangan asarlari « nashr etilgan unda So’z boshini E.Rustamov yozgan.
5. 1988 yili « Xayot vasfi « nomli kitob e'lon kilindi .Unda Otoiy g’azallari Tula «elon kilindi.
6. S.Rafiddinov 1995 yili « Majoz va xakikat « nomli kitob e'lon qildi.Otoiy lirikasini yangicha talkin etishga harakat qilgan.

Shoir taxallusi ilmiy man'balarda Atoiy ,Otoiy tarzida uchraydi.M.Mirzaev,N.Mallaev,

N.Davron singari olimlar otoiy bo’lishi kerak desalar G.Gulom, A.Kayumov singari olimlar otoiy bo’lishi kerak deydilar.Agar alif ustiga «mad « belgisi kuyilsa alif «o» uqiladi agar bu belgi kuyilmasa « A « uqiladi.

Ma'lumki Shoir mahxur oalar avlodidan bulgani uchun o’ziga Otoiy taxallusini kullagan.Shoir g’azallarining birida taxallusi Otoiy ekaniga ishora qilgan.

Gar desang jon sipor kilgil Otoiyim.
Turibman ush mundok udir ,ot oyim
Kulingman saklasang umrim boricha
Agar saklolmasang sen bil sot oyim.

Turtinchi ikkinchi misralarda « O» harfini «A» bilan almashtirilsa ma'no bo’zildi.Demak birinchi misrada ham «O» bo’lishi to’g’ridir.

Istiqlolga e'lon qilingan ishlarda darslik va qo’llanmalarda Otoiy ijodi bir yoklama taxlil qilingan .Hatto N.Mallaev: «Shoir Axmad Yassaviy avlodidan bo’lsa-da uning yulidan bormadi –deb yozadiki but ugri emas.Otoiying dinga munosabati bo’zib berildi .Masalan:

Oxir dam agar arz kil imon desalar men :
Imonim o’shan mox degumdir dogi ulim.

Darslikda bu bayt mutlako teskari ma'noda taxlil qilingan .Shoir oxirgi damda hama Ollox yodi bilan kelajagini aytmoqda..Otoiy liriqasida iloxiy sevgi dunyoviy sevgi haqidagi g’azallarni ukihmumkin.Shoir liriqasida Ollox Oshiq ma’shuqa raqib singari timsollar uchraydi.Otoyi lirik kayfiyatga yumor tuygusini omuxta kilib beradi.:

Goxiki bosse oyogin yo’zimga noz ila der
Oyoging ogridi ne buryo emishtuksen.

Otoiy ifrod san'atining moxir ustasidir. Lutfiy yor belini soch urmidan ingichka desa Xorazmiy yorbelini kilcha desa Horazmiy yor belini qilcha desa, Otoiy ulardan ham utkirib mubologa qiladi:

Kilni ikki yormishu kilmish azalda bir kalam Belingiz tasvirini kilgonda nakkoshing betim.

Yoki:

Yurarda yeng bila ogzingni tusma
Nimani yo’q esa ……..

Shoir raqibni itga kiyos qiladi.:

Sevsa agar Otoiy raqibni ajab ermas.
Kim egasin ogizlar itiga sungin sulur.

Otoiy O’zbek g’azalliyotining Navoiygacha bulgan kata ijodkorlaridan biridir..Shoir syujetnig’azallarbitdi .Uning «Ul sanamki « «Jamoling Vasfini «»Bux usnu maloxat»kabi g’azallari diqqatga loyikdir .Shoir g’azallarining 109 tasi romali musammani mansur vaznida bitilgan.Navoiy «Mezon –un avzon» kitobida bu vaznni «turkiy»deb atagan.Navoiy Otoiy ijodini yakindan bilgan.Badiyat borasidagi uning yutuklariga tayangan uni yanada yo’qsakka olib chikkan.

Otoiy ijodida Ma’shuqy bayt bor:
Jimi Zulfing nun koshing kasdi jon aylab edi.
Boki bulsin lutf etib kirdi alif kadding aro.

«Jon» so’zining imlosi orkali (kitobat san'ati) fikrning go’zal ifodasiga erishish Navoiy diqqatini tortgan.Bundan ta'sirlangan Shoir maxbubaga jonini kuyidagichi xadiya etadi :

Jonimdagi jamiki dolinga fido
Andin sung alif toza nixolinga fido
Nunidagi akbarin xilolinga fido
Kolgani ikki xolinga fido.

Otoiy «Emish tuksen» radifni g’azalda lirik kayfiyatga yumor tuygusini omuxta kilib ma’shuqa tilidan Oshiqni «gado» deb ataydi:

Yo’ziga tika boksam manga kulib aytur
Otoiy Ko’zi tuymas gado emishtuksen.

Bu g’azal undagi go’zal ifoda Navoiyga ilxom beradi anna Shu radifda anna Shu kayfiyatda g’azal bitadi :

Gadolig etdim esa busayi achchiklanibon
Deydiki usru uyatsiz gado emishtuksen.

Otoiy o’z ijodiga yo’qsak baxo berib faxriya yuli Bilan Ma’shuqy yozgan:
Otoiy She'rini lutfini bilsa «Latofatnoma» dan kechgay Xo’jandiy .

Adabiyotlar:

1. N.Mallaev.O’zbek adabiyoti tarixi.T.1965y
2. O’zbek adabiyoti tarixi V jildlik I jild.T.1971 y
3. Otoiy.tanlangan asarlar T.1958y
4. Xayot vasfi T.1988y
5. S.Rafiddinov.Majoz va xakikat T.1995y
6. B.Jalilov.Meros va ixlos Andijon 1995y

Tayanch iboralar .

1. Shoir ijodining o’rganilish tarixi .
2. Shoirning taxallusi masalasi
3. otoiy lirikasi
4. Otoiy va Navoiy

4-Maru’za.

Sakkokiy hayoti va ijodi, lirikasi, mavzulari, timsollar tizimi

“Falon yillar kerak sayyor etsa-yu keltirsa ilmiga
Meningdek Shoiri Turkiy seningdek Sholi dononi”.

REJA.

1. Shoir haqida ma’lumot beruvchi manbalari.
2. Sakkokiy ijodining o’rganilish tarixi.
3. Sakkokiy ijodining mavzulari, timsollar tizimi, g’oyaviy yo’nalishlari, badiy maxorati.
4. Sakkokiy-qasidanavs.
5. Sakkokiy, Lutfiy, Otoiy ijodiy munosabatlari.

Navoiygacha bo’lgan o’zbek adabiyoti taraqqiyotida Lutfiy, Sakkokiy, Otoiy, Muqimiy, Yaqiniy singaei Shoirlar ijodi katta ahamiyatiga molikdir. Bular ijodi Navoiyning turkiy til,turkiy adabiyot ravnaqi uchun ko’rashida muxil omil bo’ladi.

Navoiyning daxosining Shaklanishi mavqulotda va tasodifiy xodisa bo’lmasdan , o’zbek adaboyoti taraqqiyotining qonuniy rivoji maxsulidir .Bu masalada Sakkokiy ojodinininghamo`z o`rni bor.

Sakkokiyning hayoti va ijodi haqida ma`lumot beruvchi manbalar ko`p bo`lmagani singari mukammal ham emasdir. Shoir haqiga ma`lumot beruchi birinchi vanba uning o`z devonidir.Devoni Shoirni mukammal ham emasdir. Shoir haqida ma’lumot beruvchi birinchi manba uni8ng o’z devonidir. Devon Shoirning mukammal devoni bo’lmasdan uning fan olamiga ikki no’shasi ma’lumdir. No’shalarning biri Londonda biri Toshkentda saqlanadi, ular bir –biridan farq qilmaydi. Devonda an’anaviy kirish qismi 10ta qasida nazarlar mavjuddir . Devondan Shoirning hayoti va ijodiga oid, ma’lumotlarni olish mumkin. Har bir Shoir ma’lum ma’noda o’z ashyorlariga “hasbu-holim” deb ko’rsatgan edi. Devondan yana Shoir sevib kuylagan mavzular , uning dunyo qarashi , boshqa Shoirlarga bo’lgan munosabati , badiiy mahorati , Ulud’bek Xalil Sulton Arslon Xo’ja Tarhon Muhammad Parso kabi tarihiy Shahslarga munosabati haqida ma’lumotlar olish mumkin. Sakkokiy haqida Navoiyning “Majolus-yn Nafois” Xutbak dovoniy” , “Majolus-yn lug’atayn” asarlarda ma’lumotlar bor. Shuningdek , Navoiy g’azallarining birida ham Sakkokiyga munosabat bildirgan. Yaqiyning “O’q va yoy” munzarasida ham

Sakkkokiy haqida fikrlar mavjud.
Sakkokiy haqida B.bartol'dning "Ulug'bek va uning davri", B. Ahmedovning "Ulug'bek asari, M.Shauhzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida ham ma'lumotlar uchraydi".

Garchand mumtoz adabiyotshunoslikda adabiyotshunoslikda adabiy tanqid nomli adabiyotshunoslikning mahsus bo'limi bo'lmasa-da, tanqidiy fikrlar mavjud edi Sakkokiy ijodiga munosabat uningijodi haqida ijoboy va tanqidiy fikrlar Navoiy asarlarida ko'rinadi.
Uning "Hutbayi davoniy" asarida Shoir haqida quyidagilar mavjud. "Uyg'ur iborati" mufohosiddin va turkiy alfozining bo'lag'osiddin mavlono Sakkokiy va lutfiylarkim, birining Shirin ishtihori Turkistonda bag'oyat va birining latif g'azalyotining intishori Iroq va Hurosonda benihayat durur va devonlar mavjud bo'lg'ay". Mazkur bahodagi quyidagi o'rinlar diqqatga sasovordir. Navoiy sakkokiy nomini o'z ustozi Mavlono lutfiydan ham avval keltirmoqda , ikkinchidan esa , Sakkokiy asarlariga "Shirin" sifatlovchisini keltirib, uning Shuhrati Turkistonda yo'qsak ekanini takidlamosda.

Yuqoridagi fikrlarga urg'u berishimizning boisi shuki, Navoiyning "Majolus-yn Nafois" asarlaridagi Sakkokiy ijodi haqida fikrlar tamomanon o'zgachadir.

"Mavlono Sakkokiy-Mavorounnahrdindur", Samarqand ahli anga ko'pmutaqadidddurlar va bag'oyat ta'rifin qilurlar. Ammo faqir Samarqanda erkanda muarriflaridin har necha tafahhus qildimkim, aning natoij ta'bidin bir nima anglayin: tarif qilganlaricha bima zohir bo'lmadi. Barchadan qolsalar so'zlari budirkim , Mavlono Lutfiyning barcha yahshi so'zi aningdur, o'irlab o'z otiga qilibdur. Yl erlarda bu nav o'hshashi yo'q, muasiz muqo,irlar gohi vosi' bo'lur, bori bazasi tarif qilibkim o'qurlar, bu matlani anga isnod qilurlarkim:

"Ne nozu bu-ne Shevadir, e jodu ko'zlik, Sho'h Shang.
Kabki soriyu tovusda uo'q, albatta bu tariftor vang, Qabri ham ul sari-o'qdur".

Mazkur bahoda ikki masalaga alohida e'tibor zarurdir. Birinchisi Shuki, Sakkokiy mavorounnahrlik, aniqrog'I Samarqandlik bo'kib, unga Samarqand ahlining Etiqodi kuchli bo'lfan. Bu fikrlar navoiyning avvalgi bahosidagi ijobiy fikrlariga hamhonadir.

Bir masalaga ikki hil qarash Navoiy ijodida kam ko'rinadigan hadisadir. Bu fikrlarninig qaysi biri keyinroq aytilgan o'sha asos bo'lishi mumkin diya, ular aytilgan yillarga etibor bersak, bunda ham bir to'htamga kelib bo'lmaydi. Chunki "Hazoniy-ul maoniy" devoni 1461-98 yillarda to'zilgan bo'lsa, "Majolus-un nafois" asarida ham 1491 yillarda yozilgan bo'lib, 1498 yilda qayta ishlangan. Navoiy 1499 yilda yozilgan "Muhokamat-ul lug'atayn" nomli asarida Shohruh zamonasidagi Turkiy tilda yozuvchi Shoirlarini sanaganda sakkokiy nomini birinchi yilga oldi: Shuara sakkokiy va Haydar Harazmiy va Muqimiy va yaqiniy va amiriy va Fadoiylar".

Navoiyning ustozi lutfiy haqida sakkokiy muhlislarining gapi unga shu qadar og'ir botgan ki, ko'ngildagi qori erisa ham, mo'zi qolgan shekkili, g'azallarining birida shunday deydi.

Navoiy nazm aro tig'I zaboni o'yla surdirkim,
Pichoq topmas uyotidin o'zini o'lturmakka.

Sakkokiy.

XX asr adabiyotshunosligida Sakkokiy ijodiga to'htash, uning asarlaridan namunalar e'lon qilishda Fitrat (O'zbek adabiyoti namunalari 1928). Hodi Zaripov (Navoiy zamondoshlari 1948)larning hizmatlari bor. Sakkokiy ijodinning kitobhonlariga etkazishda tarih fanlari nomzodi Q .muiporov katta ish qildi. U Sakkokiy tanlagan asarlarni 1958 yilda, 1988 yilda esa "Hayot vasfi" kitobida sakkokiy g'azallari

Bu baytdagi ilxom san'ati –«Sursa» so’zining ikki xil ma'noda ishlatilishi kitobxonga bir olam zavk beradi .Bu g’azal undagi ilxom san'ati negizidagi nuktadonlik Bobur zavkini ko’zgaydi ilxom san'ati yoniga zulQofiyatayn san'atini kushib Shox bayt yaratadi :

Labing bagrimni kon qildi ,ko’zimdin kon ravon qildi .
Nega xolim yomon qildi men andin bir surarim bor .

Lutfiy badiy maxoratiga boglik nuktalardan biri Ma’shuqki Shoir eng zarur fikrni birikmali radif orkali ifoda qiladi .Har baytda takrorlanayotgan bunday radif Shoir muddaosini Yerkin ifoda qiladi .

Masalan: Sensan sevarim xox ini Xox inonma
Kondir jigarim Xox inon Xox inonma

Lutfiy ijodidagi bu san'atkorlik Bobur liriqasida ham uchraydi :

Ul axd ila paymon kani ,ey yor ne bo’ldi ?

Lutfiy va Bobur lirikasining mushtarak fazilatlaridan biri Ma’shuqki ular lirik merosi til jixatdan soda va Shiralidir .Lutfiy lirik asarlariga halq maqollari matallari iboralari Hatto kargishlardan maxorat Bilan foydalanib g’oyaviy niyatni lunda serzavk ifoda kilishga erishgan bo’lsa Bobur ham an Shu vositalardna unumli foydalangan .

Lutfiy:

Jonu ko’ngil irning sari parvoz kilurlar
Har qanday asal bo’lsa guli magasi bor .
Bobur : Da'vid ishq etib gayr Boburni ayb kilma
Kim men edim seningdek sen bulgaysen meningdek.

Adabiyotlar.

1. N.Mallaev.O’zbek adabiyot tarixiT.1965y.
2. O’zbek adabiyoti tarixi V jildlik Ijild.T.1978y
3. Lutfiy .Devon.T.1965y.
4. S.Erkinov.Lutfiy T.1965y
5. B.Jalilov Boburnoma badiy maxorati Andijon 1993y.

Tayanch iboralar.

1. Lutfiy ijodining o’rganilish tarixi.
2. Lutfiy lirikasi.
3. Lutfiy va Bobur.

7-Ma’ruza
Husayniy lirikasi. Husayniy va Alisher Navoiy munosabatlariga doir

REJA:

1. *Husayn Boyqaro hayoti va ijodi manbalri.*
2. *Husayniy va Navoiy ijodi hamkorligi.*
3. *Husayniy lirikasi.*
4. *“Risola” asarida badiiy ijod masalalari.*
5. *Navoiy haqida shoirning o‘z asarlaridagi ma’lumotlar*
6. *Zamondoshlarining asarlarida keltirilgan ma’lumotlar*
7. *XVI-XIX asrlardagi tazkira, lug‘at, tarixiy va badiiy asarlar*
8. *Navoiy ijodining o‘rganilishi*

Taniqli shoir va davlat arbobi. Hirot yaqinida tug‘ilgan. 1469 yildan umrining oxirigacha Xuroson podhohi. Uning hukmdorligi yillarida iqtisodiy va madaniy hayot yaxshilangan. Navoiyning maktabdosh do‘sti va homiysi.

Badiiy ijod bilan shug‘ullanib, g‘azalnavis shoir sifatida adabiyot tarixida iz qoldirgan. Boburning xabariga ko‘ra, devonidagi g‘azallari aksariyat bir vaznda (ramali musammani maqsur). G‘azallarida dunyoviy muhabbatni kuylagan, betakror satrlar yaratgan.

«Risola» nomli nasriy asarida Navoiy ijodigakeng va ob'ektiv baho bergan. Husayniy asarlari O'R FA ShI jamg'armasida saqlanadi.

Shoir ijodi bilan E.Rustamov, S.G'anieva, E.Ahmadxo'jaev, A.Erkinov v.b. shug'ullanganlar.

Nashr qilingan asarlari: 1. Husayn Boyqaro. Devon, risola. (nashrga tayyorl. S.G'anieva) – T.: 1968; 2. Shoh va shoir: Husayniy (nashrga tayyorl. A.Erkinov). – T.: 1993;

Ilmiy adabiyot: 1.H.Arasli. Husayn Boyqaro risolasi haqida. O'zbek tili va adabiyoti» jurn. 1968, №3; 2.O'zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. T.1. – T.: Fan, 1978.

Turkiy xalqlarning "shamsul millati" bo'lgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy jahon adabiyoti xazinasini o'zining hassos she'riyati, buyuk "Xamsa"si, fan sohalarining turli tarmoqlariga bag'ishlangan boy ilmiy merosi bilan boyitgan so'z san'atkoridir. O'z ijodiy merosida 26 mingdan ortiq lug'at boyligidan foydalangan bu buyuk daho mana besh asrdan oshibdiki, asarlaridagi chuqur falsafiy mushohadakorlik, ma'no-mohiyatning keng ko'lamligi va nazmiy merosidagi fasohat dengizining bepoyonligi bilan jahon ahlini hayratga solib keladi.

Dunyoda Alisher Navoiy kabi asarlari keng tarqalgan, jahonning deyarli har bir chekkasida kitoblarining nusxalari saqlanayotgan boshqa bir ijodkorni topish qiyin. Navoiy hayotining so'nggi yillaridayoq uning asarlari tiliga lug'at ishlanganligi biz hozir navoiyshunoslik deb atayotgan sohaning ancha qadimiy ekanligini ko'rsatadi.

Shu ma'noda aytish mumkimki, Alisher Navoiyning faoliyati va merosining o'rganilish tarixi shoirning o'z davridan, zamondoshlari asarlaridan boshlanadi. Navoiyshunoslikning tadrijiy taraqqiyotini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Navoiyning o'z asarlaridagi ma'lumotlar. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida ilk ma'lumot beruvchi manba bu ulug' shoirning o'z asarlaridir. Shoirning deyarli barcha asarlarida uning shaxsiyati, ijodiy va ijtimoiy faoliyati haqida fikrlar keltiriladi. Xususan, "Vaqfiya", "Munshaot" asarlarida uning ijtimoiy faoliyati aks etsa, "Xamsa", "Munojot", "Xazoyinu-l-maoniy" kabi asarlarida shaxsiy hayoti, "Muhokamatu-l-lug'atayn", "Xamsatu-l-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Majolisu-n-nafois" kabi asarlarida shoir qalamiga mansub ba'zi asarlarning yozilish tarixi bilan bog'liq ma'lumotlani uchratish mumkin.

2. *Zamondoshlarining asarlarida keltirilgan ma'lumotlar.* Mirxondning "Ravzatus safo" ("Soflik bog'i"), Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkiratush shuaro" ("Shoirlar tazkirasi"), Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", "Haft avrang" ("tti taxt"), Zayniddin Vosifiyning "Badoye'ul vaqoe'" ("Go'zal voqealar"), Husayn Boyqaroning "Risola", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlarida Alisher Navoiyning hayoti, ijodi va ijtimoiy faoliyati haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

3. *XVI-XIX asrlardagi tazkira, lug'at, tarixiy va badiiy asarlar.* Alisher Navoiy haqidagi ma'lumotlar XV asrdan keyingi tazkira, tarixiy va badiiy asarlarda ham keltirib o'tiladi. Xususan, Lutf Alibek Ozarning "Otashkadai Ozariy", Som Mirzo Safaviyning "Tuhfai Somiy", Rizoqulixon Hidoyatning "Majmuaul fusaho" ("Go'zal so'z egalarining to'plami"), Faxriy Hiraviyning "Latofatnoma", Mirzo Haydarning "Tarixi Rashidiy", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" kabi asarlarida Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog'liq fikrlar u yoki bu darajada bayon qilib berilgan.

Bu davrda Navoiy asarlarini chuqurroq o'rganish uchun maxsus lug'atlar ham tuzila boshlaydi. Navoiy hayotining so'nggi yillarida uning asarlari asosida "Badoye'ul lug'at", bir oz keyinroq "Lug'ati Navoiy" yaratiladi. 1560-yilda Aloyi binni Muhibiy "Al lug'at-un-Navoiyat v-al-istishhodat ul chig'atoiyat" ("Navoiy lug'ati va chig'atoy tili dalilllari") lug'atini tuzadi. XVIII asrda Mirzo Maxdiyxon tuzgan "Mabon ul lug'at" ("Lug'at poydevori"), XIX asrda Fath Ali Kojariyning "Lug'oti atrokiya" (Turklar lug'ati), Muhammad Xoksor tomonidan 1798-yilda tuzilgan "Muntaxabul lug'at" ("Tanlangan lug'atlar") hamda Shayx Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy" kabi asarlarida Alisher Navoiy asarlaridan olingan parchalarga keng o'rin ajratiladi.

4. Navoiy ijodining o'rganilishi. O'tgan asrning 20-30-yillaridan boshlab Navoiy ijodini ilmiy mezonlar asosida o'rganish boshlandi. Bu sohadagi dastlabki qadam sifatida

Abdurauf Fitratning “Navoiyning forsiy shoirligʻi ham uning forsiy devoni toʻgʻrisida” (“Maorif va oʻqitgʻuchi” jurn., 1925) va “Farhodu Shirin” dostoni toʻgʻrisida” (“Alanga” jurn., 1930) maqolalarini koʻrsatish mumkin.

Butun Sobiq Ittifoqi miqyosida Navoiy tavalludining 500 yilligini keng nishonlash haqida qaror qabul qilinishi munosabati bilan “Xamsa”ning qisqartirilgan varianti (Sadriddin Ayniy, 1939), “Chor devon”, “Muhokamatu-l-lugʻatayn”, “Mahbubu-l-qulub” asarlari nashr qilindi, turli tadqiqot va monografiyalar yaratiladi, shoir asarlari rus, ukrain, tojik, ozarboyjon va boshqa koʻplab tillarga tarjima qilindi. Olim Sharafiddinov (“Alisher Navoiy”, 1939), M.Shayxzoda (“Genial shoir”, 1940), V.Abdullayev (Navoiyning Samarqanddagi hayoti va faoliyati haqida, 1940) kabi olimlarning tadqiqotlari yaratildi; A.Borovkov, Ye.E.Bertels, H.Olimjon, X.Zarif, O.Usmonov, M.Shayxzoda va boshqa olimlarning ilmiy maqolalarini oʻz ichiga olgan “Rodonachalnik uzbekskoy literaturы” (1940) toʻplami e’lon qilinadi.

Sobiq ittifoq hududida 1941-yilda II jahon urushining boshlanishi munosabati bilan Navoiy yubileyi 1948-yil may oyida nishonlandi va shu munosabat bilan Ye.E.Bertels, O.Sharafiddinov, S.Ayniylarning ilmiy risolalari e’lon qilindi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab navoiyshunoslik yanada sermahsul ishlarni amalga oshirdi. “Xamsa”ning mukammal nashri (Porso Shamsiev, 1960), “Xazoyinul maoniy”ning akademik nashri (Hamid Sulaymonov, 1959-60) va Alisher Navoiy “Asarlar”i 15 tomligining e’lon qilinishi navoiyshunoslikdagi muhim voqealardan boʻldi.

Oʻtgan asrning 90-yillarigacha Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatiga bagʻishlangan tadqiqotlar roʻyxatining oʻzi alohida bir kitobni tashkil qiladi (Alisher Navoiy. Adabiyotlar koʻrsatkichi, 1991).

Mustaqillik yillaridan boshlab Alisher Navoiy ijodini yangicha tamoyillar asosida oʻrganish boshlandi. I.Haqqulovning “Tasavvuf va she’riyat” (1991), S.Hasanovning “Navoiyning yetti tuhfasi” (1991), M.Muhiddinovning “Ikki olam yogʻdusi” (1991), H.Qudratullayevning “Alisher Navoiyning adabiy-estetik qarashlari” (1991), A.Qayumovning “Nazm va tafakkur quyoshi” (1992), A.Hayitmetovning “Navoiyxonlik suhbatlari” (1993), “Temuriylar davri oʻzbek adabiyoti” (1996), A.Abdugʻafurovning “Buyuk beshlik saboqlari” (1995), R.Vohidovning “Alisher Navoiyning ijod maktabi” (1994), ‘”Alisher Navoiy va ilohiyot” (1994), N.Komilovning “Tasavvuf” (1996, 2010), S.Olimovning “Naqshband va Navoiy” (1996), N.Jumaevning “Satrlar silsilasidagi sehr” (1996), A.Hojiahmedovning “Navoiy aruzi nafosati” (2006) kabi tadqiqotlari; M.Muhiddinov, Sh.Sirojiddinov, A.Erkinov kabi olimlarning dissertasion ishlari shular jumlasidandir.

Navoiy asarlari XVI asrlardayoq Yevropada ma’lum edi. 1557-yilda italyan tilida Venesiyada nashr etilgan tabrizlik arman yozuvchisi Xristofor Armaniyning “Sarandib shohining uch yosh oʻgʻloni ziyorati” asarining ikkinchi qismida Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidan oingan Bahrom va Dilorom sarguzashti bayon qilinadi. Shuningdek, XVII asr gruzin shoiri Sitsishvili Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonini ijodiy tarjima qilib, “Etti goʻzal” dostonini yaratadi.

XIX asrga kelib, Yevropada Alisher Navoiy asarlari va uning asarlari asosida tuzilgan lugʻatlarni nashr etish ishlari boshlanadi. Fransuz sharqshunosi Katrmer 1841 yilda e’lon qilingan majmuasiga Navoiyning “Muhokamatul lugʻatayn” va “Tarixi muluki ajam” asarlarini kiritadi. Rus olimi I.N.Beryozin ham oʻzining “Turk xrestomatiyasi” nomli kitobiga shoir asarlaridan parchalar kiritadi.

Rus sharqshunosi V.V.Velyaminov 1868-yilda Aloyi binni Muhibiyning “Al lugʻat-un-Navoiyat v-al-istishhodat ul chigʻatoiyat” (“Navoiy lugʻati va chigʻatoy tili dalillari”) lugʻatini Sankt-Peterburgda nashr ettiradi. Fransuz sharqshunosi Pave de Kurteyl esa Navoiy asarlaridan foydalanib, lugʻat tuzadi.

Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatini ilmiy aspektda oʻrganish 1856-yilda M.Nikitskiyning “Amir Nizomiddin Alisher, uning davlat va adabiyot sohasidagi ahamiyati” nomli magistrlik dissertasiyasi bilan boshlandi. M.Nikitskiy Navoiyning hayoti va faoliyatini ancha toʻliq organgani, uning shoir, olim va davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga yuqori baho

bergani holda Sharq mumtoz adabiyotidagi ijodiy an’analarni anglab yetmagani uchun Navoiyni “fors-tojik adabiyotining tarjimoni” deb e’lon qiladi.

Aynan shu tarzdagi g‘ayri ilmiy qarashlar fransuz sharqshunoslari M.Belen, E.Bloshe, Buva, ingliz sharqshunosi E.Braun, rus sharqshunosi V.Bartoldlarning tadqiqot va ilmiy maqolalarida davom ettirildi.

Nihoyat Ye.E. Bertels o‘zining Alisher Navoiy va fors-tojik adiblari ijodiy faoliyatini qiyosiy o‘rganish orqali Navoiyning original shoir ekanligini isbotladi.

Endilikda Alisher Navoiy ijodini xorijda keng ilmiy aspektda xolis o‘rganish ishlari davom ettirilmoqda.

ADABIYoTLAR:

5. Vohidov R., Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O’zYU Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2006.
6. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 2-jild. – T.: Fan, 1978.
7. Hayitmetov A. Temuriylar davri adabiyoti. – T.: Fan, 1996.
8. Navoiy zamondoshlari xotirasida. – Toshkent.: 1985.

8-MAVZU: Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati, o‘rganilishi.

Navoiy ijodining o’rganilish tarixi .

REJA

1. Navoiy xayoti va ijodini o’rganishdagi manbalar .
2. Navoiy ijodining utmishda o’rganilish tarixi.
3. Navoiy ijodini zamonamizda o’rganilish tarixi
4. Navoiy ijodining chet ellarda o’rganilish tarixi

«Keling Alisher Navoiydek Shoir bulgani uchun kuvonaaylik .

Bizga Ma’shuqy Shoirni armugon qilgan o’zbek xalkiga raxmat aytaylik.Navoiyni fakat o’rganmasdan tadkik etmasdan o’qib yuraylik

Badiy va ilmiy ijodi borasida serkirralikda sermaxsullikda Navoiy kabi ijodkorlar sanoklidir.Navoiy eng avvalo Shoirdir.U lirik Shoir sifatida:»Xazoyin-ul maoniy» «Devoni Foniy» singari devonlar meros qoldirgan .Navoiy ipik Shoir sifatida «Xamsa» Lison –ut tayr kabi dostonlar yaratdi .

NavoiyShunoslikka uni zullisonayn Shoir atash rasm bulgan.Navoyi ko’p tillik Shoirdir.U turkiy Forsiy,Arab tillarida ijod qilgan .Uning arab tilidagi misralaridan tashkari «Sab'at abxur» («Etti dengiz») nomli arab tilida bitilgan asari bor .

Navoiy adabiyotshunos olim sifatida «Majolis –un nafois « «Mezon ul-avzon» «Mufradot» kabi asarlar yozgan .U tilshunoms Shoir sifatida «Muxokamat –ul lugatayn» nomli asar yaratgan .

Navoiy tarixchi olim sifatida «Tarixiy mulkukiy Ajam» Tarixiy xukamo va anbiyot «Nomli asarlar yozgan.U dinShunos olim sifatida esa «Siroj-ul muslimin»nomli kitob yozgan. Navoiy tarjimasi sifatida «Arbayin xadis» nomli kitob meros qoldirgan.

Anna Shu ulkan ijodkor xayot iva ijodini o’rganishda uch manbaga tayanamiz.

1. Navoiy o’z asarlari .
2. Navoiy zamondoshlari va undan keyin yashagan ijodkorlar bergan ma'lumotlar.
3. Xalk ogzaki ijodi.

Yuqoridagi uch manba asosida Shoir xayotini va ijodini o’rganish o’z zamonasidanok boshlangan.Navoiy ilk devonini o’zi emas muxlislar tomonidan to’zilishining o’ziyok Navoiy zamondoshlarining Shoirga bulgan e'tiborining namunasidir.

Xusayn Baykaro Navoiy «Xamsa» yaratgach uni o’ziga pir sanagan.Uning kuyidagi baxosi esa Navoiy ijodiga bulgan yuksak extiromdir.

Erur So’z mulkining kishvaristoni

Kayu kishvariston Xisrav nishoni
Dema Xisrav nishonikim armugoniy
Erur gar chin desang soxibkironi

Navoiy zamondoshlari «Jomiy Davlatshox ,Samarkandiy,Lutfiy ,Xondamirlarning unga bergan yuksak baxolari Navoiy ijodining o'z zamonida yuksak e'tirof etilganini kursatadi.
Navoiydan keyin yashagan ijodkorlar xam unga yuksak baxo beradi uni o'zlariga ustoz sanaydilar.Jumladan Bobur «Boburnoma « asarida Navoiyga yuksak baxo beradi .
Bobur Navoiy ijodiga tankidiy munosabatda xam buladi.Jumladan «Yigirma turt ruboiy vaznida turt vaznda galat kilibdur…forsiy nazmda «foniy « taxallus kilibdur ba'zi adabiyoti yomrn emasdur.vale aksar sust va furutdur».

Boburning bu fikrlari Navoiyo « Musannafoti» ning Andijon Shevasida «Nash'u namo « topish singari fikrlariga munosabatni «Meros va ixlos» kitobimizda batafsil yoritganmiz.
Nodira ijodida Ma'shuqy baytlar bor:
Muridi ishq olam so'zman u 4Shshok bazmida
Navoiy nolayi naydek baland etdi makomimni .
Ogaxiy yozgpn edi:
Ogaxiy Kim topgay erdi sozi nozmingdin navo
Baxra gar yuktur Navoiyning navosidin sango
Munisda Ma'shuqy bayt bor:
So'z ichra Navoiyga boshkacharok munosabatda bullgan ijodkorlar xam uchraydi.Umarxon saroyining «Malik –ul Shuorosiz» bulgan Ado Umarxonning Xusayn Baykarodan o'zini esa Navoiydan ustun kuymokchi buladi:
Gar Navoiydin Ado so'zini utkarsa ne tong ?
Hox Umar afzalmu yo Sulton Xusayn Baykaro ?

Butun Navoiy tufayli Adoni eslab turibmiz.Utmishda Navoiy ijodiga munosabatlar uchrasa-da uni chinakam ma'noda o'rganish xalqqa yetkazish zamondoshlarimizga nasib etdi .

Ammo Shuro to'zumi Navoiyni tulik o'rganishga uni boricha xalqqa takdim etishga imkon bermadi.Navoiy asarlari tanlab o'rganildi mazmuni noto'g'ri Sharklandi .Birgina misol barcha kitoblarda Navoiyning:

Zoxid senga xuru menga jonona kerak
Jannat senga bulsin menga mayxona kerak
Bayti mutlako gayri ilmiy tarzda Sharklangan emish .Navoiy Zoxidga murojat etib senga xurlar bulsin menga real dunyodagi maxbuba jannat senga bulsin menga arok ,vino sotiladigan mayxona (bufet) kerak demokda deb Sharxlangan.
Aslidachi ?Navoiyga jannat xurlari emas Olloxning o'zi kerak unga jannat emas islom ta'limoti tarkatiladigan nurxona machit madrasa kerak demokda .
Istiklol Navoiy xayot iva ijodini to'g'ri yoritishga imkon berdi .Endigi vazifa Navoiyni ukish o'rganish uni aslicha xalqqa takdim etishdan iboratdir .
O'zbekistonda Navoiy xayoti va ijodini o'rganish 30-yillarda boshlangan .1939 yili O.Sharofiddinovning Shoir xayot iva ijodiga bagishlangan monografiyasi e'lon kilindi .Bu kitob 1948 yili I.Sulton tomonidan kayta ishlanib nashr etildi .1941 yilda Navoiy tavalludining 500yilliga nishonlanishga tayorgarlik ishlari boshlandi.1940 yili « Rodanachal'nik o'zbekskoy literaturi « 1946 yili «Alisher Navoiy «1948 yili «Ulug O'zbek Shoiri 2 maqolalar tuplamlari e'loln kilindi .
Navoiy xayot iva ijodini o'rganishda 1968 yili o'tkazilgan 525yillik 1990 yilda o'tkazilgan 550 yubileylar iuxim rol' o'ynaydi .1957 yildan boshlab har yili 9 fevralda Shoir xayot iva ijodiga bagishlangan ilmiy konfrentsiya utkaziladi.
O'zbekistonda NavoiyShunos olimlar yetishib chikdi.V.Zoxidov.V.Abdullaev,A.Sa'idiy X.Sulaymon ,I.Sulton,A.Xayitmetov,A.Abdugofurov,M.Shayxzoda, Yo.Isxakov,S.Ganieva,kabi olimlar yirik ilmiy tadkikotlar yaratdilar.Afsuski bugun ularning ishlarining tanqidiy ko`z bilan o`rganishga to`g`ri keladi.

Bu olimlar tomonidan Navoiy asarlari o`rganildi. Shoir ko`p tomliklari yaratildi. Ularning debocha qismlari tushirib qoldirildi. Navoiy hayoti va ijodini o`rganishda rus va hamdo`stlik mamlakatlari olimlari ham xizmat qildilar. Aynqsa, Bartol'd Bertel's Condrad H orasliy A Mirzoyev Y Ismoilov, E Shodiyev kabi olimlar yirik tadqiqotlar yaratdi.

Yevropa Navoiyning 1557-yildan tanidi. Venetsiyada Hristofor Armyanskiy tarjimasida «Shoh Sarendiyning 3 yosh o`g`illarining ziyorati» degan kitobi Italyan tilida nashr etildi.

Kitobning 2-qismida Baxromova Dilorom sevgisi tarixi berilgan XVIII asrda «Sab'ai Sayyor» asarlarida bir necha boblari lotin tiliga tarjima qilindi. 1697 yili Bartolomey erbilo «Sharq kutubxonasi» nomli qomus e'lon qildi. unda Navoiy biografiyasi haqida ma'lumotlar berildi. Pove-de kurtel' «Turk Sharq lug`ati» kitobida Navoiy She'rlaridan foydalaniladi. 1841-yilda Fransus olimi Katrmer «Muhokama-Ul lug`otayn» kitobini Parijda chop etdi. Belen, Braun, Bloshi singari olimlar Navoiy haqida maqolalar kitoblar e'lon qilganlar ammo ular Navoiyni tarjimon Shoir degan noto`g`ri hukmni berganlar bu fikrlar olimlar tomonidan rad etilgan. Y.E.Bertel's Ma'shuqy yozgan edi: «Balandparvoz so`zlar tagida eng oddiy haqiqat yashirinib yotganini payqab olish qiyin emas» Bloie hech qachon Navoiy asarlarini o`qigan emas faqat uning asarlari nomini o`rganish bilan qanoat hosil qilgan

Amerikalik olim E.Oll.Olvors Navoiy haqida turkum maqolalar yaratgan. Sho`ro siyosati chet el olimlar tadqiqotlarni o`rganishga imkon bermadi. Istiqlol tufayli NavoiyShunos chet el olimlari asarlari bilan tanishish imkoniyati yo'zaga keldi.

Adabiyotlar

1. N.Mallayev. O`zbek adabiyoti tarixi. T:1965
2. O`zbek adabiyoti tarixi V jildlik II jildlik 1970
3. M.Murodov. NavoiyShunoslar jasorati T:1972
4. Navoiy va adabiy ta'sir T:1967

Tayanch iboralar

1. Navoiyni o`rganishdagi manbalar
2. Shoir ijodini o`tmishda o`rganilishi
3. Shoir ijodi zamondoshlarimiz talqinida
4. Navoiy chet ellarda

O‘zbekiston Milliy universiteti

V. Ma’ruzalar matni

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi
(Prof. H.BOLTABOEV)

K I R I Sh

O‘zbekiston Respublikasida «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» qabul qilingandan so‘ng (1997 yil 6 oktabr) universitet ta’lim tizimiga ham qator o‘zgarishlar kiritildi. Oliy ta’lim tizimining ikki bosqichli, ya’ni bakalavriat va magistratura ta’limlari joriy qilindiki, bu shubhasiz, O‘zbekistondagi milliy ta’lim tizimini jahon andozalari asosida qayta yaratishning ijodiy mahsulidir. Shundan kelib chiqib, universitetlarda tayyorlanadigan filolog mutaxassislarga qo‘yiladigan talablarni ham keskin o‘zgartirish taqozo qilinadi. Ushbu yo‘nalishda universitetlarda tayyorlanayotgan pedagog va ilmiy kadrlar jahon standarti talablariga javob berishi lozim bo‘ladi.

«O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi» kursini o‘qitishda professor-o‘qituvchilar jamoasi oldiga qator talablar qo‘yish zarurati ham tug‘ilmoqdaki, bizningcha, bularni quyidagi yo‘nalishlarda aks ettirish mumkin:

- O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o‘rganishda birinchi navbatda badiiy matn va birlamchi manbalar bilan ish yuritish;
- O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgunga qadar e’lon qilingan badiiy matn nashrlariga tanqidiy yondashish, ularni birlamchi manbalar asosida to‘latish;
- o‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalarining asarlarini o‘rganishda adabiyot namunalariga so‘z san’atining boqiy talablaridan kelib chiqqan holda munosabatda bo‘lish;
- mumtoz adabiyot vakillarining ijodini o‘rganganda ularning asarlarida yorqin aks etib turgan diniy qadriyatlar ta’siriga hurmatda bo‘lish, ularni tushunish va tushuntirishda Qur’oni karim oyatlaridan va Hadisi sharif hikmatlaridan xabardor bo‘lish;
- ayrim badiiy asarlar tahlilida ular tasavvufiy talqinlar bilan ham yo‘g‘rilganliklarini hisobga olish, o‘sha asarlarda aks etgan tasavvufiy timsol va ramzlar ma’nosini anglashga hamda talabalarga tushuntirishga harakat qilish.

Mazkur majmuani yaratish davomida Milliy istiqlol mafkurasi talablarini unutmagan holda adabiyot tarixining ko‘plab muammoli masalalariga, xususan, davrlashtirishning tarixiy tamoyillariga, sho‘rolar davrida sun’iy ravishda adabiyotimiz tarixidan chiqarib yuborilgan ayrim ijodkorlar va asarlarga xolis munosabatda bo‘lish, mafkuraviy tazyiq ostida adabiyotga

kiritilgan «nazariy» ma’lumotlardan xalos bo‘lish, badiiy asarlarni tushunish va tushuntirishda, asosan, go‘zallik qonuniyatlariga amal qilish kabi hodisalarga duch kelindi va ularni imkon qadar zamonaviy talablar bilan yoritishga harakat qilindi.

Mazkur majmuani tayyorlashda universitet ta’limi uchun an’anaviy hisoblangan faqatgina ma’ruza matnlariga emas, balki amaliy hamda seminar mashg‘ulotlari, mustaqil ta’limga alohida ahamiyat berildi. Yangi pedagogik texnologiyani joriy etishda badiiy matnni o‘rganishning zamonaviy usullaridan foydalanish (kseroks xizmati, fotonusxalar, vazn xususiyatlarini o‘rganishda kompyuter imkoniyatlarini hisobga olish) ham nazarda tutiladiki, busiz boy adabiy merosimizni bugungi kunda o‘rganishning imkoniyati nihoyatda cheklangandir. Nihoyat, mazkur majmuani yaratishda O‘zbekiston Respublikasi universitet ta’limi uchun bugunga qadar yaratilgan tajribalar ham ijodiy o‘rganildi va yangilandi.

«Islomga qadar yaratilgan adabiy yodgorliklar» bobi ostida Markaziy Osiyoda islomga qadar yaratilgan yozma adabiy manbalar, ularning saqlanish shakllaridan qat’iy nazar izchil davriy tartibda o‘rganilishiga e’tibor qaratildi. «IX-XII asrlar adabiyoti» deyilganda Markaziy Osiyoda musulmonlik qabul etilgandan keyin vujudga kelgan ilk turk-islom davlatlari somoniylar, xorazmshohiylar, g‘aznaviylar va qoraxoniylar davrida yaratilgan adabiy yodgorliklar nazarda tutiladi. Tarixiy davrlashtirish tamoyillariga ko‘ra, bu davrdan so‘ng mo‘g‘ul istilosi davri voqealari o‘rganilishini nazarda tutgan holda Chingizxon davrida yaratilgan yagona yirik adabiy manba «Kisasu-l-anbiyo»ni ham mana shu davrning ma’naviy ne’mati tarzida berildi. Keyingi adabiy davr o‘zbek milliy ma’naviyati taraqqiyotida avvalgi tarixiy davrlardan sifat jihatidan keskin farq qiladigan adabiy hodisa bo‘lgani uchun ham uni «Temuriylar davri adabiyoti» unvoni bilan taqdim qilindi. «XVI-XIX asrlar (I yarmi) adabiyoti» nisbatan keng va adabiy manbalarga boy davr bo‘lganiga qaramasdan, Markaziy Osiyodagi xonlik tuzumining tarqoqlashgan davriga to‘g‘ri kelgani uchun va bu adabiy davr tarix sahnasiga Shayboniyxon sulolasining chiqishi va so‘nggi temuriy hukmdorlardan Bobur shohning Afg‘oniston va Hindistonga chekilishi ham ayni mana shu davr voqealariga aloqador bo‘lgani uchun avvalgi dasturlarda «XIV-XV asrlar adabiyoti» namunasi sifatida tavsiya etilgan Zahiriddin Muhammad Bobur shoh, Shayboniyxon, Muhammad Solih v.b. ijodkorlar ham, asosan, «XVI-XIX asrlar (I yarmi) adabiyoti» mavzusi ostida berilishi maqsadga muvofiq deb topildi.

1- mavzu. Adabiyot tarixini o‘rganishning metodologik asoslari va uni davrlashtirish tamoyillari

REJA:

1. ***Adabiyot tarixi jamiyat tarixi tarkibida.***
2. ***Davrlashtirish tushunchasi, istilohlari va tamoyillari.***
3. ***Mumtoz adabiyot tushunchasi va xususiyatlari.***
4. ***O‘zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot davrlari***

1. Adabiyot tarixi jamiyat tarixi tarkibida.

Adabiyot tarixi: qachondan qachongacha? Adabiyot tarixi insoniyat tarixining bir qismi sifatida. Insoniyat tarixi esa bir necha turlarga: fuqarolik tarixi, davlatchilik tarixi, madaniy tarix v.b.ga ajraladi. So‘nggisi, ya’ni madaniyat tarixi san’at tarixi, shaharlar tarixi v.b. qismlarga bo‘linadi. Madaniyat tarixining eng unumli sohalaridan biri san’at tarixidir. Bu tarix, o‘z navbatida, san’atning turlaridan kelib chiqib: musiqa tarixi, rassomchilik tarixi, haykaltaroshlik tarixi, raqs tarixi v.b. qatorida Badiiy adabiyot (san’atning turi) Adabiyot tarixiga alohida e’tibor beriladi. Demak, u xalq madaniy tarixining harakatdagi muayyan bir qismi sifatida anglashiladi. Adabiyot tarixi ilk badiiy asarlar (dastlab og‘zaki shaklda yoki mifik tafakkur asosida)dan tortib hozirga qadar o‘tgan adabiy-badiiy asarlarga, ya’ni adabiy (kengroq ma’noda) ma’naviy merosga nisbatan qo‘llaniladi.

Adabiy asarlar yakka shaxslar tomonidan yaratilgan bo‘lsa ham yozuv hali shakllanmagan dastlabki davrda jamoaviy xarakterga ega bo‘lgan. Ya’ni bir iste’dod tomonidan yaratilgan bo‘lsa u og‘izdan-og‘izga o‘tishi bilan boyigan, sayqallangan va anonimlashgan, natijada jamoaviy xarakter kasb etgan. Shunday ekan, adabiy asarning yaratuvchisi bir shaxs bo‘lishi mumkin, lekin badiiy adabiyotning yaratuvchisi bir kishi bo‘lolmaydi. Adabiyot xalq tomonidan yaratiladi. Qaysi xalq vakillari iste’dodliroq bo‘lsa, ular o‘z iste’dodiga yarasha kuchliroq (badiiy jihatdan) asarlarni ertaroq yaratganlar. Adabiyot tarixi, demak, jamiyat tarixi tarkibida tushuniladi.

2. Davrlashtirish tushunchasi, istilohlari va tamoyillari

“Davrlashtirish” tushunchasi yoki bu tushunchani tashigan istiloh tarixga nisbatan qo‘llanilgani kabi adabiyot tarixiga nisbatan ham ko‘proq qo‘llaniladi. Shuning uchun “davrlashtirish” deyilganda uning predikati sifatida (nimani?) adabiyot tarixini (umuman, badiiy adabiyotni emas) *davrlashtirish* deb ishlatiladi. Adabiyot tarixini davrlashtirish uchun dastlab adabiy istilohlarni belgilab olish, so‘ngra esa davrlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqroqdir. “Davrlashtirish” tushunchasi asosida “davr” istilohi yotadi. Biz “davr” deb atagan so‘z “zamon”, “vaqt”, “muddat”, “fursat”, “davomlilik” kabi ma’nolarni anglatadi. Biroq biz adabiyotshunoslar davrlashtirishga munosabatda “davr” atamasini faol qo‘llaymiz, go‘yoki boshqa so‘zlar atama bo‘la olmaydiganday. Xorijdan o‘zlashgan so‘zlar asosida rus tilida davr tushunchasi “period”, “epoxa”, “stadiya” so‘zlari orqali ifodalanibgina qolmay har bir so‘z muayyan ma’no qamrovidan kelib chiqib, alohida atamaga aylangan. Mas., “period” nisbatan “kichikroq davrlar”ga nisbatan qo‘llanilib, u ko‘proq yillar, o‘nyilliklar va asrlarga nisbatan ishlatiladi. “Epoxa” undan kengroq tushuncha bo‘lib, o‘z tarkibiga bir necha asrlarni (mas., epoxa srednix vekov – o‘rta asrlar (ya’ni bir necha asr ma’nosida) birlashtirgan. O‘zbek tilida esa bu tushunchani, ya’ni bir necha asrlarni qamrab oluvchi “epoxa”ni ham “davr” so‘zi orqali anglatamiz. Adabiyotshunoslikda «stadiya» (ayrim ilmiy asarlarda «stadialnaya obщnost») tushunchasi bor. Umumjahon adabiyoti tarixining muayyan “davri”ga nisbatan qo‘llanilib, uning doirasiga antichnost (qadimgi davr), srednevekove (o‘rta asrlar), Renesans - Vozrojdenie – Uyg‘onish (ayrim tarixiy manbalarda Intiboh) va boshqa tushunchalarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Biz o‘zbek tilida uni ham “davr” deb ataymiz: *antik davr, o‘rta asrlar, Uyg‘onish (yoki intiboh) davri* kabi. Demak, biz o‘zbek tilidagi adabiyotshunoslik masalalariga munosabatda har uch tushunchani bir so‘z, ya’ni “davr” so‘zi orqali anglatamiz va yuqoridagi kabi yillarga nisbatan ham (20-yillar adabiyoti), asrlarga nisbatan ham (XX asr davri adabiyoti) hamda “davriy umumlashma” (“stadialnaya obщnost»ni men shunday tarjima qildim, agar qabul qilinsa, adabiy istilohga aylanar, qabul qilinmasa, undan-da ishonchliroq boshqa kalima topilar)ga nisbatan ham birgina “davr” so‘zidan foydalanamiz.

Adabiyot tarixini davrlashtirilayotganda “davr” so‘zi zimmasidagi ana shu istilohiy “yuk”larning ayirmasini belgilab olmay turib, davrlashtirish tamoyillarini izlaganda xatoliklarga yoki kamida chalkashliklarga duch kelaveramiz. Albatta, o‘zbek (kengroq ma’noda turk tili) boy til, har bir tushunchani aniq ifodalay oladigan o‘z so‘zlarimiz bor. Biroq adabiyotshunosligimizda hozircha *davr* faolroq qo‘llanilib turibdi. Payti kelib, yuqoridagi uch ma’nodan biri “zamon” orqali, boshqasi “muddat” (yoki fursat, on v.b.) orqali o‘z yechimini topishi mumkindir. Biroq men, umuman, adabiyot tarixini, xususan, o‘zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish tamoyillari ishlab chiqilayotganda yuqoridagi uch jihat hisobga olinishining tarafdoriman. Chunki o‘zbek adabiyoti tarixi o‘zining boy merosi bilan nafaqat turkiy xalqlar yoki Osiyo, balki umumjahon adabiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Shunday ekan, umumjahon adabiyoti tarixini davrlashtirishdagi so‘nggi tamoyillarga suyanib ish tutsak har holda jahon adabiyotshunosligidan ketda (hatto chetda ham) qolib ketmasak kerak deb o‘ylayman. Demak, davrlashtirish tamoyillariga o‘tishdan avval “davr” tushunchasi zimmasidagi bir necha ma’nolar (epoxa, stadiya)ni ham o‘zbek adabiyoti tarixiga nisbatan faol qo‘llash mumkin bo‘ladi. Chunki adabiyotimiz tarixi qadimiyligi jihatidan ham, boyligi va istiqboli jihatidan ham boshqa xalqlar adabiyotidan qolishmaydi.

3. Mumtoz adabiyot tushunchasi va xususiyatlari

«Mumtoz» coʻzi (arabcha) lugʻatda *tanlangan, saralangan* yoki *xos, maxsus* maʼnolariga ega. Uning Ovroʻpa tillaridagi muqobili boʻlgan *klassik* (lotincha) soʻzi ham ayni mana shu maʼnoda qoʻllaniladi. Uning klass, yaʼni biror sinfga aloqador deb talqin qilinishi xorijiy manbalarda uchramaydi. Shundan kelib chiqadigan boʻlsak, *mumtoz adabiyot* tushunchasi ham *tanlangan adabiyot* maʼnosiga egaki, u davrlar sinovidan oʻtib, eng muhim va umuminsoniy jihatlari bilan saralanib boradi. Biroq uni ayrim guruh uchun ajratilgan, yaʼni aholining maxsus qismiga bagʻishlangan (elita) xoslar aadbiyoti deb qarash notoʻgʻri boʻladi. Bu oʻrinda *xos, maxsus* kalimalari ijtimoiy guruh maʼnosida emas, balki adabiy did, zakovat maʼnosida keladi. Tabiiyki, mumtoz adabiyot tushunchasi milliy xarakterga ega boʻlib, *oʻzbek mumtoz adabiyoti, arab mumtoz adabiyoti* yoki *fransuz mumtoz adabiyoti* shakllarida qoʻllanilishi mumkin.

Mumtoz adabiyot tushunchasining adabiy isteʼmolga kiritilishi mumtoz adabiyotning vujudga kelish davridan ancha kech sodir boʻlgani ayon haqiqat. Chunki har qanday jamiyatda ham avval hodisa sodir boʻladi, keyinchalik sekin-astalik bilan hodisaga mansub jihatlar shakllanib, uning atamasi – istilohi ilmiy muomalaga kiritiladi. Shu maʼnoda oʻzbek mumtoz adabiyotining vujudga kelish, shakllanish va taraqqiyot davri hamda soʻnishi, boshqa tipdagi adabiyotga oʻz bagʻridan joy berishi holatlari kuzatiladi. Mumtoz adabiyotning davr nuqtai nazaridan boshlanishi va intihosi boʻlgani kabi, uning hudud nuqtai nazaridan ham chegaralari boʻlishi tabiiy. Bundan tashqari har bir milliy adabiyotning oʻziga xos belgi-xususiyatlari, ilmiy istiloh bilan aytganda, birliklari boʻladi. Oʻzbek mumtoz adabiyoti ham yuqoridagicha davr va hudud birligidan tashqari til birligi (turkiy-oʻzbek), yozuv birligi (runiy, uygʻur, arab yozuvlari asosidagi), istifodadagi ifoda shakllari (nasr, nazm), qoʻllanilayotgan janrlar birligi, sheʼriy tizimi hamda unda vazn (aruz) va qofiya tizimiga ega boʻlishi bilan xarakterlanadi.

XX asr boshlarida milliy adabiyotlardagi mafkura birligi (shoʻro voqeligida) asos qilib olingani kabi tarixda oʻsha mumtoz adabiyotning eʼtiqod birligi (islom) ham mavjud boʻlishi uning milliy jihatlarini xarakterlaydi.

4. Oʻzbek adabiyoti tarixining taraqqiyot davrlari

Davr (vaqt jihatidan) chegaralari. Oʻzbek mumtoz adabiyotning davriy chegaralarini aniqlashda biror siyosiy voqea yoki mashhur hukmdorning davlat tepasiga kelishi, inqilobiy hodisalar asos qilib olinishi maqsadga muvofiq emas. Badiiy adabiyotning chegaralari ham *adabiy asarlar* asosiga quriladi. Barcha turkiy tildagi manbalar va jahon tillaridagi ilmiy adabiyotlarning tan olishicha, oʻzbek (turkiy) mumtoz adabiyotining nisbatan shakllangan, eʼtirof etilgan mashhur namunasi “Qutadgʻu bilig”dir. Shunga koʻra mumtoz adabiyotning bevosita shakllanish davrini Yusuf Xos Hojib Bolosogʻuniy asarining tugʻilishidan belgilash lozim boʻladi. Uning umrini, taraqqiyot davrini esa yangi adabiyotning boshlanishi hisoblangan “Padarkush” (Behbudiy) dramasigacha kechgan davrni olishga toʻgʻri keladi. Chunki “Qutadgʻu bilig”dan “Padarkush”gacha yaratilgan barcha adabiy-badiiy asarlarda yuqorida tilga olganimiz belgi-xususiyatlar mujassam etilgan. Bu oraliqdagi asarlarda til birligi, yozuv birligi, adabiy shakllar (nasr va nazm) va janrlar birligi, hatto sheʼriy asarlarda vazn birligi (aruz) va yagona qofiya tizimi (arab yozuvidagi harflar va harakatlar asosiga qurilgan) mavjud.

Hudud birligi (milliy adabiyotning tarqalish geografiyasi). Milodning V-VI asrlariga kelib, turkiy xalqlar yashaydigan hudud yagona Turk xoqonligi sifatida birlashdi. Bu hudud janubda Oʻrxun daryosidan (Moʻgʻuliston) to shimoliy dengizlargcha, gʻarbda Idil (daryosi) boʻylari va Yoyiq (togʻi) etaklaridan tortib Uzoq Sharqdagi Saxalin (saxa-caqa-sak-shaklar yashaydigan hudud)ga qadar choʻzilgan makon ekani eʼtirof etilgan. Mana shu yagona makonning tub aholisi sifatida turkiylar tan olingan va ularning tili oʻzaro muomalada tushunilishi mumkin boʻlgan, bir oilaga mansub boʻlgan turkiy til ekani alomalar tomonidan isbot etilgan (garchi uni Mahmud Koshgʻariyga koʻra, *xoqoniy* turkchasi, gʻarbliklarga koʻra *chigʻatoy tili*, XVI asrdan keyin davlat tepasiga oʻzbek qabilalarining kelishi bilan oʻzbek tili deb yuritilgan boʻlsa-da) ayniyatdir. Toʻgʻri, tashqi urushlar, ichki nizolar, migrasiya v.b. taʼsirida uning chegaralari oʻzgarib turishi mumkin. Lekin milodiy VIII asrdan boshlab turkiy xalqlarning

ota yurti sifatida Markaziy Osiyoning e’tirof etilishi va mana shu hudud tub aholisining turkiylar ekanligi uning til birligini ham e’tirof etishga olib keladi.

O‘ZBEK ADABIYoTI TARIXIning taraqqiyot davrlari

ISLOMGAChA BO‘LGAN ADABIYoT (mumtoz adabiyotning shakllanishiga qadar kechgan davrda yaratilgan manbalar).

“Avesto”

O‘rxun-Enasoy obidalari

Moniylik va Buddaviylik ruhidagi adabiyot

MUMTOZ ADABIYoT

Islomiy ruhdagi ma’rifiy-ta’limiy adabiyot.

Somoniylar davri adabiyoti

Chag‘oniyon adabiyoti

Qoraxonlilar davri adabiyoti

Saljuqlilar (xorazmshohiylar) davri adabiyoti

G‘aznaviylar davri adabiyoti

Adabiyotga sof san’at, san’atkorlik nuqtai nazaridan qarash.

Chingizxon istilosi davri

Temuriylar davri adabiyoti

Oltin O‘rda adabiy muhiti

Xonliklar davri adabiyoti (adabiy muhitlararo adabiyot)

Buxoro xonligi (amirligi)

Xiva xonligi

Qo‘qon xonligi

Mustamlaka davri adabiyoti

Turkiston hududi

Buxoro xonligi (vassalligi)

Xiva xonligi (vassalligi)

YaNGI ADABIYoT (postklassik davr).

Jadid (ayrim manbalarda milliy uyg‘onish davri) adabiyoti

Sho‘ro adabiyoti

Istiqlol adabiyoti

2-mavzu. Islomga qadar yaratilgan adabiy yodgorliklar (qadimgi davrlardan milodning VIII asrigacha)

REJA:

4. ***Mumtoz adabiyotning shakllanishiga qadar kechgan davrda yaratilgan manbalar.***
5. ***“Avesto” adabiy manba sifatida.***
6. ***O‘rxun-Enasoy obidalari.***

2. Mumtoz adabiyotning shakllanishiga qadar kechgan davrda yaratilgan manbalar.

O‘zbekiston hududida yaratilgan qadimgi yodgorliklarning bizga ma’lum qismi miloddan avvalgi 10 asrdan to Islomgacha bo‘lgan adabiyotni tashkil qiladi. Bular qadimgi Baqtriya, Kushon, Tohariston, Sug‘d va boshqa hududlarda yaratilgan yodgorliklardir. Ular «Avesto» yodgorligini, O‘rxun-Enasoy toshbitigini, qadimgi sug‘d taqvimi, moniylik adabiyoti va O‘g‘uznoma, Kitobi Dada Qo‘rqut kabi yozma dostonlarni tashkil qiladi.

Ilk turk nasri buloqlarini axtarganda Mahmud Koshg‘ariy nazarda tutgan afsona, rivoyat, hikoyat va asotirlarni o‘rganish mavzuga yetarli manba bo‘la oladi. Qadimgi «To‘maris» va «Shiroq» afsonalarini nasr yo‘lida tarqalib, bizgacha ayni shunday shaklda saqlanganini esga olsak, uning og‘zaki adabiyotdagi ildizlarini tasavvur etishga imkon topiladi. «O‘zbek nasri

tarixidan» jamoa tadqiqoti mualliflari bunga Mug‘ tog‘i qasrida topilgan so‘g‘d taqvimi, Shariy Turkistondagi so‘g‘d tilida yozilgan ona va qiz o‘rtasidagi oilaviy maktubni ham kiritadilar[12].

Nashr etilgan manbalar: ***1. Abu Rayhon Beruniy. Al-osoru-l-boqiya an-al qarunu-l-holiya.–T.:1969; 2. Abu Bahr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T.: 1966;***

Ilmiy adabiyot: ***Gumilev L. Qadimgi turklar. – T.: 2008; Mahmudov Q. Qadimgi Turkiston. – T.: MUMTOZ SO’Z, 2010.***

2. «Avesto» adabiy manba sifatida

“Avesto” (miloddan oldingi 10-7 asrlar) – jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligidir. Zardushtlik e’tiqodiga amal qiluvchilarning muqaddas kitobi sifatida Yagona Tangriga topinish shu ta’limotdan boshlangan. Bu kitob tarkibi, ifoda uslubi va timsollar tizimi bilan adabiy manbalarga yaqin turadi. «Avesto»da tilga olingan joy nomlari (Varaxsha, Vaxsh)dan kelib chiqib, Amudaryo sohillarida yaratilgani aniqlangan. Shu asosda uning vatani Xorazmdir, degan qarash mavjud.

«Avesto» oromiy va pahlaviy yozuvlari asosida yaratilgan maxsus alifboda dastlab to‘qqiz ho‘kiz terisiga yozilgan. Ilk nusxalari asosida sosoniylar (mil. ol. 7-3 asr) davrida 21 kitob holida yig‘ilgan, bizgacha ularning chorak qismi yetib kelgan. Tiklangan matnga «Zand» nomi bilan sharhlar bitilgan.

«Avesto» to‘rt qismdan iborat:* Yasna *(“Diniy marosimlar”),* Yasht *(ma’no jihatdan Yasnaga yaqin),* Visparad *(“Barcha ilohlar haqidagi kitob”),* Vendidod *(“Yovuz ruhlarga qarshi qonunlar majmuasi”). Yasna tarkibiga kirgan madhlar “Gatlar” (ayrim manbalarda «gohlar») deb nomlanib, ularni Zardushtning o‘zi yozgan deb taxmin qilinadi. Gatlar tarkibida Jamshid (Yima), Gershasp, Afrosiyob (Alp Erto‘nga) kabi afsonaviy qahramonlar hayoti lavhalari uchraydi.

«Avesto» insoniyat sivilizasiya tarixining ilk sahifalarini tashkil etgani uchun jahon olimlarining e’tiborini tortgan. U haqda F.Nitsshe, F.Shpigel, A. Mayllet, V.Bartold, Ye.Bertels, Yan Ripka, O.Makovelskiy, I.Braginskiy v.b. xorijiy olimlarning tadqiqotlari mavjud.

O‘zbekistonda «Avesto»ni o‘rganish qadimdan boshlangan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Jafar Tabariy, Abu Baxr Narshaxiy asarlarida «Avesto» ta’limotiga va unda tilga olingan timsollarga murojaat mavjud. Bu nodir ilmiy asarlarning qo‘lyozma va bosma nusxalari O‘R FA ShI jamg‘armasida saqlanadi. Hozirgi o‘zbek olimlari A.Qayumov, H.Homidov, M.Ishoqov, N.Rahmonov v.b.ning ilmiy tadqiqot va maqolalari e’tiborli.

O‘zbekiston Respublikasi hukumatning qarori bilan 2001 yilda «Avesto»ning 2700 yilligi nishonlandi. «Avesto» vatani Xorazmda bog‘ barpo qilindi, asarning o‘zbek tilidagi tarjimalari chop etildi, u haqda yangi tadqiqotlar yuzaga chiqdi.

Nashr qilingan manbalar: ***1.Avesto. O‘zbekchaga tarjima (Asqar Mahkam tarj.) –T.: 2001. 2. “Avesto”dan (tarj. M.Ishoqov). “O‘zbek tili va adabiyoti» jurn. 1999, № 2–4. 3. “Avesto” (per.A.Maxkama). – T.: 2001.***

Ilmiy adabiyot: 1. 3. A.Qayumov . Qadimiyat obidalari. — T.: 1971; 4. H.Homidov. «Avesto» fayzlari. – T.: 2001; 5. N.Rahmonov. “Avesto”ning paydo bo‘lishi. — “O‘zbekiston ovozi” gaz., 2001, 26 may. 6. N.Rahmonov. “Avesto”: Zamin, vatan demakdir. — “O‘zbekiston ovozi” gaz., 2001, 25 sentabr.

3. «O‘rxun-Enasoy obidalari» (V-VIII asrlar). O‘rxun–Enasoy obidalari V-VII asrlarda qadimgi turk tilidagi va yozuvidagi tarixiy yodgorlik sifatida qadrli. Mo‘g‘ulistondagi O‘rxun va Janubiy Sibirdagi Enasoy daryolari sohillarida topilgani uchun ham shunday nomlangan. Mo‘g‘ulistondan Shimoliy dengizlargacha, Uraldan Saxalinga qadar davom etgan hududda shu yozuvdagi yodnomalar uchraydi. Shimoliy Kavkazda XU asrda ham O‘rxun

[12] Ўзбек насри тарихидан. – Т.: Фан, 1982. –Б.18.

yozuvidan foydalanilgan. O‘zbekiston hududida (Farg‘ona,Surxondaryo v.b. joylar)dan 20 dan ortiq turkiy–run yozuvi yodgorliklari topilgan.

Yirik O‘rxun bitiklari Kultigin, Bilga xoqon, To‘nyuquq va boshqa bu yozuvdagi yodnomalar (mas. Irq bitigi) adabiy manba sifatida qahramonlik qissa va dostonlariga mazmunan yaqin keladi. Kultigin bitiktoshi 732 y. Turk xoqonligi(551–745)ning lashkarboshisi sharafiga o‘rnatilgan. Bitiktosh ikki qismdan: Kichik va Ulug‘ bitikdan (muallifi Yo‘llig tigin) iborat. Vatan manfaati yo‘lida xizmat qilish, mamlakatning mustahkam, osoyishta bo‘lishi uchun kurash bitiktoshlarda bosh maqsad ekani aytiladi.Asarda Tabg‘ach, Tibet, Sug‘d, Turgash, Qirg‘iz kabi joy nomlari tilga olingan. Enasoy bitiklari marsiya va madhiya janrlarining qadimgi turk adabiyotidagi ildizlari haqida tasavvur beradi.

Bitiktoshlar XIX asr oxirlarida topilib, U.Tomsen tomonidan o‘qilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan. Ba’zi yodgorliklar deshifrovka qilingan emas. AQSh, Polsha, Vengriya, Finlyandiya va Turkiyada ham o‘rganilgan. Rossiyada V.Radlov, S.Malov, I.Stebleva ishlari ma’lum. O‘zbekistonda Fitrat, A.Qayumov, N.Rahmonov v.b. asardan namunalar va tadqiqot ishlarini chop qildirgan.

Yozma manbalar orasida O‘rxun-Enasoy obidalari islomgacha yaratilgan turk nasrining tengsiz yodgorligi ekanini rus olimlari V.Jirmunskiy, A.Shcherbak tan olib yozishgan. Toshbitiklardagi «Yo‘q chiqan buduniq ko‘p ko‘bartdim, chiqan buduniq bay qildim, az buduniq o‘kush qildim» (Mazmuni: yo‘qolib borayotgan xalqning sonini orttirdim, qashshoq xalqni boy qildim, ozchilikni ko‘p xalq qildim») so‘zlari mardona turk nasrining so‘nmas ovozi sifatida yangraydi. Bu obidalar tarkibidagi «Bilka Qoon», «Kultekin» va «To‘nyuquq» bitiklari qadimgi turk bahodirlarining shavkati va turk yerining mustaqilligi uchun olib borgan janglarni badiiy lavhalarda aks etganidir. Toshbitiklardan boshqa runiy yozuvida qog‘ozga bitilgan qadimgi manba «Irq bitigi» («Ta’birnoma»)da ham ilk turk yozma nasrining belgilarini ko‘rish mumkin.

Nashr qilingan manbalar***: 1. Eng eski turk adabiyoti namunalari (Tuzuvchi prof. Fitrat). - T.: 1927; Qayta nashri: Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari (nashrga tayyorlovchi O.Hamroeva; mas’ul muharrir H.Boltaboev). – T.: MUMTOZ SO’Z, 2009. 2. Yeniseyskaya pismennost tyurkov. – M.,L.: 1952; 3. Qadimgi hikmatlar. - T.: 1987.***

Ilmiy adabiyot: ***1. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. - T.: 1971. 2. Rahmonov N. Inson ruhining sadosi. - T.: 1986; 3. Rahmonov N. Ko‘hna bitigtoshlar. — T.: 1990; .Rahmonov. Turk xoqonligi. — T.: 1993.***

3-mavzu. Islomiy ruhdagi ma’rifiy-ta’limiy adabiyot

REJA:

2. ***IX-XIII asrlar (axloqiy-ta’limiy) adabiyoti***
3. ***Somoniylar davri adabiyoti***
4. ***Chag‘oniyon adabiy muhiti***
5. ***Saljuqlilar (xorazmshohiylar) davri adabiyoti***
6. ***G‘aznaviylar davri adabiyoti***

1. ***IX-XIII asrlar (axloqiy-ta’limiy) adabiyoti.***

IX-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda somoniylar, g‘aznaviylar, qoraxoniylar va xorazmshohiylar sulolalari alohida turk-islom davlatlari tipida yashaganlar. Mana shu davrda yaratilgan turk tilli islomiy adabiyot qamroviga Qur’on tafsirlari, Hadislarning tarjimalari, «Devonu lug‘oti-t-turk» tarkibiga kirgan nasr va nazm namunalari, «Qutadg‘u bilig», «Devoni hikmat», «Hibatu-l-haqoyiq», «Boqirg‘on kitobi» kabi yozma manbalar kiradi. Mo‘g‘ul istilosi davrida yaratilgan yirik adabiy yodgorlik «Kisasu-l-anbiyo» ham ta’limiy yo‘nalishdagi adabiyotlar sirasiga kiradi.

Markaziy Osiyoda tasavvuf tariqatlari X-XI asrlardan boshlab shakllanish davriga kirgan bo‘lib, umuman tasavvufning tarqalishi va taraqqiyoti Xoja Yusuf Hamadoniy nomi bilan bog‘liq. Xoja Yusuf tahsil munosabati bilan Buxoroga kelgan

va shu yerda muqim qolib, xonaqoh qurdirib faoliyatini davom ettirgan. Shayxning Buxorodagi xonaqohi Xuroson ka'basi nomini olgan va bizga qadar "Rutbatu-l-hayot" ("Hayot martabasi") asosiy asari yetib kelgan.

Aytishlaricha, Shayx Xamadoniyning 4 xalifasi uning faoliyatini davom ettirgan. Ular: Xoja Abdulloh Barraxiy, Xoja Hasan Andohiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy.

Markaziy Osiyoda tasavvuf tariqatlarining vujudga kelishi Xoja Ahmad Yassaviy va Abduxoliq G'ijdivoniy faoliyati bilan bog'liq. Yusuf Xamadoniy ta'limotida tariqatlanish keskin aks etmaydi. Faqatgina Xoja Ahmad Yassaviy bilan Abdulxoliq G'ijdivoniyning turli hududlardagi faoliyati va mana shu hududlar sharoitidan kelib chiqib ish ko'rishi natijasida yassaviylik va xojagon tariqatlari shakllangan.

Yassaviylik tariqati Xoja Ahmad Yassaviy nomi bilan bog'liq bo'lib, u jahriylik deb ham yuritiladi. Chunki tariqatning asosida oshkora tantanali ibodat va jahr majlislari asosida tariqat kengaygan. Bu tariqatning nazariy manbalari sifatida muallifi ma'lum bo'lmagan "Faqrnoma" va "Maslaku-l-orifin" kabi asarlar turadi yoki keltiriladi. Ularda yassaviylik yo'li, tariqat odobi, shakllanish maqomlari, pir-murid munosabati tariqat maskanlari kabi masalalar aks etgan. Tariqat maskani sifatida xonaqoh va zoviya belgilangan va ma'lum bo'lishicha Sultoni Orifin tomonidan o'z davrida xonaqoh qurdirgan. Keyinroq bu xonaqoh XIV asrda Amir Temurning yassiya ziyorati tufayli kengaytirilib ta'minlangan.

Xoja Ahmad Yassaviy tariqat sohibi sifatida xorijdayam mashhur bo'lgan yassaviylik asosida, keyinroq bektoshiylik, abdorlik kabi silsila va tariqatlar vujudga kelgan.

Yassaviylik tariqati XX asr boshlariga qadar Markaziy Osiyoda mavjud bo'lgan, xorijda esa Sharqiy Trukiston (hozirgi Turkiya) hududlarida shu kunda ham amalda ekanini tasdiqlovchi manbalar bor. Yassaviylik nafaqat tariqat sifatida, balki adabiy maktab sifatida ham taraqqiy etgan. Bu yo'nalishda o'nlab ijodkorlarni, hikmat mualliflarini keltirish mumkin: Hakim Sulaymon ota, Qul Ubaydiy, Azim Xo'ja Eshon devoni hikmat sohiblari sifatida adabiyotdan o'rin olgan.

Xoja Ahmad Yassaviy ijodi dastlab uning shogirdlari tomonidan davom ettirilgan bo'lsa, XVI asr boshlariga kelib Yassaviy maktabi shoirlari saroyga qadar ko'tariladi.

XX asr boshlarida esa mustaqil adabiy maktab sohiblari sifatida o'z faoliyatini davom ettirmoqda edilar. Bu haqda bizga yassaviylikdan tarixiy manbalar bo'lgan. "Maslaku-l-orifin", "Javohiru-l-abror", "Samirotu-l-mashoiq" singari manbalarida xabar berilgan.

XX asr boshlarida Xoja Ahmad Yassaviy ijodi tariqat yo'lini ilmiy jihatdan asoslanishga qaratilgan. Fuod Ko'prulu, Abdurauf Fitrat, Abdurahmon Sa'diy singari olimlardan tadqiqot va maqolalari e'lon qilingan.

Fitrat fikricha, 3 ta maktab yaratilgan:

5. Yassaviylik maktabi.
6. Navoiy maktabi.
7. Amir Umarxon maktabi.

Adabiyotlarda hikmat janrning paydo bo'lishini Yassaviy nomi bilan bog'lash mumkin. Hikmatlar 4 baytli bo'lgan. Ba'zilarda 1,2,3-misralari qofiyalangan, ba'zilarida 4 misra ham qofiyalangan bo'ladi. Yassaviy 4 misrani tanlagan, chunki xalqqa yetishi oson bo'lgan. Yassaviy ibodat adabiyoti yaratadi. "Maslaku-l-orifin" Yassaviy haqida ma'lumot beruvchi yagona manba.

"Devoni hikmat" muallifi Yassaviy ekanligi to'liq ma'noda to'g'ri emas.

Fitratning "Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar" nomli maqolasi bor. Yassaviylik to'g'risida so'nggi manba hisoblanadi.

2. Somoniylar davri adabiyoti (875-999).

Qur'oni karim ilk martaba Ajamda fors tiliga tarjima qilingan. Somoniylar sulolasi hukmdori Mansur ibn Nuh (961-976) topshirig'i bilan mashhur tarixchi va muhaddis olim Jarir Tabariyning "Tafsiri Qur'on" asari mana shunday ilk tarjimadir.

3. Chag'oniyon adabiy muhiti. Qadimgi Baqtriya (e.a. IX-VIII asrlar) zaminida paydo bo'lgan Toxariston (V-VIII) hududlari VI asrga kelib kengaydi, uning tarkibiga hozirgi

Surxondaryo zaminidagi Da-mi (Termez) va Chi-o-yan-na (Chag‘oniyon) viloyatlari qo‘shildi. Dastlab, Toxariston yerlariga sosoniylar (III-V) va Xionit hamda Eftalitlar (V) kirib keldi.

Chag‘oniyon atamasi yozma manbalarda VI asrdan boshlab uchraydi. Ilk bor xitoy sayyohi Syuan Szyan 630-yillarda uning termizlan ikki marta kichik shahar bo‘lganini va Qabodiyon Bilan teng ekanini yozgan[44] Yilnomachi ad-Dinovariy (vaf.952) «Kitobu-l-axbor»da sosoniy Xusrav I Anushervon (531-579) Eftalit davlatiga qarashli Toxariston, Kobuliston va Chag‘oniyonni (571) bosib oldi... Nihoyat, X asrdan e’tiboran Muhtojiylar sulolasi ustivor bo‘ldi. Unga Amio al-Muhtoj asos solgan, so‘ngi vakili Faxru-d-Davla (1010-1018) gacha davom etgan.

Muarrix Istaxriyning «Kitobu-l-masolik va-l-mamolik» («Mamlakatlar masalalari kitobi, 933) asarida yozishicha, bu davrda Chag‘oniyon hududi Termizdan ikki marta katta bo‘lgan. Tarixchilar Yoqut Hamaviy (1179-1229) «Mo‘’jamu-l-buldon», Hofiz Abro‘ (1362-1431) «Hululu-l-olam» asarlarida Sag‘oniyon nomi bilan tilga olingan. X-XII asrlarda uning hududi g‘arbda Boysun va Darband, shimolda Hisor va Dushanbe, janubda Jarqo‘rg‘on va sharqda Bobotog‘ga qadar davom etgan. Surxon daryosi Chag‘onrud deb yuritilgan.

Ilm-fan. Chag‘oniyonda alloma va muhaddis Abu Bakr Sag‘oniy (IX), Beruniy hurmat Bilan tilga olgan «Taxtitul-usturlob» («Usturlob xatolari»), « Kitob fi tasheh at tom» («Muttasil harakatlar kitobi»), «Qavonini ilmi hay’at» («Er shakli ilmi qonunlari») asarlari muallifi munajjim va jug‘rofiy Ahmad ibn Muhammad as-Sag‘oniy (X) va Abu hamid Usturlobiy; «Kitobi ziju-l-safox» («Gardishlar ziji kitobi»), «Kitobu-l-masoil Al-adadiya» («Hisob masalalari kitobi») hamda Evklid asarlariga sharh yozgan Abu Ja’far Xozin, lug‘atshunos olim, «Majma’u-l-bahrayn», «Al ubobu-z-zohir» («O‘zaklarning tashqi ko‘rinishi») kabi qomusiy asarlar muallifi Sag‘oniy (ismi noma’lum) bu yurtning ulug‘ allomalari edi.

Abulqosim Ali ibn Muhammad al-Iskofiy yetuk xattot va badiiy so‘z ustasi bo‘lgan. U haqda «Yatimat ad-dahr»da «Xurosonning tili, g‘ururi, ko‘zi va yagona kishisi edi. U kitobat va ilmi balog‘atda Xurosonda birdan bir kishi bo‘lib, idm va san’atda tengi yo‘q edi» deb ta’riflangan va undan 21 bayt keltirilgan. Ulardan biri (atir idishi xususida):

Sirtimda znbolik barq urar,
Ichkarida xushbo‘y hid etar g‘arq.
Yarim tanam nasibasin tatir,
Yarmim to‘kis va tugal atir[45].

Shoir 956 yili vafot etganda Abu Nasr al-Xuzaymiy «Risolalar devonida u yo‘q endi, Devondagi qalam va daftar egasiz qoldi» deb yozgan ekan.

*Chag‘oniyon adabiy muhiti*da davr (X asrning 2-yarmi XI asr boshlari)ning peshqadam shoirlari yetishib chiqqan. Sag‘oniy shoirlaridan *Taxoriy* (ayrim manbalarda Taxoviy, X asr boshlari) dan to‘rt misra saqlanganiga qaramay u adabiy muhitning asoschilaridan biri sifatida qadrlangan:

Lab-i go‘y, ki nimkafta gul ast,
Mai no‘sh andar u nuhuftasty.
Zulf go‘y ay lab nihozida,
Ba gila so‘i chashm raftasty[46]

(Mazmuni: Labing yarim ochilgan guldir, Unda xush may yashirindir. Zulfing labdan lab burib, Ko‘z tomon og‘ishga shaylangandir).

Abu Abdulloh Muhammad binni Hasan Ma’rufiy Balxiy fotimiylar harakatining tarafdorlaridan edi, buyuk Rudakiy (858-941)ning ko‘ziga mil tortilishining sababi ham manna shu fotimiylikdardir. Shoir merosidan 92 she’r saqlangan bo‘lib, ular Umar Roduyoniy, Shams Qays Roziy risolalarida badiiy san’atlar aks etgan she’riy namunalar sifatida tilga olingan.

Shoirning forsiy she’rlaridan shunday namunalar keltirilgan:

---

[44] Аршавская З.А. и др. Средневековўе памятники Сурхандарьи. – Т.: 1982. –С.38.
[45] Кўрсатилган асар. – Б.29.
[46] Ашъори ҳамасрони Рўдакй. – Сталинобод, 1958. – Сах.99.

Hukmi qazo bud v-in ba dilam bar,
Mahkam az on shud Ki yor yori qazo shud.
Har chy biguyam zi man nigar, ki nigary,
Aql julo shud zi man, Ki yor judo shud[47]

(Mazmuni: Qalbimdagi og‘ir yuk qazo hukmidir, Shundan yor o‘limning o‘ri bo‘ldi. Nima desam-da menga boq, boqmasang, Aql ham, yor ham mendan judo bo‘ladi).

Abulhusayn Muhammad binni Muhammad al-Murodiy Buxoriy (vaf.940) Rudakiyning sevimli shogirdlaridan bo‘lgan qasidanavis shoir bo‘lgan, hatto uning o‘limiga Ro‘dakiyning marsiyasi ham bor. Uning Abu Aliga bag‘ishlangan qasidasida shunday fikrlar bor:

(Mazmuni)

Sen tirik ekansan, yo‘ldan hech kim adashmaydi,
Adashgan tayanchini qilich zarbi yemiradi,
Qo‘lingdan saxovat va xalokat yog‘iladi…[48]

Yoki:

(Mazmuni)

Boshing kzra o‘lim charx urib turganda,
Hasham va xazinadan foyda nechun[49].

Bu davr adabiy muhitida Daqiqiy va Farruxiy kabi mashhur shoirlar yetishib chiqqan. Daqiqiydan so‘ng davlat arbobi va iste’dodli shoir Tohir Chag‘oniy (vaf.992) ijod qilgani haqida Umar Roduyoniy xabar beradi va «Tarjimonu-l-balog‘a»da muqtazob (iqtizob - qirqilgan) san’atining go‘zal namunasi sifatida quyidagi baytini keltiradi:

Bar mamlakat savor nagashty tu az gazof,
V-ozodagon-t banda nagashtand xir-xir.
Edun ba mavqey, ba madoroi ro‘zgor,
K-az nesh no‘sh makiyu v-az boda sherri sher[50]

(Mazmuni: Sen davlatda qilichsiz ham sarvar, sardor, Oqsuyaklar senga jabr-sitam ila tobe’ emas. Hayotda sen haqiqIy mavqega egasan, Sening qahringdan chaqqan ilon zahri ham beia’sir va sherni bemalol sog‘a olasan)

Abu Mansur Muhammad ibni Ahmad Daqiqiy (929-977) fors mumtoz adabiyotida mashhurlikda Ro‘dakiydan keyinda turadigan shoirlardan. U haqda Beruniyning «Al osor al-boqiya», Abulfazl Bayhaqiy (996-1077)ning «Tarixi Mas’udiy», Firdavsiyning «Shohnoma», Muhammad Avfiyning «Lubobu-l-albob» (1221), Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Lutf Alibek Ozariyning «Otashkada» (1760-61) asarlarida ma’lumotlar bor. DaqiqIy ijodi haqida V.V.Bartold, I.V.Braginskiy, N.O-.Osmanov, B.F.Lifshits, E.V.Rtveladze va boshqalarning ishlari ma’lum.

Shoir 950-yillardan Chag‘oniyonga kelgan Abu Ali, Abu Mansur Nasr saroyida mulozimlik qilgan. Jomiy Daqiqiyning Ushbu to‘rtligini keltiradi:

Man in jo der mondam, xor gashtam,
Aziz az mondani doim shavad xor.
Chu ob andar shamar bmsyor mond,
U funad girad az oromi bisyor[51]

(Mazmuni: Men uzoq turgandan la’natlandim, Bir joyda uzlq qolish hurmatli odamni ham la’natga botiradi. Axir bir joyda suv ko‘p tursa ko‘lmau bo‘lib, Uning rangi, hidi va tam’i o‘zganadi). Shoir Nuh ibn mansurning topshirig‘i bilan nasriy «Shohnoma»ni she’rga sola boshlaydi, biroq uning uch ming baytini yozib ulgurganida, quli tomonidan pichoqlab

[47] Юқоридаги асар. – Б.302.
[48] Қодиров Б., Муртазонв Б. Чағониён алабиёти (X-XII асрлар) – Т.: Янги аср авлоди, 2002. – Б.37.
[49] Ашъори ҳамасрони Рўдакй. – Сталинобод, 1958. – Сах.29.
[50] Муҳаммад ибни Умар Родуёний. Тарчумону-л-балоға. (Таҳияи матн, тавзнҳоти Х.Шарифов). – Душанбе: Дониш, 1987. – Сах.27.
[51] Жомй А. Баҳористон. – Душанбе: Ирфон, 1966. – Сах.88.

o‘ldirilgan. Bu asarning «Gushtospnoma» qismi bo‘lib, adabiyot tarixida Daqiqiy manna shu asarning muallifi sifatida qolgan.

Abulhasan Ali Chulug‘ Farruxiy Seyistoniy (980-1037) davrining go‘zal tabiatli, latif shoirlaridan bo‘lgan. U haqda Nizomiy Aruziy Samarqandiy, Avfiy, Davlatshoh Samarqandiy xabar beradi. U och-nochor holda Seyistondan Sag‘oniyonga yo‘lga chiqadi va Abul Muzaffar nomiga qasida bitadi, bir faqir bunday go‘zal qasida yozishiga amirning kadxudosi Amid Asad ishonmaydi, shunda Farruxiy bir kechada boshqa «Dog‘goh» nomli qasida bitgan ekan. Qasidada ulug‘ shoirni esga olib, «Daqiqiy qabri uzra o‘sgan har bir ko‘kat, seni minglab so‘zlar bilan ta’riflaydi» deyish bilan qasidachilikda Daqiqiy yo‘lini davom qilganiga ishora bermoqchi bo‘ladi. Farruxiy amirning she’r bazmida

Ko‘k harirdan yuziga yopgan ro‘molin sabzavor,
Etti xil rang ipaklarin boshga soldi ko‘hsor

deb boshlanuvchi qasida bilan hammaning maqtoviga sazovor bo‘lgan ekan[52]. Muzaffariy ismli boshqa bir shoir uni «tojiu-l-shuaro» deb ataganini Asadiy Tusiy (1005-1075) «Lug‘ati furs» asarida keltiradi.

Chag‘oniyon shoirlari faqatgina o‘z davrida, o‘z yurtida adabiy muhit yaratibgina qolmay, balki somoniylar va g‘aznaviylar sulolasi adabiy muhitiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdilar. Daqiqiy ijodi Firdavsiy va Adib Sobir Termiziy (1078-1147), Amir Muazziy (1049-?)ga o‘z ta’sirini o‘tkazgan bo‘lsa, Labibiy an’analari Mas’ud Sa’di Salmon (1046-1122) ijodining shakllanishiga turtki bo‘lgan. /aznada beruniy ilmiy maktab yaratgan bo‘lsa, u bilan yonma-yon turgan Farruxiy yirik adabiy maktabning ijodkorlaridan bo‘lgan, u nafaqat hukmdorlarga balki, Beruniy kabi ulug‘ allomalar nomiga ham qasidalar bitgan.

Matn va manbalar: 1. Ash’ori hamasroni Ro‘daky. – Stalinobod, 1958. – 408 s.; 2. Nizomiy Aruziy Samarqandiy. Nodir hikoyatlar. – T.: 1985. – 96 b.; 3. Roduyoniy Muhammad Umar. Tarchumonu-l-balog‘a. / Muntaxabi «Marchumanu-l-balog‘a» va «Hadoiqu-s-sehr». – Dushanbe: Donish, 1987. – 144 b.; 4. Sabaqi Ro‘daky. – Dushanbe: Irfon, 1984. – 304 s.

Ilmiy adabiyot: 1. Abluddaev I. Buxoroning arabiynavis shoirlari. – T.: Fan, 1965. – 56 b.; 2. Abdullaev I. Poeziya na arabskos yazo‘ke v Sredney Azii i Xorasane X-nach. XI v. – T.: Fan, 1984. – 294 s.; 3. Abdulloev A. Adabiyoti forsu tojik dar nimai avvali asri XI (Doirai adabii /aznin). – Dushanbe: Donish. 1979. – 286 s.; 4. Arshavskaya Z.A. i dr. Srednevekovo‘e pamyatniki Surxandari. – T.: 1982; 5. Rtveladze E.V. K biografii Farruxi. / Xudojestvennaya kultura Sredney Azii IX-XIII vekov. – T.: 1983. – S.177-181; 6. Fitrat. Fors shoiri Umar Xayyom. / Tanlangan asarlar. –T.: Ma’naviyat, 2000. – B. 134-172; 7. Qodirov B., Murtazoev B. Chag‘oniyon alabiyoti (X-XII asrlar) – T.: Yangi asr avlodi, 2002. – B.17.

8. G‘aznaviylar davri adabiyoti. Mahmud G‘aznaviy tomonidan G‘azna shahrining poytaxt bo‘lishi natijasida ilm-fan vakillari shu yerga to‘planganlar. Adabiyot va san’at namoyandalariga alohida ahamiyat qaratilgan. Firdavsiyning “Shohnoma”si Mahmud G‘aznaviy tavsiyasi bilan yozilgan. Bu davrning ulug‘ olim va fozillaridan biri **Abu Rayhon Beruniy (973-1048)** edi.

Hayoti va asarlari. Abu Rayhon Beruniy Xorazmning Qiyot shahrida tug‘ilgan, 22 yoshida o‘z vatanidan chiqib ketgan (Berun – «tashqari» nisbasiga e’tibor bering). Jurjonda va boshqa o‘lkalarda yashagan. Shartli ravishda Ma’mun akademiyasi deb nomlangan ilmiy anjuman faoliyatida muhim rol o‘ynagan. Fanning bir yuz ellikdan ortiq sohalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlari ma’lum.

Beruniyning badiiy adabiyotning nazariy masalalariga bag‘ishlangan "Fazl ahlining she’rda aytilgan fikrlarini bayon qilish kitobi", "Tanlangan asarlar va she’rlar kitobi" kabi asarlari ma’lum. Shuningdek, buyuk qomusiy olim "Hindiston", "al-Javohir", "Kitobu-s-saydana" asarlarida ham san’at va adabiyot muammolarining ayrim qirralariga ochiqlik kiritgan.

Allomaning "Hindiston" (to‘la nomi "Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash kitobi") asarida hind she’r ilmiga maxsus bob (13-bob) yaratilib, unda

[52] Низомий Арузий Самарқандий. Нодир ҳикоятлар. – Т.: 1985. – Б.37.

asar hind tili grammatikasi va fonetikasi qoidalarining she’r ilmida aks etishi muammolari o‘rganilgan[53]. Bunday ilmiy mulohazalar qatorida ushbu bobga tegishli sakkizta kitob haqida ma’lumot berilgan. Ular «Aindra» (Indra tuzgan), «Chandra» (Buddaning suhbatdoshlaridan Chandra ishlagan), «Shokata» (Shokatoyana qabilasi tomonidan tuzilgan), «Ponini» (tuzuvchining ismi bo‘yicha), «Kotantra» (Sharvavarman tuzgan), «Shashidevavritti» (Shashideva tuzgan), «Durgavivritti» (muallif ismi bilan yuritilgan) va «Shish’yahi-tovritti» (Ugrabxo‘ti tuzgan). Beruniyning bu asari nafaqat hind she’r tuzilishi, balki hind-ovro‘pa tillaridagi fonetik hodisalarni ham anglatadi va arab aruzini tushunishga ham yordam beradi.

Adabiy merosi. Buyuk alloma badiiy asarlar ham yaratgan bo‘lib, ular arab tilida yozilgan 37 baytli bir qasida va 3-4 she’riy parchalardan iborat. Bu ijod namunalaridan misollar keltirgan tazkiranavis Yoqut Hamaviy «Majma’u-l-udabo» («Adiblar to‘plami») asarida alloma ijodiga baho berib va ular baland saviyada bo‘lmasa ham Beruniy qalamiga mansubligi bilan tahsinga loyiq, deb hisoblaydi[54].

Qasidada alloma Abulfath Bustiyni madh etish bilan birga adolat, saxiylik va ilm-fan haqida zamonasining hukmdorlari bilan qilgan suhbatlari ham aks etgan. Beruniyni madh etib yozgan Abu Hasanga shunday javobi (mazmuni) bor:

Ey shoir, sen odob bilan mening oldimga kelib,
Meni madh etmoqchi bo‘lasan, lekin men dashnom eshitishga ko‘nikkanman...
Dashnom va maqtov, ey Abu Hasan, mening nazdimda barobardir,
Xuddi sening hazilu jiddiyliging men uchun barobar bo‘lgani kabi.
Avf et, ota-onamning gunohlaridan o‘t, ularni tinch qo‘y,
Bu ishing bilan sen bamisoli shishani toshga urganday (ovora) bo‘lasan.

Qasidaning yakuniy qismida muxoliflariga bo‘lgan munosabatini aytish bilan o‘zi haqida shunday ma’lumot beradi: «Ular (muxoliflar) fan oldida tiz cho‘kmadilar. Va ilmiy munozaralarda qatnashmadilar. Hech kim ham (ilmda) men kabi turlicha masalalar ustida to‘xtalgan emas. Mabodo meni bilmoqchi ekansan, Sharqda men haqimda hindlardan, /arbda mening tortgan. qiyinchiliklarimni bilganlardan so‘ra».

Prof. N.Komilovning «Beruniy va badiiy ijod» maqolasida allomaning she’riy asarlarini tahlil qilarkan, undan Yoqut Hamaviy tazkirasiga kirgan quyidagi to‘rtliklarni misol (mazmuni) keltiradi:

Mehnatsiz shuhrat qozongan odam
Osoyishtalik, farovonlik soyasida yashaydi.
Yaxshi kiyinadi, rohatda (kun ko‘radi),
Lekin ulug‘lik kiyimida u hamisha yalang‘ochdir.

Sen mendan uzoqlashding va mening hayotim
avvallari yaxshi o‘tgan bo‘lsa, endi qayg‘uli bo‘ladi.
Sening maktubing g‘am-alamdan, har qanday duodan ko‘ra
Meni ming marta yaxshiroq davolaydi.

N.Komilov M.Salening «Beruniy she’rni ermak uchun yozardi»[55] degan fikrini rad etib yozadi: «Beruniy arab she’riyatining turli shakllarida, mavzu jihatidan rang-barang va manzur bo‘larli darajada qalam tebratganini ko‘rsatadi»[56].

Beruniy adabiy merosi tarkibida adabiy-nazariy qarashlar va o‘ziga zamondosh bo‘lgan shoirlar ijodiga munosabat yetakchilik qiladi. «al-Javohir» asari qimmatbaho toshlar va ma’danlar tasnifiga bag‘ishlangan. Unda ayrim la’l va ma’danlar haqida ma’lumot berarkan, u haqda adiblarningg fikrlarini ham keltiradi. Masalan, «Lu’lu’» bobining «Gavhar va uning nomlarining adiblar tomonidan ta’riflanishi» faslida adabiyot masalalariga to‘xtaladi. Shoir

[53] Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. 2-жилд. – Т.: Фан, 1965. - Б.114-124.
[54] Қаранг: Комилов Н. Беруний ва бадиий ижод. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2005. – 4-сон. –Б.4.
[55] Салье М. А. Абу Райҳон Беруний. – Т.: 1960. – Б. 79.
[56] Қаранг: Комилов Н. Беруний ва бадиий ижод. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2005. – 4-сон. – Б.5.

qo‘llagan badiiy san’atlarning o‘sha tasvirdagi narsa yoki hodisaga mos kelish-kelmasligini sharhlarkan, bir shoirning (mazmuni)

Mening qalbim nozik qomatli, beli niholday harakatlanuvchi jononga qaratilgan,
U qiz husnu jamolda dengiz qirg‘oqqa uloqtirgan gavhardek

baytidagi tashbeh qo‘llanilishi haqida «Lekin bu o‘xshatish ma’no jihatidan to‘g‘ri emas, chunki gavhar qirg‘oqqa uning chig‘anog‘i o‘lgandan keyingina uloqtiriladi. Bunday holda esa gavhar yemirilish va o‘zgarishlardan buzilgan bo‘ladi» deb yozadi. Shoirning tashbehi haqida ma’danshunos allomagina bunday nozik kuzatish qilish mumkin.

Umuman, asarda saksondan ortiq shoir ijodiga murojaat orqali shunday xulosaga keladi: «Shoirlar tabiatdagi narsa-hodisalarning hamma vaqt zam aniq xususiyatlarini tasvirlashga qiziqmaydilar, balki ularni kishilar tasavvuridagi holatiga ko‘ra qalamga oladilar»[57]. Ayni asarda johiliya davri shoirlari Qays ibn Mulavvah, Hotam To’yi, Ibn Sa’d ijodidan ham namunalar keltirgan. Jumladan, ushbu asarida arab va fors tillarida asarlar yaratgan Hamza Isfahoniy, Abu Bakr ibni Husayn Ko‘histoniy, Abul Qosim ibni Bobak Jurjoniy, Mansur Muvarrid Forisiy, Gadoiriy, Darshor ibni Burd, Abu Mansur Saolibiy, Abubakr Xorazmiy, Xotibiy ibn Nasrovayh Samarqandiy v.b. tilga olingan.

«Hindiston», «Saydona», «Osoru-l-boqiya» asarlarida ham baddiy adabiyot va adabiyotshunoslikka doir fikrlar bayon qilingan.

Beruniyning Abu Tammom (arab shoiri) haqidagi «Abu Tammom ash’origa sharh», «Abu Tammom ijodida alif bilan tugallanadigan qofiyali she’rlar» kabi risolalari, fors tilidan arab tiliga tarjima qilgan «Qosimu-s-surur va Aynu-l-hayot», «Hurmuzdiyor va Mehryob», «Lolmoh va Kiromiduxt», «Vomiq va Uzro», «Bomiyonning ikki sanami», «Nilufar», «Dabistiy bilan Borbahokor hikoyasi» kabi tarjima asarlari bizgacha yetib kelmagan. Shu bilan birga alloma «Panchatantra» («Kalila va Dimna»)ning Abdulloh ibn Muqaffa tomonidan qilingan arab tiliga tarjimasidan qoniqmay, uning o‘zi imkoniyat topib asarni arabchaga o‘girishni orzu qilgan.

Matn va manbalar: **1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. – T.: Fan, 1965. - B.245; 2. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. – T.: Fan, 1968. - B.114-124; 3. Abu Rayxon Beruni. Minerologiya. – M.: 1963. – S.55-56.**

Ilmiy adabiyot: 1. Bulgakov P.G. Jizn i trudы Beruni. – T.: 1972; 2. Komilov N. Beruniy va badiiy ijod. // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2005. – 4-son. – B.3-16; 3. Sale M. A. Abu Rayhon Beruniy. – T.: 1960. – B. 79; 4. Qayumov A. Beruniy va adabiyot. – T.: 196

5-mavzu. Qoraxonlilar davri adabiyoti

REJA:

1. Qoraxonlilar davrida madaniy hayot
2. Qoraxonlilar davrida yaratilgan adabiy manbalar
3. Mahmud KOShG‘ARIY hayoti va faoliyati
4. Yusuf Xos Hojib va uning “Qutadg‘u bilig” asari

1. Qoraxonlilar davrida madaniy hayot. VIII asrdan e’tiboran turkiy xalqlar orasida islom qabul qilinish bilan birga, ular sekin-asta turk-islom davlatlari (X asr)ga aylandilar. Mana shunday davlatlardan biri hukmdor Abdulkarim Sotiq Bo‘g‘roxon (859-955) asos solgan davlatdir. U o‘zini *qoraxon – ulug‘ xon* deb e’lon qilgan. Shundan barcha hukmdorlar o‘zlarini qoraxonlar deb atagani uchun, davlat nomi ham shunday yuritilgan. Davlatning barpo bo‘lishida qorluq, chigil, yag‘mo qavmlari yetakchilik qilgan. 1130 yilda Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon (1102-30) saljuqlilarga yengilganidan so‘ng davlat tanazzulga uchragan. Sulolaning so‘nggi vakili 1212 yili Muhammad Xorazmshoh tomonidan qatl qilingan. Qoraxonlilar

[57] Иқтибос юқоридаги мақоладан олинди.

davlatning hududi Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Tyonshanning janubiy yon bag‘irlariga yoyilgan.

Davlat hujjatlari, diplomatik yozishmalar uyg‘ur yozuvida olib borilganiga qaramay X asrdan yozma adabiyot arab yozuvi orqali ham tarqala boshladi. Muayyan davrda har ikki yozuv parallel ravishda qo‘llanilgan. Ayrim manbalarning (mas., “Qutadg‘u bilig”) har ikki yozuvda ko‘chirilgan namunalari saqlanadi.

Ilmiy adabiyot: Koraev O. Istoriya Karaxanitskogo kaganata X-nach. XIII vv. Frunze, 1983; Shoniyozov Q. Qarluq davlati va qarluqlar. T., 1999.

2. Qoraxonlilar davrida yaratilgan adabiy manbalar. Bu davrda bir qator diniy va axloqiy asarlar yaratilgan, davlat boshqaruvi xususida tuzuklar tuzilgan. Ayni davrda Qur’oni karimning turk tiliga ilk tafsiri amalga oshirilgan. Noma’lum muallif tomonidan amalga oshirilgan tafsir saqlanish o‘rniga ko‘ra Rilands (Rylands) nusxasi deb yuritiladi[58]. Turkcha tarjima arabcha va forscha matnlar ostida satrorasi tarzida yozilgan. Arabcha matn sulis, forscha va turkcha tajima nozik nasih xati bilan yozilgan. U 1145 varaq, 30 jilddan iborat bo‘lgan, biroq bizgacha 14 jildi yetib kelgan. Saqlanib qolgan qism Ol-i Imron surasi (3)dan Tahrim surasi (66)gacha.

Mahmud ibn Husayn Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”, 1068), Yusuf Xos Hojib (Bolosog‘uniy)ning “Qutadg‘u bilig” (“Baxt kelituvchi bilim”, 1069) kabi adabiy asarlar bu davr adabiyotining namunasidir.

3. Mahmud KOShG‘ARIY hayoti va faoliyati. Jahonning turkiyshunos olimlari Mahmud ibn Husayn Koshg‘ariy tavalludini milodiy minginchi yilning dastlabki o‘n yilligi deb belgilaydi. “Devonu lug‘ati-t-turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”) asarining o‘zbek tilidagi ilk nashri muallifi, zukko olim Solihqori Mutallibov “devon yozilayotgangan vaqtlarda (1068) Mahmud Koshg‘ariyning ancha yoshlarga borganidan, keksaligidan, uning XI asr boshlarida tug‘ilganini taxminlash mumkin” deb yozadi[59]. Mashhur mustashriqlar K. Brokelmann, V.V.Bartold, S.Ye.Malov, K.K.Yudaxin, B.Atalay, A.Fitrat, B.Cho‘ponzoda v.b. olimlarning ishlarida ham mana shunga yaqin fikrlar aytilgan. Shundan kelib chiqib, YuNESKO qarori bilan 2008 yil *Mahmud Koshg‘ariy yili* deb e’lon qilindi va Turkiya poytaxti Anqara shahrida jahon turkiyshunoslari xalqaro anjumanga to‘plandilar. Shu munosabat bilan tuzilgan ozarboyjon olimi Ramiz Askar tomonidan tuzilgan bibliografik kцrsatkichda muallif Mahmud Koshg‘ariyni “1008 yilda Koshg‘ar shahri yaqinidagi O‘pal qasabasida dunyoga kelgan... 782 yilda yana o‘z ona shahriga qaytib madrasa ochgan va 1105 yilda 97 yoshida o‘sha yerda vafot etgan” deb yozadi[60].

Asar muallifi. Bizga o‘lmas bebaho ma’naviy xazina qoldirgan buyuk zotning to‘la ismi *Mahmud Husayn o‘g‘li ibn Muhammad al-Koshg‘ariy*[61] bo‘lib, uning bobosi Koshg‘arda tug‘ilgan bo‘lsa ham, asosan, qoraxoniylar davlati boshkentlaridan Bolosog‘un shahrida yashadi. Allomaning tug‘ilgan yurti devonda aniq aytilmagani uchun turk olimi Bosim Atalay uni Koshg‘ar (O‘rdukent)da tug‘ilgan deb aytadi[62]. O‘zbek olimi Q.Karimov Bolosog‘un (Quz O‘rda, ya’ni hozirgi To‘qmoq) shahrida tug‘ilganini, ko‘p vaqtini O‘pal va Azik qishloqlarda o‘tkazganini yozadi[63]. “Devon...”da yozilishicha, olimning otasi Husayn ibn Muhammad *Barshan* (Issiqko‘lning janubidagi shahar, ruscha manbalarda Barsgan) shahrida tug‘ilgan. Uyg‘ur olimlari Ibrohim Mut’iy va Mirsulton Usmonov Mahmud Koshg‘ariy tug‘ilgan yurt va u dafn etilgan dahma xususida uzoq yillar davomidagi kuzatishlaridan co‘ng 1981 yilda

---

[58] Türkçe İlk Kur’an Tercümesi (Rylands Nüshası) / Karahanlı Türkçesi. Prof. Dr. Aysu Ata. Ankara, 2004.

[59] Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони / Девону лағатит турк. Уч томлик. I том. – Т.: ЎзФА нашриёти, 1960. – Б. 16.

[60] Ramiz Əskər. Mahmud Kaşğarinin 1.000 illik yubileyinə 1.000 biblioqrafik Göstərici. Bakı, 2008. S.6, 8.

[61] *Ал-Кошғарий* нисбаси асарнинг дастлабки муаллиф томонидан кўчирилган нусхасида йўқ, шунинг учун ҳам айрим мутахассислар ушбу нисбага шубҳа билан қарайдилар. Қаранг: Махмуд ал-Кāшгарӣ. Дӣвāн лугāт ат-турк. В 3-х томах. Том 1 / Предисловие И.В. Кормушина. – Москва: Восточная литература, 2010. – С. 15.

[62] Besim Atalay. Divanü Lügat-ıt-Türk ve Tercümesi üzerine Notlar / Kaşgarlı Mahmud. Divanü Lügat-ıt-Türk (çeviri). Çeviren: Besim Atalay. 5.Baskı. Cild I. – Ankara, 2006. – S. XII.

[63] Каримов Қ. “Қутадғу билиг” асари ҳақида / Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Т.: Фан, 1971. – Б.7.

«Devon…»ning uyg‘ur tilidagi tarjimasi so‘zboshisida o‘zlarining xulosalarini e’lon qilganlar. Unga ko‘ra, Mahmud Koshg‘ariy Qashg‘ar yaqinidagi *Azik* yoki *O‘pal* qishlog‘ida tug‘ilgan[64].

“Turkiy so‘zlar devoni”da muallif o‘zining turkiy qavmlardan ekanligini aytib, “mening qabilam so‘zboshidagi “a” tovushini “ha” qilib so‘zlovchi qabilalardan edi” deb yozganiga ko‘ra Bosim Atalay uni o‘g‘iz qavmidan deb aytsa[65], qozoq olimlari uni qipchoq qavmidan ekaniga urg‘u beradilar. “Devon...”dan ma’lum bo‘lishicha, 30 dan ortiq turk lahjalari, jumladan, qorluq, chigil, o‘g‘uz, qipchoq, bulg‘or, arg‘u, kanchak, ug‘roq, yabaqu, yamak, bachanak, itlik, kay, tuxsi, jumul, basmil, ko‘ja, suvar, uch, barsg‘an, xoqoniyya, tatar, turkman, charuq, boshqird, so‘gut, yag‘mo, uyg‘ur v.b. lahjalarini yaxshi o‘rgangan.

Mahmud Koshg‘ariyning ilmiy faoliyati haqida to‘la ma’lumotga ega bo‘lmasak ham, asarda muallif bu qomusdan tashqari boshqa bir ilmiy asar yaratgani haqida ma’lumot bor: “Uning bundan oldin yozgan “Kitabi javohiru-n-nahvi fi lug‘ati-t-turki” (“Turkiy tillarning nahv qoidalari”) degan asari ham bor edi. Biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan (2008 yilda YevroOsiyo Yozuvchilar uyushmasi bu kitobni topgan kishiga 1000 oltin mukofot yerilajagini e’lon qilgan).

Mahmud Husayn o‘g‘li yozilajak asari munosabati bilan qoraxoniylar boshqargan bepoyon hudud aholisining til va shevalarini o‘rganishga kirishadi: “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘izlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni aniqlash uchun qildim. Bo‘lmasa, men tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim”[66].

Mahmud Koshg‘ariy yashagan davrining hukmdorlaridan Muhammad Bug‘roxon Shimoliy Chin (Xitoy)dan to Buxorogacha, Farg‘onayu Chochdan Xorazmgacha bo‘lgan ulkan hududga egalik qilgani manbalarda yoziladi.

Asarning yozilish o‘rni. Bosim Atalay tomonidan “Devonu lug‘ati-t-turk”ning yozilish o‘rni Bog‘dod deb ko‘rsatilib, 464/1068 (69)da boshlanib, ikki yil davomida 466/1071 yozib tugallangani aytiladi[67]. Radlov, Fitrat, Щerbak va S.Mutallibov asarlarida esa bunday qomusiy asarni faqat poytaxtdagina o‘tirib yozib bo‘lmasligini, balki Mahmud Koshg‘ariyning bir necha o‘n yillar davomida yozilib, Bog‘dodda jamlangani va abbosiy xalifalardan biri Mu’tasim Muqtadiyga taqdim etilgani (1072) zikr qilinadi.

Asar nusxalari. Mahmud Koshg‘ariy o‘z dastxati bilan yozilgan 4 nusxa abbosiy xalifalari saroyida saqlangan, so‘ngra esa xalifalikning ko‘chishi, Bog‘doddagi janglar natijasida yo‘qolgan. Asarning bizga yetib kelgan yagona nusxasi Shom (hozirgi Suriya) mamlakatining poytaxti Damashq shahrida Muhammad ibn Abu Bakr ibn Abulfath as-Saviy ad-Damashqiy tomonidan 664/1266 sana 27 shavvol / 1 avgustida ko‘chirib tugatilgan. Asardan yozilganidan qariyb 200 yil keyin ko‘chirilgan bu nusxa, kotibning fikriga ko‘ra, u Mahmud Koshg‘ariyning o‘z qo‘li bilan yozgan qo‘lyozmadan ko‘chirib kitobat qilgan. Qo‘lyozma 638 betdan iborat bo‘lib, har sahifada 17 satrdan matn yozilgan. Qo‘lyozma Istanbul (Fotih)dagi Millat kutubxonasida *Ar.4189* raqami bilan saqlanadi.

Tarjimalari va nashrlari. “Devonu lug‘atit turk”ning izoh va tushuntirish matnlari arab tilida yozilgani uchun u XX asrda bir necha tillarga tarjima qilingan. Asarning turk, o‘zbek,

---

[64] Мутъий И., Усмонов М. Маҳмуд Кошғарийнинг юрти, ҳаёти ва мозори тўғрисида / Адабиёт кўзгуси. – Тошкент, 1996. 2-сон. – Б. 107-119.

[65] Besim Atalay. Divanü Lügat-ıt-Türk ve Tercümesi üzerine Notlar / Kaşgarlı Mahmud. Divanü Lügat-ıt-Türk (çeviri). Çeviren: Besim Atalay. 5.Baskı. Cild I. – Ankara, 2006. – S. XII.

[66] Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони / Девону лағатит турк. Уч томлик. I том. – Т.: ЎзФА нашриёти, 1960. – Б. 44 (кейинги кўчирмалар ушбу манбадан олинган, саҳифаларини қавс ичида бериш билан чекланамиз - Ҳ.Б.) .

[67] Atalay B. Divanü Lügat-ıt-Türk ve Tercümesi üzerine Notlar / Kaşgarlı Mahmud. Divanü Lügat-ıt-Türk (çeviri). Çeviren: Besim Atalay. 5.Baskı. Cild I. – Ankara, 2006. – S. XII.

uyg‘ur, qozoq, ozarboyjon, ingliz, nemis, rus v.b. tillarda (jami 18 tilda 22 marta to‘la va qisman tarjima qilingan) chop etilgan.

“Devon...”ning ilk nashri Rifat Kilisli (1873-1953) tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib[68], lug‘atning arab tilidagi bo‘limi turk tiliga tarjima etilmagan[69]. Rus olimasi T.A.Borovkovaning aniqlashicha, nashrda matbaa kamchiliklari, ayrim co‘z va iboralarning tushib qolishi, ilovadagi yanglishliklar kabi yetishmovchiliklar mavjud[70]. Biroq ushbu nashr “Devon...” haqida ilk ilmiy ma’lumot beruvchi, jahon ilm ahlini tengsiz bu filologik tadqiqot bilan tanishtiruvchi omil bo‘lishi bilan birga asarning keyingi tarjimalari mana shu nashr bilan bog‘liq holda amalga oshirilganini unutmaslik lozim. Shuni ham e’tiborga olmoq lozimki, B.Atalay xabariga ko‘ra R.Kilisli asarni tarjima qilib, Birinchi jahon urushining oxirlarida 22 daftar holida Turkiya Maorif nozirligiga sotgan, biroq uning taqdiri noma’lum[71].

Turkcha tarjimalar orasida eng mukammali Bosim Atalay tarjimasi (1939-1941)dir[72]. Olim avvalgi tarjima matnlarini o‘rganib chiqib, imkon qadar arabcha kalimalarni turkchalashtirishga harakat qilgan. Ismoil Hikmat ozarboyjon tili (1929)ga tarjima qilgani manbalarda manbalarda tilga olinadi, co‘ngra Xolid Said Xo‘jaev tomonidan 1935-1937 yillar davomida tarjima etilgani haqida 1988 yilda ma’lumot berilgan[73].

Nihoyat, 1960-63 yillari Solih Mutallibov tarjimasida uch jild holida o‘zbek tilida to‘la nashr qildirilgan[74]. “Devon...”dan dastlabki namunalar O‘zbekistonda 1927-1928 yillarda Fitrat tomonidan e’lon qilingan[75]. So‘ngra ushbu namunalar “O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi” (1940), “O‘zbek poeziyasining antologiyasi” (1948), “O‘zbek adabiyoti” (1 tom, 1960) to‘plamlarida qayta chop etilgan. So‘ngra umumta’lim maktablari va o‘rta maxsus ta’lim tizimi uchun yaratilgan majmualardan o‘rin olgan.

Asar asosida tuzilgan indeks va lug‘atlar. Nemis turkshunosi K.Brokelmann 1928 yilda ushbu asar asosida “O‘rtaturk tili lug‘ati”ni nashr qildirgan[76].

Bosim Atalay esa “Devon...” indeksi[77]ni tuzishda lug‘atdagi ismlarning har birining tarjimasi va sahifalarini ko‘rsatgan. Tarjimonning asarning Ikkinchi nashriga yozgan so‘zboshisi (1985)da ko‘rsatilganidek, garchi “dizin”da lotin yozuvida 8783 so‘z tarjima etilsa-da, bu ish oxiriga qadar yetmagan. Chunki unga ilova qilingan ismlar ko‘rsatkichi, to‘g‘ri va yanglish o‘qilgan so‘zlar jadvali nihoyasiga yetmagan[78].

“Devon...”ning o‘zbekcha tarjimasining indeksi Solih Mutallibov va akad. G‘.Abdurahmonov hamkorligida tuzilgan[79].

---

[68] Килисли Рифат ҳақида қаранг: Ansiklopedik Sözlük, III Cild / Dil ve Genel Kültür Ansiklopedisi. – Ankara, 1967. – S. 1297. Ушбу олим ва илк нашр ҳақида қуйидаги манбаларда ҳам маълумотлар бор: Atalay B. Kitap Nasıl bulundu ve nasıl basıldı? / Kaşgarlı Mahmud. Divanü Lügat-ıt-Türk (çeviri). Çeviren: Besim Atalay. 5.Baskı. Cild I. – Ankara, 2006. – S. XVIII; Fazilov E. Kaşgarlı Mahmut’un «Dıvanü Lugat-ıt-Türk» eserının Almanca, Türkçe, Özbekçe, Uygurca, İngılızce, Farsça, Kazakça, Çınce, Azarıce ve Rusça Tercümelerının Karşılaştırmalısı Üzerınde / Turcologica III. – Ташкент: Vektor-Press, 2010. – С. 417-421.

[69] Китабу Дивану луғатит турк. Т. I-III. Истанбул, 1333-1335 [к1915-1917] (араб ёзувида).

[70] Боровкова Т.А. Грамматический очерк язўка “Дӣвӑну лугӑт-ит турк” Махмуда Кашгари / Дисс. кандидата филол. наук. – Л., 1966. – С. 133-135.

[71] Atalay B. Divanı Tercüme enmek istiyenler ve Edenler / Kaşgarlı Mahmud. Divanü Lügat-ıt-Türk (çeviri). Çeviren: Besim Atalay. 5.Baskı. Cild I. – Ankara, 2006. – S. XXIV.

[72] Atalay B. Divanü Lügat-ıt-Türk Tercümesi. – Ankara, 1939-1941.

[73] Саидходжаев Х. Советская тюркология. Т.3. 1988. – С. 96-103.

[74] Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони / Девону лағатит турк. Уч томлик. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960–1963.

[75] Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Самарқанд-Тошкент, 1927; Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. – Самарқанд-Тошкент, 1928,

[76] Mitteitürkischer Wortschatz nach Mahmud al-Kašgaris Dıvân Luġât at-Turk. Budapest-Leipzig, 1928.

[77] Atalay B. Divanü Lügat-ıt-Türk dizini – Ankara, 1943.

[78] Kāşgarlı Mahmud. Divanü Lūgat-ıt-Türk (Dizin). Çeviren: Besim Atalay. 5. Baskı. Cild IV. – Ankara: Türk Dil Kurumu yayınları, 2006.

[79] Абдураҳмонов Ғ., Муталлибов С.М. Девону луғатит турк. Индекс-луғат. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1967.

O‘rganilish tarixi. Mahmud Koshg‘ariy asarini ilmiy asosda tadqiq etish, asosan, XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Asar 1914 yilda kitobsevar Ali Amiriy tomonidan topilgan.

Asar haqida V.Radlov, G.Bergshtresser, F.Xommel, V.V.Bartold, S.E.Malov, I.I.Umnyakov, A.Bombachi, J.Kelli, R.Denkoff, J.Kelli, A.N.Kononov, I.V.Stebleva, T.A.Borovkova, R.Ermers, Yu.A.Zuev, I.Xavenshild kabi xorijiy va rus olimlarining ishlari ma’lum[80].

Turk olimlari Bosim Atalay, Najib Osimbek, Ismoil Hikmat, Said Bey, Mehmet Fuod Ko‘prulu, Zaki Validi To‘g‘on, Farit Birtek, M.Sh.Ulkutashir, A.Jafer o‘g‘lu, Sechqin va Sarab Tug‘ba Yurtasar v.b. turk olimlari tadqiqot olib bordilar[81]. Sobiq Ittifoqda B.Cho‘ponzoda, P.K.Juze, J.Validov, S.Axalli, S.K.Ibragimov i I.S.Xarkovskiy, A.Eqeubay, X.S.Xo‘jaev, Ramiz Askar, X.Ko‘ro‘g‘li, A.B.Xalidov kabi qardosh xalqlar olimlarining ishlari mavjud[82].

O‘zbekistonda Fitrat, S.Mutallibov, Q.Karimov, A.Rustamov, H.Hasanov, A.Qayumov, G‘.Abdurahmonov, E.Umarov, A.Abdurahmonov, S.Rustamiy v.b. ning tadqiqotlari[83] orqali ushbu qomusiy asar jiddiy tadqiqot ob’ektiga aylandi.

---

[80] Radloff W. Phonetik der nordichen turk sprehen / Leipzig. - 1882, pp. 8-19; Bergsträsser G. Das Vorbild von Kašġarï’s Dïvān Luġāt at-Turk. Orientalistische Literatur-zeitung, xxiv (1921). – C. 154-155; Hommel F. Zu den alttürkischen Sprichwörten, Asia Major, Hirth Anniversary Volume, 1924. – C. 182-193; Bartold V. Orta Asya Türk ta’rihi hakkında dersler. – İstanbul, 1927. Қайта нашри: Бартольд В.В. Обҳие работў по истории Средней Азии / Сочинение. – М.: Наука, 1963; Малов С.Е. Образцў древнетюркской письменности с предисловием и словарем. - Т.: 1926. Кейинги нашри: Памятники древнетюркской письменности. – М.-Л.: 1951; Умняков И.И. Самая старая тюркская карта мира (XI) // Трудў Самаркадского госпединститута. Вўп. 1. – Самарканд, 1940. – С. 103-132; Bombaci A. Storia della letteratura turca. – Milan, 1956. – C. 81-106; Kelly J. On definninng Dhū al-‘Arba’a // Journal of the Amerıcan Oriental Society 91.1 (1971). – 132-136 pp.; Dankoff R. Kāšgharï on the Tribal and Kinship Organization of the Turks // Archivum Ottomanicum IV (1972). – 23-43 pp.; idem, The Alexander romance in the Dïwān Lughāt at-Turk // Humaniora Islamica I (1973). – 233-244 pp.; idem, Kāšghar ï on the Beliefs and Superstitions of the Turks // Journal of the Amerıcan Oriental Society 95.1 (1975). – 68-80 pp.; Кононов А.Н. Изучение «Дивану лугатит турк» Махмуд Кошгарского в…» // СТ. - 1973. - №1 - С.3-9; Стеблева И.В. Поэтика древнетюркской литературў и ее трансформация в раннеклассический период. - М: Наука, 1976. - С.139-153; Боровкова Т.А. Грамматический очерк язўка “Дūвāну лугāт-ит турк” Махмуда Кашгари / Дисс. кандидата филол. наук. – Л., 1966; Ermers R. Arabic Grammatic of Turkic. Leiden/Köln, 1999; Зуев Ю.А. Ранние тюрки: очерки истории и идеологии. – Алматў: Дайк-Пресс, 2002; Hauenschild I. Die Tierbezeichnungen bei Mahmud al-Kaschgarï. Eine Untersuchung aus sprachund kulturhistorischer // Wiesbaden, Harrassowitz, 2003; Зуев Ю.А. Ранние тюрки: очерки истории и идеологии. – Алматў: Дайк-Пресс, 2002.

[81] Köprülü M.F. Türk Dili ve edebiyatı hakkında araştırmalar. – İstanbul, 1934. – C. 33-34; idem, İlk Türk dilcisi Kāşgarlı Mahmud. – Ankara, 1938; idem, Türk Dilli tarihi notlari. – İstanbul, 1943. – C. 42-45; idem, La Literature de I’époque des Karakhanıdes // Philologiae Turcicae fundamenta. – Wiesbaden, 1964. – C. 167-175; idem, Kaşgarlı Mahmut. – İstanbul, 1970; Togan A.Z.V. DÏvān-i Luğat üt-Türk’ün telif senesi hakkında // Atsiz mecmuası, no 16 (1932). – C. 77-78; idem, Mahmūd KāşgarÏ’ye ait notlar // Atsiz mecmuası, no 17 (1932). – C. 133-136; Pritsak O. Mahmud Kāşgarï kimdir? // Türkiyāt Mecmuası. X (1951-1953). – S. 243-246.

[82] Чобанзаде Б. О близком родстве тюркских наречий / Первўй Всесоюзнўй тюркологический съезд. 1926 г. 26 февраля-5 марта. – Баку, 1926. – С.96-102; Жузе П.К.uhcThesaurus Linguarum Turcorum // Известия Восточного факультета Азербайджанского госуниверситета. Востоковедение I. – Баку, 1926. – С. 74-94; II, 1927. - С.27-35; Велидов Дж. О Словаре туркских язўков Махмуда Кашгарского // Вестник научного обҳества татароведения. – Казань, 1927. Т. 7. – С. 107-112; Ахаллў С. Словарь Махмуда Кашгарского и туркменский язўк (на туркм. яз.) – Ашхабад, 1958; Ибрагимов С.К., Харковский В.С. Материалў из истории казахского язўка // Известия АН КазССР. Серия Истории, археологии и этнографии. Вўп. 2 (10). Алмата, 1959. – С. 94-100; Короглў Х. Древнетюркская литература // Советская тюркология. 1988. Т. 5. – С. 16-21; Халидов А.Б. “Дūвāн Лугāт ит-Турк” в сравнительном освеҳении с его арабским прототипом // Советская тюркология. 1984. Т. 4. – С. 85-90.

[83] Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Самарқанд-Тошкент, 1927; Қайта нашри: Фитрат. Энг эски турк аадбиёти намуналари / Нашрга тайёрл. О.Ҳамроева. Масъул муҳаррир Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: MUMTOZ SO`Z, 2008; Муталлибов С. XI асрнинг улуғ туркшунос олими Маҳмуд Кошғарий / Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони / Девону лағатит турк. Уч томлик. I том. – Т.: ЎзФА нашриёти, 1960. – Б.15-39; Каримов Қ., Рустамов А. XI-XII асрлар туркий ёзма ёдгорликлар изоҳли туғатининг тузилиши ҳақида // Ўзбек мумтоз адабиёти манбалари луғати / Илк туркий ёдгорликлар. – Тошкент: MUMTOZ SO`Z, 2009. – Б. 3-21; Умаров Э.А. Новўе даннўе о гласнўх «Ди:ва:ну луға:т ат-турк» Махмуда Кашгарского. II издание. – Ташкент, 2010. – 24 с.; Рустамий С. “Девону луғати-т-турк”даги лингвистик атамалар. – Тошкент, 2006.

Asarning yozilish sabablari va xususiyatlari. “Devon...” muallifi o‘z asari muqaddimasida Xalil ibn Ahmadning “Kitobu-l-ayn» asari (bu asar arab filologiyasining ilk va muhtasham manbalaridan bo‘lib, hozirgi kunga qadar to‘la saqlanmagan.

Asarni sinchiklab sinchiklab o‘rgangan va uning asosida tadqiqiy majmua yaratgan prof. Fitrat “Mahmud Koshg‘ariy “Devoni lug‘at”da 6,5 mingdan ortuq so‘zlarni olib izoh qiladir. Ko‘b o‘rinlarda bu so‘zlarning qabilaviy ayirmalarini ko‘rsatadir. Mahmud Koshg‘ariy asarini birgina izohli lug‘at yoki filologiyaga ilmiga doxil manba deb qarash kamlik qilsa ham biz asarning O‘zbek filologiyasi bilan bog‘liq jihatlarigagina e’tibor qaratish bilan cheklanamiz.

Tarkibi. “Devonu lug‘ati-t-turk” uch qismdan iborat: muqaddima, lug‘at va fihrist (indeks).

Muqaddimada Hamdu salotdan so‘ng muallif o‘zini tanitib, turkiy xalqlarning ulug‘vorligi, turk tili bilishlikning ahamiyati haqida so‘z yuritgan: “Alloh davlat quyoshini turklar burchida yaratdi. Falakni ham shular mulkiga moslab aylantirdi. Ularni turk deb atadi, mulkka ega qildi, ularni zamonamiznig xoqonlari qilib ko‘tardi. Zamon ahlining ixtiyor jilovini shular qo‘liga topshirdi, xalqqa bosh qildi, bularni to‘g‘ri yo‘lga yurishga qodir qildi. Ularga qarashli kishilar maqsadlariga yetib, beboshlar halokatida qutildilar... Bularga yaqin bo‘lish uchun eng asosiy yo‘l ularning tillarida so‘zlashishdir, chunki ular bu tilda so‘zlashuvchilarga yaxshi quloq soladilar, o‘zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar”[84] deyish bilan turk tilini bilish va bilganda ham to‘g‘ri maqsadlarda istifoda etish vojib amallardan ekanini anglatadi. Buning tasdig‘i uchun Payg‘ambar (s.a.v.) hadislaridan dalil keltiradi: “Ishonchli bir buxorolik olimdan va nisburlik boshqa bir olimdan shunday eshitgan edim, ular bu so‘zni payg‘ambarga nisbat berib aytgan edilar: Payg‘ambar (s.a.v.)... turk tilini o‘rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi (degan ekanlar). Hadisning to‘g‘ri yoki botil (to‘g‘ri emas)ligining javobgarligi aytgan kishilar gardaniga. Agar to‘g‘ri bo‘lsa, turk tilini o‘rganish vojib (zarur)dir; hadis to‘g‘ri bo‘lmagan taqdirda ham uni o‘rganish zarurligini aql taqozo qiladi”[85].

So‘ngra o‘zi haqida ma’lumot berib, asarning nomlanishi va xususiyatlarini bayon qiladi. Kitobning tarkibi haqida, turk tilida qo‘llaniladigan so‘zlarning yozilishi haqida so‘z yuritib, ular arab alifbosida 18 harf bilan boshlanishini anglatadi. Biroq kitob tarkibida muqaddimada tilga olinmagan “dol” va “he (hoyi havvas)” harflari bilanboshlanadigan kalima va atamalar borki, ularning jami 20 ta bo‘ladi. So‘z yasalishi haqida tushuntirish berib, fe’llardan yasalgan otlar haqida ma’lumot keltiriladi. Turkcha so‘zlar ketma-ketligi, tartibi, turk tabaqalari va qabilalarining bayoni, umumturk tilining sifatlari, turkiy lahjalardagi tafovutlar qisqacha bayon qilingan.

“Devon...”ning lug‘at qismi sakkiz bo‘limga joylashtirilgan bo‘lib, ular arab alifbosi va fonetikasi qoidalari asosida (kitobdagi turkcha so‘zlarning arabcha sharhlanganini unutmaylik) dastlab so‘zboshida hamza kelgan otlar bo‘limi (1) berilgan bo‘lib, ikki harfli so‘zlar (2), muzoaf, ya’ni bir harf ikki marta takrorlangan so‘zlar (3), tarkibida burun tovushlari (hozirgi istilohda: sonorlar) bo‘lgan otlarning misollari (4) beriladi. Keyin uch harfli so‘zlar (5), to‘rt harfli so‘zlar (6), bu bo‘limning turlari, oxiri “a” bilan tugagan so‘zlari, ortiqcha harfli boblar, so‘zlarning boshi va oxiri “alif” bo‘lgan so‘zlari, g‘unnalilar bo‘limi (7) va ikki undosh qator kelgan so‘zlar (8) bo‘limlaridan iborat. Har bir bo‘limdagi so‘zlar fe’llar va otlar tarzida ikki ajratilgan. Bu o‘rinda asosan, iste’molda bo‘lgan so‘zlar qo‘llanilgan bo‘lib, ayrim so‘zlarning arxaik shakllari, ya’ni iste’moldan chiqqanlarini ham ko‘rsatib borgan.

Qamrov doirasi. Muallif buyuk tilshunoslik kashfiyotini bajarish bilan cheklanmay, endi adabiyotshunos va folklorshunos olim sifatida masalaga yondoshadi va har bir so‘zqo‘llanilgan misollarni zamonidagi va o‘zigacha yaratilgan adabiy manbalarni keltiradi. Bu haqda yana muallifning o‘ziga so‘z bersak: “men bu kitobni maxsus alifbo tartibida (ya’ni ajam harflari tartibida) hikmatli so‘zlar, saj’lar (qofiyali nasr naumnalari), maqollar, qo‘shiqlar, rajaz

[84] Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони / Девону луғатит турк. Уч томлик. I том. – Т.: ЎзФА нашриёти, 1960. – Б.43.
[85] Кўрсатилган асар. –Б. 44.

(jangnoma aytimlari) va nasr deb atalganparchalar bilan bezadim" ("Devon...", 44-bet). Agar mutaxassis nigohi bilan qaralsa, Mahmud koshg'ariy shunchaki badiiy asar namunalarini keltiribgina qolmagan, ularning janriy jihatlaridan kelib chiqib tasnif ham qilgan. Tasnifdagi har bir asarga janriy tavsif bergan, ular qo'llanilgan asarlar, bu asar mansub qabilar va ayrim o'rinlarda ularning mualliflarini ham tilga olgan.

"Devon..."da til, adabiyot, tarix, falsafa, geografiya, huquq, tabobat, ilohiyot, mantiq, siyosat, harbiy san'at, axloqshunoslik, etnografiya singari sohalarga oid ma'lumot va misollar uchraydi. Kitobga ilova qilingan xarita filologiya ilmida tuzilgan ilk dialektologik xarita hisoblanadi. Shuningdek, kitobda 200 dan ortiq dori turi tilga olingan, 30 dan ortiq kasallik aniqlanib, unga shifo bo'luvchi 40 tadan ko'proq ovqat va resept tavsiya etilgan[86].

"Devon..."dagi adabiy parchalar. "Devon..."da umumiy hajmi 764 misra bo'lgan 289 to'rtlik va ikkilik (bayt) she'riy namunalar berilgan.

Fitrat "...namunalari"ning birinchi qismida 14 turkumda shartli sarlavhalar bilan bir qancha to'rtliklar berilib, ularning izoh va tarjimalaridan tashqari olim ikki marsiyani mazmun va mavzu jihatidan farqlaydi. Ma'lumki, Fuod Ko'prulu "Devon"ga kirgan parchalarni adabiy nav' jihatidan "Marsiya, doston, ov qo'shiqlari, ishq va sharob she'rlari hamda hikmatlar"dan iborat deb ko'rsatgan edi. Shu bilan birga olim "Turk adabiyotining manshai" maqolasida Alp Erto'nga mavzusidagi to'rtliklarni o'zaro mazmun jihatdan bog'lab, ularni to'rt marsiyaga ajratgan ham edi. Fitrat bu qarashlarni isloh etib, avvalo, Alp Erto'nga nomi bilan bog'liq manzumalar to'rt marsiya emas, balki ikki marsiyani tashkil etishini isbotladi. Qolgan ikki marsiya haqida "boshqa unvonlar berish kerak" degan fikrga keldi. Fitrat "Devon"dagi "O'g'uzlar bilan urush" deb nom bergan parchani milodiy VI-VII asrlarga taalluqli ekanini aniqlaydi. Devondan tanlab olingan adabiy parchalarni esa ikki qismga ajratadi: Birinchisi, asosan, to'rtliklardan iborat bo'lib, undagi asarlar qisqa vaznda aytilgandir. Bular tasviriy parchalar bo'lgani uchun ular mavzu jihatidan quyidagicha tasnif qilingan: Alp Erto'nga marsiyasi, Yoz-Qish munozarasi, Bir urush maydoni haqida, Yoz o'yunlari, Ovdan urushg'a, Tog'ush begining urushi, Uyg'urlar bilan urush, Ikki savdogar orasida, Ayriliq (hijron), sevgiga oid parchalar (7 parcha), Uch urush (5 parcha), Bir urush, Doston boshlang'ichi (6 parcha) va Bir marsiya (3 parcha).

Fitrat tasnifida, ikkinchi qism ikkiliklardan iborat bo'lib, ular ta'limiy–axloqiy mazmundadir. Fitrat masnaviylarni quyidagicha mavzularga ajratadi: Nasihat, Mehmon tutish to'g'risida, Tarbiya to'g'risida, Bir go'zal to'g'risida, E'tiqodiy bir parcha, O'g'limga nasihat, Dunyodan shikoyat, Sevgan bir kishi uchun, Boylikni maqtaydir, O'gut, Maqtanish, Boylik to'g'risida, Aldangan bir kishiga, O'zini maqtab, Ayrilish, Diniy nasihat, Mehmon to'g'risida, Rohat to'g'risida.

Fitrat o'z majmuasiga uchinchi qism orttirgan va bunda "manzumalarning ba'zi so'zlarini izoh qilish, ba'zi so'zlardagi sarfiy (morfologik – H.B.) va savtiy (fonetik – H.B.) ahamiyatli nuqtalarni chizib o'tgan". Bu jihatdan muallif Mahmud Koshg'ariy yo'lidan borgan. Bundan tashqari Fitrat har bir manzum parchaning nasriy bayonini yozib chiqqan (1) va janrini aniqlagan (2). Qadimgi davr adabiy yodgorliklarining mavzu jihatini belgilgan (3), mazmunan ularni bir-biri bilan bog'lashga harakat qilgan (4), vazn xususiyatlarini aniqlagan (5), asarning shakli (6) va qofiyasiga oid fikrlar (7)ini ifoda qilgan[87].

"Devon..."da 318 ta maqol va hikmatli so'zlar keltirilgan bo'lib, ulardan 26 tasi ikki marta, 6 tasi uch marta tilga olingan. Bu maqollar turkiy xalqlarning falsafasi, turmush tajribasi, hayot hodisalariga munosabatini anglatadi.

Fitratdan so'ng ayni yo'nalishda ilmiy yumushlar amalga oshirilmagan bo'lsa ham jahonga larza solgan buyuk ilmiy asarni o'rganishga va zamonaviy tillarga tarjima qilishga o'ziga xos yo'l ochilgan.

---

[86] Қаранг: Ramiz Əskər. Mahmud Kaşğarinin 1.000 illik yubileyinə 1.000 biblioqrafik Göstərici. Bakı, 2008. S.6-7.

[87] Фитрат асарининг замонавий нашри учун қаранг: Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. Адабиётимиз тарихи учун материаллар. / Нашрга тайёрловчи ва сўнгсўз муаллифи О.Ҳамраева. (Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Ҳ.Болтабоев). – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2008.

4. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostoni

Yusuf Xos Hojib (Bolosog‘uniy) hayoti haqida faqat uning asaridagi ma’lumotlar doirasidagina xabar qilinadi. Asarda yozilishicha, shoirning asl ismi Yusuf bo‘lgan, Bolosog‘un (Quz O‘rdu) shahrida tug‘ilgan. Yusuf ismli shoir *Bolosog‘uniy* (tug‘ilgan yeriga ko‘ra) nisbasini olgan. Hatto asarning rus tilidagi 1983 yilgi nashrida muallifni Yusuf Bolosog‘uniy deb tanishtiradi. Asarda: *“Kitab izisi Yusuf ulug‘ Hajib o‘zinga pand berur, Yusuf Xas Hajib teb ati javi yozilmish”* deyilgan. Ma’lum bo‘ladiki, shoir Yusuf ulug‘ (katta, yuqori) mansabda xos (maxsus) hojiblik (eshik og‘asi) vazifasida ishlagan. Bolosog‘unda o‘z asarini yoza boshlagan va qoraxoniylar davlatining poytaxti bo‘lgan Qashg‘ar shahriga kelib tugallagan. Uni 462/1069 yilda yozib tugallab, Tavg‘ach Ulug‘ Bo‘g‘ra Qoraxonga taqdim qilgan. Asar hukmdorga ma’qul bo‘lgani uchun shoirga Xos Hojib unvoni berilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, turk davlatchilik asoslari va mamlakat boshqaruvi masalalaridan bahs yuritgan ushbu manba Nizomulmulkning “Siyosatnoma” (469/1077)sidan yetti yil avval, Kaykovusning «Qobusnoma” asaridan (485/1082) 12-13 yil avval yaratilgandir.

Asardagi

Tegurdi manga elgi ellik yashim
O‘qir altmish emdi manga kel teyu

Mazmuni: *Ellik yoshim menga qo‘lini tegizdi,*
Oltmish yosh meni kel deb chorlayapti

bayti muallif asar yozayotganida 50 yoshlar chamasida bo‘lagniga ishora. Boshqa bir o‘rinda

Yil altmish eki erdi to‘rt bila...
Tugal o‘n sakiz ayda aydim bu so‘z

misralari bizga “Qutadg‘u bilig” 18 oy davomida yozilib, 462/1069 yilda tugallanganini ma’lum qiladi. Kitobda shunday yozilgan:

Kitab ati urdum Qutadg‘u bilig,
Qutadsu o‘qug‘liqa tutsu elig.

Bundan kitob o‘quvchining qo‘lidan baxt tutsin deya, uni *baxtga eltuvchi bilim* deb atagani anglashiladi. Fitrat *qut* – “baxt”, *qutadg‘u/qutayg‘u* – “baxtliklanish”; *bilig* – “bilim” bo‘lib, “Qutadg‘u bilig”ning ma’nosi “Baxtliklanish bilimi” bo‘ladir”, degan xulosaga kelgan[88].

Shunday qilib, baxtlilanish bilimi o‘z o‘quvchilariga saodat keltirish barobarida dunyoga tanilgan. Muallif yozishicha, asarni

Chiniylar “Adabu-l-muluk” teb ayar
Machinlar “Anisu-l-mamolik» ma ayar

Bu Mashriq elinda ulug‘lar muni
“Ziynatu-l-umaro” teyurlar ko‘ni

Eranlig‘lar “Shohnoma” ter mungar
Turanlig‘lar “Qutadg‘u bilig” teb uqar

deya “Molik (podshoh)lar odobi (to‘plami)”, “Mamlakatlar do‘sti”, “Amirlarning ziynati”, “Turkiy tildagi “Shohnoma”, “Podshohlar pandnomasi” kabi nomlar bilan e’tirof etilgan.

Asarning muqaddimasida ushbu fikrni takror keltirish bilan birga «Anisu-l-mamolik” birikmasi “Ayinu-l-mamlakat” bo‘lib yozilgan. Shu holatning o‘ziyoq muqaddima asar muallifi tomonidan yozilmagan, degan A.Vamberi, V.Tomsen, M.Xartman[89], Fitrat va Q.Karimov fikrlarini tasdiqlaydi.

Asarning tiliga doir qashg‘ar tili (Mehmet Fuod Ko‘prulu), chig‘atoy tili (V.Tomsen), uyg‘ur tili (S.Ye.Malov)da yozilgan degan fikrlashlar bo‘lishiga qaramay, bu qoraxoniylar

---

[88] Фитрат. Қутадғу билиг / Танланган асарлар (нашрга тайёровчи Ҳ.Болтабоев). II жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – Б.13-14.

[89] Бу ҳақда қаранг: Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М.-Л., 1951. – С. 301-302.

davlatida umumiste'molda bo'lgan turkiy xalqlar tili (Mahmud Koshg'ariy bu hududdagi turkiy tilga nisbatan *xoqoniy* turkchasi istilohini qo'llagan) ekanini barcha olimlar e'tirof etganlar.

Yozilishi va saqlanishi. "Qutadg'u bilig" asari XIX asr boshlariga qadar adabiyotshunoslikkka ma'lum bo'lmagan, Navoiy va Bobur asarlarida ham, undan keyin yaratilgan o'nlab tazkiralarda ham tilga olinmagan. Uning dastlabki nusxasi - 843/1439 yilda Hirotda Hasan Qora Sayil Shams tomonidan uyg'ur yozuvidagi qo'lyozmasi mavjud edi. Bu asar taxminan ko'chirilgan zamonlarda To'g'ot shahriga keltirilgan. 879/1474 sanada qo'lyozma Abdurazzoq Shayxzoda baxshi talabi bilan Kadi Ali Fanari o'g'li tomonidan Istanbulga olib kelingan.

«Qutadg'u bilig" qo'lyozmasining arab yozuvidagi (sulis xati bilan) uchinchi nusxasi Namangandan topilgan. Kitobni prof. Fitrat 1924 yilda Muhammadhoji Lolareshdan qo'lga kiritgan bo'lib, u Namanganda xususiy bosmaxona egasi Ishoqxon to'ra Ibrat uyidan tintuv vaqtida topilgan, qo'lyozmani qo'lga kiritgan tintuvchi kitobni sotib yuborgan edi. Fitrat domla asarni Toshkentga keltirib, u haqda 1925 yilda maqola e'lon qilgan[90], "O'zbek adabiyoti namunalari. 1-jild"ida undan parchalar nashr qildirgan[91]. Bir qancha sarguzashtlarni boshdan kechirgan ushbu nusxa[92] hozir O'zRFA ShIda 1809 raqami bilan saqlanadi.

O'rganilish tarixiga doir. "Qutadg'u bilig" xorijiy olimlar J.Amadey, A.Vamberi, U.Tomsen, M.Xartman, V.Radlov, V.V.Bartold, S.Ye.Malov, Ye.E.Bertels, A.Z.To'g'on, M.Fuod Ko'prulu, R.R.Arat, A.A.Valitova, I.V.Stebleva, A.N.Kononov, A.Ivanov tomonidan o'rganilishi va nashr etilishi diqqatga sazovor. Biroq ushbu asarning xalqimiz orasida ommalashib, o'zbek mumtoz adabiyotining xazinasidan joy olishida o'zbek olimlari A.Fitrat, S.Mutallibov, Q.Karimov, A.Rustamov, N.Mallaev, G'.Abdurahmonov, N.Karimov, B.Nazarov, B.To'xliev, Q.Sodiqov kabilarning benazir xizmatlarini unutib bo'lmaydi.

Dunyoga mashhur turkiy dostonning Rashid Rahmati Arat tarjimasidagi turkcha matni[93], N.Grebnev va A.Ivanov tarjimasidagi ruscha[94], Q.Karimov tabdili va hozirgi o'zbek tiliga tavsifi bilan berilgan o'zbekcha[95] va B.To'xliev tomonidan tayyorlangan nasriy bayonlari[96] hozir faol qo'llanilishda.

Asarning tarkibi va janriy sifati. Kitob nasr bilan yozilgan muqaddima, boblarni ko'rsatuvchi fihrist (mundarijasi) va nazm qismidan tarkib topgan. Uning 11 fasli she'riy debocha bo'lib, qolganlari voqea bayonidan iborat. So'nggi faslda kitobning yozilgan yili haqida ma'lumot berilgan. Tabiiyki, qo'lyozma nusxalar o'zaro farqlanadi. Akad. A.Kononov asarning Namangan nusxasini "mavjud nusxalar ichida nisbatan mukammali" deb hisoblagan[97].

Asarning hajmi 6,5 ming bayt deb aytilsa ham, Fitrat ma'lumotiga qaraganda, Namangan nusxasi 6329 baytdan iborat. Vena nusxasida esa 171 bayt yetishmaydi. Nasriy muqaddima asar muallifiga tegishli bo'lmagani tufayli asarni asosiy she'riy matndan kelib chiqib tarkiblash lozim. Debochada Hamd, sano, na't, Qoraxon madhi, Kitob avvali, yetti kavokib va o'n ikki burj, Odamning qadru qimmati, til ardami (fazilatlari), kitob egasining uzri, nasihat so'zi, bilim va uquv ardami, Kitobning nomi va o'z (muallif) qariligi (yoshi) kabilar bayon qilingan. Asar voqealari 391-baytdan boshlanadi.

Asarning janri nisbatan murakkab, uning tarkibida masnaviy, ruboiy, to'rtlik kabi janrlar uchraydi. Bizningcha, asarni *ta'limiy doston* deb qabul qilsak-da, unga *syujet va kompozitsion jihati murakkab* tarkibli bo'lganini va boshdan oyoq bir vaznda yaratilmaganligini qo'shib qo'yish zarur.

---

[90] Фитрат. Қутадғу билиг // Маориф ва ўқитғучи. – 1925. – 2-сон. – Б. 68-73.
[91] Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. – Тошкент-Самарқанд, 1928. - Б.79-87.
[92] Каримов Н. «Қутадғу билиг"нинг топилиши / Фан ва турмуш. – 1993. – 2-сон. – Б. 8-10.
[93] Arat, Reşıd Rahmatı. Kutadğu Bılıg. 1-Metın. 2-Baskı. – Ankara: 1979.
[94] Болосогунский Ю. Благодатное знание / Пер. Н.Гребнева и А.Иванова. Послесловие А.Н.Кононова. – М.: Наука, 1983.
[95] Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг / Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. – Т.: Фан, 1971.
[96] Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг / Насрий баён муаллифи Б.Тўхлиев. – Т.: Юлдузча, 1990.
[97] Болосогунский Ю. Благодатное знание / Послесловие А.Н.Кононова. – М.: Наука, 1983. – С. 495-517.

Vazn xususiyatlari. Asar asosiy voqealarini bayon qilgan nazmiy qism, Fitratning aniqlashicha, “yozilishi tizimning ikkilik – masnaviy shaklida”[98]. Ushbu fikrni izchil davom ettirgan Q.Karimov doston mutaqoribi musammani solim vaznidagina emas, undan far’iy (hosila) bo‘lgan *mutaqoribi musammani mahzuf va mutaqoribi musammani maqsur* vaznlarida yozilgan, degan qat’iy xulosaga kelgan.

Doston mavzui va timsollari. Asarning voqealar ko‘lami keng bo‘lgani uchun uni bir-ikki mavzuni tashigan deb bo‘lmaydi. Doston mavzularini belgilashda fihristdagi boblanish yordam berishi mumkin. Mana shu “ko‘mak”ka tayangan holda *davlat sifati ardami (fazilati), adl sifati manguligi, bilim va uquv o‘rni, beglar, amirlar, hojiblar, pardadorlar, elchilar, kotiblar, xazinador, dasturxonchi, sharobdorlarning vazifalari, xotin olish, farzand tarbiyasi, yig‘in va dasturxon adabi v.b.* haqida fikr yuritilganini uqish mumkin. Biroq bu hammasi emas, fihristdagi “sarlavhalar” shartli bo‘lib, ular asar mavzu doirasini belgilashdan ko‘ra syujet tartibi bayoni ekanligini unutmaslik kerak: *Oyto‘ldining Kuntug‘di huzuriga kelishi, Eligning O‘gdulmishga savoli, O‘zg‘urmishning eligga nasihati...* kabi.

Dostonning mavzular doirasi asardagi timsollar o‘rni va vazifasi bilan qat’iy bog‘lanadi. Chunki Kuntug‘di elig (hukmdor)gina emas, u *Adl* (adolat) timsoli. Oyto‘ldi vazirgina emas, *qutli, barakali davlat* timsoli. O‘gdulmish – vazirning o‘g‘li bo‘lishi bilan birga *aql va zako* belgisi, vazirning qarindoshi O‘zg‘urmish esa, *qanoat, ofiyat* elchisi sifatida taqdim qilinadi:

Biri to‘g‘rilikka tayanch – adolat,
Biri davlat erur, u qutli g‘oyat.

Uchinchi ulug‘lik – aql va zako,
To‘rtinchi qanoat erur bebaho[99].

Bu ramziy ifodalar dostonning nafaqat mavzu doirasi, balki muallifning g‘oyaviy niyatini tushunishda ham muhim ahamiyatga ega. Asar g‘oyasida Qoraxoniylar davlatining mafkurasi aks etgan bo‘lib, unda markazlashgan davlat idora usuli, uni mustahkamlash yo‘llari, amir va fuqarolarning o‘zaro ahilligi kabi masalalar ham o‘z ifodasini topgan.

Adibning g‘oyaviy niyatini faqatgina o‘git, ta’lim berish bilan cheklab bo‘lmaydi. Muallif asar boshidayoq olamning yaratilishi (kosmogoniya), yetti kavokib va o‘n ikki burj xususida bahs ochadi. Olamning yaratilishi haqida:

Yag‘iz yer yashil ko‘k kun ay birla tun
To‘rutti xalayiq o‘z o‘zlak bu kun.

Tiladi to‘rutti bu bo‘lmish qamug‘
Bir-o‘k bo‘l tedi bo‘ldi qulmish qamug‘

Mazmuni: *[Alloh] Bo‘z yer, zangori osmon, kun, oy va tunlarni*
Xaloyiq, davr, zamon (va) ni yaratdi.

U istadi, yaratdi, mavjudot (butun) vujud bo‘ldi
Vohid (Alloh) “yaral” dedi, istagani hammasi bo‘ldi

Shoir yaralmish dunyo vujudga kelishini islomiy aqida bo‘yicha Yaratganning qudratli “***kun! – yaral, bo‘l***!” so‘zlaridan kelib chiqib anglatadi. Uning mavjudlik belgilari sifatida yetti kavokib *Sekantur* (Zuhal -Caturn), *O‘ngay, Qaraqush* (Mushtariy - Yupiter), *Ko‘rud, Baqirso‘quna* (Mirrix - Mars), *Yashuq, Kun* (Quyosh), *Sevit* (Zuhra – Venera), *Arzu* (Utorid), *Ay, Yalchiq* (Oy)ni tilga olib, bularning bari Qodir Allohning hukmi bilan yaratilib, harakati Uning izmida ekanini bildiradi. O‘n ikki burj: *Quzi* (Hamal), *Ud* (Savr), Ye*randiz* (Javzo), *Quchiq* (Saraton), *Arslan* (Asad), *Bug‘dayboshi* (Sunbula), *Ulgu* (Mezon), *Chazan* (Aqrab), *Ya (*Yoy – Qavs), *O‘g‘laq* (Jadiy), *Ko‘nak* (Dalv), *Baliq* (Xut) kabilarning o‘rni, holati va harakati haqida

[98] Фитрат. Аруз ҳақида / Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – Б. 27.
[99] Kattabekov A., Yo’ldoshev Q., Boltaboyev H. Adabiyot. 8-sinf ushun darslik-majmua. Qayta ishlangan 5-nashri. – T.: O’qituvchi, 2005. – B. 62.

ma’lumot beradi. Yilda to‘rt fasl almashinishi va dunyoning to‘rt unsur (anosir)dan tashkil topishida ularning o‘rnini belgilaydi:

Uchi yazqi yulduz uchi yayqi bil
Uchi kuzki yulduz uchi qishqi bil

Uchi o‘t uchi suv uchi bo‘ldi yel
Uchi bo‘ldi tupraq ajun bo‘ldi el

Mazmuni: *Uchi bahorgi, uchi yozgi,bil,*
Uchi kuzgi, uchi qishki, bil.

Uchi o‘t, uchi suv, uchi bo‘ldi yel,
Uchi tuproq bo‘ldi, (shundan) el, odam yaratildi[100]

Ko‘rinadiki, Yusuf Xos Hojibning dunyoning yaratilishi, uning harakatda bo‘lishi, olam va odam haqidagi falsafiy tafakkurlari alohida o‘rganilishni talab qiladi.

Asarda SO‘Zning ulug‘lanishi. Dostonning ikkinchi fasli «Yangluq ag‘irliqin tanurlayur bilig birla», ya’ni Insonning qadri bilim bilan belginadi, deb nomlanadi. Bunda muallif Tangri insonni yaratar ekan, unga bilim, hunar, ko‘ngil bergani, tilini ravon go‘zal fe’l va xulq ato qilgani, unga uquv bergach, barcha tugunlar yechilib, ezgu ishlarga qo‘l urgani aytiladi. Bilim bilan uquvgina tanlagan bandasini ulg‘aytirishi mumkin:

Uqush qayda bo‘lsa uluqluq bo‘lur
Bilig kimda bo‘lsa bezugluk alur
Mazmuni: *Uqish vayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘ladi,*
Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik bo‘ladi.

SO‘Zning, ya’ni Qur’oni karimni Alloh tomonidan nozil qilingani va so‘z yashil ko‘kdan tushib, insonning yuzi (suvli, oq) bo‘lgani, inson sharifligining boisi SO‘Zdir:

Yashil ko‘kdin indi yag‘iz yerka co‘z
So‘zi birlan yangluq ag‘ir qildi o‘z
Mazmuni: *So‘z bo‘z yerga yashil ko‘k (osmon)dan tushdi,*
Co‘zi tufayli inson o‘zini ulug‘ qildi.

...O‘lugdin tirigka qumaru so‘z-ul
Qumaru so‘zi tutsa asg‘i yuz-ul
Mazmuni: *O‘lgan(lar)dan tirik(larga) meros so‘zdir,*
Meros so‘zni tutilsa, naf’i yuzdir.

Shoir o‘z tiliga e’tibor berib, nutqini go‘zal so‘zlar bilan ziynatlagandagina ulug‘lik kasb etishini buyuradi:

... Tili bilan yangluq so‘zi so‘zlayur
So‘zi yaxshi bo‘lsa yuzi suvlanur

Mazmuni: *Inson so‘zini (fikrini) til orqali so‘zlaydi,*
So‘zi yaxshi bo‘lsa, yuzi suvlanadi (oq bo‘ladi).

Bu oddiy pand, nasihatlar emas, balki so‘zning ulug‘vor qudratini his qilgan, uning quvvatiga tayanib ish ko‘rgan so‘z san’atkorining e’tirofidir.

5-mavzu. XIII-XIV asrlarda Xorazm adabiy muhiti

REJA:

1. ***Pahlavon Mahmud ruboiylari.***
2. ***Rabg‘uziy va uning “Qisasi anbiyo” asari.***

[100] Ушбу мисраъни проф. Қ.Содиқов шундай талқин қилади: *Учи бўлди тупроқ, тонди олам, эл.* Қаранг: Шарқ фалсафаси. – Т.: 2006. – Б. 87.

3. Xorazmiy va uning «Muhabbatnoma» asari
4. Qutb va uning "Xusrav va Shirin" dostoni tarjimasi

1. ***Pahlavon Mahmud ruboiylari.*** Markaziy Osiyoda "puryoyi valiy" lahabi bilan mashhur bo'lgan mutasavvif shoir va kuragi yerga tegmagan kurashchi Pahlavon Mahmud (1247–1325) badiiy ijodiyoti va shaxsiy fazilatlari bilan elga tanilgan. Xorazmda uni Pahlavon ota, Pahlavon bob deb atashgan, XIX asrdagi manbalarda uning «Puryor» (yor, do'stlarning o'g'li) «Pakkayor", "Bekyor», «Biryor» "Purboyvaliy", "Puryoyvaliyning o'g'li" kabi laqablari bilan bir hatorda Qitoliy, Qaffoliy, Haboiy, Iqboliy, Fanoiy kabi taxalluslari ham keltiriladi.

Hayoti va ijodi hahidagi manbalar. Xalq kitoblaridan biri «Risolai bofandalik»da uning g'ulochaboflik (tikuvchilik), Navoiy, Muhammad Boqir tazkiralarida «Pakkayor qassobning o'g'lidur» deb keltirilishi, rivoyatlarda po'stindo'z (telpakdo'z) kabi kasblar bilan shug'ullangani aytilgan.

Alisher Navoiyning «Nasoyimu-l-muhabbat» tazkirasining hamma nusxalarida ham uning nomi tilga olinmagan. Faqat ayrim nusxalarda tilga olinganki, ularni keltiramiz: «...Va Shayx Sayfiddin Shayx Muhammad Xilvatiyning murididur, derlarkim ul Xorazmda jahr zikri aytur erdi va uni (ovozi) turt yig'ochda eshitilur erdi va Pahlavon Mahmud Pakkayor (arabchasiga nakkayor)ning muosiri erdi va oning bila suhbat tutor...»[101]. Turkiyada nashr qilingan Doktor Kamol Eraslon matnida esa u haqdagi bo'lim quyidagicha boshlangan: «Pahlavon Mahmud Pakkayor (h.s.) Xivahdindur va lahabi mashhur Puryor (puryor-arabcha)g'a, ba'zi Pakkayor (pakkayor-arabcha) debdurlar, ammo Xivahlik kishidin tahhih hilindi, Pakkayorg'a haror topdi, ya'ni barchaga Pakkayor yor hassobning o'g'lidur... Va Pahlavon Mahmud Pakkayor muosiri erdi, aning bila suhbat tutar edi. Va bu ikki bayt Pahlavondin manhul va mashhurtururki...»[102] deb bir ruboiy keltiriladi.

Kamoliddin Husayn Fanoiyning 1506 yilda yozilgan «Majolisu-l-ushshoq» asarida: «Aytishadiki, kurashchi yigit Pahlavonning siynasi (ko'kragi)ga o'tirgan paytda ko'radiki, u (Pahlavon)ning basirat ko'zi oldidan barcha pardalar ko'tariladi va haqiqat oftobi yorishib ketadi, natijada u o'z talabiga erishadi. Aslida fano (maqomi)ning cho'qqisi shunday bo'ladiki, nafsni ana shunday yengadilar. Avliyolar zumra (suluki)da nima bo'lsa barchasini topdilar va rijol ul-g'ayblar (Allohning do'stlari – H.B.) bilan aloha bog'ladilar. Ana shu sababdan zamona nuktadonlari (nombaxshe zamon) uni puryor deb atashadi. Va ba'zilar bukyor deyishadiki, bu mazkur joy (Pahlavon Mahmudning Bengalda u joy podshohining xos kurashchisini yenggani aytilib – H.B.) tilida «engilmas pahlavon» ma'nosini beradi»[103].

Adabiy merosi. Ruboiy va... Lutf Alibek Ozarning «Otashkadai Ozariy», Ahmad Roziyning «Haft iqlim» asarlarida uning masnaviylari orasida "Kanzu-l-haqoyih" borligi aytilgan. Ruboiylarini fors tilidan T.Jalolov, M.Abdulhakim, E.Ochil v.b. tarjima qilishgan. Shoir ruboiylari orasiga Sayfuddin Boxarziy, Abulsaid Abulxayr, Farididdin Attor, Najmiddin Kubro ruboiylari ham kirib qolganki, bu hol uning asarlari muallifligi to'la-to'kis hal qilinmaganini bildiradi. Husayn Voiz Koshifiyning xabariga ko'ra «Qavoidu-l-futuvvat» («Futuvvat qoidalari») nomli kitobda Pahlavon Mahmud ruboiysi deb yuritilgan mana bu baytlarni Farididdin Attorga nisbat beriladi:

Ko'ngil ko'zi futuvvat birla ravshan,
Va jon bog'i futuvvat birla gulshan.
Agar sen ushbu ilmni zabt etarsen,
Safo oftobiday balhib ketarsan...[104]

---

[101] Алишер Навоий. Насойимул муҳаббат, ЎзРФАШИ, Қўлёзма № 857 –В. 224.
[102] Alisir Nevayi. Nesayimul-muhabba. - Ankara. - 1996. – S. 324.

[103] Камолиддин Ҳусайн Фиоий. Мажолису-л-ушшоқ. ЎзРФАШИ, Қўлёзма № 3066.
[104] Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султони я ёхуд жавонмардлик тариқати /Форс-тожик тилидан Н.Комилов тарж. - 1994. – Б.8.

Mutasavvifligi. Shayx Said Alouddinning zamondoshi Pahlavon ota yoki Puryoyivaliy so‘fiy, futuvvat yo‘lining vakili sifatida Abdurahmon Jomiyning “Nafahotu-l-uns”, Farididdin Ali Safiyning “Latoyifu-l-tavoyif”, Muhammad Boqirning “Tazkirayi Muhammad Boqir”, «Riyozu-l-orifin», Ollohyor Mahzunning «Riyozu-z-zokirin», Oftobroy Lakhnaviyning «Riyozu-l-orifin», Kamoliddin Husayn Gozurgohiyning «Majalisu-l-ushshoq», Rizohulixon Hidoyatning «Sefarotnomai Xorazm» asarlarida tilga olingan. Jumladan, Jomiy o‘z asarining Zahiriddin Muhammad Xilvatiy bo‘limida yozadi: «Mavlono Zahiriddin Xilvatiy, qoddasallohu sirrahu, ul zohir va botin ilmini o‘zida jam’ hilgan zot erdi. Mavlono Zayniddin Toyobodiy «Falak tohining ostida Zahiriddindek insonni bilmasman» deya marhamat hilgan ekanlar. Shayx Sayfiddin Xilvatiyning muridlari erdilar va o‘n besh yil alarning xizmatlari va suhbatlarida bo‘ldilar. Va Shayx Sayfiddin 783 (yil)da dunyodan o‘tdilar va habri Gozurgoh ko‘prigi boshida joylashgan Xilvatiylar mozoridadir. Va Shayx Sayfiddin Xilvatiy Shayx Muhammad Xilvatiyning muridlaridir. Aytishadiki, har hachon ul zot (Muhammad Xilvatiy) Xorazmda zikrga mashg‘ul bo‘lsalar, ovozlari to‘rt farsax joyga yetardi va Pahlavon Mahmud Pakkayor (arabcha-pakkayor) uning hamasri bo‘lgan va u bilan suhbat qurgan»[105]. «Nafahotu-l-uns»ning Eronda Chop etilgan maskur nashri izohida Pahlavon Mahmud hahida shunday deyiladi: «Pahlavon Mahmud Pakkayor (Begyor-arabcha), Puryoyvaliy (nomi) bilan mashhur (vafoti 722 hij.). So‘fiytabiat pahlavon va Xorazmning sohibi zavhlaridan bo‘lib, hayoti va ahvoli ismining to‘g‘ri shaklu ma’nosiga o‘xshab uncha anih emas. She’rlarni, shu jumladan, «Kanzu-l-haqoyiq» masnaviysini unga nisbat beradilar»[106].

Milodiy 1878 yilda yozilgan «Hazrati Pahlavon ota (alayhi-r-rohma) kitobi» shunday boshlanadi: «Manhultururkim, hazrat Pahlavon ota (alayhi-r-rohma) modarzod avliyo turur. Vahti shububiyyat (yigitlik)larida Xorazm akobirlari ul hazratga malomat tillarin ochib, malolat tegurur erdilar. Bir necha odamlar nodon va beahllik bila hijolat berganda bu ruboiyi mehribon bo‘ldilar:

Ohil ahli hirsga hachon bo‘lgandir gado,
Hasadchi hasadidan hachon mis bo‘lgan tillo.
Nomard it kabidir, mard esa daryoi muhit
Ayt-chi, it nafasidin iflos bo‘larmi daryo?

deb tabarruk hilur erdilar. Ba’zi odamlar insofga kelur erdilar...»[107].

Muhammadkozim Yusufpur shunday yozadi: «Tasavvuf tarixining ko‘p sonli tarmoqlari ichida ko‘proq jamiyat orasida yoyilgan va rivoj topgan oqimlaridan biri futuvvatdir. Tasavvuf xoslar (ma’rifatli tabaqa) orasida tarqalgandan so‘ng, futuvvat odobi bilan ko‘cha va bozorlarga kirib bordi. Darvoqe’, futuvvat bu avomona tasavvuf bo‘lib, uning rasm-rusulari oddiy va amaliy, ya’ni kosib-hunarmandlar, dehqonlarga tushunarli bo‘lgan»[108].

O‘*rganilishi.*O‘zbekistonda adabiyotshunoslardan T.Jalolov, N.Mallaev, Yo.Ishohov, H.Islomiy, M.Abdulhakim, J.Mahmudov; tarixchilar Ya.G‘ulomov, K.Xudoyberganov, san’atshunoslar G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel va elshunoslardan N.G.Snesarev; Eronda S.Nafisiy, A.Zarrinko‘b, M.Yusufpur tomonidan maxsus o‘rganilgan. N.Komilov, I.Haqqulov, B.To‘xliev asarlari tarkibida u haqda to‘xtanilgan.

Shoirning Xivadagi mahbarasi, 1997 yilda 750 yilligining nishonlanishi shoir va pahlavon hayotini abadiylashtirish yo‘lidagi urunishlardan. U haqda E.Samandar «Hazrati Polvon pir» (1995) qasidasini yozgan.

Matn va manbalar:

8. Pahlavon Mahmud. Ruboiylar. / Nashrga tayyorlovchi T.Jalolov. – T.: O‘zadabiynashr. - 1962. - 96 b; 2. Pahlavon Mahmud. Ruboiylar. / Nashrga tayyorlovchi T.Jalolov. – T.:

[105] «Нафоҳот ул-унс»и Жомий. ЎзРФАШИ, Қўлёзма № 5839, 304-саҳ.
[106] Нуриддин Абдураҳмон Жомий. Нафоҳот ул-унс. Муқаддима, тасҳиҳ ва таълиқот: док. Маҳмуд Обидий. Теҳрон: энтешороти Эттелоот, 1370. - Б. - 882-883.
[107] Ҳазрат паҳлавон ота (алайҳир-роҳма) китоби. ЎзРФАШИ Қўлёзма. № 2069.
[108] Муҳаммадкозим Юсуфпур. Нақди муфий. –Теҳрон: Рўзна, 1380. – Б 119.

Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. - 88 b.; 3. Pahlavon Mahmud. Kim agar ozoddur. Ruboiylar. / Forsiydan M.Abdulhakim tarj. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. - 64 b.; 4. Pahlavon Mahmud. Xaq fayzi. (Ruboiylar). / Forsiydan M.Abdulhakim tarj. – Urganch: Xorazm, 1999. – 71 b.; 5. Ishq daftari. Ruboiylar. / Fors tilidan E.Ochilov tarj. – T.: Ma’naviyat, 2000. - 96 b.; 6. Hazrat Pahlavon ota hikoyalari – T.: Fan, 2001; 6. Bedil. Paxlavon Maxmud. Rubai. / Perevod s farsi A.Naumova. – T.: Izd. lit. i iss. imeni G.Gudyama, 1991. – S. 115-145; 7. Pahlavon Mahmud Puryorvali Xivaqiy. Ruboiyot. O‘zR FAShI, 264, 1099, 1140, 2069, 5103, 7670, 8478, 8490, 9578, 12752, 13218, raqamli qo‘lyozmalar.

Ilmiy va metodik adabiyotlar:

2. Jalolov T. Mahmud Pahlavon. // Sharh yulduzi. -1961. -№5. –B.140-146; 2. Ishohov Yo. Pahlavon Mahmud hahida ba’zi mulohazalar. // O‘zbek tili va adabiyoti. -1971. №2. –B.20-25; 3. Mallaev N. Xorazm Xayyomi. // Sharh yulduzi. -1963. -№4. –B. 152-153; 4. Mallaev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. –T.: O‘hituvchi. -1965. –B.206-208; 5. Nafisiy S. Sarchashmai tasavvuf dar Iron. – Tehron: Chopi Marviy, 1368; 6. Zarinkub A. Justiju dar tasavvufi Iron. – Tehron:1365; 7. Yusupur M. Nahdi so‘fiy. – Tehron; Ruzna, 1380; 8. Islomiy H. Alloh jamoliga yetishgan avliyo. // Fan va turmush. -1998. – №1. –B.25; Gulyamov Ya.G. Pamyatniki goroda Xivы. – T.: Fan, 1941. – S.24-29; 10. Pugachenkova G.A., Rempel L.I. Vo‘dayuhiesya pamyatniki arxitekturo‘ Uzbekistana. – T.: Gos.izdat. xudlit, 1958. – S. 170; 11. Abdulhakim M. Iymon tuhfasi. – T.: Yozuvchi, 1997. -70 b.

6-mavzu. Rabg‘uziy va uning “Qisasi anbiyo” asari

REJA:

1. ***Mumtoz adabiyotda Payg‘ambarlik qissalari.***
2. ***Nosiriddin Rabg‘uziy hayoti va ijodining manbalari.***
3. ***«Qisasi Rabg‘uziy» («Kisasu-l-anbiyo») - asarining yaratilish.***
4. ***Qissalarda Payg‘ambarlik tarixi voqealari. Asarning badiiyati.***

1. Mumtoz adabiyotda Payg‘ambarlik qissalari.

«Qisasi Rabg‘uziy» («Kisasu-l-anbiyo») - o‘zbek badiiy nasrining ilk namunasi sifatida. «Qisasi Rabg‘uziy» («Kisasu-l-anbiyo») - o‘zbek badiiy nasrining ilk namunasi sifatida. Asarning yaratilish tarixi. Asarning tarkibi va janr xususiyatlari. Qissalarda islom mifologiyasining aks etishi. Qissalarda Payg‘ambarlik tarixi voqealari Asardagi nazmiy parchalar. Ularning badiiyati: vazn, qofiya va she’riy san’atlar.

«Kisasu-l-anbiyo»ning tarbiyaviy qimmati va o‘zbek nasri taraqqiyotidagi o‘rni. O‘zbek mumtoz she’riyati qanchalar dilbar va diltortar bo‘lmasin, nasriy asarlar ham asrlar davomida xalqimiz tomonidan ardoqli bir suratda mutolaa qilingan, maktab-madrasalarda o‘qish kitobi sifatida qabul qilingan. “Mahbubu-l-qulub”, “Boburnoma”, “Miftohu-l-adl” kabi mumtoz nasr namunalari qatorida, to‘g‘rirog‘i, ulardan avval yaratilgan “Qisasi Rabg‘uziy” asari o‘zbek nasrining shakllanishida muayyan rol o‘ynagan. Soha mutaxassislari g‘azal, fard kabi janrlarning dastlabki namunalarini ham mana shu adabiy manbada uchratganlar.

9. ***Nosiriddin Rabg‘uziy hayoti va ijodining manbalari.***

“Qisasi Rabg‘uziy” asari XIV asrning boshlariga tegishli adabiy manba bo‘lib, uning muallifi Xorazmning Raboti O‘g‘uz qishlog‘ida qozilik qilgan Nosuruddin Burhonuddin o‘g‘li Rabg‘uziydir. Kitob muallifi haqida boshqa ma’lumotga ega bo‘lmasak ham, asarning muqaddimasida “Bu kitobni tuzgan, toat yo‘lida tizgan, ma’iyat yobonin kezgan, oz ozug‘lig‘ Rabot O‘g‘uzining qozisi Burhonuddin o‘g‘li Nosuriddin” deb yozilgan[109]. Ushbu asar turkiy tilda yozilgan dastlabki nasr namunalaridan biri sanalgani uchun u “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Tatar adabiyoti tarixi”, “Turk adabiyoti tarixi”, “Turkman adabiyoti tarixi” va boshqa turkiy xalqlar adabiyotlari tarixiga kiritilgan, xatto undan ayrim namunalar umumta’lim maktablarining

[109] Ўзбек адабиёти тарихи. 1 том: Энг қадимги даврлардан XV асрнинг II ярмигача. – Т.: Фан, 1978. – Б. 178.

9-sinfida, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining birinchi yilida Adabiyot darslarida o‘qitiladi. Shunday ekan, “Qisasi Rabg‘uziy” asariga o‘zbek mumtoz nasrining ilk namunalaridan biri sifatida hamda adabiy-tarixiy manba sifatida yondoshish maqsadga muvofiq keladi.

10. «Qisasi Rabg‘uziy» («Kisasu-l-anbiyo») asarining yaratilish.

Ushbu manba 72 qissadan iborat bo‘lgani uchun “Qisas”, ya’ni qissalar nomi bilan yuritiladi. Asarning dastlabki qissasi kosmogoniya, ya’ni Yer, Suv, Borliq va Mavjudotlarning yaratilishiga oid bo‘lib, ularning Yagona Yaratuvchisi haqida so‘z yuritadi, uning qodir qudratini ulug‘laydi. So‘ngra esa nabilar tarixi beriladiki, bu tarix ma’lum ma’noda Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining yaratilishiga sabab bo‘lgan, buyuk shoir o‘z asarida yuqoridagi qissalardan unumli foydalangan.

Asardagi Nuh, Ya’qub, Yusuf, Sulaymon, Dovud v.b. qissalari qahramonlarining jahon badiiyati xazinasidan o‘rin olishida ular hayotiga oid qissalarning ahamiyati katta. Muallif ularni ravon til bilan hikoya qiladi, xalqqa tushunarli bo‘lgan ibora va poetik vositalarni faol qo‘llaydi. Shuning uchun ham Rabg‘uziy qissalari asrlar davomida xalqimizning sevimli asarlari sifatida madaniyatimiz xazinasida o‘rin olgan.

11. Qissalarda Payg‘ambarlik tarixi voqealari. Asarning badiiyati: vazn, qofiya va she’riy san’atlar.

Professor Fitrat asarning ta’limiy, axloqiy va estetik jihatlarini ta’kidlar ekan, uning tarkibiga kirgan mustaqil hikoya va she’rlarga alohida to‘xtaydi, bu namunalarni o‘zining “Adabiyot qoidalari”, “O‘zbek adabiyoti namunalari” singari darslik va qo‘llanmalariga kiritadi. Jumladan, “Qisasi Rabg‘uziy”ning Yusuf alayhissalom qissasidan o‘rin olgan

Sabo esnayur-da yig‘och bong solar,
Bulut yig‘layur-da, chechaklar kular.
Bu mundog‘ chechaklarda ko‘nglum bu kun,
Sening birla o‘lturub ovunmoq tilar

parchasini yuksak badiiyat namunasi sifatida baholaydi[110].

Asarning nafaqat badiiy jihati, balki g‘oyaviy-ta’limiy ahamiyatini belgilashda “O‘zbek adabiyoti tarixi”ning ushbu xulosasi o‘rinlidir: “...real tabiatga bo‘lgan muhabbatni kuylab, dunyoviy ishlarga bo‘lgan rag‘batni ifoda etgan, ayni paytda cheklangan axloq-odob ko‘rinishlarini tanqid qilib, unga yuksak e’tiqodlarni qarshi qo‘ygan “Qisasi Rabg‘uziy” asari davr adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutadi”[111].

Bu kabi e’tirof va iqtiboslar Rabg‘uziy qissalarining hozirgi kun uchun ham asqotarli ekanini ta’kidlaydi. Bu asar talaba yoshlarimizning adabiyot fanidan olgan bilimlarini to‘ldiradi, ularni ezgulikka, pok va halol yashashga chorlaydi. Zero, taraqqiyot sari dadil odimlayotgan mustaqil yurtimizda yaratilgan nasriy asarlar Vatan tarixini o‘rganishda, hamyurtlarimizning ma’naviy komillik yo‘lidagi harakatlarida muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Matn va manbalar: 1. Qisasi Rabg‘uziy. I–II jild, (nashrga tayyorl. E.Fozilov, H. Dadaboev, A. Yunusov). –T.: 1990; Nosiruddin Rabg‘uziy. Kisasi Rabg‘uziy. – T.: «MUMTOZ SO’Z», 2009.

Ilmiy adabiyot: 1. T.G‘afurjonova. Rabg‘uziy / O‘zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. 1-tom. - T.: Fan, 1978. – B. 178-185; H.Boltaboev. Rabg‘uziy qissalari adabiy-tarixiy manba sifatida / Nosiruddin Rabg‘uziy. Kisasi Rabg‘uziy. – T.: «MUMTOZ SO’Z», 2009. – B. 3-5.

12. Xorazmiy va uning «Muhabbatnoma» asari.

Xorazmiy — shoirning adabiy taxallusi, ismi va hayoti vohealari ma’lum emas. Birgina asari «Muhabbatnoma» (1353) Sirdaryo bo‘ylarida yozilgan va Oltin O‘rda hukmdorlaridan Muhammad Xo‘jabek (Oltin O‘rda xoni Jonibekning o‘g‘li)ga bag‘ishlangan.

[110] Фитрат. Адабиёт қоидалари / Танланган асарлар. 4-жилд. – Т.: маънавият, 2006. – Б.
[111] Ўзбек адабиёти тарихи. 1 том: Энг қадимги даврлардан XV асрнинг II ярмигача. – Т.: Фан, 1978. – Б. 184.

“Muhabbatnoma” oshiqning o‘z ma’shuhasiga yozgan she’riy maktublari shaklida tuzilgan. Asar 11 nomadan iborat bo‘lib, sakkiz nomasi o‘zbek tilida, uchtasi (4, 8,11) fors tilida yozilgan. Asarning ikki — arab va uyg‘ur yozuvidagi nusxalari mavjud. Ular Londondagi Britaniya muzeyida sahlanadi.

Asar tarkibida g‘azal, masnaviy, hit’a, munojot, fard va boshha janrlar ham uchraydi. “Muhabbatnoma”ning 1508 y. ko‘chirilgan arab yozuvidagi nusxasi hayta nashr etilgan, uning asosida ilmiy tadhihot ishlari (A.Samoylovich, S.Qosimov, A.Sherbak) olib borilgan.

4. Xorazmiy hayoti va ijodining manbalari. Shoirning hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganish tarixidan. Xorazmiyning tarjimayi holini anihlashtiruvchi ma’lumotlar.

5. «Muhabbatnoma» - noma janrining ilk namunasi sifatida. «Muhabbatnoma»ning nusxalari va tuzilishi. Asarda dunyoviy sevgining ulug‘lanishi. Dostondagi oshiq va ma’shuqa timsollari. Asarning badiiy qimmati. Unda qo‘llanilgan vaznning doston mazmuni bilan bog‘liqligi.

6. O‘zbek adabiyotidagi noma janri va epik she’riyat rivojidagi «Muhabbatnoma»ning o‘rni.

O‘zbek mumtoz adabiyoti namoyondalari orasida o‘zining favqulodda iste’dodi va “noma” janrining boshlovchisi sifatida nom qoldirgan shoir Xorazmiydir. Taassufki, shoirning tarjimayi holi haqida ma’lumot saqlanmagan, xatto uning ismi xam noma’lum. Muallifni birgina “Muhabbatnoma” orkali taniymiz, asardagi qisqa ma’lumotlarnigina bilamiz. Shoirning taxallusi u tug‘ilgan va yashagan yurt haqida bir nima eslatsa ham, shoir Xorazmda yoshlik davridagina yashagan, xolos. Uning hayoti va ijodi haqida ma’lumot beruvchi birdan-bir manba - “Muhabbatnoma” asarining Xorazmda emas, balki Sirdaryo yoqalarida bitilganidan xabar berdi. Asarning xotima qismidagi forsiy “hikoyat”da Shom va Rum o‘lkalarida bo‘lgani xam eslatiladi.

Shoir 1353-yilda Oltin O‘rda xoni Jonibekning Sirdaryo muzofatidagi amaldorlaridan biri Muhammad Xo‘jabek bilan tanishadi. Muhammad Xo‘jabek avval forsiy she’rlar bitib yurgan shoirga shu yerda kolib, turkcha asar yozishni so‘raydi. Nixoyat, “Muhabbatnoma” dunyoga keldi. Bu haqda “Bayoni voke”da muallif yozadi:

Ko‘ngul bahrinda ko‘p gavharlaring bor,
Ochunda porsiy daftarlaring bor.

Muhabbat nardini ko‘plardin uttung,
Shakartek til bila olamni tuttung.

Tilaymenkim bizing til birla paydo,
Kitobi aylasang bu qish qoimda.

Nixoyat, xijriy 754 (milodiy 1353) yilda “Muhabbatnoma” yozib tugallangan. Asarning ikki nusxasi borligi ma’lum. Ulardan biri 1432 yilda Yazdda Mir Jaloliddin degan kishi taklifi bilan Boqi Mansur tomonidan uyg‘ur yozuvida ko‘chirilgan. Nisbatan to‘larok arab yozuvidagi ikkinchi nusxa esa, keyinrok 1508-09 yillarda ko‘chirilgan bo‘lib, 473 baytdan iboratdir. Xar ikki nusxa xam Londondagi Britaniya muzeyida saklanadi.

Asar garchi noma, go‘zal, soqiynoma, masnaviy, munojot, qit’a va fard kabi janrlarni jamlasa ham “noma” uning yetakchi janri sanaladi. Asardagi o‘n birinchi nomalar, ulardan keyin keladigan masnaviy hamda boshlang‘ich g‘azal fors tilida bitilgan.

“Muhabbatnoma”ning ichki qurilishi nihoyatda izchillik bilan puxta ishlangan. U turli janrlarda muhabbat haqida yozilgan asalarning shunchaki yig‘indisi emas, balki yaxlit bir butun tugallangan asar sifatida taassurot beradi.

Asar muqaddimasidagi “Avval ko‘rishkanin aytur”, “Bayoni voqe’in aytur” boblarida uning yozilish tarixiga oid fikrlar bayon qilingan. Undan keyin izchil tartibda noma, g‘azal va masnaviy keladi, hatto ular voqean bir-biriga bog‘lanadi. Asar so‘ngidagi “Munojot”, “Xotimat

ul-kitob", "Iltimos aytur" va "Fard" sarlavhalari bilan keltirilgan bo'limlar asosiy qismdagi o'n bir nomaga o'ziga xos tarzda yakun yasaydi.

Nashr hilingan manba: 1. Sherbak A.M. Oguzname, Muxabbatname. — L.: 1959. 2. Xorazmiy. Muhabbatnoma. Kitobda: Muborak maktublar. — T.: 1987. 3. X1-XU asrning turkiy yozuvidagi yodgorliklar. - T.: 1994

Ilmiy adabiyot: 1. Qosimov S. Xorazmiy ijodi. Nomz.diss. avtoref. –T.: 1950; 2. Yo.Ishohov. Xorazmiy. Kitobda: O'zbek adabiyoti tarixi. T.1. –T.: 1977.

Istochniki: 1. A.M. Sherbak. Oguzname. Muxabbatname. — L.:1959; 2.Xorezmi. Muxabbatname (transkripsiya, perevod i isledovanie E.N.Nadjipa). –M.:1961;

Nauchnaya literatura: 1. Samoylovich A.N. K istorii literaturnogo sredneaziatskogo tyurkskogo yazo'ka. V Sb. «Mir Ali-Shir». – L.: 1929; 2. Kasыmov S. Tvorchestvo Xorazmi. Avtoref. Kand. Diss. – T.:1950;

6-mavzu. Oltin O'rda adabiy muhiti

REJA:

1. ***Sayfi Saroyi ijodi***
2. ***"Yusuf va Zulayho" dostoni.***
3. ***Mahmud ibn Ali va "Nahju-l-farodis» asari***

1. Sayfi Saroyi (1321–1396) ijodi.

O'zbek mumtoz adabiyotining iste'dodli vakillaridan biri. Xorazm yahinidagi Qamishli qishlog'ida tug'ilgan. Oltin O'rda davlatining poytaxti Saroy shahrida yashagan, hayotining so'nggi yillarini Misrda o'tkazgan va u yerda vafot etgan.

Bizgacha shoirning adabiy merosidan bir necha g'azallari, qasida, qit'a, ruboiylari, "Suhayl va Guldursun" dostoni (1394) hamda Sa'diy Sheroziyning asarining tarjimasi "Gulistoni bit–turkiy"(1390-91) yetib kelgan. Ayrim asarlari Istanbulda (1926) "Turk adabiyoti namunalari"da berilgan.

"Suhayl va Guldursun" dostoni o'zbek epik she'riyati taraqqiyotida o'z o'rniga ega. Doston xalq afsonasi «Guldursun» asosiga qurilsa-da, unda real tarixiy vohealar, ya'ni Amir Temurning Xorazmga yurishi ham aks etgan.

Nashr qilingan asarlari: 1. Sayfi Saroyi. She'rlar, Guliston. – T.: 1968; 2. Sayfi Saroyi. Gulistoni bit turkiy. Kitobda: XIV asr Xorazm yodnomalari. – T.: Fan, 1973; 3. Sayfi Saroyi. Suhayl va Guldursun. Kitobda: Uch bulbul gulshani. – T.: G'afur g'ulom nomidagi Adabiyot va san'at boshlangan

Nauchnaya literatura: 1.Tyurkoyazыchnыy pamyatnik 14 v. «Gulistan» Seyfa Sarai i yego yazыk. Ch.1-2. Alma-ata: Nauka,1975;

2. "Yusuf va Zulayho" dostoni.

Durbek taxallusli shoirga nisbat berilgan "Yusuf va Zulayho" dostoni tarjima asari emas, balki adabiyotimiz tarixidagi noyob asarlardandir. Fitratning "O'zbek adabiyoti namunalari (I jild)» asarida bu doston tilga olingan va Balx qamali qismidan parcha berilgan va shundan keyin ilmiy istifodaga kiritilgan. Bu asarning 1915 yilda Muhammad Said Mirzaahmad Buxoriy tomonidan ko'chirilgan nusxa asosida Xurshid (Sh.Sharafiddinov) nashrga tayyorlagan va 1959 y.da nashr etilgan. So'ngra R.Sharafutdinova asarni qayta nashrga tayyorlab, 1986 yilda «Uch bulbul gulshani» to'plamida nashr ettirgan.

Asar muqaddas kitoblarda aytilgan "Qissayi Yusuf" asosida yaratilgan, bu syujet turkiy adabiyotda ilk marta Qul Ali tomonidan yozilgan va tatar olimi Xisamov tomonidan nashr qilingan. Bu syujet keyinchalik forsiy adabiyotda Jomiy, turkiy adabiyotda Andalib tomonidan davom ettirilgan.

3. Mahmud Ibn Ali Kordariy (XV asr). *«Nahju-l-farodis»*

Asarning muallifi Mahmud ibn Ali Oltin O'rda poytaxti Saroy shahrida yashagani uning taxallusidan ma'lum bo'ladi.

Saroyining hayoti, ijodi to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar ozircha ma’lum emas. Undan birgina asar “Nahj–ul–farodis” (Jannatlarning ochiq yo‘li) bizgacha yetib kelgan. Bu asar hijriy 761 (milod. 1360) yilning bahorida yozib tugatilgan. Shuningdek, muallif kitobni tugatgandan keyin oradan ikki kun o‘tgach, “dorulfanodan dorulbaqoga rixlat qilgani”, bu kitobdan ko‘p allomalar foydalanganlari kitob so‘ngida bayon qilingan.

“Nahj–ul–farodis” to‘rt bobdan va har bir bob bir necha fasllardan iborat. Asar “Qisas–ul–anbiyo” guruhidagi asarlarga mansub bo‘lsa–da, Payg‘ambarlar tarixi bayonida rivoyat va afsonalar emas, balki tarixiy voqealar asosiy o‘rin egallaydi. Qolaversa, “Nahj–ul–farodis”ni yozishda muallif turli ishonchli manbalarga tayangani uchun ham asarga ko‘p allomalar murojaat etganlar.

Birinchi bobda as–Saroyi Payѓambar a.s.ning tarixini boshdan –oxirigacha bayon qilmaydi, balki uning hayotidagi eng muhim nuqtalarga e’tibor qaratadi. Jumladan, Xudoyi Taolo unga Payg‘ambarlik sifatini ato qilgani, musulmonlikni ilk bor qabul qilganlar — Abu Bakr, Xadicha, Ali va Zayd to‘ѓrisidagi voqealar, Payѓambar a.s.ning Makkadan Madinaga borishi, uning mo‘’jizalari va b. shular jumlasidandir.

Xalifalar Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali va to‘rtala imom — imomi A’zam, imom Shafe’, imom Malik, imom Ahmad va “ahli bayt” — Fotima, Hasan va Husaynga oid voqealar ikkinchi bobda bayon qilingan.

Uchinchi bob — Haq taolo tomonidan yuborilgan amallar bayoniga, to‘rinchi bob — yovuz amallar va ularning oqibatlariga baѓishlangan.

Garchi muallif asarni to‘rt bobga bo‘lgan bo‘lsa ham, Payg‘ambar a.s.ning faoliyati, ta’limoti butun asar davomida bo‘rtib ko‘rinadi.

Nashr qilingan manba: Nehsu’l-feradis. Uchmahlarning achuq yoli (Cennetlerin acik yolu). II Metin. Cevriyazi: Janos Eckmann. Turk Dil Kurumi Yayinlari: 518.

Ilmiy adabiyot: 1. Sihab’D-Din Marsani. Kitabu mustafadi’l-ahbar fi ahwali Qazan wa Bulgar, cild I. Kazan, 1885. –S.15-16; 2. Ahmed Zeki Velidi (Togan). Harezm’de Yazilmis Eski Turkce Eserler // Turkiyat Mecmuasi II, 1926/ - Istanbul: 1928. –S.331-345; 3.Kivamettin Burslan. Nehcu’l-feradis’ten Derlenen Turkce Sozler // Turkiyat Mecmuasi IV, 1934, - Istanbul: 1934. –S.169-250; 4.Ali Fehmi Karamanlioglu. Nehcu’l-feradis’e Dair”. // Turk Dili IV, sayi 45. –Ankara: TDK, 1955. –S.556-558; 5.Ali Fehmi Karamanlioglu. Nehcu’l-feradis’in Dil Hususiyetleri, I—IV. // Turk Dili ve Edebiyati Dergisi, XVI –Istanbul: 1968. –S.55-72; XVII – 1969. –S.33-56; 57-80; XIX – 1971. –S.145-170; 6.Janos Eckmann. Nehcu’l-feradis’in Bilinmeyen Bir Yazmasi // Turk Dili Arastirmalari Yilligi, Belleten 1963. – Ankara: TDK, 1964. –S. 157-159.

7-mavzu. Atoyi ijodi (XV asr)

Mumtoz she’riyatda g‘azal janrining taraqqiyotiga hissa qo‘shgan shoir. Balx shahrida yashagan, yassaviylik tariqati shayxlaridan Ismoil otaning o‘g‘li. Mirzo ulug‘bek saroyga bir qancha shoir va olimlarni taklif etganda, ular orasida Atoyi ham bor edi.

Bizgacha birgina devoni ma’lum, unda shoirning 260 g‘azali jamlangan, u Rossiya FA Sankt–Peterburg bo‘limida saqlanadi (inv.22 V-2456).

Atoyi xalq she’riyatida g‘azal janri yetakchilik qiladi, ularning aksariyati tasavvufiy ruhda. Til va uslub jihatidan xalq ijodiga yaqin bo‘lib, xalq iboralari, ta’birlari, maqollariga boyligi bilan ajralib turadi. Bu omillar shoir g‘azallarining xalqchilligini ta’minlagan.

Nashr qilingan asarlari: 1. O‘zbek adabiyoti namunalari (tuz. prof.Fitrat). – T.: 1928; 2. Otoyi. /azallar (nashrga tayyorl. E.RustamoV). – T.: 1958; 3. Atoyi. /azallar. Kitobda : Hayot vasfi. – T.: 1988.

Ilmiy adabiyot: 1. E.Rustamov. Uzbekskaya poeziya pervoy polovino‘ XU veka. — M. 1963. 2. S. Rafiddinov. Majoz va haqiqat. — T.: 1998.

8-mavzu. Sakkokiy ijodi.

XU asr she'riyatining iste'dodli vakillaridan biri. Mumtoz adabiyot taraqqiyotida g'azalgo'y va qasidanavis shoir sifatida mashhur. Movaraunnahrda tug'ilgan, hayotining asosiy qismini Samarqandda Shohruh Mirzo va Ulug'bek saroyida o'tkazgan.

Sakkokiyning g'azal va qasidalardan iborat devoni yetib kelgan. Adabiyot tarixida qasida janrining asoschilaridan biri sifatida iz qoldirgan. Sakkokiy 11 qasida (5 tasi Ulug'bekka, Xalil Sulton, Xoja Muhammad Porso, Arslon Xoja Tarxonlar v.b.) yozgan va zamonasining ulug' shaxslarini madh etgan.

Sakkokiy g'azallarining o'ziga xosligi samimiy va ohangdorligida. Shoir g'azallarining asosiy qahramoni oshiq, mag'shuqa va raqib timsollari.

Nashr qilingan asarlari: 1. Sakkokiy. /azallar. – T.: 1966; 2. Sakkokiy. /azallar, qasida. Kitobda: Hayot vasfi. - T.: 1988

Ilmiy adabiyot: 1.O'zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. T.1. – T.: Fan, 1978.

9-mavzu. Gadoiy ijodi

O'zbek mumtoz she'riyatining taniqli nasoyandasi, 1403-04 yillarda tug'ilganligi taxmin qilinadi. Temuriylar xonadonining vakillaridan biri.

Shoir merosidan birgina devon saqlangan bo'lib, umumiy hajmi 2974 misradir. Qo'lyozma Parij Milliy kutubxonasi (inv.981)da saqlanadi. Devon taxminan XU asrning oxiri — XU1 asrning boshlarida ko'chirilgan (Lutfiy devoni bilan bir muqovada),uning tarkibida 230 g'azal, bir tugallanmagan qasida, mustahzod va 5 qit'a bor.

Nashr qilingan asarlari: 1.Gadoiy. She'rlar (nashrga tayyorl. S./anieva). – T.: 1965; 2. Gadoiy. Devon (nashrga tayyorl. E.Ahmadxujaev). – T.: 1973;

Ilmiy adabiyot: 2. E. Ahmadxo'jaev. Gadoiy hayoti va ijodi). —T.: 1978; E.Ahmadxo'jaev. Gadoiy devonining nodir nusxasi haqida. «Adabiy meros» jurn. –1972, № 2; 3. /anieva s. Shoir Gadoiy. «O'zbekiston madaniyati» gaz. 1962, 1 sentabr.4. E. Rustamov. Uzbekskaya poeziya v pervoy polovine XU veka. – M.:1963.

10-mavzu. Lutfiy ijodi

REJA:

1. Lutfiy hayoti va ijod manbalari.

XV asr o'zbek she'riyati takomilida o'ziga xos o'ringa ega, katta iste'dod sohibi, «maliku-l-kalom» (Navoiy), tuyuq janrining ustasi.

Shoir Hirot yaqinidagi Dehikanor qishlog'ida tug'ilgan, o'sha joyga dafn qilingan. Shoir hayotiga oid lavhalar Navoiyning "Majolisu-n–nafois", "Holoti Sayid Hasan Ardasher", "Nasoyimu-l–muhabbat", Xondamirning "Makorimu–l-axloq" kabi asarlarida bor.

Lutfiydan katta adabiy meros qolgan. Manbalarda shoirning 20 dan ortiq asar yozgani aytiladi , biroq bizgacha birgina devoni ma'lum (Turkiyaning Ko'niyo shahrida saqlanadi). Sharafiddin Ali Yazdiyning Zafarnoma"(1437) asarini Shohruh Mirzoning taklifi bilan she'riy tarjima qilgan.

Shoir ijodi bilan Fitrat, E.Rustamov, E.Fozilov, S.Erkinov, Yo.Ishoqov, E.Ahmadho'jaev v.b. shug'ullanganlar.

Nashr qilingan asarlari: 1. Lutfiy. Devon. — T.: 1965. 2. Lutfiy. Sensan sevarim. — T.: 1987.

Ilmiy adabiyot: 1. E.Rustamov. Uzbekskaya poeziya v pervoy polovine XU veka. —M.; 1963. 2. S.Erkinov. Lutfiy. Hayoti va ijodi. — T.: 1965. 3. X.Zarif. Lutfiy va Navoiy. Kitobda: Ulug' o'zbek shoiri. – T.: 1948; 4. S. Erkinov , X. Muhammadxo'jaev. Turkiyda yagonai davron. «Til va adabiyot ta'limi» jurn.-1996, №4

11 – mavzu. Husayniy ijodi

REJA:

2. ***Husayn Boyqaro hayoti va ijodi manbalri.***
3. ***Husayniy va Navoiy ijodi hamkorligi.***
4. ***Husayniy lirikasi.***
5. ***“Risola” asarida badiiy ijod masalalari.***

1. Husayn Boyqaro (1438-1506) hayoti va ijodi manbalri.

Taniqli shoir va davlat arbobi. Hirot yaqinida tug‘ilgan. 1469 yildan umrining oxirigacha Xuroson podhohi. Uning hukmdorligi yillarida iqtisodiy va madaniy hayot yaxshilangan. Navoiyning maktabdosh do‘sti va homiysi.

Badiiy ijod bilan shug‘ullanib, g‘azalnavis shoir sifatida adabiyot tarixida iz qoldirgan. Boburning xabariga ko‘ra, devonidagi g‘azallari aksariyat bir vaznda (ramali musammani maqsur). G‘azallarida dunyoviy muhabbatni kuylagan, betakror satrlar yaratgan.

«Risola» nomli nasriy asarida Navoiy ijodigakeng va ob’ektiv baho bergan. Husayniy asarlari O‘R FA ShI jamg‘armasida saqlanadi.

Shoir ijodi bilan E.Rustamov, S.G‘anieva, E.Ahmadxo‘jaev, A.Erkinov v.b. shug‘ullanganlar.

Nashr qilingan asarlari: 1. Husayn Boyqaro. Devon, risola. (nashrga tayyorl. S.G‘anieva) – T.: 1968; 2. Shoh va shoir: Husayniy (nashrga tayyorl. A.Erkinov). – T.: 1993;

Ilmiy adabiyot: 1.H.Arasli. Husayn Boyqaro risolasi haqida. O‘zbek tili va adabiyoti» jurn. 1968, №3; 2.O‘zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. T.1. – T.: Fan, 1978.

Alisher Navoiy ijodining o‘rganilishi

REJA:

1. ***Navoiy haqida shoirning o‘z asarlaridagi ma’lumotlar***
2. ***Zamondoshlarining asarlarida keltirilgan ma’lumotlar***
3. ***XVI-XIX asrlardagi tazkira, lug‘at, tarixiy va badiiy asarlar***
4. ***Navoiy ijodining o‘rganilishi***

Turkiy xalqlarning “shamsul millati” bo‘lgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy jahon adabiyoti xazinasini o‘zining hassos she’riyati, buyuk “Xamsa”si, fan sohalarining turli tarmoqlariga bag‘ishlangan boy ilmiy merosi bilan boyitgan so‘z san’atkoridir. O‘z ijodiy merosida 26 mingdan ortiq lug‘at boyligidan foydalangan bu buyuk daho mana besh asrdan oshibdiki, asarlaridagi chuqur falsafiy mushohadakorlik, ma’no-mohiyatning keng ko‘lamligi va nazmiy merosidagi fasohat dengizining bepoyonligi bilan jahon ahlini hayratga solib keladi.

Dunyoda Alisher Navoiy kabi asarlari keng tarqalgan, jahonning deyarli har bir chekkasida kitoblarining nusxalari saqlanayotgan boshqa bir ijodkorni topish qiyin. Navoiy hayotining so‘nggi yillaridayoq uning asarlari tiliga lug‘at ishlanganligi biz hozir navoiyshunoslik deb atayotgan sohaning ancha qadimiy ekanligini ko‘rsatadi.

Shu ma’noda aytish mumkimki, Alisher Navoiyning faoliyati va merosining o‘rganilish tarixi shoirning o‘z davridan, zamondoshlari asarlaridan boshlanadi. Navoiyshunoslikning tadrijiy taraqqiyotini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Navoiyning o‘z asarlaridagi ma’lumotlar. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida ilk ma’lumot beruvchi manba bu ulug‘ shoirning o‘z asarlaridir. Shoirning deyarli barcha asarlarida uning shaxsiyati, ijodiy va ijtimoiy faoliyati haqida fikrlar keltiriladi. Xususan, “Vaqfiya”, “Munshaot” asarlarida uning ijtimoiy faoliyati aks etsa, “Xamsa”, “Munojot”, “Xazoyinu-l-maoniy” kabi asarlarida shaxsiy hayoti, “Muhokamatu-l-lug‘atayn”, “Xamsatu-l-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Majolisu-n-nafois” kabi asarlarida shoir qalamiga mansub ba’zi asarlarning yozilish tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlani uchratish mumkin.

2. *Zamondoshlarining asarlarida keltirilgan ma’lumotlar.* Mirxondning “Ravzatus safo” (“Soflik bog‘i”), Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkiratush shuaro” (“Shoirlar tazkirasi”), Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, “Haft avrang” (“tti taxt”), Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ul vaqoe’” (“Go‘zal voqealar”), Husayn Boyqaroning “Risola”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlarida Alisher Navoiyning hayoti, ijodi va ijtimoiy faoliyati haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan.

3. ***XVI-XIX asrlardagi tazkira, lug‘at, tarixiy va badiiy asarlar.*** Alisher Navoiy haqidagi ma’lumotlar XV asrdan keyingi tazkira, tarixiy va badiiy asarlarda ham keltirib o‘tiladi. Xususan, Lutf Alibek Ozarning “Otashkadai Ozariy”, Som Mirzo Safaviyning “Tuhfai Somiy”, Rizoqulixon Hidoyatning “Majmuaul fusaho” (“Go‘zal so‘z egalarining to‘plami”), Faxriy Hiraviyning “Latofatnoma”, Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” kabi asarlarida Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog‘liq fikrlar u yoki bu darajada bayon qilib berilgan.

Bu davrda Navoiy asarlarini chuqurroq o‘rganish uchun maxsus lug‘atlar ham tuzila boshlaydi. Navoiy hayotining so‘nggi yillarida uning asarlari asosida “Badoye’ul lug‘at”, bir oz keyinroq “Lug‘ati Navoiy” yaratiladi. 1560-yilda Aloyi binni Muhibiy “Al lug‘at-un-Navoiyat v-al-istishhodat ul chig‘atoiyat” (“Navoiy lug‘ati va chig‘atoy tili dalilllari”) lug‘atini tuzadi. XVIII asrda Mirzo Maxdiyxon tuzgan “Mabon ul lug‘at” (“Lug‘at poydevori”), XIX asrda Fath Ali Kojariyning “Lug‘oti atrokiya” (Turklar lug‘ati), Muhammad Xoksor tomonidan 1798-yilda tuzilgan “Muntaxabul lug‘at” (“Tanlangan lug‘atlar”) hamda Shayx Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy” kabi asarlarida Alisher Navoiy asarlaridan olingan parchalarga keng o‘rin ajratiladi.

4. Navoiy ijodining o‘rganilishi. O‘tgan asrning 20-30-yillaridan boshlab Navoiy ijodini ilmiy mezonlar asosida o‘rganish boshlandi. Bu sohadagi dastlabki qadam sifatida Abdurauf Fitratning “Navoiyning forsiy shoirlig‘i ham uning forsiy devoni to‘g‘risida” (“Maorif va o‘qitg‘uchi” jurn., 1925) va “Farhodu Shirin” dostoni to‘g‘risida” (“Alanga” jurn., 1930) maqolalarini ko‘rsatish mumkin.

Butun Sobiq Ittifoqi miqyosida Navoiy tavalludining 500 yilligini keng nishonlash haqida qaror qabul qilinishi munosabati bilan “Xamsa”ning qisqartirilgan varianti (Sadriddin Ayniy, 1939), “Chor devon”, “Muhokamatu-l-lug‘atayn”, “Mahbubu-l-qulub” asarlari nashr qilindi, turli tadqiqot va monografiyalar yaratiladi, shoir asarlari rus, ukrain, tojik, ozarboyjon va boshqa ko‘plab tillarga tarjima qilindi. Olim Sharafiddinov (“Alisher Navoiy”, 1939), M.Shayxzoda (“Genial shoir”, 1940), V.Abdullayev (Navoiyning Samarqanddagi hayoti va faoliyati haqida, 1940) kabi olimlarning tadqiqotlari yaratildi; A.Borovkov, Ye.E.Bertels, H.Olimjon, X.Zarif, O.Usmonov, M.Shayxzoda va boshqa olimlarning ilmiy maqolalarini o‘z ichiga olgan “Rodonachalnik uzbekskoy literaturы” (1940) to‘plami e’lon qilinadi.

Sobiq ittifoq hududida 1941-yilda II jahon urushining boshlanishi munosabati bilan Navoiy yubileyi 1948-yil may oyida nishonlandi va shu munosabat bilan Ye.E.Bertels, O.Sharafiddinov, S.Ayniylarning ilmiy risolalari e’lon qilindi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab navoiyshunoslik yanada sermahsul ishlarni amalga oshirdi. “Xamsa”ning mukammal nashri (Porso Shamsiev, 1960), “Xazoyinul maoniy”ning akademik nashri (Hamid Sulaymonov, 1959-60) va Alisher Navoiy “Asarlar”i 15 tomligining e’lon qilinishi navoiyshunoslikdagi muhim voqealardan bo‘ldi.

O‘tgan asrning 90-yillarigacha Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ro‘yxatining o‘zi alohida bir kitobni tashkil qiladi (Alisher Navoiy. Adabiyotlar ko‘rsatkichi, 1991).

Mustaqillik yillaridan boshlab Alisher Navoiy ijodini yangicha tamoyillar asosida o‘rganish boshlandi. I.Haqqulovning “Tasavvuf va she’riyat” (1991), S.Hasanovning “Navoiyning yetti tuhfasi” (1991), M.Muhiddinovning “Ikki olam yog‘dusi” (1991), H.Qudratullayevning “Alisher Navoiyning adabiy-estetik qarashlari” (1991), A.Qayumovning “Nazm va tafakkur quyoshi” (1992), A.Hayitmetovning “Navoiyxonlik suhbatlari” (1993), “Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti” (1996), A.Abdug‘afurovning “Buyuk beshlik saboqlari” (1995), R.Vohidovning “Alisher Navoiyning ijod maktabi” (1994), ‘”Alisher Navoiy va ilohiyot” (1994), N.Komilovning “Tasavvuf” (1996, 2010), S.Olimovning “Naqshband va Navoiy” (1996), N.Jumaevning “Satrlar silsilasidagi sehr” (1996), A.Hojiahmedovning “Navoiy aruzi nafosati” (2006) kabi tadqiqotlari; M.Muhiddinov, Sh.Sirojiddinov, A.Erkinov kabi olimlarning dissertasion ishlari shular jumlasidandir.

Navoiy asarlari XVI asrlardayoq Yevropada ma’lum edi. 1557-yilda italyan tilida Venesiyada nashr etilgan tabrizlik arman yozuvchisi Xristofor Armaniyning “Sarandib shohining uch yosh o‘g‘loni ziyorati” asarining ikkinchi qismida Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidan oingan Bahrom va Dilorom sarguzashti bayon qilinadi. Shuningdek, XVII asr gruzin shoiri Sitsishvili Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonini ijodiy tarjima qilib, “Etti go‘zal” dostonini yaratadi.

XIX asrga kelib, Yevropada Alisher Navoiy asarlari va uning asarlari asosida tuzilgan lug‘atlarni nashr etish ishlari boshlanadi. Fransuz sharqshunosi Katrmer 1841 yilda e’lon qilingan majmuasiga Navoiyning “Muhokamatul lug‘atayn” va “Tarixi muluki ajam” asarlarini kiritadi. Rus olimi I.N.Beryozin ham o‘zining “Turk xrestomatiyasi” nomli kitobiga shoir asarlaridan parchalar kiritadi.

Rus sharqshunosi V.V.Velyaminov 1868-yilda Aloyi binni Muhibiyning “Al lug‘at-un-Navoiyat v-al-istishhodat ul chig‘atoiyat” (“Navoiy lug‘ati va chig‘atoy tili dalillari”) lug‘atini Sankt-Peterburgda nashr ettiradi. Fransuz sharqshunosi Pave de Kurteyl esa Navoiy asarlaridan foydalanib, lug‘at tuzadi.

Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatini ilmiy aspektda o‘rganish 1856-yilda M.Nikitskiyning “Amir Nizomiddin Alisher, uning davlat va adabiyot sohasidagi ahamiyati” nomli magistrlik dissertasiyasi bilan boshlandi. M.Nikitskiy Navoiyning hayoti va faoliyatini ancha to‘liq organgani, uning shoir, olim va davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga yuqori baho bergani holda Sharq mumtoz adabiyotidagi ijodiy an’analarni anglab yetmagani uchun Navoiyni “fors-tojik adabiyotining tarjimoni” deb e’lon qiladi.

Aynan shu tarzdagi g‘ayri ilmiy qarashlar fransuz sharqshunoslari M.Belen, E.Bloshe, Buva, ingliz sharqshunosi E.Braun, rus sharqshunosi V.Bartoldlarning tadqiqot va ilmiy maqolalarida davom ettirildi.

Nihoyat Ye.E. Bertels o‘zining Alisher Navoiy va fors-tojik adiblari ijodiy faoliyatini qiyosiy o‘rganish orqali Navoiyning original shoir ekanligini isbotladi.

Endilikda Alisher Navoiy ijodini xorijda keng ilmiy aspektda xolis o‘rganish ishlari davom ettirilmoqda.

ADABIYoTLAR:

9. Vohidov R., Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O’zYU Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2006.
10. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 2-jild. – T.: Fan, 1978.
11. Hayitmetov A. Temuriylar davri adabiyoti. – T.: Fan, 1996.
12. Navoiy zamondoshlari xotirasida. – Toshkent.: 1985.

XORIJIY MANБALAR

1. Radloff W. Phonetik der nordichen turk sprehen / Leipzig. - 1882, pp. 8-19;
2. Bergsträsser G. Das Vorbild von Kašġarï's Dïvãn Luġāt at-Turk. Orientalistische Literatur-zeitung, xxiv (1921). – C. 154-155;
3. Hommel F. Zu den alttürkischen Sprichwörten, Asia Major, Hirth Anniversary Volume, 1924. – C. 182-193; Bartold V. Orta Asya Türk ta'rihi hakkında dersler. – İstanbul, 1927.
4. Qayta nashri: Бartolд B.B. Oбhie raбoto‘ po istorii Sredney Azii / Sochinenie. – M.: Nauka, 1963;
5. Malов S.E. Oбrazso‘ drevnetyurkskoy pismennosti s predislovіem i slovarem. - T.: 1926.
6. Keyinri nashri: Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. – M.-L.: 1951;
7. Umnyakов I.I. Samaya staraya tyurkskaya karta mira (XI) // Trudo‘ Samarkadskogo rospedinstituta. Bo‘r. 1. – Samarkand, 1940. – S. 103-132;
8. Bombaci A. Storia della letteratura turca. – Milan, 1956. – C. 81-106;
9. Kelly J. On definninng Dhū al-‘Arba'a // Journal of the Amerıcan Oriental Society 91.1 (1971). – 132-136 pp.; Dankoff R. Kãšgharï on the Tribal and Kinship Organization of the Turks // Archivum Ottomanicum IV (1972). – 23-43 pp.; idem, The Alexander romance in the Dïwãn Lughãt at-Turk // Humaniora Islamica I (1973). – 233-244 pp.; idem, Kãšghar ï on the Beliefs and Superstitions of the Turks // Journal of the Amerıcan Oriental Society 95.1 (1975). – 68-80 pp.;
10. Kononov A.N. Izuchenie «Dіvanu luratit turk» Maxmud Koshrarskogo v…» // ST. - 1973. - №1 - S.3-9; Steблева I.B. Poetika drevnetyurkskoy literaturo‘ i yee transformasiya v ranneklassicheskiy period. - M: Nauka, 1976. - S.139-153;
11. Bogovkova T.A. Grammaticheskiy ocherk yazo‘ka "Dūvānu lurāt-it turk" Maxmuda Kashrari / Diss. kandidata filol. nauk. – L., 1966; Ermers R. Arabic Grammatic of Turkic. Leiden/Köln, 1999;
12. Zuev Yu.A. Rannie tyurki: ocherki istorii i ideolorii. – Almato‘: Dayk-Press, 2002;
13. Hauenschild I. Die Tierbezeichnungen bei Mahmud al-Kaschgarï. Eine Untersuchung aus sprachund kulturhistorischer // Wiesbaden, Harrassowitz, 2003;
14. Zuev Yu.A. Rannie tyurki: ocherki istorii i ideolorii. – Almato‘: Dayk-Press, 2002.
15. Köprülü M.F. Türk Dili ve edebiyatı hakkında araştırmalar. – İstanbul, 1934. – C. 33-34; idem, İlk Türk dilcisi Kāşgarlı Mahmud. – Ankara, 1938; idem, Türk Dilli tarihi notlari. – İstanbul, 1943. – S. 42-45; idem, La Literature de I'époque des Karakhanıdes // Philologiae Turcicae fundamenta. – Wiesbaden, 1964. – C. 167-175; idem, Kaşgarlı Mahmut. – İstanbul, 1970; Togan A.Z.V. DÏvān-i Luğat üt-Türk'ün telif senesi hakkında // Atsiz

mecmuası, no 16 (1932). – C. 77-78; idem, Mahmūd Kāşgarĭ'ye ait notlar // Atsiz mecmuası, no 17 (1932). – C. 133-136; Pritsak O. Mahmud Kāşgarï kimdir? // Türkiyāt Mecmuası. X (1951-1953). – S. 243-246.
16. Chобанзаде Б. O бlizkom rодstве tyurkskix narechiy / Pervo'y Bsesoyuzno'y tyurkoloricheskiy s'ezд. 1926 г. 26 fevralya-5 marta. – Baku, 1926. – S.96-102;
17. Juze P.K.uhcThesaurus Linguarum Turcorum // Izвestiya Bostochnoго fakulteta Azerбaудjanskoго rosuniversiteta. Bostokoведenie I. – Baku, 1926. – S. 74-94; II, 1927. - S.27-35;
18. Velidов Дj. O Slovare turkskix yazo'kов Maxmuда Kashrarskoго // Bestnik nauchnoго obhestва tataroведeniya. – Kazan, 1927. T. 7. – S. 107-112;
19. Axallo' S. Slovar Maxmuда Kashrarskoго i turkmenskiy yazo'k (na turkm. yaz.) – Ashxaбad, 1958;
20. Ibragimов S.K., Xarkovskiy B.S. Materialo' iz istorii kazaxskoго yazo'ka // Izвestiya AN KazSSR. Seriya Istorii, arxeologii i etnorrafii. Bo'p. 2 (10). Almata, 1959. – S. 94-100;
21. Kororlo' X. Дrevnetyurkskaya literatura // Sovetskaya tyurkologiya. 1988. T. 5. – S. 16-21;
22. Xalidов A.Б. "Дūvān Lurāt it-Turk" в srавnitelnom osвehenii s yeго araбskim prototipom // Sovetskaya tyurkologiya. 1984. T. 4. – S. 85-90.
23. Ramiz Əskər. Mahmud Kaşğarinin 1.000 illik yubileyinə 1.000 biblioqrafik Göstərici. Bakı, 2008. S.6-7 Arat, Reşıd Rahmatı. Kutadğu Bılıg. 1-Metın. 2-Baskı. – Ankara: 1979.
24. Bolosorunskiy Yu. Blagodatnoe znanie / Per. N.Гребнева i A.Ivanova. Poslesloвie A.N.Kononова. – M.: Nauka, 1983.

KURS IShLARI MAVZULARI

1. “Avesto” adabiy manba sifatida.
2. O‘rxun-Enasoy bitiktoshlari adabiy manba sifatida.
3. Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi afsona va xalq qo‘shiqlari.
4. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari.
5. “Qutadg‘u bilig” hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar.
6. Ahmad Yassaviy “Hikmatlar”ida tasavvuf masalalari.
7. Nosiruddin Rabg‘uziy hayoti va ijodining manbalari.
8. “Qisasi Rabg‘uziy” (“Qisas ul-anbiyo”) - o‘zbek badiiy nasrining ilk namunasi sifatida.
9. Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari, uning badiiyati.
10. Atoyining lirik merosi.
11. Sayyid Qosimiy dostonlari.
12. Husayniy lirikasining badiiy xususiyatlari.
13. Lutfiyning ijodiy faoliyati.
14. 14.Pahlavon Mahmud ruboiylari.
15. Sayfi Saroyining ijodiy merosi

MUSTAQIL IShLAR MAVZULARI

1. Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi afsona va xalq qo‘shiqlari.
2. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari.
3. “Qutadg‘u bilig” hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar.
4. Ahmad Yassaviy “Hikmatlar”ida tasavvuf masalalari.
5. Nosiruddin Rabg‘uziy hayoti va ijodining manbalari.
6. “Qisasi Rabg‘uziy” (“Qisas ul-anbiyo”) - o‘zbek badiiy nasrining ilk namunasi sifatida.
7. Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari, uning badiiyati.
8. Atoyining lirik merosi.
9. Sayyid Qosimiy dostonlari.
10. Husayniy lirikasining badiiy xususiyatlari.
11. Lutfiyning ijodiy faoliyati.
12. Pahlavon Mahmud ruboiylari.
13. Sayfi Saroyining ijodiy merosi

Annotasiya (Taqriz)

O‘quv –uslubiy majmuada « Uzbek mumtoz adabiyoti tarixi » kursini o‘qitish bo‘yicha ta’lim texnologiyalari, ularni qo‘llash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar bayon etilgan. Ushbu tavsiyalar didaktik tamoyillar, ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar texnologiyalarini ishlab chiqish usul va vositalari, ularning muhim belgilaridan iborat ta’limni texnologiyalash qoidalarini hisobga olgan holda loyihalashtirilgan.

O‘quv –uslubiy majmua oliy ta’lim muassasalari - 5120100 - Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi 1 –kurs talabalari uchun muljallangan.

O‘quv –uslubiy majmuada « Uzbek mumtoz adabiyoti tarixi » kursini o‘qitish bo‘yicha testlar, nazorat uchun savollari, tarqatma materiallar, o‘quv qo‘llanmalari, xorijiy manbalar, normativ hujjatlar, baholash mezoni ham keltirilgan.

O‘quv –uslubiy majmua Andijon davlat universiteti ARM bo‘limi qog‘oz va elektron variantda foydalanish uchun topshirilgan .

Mualliflar haqida ma’lumot

Filologiya fanlari nomzodi, dosent
Jalilov Baxrom Jalilovich

Jalilov Baxrom Jalilovich 1969 yilda Andijon davlat pedagogika instituti yillarda Andijon Davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti tamomladi. 1970 yildan Andijon davlat universitetida ilmiy-pedagogik faoliyatini boshlagan. 1980-1986yillarda Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti dekani, keyinchalik o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori, rektor vazifasilarida ishlagan. 1996 yildan Andijon davlat universiteti O‘zbek adabiyoti kafedrasi dosentii vazifasida ishlamoqda.

B. Jalilov ilmiy salohiyatining yuksakligi, o‘z ishiga jiddiy yondoshishi, dunyoqarashining kengligi va barkamol insoniy fazilatlari bilan universitet professor-o‘qituvchilari hamda talabalar o‘rtasida alohida obro‘ga ega. U o‘z fanining bilimdoni, jonkuyar, halol ustoz ekanligi bilan ajralib turadi. B. Jalilov talabalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashdek oliy maqsad yo‘lida butun kuch va bilimini safarbar etib kelmoqda.

Uning bugungi kunga qadar 2 ta monografiya, 10 dan ziyod o‘quv –uslubiy qo‘llanmalari, 60 dan ziyod ilmiy maqolalari chop etilgan.. Hozirda uning raxbarligida bir qancha tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Jalilov Baxrom Jalilovich oilali, 4 nafar farzandi va nafar nabiralari bor. U yoshlarni milliy istiqlol g‘oyalariga tayangan holda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jonbozlik ko‘rsatib kelmoqda.

MAMAJONOV ZOKIRJON AHMADJONOVICh

Mamajonov Zokirjon Ahmadjonovich 1995 yilda Andijon davlat universiteti filologiya fakulteti tamomladi. 2003 yildan Andijon davlat universitetida ilmiy-pedagogik faoliyatini boshlagan. 2005 yildan Andijon davlat universiteti O‘zbek adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi vazifasida ishlamoqda.

Mamajonov Zokirjon Ahmadjonovich ilmiy salohiyatining yuksakligi, o‘z ishiga jiddiy yondoshishi, dunyoqarashining kengligi va barkamol insoniy fazilatlari bilan universitet professor-o‘qituvchilari hamda talabalar o‘rtasida alohida obro‘ga ega.

Mamajonov Zokirjon Ahmadjonovich talabalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashdek oliy maqsad yo‘lida butun kuch va bilimini safarbar etib kelmoqda.

Uning bugungi kunga qadar uning 20 dan ziyod ilmiy maqolalari Respublikamiz va xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Hozirda Mamajonov Zokirjon Ahmadjonovich “O‘xshatish san’atiga asoslangan she’riy san’atlar ” mavzusidagi doktorlik dissertasiyasi ustida tadqiqot ishlari olib bormoqda.

Mamajonov Zokirjon Ahmadjonovich oilali, 3 nafar farzandi bor. U yoshlarni milliy istiqlol g‘oyalariga tayangan holda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jonbozlik ko‘rsatib kelmoqda.

ESHANOVA ZILOLA
QO‘ChQAROVNA

Eshanova Zilola Qo‘chqarovna 2000 yilda Andijon davlat universiteti filologiya fakultetini imtiyozli diplom bilan tamomladi. 2001-2003 yillarda O‘zbekiston Milliy universitetining “Adabiy matnshunoslik va manbashunoslik” yo‘nalishi magistraturasida tahsil oldi. 2003-2007 yillar O‘zMU ning aspiranturasida o‘qidi. 2007 yildan Andijon davlat universitetida ilmiy-pedagogik faoliyatini boshlagan. U “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi”, “Sharq filologiyasi” fanlaridan talabalarga bilim berib kelmoqda.

Eshanova Zilola Qo‘chqarovna - ilmiy salohiyati yuksak, o‘z ishiga jiddiy yondoshuvchi, izlanuvchan pedagog. Uning bugungi kunga qadar 15 dan ziyod ilmiy maqolalari Respublikamiz va xorijiy jurnallarda chop etilgan. Eshanova Zilola Qo‘chqarovna hozirda doktorlik dissertasiyasi ustida tadqiqot ishlari olib bormoqda.

Eshanova Zilola Qo‘chqarovna oilali, 1 nafar farzandi bor. U yoshlarni milliy istiqlol g‘oyalariga tayangan holda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jonbozlik ko‘rsatib kelmoqda.

Foydali maslahatlar

O‘quv-uslubiy majmuada o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixiga bag‘ishlangan bir qator masalalar yoritilgan. Mazkur mavzuni chuqurroq o‘rganishni istagan talabalar majmuaning xorijiy manbalar hamda adabiyotlar ro‘yxatidagi adabiyotlar bilan tanishib chiqsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Majmuadagi mavzular yuzasida testlar tuzish va badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish talabalarning bilimini yanada mustahkamlaydi.

Majmuada berilgan mustaqil va kurs ishlari mavzularini o‘rganish talabalarning ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Majmuada berilgan xorijiy manbalar haqida ma’lumot internet saytlaridan olingan bo‘lib, talabalarning ulardan foydalanishi kelgusida fanni qiyosiy o‘rganish metodining shakllanishiga asos bo‘ladi.

NORMATIV HUJJATLAR

Ў З Б Е К И С Т О Н Д А В Л А Т С Т А Н Д А Р Т И

Ўзбекистон узлуксиз таълимининг
Давлат таълим стандартлари

Олий таълимнинг Давлат таълим стандарти

***5120100 – Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили*) таълим йўналиши бўйича бакалаврларнинг тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлар мазмунига қўйиладиган**

ТАЛАБЛАР

Расмий нашр

Ўзбекистон Республикаси

Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги

Тошкент

Ў З Б Е К И С Т О Н Д А В Л А Т С Т А Н Д А Р Т И

Ўзбекистон узлуксиз таълимининг
Давлат таълим стандартлари

Олий таълимнинг Давлат таълим стандарти

***5120100 – Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили*) таълим йўналиши бўйича бакалаврларнинг тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлар мазмунига қўйиладиган**

ТАЛАБЛАР

Расмий нашр

Ўзбекистон Республикаси

Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги

Тошкент

I

СЎЗ БОШИ

1 ИШЛАБ ЧИҚИЛГАН ВА КИРИТИЛГАН:

- Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимини Ривожлантириш маркази;
- Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети.

2 ТАСДИҚЛАНГАН ВА АМАЛГА КИРИТИЛГАН:

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 201_ йил «___» _____ даги ____ - сонли буйруғи**.** *Мазкур стандарт Ўзбекистон Республикаси ҳудудида амалга киритилиши (амал қилишининг тўхтатилиши) ва унга ўзгартиришлар киритилиши тўғрисидаги маълумотлар «Ўзстандарт» агентлиги томонидан нашр этилувчи кўрсатгичларда чоп этилади.*

Мазкур стандарт Ўзбекистон Республикаси худудида расмий чоп этиш хуқуқи Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигига тегишлидир.

I

I

МУНДАРИЖА

		бет
1	**Қўлланилиш соҳаси …….....…**	**1**
2	**Атамалар, таърифлар, қисқартмалар ……..**	**2**
3	**Таълим йўналишининг тавсифи ……..……..**	**2**
4	***5120100 – Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили*) таълим йўналиши бўйича бакалаврлар касбий фаолиятининг тавсифи .....**	**3**
5	**Бакалаврнинг тайёргарлик даражасига қўйиладиган талаблар .....**	**5**
6	**Таълим дастурининг мазмуни ва компонентлари ….....……**	**13**
7	**Бакалавриатнинг асосий таълим дастурларини ўзлаштириш бўйича амалга ошириладиган шароитларга белгиланган талаблар**	**23**
7.1	Бакалавриатнинг асосий таълим дастурлари ўзлаштирилишига белгиланган умумий талаблар …….....….......	23
7.2	Таълим дастурларининг тадбиқ этилиши …….....…...	24
7.3	Малакавий амалиётларни ташкил этиш талаблари …….....	24
7.4	Ўқув жараёнини педагогик кадрлар билан таъминлаш бўйича талаблар …….....……..	25
7.5	Таълим жараёнини ўқув-методик ва ахборот ресурслари билан таъминлаш талаблари …….....….	25
7.6	Ўқув жараёнининг моддий-техника базаси бўйича талаблар ….....…	26
8	**Бакалавр тайёрлаш сифатини баҳолаш …….....……..... **	**27**
9	**Эслатма …….....……. **	**28**
10	**Давлат таълим стандартининг амал қилиш муддати ..... **	**28**
11	**Илова …… ..... **	**29**
12	**Библиографик маълумотлар …….. **	**30**

Ў З Б Е К И С Т О Н Д А В Л А Т С Т А Н Д А Р Т И

Ўзбекистон узлуксиз таълимининг
Давлат таълим стандартлари
Олий таълимнинг Давлат таълим стандарти
***5120100 – Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили*) таълим йўналиши бўйича бакалаврларнинг**
тайёргарлик даражаси ва зарурий
билимлар мазмунига қўйиладиган
ТАЛАБЛАР

Государственные образовательные стандарты
непрерывного образования Узбекистана
Государственный образовательный стандарт
высшего образования
ТРЕБОВАНИЯ
к необходимому содержанию и уровню
подготовленности бакалавра по направлению
***5120100 – Филология и обучение языкам (узбекский язык*)**

State Educational Standards of Continuous Education of Uzbekistan
State Educational Standards of Higher Education
REQUIREMENTS
Necessary for content and level of Bachelors in
***5120100 – Philology and teaching languages (uzbek language*)**

Амал қилиш муддати «____» _____201_ йилдан
«___» _____201_йилгача

I Қўлланиш соҳаси

1.1 Олий таълимнинг мазкур давлат таълим стандарти (ОТ ДТС) *5120100 – Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили*) таълим йўналиши бўйича олий маълумотли бакалаврлар тайёрлашнинг асосий таълим дастурлари ўзлаштирилишини амалга оширишда Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги барча олий таълим муассасалари учун талаблар мажмуини ифодалайди.

1.2 Олий таълим муассасаси мазкур таълим йўналиши бўйича кадрлар тайёрлаш ваколатига эга бўлганда ДТС асосида таълим дастурларини амалга ошириш ҳуқуқига эга деб ҳисобланади.

1.3 ОТ ДТСнинг асосий фойдаланувчилари:

- мазкур таълим йўналиши ва тайёргарлик даражаси бўйича фан, техника ва ижтимоий соҳа ютуқларини ҳисобга олган ҳолда асосий таълим дастурларини сифатли ишлаб чиқиш, самарали амалга ошириш ва янгилаш учун масъул олий таълим муассасаларининг профессор - ўқитувчи жамоалари;
- таълим йўналишининг асосий таълим дастурларини ўзлаштириш бўйича ўқув-тарбия фаолиятини самарали амалга оширувчи барча ходимлари ва талабалари;
- ўз ваколат доирасида битирувчиларнинг тайёргарлик даражасига жавоб берадиган олий таълим муассасаларининг бошқарув ходимлари (ректор, проректорлар, ўқув бўлими ва деканат);
- битирувчиларнинг тайёргарлик даражасини баҳолашни амалга оширувчи Давлат аттестация комиссиялари;
- олий таълим муассасасини молиялаштиришни таъминловчи органлар;
- олий таълим тизимини аккредитация ва сифатини назорат қилувчи ваколатли Давлат органлари;
- таълим йўналишини ихтиёрий танлаш ҳуқуқига эга бўлган абитуриентлар ва бошқа манфаатдорлар.

2 Атамалар, таърифлар, қисқартмалар

Мазкур стандартда Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни, Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури ҳамда олий таълим соҳасидаги халқаро ҳужжатларга мос равишда атамалар ва таърифлардан фойдаланилган:

касбий фаолият тури – таълим йўналишига ўзгартишлар киритиш мақсадида касбий фаолият объектига таъсир қилишнинг методлари, усуллари, услублари ва тавсифи;

компетенция – маълум соҳада муваффақиятли фаолият юритиш учун билимлар, амалий малакалар ва шахсий сифатларни қўллаш қобилияти;

модул – тарбиялаш ва ўқитишга йўналтирилган мақсадлар ва натижаларга нисбатан муайян мантиқий тугалланганликка эга бўлган ўқув фани (курси) ёки ўқув фанлари (курслари) қисмларининг мажмуаси;

таълим йўналиши – муайян касбий фаолият доирасидаги турли даражадаги таълим дастурларининг мажмуи;

касбий фаолият объекти – предметлар, воқеликлар, жараёнлар ва фаолият доирасида ҳаракатга йўналтирилган тизимлар;

касбий фаолият соҳаси – илмий, ижтимоий, иқтисодий, ишлаб чиқаришда намоён бўладиган касбий фаолият объектларининг мажмуи;

бакалавриатнинг асосий таълим дастурлари (бакалавриат дастури) – талабаларнинг тарбияси ва тайёргарлик даражаси сифатини таъминлашга йўналтирилган ўқув режаси, ўқув курслари, предметлари, фанлари (модуллари)нинг дастурлари, малакавий амалиётлар дастурлари, ўқув жараёни жадвали ва мос равишдаги таълим технологияларини амалга оширилишини таъминловчи ўқув-услубий мажмулари методик материаллар;

профиль – асосий таълим дастурининг аниқ касбий фаолиятнинг муайян тури ёки объектига йўналганлиги;

ўқув-ўрганиш натижалари – ўзлаштирилган билимлар, амалий малакалар, кўникмалар мажмуи;

ўқув цикли – мос илмий ёки касбий фаолият доирасидаги билимлар ва амалий малакаларни ўзлаштириш ва кўникмаларни шакллантиришни таъминловчи асосий таълим дастурларидаги фанларнинг мажмуи.

АРМ - ахборот ресурс маркази;

ИТИ – илмий-тадқиқот ишлари;

ОТМ - олий таълим муассассаси;

ЎУМ - ўқув-услубий мажмуа.

3 Таълим йўналишининг тавсифи

3.1 Ушбу таълим йўналишини қамраб олувчи олий таълимнинг асосий таълим дастурлари амалга оширилади, уни назарий ва амалий машғулотларини тўлиқ ўзлаштирган, якуний давлат аттестациясидан муваффақиятли ўтган шахсга «бакалавр» малакаси (даражаси) хамда олий маълумот тўғрисидаги давлат намунасидаги расмий ҳужжат(лар) берилади

3.2 Асосий таълим дастурининг меъёрий муддати ва мос малака(даража)си 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал

Асосий таълим дастурининг муддати ва битирувчиларнинг малакаси

Таълим дастурининг номи	Малака (даража)	Таълим дастурини ўзлаштиришнинг меъёрий муддати
Бакалавриат таълим дастури	Бакалавр	4 йил

4 *5120100 – Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили*) таълим йўналиши бўйича бакалаврлар касбий фаолиятининг тавсифи

4.1 Бакалаврлар касбий фаолиятининг соҳаси

5120100 – Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили) – ижтимоий-гуманитар фанлар соҳасининг йўналиши бўлиб, ўзбек тилининг шаклий-мазмуний тузилиши ва хусусиятлари ҳамда ўзбек адабиёти материалларини тизимли суратда ўрганиш, ўзбек тили бойлиги, синтактик қурилиши имкониятларидан бадиий ижод соҳасида фойдаланиш, бадиий асар яратиш ва уни таҳлил қилиш жараёнини ўз ичига олади.

Бакалаврларнинг касбий фаолияти қуйидагиларни қамраб олади:

– бадиий асарни адабий ва лисоний таҳлил этиш ҳамда унинг методларини ўзлаштириш;

– дунёқараш тавсифидаги билимлар тизимини эгаллаган бўлиши, гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар асосини, давлат сиёсатининг долзарб масалаларини билиши; ижтимоий муаммолар ва жараёнларни мустақил таҳлил қилиш қобилиятига эга бўлиши;

– Ватан тарихини билиши, миллий ва умуминсоний қадриятлар бўйича ўз нуқтаи назарини баён этиши ҳамда илмий асослай олиши, миллий ғоя асосида фаол ҳаётий ўринни эгаллаши;

– табиат ва жамиятда юз бераётган жараёнлар ва ҳодисалар ҳақида яхлит тасаввурга эга бўлиши, табиат ва жамият ривожланиши ҳақида билимларга эга бўлиши, улардан ҳаётда ва касбий фаолиятда замонавий илмий асосларда фойдалана олиши;

– инсонлар орасидаги жамиятга, атроф-муҳитга бўлган муносабатини тартибга солувчи ҳуқуқий ва ахлоқий меъёрларни касбий фаолиятда ҳисобга ола билиши;

– адабиёт ва тил билими тўғрисидаги ахборотларни тўплаш, таҳлил қилиш, сақлаш, уларга ишлов бериш ва улардан фойдаланиш методларини эгаллаш, ўзининг касбий фаолиятида асосли мустақил фикрлаш ва керакли қарорлар қабул қила олиши;

– бакалавриатнинг мос йўналиши бўйича рақобатбардош умумкасбий тайёргарликка эга бўлиши;

– адабиёт ва тил соҳасига оид янги билимларни мустақил ўзлаштира олиши, ўзини такомиллаштириши ва ўз меҳнатини илмий асосда ташкил қила билиши;

– соғлом турмуш тарзини шакллантириш, жисмонан бақувват спорт билан шуғулланиб бориш зарурати ҳақида илмий тасаввурга ва эътиқодга эга бўлиши, ўзини жисмонан такомиллаштириш;

– компьютер технологиялари ва соҳага оид дастурлаш имкониятларидан фойдаланган ҳолда иш юритиш;

– тилшунослик ва адабиётшуносликдаги тизимли ёндошув усулларини таҳлил жараёнига тадбиқ этиш;

– соҳага оид дастурий таъминот, ахборот-коммуникация технологияси билан қуролланиш;

– касбий таълим дидактикаси;

– касбий таълим педагогикаси ва методикаси;

– ўқитишнинг дидактик воситалари;

– таълимнинг электрон воситалари;

– соҳанинг ўрта махсус, касб-ҳунар таълим тизимидаги ўрни ва роли.

4.2 Бакалаврларнинг касбий фаолияти объектлари

5120100 – Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили) йўналиши бўйича бакалавр касбий фаолиятининг объектлари - ўзбек тилида яратилган бадиий матнлар; фикр ифодалашда потенциал маъно ясовчи материаллар; нутқнинг яратилиш жараёни; мулоқот бирликлари; бадиий-эстетик коммуникация; матн талқини, тушуниш ва идрок этиш, таълим жараёни меъёрий ҳужжатлари, педагогик технологиялар, таълимнинг техникавий воситаларини ўрганиш, рақобатбардош кадрлар тайёрлаш.

4.3 Бакалаврларнинг касбий фаолияти турлари

Бакалаврларнинг касбий фаолияти турлари:

- *илмий ва илмий-тадқиқот;*
- *ЎМКҲТ тизимида педагогик фаолият;*
- *ОАВ да мухбирлик, ноширлик ва муҳаррирлик фаолияти;*
- *адабий-танқидий фаолият;*
- *ташкилий-бошқарув фаолияти кабиларни ўз ичига олади.*

Бакалавр тайёрланадиган касбий фаолиятнинг муайян турлари таълим жараёнининг манфаатдор иштирокчилари билан ҳамкорликда олий таълим тизими томонидан аниқланади.

4.4 Бакалаврлар касбий фаолиятининг вазифалари

***5120100 – Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили*) таълим йўналиши бўйича бакалавр таълим дастурини ўзлаштириш натижасида касбий тайёргарликнинг асосий турлари ва ихтисосликнинг тайёргарлигига мос қуйидаги касбий вазифалар белгиланади:**

Илмий ва илмий-тадқиқот фаолияти:

– филология соҳасида илмий текшириш институтларида илмий ходим, тадқиқотчи;

– намунавий методикалар ва бошқалар бўйича экспериментал тадқиқотларни ўтказиш ва уларнинг натижаларига ишлов бериш;

– илмий-техникавий ҳисоботлар ва тушунтириш хатларини ишлаб чиқиш;

– ўтказилаётган тадқиқотлар мавзуси бўйича илмий обзорларни ишлаб чиқиш, рефератлар ва библиографияларни тузиш;

– илмий семинарлар, илмий-техникавий конференциялар ишида иштирок этиш;

– илмий-техникавий мавзувий журналларга мақолаларни тайёрлаш.

ЎМКҲТ тизимининг мос таълим муассасаларида педагогик фаолият (педагогик тайёргарликдан сўнг):

– умумтаълим мактабларида ўзбек тили ва адабиётидан дарс бериш ва ўқув-методик ишларни олиб бориш;

– ЎМКҲТ тизимининг мос таълим муассасаларида тайёргарлик йўналишида назарда тутилган ўқув фанлари бўйича назарий машғулотларни ўтказиш;

– ЎМКҲТ тизимининг мос таълим муассасаларида тайёргарлик йўналишида назарда тутилган ўқув фанлари бўйича амалий ва лаборатория машғулотларини ўтказиш;

– замонавий ахборот ва педагогик технологиялардан фойдаланиб ностандарт ўқув машғулотларини ишлаб чиқиш ва ўтказиш;

– ўқитилаётган фанлар бўйича дарсларни ўтказиш учун зарур бўлган ўқув-методик ҳужжатларни шакллантириш ва тузиш;

– ўқитилаётган фан бўйича машғулотларни ўтказиш учун ўқитишнинг техник воситаларини ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланиш;

– мустақил таълим ва ижодий қидирув натижасида ўқитилаётган фан ҳамда педагогик фаолият соҳасидаги методлар, воситалар ва шакллар жабҳаларида ўз-ўзини мунтазам такомиллаштириб бориш.

ОАВ да мухбирлик, ноширлик ва муҳаррирлик фаолияти:

– оммавий ахборот воситаларида мухбирлик ва муҳаррирлик;

– нашриёт ва таҳрир соҳасида мусаҳҳиҳ ва муҳаррир;
– ноширлик муассасаларида таржимон ва адабий ходим;
– архив ва адабиёт музейларида экскурсовод, илмий ходим;
– театрда адабий эмакдош.

Адабий-танқидий фаолият:

-матбуотда эълон қилинган асарларни тақриз қилиш;
-адабий жараён масалалари ва бадиий асарларни таҳлил қилиш;
-илмий-адабий жараёнда фаол иштирок этиш.

Ташкилий-бошқарув фаолияти:

– филологик фаолият сифатини бошқариш жараёнларини ишлаб чиқиш ва тадбиқ қилиш;
– педагогик жараёнларни амалга ошириш учун зарур бўлган ресурсларни режалаштириш;
– замонавий ахборот технологиялари тизимини яратиш ва уларнинг эксплуатацияси билан боғлиқ бўлган ишлаб чиқариш жараёнлари мониторинги ва сифатини баҳолаш усуллари ва механизмларини ишлаб чиқиш;
– атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва меҳнат хавфсизлиги талабларига мос келиши борасида ишлаб чиқариш жараёнларини назорат қилишда иштирок этиш.

4.5 Таълимни давом эттириш имкониятлари

Бакалавр касбий тайёргарликдан кейин турдош таълим йўналишларининг магистратура мутахассисликлари бўйича таълимнинг ваколатли давлат органи томонидан аниқланадиган икки йилдан кам бўлмаган муддатда магистратурада ўқишни давом эттириши мумкин.

Педагогик фаолиятни олиб борганда ўз малакасини ҳар уч йилда ошириб туриши керак.

5 Бакалаврнинг таёргарлик даражасига қўйиладиган талаблар

5.1 *5120100 – Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили*) таълим йўналиши бўйича битирувчи қуйидаги **умумий малакавий компетенцияларни** эгаллаган бўлиши керак:

а) умумий малакавий компетенциялар:

- интеллектуал, маданий, маънавий, жисмоний ва касбий ўз-ўзини ривожлантириш ва такомиллаштириш қобилиятига эга бўлиши ва бу қобилиятни амалда қўллай билиши;
- тарихий мерос ва маданий анъаналарга ҳурмат ва эҳтиром билан муносабатда бўлиши, ижтимоий ва маданий фарқларни толерантлик билан қабул қилиши;
- тарихий жараённи юритувчи кучларни ва унинг қонуниятларини тушуниши; тарихда зўравонлик ва зўравонлик қилмасликнинг роли, тарихий жараёнда, жамиятнинг сиёсий тузилмасида инсоннинг ўрнини тушуниши;
- ўзининг шахсий дунёқараши орқали ижтимоий ва шахсий каби аҳамиятга эга бўлган муаммоларни тушуниши ва уларни таҳлил қилиши;
- ўз фаолиятида меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлардан фойдалана билиши;
- ахлоқий ва ҳуқуқий меъёрлар ҳамда мажбуриятларни ҳисобга олган ҳолда мақсадга эришишда қатъият кўрсатиши;
- фикрлаш маданиятини эгаллаган бўлиши, оғзаки ва ёзма нутқини аргументланган ҳолда аниқ баён қилиш қобилиятига эга бўлиши;
- эгалланган тажрибани танқидий кўриб чиқиш қобилияти, зарур бўлганда ўз касбий фаолиятининг тури ва характерини ўзгартириши;
- ҳаёт фаолияти хавфсизлиги шароитларини умумий баҳолашга қобил бўлиши, ишлаб чиқариш ходимлари ва аҳолини бўлиши мумкин бўлган авариялар, ҳалокатлар, табиий офатлардан ҳимоя қилиш асосларини ва шикастлашнинг замонавий воситаларини қўллаши, улар оқибатларини бартараф қилишнинг асосий тадбирларини қўллай билиши;
- касбий фаолиятда табиий-илмий фанларнинг асосий қонунларидан фойдаланиш, математик таҳлил ва моделлаш, назарий ва эксперимental тадқиқот методларини қўллаш қобилиятига эга бўлиши;
- бугунги замонавий ахборот технологиялари даврида жамиятнинг ривожланишиидаги ахборот технологияларининг моҳияти ва аҳамиятини тушуниш, бу жараёнда вужудга келадиган хавф ва таҳдидларни англаш, информацион хавфсизликнинг асосий талабларига, жумладан, давлат сирини ҳимоя қилиш талабларига риоя қилиш қобилиятига эга бўлиши;
- интернет тармоғидан ахбротларни олиш, сақлаш, қайта ишлашнинг асосий методлари, усуллари ва воситаларига эга бўлиши, ахборотни бошқариш воситаси сифатида компьютер билан ишлаш кўникмаларига эга бўлиши;
- глобал компьютер тармоқларида маълумотлар билан ишлаш қобилиятига эга бўлиши;
- сўзлашувдан кам бўлмаган даражада битта хорижий тилни эгаллаган бўлиши;
- мустақил равишда жисмоний тарбия ва соғлиқни мустаҳкамлашдан методик тўғри фойдаланиш воситаларини эгаллаган бўлиши, тўлақонли ижтимоий ва касбий фаолиятни таъминлаш учун жисмоний тайёргарликнинг керакли даражасини эгаллашга тайёр бўлиши керак.

б) касбий компетенциялар, жумладан:

Умумкасбий компетенциялар:

- касбий фаолиятда тил ва адабиёт билимларини ўзлаштиришда замонавий методларини қўллаш қобилиятига эга бўлиши;
- тилшунослик, адабиётшунослик ва фольклоршунослик соҳаларини моделлаш ва таҳлил қилишда ҳамда уларни ҳисоблашда замонавий ҳисоблаш воситаларидан фойдаланиш қобилиятига эга бўлиши;
- бадиий асарни лисоний ва адабий таҳлил қилиш қобилиятига эга бўлиши;
- таҳлил жараёнида замонавий метод ва усулларни ишлатиш қобилиятига эга бўлиши;
- бажарилаётган тадқиқотлар мавзуси бўйича фаолиятнинг ишлаб чиқариш ва технологик масалаларини фан ва техниканинг замонавий ютуқларини ҳисобга олган ҳолда касбий ечиш қобилиятига эга бўлиши;
- инсон соғлигини ва унинг ишчанлик қобилиятини сақлаш бўйича ҳамда меҳнат жараёнида хавфсизликни таъминлаш бўйича методика ва тадбирларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш қобилиятига эга бўлиши;
- ишлаб чиқаришда меҳнат хавфсизлиги бўйича мутахассисларга қўйиладиган талабларни ишлаб чиқиш қобилиятига эга бўлиши керак.

Илмий ва илмий-тадқиқот фаолиятида:

- филология соҳасида илмий текшириш институтларида илмий ходим, тадқиқотчи; намунавий методикалар ва бошқалар бўйича экспериментал тадқиқотларни ўтказиш ва уларнинг натижаларига ишлов бериш; илмий-техникавий ҳисоботлар ва тушунтириш хатларини ишлаб чиқиш; ўтказилаётган тадқиқотлар мавзуси бўйича илмий обзорларни ишлаб чиқиш, рефератлар ва библиографияларни тузиш;
- илмий семинарлар, илмий-техникавий конференциялар ишида маърузачи, муҳокамаларда қатнашувчи ва референт сифатида иштирок этиш; илмий-техникавий ва соҳага оид журналларга мақола ва тақризлар тайёрлаш.
- Интернет тармоғида энг янги илмий, адабий ва лисоний янгиликлар, янги педагогик технологиялар ва эксплуатацион ютуқлар ҳақидаги маълумотларни мақсадга йўналган ҳолда қидириш ва топиш қобилиятига эга бўлиши; илмий-тадқиқот ва ишлаб чиқариш жамоаси таркибида (тайёрланганлик соҳага мос равишда) касбий фаолият масалаларини ечиш қобилиятига эга бўлиши керак.

ЎМКҲТ тизимининг мос таълим муассасаларида педагогик фаолиятда:

– умумтаълим мактабларида ўзбек тили ва адабиётидан дарс бериш ва ўқув-методик ишларни олиб бориш; ЎМКҲТ тизимининг мос таълим муассасаларида тайёргарлик йўналишида назарда тутилган ўқув фанлари бўйича назарий машғулотларни ўтказиш;

– ЎМКҲТ тизимининг мос таълим муассасаларида тайёргарлик йўналишида назарда тутилган ўқув фанлари бўйича амалий ва лаборатория машғулотларини ўтказиш; замонавий ахборот ва педагогик технологиялардан фойдаланиб ностандарт ўқув машғулотларини ишлаб чиқиш ва ўтказиш; ўқитилаётган фанлар бўйича дарсларни ўтказиш учун зарур бўлган ўқув-методик ҳужжатларни шакллантириш ва тузиш;

– ўқитилаётган фан бўйича машғулотларни ўтказиш учун ўқитишнинг техник воситаларини ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланиш; мустақил таълим ва ижодий қидирув натижасида ўқитилаётган фан ҳамда педагогик фаолият соҳасидаги методлар, воситалар ва шакллар жабҳаларида ўз-ўзини мунтазам такомиллаштириб бориш.

ОАВ да мухбирлик, ноширлик ва муҳаррирлик фаолиятида:

– оммавий ахборот воситаларида мухбирлик ва муҳаррирлик ишларини амалга ошириш, мустақил мақола, кўрсатув ва эшиттиришлар тайёрлаш қобилиятини шакллантириш;

– нашриёт ва таҳрир соҳасида бадиий ва илмий асарларни, соҳага оид рисола ва монографиялар бўйича мусаҳҳиҳ ва муҳаррирлик фаолиятини амалга ошириш;

– ноширлик муассасаларида таржимон ва адабий ходим бўлиб фаолият юритиш;

– архив ва адабиёт музейларида экскурсовод, илмий ходим сифатида ишлаш ва соҳага оид иш жараёнини ташкил қилиш;

– театрда адабий эмакдош сифатида сценарийларни ўқиш, таҳрир қилиш ва режиссёр ҳамда актёрларга бадиий асар моҳиятини тушунтириш.

Адабий-танқидий фаолиятда:

- матбуотда эълон қилинган асарларни тақриз қилиш, уларга матбуот орқали муносабат билдириш ва бадиий мукаммал асарларни ёшларнинг маънавий тарбиясига жалб қилиш;
- адабий жараён масалалари ва бадиий асарларни таҳлил қилиш ва ўз хулосаларини матбуот, илмий нашрларда эълон қилиш;
- илмий –адабий жараёнда фаол иштирок этиш.

Ташкилий-бошқарув фаолиятида:

– филологик фаолият сифатини бошқариш жараёнларини ишлаб чиқиш ва тадбиқ қилиш; педагогик жараёнларини амалга ошириш учун зарур бўлган ресурсларини режалаштириш;

– замонавий ахборот технологиялари тизимини яратиш ва уларнинг эксплуатацияси билан боғлиқ бўлган ишлаб чиқариш жараёнлари мониторинги ва сифатини баҳолаш усуллари ва механизмларини ишлаб чиқиш;

– атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва меҳнат хавфсизлиги талабларига мос келиши борасида ишлаб чиқариш жараёнларини назорат қилишда иштирок этиш.

5.2 Таълим дастурлари бўйича бакалаврларнинг билим, малака ва кўникмаларига қўйиладиган талаблар

5.2.1 Гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар бўйича талаблар

Гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар қисми бўйича талаблар Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги тасдиқлаган «*Гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар*» блоки бўйича бакалаврлар тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлар мазмунига қўйилган талаблар» асосида белгиланади.

5.2.2 Математик ва табиий-илмий фанлар бўйича талаблар

Бакалавр:

– математика дунёни билишнинг ўзига хос усули, унинг тушунчалари ва тасаввурларининг умумийлиги;

– сонлар ва мулоҳазалар математикаси асослари;

– комбинатор математика ва графлар назарияси асослари;

– эҳтимоллар назарияси ва математик статистика асослари;

– маълумот ўлчовлари, сифатлари, таснифлари;

– маълумотларни қабул қилиш, сақлаш, қайта ишлаш ва узатиш муаммолари;

– компьютердан фойдаланиш ва компьютерда дастурлар тузиш;

– компьютернинг тузилиши (қурилмалари);

– операцион тизимлар (MSDOS, Microsoft Windows);

– амалий дастурлар (Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft Power Point ва Microsoft Paint);

– алгоритм асосларида компьютернинг ишлаш принциплари, алгоритмик амаллар кетма-кетлигини тузиш ва жараёнларни ҳаётга татбиқ этиш;

– дастурлаш (программалаш) тиллари;

– табиий тиллар грамматикасидаги муаммолар;

– ўзбек тилининг ахборот услуби;

– табиий тилларда стандартлашув, оптималлашув жараёнлари;

– умумий лингвистиканинг формал ва аксиоматик назариялари;

– лингвистик масалаларни ечишнинг компьютер дастурларини ишлаб чиқиш;

– тилларга ўқитиш, билимларни баҳолаш, матнларни таҳрирлаш ва компьютер таржимаси дастурлари*;*

– организм ва муҳитнинг ўзаро таъсири, организмлар мажмуаси, экотизимлар;

– табиатни муҳофаза қилишнинг экологик тамойиллари ва табиатдан мақсадга мувофиқ фойдаланиш, табиатни бузмас технологиялар яратишнинг келажаги;

– табиатшуносликнинг энг янги кашфиётлари, техник қурилмалар яратишда улардан фойдаланиш истиқболлари;

– физик, кимёвий ва биологик моделлаш;

– инсон биоижтимоий табиатининг биосфера билан бирлиги нуқтаи назаридан ўз касбий фаолиятининг оқибатлари ***ҳақида тасаввурга эга бўлиши;***

– математика фанининг предмети;

– ижтимоий соҳалардаги математик моделлар ишлаб чиқилиши;

– ўзбек тили грамматикасини формаллаштириш муаммолари;

– комбинатор математика асослари, комбинаториканинг асосий қоидалари;

– чекли тўпламлар. Чекли тўпламлар устида амаллар. Ўзаро бир қийматли мослик;

– графлар назарияси асослари. Граф тарифи. Учлар ва қирралар. Графнинг геометрик интерпритацияси. Қўшничилик ва тегишлилик. Уч даражаси. Граф ости. Тўлиқ граф. Қўшничилик ва тегишлилик матрицалари;

– эҳтимоллар назарияси. Тасодифий ҳодисалар учун элементар модел. Ҳодиса ва улар устида амаллар. Ҳодисанинг статистик, классик ва геометрик таърифи. Ҳодиса ва эҳтимолнинг аксиомтик таърифи. Эҳтимоллар фазоси. Эҳтимолни ҳисоблаш формулалари. Шартли эҳтимол. Ҳодисаларнинг боғлиқлиги. Тўла эҳтимол формуласи;

– математик мантиқ асослари. Мантиқ функциялари. Мантиқ функцияларининг берилиш усуллари. Мукаммал дизъюнктив нормал форма. Тўлиқлик. {&, V, -} системанинг тўлиқлиги;

– файллар билан ишлаш. Файлларни кўчириш ва нусхасини олиш. Файл номини ўзгартириш. Файлларни йўқотиш. Файллар ҳақида маълумотни кўриш. Файлларни излаш. Каталог (папка) ҳосил қилиш. Ҳужжатни очиш ва сақлаш;

– компьютер вирусларидан ҳимоялаш. Компьютер вируси намоён бўлиши. Вируслардан ҳимояланишнинг асосий воситалари. Вируслар билан курашувчи баъзи программалар (антивируслар);

– Windows операцион тизимида ишлаш;

– амалий дастурлар (Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft Power Point Microsoft Paint) билан ишлаш;

– механика, электр ва магнетизм, тебранишлар ва тўлқинлар, квант физикаси, статистик физика ва термодинамика, кимёвий тизимлар, моддаларнинг реакцияга мойиллиги, кимёвий идентификация, экологиянинг асосий тушунчалари, қонунлари ва моделлари;

– физика, назарий механика, кимё ва экологиядаги назарий ва тажрибавий тадқиқот усуллари;

– инсон атроф-муҳитини физик, кимёвий ва биологик ҳодисаларнинг зарарли таъсирларидан ҳимоя қилиш воситалари ва усулларини ***билиши ва улардан фойдалана олиши;***

– Windows операцион тизимида ишлаш. Масалалар панели. Асосий меню (Start menu). Улардан фойдаланиш;

– файлларни кўчириш ва нусхасини олиш. Файл номини ўзгартириш. Файлларни йўқотиш. Файллар ҳақида маълумотни кўриш. Файлларни излаш. Каталог (папка) ҳосил қилиш. Ҳужжатни очиш ва сақлаш;

– компьютер вирусларидан ҳимояланишнинг асосий воситаларидан фойдаланиш;

– компьютер вируслари. Функция ва буйруқлар. Ойналар билан ишлаш;

– амалий дастурлар (Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft Power Point Microsoft Paint) билан ишлаш;

– pascal дастурлаш тилида ишлаш;

– табиий тиллар формал назарияси (ўзбек тили мисолида). Ўзбек, рус ва инглиз тилларини қиёсий таҳлил қилиш;

– ўзбек тилининг ахборот услуби;

– лексикология ва морфологияда формаллаштириш (сўз, сўз маънолари, сўз туркумлари, қўшимчалар, сўз ясаш жараёни);

– синтаксисда формаллаштириш (гап бўлаклари, гап конструкциялари);

– ўзбек тили грамматикасининг аксиоматик назарияси. Ўзбек тили грамматикасининг символлари, формулалари, аксиомалари, келтириб чиқариш қоидалари, теоремалари бўйича;

– ўзбек тили грамматикасининг аксиоматик моделини ривожлантириш йўллари бўйича;

– ўзбек тили грамматикасини ривожлантириш истиқболларини аниқлаш;

– лингвистик масалаларни компьютер воситасида ечиш йўллари;

– компьютерда лингвистик масалаларни ечиш муаммолари. Лингвистик масалани бирламчи қўйилиши, математик тилда қўйилиши, ечиш алгоритми, ечиш дастури, компьютерда масалани ечиш;

– табиий тилларнинг компьютер луғатлари (туб сўзлар ва ясама сўзлар, атоқли отлар ва географик номлар, сўз ҳақида грамматик маълумотлар, синонимлар, сўз шакллари)дан фойдаланиш;

– тилларга ўқитиш ва билимларни баҳолаш алгоритмлари;

– матнларни таҳрирлаш алгоритмлари (механик, имло ва шевага хос, грамматик, услубий хатолар);

– компьютерда инглизча-ўзбекча, ўзбекча- инглизча таржима алгоритми (гапни таҳлил қилиш, таржима қилиш);

– ўзбек тилида феълнинг тусланиши. Анализ ва синтез дастурлари;

– лингвистик компьютер дастурларини такомиллаштириш;

– физик, кимёвий ва биологик моделларни текшириш;

– ишлаб чиқариш жараёни ва техник воситаларда физик, кимёвий, биологик тизимларнинг энг оддий моделларидан фойдаланиш;

– табиий фанларнинг турли соҳаларида қўлланадиган сонли кўрсаткичлар катталиклари тартибини қўллай олиш ***кўникмаларига эга бўлиши керак.***

5.2.3 Умумкасбий фанлар бўйича талаблар

Бакалавр:

– ўзбек шеваларининг тарқалиши ва таснифи;

– ўзбек шеваларининг фонетик- грамматик хусусиятлари;

– шева ва адабий тил муносабати, ўзбек адабий тилининг шаклланиш ва тараққиёт қонуниятлари;

– ўзбек тилининг асосий шевалари;

– тил сатҳларининг таркиби, имло қоидалари;

– ҳозирги ўзбек адабий тили морфемикаси, сўз ясалиши, семасиологияси, фонетикаси, лексикологияси, морфологияси, синтаксиси, пунктуацияси;

– қадимги туркий тил ва унинг асосий манбалари;

– қорахонийлар даври адабий тили ва манбалари;

– чиғатой адабий тили ва манбалари;

– XIX- XX аср ўзбек адабий тили ва манбалари;

– тилшунослик фанининг тарихи;

– тилшунослик методлари;

– тилшунослик таълимотлари ва мактаблари;

– замонавий тилшунослик йўналишлари;
– бакалавр талабалар халқ оғзаки ижодининг ўзига хос хусусиятларини билиш, ёзма адабиёт намунасидан оғзаки ижод намунасининг фарқи;
– адабиёт тарихининг маданият тарихидаги ўрни;
– адабиёт тараққиётининг асосий босқичлари;
– мумтоз адабиёт жанрларининг пайдо бўлиши ва тараққиёти;
– янги ўзбек адабиётини мумтоз сўз санъатидан фарқлари;
– янги ўзбек адабиётининг асосий хусусиятлари;
– янги ўзбек адабиётининг тараққиёт босқичлари;
– янги ўзбек адабиётининг йирик намояндалари;
– адабиётшуносликнинг таркибий қисмлари;
– адабиётшуносликнинг бошқа фанлар билан алоқаси;
– адабий назарий тафаккур тараққиёти;
– жаҳон ва туркий халқлар адабиёти тарихи, даврлари;
– жаҳон адабиёти тарихида адабий ижодий методлар;
– жаҳон ва туркий халқлар адабиётининг тараққиёт тамойиллари;
– жаҳон адабиётининг машҳур намоёндалари ижоди;
– танқидчиликнинг адабиётшуносликдан фарқлари;
– ҳозирги адабий жараённинг асосий хусусиятлари;
– ўзбек танқидчилиги ва адабиётшунослигининг йирик намоёндалари ижоди;
– туркий тилларнинг тарқалиши ва таснифлари;
– туркий тилларнинг умумий ва хусусий белгилари;
– замонавий туркий тилларнинг фонетик-грамматик хусусиятларини қиёслаш асослари;
– туркий тилларнинг тарихий ва ҳозирги грамматик категориялари ва уларнинг вариантлари;
– туркий халқлар фольклори;
– туркий халқлар ёзма адабиёти тарихи;
– замонавий туркий халқлар адабиёти;
– она тили ва адабиёт ўқитишнинг принциплари ва методлари;
– она тили ва адабиёт ўқитиш назарияси ва амалиётининг мазмуни;
– она тили ҳамда адабиёт ўқитишнинг замонавий педагогик технологияси асослари ***ҳақида тасаввурга эга бўлиши;***
– шеваларни таснифлаш тамойиллари ва усуллари;
– ўзбек шеваларининг лингвистик географияси;
– ҳозирги ўзбек адабий тилининг тушунчавий-терминологик аппарати;
– ўзбек тили сатҳларининг асосий хусусиятлари;
– ўзбек тили грамматикасини илмий тадқиқ парадигмаси;
– нутқ вариацияси ва синонимияси;
– “Девону луғотит турк”нинг қиёсий туркийшуносликдаги ўрни;
– Хоразм ёдномаларининг тил тараққиётидаги роли;
– Навоий издошларининг адабий тил ривожидаги ўрни;
– тил ва ёзувнинг пайдо бўлиши;
– тил оилалари. Генетик ва морфологик тасниф;
– фонология, фонетика, морфология, синтаксис;
– графика, орфография, орфоэпия, пунктуация;
– халқ оғзаки ижоди жанрларини бир-биридан ажрата олиш, ҳар бир жанрнинг ўзига хослигини изоҳлаш;
– ўзбек мумтоз адабиёти матнларини таҳлил қилиш;
– янги ўзбек адабиётининг етук намуналари;
– алоҳида ёзувчилар ижоди;
– энг янги асарлар матни;
– вақтли матбуот материаллари;
– адабиёт назарияси асослари;
– адабий тур ва жанрлар;
– адабий йўналиш ва ижодий метод масалалари;
– бадиий услуб ва поэтика асослари;
– туркий филологиянинг йўналишлари ва мактаблари;
– қадимги ва ҳозирги туркий тилларнинг ижтимоий мавқеи ҳамда тараққиёт йўллари;
– туркий тилларнинг қиёсий-тарихий ўрганиш метод ва усуллари;
– туркий тиллар фонетик-грамматик хусусиятларидаги ўзгаришлар;

– туркий халқлар адабиётшунослиги тарихини;
– туркий халқлар адабиёти бўйича асл манбаларин;
– она тили ва адабиёт ўқитишнинг мақсад ва вазифалари;
– она тили ва адабиёт таълимини режалаштириш йўллари;
– она тили ва адабиёт дарсларининг турлари;
– она тили ҳамда адабиётидан замонавий дастурлари ва дарсдан ташқари машғулотлар мазмунини ***билиши ва улардан фойдалана олиши;***
– шева материалларини тўплаш, саралаш ва таҳлил қилиш;
– шевага хос матннинг фонетик, лексик ҳамда грамматик белгиларини фарқлаш;
– тилнинг ижтимоий фаолиятга эгалигини аниқлаш;
– тил сиёсати ҳақида фикр билдира олиш;
– луғатлар билан ишлаш;
– тил материалини таҳлил эта олиш;
– адабий тил меъёрлари ва услубларини фарқлаш;
– ҳозирги ўзбек тилининг функционал ҳамда услубий имкониятларидан ижодий фойдалана олиш;
– араб ва форс имлосининг ўзига хос хусусиятларини аниқлаш;
– ўқиш тарзи, сўз ясалиши қоидаларини аниқлаш;
– араб ва форс тиллари грамматикасини қиёслаш;
– қадимги рун, араб ёзувидаги манбаларни фарқлаш;
– араб алифбосидаги матнларни ўқиш;
– манба матнларини транскрипция қилиш;
– араб алифбосида ёзиш.
– араб ва форс имлосида ёзишни билиш;
– сўз ясалиши ва грамматик қоидаларни билиш;
– матнни ўқиш ва тушуниш;
– матнни таржима қилишда луғатдан фойдалана билиш;
– олган билимлари натижасида матнни тўлалигича ўқий билиш;
– матнни тўлиқ таржима қилиш;
– араб ва форс имлосида хатосиз ёза билиш;
– халқ оғзаки ижоди асарларини ғоявий ва бадиий жиҳатдан таҳлил этиш, образлар тизимига тавсиф бера олиш;
– оғзаки ижод асарларини илмий талабларга биноан ёзиб олиш ва унинг паспортини тўлдириш;
– бадиий матнни талқин ва таҳлил этиш;
– ижодкор услубини текшириш;
– мустақил илмий матн ёзиш;
– антик давр адабиёти ва мифологиясини таҳлил этиш;
– XIX аср жаҳон адабиётидаги реалистик тамойилларни ажрата билиш;
– XX аср жаҳон адабиётининг асосий концепцияси, модернизм, экзистенциализм ва бошқа адабий йўналишларнинг моҳиятини англаш;
– танқид ва адабиётшунослик ютуқлари, ҳозирги ўзбек адабиётининг энг яхши намуналари, бадиий ва танқидий асарлар ҳамда вақтли матбуот материалларини таҳлил эта олиш;
– мумтоз адабиётдаги поэтик санъатларни бир-биридан фарқлай олиш;
– умумтаълим мактабларининг давлат дастурида қайд этилган оғзаки ижод намуналарини синфлар бўйича адабий ўқитиш талабларига биноан ўқувчиларга ўргатиш;
– кўп асрлик ўзбек адабиётининг янгиланиш босқичлари, янги адабиётнинг шакл ва мазмунида юз берган ўзгаришлар, мумтоз ва янги адабиётнинг узвийлиги ҳамда янги адабиёт билан бугунги адабиётнинг боғланишларини тушунтира олиш;
– қўлёзма ва тош босма манбалардан фойдалана билиш;
– адабиёт тарихига оид назарий адабиётларни таҳлил қила олиш;
– янги ўзбек адабиёти тараққиётини даврлаштириш;
– бадиий асарлар мазмуни ва шаклий ўзига хослигини аниқлаш;
– жаҳон адабиётида олган билимларини амалий фаолиятда татбиқ этиш;
– адабиётшуносликнинг таҳлил методларидан фойдаланиш;
– тақриз ёзиш;
– илмий асарларни конспект қилиш;
– туркий тилларга хос лисоний ҳодисаларни қиёсий таҳлил эта билиш;
– қадимги ва ҳозирги туркий тилларнинг ўрни ва асосий белгиларини баҳолай олиш;
– туркий тилларга хос лингвистик ҳодисаларни қиёсий-тарихий метод асосида таҳлил этиш;
– тил ҳодисаларини ўзаро фарқлаш ва умумлаштириш йўлларини билиш.
– туркий халқлар адабиёти асл манбаларини ўқиш;

– она тили ва адабиётидан иш режаларини туза олиш;
– она тили ва адабиёти дарсларининг режа конспектини туза олиш;
– дарс машғулотини ва назорат ишларини таҳлил қила олиш ***кўникмаларига эга бўлиши керак.***

5.2.4 Ихтисослик фанлари бўйича талаблар

Бакалавр:

– филология соҳасидаги асосий муаммоларни тушуниши;
– ўз ихтисослиги доирасида муайян тадқиқот соҳасининг объектлари;
– асосий объект ва жараёнларга нисбатан шахсий илмий филологик муносабатлар;
– филологик муаммолар ва уларни ҳал қилиш йўллари ***ҳақида тасаввурга эга бўлиши;***
– ихтисослик фанларининг тушунчавий аппарати;
– ихтисослик фанларининг метод ва усуллари;
– ихтисослик фанларининг илмий-тадқиқ мавзуларини ***билиши ва улардан фойдалана олиши;***
– бадиий-лисоний таҳлил этиш;
– ўзбек тили ва шевалари намуналарини ёзиб олиш, тўплаш ва нашрга тайёрлаш;
– ўзбек адабиёти намуналарини ўқиш, таржима ва таҳрир қилиш ***кўникмаларига эга бўлиши керак.***

Бакалавр махсус тайёргарлигига аниқ талаблар олий таълим муассасаси томонидан белгиланилади. Бунда махсус курс блоки мазмунидан келиб чиқилади.

Бакалавр ихтисослигига қўйиладиган муайян талаблар кадрлар буюртмачиларининг талаблари ва бакалаврлар тайёрлашнинг ушбу йўналиши бўйича фан, техника ва технологияларнинг замонавий ютуқлари ҳисобга олинган ҳолда олий таълим муассасаси томонидан белгиланади

6 Таълим дастурининг мазмуни ва компонентлари

6.1 ***5120100 – Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили*****)** таълим йўналиши бўйича бакалаврларни тайёрлашнинг таълим дастури таълимнинг кундузги шакли бўйича 4 йил ўқишга мўлжалланган бўлиб, қуйидаги вақт тақсимотига эга:

Назарий ва амалий таълим	136 ҳафта
Малакавий амалиётлар	16 ҳафта
Битирув малакавий иш	5 ҳафта
Жорий ва давлат аттестациялари	19 ҳафта
Таътиллар	28 ҳафта
Жами	**204 ҳафта**

6.2 Талаба ҳафталик ўқув юкламасининг максимал ҳажми 54 соат, шундан аудиториядаги ўқув юкламаси – 32 соат, қолган соатлар ҳажми мустақил таълим учун ажратилади.

6.3 Жорий, оралиқ ва якуний аттестацияларни ҳисобга олган ҳолда таълим дастурининг умумий ҳажми 4 йиллик ўқув даври учун ҳафталик ўқув юкламалардан келиб чиққан ҳолда белгиланади.

6.4 Таълим дастурини ўзлаштиришда бир қатор масалалар ёки интеграллаштирилган курслар муаммолари бўйича талабаларнинг мустақил таълими кўзда тутилади.

6.5 ***5120100 – Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили*****) таълим йўналиши бўйича таълим дастурининг зарурий мазмуни**

6.5.1 Гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар

Гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанларнинг зарурий мазмуни «Гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар» блоки бўйича бакалаврлар тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлар мазмунига қўйилган талаблар» асосида белгиланади.

6.5.2 Математик ва табиий-илмий фанлар

6.5.2.1 Олий математика:

Элементар математика асосий тушунчалари. Ҳақиқий сонлар. Рационал ва иррационал сонлар, хоссалари. Кўпҳадлар. Кўпҳадлар устида амаллар, қисқа кўпайтириш формулалари. Чизиқли ва квадрат тенгламалар, тенгсизликлар. Текис фигуралар, хоссалари, юзалари. Тригонометрия элементлари.

Текисликда аналитик геометрия. Текисликда аналитик геометриянинг содда масалалари: икки нуқта орасидаги масофа; кесмани берилган нисбатда бўлиш; учбурчакнинг юзини ҳисоблаш. Тўғри чизиқнинг турли хил тенгламалари. Тўғри чизиқларга доир асосий масалалар: икки тўғри чизиқ орасидаги бурчак, паралеллик ва перпендикулярлик шартлари, нуқтадан тўғри чизиққача масофа, икки параллел тўғри чизиқ орасидаги масофа. Координаталарни алмаштириш: қутб координаталари, параллел кўчириш ва ўқларни буриш. Иккинчи тартибли чизиқлар: айлана, эллипс, гипербола, парабола ва уларнинг каноник тенгламалари. Иккинчи тартибли чизиқлар классификацияси. Иккинчи тартибли чизиқларни каноник кўринишга келтириш.

Олий алгебра элементлари. Детерминантлар ва уларнинг хоссалари. Крамер қоидаси ва Гаусс усули. Матрицалар, матрица устида амаллар. Тескари матрица. Чизиқли системани матрицавий усулда ечиш. Комплекс сонлар ва уларнинг формалари. Муавр формулалари. Алгебранинг асосий теоремаси. Кубик ва тўртинчи даражали тенгламаларни ечиш: Кардано формуласи ва Феррари усули. Юқори даражали

тенгламаларнинг рационал илдизлари. Виет теоремалари. Горнер схемаси. Рационал касрларни оддий касрларга ёйиш.

Тўпламлар ва функциялар. Лимит. Тўпламлар ва улар устида амаллар. Элементар функциялар, уларнинг аниқланиш ва ўзгариш соҳалари. Элементар функциялар, турлари ва кетма-кетликлар. Кетма-кетлик ва функция лимити. Узлуксизлик, узилиш турлари. Ажойиб лимитлар.

Функция ҳосиласи ва дифференциали. Функция ҳосиласи. Ҳосиланинг геометрик, иқтисодий ва механик маънолари. Ҳосила ҳисоблаш қоидалари. Ҳосилалар жадвали. Юқори тартибли ҳосила. Дифференциал. Дифференциаллаш жадвали ва ҳисоблаш қоидалари. Ҳосила тушунчасининг иқтисоддаги тадбиқлари.

Функцияни тўлиқ текшириш. Дифференциал ҳисобнинг асосий теоремалари. Ферма, Ролль, Лагранж, Коши теоремалари ва иқтисодий мазмуни. Тейлор ва Маклорен формулалари. Лопитал қоидалари. Функцияларни текшириш: ўсиш ва камайиши, экстремумлари, ботиқлик ва қавариқлиги, асимптоталари. Экстремум топиш қоидалари. Экстремумга доир масалалар.

Аниқмас интеграл. Аниқмас интеграл. Аниқмас интеграл жадвали. Ўзгарувчиларни алмаштириш ва бевосита интегралаш. Кўп учрайдиган интегралар. Бўлаклаб интегралаш. Рационал касрларни интегралаш. Алгебраик иррационалликларни интегралаш. Эйлер алмаштиришлари. Биномиал дифференциал интеграли. Тригонометрик функцияларни интегралаш.

Аниқ интеграл. Аниқ интеграл, хоссалари. Эгри чизиқли трапеция юзи. Ньютон-Лейбниц формуласи. Аниқ интегралда интегралаш усуллари. Хосмас интегралар. Ёй узунлиги, жисм ҳажми, сирт юзасини ҳисоблаш.

6.5.2.2 Информатика:

Информатика ва ахборот технологиялари бўйича асосий тушунчалар. Информатика фани тарихи ва ҳозирги ҳолати. Замонавий ахборот технологиялари ва уларнинг ҳозирги жамиятда тутган ўрни. Замонавий ЭХМларнинг тузилиши, ишлаш принциплари, архитектураси. Компьютерларнинг техникавий таъминоти. Компьютернинг асосий ва қўшимча қурилмалари (принтер, монитор, сканер, модемлар, товуш, тасвир карталари ва бошқалар).

Компьютернинг дастурли таъминоти. Система дастурлари. Амалий дастурлар. Компьютер тили. Опреацион системалар. Компьютер ишлашини таъминлайдиган бошқарувчи дастурлар. Драйверлар. Маълумотларни ташкил қилиш ва сақлашнинг файл системаси. Дисклар, каталоглар ва файллар. Файл номи. Файлга йўл. Файл ва папкаларни излаш.

Замонавий Windows дастурлари муҳитида ишлаш. Windows операцион системалари. Windowsнинг ишлаш шартлари. Унинг афзалликлари ва камчиликлари. Иш столи ва унинг элементлари. Масалалар панели, уни созлаш ва панелдаги белгилар. Windowsнинг меню системаси. Асосий меню ва унинг таркиби. Контекст меню ва у билан ишлаш. Менюдаги шартли белгилар. Windows да ишлашни оптималлаштирувчи программалар. Дискни текшириш ва дефрагментация қилиш. Windowsнинг созловлари билан ишлаш. Windows да файл ва папкалар билан ишлаш. Проводник.

Windowsнинг мультимедиа имкониятлари. Windows мультимедиа имкониятлари ва улардан фойдаланиш қоидалари. Мультимедиа обектлар яратиш ва улар билан ишлаш.

Файлларни архивлаш ва компьютер вирусларидан ҳимояланиш. Файлларни архивлаш ва очиш турлари, зарурияти. Вируслар ва улардан ҳимояланиш чоралари. Антивирус дастурлари.

MS Wordда ҳужжатлар билан ишлаш. MS Wordда Дарчалар билан ишлаш. Иш соҳаси. Асосий асбоб тугмачалари. Матнни ажратиш. Матнни форматлаш амаллари. Ҳужжатни таҳрирлаш. MS Wordда объектлар билан ишлаш. MS Wordда графика. «Рисование» панели билан ишлаш. WordArt объектлари. MS Wordда жадваллар билан ишлаш. MS Wordда оддий веб-саҳифалар яратиш. MS Wordнинг сервис имкониятлари .

MS Power Point программаси ёрдамида кўргазмалар яратиш. MS PowerPoint муҳаррири. Вазифалари. Ойнасининг ташкил этувчилари. Слайдлар билан ишлаш. Шаблон ва фон. MS PowerPoint да объектлар билан ишлаш, Анимация ўрнатиш. Кўргазмалар тайёрлаш. Бошқарув тугмалари. MS Power Pointда оддий веб-саҳифалар яратиш.

MS Excel электрон жадвалда ишлаш. MS Excel дарчасининг тузилиши. Катакчалар билан ишлаш. Уларнинг абсолют ва нисбий манзиллари. Ўлчамлари. Варақлар билан ишлаш. Маълумотларни киритишнинг автоматик йўллари. Сатр ва устунлар устида амаллар бажариш. Функция ва формулалар билан ишлаш. Диаграммалар. Маълумотларни тартиблаш ва фильтрлаш.

График муҳаррирлар. Векторли ва растрли компьютер графикаси. Paint, Adobe Photoshop дастурлари. Paint дастуридан фойдаланиш. Paint ойнаси элементлари, асбоблар панели, ранглар палитраси. Adobe Photoshopда тасвирларни қайта ишлаш. Қатламлар ва ранглар палитраси. Фильтрлар билан ишлаш.

Компютер тармоқлари. Тармоқда ишлаш. Internet ва электрон почта. Локал ва глобал компьютер тармоқлари. Интернет манзиллари, қайдномалари. Замонавий Мижоз-сервер технологиялари. Турли типдаги файллар билан ишлаш. Тармоқда маълумотларни излаш тизимлари. Электрон почта.

Web саҳифалар ва ҳужжатлар яратиш ҳамда улар билан ишлаш. World Wide Web (WWW) га кириш. HTML тили. Web сайт таркиби ва уни яратиш. Гипермурожаат. Web-сайт элементлари. Web-ҳужжатларни автоматик қайта ишлаш учун FrontPage дастури. FrontPageда Web-сайт яратиш. Гипермурожаат ҳосил қилиш.

Масофали таълим. Масофали таълим тўғрисида умумий тушунчалар, имкониятлари ва афзаллик томонлари. Масофали таълимнинг элементлари. Электрон дарсликлар.

Таржимон программалари ва улардан фойдаланиш. Promt туркумидаги дастурлар. Автоматик таржима ва унинг созловлари. Маълумотларни авто-таржима қилиш.

Ахборотларни ҳимоялаш. **Маълумотларни ҳимоялаш усуллари. Internetда хавфсиз ишлашни ташкил қилиш. Криптографик усуллар. Интернетда ахборот ҳавфсизлиги масалалари**

6.5.2.3 Демография асослари:

Демографиянинг назарий асослари. Демографик тадқиқотлар услублари ва усуллари. Демографиянинг фанлар тизимида тутган ўрни ва алоқалари. Демографик терминлар ва тушунчалар. Демографиянинг тарихий шаклланиши. Демографик жараёнлар ва уларнинг ривожланиш қонуниятлари. Демография, геодемография, демогеография. Аҳоли географияси ва демография.

Аҳоли ҳақида маълумотлар ва уларнинг манбалари. Аҳоли рўйхатлари ва уларнинг ташкил этилиши. Жорий аҳоли ҳисоби. Доимий аҳоли ва мавжуд аҳоли. Аҳоли зичлиги ва унинг минтақавий хусусиятлари.

Урбанизация ва унинг демографик асослари ва географияси. Аҳоли миграцияси, унинг турлари ва йўналишлари. Жаҳон аҳолиси, Ўрта Осиё ва Ўзбекистон аҳолиси.

Демографик жараёнлар. Аҳолининг жинс, ёш, ирқий, миллий, ижтимоий таркиби. Аҳоли ва унинг кўрсаткичлари. Демографик коэффициентлар: умумий ва махсус, уларнинг турлари ва ҳисоблаш усуллари. Аҳолининг табиий ҳаракати. Туғилиш, ўлим, никоҳ, ажралиш. Болалар ўлими ва унинг омиллари. Репродуктив майл. Никоҳда ва никоҳсиз туғилиш. Табиий кўпайиш ва аҳоли такрор барпо бўлиши. Оила таркиби ва вазифалари. Оиланинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши.

Демографик прогноз. Аҳоли умумий сонини прогноз қилиш. БМТ прогнозлари. Прогнозларнинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти.

6.5.2.4 Ўлкашунослик:

Кириш. Курснинг ўрганиш объекти, предмети, мақсади ва вазифалари. География фанлари системасида ўлкашуносликнинг ўрни. Ўлкашуносликнинг турлари, географик ўлкашунослик. Ўлкашуносликнинг тарих, археология, этнография ва топонимика билан алоқалари. Ўлкашуносликнинг ривожланиш тарихи.

Ўлкашуносликнинг асосий манбалари: археологик, этнографик, топонимик манбалар, архив ҳужжатлари ва музей экспонатлари.

Ўлкашунослик ва географик ўлкашуносликнинг ташкилий шакллари: давлат ўлкашунослиги, жамоат ўлкашунослиги, мактаб ўлкашунослиги ва мактабдан ташқари ўлкашунослик. Ўлкашуносликда кузатув ишлари. Экскурсия ва уни ўтказиш босқичлари. Мактаб ўлкашунослиги.

Таълим жараёнида ўлкашунослик материалларидан фойдаланиш. Синфдан ташқари ўлкашунослик ишлари.

Ўлкашунослик музейларини ташкил қилиш.

6.5.2.5 Экология:

Экологик хавфсизлик миллий хавфсизликни ажралмас бир бўлаги эканлиги. Атроф-муҳит муҳофазаси ва табиатдан оқилона фойдаланишга оид давлат сиёсати, дастурлари ва режалари. Халқаро ҳамжамиятнинг умумэътироф этилган ҳуқуқ нормалари орқали экологик маънавиятли ёшларни тарбиялаш замонамизнинг долзарб муаммоларидан бири эканлиги. Экологиянинг назарий-илмий асослари.

Табиат-инсон-жамият муносабатлари ва унинг даврий ривожланишининг оддий, иқтисодий ва экологик муносабат шакллари. Табиат-инсон-жамият муносабатларини уйғунлаштириш зарурати. Экология фанининг келиб чиқиши, тушунчаси, ривожланиш босқичлари, мақсади ва вазифалари. Экологиянинг фанлар ўртасида тутган ўрни, экологик фанлар тизими. Экологияни фанлараро алоқадорлиги ва узвийлик қоидалари. Экологик концепциялар ва принциплар. Экологик хавфсизликни таъминлаш зарурати. Республикамизда экологик хавфсизликни таъминлаш муаммолари. Глобаллашув жараёни, унинг республикамиз учун ижобий ва салбий таъсири.

Экосфера ва Геосфера тушунчаси. Биоценоз, биогеоценоз ундаги боғланишлар. Энергия, озуқа занжири. Экотизим – экологиянинг объекти эканлиги. Экотизимларнинг таснифланиши. Биосфера – глобал экотизим. Ноосфера –“тафаккур қобиғи”. Экотизимларнинг хилма-хиллиги ва уларнинг тузилиши. Продуцентлар, консументлар, редуцентлар – экотизимларнинг функционал бирликлари. Биогеоценоз ҳақида тушунча ва унинг экотизимдан фарқи. Экотизимларда энергия оқими ва унинг ҳосил бўлиши. Экотизимларда фотосинтез жараёни ва биологик маҳсулдорлик. Экотизимларда озиқа занжири ва трофик даражалар. Экотизимларда биокимёвий цикларнинг тузилиши. Экотизимларнинг ривожланиши. Экотизимлар ўзгарувчанлигига организмларнинг мослашуви. Модданинг айланма ҳаракати ва энергия оқими. Экотизимлар барқарорлиги ва динамикаси. Экотизимни белгиловчи кўрсатгичлар. Табиий ва сунъий экотизимлар. Марказий Осиё, жумладан Ўзбекистонда тарқалган экотизимлар.

6.5.2.6 Компьютер лингвистикаси:

Табиий тилларнинг компьютер луғатлари. Туб сўзлар луғатлари. Ясама сўзларни бериш. Атоқли отлар ва географик номлар луғатлари. Тилларга ўқитиш ва билимларни баҳолаш алгоритмлари.

Ўқитиш алгоритмлари. Билимларни баҳолаш алгоритмлари.

Матнларни таҳрирлаш алгоритмлари. Механик, имло ва шевага хос хатолар. Хатоларни топиш алгоритми. Хатоларни тузатиш алгортми.

Компьютерда таржима алгоритми (инглизча-ўзбекча). Инглиз тилидаги гапни таҳлил қилиш алгоритми.

Таржима қилиш алгортми.

Ўзбек тили грамматикасининг аксиоматик назарияси. Ўзбек тили грамматикасининг символлари. Ўзбек тили грамматикасининг формулалари. Ўзбек тили грамматикасининг аксиомалари. Ўзбек тили грамматикасининг келтириб чиқариш қоидалари. Ўзбек тили грамматикасининг теоремалари.

Ўзбек тили грамматикасининг аксиоматик моделини ривожлантириш йўллари.

6.5.3 Умумкасбий фанлар

6.5.3.1 Ҳозирги ўзбек адабий тили:

Адабий тил тушунчаси. Ўзбек адабий тилининг шаклланиш манбалари ва қонуниятлари. Ўзбек адабий тилининг диалектал асослари. Ҳозирги ўзбек адабий тили сатҳлари. Улар орасидаги муносабат.

Назарий фонетика. Фонетика – ўзбек адабий тилининг товушлари тизимини ўрганувчи сатҳ сифатида. Фонология – нутқ товушларини ўрганувчи сатҳ. Ўзбек тилида сўзнинг фонетик структураси ва унинг асосий хусусиятлари. Фонема ва унинг вариантлари. Фонетик ҳодисалар ва уларнинг кўринишлари. Ўзбек тилида урғу, бўғин ва уларнинг турлари. Оҳанг, сўз ва гап оҳанги, шунингдек, унинг хусусиятлари. Ўзбек графикаси тараққиёти. Имло масалалари, ўзбек орфографиясининг асосий тамойиллари. Ўзбек адабий тилининг орфоэпик тизими.

Назарий грамматика. Морфемика – тилнинг морфем структураси ҳақидаги таълимот. Морфемалар таснифи ва хусусиятлари. Сўз ясалиш тизими. Ўзбек тили сўз ясалиш тизими бўйича қарашлар. Морфология – сўз шакллари ҳақида таълимот. Сўзларни туркумларга ажратиш асослари. Сўз туркумларига хос грамматик категориялар. Грамматик шакл ва грамматик маъно тушунчалари.Ўзбек тилининг синтаксис тизими. Сўз бирикмаси ва у ҳақдаги қарашлар. Сўз, гап, сўз бирикмаси муносабатлари. Содда гап синтаксиси. Қўшма гап синтаксиси. Синтаксисда парадигматика ҳамда синтагматика. Шакл ва мазмун муносабати. Синтаксисга формал-функционал ва мазмуний ёндошув.

Семасиология. Лексикология. Сўз маъноларининг тараққиёти. Луғавий бирликларнинг шакл ва маъно муносабатига кўра гуруҳланиши: омонимлар, синонимлар, антонимлар. Атамалар тизимининг шаклланиши, луғатчилик тараққиёти.

Ўзбек тили пунктуацияси тараққиёти. Тиниш белгилари ва уларнинг қўланиш хусусиятлари. Тиниш белгилари ва гап қурилиши хусусияти ўртасидаги боғланиш.

Ўзбек адабий тилининг меъёрий шаклланиши. Адабий тил меъёри тушунчаси.

Тарихий грамматика. Ўзбек тили тарихининг Ўрта Осиё олимлари томонидан ўрганилиши. Маҳмуд Кошғарийнинг «Девону луғотит турк» асари ўзбек тили тарихини ўрганишда асосий манба сифатида. Алишер Навоийнинг «Муҳокаматул- луғатайн» асари туркий (ўзбек) тили тарихини ўрганиш манбаи. Ўзбек тили товушларининг тарихий эволюцияси. Ўзбек тилида сўз таркибининг ўзгариши, тарихий сўз ясалиши ва сўз ясовчи формантлар. Грамматик шаклларнинг тарихий реконструкцияси. Ўзбек тилида гап қурилишининг тарихий кўринишлари ва хусусиятлари.

Стилистика асослари. Нутқ услублари, унинг адабий тил меъёрларига муносабати. Нутқ услублари таснифи, услуб турларининг қўлланиш хусусиятлари. Нутқ услубларининг тил материаллари: лексикаси, грамматик шакллари. Услубий синонимия. Расмий-идоравий услубнинг такомили масалалари. Услубларнинг қиёсий ўрганилиши, уларда қўлланган воситалар тадқиқи. Услубларда тил бириликларининг имкониятларини ўрганиш

Амалий фонетика. Ўзбек тили нутқ товушлари таснифи. Талаффузда юз берадиган фонетик ҳодисалар. Товуш ва ҳарф муносабати таҳлили. Акцентуация, интонация ва бошқалар билан боғлиқ ҳодисалар. Фонологик таҳлил кўникмаси ва малакасини шакллантириш. Имло ва орфоэпия муносабатидаги умумий ҳамда хусусий жиҳатлар, уларнинг адабий тил меъёрига муносабатини аниқлаш.

Амалий грамматика. Сўз таркиби таснифи, сўзнинг маъноли қисмларга ажратиш, морфемаларнинг функционал-семантик, стркутуравий, позицион тавсифи. Грамматик маъно ва грамматик шакллардаги алоқадорликларни фарқлаш. Грамматик категориялар оппозицияси, синонимияси. Сўз туркумларини ажратиш, уларнинг гапдаги вазифасини белгилаш тамойиллари, сўз туркумларининг кўчиши.

Сўз бирикмаси ва сўзларнинг грамматик муносабатга киришиш йўллари, сўзлар ўртасидаги синтактик алоқа типларини ажратиш. Гап тузилиши ҳамда гап турларининг таҳлили. Қўшма гапларни семантик-функционал тавсифлаш ва таҳлил этиш.

Амалий стилистика. Услубларда тил бирликларининг қўлланилиши таҳлили, уларнинг ўзига хос хусусиятлари. Нутқ услублари ўртасида фарқлар ва умумийликни тил материали асосида далиллар. Турли матнлар тадқиқида қиёсий–чоғиштирма методдан фойдаланиш. Тил бирликлари қўлланилишида умумий ҳамда хусусий томонлар таҳлили. Нутқ услубларининг лингвистик таҳлили. Услубий синонимия ва унинг кўринишларини фарқлаш.

6.5.3.2 Тил тарихи:

Тил тарихи ***фани таркибига «Қадимги туркий тил», «Эски ўзбек тили ва ёзуви», «Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси», «Ўзбек адабий тили тарихи» фанлари киради.***

Қадимги туркий тил. **Курснинг тарих, адабиёт, география, халқ оғзаки ижоди, этнография ва уларнинг ҳар бир даври (X асргача) билан боғлиқлиги. Ёзувлар тарихи, хусусан, Ўрта Осиё халқлари ёзувлари тарихи хақида дастлабки маълумот. Қадимий туркий тил, хусусан, руник ва уйғур ёзувлари битиклари тили.**

Эски ўзбек тили ёзуви. ***Араб-форс ёзуви асосида яратилган туркий (эски ўзбек тили) ёзма ёдгорликлар. Уларнинг тил хусусиятларини ўрганиш. Араб хати турлари, рақамлар, абжад ҳисоби, таърих санъати, ёзувнинг ислоҳ қилиниши.***

Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. ***Ўзбек халқи ва тилининг тарихи, унинг ўрганилиш даражаси, туркий тиллар ва уларнинг таснифи, ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши, ўзбек тили тарихини даврлаштириш масалалари. Ўзбек тили тарихининг фонетик-фонологик тизими, морфем-морфологик структураси, ундаги мустақил ва ёрдамчи сўз туркумлари, сўз ясалиш эволюцияси ҳамда сўз бирикмалари, гап бўлаклари, содда ва қўшма гап турлари, уларнинг тарихий тараққиёт этаплари.***

Ўзбек адабий тили тарихи***. Адабий тилнинг асосий тараққиёт босқичлари. Унинг маданиятимиздаги аҳамияти, адабий тилнинг ёзма ва оғзаки шакллари, адабий тил ва диалектлар, адабий тил услублари. Ҳар бир давр тилининг фонетик, лексик, грамматик фарқланишлари.***

Турк-руник ёдгорликлари тили. Қадимги турк-руник ёзуви. Бу ёзувнинг Шарқий Европадаги руник ёзувлардан фарқи ва ўхшаш томонлари. Қадимги турк-руник ёзувининг сўғд ёзуви билан алоқаси. Турк-руник ёзувининг дешифровкаси ва палеографикаси. Қадимги турк тили фонетикаси, грамматикаси ва лексикаси.

Қорахонийлар даври ёзма ёдгорликлар тили. Маҳмуд Кошғарий, Юсуф Хос Ҳожиб ва Замахшарийнинг илмий мероси. Чиғатой адабий тили. Темурийлар даври адабий ёдгорликлар тили. Навоийнинг туркий тил тараққиётига қўшган ҳиссаси. Навоийнинг тилшунослик мероси. Бобур асарларининг тил хусусиятлари. XVII-XIX асрлар ёзма ёдгорликлари тили. XX аср бошларидаги ўзбек ёзма матнларининг тил хусусиятлари.

6.5.3.3 Тилшунослик назарияси:

Тилшуносликнинг бошқа фанлар орасидаги ўрни. Тилшунослик предмети. Тилшунослик фанининг тушунчавий терминологик аппарати. Тилшунослик фанининг вужудга келиши. Тил ижтимоий ҳодиса сифатида. Тил фикр ифодалашнинг воситаси эканлиги. Тилнинг ижтимоий вазифалари. Тил ҳақидаги фаннинг ички қурилиши. Тилларнинг умумий ва хусусий томонлари. Лисоний тадқиқот анъаналари. Тилшунослик мактаблари. Умумий тилшуносликнинг етакчи муаммолари: тилшунолик объекти, тилнинг ички (структуравий) бўлиниши, функцияланиши, тарихий тараққиёти, семиотик табиати, лисоний универсалиялар, лингвистика фанининг методлари, тадқиқот парадигмалари, тил фанининг бошқа фанлар билан алоқаси. Жаҳоннинг машҳур тилшунослари. Ҳозирги тилшуносликнинг долзарб масалалари. Тил ва тафаккур. Тил ва нутқ. Тилга оид таълимотлар эволюцияси. Қиёсий-тарихий тилшуносликнинг юзага келиши. Тилларнинг генетик, типологик ва ареал таснифлари. Графика. Орфография. Орфоэпия. Пунктуация. Фонетика. Фонология. Морфология. Морфемика. Сўз ясалиши. Морфологик категориялар. Синтаксис. Сўз бирикмаси. Гап. Синтактик категориялар. Матн. Лексика. Семантика.

6.5.3.4 Араб (форс) тили:

Араб ёзуви, араб (форс) тили фонетика, морфология, синтаксис ва лексикологияси. Араб (форс) тили товуш таркиби ва унинг алифбода ифодаланиши, ҳарфларнинг талаффузи, уларнинг ёзилиши ва ўқилиши. Унли ва ундош ҳарфлар. Қисқа ва чўзиқ унлиларнинг ёзувда ифодаланиши. Араб (форс) тилига доир сўзлар ясалиши, вазнлар, арабий (форсий) конструкция ва ифодаларнинг туркий ёзма ёдгорликларидаги ўрни. Араб луғатчилиги, ундан фойдаланиш қоидалари ва ўзбек мумтоз адабиёти; араб (форс) тили луғат бойлиги дарс жараёнида сўз ёдлаш, уйга вазифа бериш, матнларни ўқиш орқали ўзлаштириш. Араб (форс) тилида сўз таркиби. От кесимли содда йиғиқ гап. Сўроқ ва кўрсатиш олмошлари. Сўроқ гапнинг ясалиши. Изофа ва унинг имлоси. Изофа занжири. Отларда сон категорияси. Эгалик аффикслари. Кесимлик категорияси (асосий предлоглар). Феъл. Феъл негизлари ва таркиби. Феъл замонларининг ясалиши. Сифатдошлар ва равишдошлар. Араб (форс) тилида "бирлик" ва "ноаниқлик"нинг ифодаланиши. Феъл майллари. Сифат ва унинг даражалари.

6.5.3.5 Ўзбек диалектологияси:

Ўзбек диалектологияси предмети. Ўзбек диалектологияси тарихи. Ўзбек шеваларини ўрганиш методлари. Транскрипция. Ўзбек шеваларининг таснифлари. Қарлуқ лаҳжаси. Қипчоқ лаҳжаси. Ўғуз лаҳжаси. Ўзбек диалектал зоналари ва азонал ҳудудлар. Шева ва адабий тил муносабати. Шева ва адабий тил онтологиялари орасидаги фарқ. Шеванинг адабий тилга асос бўла олмаслиги. Таянч шева бирликлари ҳақидаги таълимот. Ўзбек шевалари фонетикаси, грамматикаси ва лексикаси. Диалектологик луғатлар. Ўзбек шевалари атласи.

6.5.3.6 Ўзбек халқ оғзаки ижоди:

Ўзбек халқ оғзаки ижоди манбалари. Ўзбек халқ оғзаки ижодининг ўзига хос хусусиятлари. Қадимги турк асотирлари. Халқ оғзаки ижодида жанрлар типологияси. Достон, эртак, қўшиқ, мақол

ва бошқа жанрдаги ижод намуналари. Халқ оғзаки ижодининг ёзма адабиёт билан ҳамқадам тараққиёти. Ҳозирги замон оғзаки ижод намуналарининг хусусиятлари.

6.5.3.7 Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи:

Адабиёт тарихининг маданият тарихидаги ўрни. Адабиёт тараққиётининг асосий босқичлари. Исломга қадар ўзбек адабиёти. Илк турк-ислом давлатларидаги адабиёт. Сомонийлар, хоразмшоҳийлар ва ғазнавийлар сулолалари даври адабиёти. Мўғул истилоси даври ўзбек адабиёти. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. Алишер Навоий ва унинг адабий даври. XVI-XIX асрлар адабиётининг хусусиятлари. Тасаввуф адабиёти ва унинг манбалари. Адабий муҳит ва мактаблар. Бухоро хонлигида бадиий адабиёт. Шайбонийлар ва аштархонийлар сулолалари даври адабиёти. Хива адабий муҳити ва унинг намояндалари. XIX аср Хива адабий мактаби манбалари. Қўқон адабий мактаби. Умархон даври адабиёти. XIX асрнинг ўрталарида Қўқон адабий муҳити. Саройдан ташқаридаги халқ адабиёти манбалари. Адабиётларнинг ўзаро таъсири ва алоқаси.

6.5.3.8 Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти:

XIX асрнинг II ярми - XX аср боши ўзбек адабиётидаги кескин ўзгаришлар. Жадидчилик ва жадид адабиёти. Янги адабиётнинг шаклланиш манбалари ва илк қадамлари. Янги мактаблар ва дидактик-таълимий адабиёт. Матбуот ва адабиёт. Ўзбек публицистикасининг шаклланиши ва тараққиёт босқичлари. Театр ва адабиёт. Янги адабий тур ва жанрлар. Вазн ўзгаришлари. Миллий уйғониш ғояларининг бадиий талқини. Анъанавий образ-тимсолларнинг янги маъно ва мазмун касб этиши. Янги образ ва тимсолларнинг кириб келиши. Янги ўзбек шеърияти, реалистик проза, замонавий адабиётшуносликнинг қарор топиш манбалари.

6.5.3.9 Янги ўзбек адабиёти тарихи:

XX аср бошлари ўзбек адабиётидаги ўзгаришлар. Шўролар даври адабиётининг хусусиятлари. 20-30 йиллар адабиёти. Мафкуравий тазйиқ ва адабий жараён. II жаҳон уруши ва урушдан кейинги давр адабиёти. 60-80 йиллар адабиётидаги ўзгаришлар. Қайта қуриш давридаги адабий кўтарилиш. Истиқлол даври адабиёти ва унинг хусусиятлари. Миллий мафкура ва бадиий ижод.

6.5.3.10 Жаҳон адабиёти тарихи:

Жаҳон адабиёти тарихининг асосий тамойиллари ва даврлаштириш. Антик давр адабиёти тарихи. Юнон ва Рим адабиёти тарихи. Трагедия ва комедия. Ўрта асрлар ғарб адабиётининг ўзига хос хусусиятлари. Рицарлик адабиёти. Европа адабиётида уйғониш даври. Италияда уйғониш. Францияда уйғониш. Англияда уйғониш. Шекспир ижоди. XVII-XVIII асрлар Европа адабиётида маърифатчилик ва реализмнинг тараққиёти. Д. Дефо, Д. Дидро, Ф. Шиллер ва И. В. Гёте. Европа ва Америка адабиётининг XIX асрдаги камолоти. Танқидий релизм адабиёти. Рус адабиётида реализм. Л.Толстой ва Ф.М.Достоевский ижоди. XX аср чет эл адабиётидаги асосий адабий оқимлар ва концепциялар. Модернизм, постмодернизм, экзистенциализм. Жаҳон адабиётидаги ҳозирги адабий жараён.

6.5.3.11 Адабиётшунослик назарияси:

Адабиётшунослик – бадиий адабиёт ҳақида таълимот. Адабиётшуносликнинг бошқа фанлар билан алоқаси. Адабиётшуносликнинг таркибий қисмлари. Уларнинг ўзаро боғлиқлиги. Адабиёт тарихи, адабий танқид ва адабий жараён. Адабиёт назарияси асослари. Бадиий асар ва унинг таҳлил тамойиллари. Адабий тур ва жанрлар. Лирик, эпик ва драматик тур. Лирик жанрлар. Роман жанри. Бадиий услуб ва метод муаммолари. Бадиий тасвир воситалари. Бадиий санъатлар. Бадиий асар тили. Адабий йўналиш ва мактаблар.

Адабий-назарий тафаккур тараққиёти. Адабиётшуносликдаги академик мактаблар. Санъат назарияси. Бадиий адабиёт спецификаси. Бадиий асар яхлитлиги ва тизимли таҳлил. Адабий тур ва жанрлар типологияси. Адабий жараённинг умумий масалалари

6.5.3.12 Ўзбек адабий танқидчилиги тарихи:

Адабиётшуносликнинг вужудга келиши ва тарихий тараққиёти. Адабий танқидчиликнинг ўзига хос хусусиятлари. Адабий танқидчили тарихига бир назар. Мумтоз адабиёт тарихи ва адабий танқидчилик. Миллий адабиётшуносликнинг шаклланишида матбуот ва матбаа воситаларининг роли. XX аср бошлари адабиётшунослиги ва адабий танқиднинг вужудга келиши. Фитрат, Чўлпон, Абдулла Қодирийнинг адабий танқидий қарашлари. Адабий танқид тарихи – адабий асарлар ва жараённи баҳоловчи мезон сифатида. Адабий танқидчиликда шакл ва услублар хилма-хиллиги. Ўзбек мунаққидлари. М.Қўшжонов ва О.Шарафиддинов ижоди. Бугунги ёш адабиётшунос ва мунаққидлар хусусида

6.5.3.13 Ҳозирги адабий жараён:

XX аср адабиётининг инсоният тарихидги ўрни. XX асар адабиётидаги асосий йўналишлар. Ҳозирги адабий жараённинг асосий тамойиллари. Мустақиллик даврида яратилган бадиий асарлар. Шеърият, наср ва драматургия. Ҳозирги ёшлар шеърияти ва насри. Модернизм тўғрисидаги баҳслар. Бугунги драматургия муаммолари. Ҳозирги адабий жараёнга хос қонуниятлар. Миллий истиқлол даврида яратилган бадиий-эстетик кашфиётлар. Истиқлол даври насри ва назми. Мустақиллик даврида яратилган ўзбек романига хос хусусиятлар.

6.5.3.14 Туркий филологияга кириш:

Туркий тилларнинг жаҳон тиллари орасида тутган ўрни. Туркий тилларнинг таснифлари. Энг қадимги туркий тиллар. Ўрхун-Енисей ёдгорликлари тили. Қадимги уйғур тили. Қорахонийлар даври туркий тили. Чиғатой тилининг қардош туркий адабий тиллар шаклланишидаги роли. Мамлуклар тили. Волгабўйи турклари тили. Замонавий туркий тиллар.

6.5.3.15 Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси:

Фаннинг бошқа фанлар орасидаги мавқеи. Туркий тилларнинг Олтой тиллари орасидаги ўрни. Туркий тилларнинг шаклланиш ва тараққиёт босқичлари. Туркий тиллар қиёсий-тарихий грамматикасига Қорахонийлар даврида асос солиниши. Туркий тилларга оид таснифлар. Туркий тилларнинг фонетик-фонологик, морфем-морфологик, лексик-семантик ва синтактик қурилиши. Туркий тиллар фонетикаси, лексикаси ва грамматикасини реконструкциялаш тамойиллари. Туркий тилларнинг мўғул, тунгус-манчжур, угор-фин, эроний тиллар билан алоқаси. Туркийшуносликдаги этимологик тадқиқотлар. Туркий тиллар қиёсий-тарихий грамматикасини яратиш тамойиллари ва қиёсий-тарихий методнинг роли. Қиёсий-тарихий фонетика. Қиёсий-тарихий морфология. Қиёсий-тарихий синтаксис. Қиёсий-тарихий лексикология.

6.5.3.16 Туркий халқлар адабиёти тарихи:

Туркий халқлар адабиётининг халқлар ижтимоий маданият ҳаётидаги ўрни. Туркий халқлар адабиётининг асосий босқичлари. Туркий халқлар фольклори. Туркий халқлар ёзма адабиёти тарихи. Турк адабиётида тасаввуф. Танзимот даври турк адабиёти. Замонавий турк адабиёти. Озарбайжон, Қозоқ, Қирғиз, Туркман фольклори, ёзма адабиёти тарихи, замонавий адабиёт.

6.5.3.17 Она тили ва адабиёт ўқитиш методикаси:

Она тили ўқитиш методикаси фанининг предмети. Тил таълимининг асослари. Тил таълими методлари ва усуллари. Она тили бўйича синфда уюштириладиган машғулот турлари. Тил дарслари методикаси. Боғланишли нутқни ўстириш методикаси. Ёзма ишларни ўтказиш, текшириш ва баҳолаш йўллари. Дарс таҳлили методикаси.

Адабиёт ўқитиш методикаси фанининг предмети. Адабий таълимнинг асослари. Туркистон мактаблари ва мадрасаларида адабиёт ўқитилиши тарихи. Адабиёт ўқитиш методлари. Бадиий матн устида ишлаш. Мактаб герменевтикаси. Адабиёт бўйича синф ва мактабдан ташқари ишлар. Факультатив машғулотларни уюштириш. Ёзма ишлар ўтказиш, текшириш ва баҳолаш методикаси. Адабиёт дарслари таҳлили.

6.5.3.18 Педагогика:

Педагогиканинг назарий асослари. Методологик фанлар: фалсафа, социология, психология, этика-эстетика фанларидаги ўзгаришларнинг педагогик жараёнга янгича нуқтаи назарни шакллантиришдаги роли. Тарбиянинг узвийлиги ва услуксизлиги, миллий ғоя ва миллий мафкура тарбияси. Педагогиканинг бошқа фанлар билан ҳамкорлиги.

Метод ҳақида тушунча. Педагогика фанининг илмий тадқиқот методлари ва уни тадбиқ этиш жараёни. Методнинг методологик таснифи. Педагогик тадқиқот методлари.

Инсоннинг шаклланишида ирсият, тарихий, эволюцион-ижтимоий, биологик муҳит ва тарбиявий омилларнинг роли. Тарбияда миллий ғоя ва миллий мафкура, болаларнинг психологик ва физиологик даврларга бўлинишини ҳисобга олиш.

Тарбия жараёнининг болалар ёш хусусиятларга боғлиқлиги. Тарбия жараёни ва тарбия методлари. Тарбияда психологик омиллар ва инсоний сифатлар. Ҳуқуқий тарбия, меҳнат тарбияси, эстетик тарбия.

Дидактика-педагогиканинг таълим назарияси ва амалиёти асосларини ўргатувчи бўлим эканлиги. Дидактика: таълим назарияси ва асослари. Мутахассисликка тайёрлашда таълим жараёнининг ўрни. Таълимнинг мазмуни. Таълим қонуниятлари ва тамойиллари. Таълим методлари ва воситалари.

Ижтимоий педагогика асослари. Жамоа тарбия объекти сифатида. Жамоани ривожлантириш босқичлари. Оила жамиятнинг кичик ячейкаси. Оиладаги бола тарбиясида боланинг физиологик, психологик хусусиятларини ҳисобга олиш.

Педагогик маҳорат асослари. Педагогик фаолиятнинг таркибий қисмлари. Педагогик фаолиятнинг мақсади.

6.5.4 Ихтисослик фанлари

Ихтисослик фанлари рўйхати ва мазмуни кадрлар буюртмачиларининг талаблари ва бакалаврлар тайёрлашнинг ушбу йўналиши бўйича фан, техника ва технологияларнинг замонавий ютуқлари ҳисобга олинган ҳолда олий таълим муассасаси томонидан белгиланади.

6.5.5 Малакавий амалиёт

Фольклор амалиёти

Амалиёт ўтказиладиган манзилга етиб олиш. Ишга тайёргарлик кўриш. Амалиёт иштирокчиларига хавфсизлик техникаси ҳақида маълумот бериш. Маҳаллий халқ оғзаки ижоди юзасидан танишув суҳбатини уюштириш. Респондентлар билан материаллар ёзиб олиш жараёнида муомала этикасига амал қилишни ўргатиш. Материал ёзиб олиш техникаси билан таништириш. Гуруҳларни кичик звеноларга ажратиш ва ҳар бир звенони ўз ҳудуди билан таништириш. Маҳаллий аҳолидан халқ қўшиқлари, топишмоқ, мақол, тез айтиш намуналарини ёзиб олиш. Ёзиб олинган намуналарни қиёслаш, фарқларни аниқлаш. Тўпланган материалларни тартиблаштириш, оққа кўчириш, ҳисобот учун маълумот тўплаш. Аҳолидан маҳаллий ҳудудда ўтказиладиган маросимлар рўйхатини аниқлаш. Маросимларни ўтказиш тартибини изоҳлаш. Аҳолидан эпик асарлардан намуналар ёзиб олишни бошлаш. Респондентлардан мазкур асарларни ўрганиш тарихларини ёзиб олиш. Экспедиция давомида алоҳида эътибор қозонган респондентлар билан суҳбат ўтказиш. Ҳудудда аввал яшаган ижрочи ва ижодкорлар ҳақида маълумот олиш. Малакавий амалиёт даврида ёзиб олинган материалларни тартибга солиш. Амалиёт бўйича ҳисобот тайёрлаш. Фольклор амалиёти давомида тўпланган материалларни тартиблаштириш. Амалиёт раҳбарларига ҳисобот топшириш.

Диалектологик амалиёт

Амалиёт ҳақида маълумот бериш. Амалиётга бориладиган ҳудудни аниқлаш. Белгиланган ҳудуд шевасига оид хусусиятларни талабаларга эслатиш. Ўрганиладиган ҳудуд шеваси вакиллари билан мўлжалланган илмий ва амалий мазмундаги режа асосида гуруҳ талабаларининг мулоқатларини уюштириш. Мулоқотларни ёзиб олиш ва уларни диалоктологик материаллар сифатида ёзиб, транскрипция қилиш.

Ёзиб олинган шева матнларини гуруҳлаб, алоҳида дафтарларга ёзиш, уларни амалиёт раҳбарларига топшириш. Амалиёт охирида талабларни баҳолаш.

Малакавий амалиёт

Амалиёт ўташи режалаштирилган нашриёт ёки оммавий ахборот воситалари таҳририятлари ҳамда улар таркибидаги бўлимлар билан танишиш. Нашриёт ёки таҳририятнинг меҳнат интизоми ва ички тартиб-қоидалари билан танишиш ва уларга тўла риоя қилиш. Нашриёт ёки таҳририятнинг белгиланган масъул ходимлар томонидан техника хавфсизлиги бўйича кўрсатмалар олиш. Амалиёт объектининг ўзи бириктирилган бўлимида махсус масъул ходимлар раҳбарлиги остида иш жараёни билан танишиш.

Қўлёзмаларни қабул қилиш билан тўлиқ танишиш. Таҳрир амалиёти билан тўлиқ танишиш. Нашриёт ёки таҳририят томонидан белгиланган раҳбар тавсиясига билан муайян топшириқ олиш. Материалларни тақризлаш малакасини ҳосил қилиш. Корректура, тузатиш белгиларидан фойдаланиб, матн устида ишлай олиш малакасини шакллантириш. Матннинг электрон нусхасини тайёрлаш, уни нашр талаблари асосида шакллантириш. Таҳрир қилинган матнни электрон нусха билан солиштириш ва таҳрирда тузатилган ўринларни электрон нусхага ўтказиш. Матнни сўнгги таҳридан чиқариш ва бу жараёнда матбаанинг техник талаблари доирасида шакллантириш. Матн корректураси, мусаҳҳиҳлик ишларини биринчи ва иккинчи корректура ўқиш орқали амалга ошириш. Мусаҳҳиҳлар томонидан киритилган тузатишларни матнга ўтказиш ва матнни техник муҳаррир кўригига тайёрлаш. Нашрга тайёрланган матнни сўнгги назардан ўтказиш ва матбаа талаблари бўйича шакллантириш.

Материални эълон қилишга тайёрлашнинг барча босқичлари билан тўлиқ танишиш. Бажарган ишлари бўйича амалиёт кундалигини мунтазам равишда тўлдириб бориш. Амалиёт ўтказиш жойидан белгиланган раҳбарнинг топшириқ ва кўрсатмаларини тўла бажариш. Таҳририятнинг оммавий тадбирларини ташкил этишда ва ўтказишда фаол иштирок этиш.

Амалиёт бўйича ҳисобот тайёрлаш ва амалиёт раҳбарига белгиланган вақтда топшириш.

Педагогик амалиёт

Кириш анжуманида иштирок этиш. Таълим тизими билан танишиш. Педагогик амалиётнинг мақсад ва вазифаларини белгилаб олиш. Дарс кузатиш ва таҳлил қилиш йўллари. Ўқувчи ва талабаларнинг жисмоний, руҳий ҳамда ақлий тараққиётига доир маълумотларни тўплаш, тизимга солиш, таҳлил қилиш. Белгиланган синф ва курсларда тегишли фанлардан дарс ўтиш ва унинг таҳлилида иштирок этиш. Бир ўқувчи ёки талабага атрофлича тавсифнома ёзиш. Якуний анжуманни тайёрлаш ва ўтказишда иштирок қилиш.

6.5.6 Битирув малакавий иш (лойиҳаси)

Битирув малакавий иш(лойиҳа)лар мавзуи таълим муассасасининг битирувчиларини чиқарувчи кафедралари томонидан кадрлар буюртмачиларининг талабларини, шунингдек замонавий фан, техника, технологиялар ютуқларини ҳисобга олган ҳолда белгиланади.

Битирув малакавий иш филологик: тилшунослик, адабиётшунослик ёки шу соҳадаги илмий-тадқиқот йўналишларида бўлиши мумкин.

Талабага битирув малакавий иши(лойиҳа) топшириғи, одатда, у учинчи курсни тугатгандан сўнг берилади. Иш (лойиҳа) тўртинчи курс давомида, шунингдек, мазкур стандартда бажариш учун ажратилган вақт мобайнида бажарилади.

7 Бакалавриатнинг асосий таълим дастурларини ўзлаштириш бўйича амалга ошириладиган шароитларга бўлган талаблар

7.1 Бакалавриатнинг асосий таълим дастурлари ўзлаштирилишига белгиланган умумий талаблар

7.1.1 Таълим дастурини ишлаб чиқишда ОТМ республика иқтисодиёти ва ижтимоий тармоқлари, бошқарув ва хўжалик юритиш субъектлари учун фундаментал, айниқса, юқори ва инновацион технологиялар бўйича чуқур билим ҳамда амалий кўникмаларга эга бўлган кадрлар эҳтиёжини ҳисобга олиши керак.

Олий таълим муассасалари асосий таълим дастурини фан, техника, маданият, иқтисодиёт, технология ва ижтимоий соҳа ривожланишини ҳисобга олган ҳолда мунтазам равишда янгилаб туриши лозим.

7.1.2 Таълим дастурини ишлаб чиқишда ОТМ томонидан битирувчиларнинг умуммаданий компетенцияларини (ижтимоий ўзаро таъсир, ўз-ўзини ташкил қилиш ва бошқариш, тизимий-фаолият тавсифидаги компетенцияларни) шакллантиришдаги имкониятлари аниқланган бўлиши керак. ОТМ ўзининг ижтимоий-маданий муҳитини шакллантиришга, шахснинг ҳар томонлама ривожланиши учун зарур бўлган шароитларни яратишга масъул.

ОТМ ўқув жараёнини ижтимоий-тарбиявий ривожлантиришга, талабаларнинг ижтимоий ташкилотлар ишида, спорт ва ижодий тўгаракларда, магистрларнинг илмий жамиятларида иштирокига кўмаклашиши лозим.

7.1.3 Компетентли ёндошувни амалга ошириш ўқув жараёнида машғулотларнинг фаол ва интерфаол (компьютер симуляторлари, ишбилармонлар ўйини, муайян вазиятларни кўриб чиқиш ва ҳ.к.) шаклларини ўтказишни, талабаларнинг касбий кўникмаларини шакллантириш ва ривожлантириш мақсадида аудиториядан ташқари иш билан биргаликда жаҳон педагогик амалиётида қўлланиладиган замонавий педагогик технологиялар, ўқитишнинг самарали стратегиялари, методлари ва услубларини кенг қўллашни назарда тутиши керак.

Фаол ва интерфаол шаклларда ўтказилаётган машғулотларнинг улуши дастурнинг асосий мақсади, ўқиётган контингент хусусиятлари ва муайян фан мазмуни билан аниқланади. Талабаларнинг академик гуруҳлари учун маъруза туридаги машғулотлар аудитория машғулотларининг 50 % идан ортмаслиги керак.

7.1.4 Талабалар ўқув юкламасининг максимал ҳажми асосий таълим дастури ва таълим дастурига ОТМ томонидан қўшимча белгиланадиган факультатив фанларни ўзлаштириш бўйича аудитория ва аудиториядан ташқари (мустақил) таълим билан биргаликда ҳафтасига 54 академик соатдан ошмаслиги керак.

7.1.5 ОТМ талабалар учун ўқиш дастурини, бўлиши мумкин бўлган индивидуал таълим дастурларини ишлаб чиқишни инобатга олган ҳолда, шакллантиришда реал иштирок этиш имкониятини таъминлашга масъул.

7.1.6 Ўқув дастурини шакллантиришда ОТМ талабаларни уларнинг ҳуқуқлари ва мажбуриятлари билан таништиришга, талабалар учун танлов фан(модул, курс)лари мажбурий эканлигини тушунтириши керак.

7.1.7 Талабаларда билим, амалий малака ва кўникмаларни тўлиқ шакллантириш учун ОТМ таълим дастури ўқув фанлари (модуллари) бўйича лаборатория ишлари ва амалий машғулотларни қамраб олиши керак.

7.2 Таълим дастурларининг тадбиқ этилиши

***5120100 – Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили*)** таълим йўналиши бўйича бакалаврларни тайёрлаш таълим дастури ривожлантирувчи ўқитиш, ахборот технологиялари ва ўқитишнинг замонавий техник воситаларидан фойдаланилган ҳолда тайёрлашнинг ушбу йўналиши бўйича аккредитация қилинган олий таълим муассасаларида амалга оширилиши керак.

Талабалар хорижий тилларни ўзлаштириши, хорижий тилларни ўқитувчилар ўқитиши ҳамда бунинг учун зарур бўлган шароитлар яратилиши бакалаврларни тайёрлашда бош вазифа бўлиши керак.

Малакавий амалиётлар замонавий корхоналарда, ташкилотларда ва ИТИларда ўтказилади, улар талабаларни амалиёт дастурларида кўзда тутилган иш жойлари билан таъминлашлари керак.

Ўқиш даврида талаба камида иккита Давлат аттестацияларини (гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий ва чет тили фанларидан) топширади ва битирув малакавий ишини ҳимоя қилади. Давлат аттестацияси мос интеграллашган курслар бўйича ўқув жараёни тугаллангандан кейин топширилади.

7.3 Малакавий амалиётларни ташкил этиш талаблари

Амалиётлар бакалавриат асосий таълим дастурининг мажбурий бўлаги ҳисобланади. Амалиётлар ўқув ёки ўқув-ишлаб чиқариш машғулотлари кўринишида бўлиб, талабаларнинг касбий-амалий тайёргарланганлигига бевосита йўналган бўлади. Бакалаврларни тайёрлашнинг таълим дастури ўқиётганлар тўртта амалиётни – фольклор, диалектологик, малакавий ва педагогик амалиётларини ўтишни ўз ичига олади.

Ўқишнинг биринчи йилида фольклор амалиёти ўтказилади, мақсад – оғзаки ижод намуналарини тўплаш, уларни таҳрир қилиш, нашрга тайёрлаш ва ўқув жараёнига татбиқ этиш бўйича зарурий талаблар билан таништирилади. Бу вазифаларни амалга оширган талабалар амалиёт натижаси ва ҳисоботи баҳолаш мезонлари асосида баҳоланади.

Диалектологик амалиётда ўрганиладиган ҳудуд шеваси вакиллари билан мўлжалланган илмий ва амалий мазмундаги режа асосида гуруҳ талабаларининг мулоқатлари уюштирилади. Мулоқотларни ёзиб олинади ва улар диалоктологик материаллар сифатида транскрипция қилинади. Ёзиб олинган шева матнлари гуруҳланиб, алоҳида дафтарларга ёзилади ва амалиёт раҳбарларига топширилади. Амалиёт охирида талабларбаҳоланади.

Малакавий амалиёт ўтказишдан мақсад- талабаларнинг назарий билимларини мустаҳкамлаш, касб кўникмаларини ҳосил қилиш ва такомиллаштириш, мутахассислик маҳоратини ошириш, уларни меҳнат ва ижтимоий фаолиятга жалб қилишдан иборат.

Амалиёт нашриётлар ва оммавий ахборот воситалари таҳририятларида ўтказилади. Талабаларда касбий-амалий малака ва кўникмаларни таркиб топтиришга диққат қаратилади.

Педагогик амалиётда талабалар таълим тизими билан танишади. Дарс кузатиш ва таҳлил қилиш йўлларини ўрганади. Ўқувчи ва талабаларнинг жисмоний, руҳий ҳамда ақлий тараққиётига доир маълумотларни тўплайди, тизимга солади, таҳлил қилади. Белгиланган синф ва курсларда тегишли фанлардан дарс ўтади ва унинг таҳлилида иштирок этади. Якуний анжуманни тайёрлаш ва ўтказишда қатнашади.

Талабанинг илмий-тадқиқот иши амалиётнинг бир бўлагини ташкил қилиши мумкин. Илмий-тадқиқот иши битирувчиларда касбий компетенцияларни шакллантириш ва мустаҳкамлашга кўмаклашади. У битирувчини 8 семестрда кафедранинг илмий ишида албатта иштирок этишини, курс ишларини касбий (махсус) циклнинг базавий фанлари мавзуси бўйича бажарилиши ва ҳимоя қилинишини, талабаларнинг

талабалар илмий жамияти йўналиши бўйича илмий ишда иштирок этишини ва битирув малакавий ишни кафедранинг илмий мавзуси бўйича бажарилишини назарда тутади.

Талабалар илмий-тадқиқот ишининг ташкил қилиниши қуйидагилар билан таъминланиши керак:

- курс ишларининг ҳар йили янгиланадиган мавзулари ҳақида ўқиётганларни ўз вақтида хабардор қилиш;
- чиқарувчи факультет (кафедра)нинг илмий мавзуси бўйича илмий-тадқиқот ишларини бажариши учун лабораторияларда ўқиётганларни иш жойи билан таъминлаш;
- олий таълим муассасасининг ахборот ресурс марказида мустақил илмий-тадқиқот ишни олиб бориш имкониятини тақдим этиш;
- талабалар илмий жамиятининг конференцияларини ташкил қилиш;
- талабалар илмий конференцияси ғолибларига мамлакатнинг бошқа олий ўқув юртларига маърузалар билан чиқиш имкониятларини тақдим этиш.

7.4 Ўқув жараёнини педагогик кадрлар билан таъминлаш бўйича талаблар

Бакалавриат асосий таълим дастурини амалга ошириш ўқитилаётган фаннинг ихтисослигига мос, одатда, базавий таълимга эга бўлган илмий-педагогик кадрлар билан ва тизимий равишда илмий ёки илмий-методик фаолият билан шуғулланаётган кадрлар билан таъминланиши керак.

Ихтисослик фанлари ўқитувчилари ўқитилаётган фан профилига мос базавий таълимга ёки илмий даражага эга бўлишлари керак. Таълим жараёнига амалдаги тегишли тармоқ ташкилотлари, корхоналари ва муассасаларининг раҳбарлари ва етакчи мутахассислари ўқитувчиликка жалб этилиши мумкин.

7.5 Таълим жараёнини ўқув-методик ва ахборот ресурслари билан таъминлаш талаблари

Асосий таълим дастури асосий таълим дастурининг ҳамма ўқув курслари, фанлари (модуллари) бўйича ўқув-методик ҳужжатлар ва материаллар билан таъминланиши керак.

Асосий таълим дастурининг амалга оширилиши ҳар бир ўқиётган асосий таълим дастуридаги фан (модул)ларнинг тўлиқ рўйхати бўйича шаклланадиган маълумотлар базаси ва кутубхона фондидан фойдаланиш ҳуқуқи билан таъминланиши керак.

Асосий таълим дастури бўйича ҳар бир ўқиётган ўрнатилган меъёрларга мос равишда таълим дастурига кирувчи касбий циклнинг ҳар бир фани бўйича ўқув ва ўқув-методик чоп этилган ёки электрон нашрлар билан тўлдирилган бўлиши керак.

Ахборот-ресурс марказининг асосий фонди охирги 10 йилда (гуманитар, ижтимоий ва иқтисодий циклнинг базавий фанлари учун – охирги 5 йилда) чоп этилган ҳамма цикларнинг базавий қисми фанлари бўйича ўқув адабиётининг чоп этилган ва ёки электрон нашрлари билан бут қилинган бўлиши керак.

Ўқув адабиётидан ташқари қўшимча адабиёт фонди расмий маълумотнома-бибилиографик ва даврий нашрларни ўз ичига олиши керак.

Таълим дастурини тўлиқ амалга ошириш учун ОТМнинг АРМда таълим йўналишининг ўқув режасида келтирилган фанлар бўйича яратилган ўқув-услубий адабиётлар ва чет элда чоп этилган ҳамда интернет тизимидаги ахборот манбалари ҳар бир талабага етарли даражада бўлиши керак.

Мамлакатимиздаги ва чет элдаги олий таълим муассасалари, корхоналари ва ташкилотлари билан оператив равишда ахборот алмашиш, замонавий касбий маълумотлар базалари, ахборотлар ва қидирув тизимларидан фойдаланиш имконияти билан таъминланган бўлиши керак.

5120100 – Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили) таълим йўналиши бўйича бакалаврни тайёрлаш жараёнида асосан қуйидаги педагогик технологиялар ва ўқитиш методларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ:

ўқитишнинг интерфаол методи,
муаммоли ўқитиш технологияси,
ўйинли технологиялар,
танқидий фикрлаш ривожланишининг педагогик стратегиялари,
шахсий йўналганлик асосидаги педагогик технологиялар,
ўқув жараёнини самарали бошқариш ва ташкил қилиш асосидаги педагогик технологиялар,
ўқитишни дифференциялаш,
ўқитишни индивидуаллаштириш технологияси,
дастурий ўқитиш технологияси,
ўқитишнинг комплекс методлари (лойиҳавий метод, тармоқли режалаштириш методи, ақлий ҳужум, ассоциограммалар методи ва ҳ.к.)

7.6 Ўқув жараёнининг моддий-техника базаси бўйича талаблар

Бакалавр тайёрлашнинг асосий таълим дастурини амалга оширувчи ОТМ ўқув дастурида назарда тутилган ва амалдаги санитар ва ёнғинга қарши қоидалар ва меъёрларга мос келадиган моддий-техника базасига эга бўлиши керак; бу моддий-техник база фанлар ва фанлараро тайёргарликнинг ҳамма турларини, ўқиётганларнинг лаборатория, амалий ва илмий-тадқиқот иши ўтказилишини таъминлаши керак.

Бакалавр дастурини амалга ошириш учун минимал зарур бўлган моддий-техникавий таъминот рўйхати қуйидагиларни ўз ичига олади:

- маъруза (поток ёки гуруҳлар) аудиториялари;
- семинар машғулотлари учун аудиториялар;
- илмий-тадқиқот ишини ўтказиш учун лабораториялар.

Мавжуд моддий база қуйидагиларни таъминлаши керак:

- иллюстратив материалларни намойиш қилиш учун турли аппаратуралар – маърузаларни ўтказиш;
- лаборатория ишлари дастурига мос равишда жиҳозлар – базавий фанлар бўйича лаборатория-амалий ишларни бажариш;
- лабораториянинг амалга оширилаётган илмий мавзусига мос равишда жиҳозлар – ихтисослик (махсус) фанлар бўйича лаборатория ишларини бажариш;
- ахборот тизимларидан фойдаланиш учун компьютерлар – семинар машғулотларини ўтказиш, лингафонли кабинетлар – хорижий тиллар бўйича машғулотлар.

8 Бакалаврлар тайёлаш сифатини баҳолаш

8.1 Олий таълим муассасаси тайёргарлик даражаси сифатини кафолатли таъминлашга мажбур, жумладан, қуйидаги йўллар билан:

- иш берувчилар вакилларини жалб қилган ҳолда битирувчиларнинг тайёргарлик даражаси сифатини таъминлаш бўйича стратегияни ишлаб чиқиш;
- таълим дастурлари мониторингини ўтказиш, уларни даврий такриз қилдириш;
-талабалар билими ва амалий кўникмалари даражасини, битирувчилар компетенцияларини объектив баҳолаш процедураларини ишлаб чиқиш;
- ўқитувчилар таркибининг компетентлигини таъминлаш;
- иш берувчилар вакилларини жалб қилган ҳолда фаолият (стратегия)ни баҳолаш ва бошқа таълим муассасалари билан таққослаш учун мувофиқлаштирилган мезонлар бўйича мунтазам равишда таҳлил қилишни ўтказиш.

8.2 Бакалавриат йўналишлари бўйича кадрлар тайёрлаш сифатини назорат қилиш қуйидагилардан иборат:

ички назорат – олий таълим муассасаси томонидан амалга оширилади. Ички назорат олий таълимнинг бошқарувчи ваколатли давлат идораси томонидан тасдиқланган назоратнинг рейтинг тизими тўғрисидаги Низом асосида ўтказилади;

якуний давлат назорати давлат таълим стандартига мувофиқ фанлар бўйича давлат аттестациясини ва битирув иши ҳимоясини ўз ичига олади;

давлат-жамоат назорати олий таълимнинг бошқарувчи ваколатли давлат идораси, жамоат ташкилотлари ва кадрлар буюртмачилари томонидан белгиланган тартибда ўтказилади;

ташқи назорат Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази таркибидаги Кадрлар тайёрлаш сифатини назорат қилиш, педагог кадрлар ва таълим муассасалари аттестацияси Бошқармаси томонидан белгиланган тартибда амалга оширилади.

Тайёрланган кадрлар сифатини баҳолаш кадрлар истеъмолчилари томонидан уларнинг меҳнат фаолияти жараёнида амалга оширилади.

8.3 Ҳар бир фан бўйича билимларни жорий ва оралиқ назорат қилишнинг муайян шакли ва ўқув жараёнига тадбиқ этилиши ОТМ томонидан мустақил ишлаб чиқилади ва талабалар эътиборига ўқишнинг биринчи ойи давомида етказилади.

8.4 Талабаларнинг ўзлаштириши жорий назорати ва оралиқ аттестацияси дастурлари уларнинг бўлажак касбий фаолияти шароитларига максимал яқинлаштирилиши учун шароитлар ОТМ томонидан яратилиши керак. Бунинг учун муайян фан ўқитувчиларидан ташқари ташқи экспертлар сифатида иш берувчилар, турдош фанлардан дарс берувчилар ва бовалар бу жараёнга фаол жалб қилиниши керак.

8.5 Якуний давлат аттестацияси бакалавр битирув малакавий иши ҳимоясини ўз ичига олади.

Битирув малакавий ишининг мазмуни, ҳажми ва тузилмасига бўлган талаблар битирувчиларнинг якуний давлат аттестацияси ўтказиш ҳақидаги Низом асосида олий таълим муассасалари томонидан белгиланади.

8.6 Олий таълим муассасаси:

- ушбу стандартдаги талабларга риоя қилиниши ва олий таълим муассасаларининг давлат аттестацияси ва аккредитацияси ҳақидаги Низомда назарда тутилган бакалавр тайёрлашнинг сифати;
- профессор-ўқитувчилар таркиби ва ўқув-ёрдамчи ходимлар малакавий талабларга тўла мос келиши;
- ҳар бир интеграллаштирилган курс фанларининг курс дастурида назарда тутилган ўқув-методик адабиётлар, ўқув-услубий мажмуалар, шунингдек, мустақил таълим ва мустақил тайёргарлик учун материаллар билан таъминланганлиги;
- ўқув жараёнининг моддий-техникавий таъминланганлиги учун тўла масъулдир.

9 Эслатма

9.1 Олий таълим муассасасига:

- ушбу стандартда назарда тутилган минимал мазмунни таъминлаган ҳолда талабанинг ҳафталик максимал юкламасини оширмасдан ўқув материалини ўзлаштиришга ажратилган соатлар ҳажмини ўқув фанлари блоклари учун 5% оралиғида, блокга кирувчи ўқув фанлари учун 10% оралиғида ўзгартириш;
- ўқув фанлари мазмунига фан, техника ва технологияларнинг ютуқларини ҳисобга олган ҳолда ўзгартиришлар киритиш;
- битирув малакавий иш (лойиҳа) мавзусини белгилаш олий таълим муассасаси ректори томонидан расмийлаштирилади.

9.2 Курс ишлари (лойиҳалари) муайян ўқув фаолиятининг бир тури сифатида кўрилади ва ушбу ўқув фанини ўзлаштириш учун ажратилган соатлар чегарасида бажарилади.

9.3 Давлат таълим стандартини билиш профессор-ўқитувчилар таркибини танлов асосида саралаш шартларидан бири ҳисобланади.

10 Давлат таълим стандартининг амал қилиш муддати

10.1 Давлат таълим стандарти ўрнатилган тартибда тасдиқланиб, “Ўзстандарт” агентлигида давлат рўйхатидан ўтгандан кейин амал қилиш муддати – 5 йил.

10.2 Давлат бошқарувининг ваколатли огранлари томонидан давлат таълим стандартларини ишлаб чиқиш, такомиллаштириш ва жорий этиш тўғрисида янги тартиб-қоидалар қабул қилинса ДТСларнинг амал қилиш муддати ўзгариши мумкин.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA
TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISh VA
BAHOLAShNING REYTING TIZIMI TO‘G‘RISIDA

N I Z O M

Toshkent 2010

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUYRUQ

Toshkent shahri **“29” avgust 2010 yil № 333**

Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda) va “Kadrlar tayёrlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-modda, 295-modda) qonunlariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 20 iyuldagi 341-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorira (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2004 y., 29-son, 332-modda) muvofiq, shuningdek oliy ta’lim muassasalari talabalarining bilim savіyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish hamda baholash jaraёnlarini takomillashtirish maqsadida **buyuraman :**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug‘i (ruyxat raqami 1981, 2009 yil 10 iyul) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009 yil, 28-son, 330-modda) bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reytinг tizimi to‘g‘risidagi nizomga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.
2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab o‘n kun o‘tgandan keyin kuchga kiradi.

Vazir : **B.Xodiev**

Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reytinг tizimi to‘g‘risida
N I Z O M

(Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 10 iyulda 1981-son bilan davlat ruyhatidan o‘tkazilgan.
Topshiriqqa binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-son buyrug‘i bilan Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgustda 1981-1-son bilan davlat ruyxatidan qayta o‘tkazilgan.)
Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda) va “Kadrlar tayёrlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-modda, 295-modda) qonunlariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorira (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2001 y., 15-16-son, 104-modda) muvofiq oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reytinг tizimini tartibga soladi.

I. Umumiy qoidalar

1. Talabalar bilimini nazorat qilish va reytinг tizimi orqali baholashdan maqsad ta’lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayёrlashga erishish, talabalarning fanlarni o‘zlashtirishida bo‘shliqlar hosil bo‘lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.
2. Reytinг tizimining asosiy vazifalari quyidarilardan iborat:
a) talabalarda Davlat ta’lim standartlariga muvofiq terishli bilim, ko‘nikma
va malakalar shakllanganliri darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;
b) talabalar bilimi, ko‘nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta’lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik,ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta’minlash;
v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belrilangan muddatlarda o‘zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;
g) talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

д) talaбalar бilimini xolis ва adolatli бaholash hamda uninг natijalarini ваqtida ma’lum qilish;

ye) talaбalarninг fanlar бo‘yicha kompleks hamda uzluksiz tayёrrarlirini ta’minlash;

j) o‘quв jaraёninininг tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishга sharoit yaratish.

3. Fanlar бo‘yicha talaбalar бilimini semestrда бaholaб бorish reytinг nazorati jadвallari ва бaholash mezonlari asosiда amalга oshiriladi.

II. Nazorat turlari ва uni amalга oshirish tartiбi

4. Nazorat turlari, uni o‘tkazish tartiбi ва mezonlari kafedra mudiri taвsiyasi бilan oliy ta’lim muassasasininг (fakultet) o‘quв-uslubiy kenгashiда muhokama qilinadi ва tasdiqlanadi hamda har бir fanninг ishchi o‘quв dasturiда mashg‘ulot turlari бilan birralikда ko‘rsatiladi.

5. Reytinг nazorati jadвallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har бir nazoratга ajratilгan maksimal бall, shuninгdek joriy ва oraliq nazoratlarninг saralash бallari haqidagi ma’lumotlar fan бo‘yicha бirinchi mashg‘ulotda talaбalarга e’lon qilinadi.

6. Talaбalarninг бilim saвiyasi ва o‘zlashtirish darajasininг Davlat ta’lim standartlariга muвofiqlirini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o‘tkazish nazarда tutiladi:

joriy nazorat – talaбaninг fan maвzulari бo‘yicha бilim ва amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash ва бaholash usuli. Joriy nazorat fanninг xususiyatidan keliб chiqqan holda, seminar, laбoratoriya ва amaliy mashg‘ulotlariда og‘zaki so‘roв, test o‘tkazish, suhбat, nazorat ishi, kolloквium, uy вazifalarini tekshirish ва shu каби boshqa shakllarда o‘tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat – semestr davomiда o‘quв dasturininг terishli (fanninг бir necha maвzularini o‘z ichiга olгan) бo‘limi turallanгandan keyin talaбaninг бilim ва amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash ва бaholash usuli. Oraliq nazoratninг soni (бir semestrда ikki martadan ko‘p o‘tkazilmasliri lozim) ва shakli (ёzma, og‘zaki, test ва hokazo) o‘quв faniга ajratilгan umumiy soatlar hajmidan keliб chiqqan holda бelrilanadi;

yakuniy nazorat – semestr yakuniда muayyan fan бo‘yicha nazariy бilim ва amaliy ko‘nikmalarni talaбalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini бaholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha ва iбoralarга asoslanгan **“Yozma ish”** (tiббiёt oliy ta’lim muassasalari uchun **“Yozma ish”** ёki **OTKS** (об’ektив tizimlashtirilгan klinik sinoв)) shakliда o‘tkaziladi.

Ta’lim yo‘nalishi ва mutaxassisliklari ayrim fanlarininг xususiyatlaridan keliб chiqqan holda fakultet Ilmiy kenгashi qarori asosiда ko‘pi бilan **40%** fanlardan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarда (og‘zaki, test ва hokazo) o‘tkazilishi mumkin.

7. Oraliq nazoratni o‘tkazish jaraёni kafedra mudiri tomonidan tuzilгan komissiya ishtirokiда davriy raвishda o‘rганiб boriladi ва uni o‘tkazish tartiбlari бuzilгan hollarда, oraliq nazorat natijalari бekor qilinishi mumkin. Bunday hollarда oraliq nazorat qayta o‘tkaziladi.

8. Oliy ta’lim muassasasi rahбarininг buyrug‘i бilan ichki nazorat ва monitorinг bo‘limi rahбarliriда tuzilгan komissiya ishtirokiда yakuniy nazoratni o‘tkazish jaraёni davriy raвishda o‘rганiб boriladi ва uni o‘tkazish tartiбlari бuzilгan hollarда, yakuniy nazorat natijalari бekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o‘tkaziladi.

9. O‘quв yili turaranidan keyin reytinг nazorati natijalariга ko‘ra talaбalarni keyinri kursга o‘tkazish to‘g‘risiда бelrilanгan tartiбda qaror qaбul qilinadi.

III. Baholash tartiбi ва mezonlari

10. Talaбalarninг бilim saвiyasi, ko‘nikma ва malakalarini nazorat qilishninг reytinг tizimi asosiда talaбaninг har бir fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi бallar orqali ifodalanadi.

11. Har бir fan bo‘yicha talaбaninг semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **100 бallik** tizimda бaholanadi.

Ushбu 100 бall nazorat turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

yakuniy nazoratга – **30 бall**;

joriy ва oraliq nazoratlarга – **70 бall** (fanninг xususiyatidan keliб chiqqan holda **70 бall** kafedra tomonidan joriy ва oraliq nazoratlarга taqsimlanadi).

12. Talaбaninг reytinг daftarchasiга alohiда qayd qilinadigan kurs ishi (loyihasi, hisoб-rrafik ishlari), malakaвiy amaliёt, fan (fanlararo) bo‘yicha yakuniy davlat attestasiyasi, bitiruв malakaвiy ishi ва maristratura talaбalarininг ilmiy-tadqiqot ва ilmiy-pedagorik ishlari, maristrlik dissertasiyasi bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi – **100 бall** tizimda бaholanadi.

14. Talaбaninг fan bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaвiy mezonlar (keyinri o‘rinlarda namunaвiy mezonalar деб yuritiladi) taвsiya etiladi:

a) **86-100 бall** uchun talaбaninг бilim darajasi quyidagilarга javoб berishi lozim:

xulosa ва qaror qaбul qilish;

ijodiy fikrlay olish;

mustaqil mushohada yurita olish;

olгan бilimlarini amalda qo‘llay olish;

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo‘lish.
b) **71-85** ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:
mustaqil mushohada yurita olish;
olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish;
mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo‘lish.
v) **55-70** ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:
mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo‘lish.
g) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi **0-54** ball bilan baholanishi mumkin:
aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik;
bilmaslik.

15. Namunaviy mezonlar asosida muayyan fandan joriy va oraliq nazoratlar bo‘yicha aniq mezonlar ishlab chiqilib, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi va talabalarga e’lon qilinadi.

16. Namunaviy mezonlarga muvofiq mutaxassislik fanlar bo‘yicha tayanch oliy ta’lim muassasalari tomonidan yakuniy nazorat uchun baholashmezonlari ishlab chiqilib, oliy ta’lim muassasasi Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi va turdosh oliy ta’lim muassasalariga yetkaziladi.

17. Talabalarning o‘quv fani bo‘yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

18. Talabaning fan bo‘yicha bir semestrdagi reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{R_f} = \frac{V \bullet O'}{100}$$

bu yerda:

V– semestrda fanga ajratilgan umumiy o‘quv yuklamasi (soatlarda);

O' – fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi (ballarda).

19. Fan bo‘yicha joriy, oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy balning **55 foizi** saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to‘plagan talabalar yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy va oraliq nazorat turlari bo‘yicha **55** va undan yuqori balni to‘plagan talaba fanni o‘zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo‘l qo‘yiladi.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida fan bo‘yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarning har biriga ajratilgan balning **55 foizi** saralash ball qilib belgilanadi va bunda joriy va oraliq nazoratlarning har biriga ajratilgan balning **55** va undan yuqori foizidagi balni to‘plagan talabalar ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kiritiladi.

20. Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to‘plagan ballari yig‘indisiga teng.

IV. Nazorat turlarini o‘tkazish muddati

21. Oraliq va yakuniy nazorat turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o‘tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrning oxirgi **2 haftasi** mobaynida o‘tkaziladi.

22. Talaba fan bo‘yicha kurs loyihasi (ishi)ni ushbu fan bo‘yicha to‘plagan ballari umumlashtirilishiga qadar topshirishi shart.

23. Joriy va oraliq nazoratlarda saralash ballidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turiga cha, so‘nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratga cha bo‘lgan muddat beriladi.

Kasalliki sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o‘qishni boshlaganidan so‘ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

24. Talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo‘yicha to‘plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo‘lsa ёki semestr yakunida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha to‘plangan ballari yig‘indisi **55 baldan** kam bo‘lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida semestr yakunida fan bo‘yicha joriy, oraliq ёki yakuniy nazorat turlarining har biri bo‘yicha saralash balidan kam ball to‘plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr turaganidan keyin qayta o‘zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida fanni o‘zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko‘ra belgilangan tartibda rektorning buyrug‘i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

25. Talaba nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, fan bo‘yicha nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda

fakultet dekaninin taqdimnomasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan **3 (uch) a’zodan** kam bo‘lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini bildiradi.

26. Baholashning o‘rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o‘quv bo‘limi hamda ichki nazorat va monitoring bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi.

V. Reyting natijalarini qayd qilish va tahlil etish tartibi

27. Talabaning fan bo‘yicha nazorat turlarida to‘plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasining “**O‘quv rejasida ajratilgan soat”** ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o‘quv yuklama soatlari, **“Fandan olingan baho”** ustuniga esa **100 ballik** tizimdagi o‘zlashtirishi qo‘yiladi.

Talabaning saralash balidan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi.

28. Har bir fan bo‘yicha o‘tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh jurnali hamda qaydnomada qayd etiladi va shu kunning o‘zida (nazorat turi ёzma ish shaklida o‘tkazilgan bo‘lsa, **2 (ikki) kun muddat ichida)** talabalar e’tiboriga yetkaziladi.

29. Yakuniy nazorat natijalariga ko‘ra fan o‘qituvchisi talabalarning fan bo‘yicha reytingini aniqlaydi hamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to‘ldiradi.

30. Talabaning reytingi uning bilimi, ko‘nikmasi va malakalari darajasini belgilaydi. Talabaning semestr (kurs) bo‘yicha umumiy reytingi barcha fanlardan to‘plangan reyting ballari yig‘indisi orqali aniqlanadi.

31. Talabalar umumiy reytingi har bir semestr va o‘quv yili yakunlangandan so‘ng e’lon qilinadi.

32. Diplom ilovasi ёki akademik ma’lumotnomani dekanat tomonidan rasmiylashtirishda fan bir necha semestr davom etgan bo‘lsa, reytinglar yig‘indisi olinadi.

Talabaga imtiёzli diplom belgilashda uning har bir semestr yakunidagi fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi hisobga olinadi.

33. Talabalarning nazorat turlari bo‘yicha erishgan natijalari kafedralar, dekanatlar va o‘quv-metodik bo‘linmalarida kompyuter xotirasiga kiritilib, muntazam ravishda tahlil qilib boriladi.

34. Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari kafedra yig‘ilishlari, fakultet va oliy ta’lim muassasasi Ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

VI. Yakuniy qoidalar

35. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi test baholari va reyting ballarining xolislirini tekshirishni tashkil etadi va nazorat qiladi.

36. Ushbu Nizomda belgilangan masalalar bo‘yicha kelib chiqqan nizolar qonun hujjatlari asosida hal qilinadi.

37. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Xalq ta’limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, “O‘zbekiston temir yo‘llari” DAK, Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi va Navoiy kon-metallurgiya kombinati bilan kelishilgan.

BAHOLASH MEZONI

“O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni
Ballar taqsimoti

Fan	70 ball				30 ball
	JB 35 ball		OB 35 ball		YaB
	amaliy	Mustaqil ish	Ma’ruza uchun	Mustaqil ish	Turi

	soni	ball	jami	soni	ball	jami	Soni	ball	jami	soni	ball	jami	
1-semestr	1	25	25	1	10	10	1	25	25	1	10	10	og‘zaki
2-semestr	1	25	25	1	10	10	1	25	25	1	10	10	Yozma
3-semestr	1	25	25	1	10	10	1	25	25	1	10	10	Yozma
4-semestr	1	25	25	1	10	10	1	25	25	1	10	10	Yozma

NAZORAT TURLARINI O‘TKAZISH TARTIBI

4. Joriy nazorat o‘tkazish tartibi:

Ushbu nazorat turi auditoriyada akademik guruhning barcha talabalari ishtirokida quyidagt shakllarda o‘tkaziladi:

- uy vazifalarini tekshirish;
- amaliy mashg‘ulotlarni tekshirish;
- test sinovlari o‘tkazish;
- nazorat ishlarini o‘tkazish;
- og‘zaki so‘rov.

5. Oraliq nazoratni o‘tkazish tartibi:

Ushbu nazorat turi auditoriyada potok yoki akademik guruhdagi barcha talabalar ishtirokida quyidagi shakllarda o‘tkaziladi:

- kollokvium;
- og‘zaki so‘rov;
- test sinovlari o‘tkazish;
- yozma ish.

6. Yakuniy nazoratni o‘tkazish tartibi:

Ushbu nazorat turi auditoriyada potok yoki akademik guruhning barcha talabalari ishtirokida “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fanidan 1-semestrda “og‘zaki”, 2-3-4-semestrlarda “Yozma ish” shaklida o‘tkaziladi. Savollar variant ko‘rinishida ham berilishi mumkin.

“O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat 1 marta o’tkaziladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat shakli (yozma, og‘zaki, kollokvium, test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilandi;

yakuniy nazorat (YaN) – semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan 1-semestrda “og‘zaki”, 2-3-4-semestrlarda “Yozma ish” shaklida o‘tkaziladi.

ON o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o‘tkaziladi.

Universitet rektorining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o‘tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

“O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fani bo‘yicha talabalarning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi maksimal 100 ballik tizimda baholanadi.

YaN-30 ball, qolgan 70 ball esa JN-35 ball va ON-35 ball qilib taqsimlanadi

Talabaning “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fani bo`yicha o`zlashtirish ko`rsatkichi quyidagi mezonlar asosida baholanadi

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi kerak	A’lo	• xulosa va qaror qabul qila olish; • ijodiy fikrlay olish; • mustaqil mushohada yurita bilish; • olgan bilimlarini amalda qo`llay olish ko`nikmalariga ega bo`lish; • mavzular mohiyatini to`la bilish va aytib bera olish; • boy uslubiy tasavvur va fikrlashga ega bo`lish; • “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” faniga oid termin va tushunchalarni izohlay olish;
71-85 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi kerak	Yaxshi	• mustaqil mushohada yurita olish; • auditoriyada olgan bilimlarini amalda qo`llay ola bilish; • mavzular mohiyatini bilish, aytib berish; • “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” faniga oid termin va tushunchalarni izohlay olish;
55-70 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi kerak	Qoniqarli	• uslubiy xolatlar mohiyatini tushunish; • mavzular mohiyatini bilish, aytib berish; • “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” faniga oid termin va tushunchalarni izohlay olish;
0-54 ball bilan talabaning bilim darajasi quyidagi holatlarda baholanadi	Qoniqarsiz	• uslubiy xolatlar mohiyatini tushunib yetmaslik; • “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fani bo’yicha aniq tasavvurga ega bo`lmaslik; • “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” faniga oid termin va tushunchalarni izohlay bilmaslik;

Fan bo‘yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

Talabalarning o‘quv fani bo‘yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabaning fan bo‘yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $R = \frac{V \cdot Q}{100}$ bu yerda:

V - semestrda fanga ajratilgan umumiy o‘quv yuklamasi (soatlarda);

Q -fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo‘yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to‘plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo‘yicha 55 ball va undan yuqori ballni to‘plagan talaba fanni o‘zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo‘l qo‘yiladi.

Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy balli har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to‘plagan ballari yig‘indisiga teng.

ON va **YaN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o‘tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o‘tkaziladi.

JN va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi.

Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo‘yicha to‘plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo‘lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha to‘plagan ballari yig‘indisi 55 baldan kam bo‘lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, fan bo‘yicha nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan 3 (uch) a’zodan kam bo‘lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o‘rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o‘quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar JN dan to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko‘rsatkichlar	JN ballari	
		maks	O‘zgarish oralig‘i
1	Darslarga qatnashganlik va o‘zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg‘ulotlardagi faolligi, amaliy mashg‘ulot daftarlarining yuritilishi va holati	10	0-10
2	Mustaqil ta’lim topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo‘yicha uy vazifalarini bajarilish va o‘zlashtirishi darajasi.	10	0-10
3	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	15	0-15
Jami JN ballari		**35**	**0-35**

Talabalar ON dan to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko‘rsatkichlar	ON ballari	
		maks	O‘zgarish oralig‘i
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma’ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to‘liqligi.	10	0-10
2	Talabalarning mustaqil ta’lim topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarishi va o‘zlashtirish.	10	0-10
3	Og‘zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo‘yicha	15	0-15
Jami ON ballari		**35**	0-35

Yakuniy nazorat 1-semestrda “Og’zaki”, 2-3-4-semestrlarda “Yozma ish” shaklida o’tkazilishi belgilangan. U maksimal 30 ballik tizimda o’tkaziladi.

Yakuniy nazoratda “Og’zaki” javoblarnilarni baholash mezoni

“O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fani bo`yicha talabaning og’zaki javoblari bo’yicha o`zlashtirish ko`rsatkichi yuqorida ko’rsatilgan mezonlar asosida baholanadi.

Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezoni

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov 15 variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variant 3 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar asosida tuzilgan bo‘lib, fanning barcha mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0-10 ball oralig‘ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to‘plashi mumkin. Yozma sinov bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo‘yilgan o‘zlashtirish ballari qo‘shiladi va yig‘indi talabaning yakuniy nazorat bo‘yicha o‘zlashtirish bali hisoblanadi.